Рус адабиёт асарларидан

M. A. SHOLOXOV

TINCH DON

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____	

821
Sh 76

5.0.

Rus adabiyoti durdonalari

MIXAIL ALEKSANDROVICH

SHOLOXOV

TINCH DON

TO'RT KITOBLI ROMAN

IKKINCHI KITOB

T 43

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.161.1-31
KBK 84(2Ros-Rus)
Sh 76

Rus tilidan MIRKARIM OSIM tarjimasi

Sholoxov M.A.
Sh 76 Tinch Don [Matn]: roman, 2-kitob / M.A. Sholoxov. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 408 b.

ISBN 978-9943-6585-8-5

«Tinch Don» romanining ikkinchi kitobida 1917-yilning oxiri va 1918-yil boshlarida Donda ro'y bergan aksilinqilobiy chiqishlarga qarshi olib borilgan kurash yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Yozuvchi bu voqealarda qatnashgan turli tabaqa vakillarining hamda Don kazaklaridan chiqqan inqilobchilarning yorqin obrazlarini yaratgan.

UO'K 821.161.1-31
KBK 84(2Ros-Rus)

TOSHKENT SHAHAR YASHNOBOD TUMANI
№ 2021/N9-26
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

ISBN 978-9943-6585-8-5

© M.A. Sholoxov, 2021
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021

TO‘RTINCHI QISM

I

Bir ming to‘qqiz yuz o‘n oltinchi yil. Oktabr oyi. Kechasi. Shamol esib, yomg‘ir yog‘moqda. O‘rmonzor. Zirk daraxti qoplagan botqoqlik yoqasidagi okoplar. Oldinda simtikan to‘siqlar. Okoplar ichi sovuq, loygarchilik. Kuzatuvchinnng namiqqan to‘sig‘i g‘ira-shira yiltillaydi. Yerto‘lalarda onda-sonda chiroqlar miltillab yonmoqda. Ofitserlar turadigan yerto‘lalardan birining eshigi oldida chorpahildan kelgan bir ofitser bir lahzagina to‘xtaldi; ho‘l panjalari bilan shinelining tugmalarini tez-tez yechdi, yoqasining suvini qoqdi, loyga qorishgan bir tutam poxolga naridan beri etigini artdi-da, eshikni itarib, engashganicha yerto‘la ichiga kirdi.

Kichkinagina kerosin lampadan tushib turgan sarg‘ish shu’la yerto‘laga kirgan kishining yuzini yarqiratib ko‘rsatdi. Taxta karavotda tujurkasining oldini ochib yotgan ofitser o‘rnidan turdi-da, paxmaygan, oq aralash sochini qo‘li bilan tarab, esnadi.

— Yomg‘ir yog‘yaptimi?

— Ha, yog‘yapti, — dedi kelgan mehmon. — Shunday deb shinelini va jiqqa ho‘l furajkasini kiraverishdagi mixga osib qo‘ydi. — Bu yer issiq ekan, dimiqib ketibdi.

— Biz haligina pechga o‘t yoquvdik. Shunisi xunukki, yerdan suv sizib chiqyapti. Jin urgur yomg‘ir tinkamizni qurityapti. Xo‘sh, siz bunga nima deysiz, Bunchuk?

Bunchuk qo‘llarini ishqalab engashdi-da, pechka yoniga cho‘nqayib o‘tirdi.

— Yerga poxol to‘shama soling. Bizning yerto‘lamiz ajoyib: yalangoyoq yurish mumkin. Listnitskiy qayoqda?

— Uxlayapti.

— Ancha bo‘ldimi?

— Okoplarni aylanib qaytgach, uxlagani yotdi.

— Uyg'otsak bo'lar deyman?

— Mayli, uyg'oting. Shaxmat o'ynaymiz. Bunchuk ko'rsatkich barmog'i bilan qalin, o'siq qoshlaridan yomg'ir suvini sidirib tashlab, boshini ko'tarmasdan:

— Yevgeniy Nikolayevich! — deb sekin chaqirdi.

— Dong qotib qopti, — dedi uf tortib, sochiga oq oralagan ofitser.

— Yevgeniy Nikolayevich!

— Ha? — deb Listnitskiy tirsagiga tiranib boshini ko'tardi.

— Shaxmat o'ynaymizmi?

Listnitskiy karavotdan oyog'ini osiltirib, qizg'ish, do'mboqqina kafti bilan yumshoq ko'kragini anchagacha ishqalab o'tirdi.

O'yin tugay deganda beshinchi sotnya ofitserlari — yasovul Kalmikov bilan yuzboshi Chubovlar kelib qolishdi.

— Yangilik! — dedi bo'sag'adan turib Kalmikov. – Mish-mishlarga qaraganda polkimizni jo'natisharmish.

— Qayoqdan eshitding? — deb so'radi mo'ysafidnamo yasovul yordamchisi Merkulov, ishonqiramaganday miyig'ida kulib.

— Ishonmayapsizmi, Petya tog'a?

— Rostini aytsam, ishonmayapman.

— Batareya komandiri telefon orqali xabar qildi. U qayoqdan bilgan deysanmi? Axir u kechagina diviziya shtabidan keldi-ku!

— Bir hammomlashsak chakki bo'lmasdi-da. Chubov maza qilayotganday kulib, go'yo orqasiga hammom supurgisi bilan urayotganday harakat qildi. Merkulov kulib yubordi.

— Yerto'lamizga qozon qursa bas, suvdan ko'pi yo'q.

— Judayam zax bosib ketibdi-da, og'aynilar, — deb g'o'ng'illadi Kalmikov yog'och devorlarga va bilchillagan yerga qarab.

— Shunday yonginamiz botqoq.

— Xuddi onangizning qornida yotganday botqoqda yotganingizga shukur qilinglar, — deb gapga aralashdi Bunchuk. — Yalanglikdagilar hujumga o'tgan, biz esa «bu yerda bir haftada bir oboymadan o'q sarflaymiz, xolos.

— Bu yerda sasib-chirib o'tirgandan ko'ra, hujumga o'tganam yaxshiroq.

— Petya tog'a, kazaklarni hujumda nobud qilish uchun saqlayotganlari yo'q. Siz sodda mug'ambirlik qilyapsiz.

— Bo‘lmasa, seningcha nima uchun saqlayotibdilar? — Hukumat eski odati bo‘yicha, kerak paytda kazaklarga tayanadi.

— Safsata sotyapsan! — deb qo‘l siltadi Kalmikov.

— Nega safsata bo‘lsin?

— Ha-da.

— Qo‘ysang-chi, Kalmikov! Haqiqatni rad etib bo‘lmaydi.

— Qanaqa haqiqat...

— Bu hammaga ma’lum narsa-ku, axir. Nega o‘zingni bilmaslikka olyapsan?

— Diqqat, janob ofitserlar! — deb qichqirdi Chubov va artistona ta’zim qilib Bunchukni ko‘rsatib: — Xorunjiy Bunchuk hozir sotsial-demokratlar ta’birnomasidan rivoyat keltiradi, — dedi.

— Kunimiz maynavozchilikka qoldimi? — dedi Bunchuk miyig‘ida kulib, Chubov bilan ko‘z urishtirib. — Gapiravering, bilganingizcha. Men sizga aytsam, biz o‘tgan yilning yarmidan beri urush degan narsani ko‘rganimiz yo‘q. Pozitsion urush boshlangandan beri kazak polklarini pana joylarga tiqishtirishgan, to payti kelgunga qadar kovakda saqlashadi.

— Keyin-chi? — deb so‘radi Listnitskiy shaxmatni yig‘ishtirib qo‘yaturib.

— Keyin, frontda g‘alayon chiqqandan so‘ng (bu muqarrar gap, urush askarlarning joniga tegdi, dezertirlarning ko‘payayotgani bunga shohiddir), isyonlarni bostirish, tinchitish uchun kazaklarni ishga solishadi. Hukumat kazak qo‘shinlarini palaxmondagi tosh singari saqlaydi. Kerak vaqtda hukumat bu tosh bilan revolyusiyaning miyasini pachaqlamoqchi bo‘ladi.

— Opqochyapsan, azizim! Taxminlaring asossiz. Avvalo, voqealarning borishini oldindan aytib bo‘lmaydi. Kelgusida isyonlar va hokazolar chiqishini sen qaydan bilasan? Ittifoqchilar nemislarni tor-mor qildi, urush ajoyib g‘alaba bilan tugadi, deb faraz qilaylik, xo‘sh, shunda sen kazaklarga qanday rol berasan? — deb e’tiroz bildirdi Listnitskiy.

Bunchuk tirjayib qo‘ydi.

— Urush tugaydiganga o‘xshamaydi, buning ustiga, yana ajoyib g‘alaba bilan...

— Urushni cho‘zib yubordilar.

— Yana bundan ham cho‘zadilar hali.

— O‘zing ta’tildan qachon qaytding? — deb so‘radi Kalmikov.

— O‘tgan kuni.

Bunchuk lablarini cho‘chchaytirib, og‘zidan halqa-halqa tutun chiqardi-da, papiros qoldig‘ini tashlab yubordi.

— Qayerlarda bo‘lding?

— Petrogradda.

— Xo‘sh, qalay u yer? Poytaxt qaynayotgan bo‘lsa kerak? Bir haftagina bo‘lsa ham, Petrogradda turish uchun men istagan narsamni berishga tayyor bo‘lar edim.

— Xursand bo‘ladigan joyi yo‘q, — dedi salmoqlab Bunchuk. — Non yetishmaydi. Ishchi rayonlarda ochlik, norozilik, besaranjomlik...

— Biz bu urushdan omon chiqmasak kerak, nima deb o‘ylaysizlar, janoblar, — dedi va javob kutgandek hammaga bir-bir qarab chiqdi Merkulov.

— Rus-yapon urushi ming to‘qqiz yuz beshinchi yil inqilobining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi, — bu urush yangi inqilob bilan tugaydi. Yolg‘iz inqilob bilangina emas, balki fuqarolar urushi bilan ham.

Bunchukning gapiga quloq solib o‘tirgan Listnitskiy xorunjiyning gapini kesmoqchi bo‘lganday harakat qilib qo‘ydi. Keyin o‘rnidan turib, tumtaygancha yerto‘la ichida u yoqdan bu yoqqa yurdi. So‘ngra munkayib o‘tirgan Bunchuk tomonga ishora qilib zahrini sochdi:

— Hayronmanki, ofitserlarimiz orasida mana shunaqa unsurlar bor. Taajjubki, uning vatanga va urushga munosabati hozirga dovur menga ravshan emas... Bir kuni suhbat vaqtida dudmol bir gap qildi, ammo uning bu urushda bizning mag‘lub bo‘lishimiz tarafdori ekanini tushunib olmoq uchun o‘sha gapi kifoya edi. Gapingni to‘g‘ri tushunibmanmi, Bunchuk?

— Men mag‘lubiyat tarafdoriman.

— Nima sababdan? Menimcha, sening siyosiy maslaging qanday bo‘lmasin, o‘z vataningga mag‘lubiyat tilashing — bu millatga xiyonatdir. Bu — har qanday durust odam uchun sharmandalikdir!

— Esingizda bordir, bolsheviklarning Dumadagi fraksiyasi hukumatga qarshi tashviqot qilib mag‘lubiyatga yo‘l ochib bergan edi, — deb gapga aralashdi Merkulov.

— Sen, Bunchuk, bolsheviklarning fikriga qo'shilasanmi? — deb savol tashladi Listnitskiy.

— Modomiki, men mag'lubiyat tarafdori ekanimni izhor qilyapman, demak, ularning fikrlariga qo'shilaman ham. O'z partiya fraksiyamning fikriga qo'shilmaslik — RSDRP a'zosi bo'lgan men bolshevik uchun kulgili bo'lardi. Meni eng hayratda qoldirgan narsa shuki, Yevgeniy Nikolayevich, sendek ziyoli odam — siyosiy ko'r.

— Men, avvalo, podshoga sodiq soldatman. «Sotsialist o'rtoqlar»ning nusxasini ko'rsam zardam qaynaydi.

Bunchuk ichida: «Sen, avvalo, befahm kallavaramsan, so'ngra esa o'ziga bino qo'ygan ahmoq bir ofitsersan» deb, kulgidan o'zini tiydi.

— Haqrost...

Merkulov xuddi uzr aytgandek qilib:

— Harbiy muhitda ahvol og'ir edi. Bizlar siyosatdan uzoqda, bir chekkada turardik, — dedi.

Yasovul Kalmikov salqi mo'ylovlarini burab, qiyiq va o'tkir ko'zlarini chaqnatib o'tirardi. Chubov karavotda yotar va suhbatdoshlarining gaplariga quloq berib, devorga qoqilgan suratni tomosha qilardi. Merkulov ishlagan bu surat tamaki tutunidan sarg'ayib ketgandi. Suratdagi yarim yalang'och sohibjamol fahshona nazar bilan zoriqqanday o'zining ochiq siynasiga ko'z tashlab, chap qo'lining ikki barmog'i bilan uni chimchilab turar, sinchalog'i sal ko'tarilgandi. Kipriklari qovog'i ostiga soya tashlagan, ko'zlarida iliq tabassum. Uning andek ko'tarilgan yelkasi sirg'alib tushay degan ko'ylagini ushlab turar, yelka chuqurlarida shu'la o'ynardi. Bu ayolning qomatida erkin nafosat va chinakam go'zallik bor edi, rasmning qoramtir tusi tasvirga sig'maydigan darajada go'zal ediki, Chubov beixtiyor jilmayib qarab, mahorat bilan ishlangan bu suratga mahliyo bo'lib qoldi. Gapirilayotgan gaplarni eshitib tursa-da, lekin miyasiga kirmas edi.

U suratdan ko'zini uzib, o'rinsiz bir luqma tashladi:

— Voajabo!

Holbuki Bunchuk o'z gapini:

— ...Ko'ngillaring to'q bo'lsin, monarxiyaning cheklanmagan hokimiyatga asoslangan davlat tuzumi yo'q qilinadi, — deb tamomlagan edi.

Listnitskiy tamaki o‘rar ekan, zaharxanda qilib dam Bunchukka, dam Chubovga qarar edi.

— Bunchuk! — dedi Kalmikov. — Shoshmang, Listnitskiy!.. Eshityapsizmi, Bunchuk?.. Xo‘p, mayli, aytaylik, bu urush fuqarolar urushiga aylanib ketdi ham.., xo‘sh, oqibati nima bo‘ladi? Aytaylik, sizlar podshoni yiqitdinglar... Sizningcha, qanaqa usulli idora bo‘lishi lozim? Hokimiyat qanaqa bo‘ladi?

— Proletariat hokimiyati bo‘ladi.

— Parlamentmi?

— Past ketdingiz! — deb kuldi Bunchuk.

— Bo‘lmasa, nima?

— Ishchilar diktaturasi bo‘lishi kerak.

— Shunaqa deng!.. Ziyolilar bilan dehqonlarning roli qanday bo‘ladi?

— Dehqonlar bizga ergashadi, ongli ziyolilarning bir qismi ham, qolganlari esa... Qolganlarni esa mana bundoq qilamiz... — Bunchuk qo‘lidagi qog‘ozni tezlik bilan g‘ijimlab buradi. Uni silkitib, g‘ijinib: — Bo‘lmasa, shunday qilamiz, — deb qo‘ydi.

— Juda balandparvozlik qilyapsiz-ku... — deb miyig‘ida kuldi Listnitskiy.

— Baland joyga qo‘namiz ham-da, — deb gapini tamom qildi Bunchuk.

— Qo‘nadigan joyingizga avvalroq poxol to‘shab qo‘ying...

— Nima noma’qulchilik qilib, frontga ko‘ngilli bo‘lib keldingiz, hatto ofitserlik martabasigacha yetdingiz? Bu gapingiz qilgan ishingizga zid-ku? Ta-a-j-jub! Urushga qarshi, he-he-he... o‘z... sinfdoshlarini qirishga qarshi bu kishi... birdaniga... xorunjiy bo‘p qopti!

Kalmikov etigining qo‘njiga shapatilab, hoholab, beg‘araz kuldi.

— Siz, o‘z pulemyotchilaringiz bilan qancha nemis ishchisini qirdingiz? — deb so‘radi Listnitskiy.

Bunchuk shinelining yon cho‘ntagidan katta bir o‘ram qog‘ozni olib, Listnitskiyga orqa o‘girib turib, anchagacha titkilandi. So‘ngra stol yoniga borib, sarg‘ayib ketgan eski gazeta sahifasini do‘mboq kafti bilan tekisladi.

— Qancha nemis ishchisini otganim — bu muammo! Ko‘ngilli bo‘lib kelishimning sababi shuki, baribir, meni olishardi. O‘ylay-

manki, bu yerlarda, okoplarda olgan bilimim kelgusida... Kelajakda yarab qolar. Bunda shunday deyilgan...

Shunday deb, u Leninning so'zlarini o'qidi.

— «Hozirgi zamon qo'shinini olaylik. Tashkilotning eng yaxshi namunalaridan biri. Bu tashkilot shuning uchun yaxshiki, u ixcham. Shu bilan birga, millionlab kishilarning irodasini birlashtira oladi. Bugun bu millionlab kishilar o'z uylarida, mamlakatning turli burchaklarida o'tiribdilar. Ertaga mobilizatsiya to'g'risida buyruq bo'lsa, ular tayinlangan joyga to'planadilar. Bugun ular transheyalarda yotishibdi, ba'zan oylab ham yotadilar. Lekin ertasiga hujumga ham o'tib ketaveradilar. Bugun ular o'qdan va shrapnellardan yashirinib, mo'jiza ko'rsatadilar. Ertaga ular ochiq jangda jasorat ko'rsatadilar. Bugun ularning ilg'or otryadlari yer ostiga minalar ko'madilar, ertaga ular uchuvchilarning ishorasi bilan o'nlab chaqirimlarga siljiydilar. Mana shuni tashkilot deydilar. Bunda millionlab kishilar bir maqsad yo'lida bir irodadan ilhomlanib, o'zgargan sharoit va kurash talablariga monand qilib, o'z muomala va harakatlarining shaklini, o'z joylarini va ish usullarini, qurol-yarog'larini o'zgartiradilar.

Ishchilar sinfining burjuaziyaga qarshi kurashiga ham shu narsa taalluqlidir. Bugungi kunda revolyutsion situatsiya mavjud emas...»

— «Situatsiya» nima degani? — deb gapni bo'ldi Chubov.

Bunchuk shu topda uyqudan uyg'ongan odamdek qimirlab qo'ydi va berilgan savolni anglab olmoq uchun boshmaldog'i bilan do'ng peshonasini ishqaladi.

— Men «situatsiya» degan so'zning ma'nosida so'rayapman.

— Tushunishga tushunaman-u, lekin uddalab tushuntirolmayman. — Bunchuk bolalardek ma'sumona va sho'x kuldi; bu kulgi uning tumtaygan yalpoq yuziga mos tushgan edi. — Situatsiya — bu vaziyat, sharoit degani bo'lsa kerak. Shunday emasmi?

Listnitskiy boshini mujmal qilib irg'ab qo'ydi.

— U yog'ini o'qi.

— «Bugungi kunda inqilobiy vaziyat mavjud emas. Ommani g'alayonga keltirish, uning faoliyatini kuchaytirish uchun sharoit yo'q, bugun sening qo'lingga saylov byulleteni berishadi, ol uni, turmaga tushishdan qo'rqib, kursilariga yopishib olgan odamlarni parlamentdagi issiqqina o'rinlarga o'tirg'izib qo'yish uchun emas, balki

o‘z dushmanlaringni savalash uchun undan foydalana bil. Ertasiga saylov byulletenini tortib olib, seŋing qo‘lingga yarog‘-aslaha va so‘nggi texnika bilan uskunalangan ajoyib tezotar to‘p beradilar, bu ajal vayrongarchilik qurollarini qo‘lingga ol, urushdan qo‘rqadigan ko‘ngilchan mijg‘ovlarning gapiga quloq solma; dunyoda shunday narsalar ko‘pki, ishchilar sinfini ozod qilish uchun ularni o‘t va temir bilan yo‘qotish lozim bo‘ladi, agar omma o‘rtasida g‘azab va norozilik o‘ssa, agar inqilobiy vaziyat mavjud bo‘lsa, yangi tashkilotlar tuzishga kirish hamda o‘z hukumating va o‘z burjaziyangga qarshi foydali ajal, vayronagarchilik qurollaridan foydalanib, ishga sol...»

Bunchuk o‘qib tugatib bo‘lmasdan eshikni taqillatib, beshinchi sotnya vaxmistri yerto‘laga kirib keldi.

— Janob oliylari, — deb Kalmikovga murojaat qildi u. — Polk shtabidan ordinarets keldi.

Kalmikov bilan Chubov kiyinib chiqib ketishdi. Merkulov hushtak chalib surat sola boshladi. Listnitskiy mo‘ylovlarini chimdib, bir nimalarni o‘ylab, yerto‘lada u yoqdan bu yoqqa yurardi. Bir ozdan keyin xayrlashib, Bunchuk ham chiqib ketdi. U chap qo‘li bilan yoqasini, o‘ng qo‘li bilan shinelining etagini ushlab bilchillab yotgan xandaq ichidan yurib ketdi. Torgina xandaq ichida shamol izg‘irdi; muyulishlarga urilib, g‘uvullab aylanardi. Qorong‘ilikda ketayotgan Bunchuk negadir tirjayib kuldi. U yomg‘irdan zax bosib ketgan, chirindi zirk barglarining hidi anqigan o‘z yerto‘lasiga yetib keldi. Pulemyot komandasining boshlig‘i uyquda edi. Uning qoracha yuzida uyqusizlik alomatlari ko‘rinardi (uch kecha tinmay qartabozlik qilgan edi). Bunchuk soldatlik vaqtidan qolgan qopchig‘ini titkilab, eshik yonida ancha-muncha qog‘ozni yoqib yubordi, chalvarining cho‘ntagiga ikki banka konserva, bir necha siqim to‘pponcha o‘qi solib chiqib ketdi. Bir lahza lang ochiq qolgan eshikdan shamol kirib, ostona yonida kuydirilgan qog‘ozlarning kulini uchirib ketdi, sasib yonayotgan chiroqni o‘chirib qo‘ydi.

Bunchuk chiqib ketganidan keyin Listnitskiy besh daqiqacha indamay u yoq-bu yoqqa yurib, keyin stol yoniga keldi. Merkulov boshini qiyshaytirib surat solmoqda edi. Qo‘lidagi uchli qalami soya tushirmoqda edi. To‘rtburchak oq qog‘ozdan zo‘rma-zo‘raki ku-

lib turgan Bunchukning chehrasi qarab turardi, bu jilmayish odatda uning yuzini g'alati qilib ko'rsatardi.

Merkulov surat ushlagan qo'lini siltab:

— Vajohatini qarang-a, — dedi-da, boshini ko'tarib Listnitskiyga qaradi.

— Xo'sh, qanaqa? — deb so'radi Listnitskiy.

— Qanaqaligini xudo bilsin! — deb javob berdi Merkulov savolning mag'zini chaqib. — Juda g'alati yigit, ko'nglidagini endi ochdi, ko'p narsa menga ravshan bo'ldi, uning kimligini endi bilib oldim. Bilsang, uning kazaklar, xususan, pulemyotchilar orasida obro'si juda katta. Sen buni payqamaganmiding?

Listnitskiy dudmal qilib:

— Shundoq, — deb qo'ydi.

— Pulemyotchilarning hammasi bolshevik. Ularni shu holga solgan odam – Bunchuk. Bugun o'z sirlarini ochib tashlaganiga hayron qoldim. Nega? Qasdma-qasdlikka, azbaroyi xudo! Fikrlariga hech birimizning qo'shilmasligimizni biladi, lekin negadir yuragidagi bor gapni yashirmay aytdi-qo'ydi. Holbuki, u qiziqqonlardan emas. Xavfli odam.

Bunchukning bu g'alati qilig'i to'g'risida gapirar ekan, Merkulov suratni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, yechina boshladi. Jiqqa ho'l paypoqlarini pechkaga osib, soatini buradi, so'ngra papiros chekib olib o'rniga yotdi. Ko'p o'tmay uxlab qoldi. Listnitskiy chorak soat Merkulov o'tirgan taburetkaga joylashib oldi-da, ingichka qilib chiqarilgan qalamning uchini sindirib, suratning orqasiga katta-katta qilib yoza boshladi.

«Janob oliylari!

Ilgari men o'z shubhalarimni sizga bayon qilgan edim, bugun ular tamomila rost bo'lib chiqdi. Bizning polk ofitserlari bilan suhbatlashib o'tirarkan, xorunjiy Bunchuk (mendan tashqari beshinchi sotnya yasovuli Kalmikov, yuzboshi Chubov, uchinchi sotnya yasovuli yordamchisi Merkulovlar bor edi), o'z siyosiy maslagiga muvofiq, ehtimol, partiya rahbarlarining topshirig'iga ko'ra, o'zi bajarayotgan vazifalarni gapirib berdi, rostini aytsam, nima maqsadda bunday qilganini tushunolmadim. Yonida man qilingan bir o'ram qog'oz ham bor edi. Chunonchi, masalan, u o'z partiyasining Jenevada nashr etiladigan organi – «Kommunist»dan parchalar o'qib eshittirdi. Xo-

runjiy Bunchuk, shubhasiz, bizning polkimizda yashirin ish olib bormoqda (shu maqsadda polkka ko'ngilli bo'lib kelgan bo'lsa ham ajab emas), pulemyotchilar orasida tashviqot yurgizmoqda. Pulemyotchilar buzilganlar. Bunchukning zararli ta'siri polkning ma'naviy holatida ham yaqqol ko'rilmoqda — harbiy topshiriqlardan bosh tortish kabi hodisalar bo'ldi, bu to'g'rida men diviziya shtabining maxsus bo'limiga yuborgan edim va hokazo.

Xorunjiy Bunchuk yaqindagina ta'tildan qaytib kelgan (Petrogradda bo'lgan ekan), buzuvchilik varaqalarini juda ko'p keltiribdir; hozir endi zo'r ishtiyoq bilan ish olib borishga urinmoqda.

Yuqoridagilardan yakun chiqarib, quyidagi xulosaga keldim: a) xorunjiy Bunchukning aybi aniqlandi (uning suhbatida hozir bo'lgan janob ofiserlar ont ichib, mening gaplarimni tasdiqlashlari mumkin); b) Bunchukning revolyusion faoliyatiga xotima berish uchun darhol uni qamoqqa olib, ishini harbiy-dala sudiga topshirmoq zarur; v) darhol pulemyot komandasini birma-bir tekshiruvdan o'tkazib, xavfli kimsalarni bartaraf qilmoq, qolganlarni yo front orqasiga jo'natmoq yoki polk orasiga taratib yubormoq zarur.

Mening vatanga hamda podshoga bajon-u dil xizmat qilish niyatida ekanimni unutmang. Ushbu xatning ikkinchi nusxasini Korpus maxfiy bo'limiga yuborayotirman.

Yasovul Yevg. Listnitskiy.
20-oktabr 1916-yil. 7-uchastka».

Ertasiga ertalab Listnitskiy bu xatni chopar orqali diviziya shtabiga yubortirdi. Okop ustiga uyilgan ho'l tuproqning nariyog'idagi botqoqlik ustini tuman qoplab olgan, pag'a-pag'a tumanlar tikanli simga o'ralib qolgandek osilib qolgan. Xandaq ichi ikki enlik loy. Miltiq otish uchun qilingan teshiklardan loyqa suv oqib tushmoqda. Jiqqa ho'l, loyga belangan shinel kiygan kazaklar qalqon ustiga koteloklarini osib, choy qaynatmoqdalar, miltiqlarini devorga tirab qo'yib, cho'kkayib o'tirib, tamaki chekmoqdalar.

— Qalqon ustida olov yoqmang, deb necha bor aytildi! Nega siz, ablahlar tushunmaysiz? — deb o'shqirdi Listnitskiy tutab yotgan gulxan atrofida o'tirgan bir guruh kazaklar yoniga kelib.

Kazaklardan ikkitasi istar-istamas o'rnidan turdi, qolganlari shinellarining barini qaytarib olib, tamaki chekib o'tiraverdilar. Qu-

log‘ining burushib ketgan solinchog‘ida kumush isirg‘a likillab turgan sersoqol, qoracha kazak kotelok ostiga bir tutam cho‘pni itarib qo‘yib, javob qildi:

— Qalqonsiz qaynatishning ilojini topsak jon derdik-a, lekin janob oliy, usiz qanday qilib olov yondirib bo‘ladi? Qarang, hamma yoqni suv bosib yotibdi, sal kam to‘rt enlik keladi-ya.

— Darrov qalqonni ol!

— Bundan chiqdi, biz och-nahor o‘tirarkanmiz-da? Mayli, mayli... — dedi yuzi yalpoq cho‘tir kazak tumtayib, yoniga qarab.

— Men senga gapdonlikni ko‘rsatib qo‘yaman... ol deyapman qalqonni! — Listnitskiy etigining tumshug‘i bilan bir tepib kotelok ostida yonib turgan cho‘plarni to‘zitib yubordi.

Isirg‘ali sersoqol kazak g‘ijinib zarda bilan kotelokdagi qaynoq suvni to‘kib tashladi-da:

— Choy ichishni bizga kim qo‘yibdi, og‘aynilar, — deb po‘ng‘illadi.

Kazaklar churq etmay xandaq ichidan ketayotgan yasovulning orqasidan qarab qoldilar.

— Dilimizni siyoh qildi, ablah! Kazaklardan biri qayishli miltiqni kiftiga ilib olib, cho‘zib:

— E-e-eh!– deb xo‘rsindi.

To‘rtinchi vzvod uchastkasida Merkulov harsillab Listnitskiyning orqasidan quvib yetib oldi. Uning yangi charm tujurkasi g‘ijirlar, og‘zidan tamaki hidi gurkirab kelib turardi. U Listnitskiyni bir chekkaga chaqirib olib, nafasi tiqilib:

— Yangilikdan xabaring bormi? Bunchuk shu kecha qochibdi, — dedi bidirlab.

— Bunchuk-a? Ni-ma-a?

— Qochibdi. Anglayapsanmi? Pulemyotchilar komandasining boshlig‘i Ignatyevichning gapiga qaraganda (u, axir Bunchuk bilan bir yerto‘lada turadi-ku), u biznikidan chiqqanidan keyin qaytib kelmagan emish. Demak, bizning yerto‘ladan chiqa solib, juftagini rostlabdi... Ana, ko‘rdingmi!

Listnitskiy pensnesini uzoq ishqalab, ko‘zlarini qisib qo‘ydi.

— Sen tashvishga tushib qolding, deyman? — dedi Merkulov unga sinovchan nazar tashlab.

— Menmi? Esing joyidami o‘zi? Nega men tashvishga tushay! Sen faqat to‘satdan gapirib, meni dovdiratib qo‘yding, xolos.

II

Ertasiga ertalab vaxmistr xijolat tortib, Listkitskiy turgan yerto‘laga kirdi-da, ikkilanib turib:

— Janob oliy, bugun ertalab kazaklar okopdan manavi qog‘ozlarni topib olibdilar, — dedi. — Yaxshi ish bo‘lmadi. Men sizga shu xususda xabar bergani keldim. Boshimizga balo bo‘lmasaydi...

— Qanaqa qog‘ozlar? — deb so‘radi Listnitskiy karavotdan turib.

Vaxmistr kaftida g‘ijimlab turgan qog‘ozni uzatdi. Bir taxta qog‘oz ustida yozuv mashinasida bosilgan so‘zlar jimirlab ko‘rinib turardi.

Listnitskiy bir zumda o‘qib chiqdi:

Butun dunyo proletarlari, birlashingiz!

O‘RTOQ SOLDATLAR!

Bu la’nati urush ikki yildan beri davom etib kelmoqda. Ikki yildan buyon siz, birovlarning manfaatini himoya qilaman, deb transheyalarda jon olib, jon bermoqdasiz. Ikki yildan buyon barcha millat ishchilari va dehqonlarining qoni to‘kilmoqda. Bu xunrezlik natijasida yuz minglab odamlar nobud bo‘ldi, shikastlandi, yuz minglab xotin — beva, bolalar — yetim qoldi. Siz nima uchun urushyapsiz? Kimlarning manfaatini himoya etmoqdasiz? Chor hukumati yangi yerlarni urushib olish va u yerlarning xalqlarini asoratga solingan Polsha va boshqa millatlar singari ezish uchun millionlab kishilarni urush olovi ichiga tashladi. Jahon sanoat egalari o‘z fabrika va zavodlari mahsulotlarini sotish mumkin bo‘lgan bozorlarni tinchlik bilan taqsimlab ololmadilar, ko‘radigan foydalarini baham ko‘rishni istamadilar, — ular endi bozorlarni qurol kuchi bilan taqsimlab olmoqdalar, — siz, nodon xalq, ularning manfaatlari uchun o‘lim og‘ziga o‘zingizni otmoqdasiz, o‘zingiz singari mehnatkashlarni o‘ldirmoqdasiz.

Birodarlaringizning qonini to‘kishni bas qiling! Es-hushingizni yig‘ishtirib oling, mehnatkashlar! Xuddi o‘zingiz singari aldangan avstriyalik va nemis soldati emas, balki o‘z podshohingiz, o‘z fabrikantingiz va pomeshchiklaringiz sizlarning dushmanlaringizdir.

Miltiqlaringizni o‘shalarga qaratingiz. Nemis va avstriyalik askarlar bilan birodarlashing. Sizlarni xuddi vahshiy hayvonlar singari bir-biringizdan ajratib turgan tikanli sim to‘siqlar orqali bir-birlaringizga qo‘l uzating. Sizlar – mehnat ahllarisiz, qon talashib, qadoq bo‘lib ketgan qo‘llaringiz hali tuzalganicha yo‘q, talashadigan hech narsangiz yo‘q. Bitsin istibdod hukumati! Bitsin imperialistik urush! Yashasin butun dunyo mehnatkashlarining buzilmas do‘stligi!

So‘nggi satrlarni o‘qir ekan, Listnitskiy bo‘g‘ilib ketdi. Nafratga to‘lib, yaqinlashib kelayotgan falokatning og‘irligini oldindan sezib: «Ana, boshlandi!» deb o‘yladi. Listnitskiy polk komandiriga telefon qilib, bo‘lgan hodisa to‘g‘risida xabar berdi.

— Janob oliy, nima qilishni buyurasiz? — deb so‘radi nihoyat.

Telefon trubkasidan, go‘yo pashshaning g‘ing‘illashiga o‘xshash ovozlar orasidan generalning keskin so‘zlari eshitildi:

— Darhol vaxmistr va vzvod ofitserlari bilan tintuv qilinsin. Hamma, jumladan, ofitserlar ham tintilsin. Polk qachon almashtiriladi, deb shu bugunoq diviziya shtabidan so‘rayman. Ularni shoshiraman. Agar tintuv vaqtida biror narsa topsangiz, darhol ma’lum qiling.

— Uylashimcha, bu pulemyotchilarning ishi.

— Shundaymi? Darhol Ignatyevichga, o‘z kazaklarini tintish to‘g‘risida buyruq beraman. Xayr, salomat bo‘ling.

Listnitskiy o‘z yerto‘lasiga vzvod ofitserlarini to‘plab, ularga polk komandirining buyrug‘ini eshittirdi.

— Rasvogarlik! Nima, biz bir-birimizni tintiymizmi? — deb achchiqlandi Merkulov.

— Boshlab sizni tintiymiz, Listnitskiy! — deb qichqirdi hali mo‘ylovi chiqmagan yoshgina yuzboshi Razdorsev.

— Keling, qur’a tashlaymiz.

— Alifbo tartibi bilan.

— Janoblar, hazilni bas qiling! — deb ularning gapini bo‘ldi Listnitskiy qat’iylik bilan. — Chol tushmagur, oshirib yubordi: polkimizning ofitserlari — Sezarning xotini singari har qanday shubhadan yuqori, turadilar[1]. Oramizda faqat xorunjiy Bunchuk bor edi, u ham

---

[1] Xotinining xulq-harakati shubhali ekanini aytganlarida Sezar go‘yo: «Sezarning xotini – har qanday shubhadan yuqori turadi» deb javob qilgan emish. Listnitskiy Sezarning maqol shakliga kirib qolgan so‘zlarini takrorladi.

qochib ketdi, ammo kazaklarni tekshirib ko'rish kerak. Vaxmistrni chaqiring.

Yoshi qaytib qolgach, uchinchi darajali Georgiy kresti olgan kazak vaxmistr kirib keldi.

— Sotnyada shubhali kazaklardan kimlar bor? Sening fikringcha, bu xitobnomalarni kim tashlagan bo'lishi mumkin? — deb unga murojaat qildi Listnitskiy.

— Bizda bunaqangilar yo'q, janob oliy, — deb dadil javob qildi vaxmistr.

— Ammo bu xitobnomalar bizning sotnyamiz turgan joylardan topiladi-ku. Bizning transheyalarda begona kishilardan kimlar bo'lgan?

— Begonalardan hech kim bo'lmagan. Boshqa sotnyalardan ham hech kim bo'lmagan.

— Yuring, hammasini bir boshdan titkilaymiz, — Merkulov qo'l siltab eshik tomon qarab yurdi.

Tintuv boshlandi. Kazaklarning yuzlarida turlicha ifoda ko'rinardi: ba'zilari hayron bo'lib qovoq solishar, boshqalari esa, arzimagan buyumlarini tintayotgan ofitserlarga qo'rqa-pisa qarashar, uchinchilari miyiqlarida kulishardi. Oliftanamo uryadnik-razvedchik kazak:

— Nima axtaryapsizlar, aytsangizlar-chi? Mabodo biror narsa yo'qolgan bo'lsa, ko'rgan odam bordir, — dedi.

Tintuv hech qanday natija bermadi. Faqat birinchi vzvoddagi bir kazakning cho'ntagidan g'ijimlangan xitobnoma topib oldilar.

Merkulov uning cho'ntagidan chiqqan qog'ozni yerga uloqtirib, qo'rquv aralash:

— O'qidingmi? — deb so'radi (uning qo'rquvi kishining kulgisini qistatar edi).

Kazak esa yerga tikilgan ko'zlarini ko'tarmay:

— Tamaki o'rash uchun yerdan olgan edim, — deb kuldi.

— Sen nega kulyapsan? — deb qichqirdi tutaqib ketgan Listnitskiy uning oldiga kelib; pensne ostidan uning mallarang kalta kipriklari pirpiragani ko'rindi.

Kazakning yuzi birdan jiddiy tus oldi.

— Kechiring, janob oliy! Xat o'qishni uncha bilmayman! Hijjalab o'qiyman. Bu qog'ozni yerdan olganimning sababi shuki, tamaki bor-u, lekin o'rashga qog'oz yo'q.

Kazak o‘pkalanib qattiq-qattiq gapirar, ovozida g‘azab ohangi eshitilardi.

Listnitskiy tupurdi va uning yonidan nari ketdi. Ofitserlar uning orqasidan ergashdilar.

Ertasiga polkni pozitsiyadan olib, frontdan o‘n chaqirim orqadagi joyga jo‘natdilar. Pulemyotchilar komandasidan ikki kishini qamoqqa olib, harbiy-dala sudiga topshirdilar, qolganlarning bir qismini zapasdagi polklarga jo‘natdilar, bir qismini 2-kazak diviziyasidagi polklarga taratib yubordilar. Polk bir necha kun dam olgandan keyin o‘zini bir qadar tartibga solib oldi. Kazaklar yuvinib, taranib, soqollarini yaxshilab qirdirib oldilar. Okoplarda ular soqollarini juda oddiy, lekin jonlariga azob beradigan usul bilan oldirardilar: soqollarini gugurt bilan yondirishar, tikandek mo‘ylarini o‘t kuydirib, terilariga borib yetganda, yuzlarini avvaldan tayyorlab, ho‘llab qo‘yilgan sochiq bilan artar edilar. – Soqol olishning bu tarzini «cho‘chqa kuydirish» deb atar edilar. Biror vzvod sartaroshi o‘z mijozidan:

– Xo‘sh, soqolingni «cho‘chqa kuydirish usulida» olib qo‘yaymi? – deb so‘rardi.

Polk endi dam olib yotmoqda. Kazaklarning kiyim-boshlari bashang, o‘zlari quvnoq bo‘lib qoldi, ammo Listnitskiy bilan barcha ofitserlar bilar edilarki, bu quvnoqlik – noyabr oyidagi ochiq kunga o‘xshar, bugun ochiq bo‘lsa ertasiga aynib qolishi mumkin edi. Pozitsiyaga borish to‘g‘risida og‘iz ochilsa, kazaklarning yuzlaridagi ifoda bir zumda o‘zgarib qolar, qovoqlari solinib, aft-basharalari tumtayib ketardi. Ularning o‘lguday charchaganliklari, tinka-madorlari qurigani bilinib turardi, bu charchash ma’naviy beqarorlik tug‘dirardi. Listnitskiy, bu holatda, kishi biror mo‘ljallagan narsasiga jon-jahdi bilan intilganda uning qo‘rqinchli bo‘lishini yaxshi bilardi.

1915-yilda uning ko‘z oldida bir rota soldat juda katta talafot berib, besh marta dushman ustiga hujum qildi, har safar «Yana hujumga o‘tilsin» deb buyruq olib turdi. – Rotaning qolgan qismi o‘z ixtiyori bilan pozitsiyani tashlab, front orqasiga jo‘nadi. Listnitskiy, o‘z sotnyangiz bilan ularning oldini to‘sing, degan mazmunda buyruq oldi. U o‘z kazaklarini safga tizib, chekinishni to‘xtatishga uringanida, soldatlar o‘q ota boshladilar. Rotadan oltmish chog‘liq soldat qolgan edi. Listnitskiy, ular jon-jahdlari bilan kazaklardan o‘zlarini himoya

№ 2021/N9-26

qilganlarini, qilich tushganda jon berib, qayerda bo'lmasin, baribir o'lamiz-ku, degandek tikkasiga bostirib kelaverganlarini, o'limga o'zlarini urganlarini ko'rgan edi. Bu hodisa dahshatli bir alomat ekani uning xotirasida yaxshi saqlangan edi, Listnitskiy hayajonga tushib, kazaklarning yuzlarini endi ko'rgandek, ularga tikilib qarar: «Nahotki, bir vaqt kelib, bular ham shu qabilda orqaga chekinadilar, o'limni ham pisand qilmay bostirib kelaveradilar» – deb o'ylar va kazaklarning charchab-horigan, g'azabnok boqishlariga ko'zi tushib: «Ha, shunday qiladilar» degan fikrga kelar edi.

Keyingi vaqtlarda kazaklar o'zgardilar. Hatto ashulalar ham yangi bo'lib, ular urush natijasida vujudga kelgan, umidsizlik bilan to'lib-toshgan edi. Listnitskiy o'z sotnyasi joylashgan keng zavod ombor-xonasi yonidan o'tar ekan doim kishining yuragini ezadigan, mungli bir ashulani eshitardi. Bu ashulani har doim to'rt kishi bir bo'lib aytardi. Do'rillagan yo'g'on ovozlar orasidan ingichka va tiniq bir ovoz jaranglab eshitilardi.

Ey jonajon, go'zal yurtim
Sendan mangu judo bo'ldim.
Sahar chog'i bog'imizga
Bulbul agar nola qilsa,
Eshitmayman. Jonim onam,
Men to'g'rimda hech yema g'am,
Qirq yil qirg'in bo'lsa agar,
Paymonasi to'lgan o'lar.

Listnitskiy to'xtab, quloq solar, sodda, mungli qo'shiq unga qat-tiq ta'sir qilardi. Tez-tez urayotgan qalbining allaqanday bir tori ta-rang bo'lib, jo'rchi ovozining yoqimli mayinligi uni chertganday bo'lardi, «Listnitskiy omborxonadan sal nariroqdagi joy-da turib, kuz oqshomining g'ira-shira qorong'iligiga tikilar, ko'zlariga yosh kelib, qovoqlarini qichitganini his egardi.

Dashtda haydab ketaman ot,
Ko'nglim sezib turar, hayhot!
Dilim sezar, bu yosh umrim
Xazon bo'lar, o'laman bot.

Yo'g'on ovozlar so'nggi so'zlarni aytib tamomlamasdan, jo'rchi ovoz ular ustida yangrar, bu ovozlar uchib ketayotgan ko'kragi oq bazg'aldoq qushning qanotlari singari dirillar, shoshib-pishib o'z orqasidan parvoz qilishga chaqirar, nola qilardi:

Qo'rg'oshin o'q hushtak chalib,
Ko'kragimga tegdi shu on.
Ot bo'yniga yiqildim men,
Yeli bo'ldi qop-qora qon.

Dam olish uchun to'xtagan paytlarida Listnitskiy, faqat bir martagina kishining ruhini ko'taruvchi, tetiklashtiruvchi qadimiy bir kazak ashulasini eshitdi. U o'z odaticha, kechqurungi sayridan qaytib, omborxona yonidan o'tib ketayotgan edi. Shirakayf odamlarning ovozlari va qahqaha sadolari qulog'iga chalindi. Listnitskiy Nezviska degan shaharchaga ozuqa keltirish uchun borgan kaptenarmus[1] u yerdan samogon olib kelganini va kazaklarni siylaganini fahmladi. Javdar arog'ini ichib olgan kazaklar allanarsa ustida bahslashar, kulishardi. Sayrdan qaytib kelar ekan, Listnitskiy uzoqdan baqirib aytilayotgan ashula sadosini va quloqni bitkizadigan, lekin ustalik bilan chalinayotgan hushtak ovozini eshitdi:

Jangda bo'lmagan yigit,
Qo'rquv nima bilmaydi..
Kunduz ivib, tunda qaqshab
Ko'zga uyqu kelmaydi.

Hushtak ovozi titrab, ohangi goh pastlashib, goh balandlashib eshitilar, o'ttiz chog'lik; kishining ovozi yangrab, uni bosib ketardi:

Jangda qo'rquv, qayg'u alam,
Tark etmaydi bizni bir dam.

Yoshlardan allakim, sho'x bir kazak kalta-kalta qattiq hushtak chalar, taxta pol ustida tepinib o'yin tushardi. Ashula orasidan poshnalarning to'qillagani sal-pal eshitilardi:

---

[1] *Kaptenarmus* – harbiy qismlarda xo'jalik ishlarini boshqaruvchi xizmatchi.

Qora dengiz shovullar,
Kemada mash'al yonar.
Mash'alni so'ndiramiz.
Yovni bo'g'ib o'ldiramiz,
Ming yasha, ey Don kazagi!

Listnitskiy beixtiyor kulib, ashula ohangiga monand qadam tashlashga urinardi. «Ehtimol, piyoda askarlar uylarini bunchalik qo'msamaslar, — deb o'yladi u. Ammo bu fikri o'ziga ham ma'qul tushmadi. — Ajabo, piyoda askarlar qismidagi odamlar boshqachami? Turgan gapki, okoplarda o'tiraverish kazaklarning joniga tekkan, ular o'z mashg'ulot turlariga muvofiq doimiy harakatda bo'lishga odatlanganlar. Bu yerda esa ikki yildan buyon hujumga o'tib bir ish chiqaza olmay, bir joyda qimir etmay o'tirishga to'g'ri keladi. Armiya, har qachongisidan ham zaif. Qattiqqo'l odam lozim, katta bir g'alaba zarur, olg'a tomon siljish kerak, — bu hammani tetiklantirib qo'yardi. Ammo tarixda shunday misollarni ko'rish mumkin: cho'zilib ketgan urushlarda eng matonatli va intizomli qo'shinlar ham ma'naviy jihatdan buzilganlar. Buni Suvorov ham o'z hayotida ko'rgan... Ammo kazaklar bardosh bergusidirlar. Agar qaytib ketsalar ham, eng keyin ketadilar. Har qalay kazaklar — qalang'i-qasang'i fabrika ishchilari yoki mujiklar emas, jangovar an'analariga eta bo'lgan, boshqalardan ajralib turadigan kichik bir millatdir».

Allakim uni fikridan qaytarmoqchi bo'lganday omborxonadan turib, «Kalinushka» ashulasini do'rillab ayta boshladi. Boshqalar ham unga jo'r bo'lishdi.

Listnitskiy uyiga ketar ekan, mungli, g'amgin ashulani eshitdi:

Yoshgina bir ofitser xudoga nola qilar,
Navqiron kazak o'g'lon unga kelib yalinar,
Aytar: «Ofitser yigit,
Uyga ketay, ruxsat et!
Otam yoniga boray,
Onam yoniga boray,
To'lin oydek, jonajon
Yorim yoniga boray».

Frontdan qochgandan keyin uch kun o'tgach, Bunchuk kech paytida front yaqinidagi do'konlari ko'p bo'lgan bir shaharchaga kirib

keldi. Uylarda chiroqlar yoqilgan, zamharirdan ko'lob suvlarning usti yupqa muz bilan qoplangan, siyrak yo'lovchilarning qadam tovushlari uzoqdan eshitilardi. Bunchuk yoritilgan ko'chalarni chetlab o'tib, kimsasiz tor ko'chalardan olazarak bo'lib borardi. Shaharchaga kiraverishda oz bo'lmasa patrulga duch kelib qolgan edi, mana endi izidan birov quvib kelayotganday, shoshib-pishib o'zini devorlar panasiga olib, o'ng qo'lini hamma yog'i bulg'angan, kir shinelining cho'ntagidan olmay borardi, kun bo'yi Stodoldagi bir somonxonada yotgan edi.

Bu shaharchada korpusning bazasi bo'lib, bu yerda qandaydir qismlar turar, patrulga duch kelib qolish xavfi yo'q emasdi, shu sababdan, Bunchuk sertuk panjasi bilan shinelining cho'ntagidagi naganni changallab olgan, nagan dastasi qizib ketgan edi.

Shaharchaning narigi boshiga yetib borgach, Bunchuk huvullagan tor ko'cha bo'ylab uzoq yurdi, darvozalarga qarab, har bir kulbaning tashqi ko'rinishini sinchkovlab ko'zdan kechirdi. Oradan yigirma daqiqacha vaqt o'tgach, muyulishdagi ko'rimsizgina uycha yoniga kelib, deraza qopqog'ining tirqishidan mo'ralab qara-di, so'ngra iljayib, dadil qadam bosib, eshikdan ichkari kirdi. Tiqillagan ovozni eshitib, yoshi qaytib qolgan, ro'mol o'ragan bir ayol eshikni ochdi.

— Boris Ivanovich siznikida ijarada turadimi? — deb so'radi Bunchuk.

— Ha, qani, kira qoling,

Bunchuk yakka kift bo'lib, uning yonidan o'tdi. Orqasidan eshik turumining sharaqlab berkitilganini eshitdi. Kichkinagina lampa yoritib turgan pastakkina xonadagi stol yonida yoshi anchaga borib qolgan harbiy kiyimdagi kishi o'tirardi. U ko'zlarini qisib, o'rnidan turdi-da, xursand bo'lsa ham sipolikni qo'ldan bermay, Bunchukka qo'lini uzatdi.

— Qayerdan?

— Frontdan.

— Xo'sh?

— O'zing ko'rib turibsan-ku, — deb jilmaydi Bunchuk harbiy kiyimdagi kishining harbiycha kamariga barmog'ining uchini tegizib, so'ngra g'o'ldirab:

— Bo'sh xona bormi? — deb so'radi.

— Ha, bor, mana bu yoqqa kir.

U Bunchukni boyagidan ham kichikroq bir xonaga boshlab kirdi; chiroqni yoqmasdan, uni stulga o'tirg'izdi-da, qo'shni xonaning eshigini yopib, deraza pardasini tortib qo'ndi.

— Butunlay keldingmi?

— Ha, butunlay

— U yerda ahvol qalay?

— Hamma narsa taxt-tayyor.

— Ishonchli yigitlarmi?

— Ha, ishonchli yigitlar.

— Sen oldin yechinib ol, keyin gaplashsak yaxshi bo'lar deb o'ylayman. Shinelingni bu yoqqa ber. Yuvinish uchun senga suv keltiraman.

Bunchuk ko'karib ketgan jomga suv quyib yuvinar ekan, harbiy kiyimdagi kishi kalta qilib qirqilgan sochini silab-silab, horg'in ovoz bilan sekin gapirdi:

— Hozir ular bizdan juda kuchlidirlar. Ishimizni rivojlantirishimiz, o'z ta'sirimizni kuchaytirishimiz, urushning tub sabablarini hormay-tolmay tushuntirishimiz zarur. Ishimiz rivoj topadi, sen bunga amin bo'l. Ulardan ajralib ketganlar, albatta, bizga kelib qo'shiladi. Katta odam bolaga nisbatan, albatta, kuchlidir, lekin bu odam qarib-chirigan paytda bola uni saranjomlab qo'yadi. Hozirgi holda jamiyatning qarib-chiriganini emas, borgan sari falaj illatiga mubtalo bo'layotganini ko'rib turibmiz.

Bunchuk yuvinib bo'ldi, yuzini dag'al bo'z sochiq bilan artar ekan, dedi:

— Men ketishim oldidan ofitserlarga o'z qarashlarimni gapirib berdim. Bilsang, juda kulgili bo'ldi. Mendan keyin shubhasiz, pulemyotchilarning enka-tinkasini chiqarishadi, ehtimol yigitlardan ba'zilari sudga tushishlari mumkin, ammo dalil bo'lmagandan keyin nima ham qila olishadi? Umid qilamanki, ularni turli qismlarga tarqatib yuborishadi. Bu esa bizga juda qo'l keladi, mayli, ular zamin hozirlab tursinlar... U yerda zap yigitlar bor-da! Metindek yigitlar.

— Stepandan bir xat oldim. Harbiy ishni biladigan bir yigit yubor, deb so'ragan. Sen uning qoshiga borasanmi? Lekin hujjatlarni qanday to'g'rilaymiz? Qo'limizdan kelarmikin?

— Nima ish ekan? — deb so'radi Bunchuk. U sochiqni qoziqqa ilmoqchi bo'lib, bo'yini cho'zdi.

— Yigitlarga yo'l-yo'riq ko'rsatish ishi. Sen bo'lsang haliyam o'smabsan-a? — dedi uy egasi kulib.

— Nima hojat? — deb gap qaytardi Bunchuk.– Xususan hozirgi ahvolim nazarga olinsa, ko'zga tashlanmasligim uchun zig'irdek bo'lishim kerak edi.

Ular tongotargacha suhbatlashdilar. Oradan bir kun o'tgach, kiyimini o'zgartirgan, yuz-ko'zini bo'yagan, tanib bo'lmaydigan holga kelgan Bunchuk 441-Orsh polkining soldati Nikolay Uxvatov nomiga hujjat olib shaharchadan chiqdi-da, stansiyaga qarab jo'nadi. Askar Nikolay Uxvatov ko'kragidan yarador bo'lgani uchun qo'shin safidan butunlay bo'shatilgan edi.

III

Maxsus armiya (bu armiya o'n uchinchi armiya edi, ammo «13» raqami xosiyatsiz raqam deb hisoblangani va katta generallar bid'atchi bo'lganlari uchun, bu armiyaga «Maxsus» armiya deb nom berganlar) harakat qilayotgan rayondagi Vladimiro-Volinskiy va Kovel tomonlarida oktyabrning so'nggi kunlarida hujumga tayyorgarlik boshlangan edi. Svinyuxa qishlog'ining yaqinida qo'mondonlik keng hujum boshlashga qulay bo'lgan platsdarm tanlab, dushman pozitsiyasini to'pga tutdi.

Bu joyga son-sanoqsiz artilleriya to'plangan edi. Turli kalibrli yuz minglab snaryadlar ikki qator nemis okoplari ishg'ol qilgan joylarni to'qqiz kuncha dabdala qildi. Otishma avjiga chiqqan birinchi kundayoq nemislar birinchi qator okoplarni tashlab ketdilar, faqat kuzatuvchilarnigina qoldirdilar. Bir necha kundan keyin ikkinchi qatorni ham bo'shatib, uchinchi qatorga o'tdilar.

Uchinchi kun deganda Turkiston korpusining o'qchi qismlari hujumga o'tdilar. Ular fransuzcha usulda, ya'ni ketma-ket to'p-to'p bo'lib bostirib boraverdilar. Rus okoplaridan o'n olti to'p askar hujum qildi. Ag'dar-to'ntar bo'lib, o'ralashib ketgan tikanli sim to'siqlariga kulrang tusdagi odam to'lqinlari kelib urilar, chayqalar va siyraklashardi. Nemislar tomonidan, kuyib qoraygan zirk daraxtlarining to'nkalari orqasidan, qumloq do'ngliklar ortidan to'plar tinmay gumburlab, ketma-ket o't sochib, hamma yoqni larzaga solardi:

Gum... Bo'm... Paq., puq...

Goho yiroqda joylashgan to‘plarning baravariga gumburlagan ovozi tevarak-atrofdagi uzoq joylarni tahlikaga solardi:

Gum... Gum...

Nemis pulemyotlari jazavasi tutganday tarillardi:

Tarr... Tarr...

Eni bir chaqirim keladigan, dabdalasi chiqqan qumloq yerda to‘p o‘qlari yorilib, qora tuproqni osmonga sovurar, hujumga o‘tganlar tirqirab ketib, to‘p o‘qlari o‘ygan chuqurlardan o‘rmalab qochishardi.

Zambaraklarning yorilgan o‘qlari yerlarni borgan sari mijg‘ilar, qiyalab kelgan shrapnellar vizillab hujumchilar ustiga yog‘ilar, pulemyot o‘qlari ularni yerga qapishtirib qo‘yar, sim to‘siqlarga yo‘latmasdan savalardi. Hech kimni yaqin yo‘latmadi. Un olti askardan so‘nggi uch to‘pigina yetib keldi, askarlar kuygan qoziqlari joyidan chiqib ketgan, o‘ralashgan tikanli sim to‘siqlariga urilib-urilib, borgan sari siyraklashib, orqaga chekindilar...

To‘qqiz mingdan oshiq jon egasi o‘sha kuni Svinyuxa qishlog‘i yaqinidagi ko‘rimsiz qumloq yerga jo bo‘ldi.

Ikki soatdan keyin hujum yana boshlandi. Turkiston o‘qchi korpusining 2- va 3-diviziya qismlari hujumga o‘tdi. Chaproqdagi birinchi qator okoplarga 53-piyoda askarlar diviziyasi va 307-sibir o‘qchi brigadasi xandaqlar orqali yetib keldi, turkistonliklarning o‘ng qanotida 3-grenadyor diviziyasining batalyonlari borar edi.

Maxsus armiyaning 3-korpusi komandiri general-leytenant Gavrilov armiya shtabidan Svinyuxa rayoniga ikki diviziya tashlash to‘g‘risida buyruq oldi. 80-diviziyaning 320-Chembarskiy, 319-Bugulminskiy va 318-Chernoyarskiy polklari pozitsiyadan jo‘natildi. Ularning o‘rniga Latish o‘qchi askarlari va yangi kelgan ko‘ngillilar qismi qo‘yildi. Polklarni kechasi jo‘natdilar, lekin shunga qaramasdan oqshom paytida polklardan biri qarama-qarshi tomonga dabdaba bilan yurish qilgan va front bo‘ylab o‘n ikki chaqirim bosmasdanoq, orqaga qaytish to‘g‘risida buyruq olgan edi. Polklar bir tomonga turli yo‘llar bilan jo‘nab ketdilar. 80-diviziya marshrutidan so‘lroqda esa 283-Pavlograd polki va 71-diviziyaning 284-venger polki siljib bormoqda edi. Ularning izidan Ural kazaklari polki va 44-piyoda kazaklar polki borardi.

318-Chernoyar polki ko‘chirilguncha Stoxod daryosi bo‘yida, Rudka-Merinskiy qo‘rg‘oni yaqinidagi Sokal degan joyda turardi.

Ertalab, birinchi manzildan keyin polkni o‘rmon ichidagi tashlandiq yerto‘lalarga joyladilar va to‘rt kun fransuzcha hujum qilish usuliga o‘rgatdilar. Batalyonlar o‘rniga safda yarim rotalar yurdi. Bombamyotchiklar sim to‘siqlarini juda tezlik bilan kesishga o‘rgatildi, qo‘l granatalari otish mashqini ham o‘tdi. Shundan so‘ng polk yana yo‘lga tushdi. Uch kun o‘rmonlar ichidan, ochiq joylardan, to‘p aravalarining g‘ildiraklari o‘ygan, xaroba qishloqchalardan o‘tdilar. Shamol surib kelgan pag‘a-pag‘a tuman qarag‘aylar ustginasidan suzib o‘tar, yalangliklarda suzar, zirk daraxtlari orasidan ko‘k o‘t bosgan botqoqliklar ustida xuddi o‘laksa izlagan kalxatdek aylanardi. Osmondan tumanday yomg‘ir sepalab yog‘ar, ho‘l bo‘lgan odamlar g‘azabnok yo‘l bosardilar. Uch kundan keyin hujum rayoni yaqinidagi Bolshoy Porek va Maliy Porek qishloqlarida to‘xtadilar. Ajal yo‘liga tushishlaridan oldin bir kecha-kunduz dam oldilar.

Shu vaqt 80-diviziya shtabi bilan birlikda jang maydoniga yaqin joyga alohida kazak sotnyasi ham siljib keldi. Bu sotnyaga Tatarsk qishlog‘idan kelgan uchinchi razryaddagi kazaklarni qo‘shib yubordilar. Ikkinchi vzvod nuqul shu qishloqlik kazaklardan tuzilgan bo‘lib, unda bir qo‘li cho‘ltoq Aleksey Shamilning Martin va Proxor degan ikki ukasi, Moxov bug‘ tegirmonining sobiq mashinisti Ivan Alekseyevich, cho‘tir Afonka Ozerov, qishloqning sobiq atamani Manitskov, Shamillarning bir oyog‘i cho‘loq, kokildor qo‘shnisi Yevlantiy Kalinin, beso‘naqay, novcha kazak Borshchyov, girdig‘um va ayiqsifat Zaxar Korolyov butun sotnyaning qiziqchisi Gavrila Lixovidovlar bor edi. Gavrila hayvonsifat kazak bo‘lib, yetmish yashar kampir onasi va ko‘rimsiz, lekin bebosh xotinining kaltaklariga indamay chidash berardi. Sotnyaning ikkinchi vzvodida va boshqa vzvodlarda yana shu qishloqlik ko‘p kishilar bor edi.

Kazaklarning bir qismi diviziya shtabida ordinarets bo‘lib xizmat qilardi, ammo ikkinchi oktabrda ularning o‘rniga yengil kavaleriya askarlari qo‘yildi. Diviziya boshlig‘i general Kitchenkoning buyrug‘iga binoan alohida sotnya pozitsiyaga jo‘natildi.

3-oktabr kuni tongotarda bu sotnya Maliy Porek qishlog‘iga kirdi. 318-Chernoyarsk polkining birinchi batalyoni shu qishloqdan jo‘nab ketayotgan edi. Tashlandiq, yarim xaroba uylardan yugurib chiqib kelayotgan kazaklar shu ko‘chada saf tortmoqda edilar. Eng oldindagi vzvodning yonida qorachadan kelgan yoshgina bir ofitser

depsinib turardi. U karta soladigan yassi sumkasidan olgan shokoladni ochar (uning qip-qizil ho'l lablarining zehi shokoladga bo'yalgan edi) kolonna yonida u yoqdan bu yoqqa yurar, kirlanib ketgan, etagiga loy tegib qotib qolgan uzun shineli ikki oyog'i orasida xuddi qo'yning quyrug'idek salanglar edi. Kazaklar ko'chaning chap tomonida kelmoqda edilar. Ikkinchi vzvod safida, o'ng tomondan eng chekkada mashinist Ivan Alekseyevich kelardi. U yerga qarab oyoq bosar, ko'lob suvlar ustidan hatlab o'tishga harakat qilardi. Kichik bir askar uzoqdan turib uni chaqirib qoldi, Ivan Alekseyevich boshini o'girib, piyoda askar saflarini ko'zdan kechira boshladi.

— Ivan Alekseyevich! Og'aynichalish!..

Vzvod safidan bir askar otilib chiqib, bedana yurish qilib Ivan Alekseyevich tomon chopib kelaverdi. Yo'l-yo'lakay u soyli miltig'ini orqasiga surib qo'yar, lekin qayishi sirg'alib tushib ketaverar, miltiq qo'ndog'i suvdonga tegib, to'qillar edi.

— Tanimadingmi? Esingdan chiqardingmi? Butun yuzini tikandek, kulrang soqol bosgan soldatchaning Valet ekanini Ivan Alekseyevich arang tanidi...

— Qaysi go'rdan kelding?

— Shunday... Askarlik xizmatidan.

— Uch yuz o'n sakkizinchi, Chernoyarsk polkida o'z og'aynilarimni uchrataman deb sirayam... sirayam xayolimga keltirmagan edim.

Ivan Alekseyevich o'zining dag'al kaftlari bilan Valetning kirlanib ketgan qo'lini mahkam qisib olgan, hayajonlanib, xursandligidan kular edi. Valet esa katta-katta qadam tashlab ketayotgan Ivan Aleksandrovichdan orqada qolmaslik uchun yo'rg'alab yurar, pastdan yuqoriga — do'stining ko'zlariga tikilardi, bir-biriga yaqin qahrli ko'zlari muloyim, nam edi.

— Hujumga o'tmoqchimiz... Ko'rib turibsan...

— Bizlar ham.

— Xo'sh, Ivan Alekseyevich, ahvoling qalay?

— E, so'rab nima qilasan!

— Men ham shu holdaman. O'n to'rtinchi yildan beri boshim okopdan chiqmaydi. Menda na uy-joy, na bola-chaqa bor, birovlar uchun o'limga ketyapman. O'lganning ketidan shahid degandek...

— Shtokman yodingdami? Zap odam edi-da. Osip Davidovich! Shu topda bo'lganda hamma narsani bizga tushuntirardi. Xo'p odam edi-da, a?

— U hamma narsaning mag'zini chaqib berardi-yu, — deb qichqirdi Valet zavqlanib, mushtlarini do'laytirib. Uning bir burda yuzi kulgidan bujmayib ketdi. — U yodimda! Men uni otamdan ham aziz ko'rardim. Otamdan nima ko'ribman... U to'g'rida hech narsa eshitmadingmi? Dom-darak yo'qmi?

— Sibirda, — dedi xo'rsinib Ivan Alekseyevich. — Qamoqda o'tiribdi.

— Rostdan-a? — deb so'radi laylakdek sherigining yonida chittakka o'xshab ko'ringan Valet irg'ishlab, qulog'ini dikkaytirib.

— Turmada o'tiribdi. Ehtimol, o'lgan bo'lsa. Valet, goh orqasiga o'girilib rota saf tortayotgan yerga qarar, goh Ivan Alekseyevichning bag'baqasiga, quyi labining ostidagi chuqurchasiga ko'z tikardi.

— Xayr! — dedi u qo'lini Ivan Alekseyevichning muzdek kaftlaridan chiqarib olib. — Endi ko'risholmasak kerak.

Ivan Alekseyevich chap qo'li bilan furajkasini oldi-da, engashib Valetning qoq suyak kiftlarini quchoqladi. Go'yo endi umrbod ko'rishmaydigandek o'pishib xayrlashdilar, Valet orqada qolib ketdi. U birdan bo'ynini qisib oldi, soldatcha kulrang shinelining yoqasidan qulog'ining qorayib ketgan qizg'ish kemirchigigina dikkayib chiqib turardi, u bukchayib olib, tep-tekis yerda qoqila-qoqila yurib ketdi.

Ivan Alekseyevich qatordan chiqib, titroq ovoz bilan qichqirdi:

– Ey birodari aziz! Ilgari sen serzarda eding... esingdami? Chayir eding... a?

Valet ko'z yoshlaridan qarimsiq bo'lib ko'ringan yuzini o'girib oldi, ochiq shineli va ko'ylagining yirtiq yoqasidan ko'rinib turgan qoqsuyak qoracha ko'kragiga mushtlab baqirdi.

— Serzarda edim, chayir edim, meni ezg'ilab tashlashdi!..; Mulla mingan eshakdek bo'lib qoldim!..

U yana bir nimalar deb qichqirdi, ammo bu vaqtda kazaklar sotnyasi narigi ko'chaga burilib ketdi. Ivan Alekseyevich uni ko'zdan yo'qotdi.

Orqada qadam tashlab kelayotgan Proxor Shamil:

— Valet shekilli? — deb so'radi.

— Zap odam-da, — deb javob qildi lablari titrab ketgan Ivan Alekseyevich yelkasidagi qadrdon miltig'ini ko'tarib qo'yib.

Qishloqdan chiqaverishda oldin bitta-ikkita, so'ngra esa yopirilib kelayotgan yaradorlarga duch keldilar. Og'ir yaradorlar tushib olgan arava zo'rg'a sudralib borardi. Arava tortayotgan qirchang'i otlarning qobirg'alari sanalib qolgan. Ketma-ket tushgan qamchi zarbidan sag'risi shilinyb ketgan, terisiga jun yopishgan, qizil-qizil dog' tushgan terisi ostidan suyaklari chiqib qolgan. To'rt g'ildirakli aravalarga qo'shilgan otlar harsillab aravani arang tortar, ko'piklab ketgan tumshuqlari loyga tegay-tegay der edi. Ba'zan bironta baytal to'xtalib qolar, ichga botib ketgan, qobirg'alari ko'rinib turgan biqinlari hansiraganda kirib chiqib turar, oriqlaganidan katta bo'lib ko'ringan boshlarini pastga solib turar edi. Qamchi zarbidan chornochor qadam tashlar, oldin bir tomonga, keyin ikkinchi tomonga tolpinib, zo'rg'a yurib ketardi. Yaradorlar aravaning yon panjaralarini ushlab borishardi.

Sotnya komandiri ko'ziga issiqroq ko'ringan bir askardan:

— Qaysi qismdansizlar? — deb so'radi.

— Turkiston korpusining uchinchi diviziyasidan.

— Bugun yarador bo'ldingmi?

Askar javob qilmay, yuzini teskari o'girdi. Kazaklar sotnyasi esa yo'ldan chetga chiqib, yarim chaqirim naridagi o'rmonga qarab yo'l soldi. Orqada esa 318-Chernoyarsk polkining rotalari qishloqdan chiqib gurs-gurs qadam tashlab kelmoqda edi. Uzoqda, yomg'ir yog'ib turgan bulutli osmonda nemislarning aerostati qimir etmay, sarg'ish dog' kabi muallaq edi.

— Kazaklar, qaranglar, g'alati bir narsa osilib turibdi-ya.

— Kolbasa-ku.

— Bachchag'ar nemis, o'sha yerdan turib, askarlarning harakatini kuzatayotir.

— Nima, u shunday baland joyga bekorga chiqqan deb o'ylaysanmi?

— Voy-bo'y, osmoni falakka chiqib olibdi-ya!

— Sen yaqin deb o'ylovdingmi? Unga to'p otib ham tekkizib bo'lmaydi.

O‘rmonda Chernoyarsk polkining birinchi rotasi kazaklarga yetib oldi. Kazaklar kechgacha namiqqan qarag‘aylar ostiga tiqilishib turdilar, yomg‘ir suvi yoqalaridan oqib tushar, etlari uvishardi, gulxan yoqish man qilingan, yomg‘irda o‘t yondirish amri mahol edi. Qosh qorayishi oldidan ularni bombadan saqlanish uchun qazilgan xandaqqa tushirdilar. Odam bo‘yi keladigan xandaq ichi chuqurligi yarim qarich keladigan suv bilan to‘lgan edi. Balchiq hidi, chirigan igna barglilar, xazon, xushbo‘y, yoqimli yomg‘ir hidi anqir edi. Kazaklar xandaq ichida shinellarining etagini bir urib, cho‘qqayishib, tamaki chekishar, maza-bemaza gaplarni gaplashib o‘tirishardi. Yo‘lga chiqish oldidan ma’lum miqdorda berilgan maxorkalarini bo‘lashib olgan ikkinchi vzvod kazaklari muyulishda to‘planishib, vzvod uryadnigini qurshab olishgandi. Uryadnik esa kimdir tashlab ketgan sim g‘altak ustida o‘tirib, o‘tgan dushanba kuni o‘ldirilgan general Kopilech haqida hikoya qilardi. O‘zi tinchlik vaqtida ham o‘sha general brigadasida xizmat qilgan ekan. U hikoyasini tamomlagani ham yo‘q ediki, vzvod ofitseri: «Safga!» deb qichqirdi. Kazaklar shoshibpishib papiroslarini qattiq tortib, qo‘llarini kuydira-kuydira sakrab o‘rinlaridan turdilar va xandaqlardan yana qorong‘i qarag‘ayzorga kirib ketdilar. Hazillashib, bir-birlariga dalda berib ketishar, allakim hushtak chalardi.

O‘rmon ichida, yalanglikda qator yotgan murdalarga duch keldilar. O‘liklar chalqanchasiga yonma-yon va turli holatda, ko‘pincha sharmanda holda, dahshatli vaziyatda yotar edi. Shu yerning o‘zida miltiq ko‘targan va beliga protivogaz osib olgan bir askar u yoqdan bu yoqqa yurib turardi. O‘liklarning yonidagi shirachdek loyda oyoq izlari ko‘rinar, arava g‘ildiraklari o‘tlarni bosib-yanchib ketgan edi. Kazaklar murdalardan bir necha qadam nariroqda ketmoqda edilar. O‘liklardan badbo‘y, ko‘ngilni ozdiruvchi hid kelardi. Sotnya komandiri kazaklarni to‘xtatib, vzvod ofitserlari bilan birga boyagi askar oldiga keldi. Ular bir narsa ustida gaplashdilar. Bu vaqtda kazaklar safni buzib, o‘liklar tepasiga keldilar-da, furajkalarini yechib, qo‘rquv aralash hayajon va haddan tashqari qiziqish bilan ularni tomosha qila boshladilar. Har bir tirik maxluq sirli murdaga shunday qiziqish bilan qaraydi. O‘ldirilganlarning hammasi ofitserlar edi. Kazaklar sanab, ularning qirq yettita ekanini bildilar. Ofitserning

ko‘pchiligi yoshlar bo‘lib, aftlaridan 20–25 lar orasida ekanliklari bilinib turardi, faqat eng chetda yotgani shtabs-kapitan pogonlisi o‘rta yoshli edi. U so‘nggi damda dodlagan bo‘lsa kerak, og‘zi katta ochilib qolgan, qora, xush mo‘ylovlari osilib yotar, ajal o‘z soyasini tashlab, oqartirib yuborgan yuzi ustidagi qayrilma qoshlari chimirilib qolgan. O‘liklarning ba’zilari loy sachragan charm kamzulda, qolganlari shinelda yotar edilar. Ikki-uchtasining furajkasi yo‘q edi. Kazaklar, o‘lgandan keyin ham qomatining go‘zalligi bilinib turgan bir poruchikni uzoq tomosha qildilar. U chalqanchasiga tushib yotar, so‘l qo‘lini ko‘kragiga mahkam bosib, yon tomonga tashlagan o‘ng qo‘li nagan dastasini changallab qolgan edi. Aftidan, naganni qo‘lidan yirib olmoqchi bo‘lganlar, sarg‘ayib ketgan qo‘li tirnalgan, ammo po‘lat erib qo‘liga yopishib qolganday, uni ajratib ololmaganlar. Furajkasi qiyshayib qolgan jingalak malla sochli ofitser go‘yo erkalanganday yuzini yerga qo‘ygan, ko‘kara boshlagan sariq lablari hayratlanganday motamsaro burilgan edi. Uning o‘ng tomonidagi o‘lik muk tushib yotardi, belbog‘i uzilgan shineli orqasiga to‘planib qolgandi, qahvarang shimi va poshnasi qiyshayib ketgandi, kaltagina xrom etik kiygan yo‘g‘on oyoqlari ochilib qolgan edi. Uning furajkasi yo‘q, kallasining uchini to‘p o‘qi uchirib ketgan; yonlaridan ho‘l sochlari osilib yotgan miya suyagining kosasi pushtirang yomg‘ir suvi bilan to‘lgan. Uning nariyog‘ida oldi ochiq tujurkada, yirtiq gimnastorkada yuzi yo‘q murda yotar; qiyshaygan quyi jag‘i ochiq ko‘kragi ustida yotar, terisi kuyib, burishib qolgan torgina peshonasi oqarib ko‘rinar, jag‘i bilan peshonasining o‘rtasida singan suyak parchalari, qoramtir qizil go‘sht parchalari aralash-quralash edi. Nariroqda — pala-partish uyib qo‘yilgan qo‘l-oyoqlar, shinel parchalari, bosh o‘rnida dabdala bo‘lgan oyoq, uning nariyog‘ida lablari do‘rdoq, yuzining bichimi bolalarnikiga o‘xshash bir o‘spirin yotardi; ko‘kragini pulemyot o‘qlari chok-chok qilgan, to‘rt joyi teshilgan shinelining teshiklaridan kuygan jun tolalari dikkayib turardi.

— Manavi... bechora o‘lish oldidan kimni chaqirgan ekan? Onasinimi? — dedi tishlari bir-biriga tegmay qolgan Ivan Alekseyevich duduqlanib, so‘ngra shartta orqasiga burilib, so‘qir kishidek yurib ketdi.

Kazaklar cho‘qinishib, orqalariga o‘girilib qaramay jo‘nab qolishdi. Ular tor so‘qmoqlardan ketar ekan, ko‘rgan narsalarini tezroq

eslaridan chiqarishga urinib, ancha mahalgacha churq etmay borishdi. Allakimlar tashlab ketgan qator-qator yerto‘lalar oldida sotnyani to‘xtatishdi. Ofitserlar Chernoyarsk polki shtabidan ot choptirib kelgan ordinarets bilan birga yerto‘lalardan biriga kirishdi; shunda cho‘tir Afonka Ozerov Ivan Aleksandrovichning qo‘lidan ushlab, shivirladi:

— Boyagi o‘spirin... eng keyingisi... boyaqish umrida xotin kishini bir marta bo‘lsa-da, o‘pmagan chiqar... Tilka-pora qilishibdi, buni qara-ya!

— Tutdek to‘kibdilarmi-a? — deb gapga aralashdi Zaxar Korolyov.

— Ha, hujumga kirishgan ekan... O‘liklarni qo‘riqlab turgan askar aytdi, — dedi birpas jim turib Borshchyov.

Kazaklar bo‘shashib turishardi. O‘rmon ustini qorong‘ilik o‘rab olgan. Shamol bulutlarni haydar, ularning orasi yorilganda uzoqdagi ko‘kimtir yulduzlar cho‘g‘ kabi yaltirab ketardi.

Bu vaqtda sotnya ofitserlari to‘plangan yerto‘lada, komandir ordinaretsga javob berib yuborib, paketni ochdi va yonib tamom bo‘lay degan sham yorug‘ida uning mazmuni bilan tanishdi-da, keyin o‘qib eshitdirdi.

3-oktabr kuni tongotarda nemislar zaharlovchi gaz qo‘yib, 256-polkning uch batalyonini zaharladilar va birinchi liniya okoplarimizni ishg‘ol qildilar. Sizlarga ikkinchi liniyadagi okoplar tomon siljib, 318-Chernoyarsk polkining birinchi batalyoni bilan aloqa bog‘lash, ikkinchi liniyani ishg‘ol qilish va shu bilan birga, shu kechasiyoq dushmanni birinchi liniyadan surib chiqarishni buyuraman. 3-grenadyor diviziyasi ikkinchi batalyonning ikki rotasi va Fanagoriya polkining batalyoni sizning o‘ng qanotingizda harakat qiladi.

Ofitserlar ro‘y bergan ahvolni muhokama qilib, bittadan papiros chekib, yerto‘ladan chiqdilar. Sotnya yo‘lga tushdi.

Kazaklar yerto‘lalar oldida dam olayotgan mahalda Chernoyarsk polkining birinchi batalyoni ulardan ilgari yo‘lga chiqib, Stoxod daryosi ustidagi ko‘prikka yetib bordi. Ko‘prikni grenadyor polklaridan birining kuchli pulemyot komandasi qo‘riqlab turardi. Feldfebel batalyon komandiriga vaziyatni tushuntirdi, batalyon ko‘prikdan o‘tib, bo‘linib-bo‘linib ketdi: ikki rota o‘ngga, biri chapga jo‘nadi, so‘nggi rota batalyon komandiri bilan birga rezervda qoldi. Rotalar

yoyilib ketdi. Siyrak o'rmonzor o'ydim-cho'nqir bo'lib ketgan, soldatlar oyoqlari bilan yerni paypaslab qadam bosadi, ba'zan ulardan birining oyog'i chuqurga tushib ketib ovozini chiqarmay so'kinadi. O'ng flangda, eng chekkadagi rotada kelayotgan oxirgi askardan oltinchisi Valet edi. «Shaylaninglar!» deb komanda berilgandan keyin miltiqni shay qilib, uni oldinga cho'zib borar, shtikning uchi bilan butalar va qarag'aylarning tanalarini tirnar edi. Safning yonidan sekin gaplashib ikkita ofitser o'tib ketdi. Shirador yo'g'on ovoz bilan gapirayotgan rota komandiri:

— Mening eski yaram ochilib ketdi. Qurib ketgur to'ngak!... Bilasizmi, Ivan Ivanovich, qorong'ida oyog'imni to'ngakka urib oldim, yaram ochilib ketdi, men yurolmayman, qaytishga to'g'ri keladi. — Shirador yo'g'on ovozli rota komandiri bir lahza jimib qoldi, nariroqqa borgandan keyin ovozi sekinroq eshitila boshladi. — Siz birinchi yarim rota komandirligini o'z zimmangizga oling, Boganov ikkinchisini oladi, men esa, gapimga ishoning, yurolmayman. Qaytishga majburman.

Praporshchik Belikov xirillagan ingichka ovoz bilan uni koyib berdi.

— Taajjub! Jang boshlandi deguncha sizning eski yaralaringiz ochilib ketadi.

— Ovozingizni o'chiring deyapman, praporshchik janoblari,– deb o'shqirdi rota komandiri.

— Qo'ying-e! Qaytib ketsangiz, ketavermaysizmi?

Valet boshqalarning va o'zining qadam tovushiga quloq solib, orqada shipillab ketayotgan kishining oyoq tovushini eshitdi-yu, rota komandirining jo'nab qolayotganini payqadi. Oradan bir oz fursat o'tgach, Belikov feldfebel bilan rotaning so'l qanotiga o'tar ekan po'ng'illadi:

— ...Muttahamlar, sezyaptilar! Biror jiddiy ish chiqib qolsa bormi, yo kasal bo'lib qoladilar yoki eski yaralari ochiladi. Sen bo'lsang, yaqindagina kelgan ofitser, yarim rotani boshlab bor. Ablahlar! Men bunaqalarni... askarlar...

Tovushlar birdan jimib qoldi. Valet esa jiqqa ho'l etigining shaloplagan tovushini, qulog'ining shing'illaganini eshitardi, xolos.

— Hoy, hamqishloq! — deb xirillab chaqirdi so'l tomondan birov.

— Xo‘sh?

— Ketyapsanmi?

Valet yiqildi, suvga to‘lgan chuqurchaga keti bilan sirg‘anib tushib ketayotib:

— Ketyapman, — deb javob qildi.

— Zim-ziyo qorong‘ilik... — degan ovoz eshitildi chapdan.

Bir necha daqiqa bir-birlarini ko‘rmasdan yurib bordilar, so‘ngra Valetning qulog‘i ostida o‘sha xirillagan ovoz:

— Yonma-yon boraylik! Unchalik qo‘rqinchli bo‘lmaydi, — dedi.

Yana jimib qoldilar, jiqqa ho‘l etiklari bilan bilchillagan yerni bosib ketaverdilar. Kamayayotgan, yuzini dog‘ bosgan oy bulutlar orasidan sho‘ng‘ib chiqdi-da, uchib borayotgan serto‘lqin bulutlar orasidan tovonbaliqday tangachalarini yiltiratib suzib o‘tib, ochiq joyga chiqib oldi va yer yuziga xira nurini socha boshladi. Qarag‘aylarning namli barglari yiltillab ketdi, yorug‘da ularning hidi o‘tkirroq, muzdek yerning nafasi dimoqqa urilgandek tuyuldi. Valet yonidagi askarga qaradi. U esa birdan to‘xtab, kaltakdan boshini olib qochganday harakat qilib, og‘zini ochib, birdan:

— Qara! — deb yubordi.

Ulardan uch qadamcha narida, qarag‘ay tagida bir kishi oyoqlarini kerib turardi:

— Odam, — dedi ming‘irlab Valet.

Valetning yonida ketayotgan askar miltig‘ini o‘qtaldi:

— Kimsan? — deb baqirdi u. — Kim bu? Otaman!.. Qarag‘ay tagidagi odam churq etmadi. Uning boshi kungaboqarning qalpog‘idek bir tomonga qiyshaygan edi.

— Uxlab qopti!– deb piqillab kuldi Valet va titrab, zo‘rma-zo‘raki kulgi bilan o‘ziga dalda berdi-da, olg‘a qadam tashladi.

Ular qaqqayib turgan kishining oldiga keldilar. Valet bo‘ynini cho‘zib unga tikildi. O‘rtog‘i miltig‘ining qo‘ndog‘i bilan harakatsiz turgan kulrang kiyimdagi kishini turtdi.

— Hoy, penzalik og‘ayni? Uxlayapsanmi? Hamshahar!.. — dedi u masxaraomuz. — Hoy tentak, nima qilib turibsan? — Uning birdan tili tutilib, — murda ekan! — deb orqaga chekindi.

Valet tishini g‘ichirlatib birdan o‘zini orqaga otdi, shu onadayoq uning oyoqlari turgan yerga qarag‘ay ostidagi kishi tagidan arralan-

gan daraxtday qulab tushdi. Ular murdani ag'darib yuzini osmonga qaratdilar. Gaz bilan zaharlangan, o'pkasiga kirib olgan ajaldan qochmoqchi bo'lgan bu askar, 256-piyoda polkning zaharlangan uch batalyonidan birida xizmat qilib, qarag'ay ostida oxirgi boshpanasini topgan edi. Chorpahildan kelgan bu barvasta yigit boshini orqaga tashlab bemalol yotar, yiqilganda yuzi balchiqqa bo'yalgan, gazdan zaharlangan ko'zlari oqib tushgan; shishib ketgan, yaltiroq qayroq singari yo'g'on tilini tishlab qolgan edi.

— Yur, ketaylik, xudo xayringni bersin! Mayli, yotgan joyida yotaversin, — deb shivirladi Valetning o'rtog'i uning qo'lidan tortib.

Ular bu yerdan ketishdi, ammo shu zahoti ikkinchi bir murdaga duch kelishdi. O'liklar borgan sari ko'proq uchrardi. Bir necha joyda zaharlangan odamlar to'planib yotardi, ba'zilar cho'qqayib o'tirgan joylarida qotib qolgan, boshqalar, go'yo o'tlayotganday to'rt oyoqlab turar, ikkinchi liniyadagi okoplarga olib boradigan xandaqning og'zida bir soldat ikki bukilib yotar, azobga chidolmay tishlab tashlagan qo'lini og'ziga tiqqan edi.

Valet bilan unga yopishib olgan askar ilgarilab ketgan safga chopib yetib oldilar-da, undan o'zib ketib, yonma-yon ketaverdilar. Ular ilon izi bo'lib qorong'ilik ichiga kirib ketgan okop ichiga sakrab tushdilar va ikkovlari ikki yoqqa qarab ketdilar.

Valetning sherigi:

— Yerto'lalarni timirskilab chiqish kerak, balki qolgan-qutgan yegulik narsa bordir, — dedi ikkilanib.

— Yur, ketdik.

— Sen — o'ngga, men — chapga. Biznikilar yetib kelguncha hamma yoqni timirskilab qidirib chiqamiz.

Valet gugurt chaqib, birinchi yerto'laning lang ochiq eshigidan kirdi, shu zahoti u yerdan shisha tiqiniday otilib chiqdi: yerto'lada bir-biriga ko'ndalang bo'lib ikki o'lik yotardi. U uch yerto'laga kirib, bekorga ovora bo'lib chiqdi, to'rtinchisining eshigini bir tepib ochdi, begona bir tilda jaranglagan ovozni eshitib, yiqilib tushayozdi:

— Wer ist das?[1]

Isitmasi chiqib ketgan Valet indamay lip etib o'zini orqaga oldi.

---

[1] Kim bu (nem.).

— Das bist du Otto? Weshalb bist du so spät gekommen?[1] — deb so'radi-yu, nemis yerto'ladan chiqib bir qadam tashladi, so'ngra yelkasini qimirlatib kiftiga tashlangan oldi ochiq shinelini to'g'rilab qo'ydi.

— Qo'lingni ko'tar! Qo'lingni! Taslim bo'l! — deb xirillab baqirdi Valet, oyoqlarini bukib, miltig'ini o'qtalib.

Hang-mang bo'lib, tili kalimaga kelmay qolgan nemis sekin qo'lini ko'tardi va yoni bilan turib, o'ziga tomon qaratilgan nayzaning yiltillagan o'tkir tig'iga angrayib qarab qoldi. Shineli yelkasidan tushib ketdi, bir tomoniga tugma qadalgan ko'kish mundirining cheti ko'tarilib, qo'ltig'ining osti burishib qoldi, ko'tarilgan ishchi qo'llar qaltirar, barmoqlar ko'zga ko'rinmagan pianino klavishlarini chalayotganday qimirlar edi. Valet holatini o'zgartirmay turar, nemisning bo'ydor, g'o'labir gavdasiga, mundirining mis tugmalariga, etigining ikki yoni tikilgan kalta qo'njiga, peshonasiga dol qo'ygan soyabonsiz shapkasiga ko'z yugurtirardi. Keyin birov ustidagi xapqat shinelidan ushlab qattiq tortganday gandiraklab ketdi. Tomog'idan — yo'tal desa yo'talga, hiqichoq desa hiqichoqqa o'xshamaydigan g'alati tovush chiqardi; nemisning oldiga qarab bir qadam tashlab:

— Qoch! — dedi do'rillab. — Qoch, nemis! Senga hech qanday adovatim yo'q. Otmayman.

Valet okop devoriga miltig'ini tirab, oyog'ining uchiga bosib bo'yini cho'zdi, nemisning o'ng qo'lidan ushladi. Uning dadil harakati asirni lol qildi; u o'ziga yetti yot begona bo'lgan tovushning g'alati ohangiga quloq solib, qo'llarini pastga tushirdi.

Valet yigirma yillik mehnatdan qavarib ketgan, qadoq bosgan qo'lini dadil uzatib, nemisning sovuq va shalvillagan panjasini qisdi, so'ngra kaftini ochib ko'rsatdi; qadoq bosgan g'adir-budir, sap-sariq bir burda kaftiga oyning sarg'ish tangalari tushib turardi.

Valet xuddi sovqotganday dildirab:

— Men — ishchiman, — derdi. — Nega endi seni o'ldiray? Qoch! — shuni deb u o'ng qo'li bilan nemisning o'ng yelkasiga sekin turtib, daraxtlarning uchlari bir-biri bilan chalmashib ketgan qora o'rmonni ko'rsatdi. — Qochsang-chi, ahmoq, bo'lmasa biznikilar kelib...

---

[1] Otto, senmisan? Nega buncha kechikding?

Nemis Valetning uzatilgan qo'liga qaradi, oldinga engashib, butun diqqatini to'plab, tushunib bo'lmaydigan so'zlarning yashirin ma'nosini fahmlab olishga urindi. Shu zaylda bir-ikki sekund o'tdi. Uning ko'zlari Valetning ko'zlari bilan to'qnashdi, keyin nemisning ko'zi birdan charaqlab ketdi. U orqasiga bir qadam tashlab, qo'llarini cho'zdi, Valetning qo'llarini mahkam qisib siltadi, hayajonga kelib, yuzlari kulgidan yorishib ketdi, engashib Valetning ko'zlariga qaradi.

— Du entalasst mich?.. O, jetzt hab ish verstanden! Dubist ein russicher Arbiter? Sozial-Demokrat, wil ish? So? O! O! Das ist wie im Traum!.. Mien Bru der, wie kann ish vergessen? Ish finde kine Worte, Nur du bist lin wunder barer wagender Junge… Ich[1]...

Ajoyib tilda gapirilgan jo'shqin so'zlardan Valet faqat savol shaklida berilgan bitta — «sotsial-demokrat?» degan so'zni payqadi.

— Ha, men — sotsial-demokratman. Sen jo'nab qol... Xayr, birodar. Dast panjani cho'z! — Qomati kelishgan bo'ydor bavariyalik bilan ushoqqina rus soldati sezgirlik bilan bir-birlarining gaplarini anglab, ko'zlarini ko'zlariga tikib qaradilar. Bavariyalik shivirlab gapirdi:

— In den Zukii nftigen Klassenkampfer warden wir in den sellen Schut zengraben. Werden wir in den sellen schut zegraben sein, nicht werh, genosse[2] — Shuni deb u bir sakrab, okop ustidagi do'nglikka sakrab chiqdi.

O'rmondan yaqinlashib kelayotgan sepning qadam tovushlari eshitildi. Eng oldinda chex razvedkachilari komandasi o'z ofitseri bilan kelmoqda edi. Ular yerto'ladan chiqqan askarni otib tashlashlariga oz qoldi, soldat yerto'laga yegulik narsa qidirib tushgan edi.

Askar miltiqning qop-qora og'zi o'zi tomon qaratilganini ko'rdi-yu, kapalagi uchib ketib:

— Begona emasman! Ko'zing ko'rmi, og'zingga...

— O'zimizga qarashli, — deb takrorladi u bir buxanka nonni ko'kragiga boladek mahkam bosib.

---

[1] Sen meni qo'yib yuboryapsan-a? Endi tushundim-a? Sen rus ishchisimisan? Men singari sotsial-demokratmisan? A? U... xuddi tushimda ko'rayotgandek bo'lyapman... Birodar, men buni qanday unuta olaman? So'z topolmay qoldim... Ammo sen ajoyib, jasur yigit ekansan... Men... (nemischa).

[2] Kelajakdagi sinfiy janglarda bizlar bir okopda bo'lamiz. To'g'rimi, o'rtoq (nemischa).

Unter-ofitser Valetni tanib, okopdan sakrab o'tdi-da, uning yelkasiga miltig'ining qo'ndog'i bilan o'xshatib bir turtdi:

– Abjag'ingni chiqaraman! Og'zi-burningni qop-qora qon qilaman! Qayerdayding?

Valet suvda bo'kkan nonday bo'shashib borar, hatto yelkasiga tushirilgan zarba ham unga ta'sir etmagandi. U gandiraklab ketdi-da, o'ziga xos bo'lmagan muloyimlik bilan javob berib, unterni hayratda qoldirdi.

– Sal oldinroq ketib qolibman. Ko'p zo'ravonlik qilaverma.

– Senam hadeb dumingni likillataverma! Dam orqada qolib ketadi, dam oldin ketib qoladi. Qoidani bilmaysanmi? Birinchi yil xizmat qilishingmi? – Biroz jim turib: – Tamakidan bormi? – deb so'rab qoldi.

– Kukun bo'p ketgan-da.

– Mayli, ber.

Unter tamakisini tutatib, vzvodning oxirgi safiga borib qo'shildi.

Tongotar chog'ida razvedkachi chexlar nemislarning kuzatish postiga yaqin borib qoldilar. Nemislar baravariga o'q uzib, tinchlikni buzdilar. Ikki marta, oradan ma'lum vaqt o'tgach, qariyb baravariga o'q uzdilar. Okoplar ustida qizil raketa havoni yoritdi, g'ala-g'ovur eshitildi, havoda raketalarning qizil shu'lasi so'nmay turib, nemislar to'pga tuta boshladilar.

Bum! Bum! – gumburlagan ovozlar ketidan yana ikki marta zambarak tovushi yangradi: Bum! Bum!

To'p o'qlari baayni havoni parmalagandek, borgan sari kuchayib, birinchi yarim rota jangchilarining boshlari tepasidan guvullab o'tdi; biroz sukutdan keyin uzoqda, old tomondagi Stoxod daryosidan kechib o'tiladigan joyda «paq!.. puq!..» etib yorila boshladi.

Razvedkachi chexlardan qirq sarjin orqaroqda kelayotgan askarlar bir yo'la o'q otilgandan keyin yer bag'irlab yotib oldilar. Raketa qip-qizil shu'la sochib hamma yoqni yoritdi; uning yorug'ida Valet soldatlarning butalar va daraxtlar orasida chumoli singari o'rmalab ketayotganlarini, jonlarini saqlab qolish uchun bilchillagan yerga tappa tashlab yotib olganlarini ko'rdi. Odamlar har bir o'nqir-cho'nqir joy atrofida g'imirlashar, har bir do'nglik panasiga biqinishar, har bir chuqurchaga boshlarini tiqishardi. Shunga qaramay, pulemyot

o‘qlari o‘rmonga baayni may yomg‘iridek shatir-shutur yog‘a boshlagach, askarlar chidash berolmadilar: bo‘yinlarini yelkalari ichiga tortib, qurt singari yerga qapishib, qo‘llarini ham, oyoqlarini ham bukmay, orqalaridan iz qoldirib, balchiqda ilonday sudralib ketdilar... Ba’zilar sakrab o‘rinlaridan turib qochib qolardi. Yoriladigan o‘qlar o‘rmondagi igna bargli shoxlarni sindirib, qarag‘aylarni tilishlab, zaharli ilonday vishillab yerga tushar, paqillab yorilib ketardi.

Ikkinchi liniyadagi okoplarga qaytib kelganlarida birinchi yarim rota o‘n yetti askarni yo‘qotgan edi. Nariroqda alohida sotnya kazaklari qaytadan saf tortib, birinchi yarim rotaning o‘ng tomonida ehtiyotlik bilan borgan edilar, soqchilarni o‘ldirib, to‘satdan nemislarni bosishlari ham mumkin edi-yu, lekin razvedkachi chexlarga qarab baravariga o‘q otishganida hamma uchastkadagi nemislar sergaklanib qoldilar. Ular pala-partish o‘q uzib, ikki kazakni o‘ldirdilar, bittasini yarador qildilar. Kazaklar o‘ldirilgan kazaklar bilan yaradorni o‘zlari bilan olib qaytdilar, saf tortar ekanlar, gaplashishardi:

— O‘liklarimizni ko‘mish kerak.

— Bizsiz ham ko‘mishadi.

— Shu topda tiriklarning g‘amini yeyish kerak, o‘liklarga ko‘p narsa kerakmas.

Oradan yarim soat o‘tgach, polk shtabidan buyruq olindi: «Artilleriya tayyorgarligidan keyin batalyonga alohida kazaklar sotnyasi bilan birlikda dushman ustiga hamla qilib, uni birinchi liniyadagi okoplardan surib chiqarishni buyuraman».

Kuchsiz artilleriya tayyorgarligi kunduz soat o‘n ikkigacha cho‘zildi. Kazaklar va askarlar qorovul qo‘yib, yerto‘lalarda dam olmoqda edilar. Choshgohda hujumga o‘tdilar. So‘lroqda, asosiy uchastkada, to‘plar gumburlardi. U yerda yana hujumga o‘tgan edilar.

O‘ng qanotning eng chekkasida Zabaykal kazaklari, so‘lroqda alohida kazaklar sotnyasi bilan birga Chernoyarsk polki, uning nariyog‘ida — Fanagoriya grenadyorlar polki, ulardan narida — Chembarskiy, Bugulminskiy, 208-piyoda polklari, Pavlogradskiy, Vengrovskiy polklari harakat qilishmoqda edi. 53-diviziya polklari front markazida hujumga o‘tgan edilar; 2-Turkiston o‘qchilar diviziyasi so‘l qanotni egalladi. Hamma uchastkalardan suron eshitilar, ruslar har tomondan hujum qilayotgan edilar.

Kazaklar sotnyasi orasi ochiq-ochiq saf bilan bormoqda edilar. Ularning so'l qanotlari Chernoyarsk polkining o'ng qanoti bilan tutashgan edi. Okoplar ustidagi do'ngliklar ko'zga chalinishi bilan nemislar shiddatli o't ochdi. Kazaklar suron ko'tarmay, bir joydan ikkinchi joyga chopib o'tar edilar; yotib olib, miltiqlarining o'qdonidagi o'qlarni bo'shatar, yana turib chopar edilar. Okoplardan ellik qadam berida butunlay yotib olib, boshlarini ko'tarmay o'q uzdilar. Nemislar butun liniya bo'ylab okoplar oldiga to'rsimon sim o'ralgan to'siqlar chiqarib tashladilar. Afonka Ozerov otgan ikki granata to'rga tegib sakrab orqaga qaytib yorildi. U boshini sal ko'tarib, uchinchi granatani otmoqchi edi, ammo chap yelkasidan pastroqqa o'q tegib, dumg'azasidan teshib chiqdi. Afonkaga yaqin yerda yotgan Ivan Alekseyevich, u oyoqlarini tipirlatib keyin jimib qolganini ko'rdi. Bir qo'li cho'ltoq Alyoshkaning ukasi Proxor Shamilni ham o'ldirdilar. Uchinchi o'q sobiq ataman Manitskovni qulatdi, shu zahoti bir o'q kelib Shamillarning bir oyog'i cho'loq qo'shnisi, kokildor Yevlantiy Kalininga tegdi.

Ikkinchi vzvoddan yarim soat ichida sakkiz odam nobud bo'ldi. Sotnya komandiri – yasovulni, ikki vzvod ofitserini o'ldirdilar, shundan so'ng sotnya komandasiz emaklab orqaga chekindi. Kazaklar o'q yetmaydigan joyga kelib to'plandilar – ularning yarmi halok bo'lgan edi. Chernoyarchilar ham chekindilar. Birinchi batalyonda talafot bundan ham ko'p edi, ammo shunga qaramay, polk shtabidan buyruq keldi: «Darhol qaytadan hujumga o'tilsin, nima qilib bo'lsa ham dushmanni birinchi liniya okoplaridan surib chiqarilsin va dastlabki pozitsiya egallansin. Butun liniya bo'ylab olib borilayotgan jang harakatlarining muvaffaqiyati shunga bog'liqdir».

Sotnya taralib, siyrak saf tortib yana hujum boshladi. Nemislar shiddatli o't ochganlaridan keyin okoplardan yuz qadam berida yerga yotib oldilar. Yana qismlar kamaya boshladi, es-hushlarini yo'qotgan odamlar yerga bag'irlarini berib, qimir etmay, boshlarini ko'tarmay yotishar, ularni o'lim vahmi bosgan edi.

Kechga tomon Chernoyarsk polkining ikkinchi yarmi rotasi sarosimaga tushib, tumtaraqay qochdi. «Qurshab olibdilar!» degan hayqiriq kazaklarning qulog'iga chalindi. Kazaklar o'rinlaridan tura solib, butalarni sindira-sindira, miltiqlarini yo'qotib orqaga qochdilar. Ivan

Alekseyevich chopganicha bexatarroq joyga kelib, to'p o'qi sindirib ketgan qarag'ay ostiga o'zini tashladi, zo'rg'a nafasini rostlab oldi, shu on unga qarab kelayotgan Gavrilo Lixovidovga ko'zi tushdi. Lixovidov mast odamday oyoq tashlab, ko'zlarini yerga tikib kelar, bir qo'li bilan havodagi bir narsani ushlamoqchi bo'lar, ikkinchi qo'li bilan yuzidagi ko'zga ko'rinmas o'rgimchak inini sidirib olib tashlashga urinardi. Na qo'lida miltig'i, na yonida qilichi bor edi, terdan ho'l bo'lib ketgan qoramtir malla tekis sochlari osilib qoshiga tushgandi. U o'rmon ichidagi ochiq joyda gandiraklab yurib, Ivan Alekseyevich oldiga keldi. Alang-jalang, g'ilay ko'zlarini yerga tikib, turib qoldi. Uning tizzalari qalt-qalt titrar, bukilib-bukilib ketar, Ivan Alekseyevichning nazarida Lixovidov parvoz qilish uchun tiz bukayotganday edi.

Ivan Alekseyevich bir nima deyish uchun:

— Ana... ko'rdingmi... — deb gap boshlagan edi, Lixovidovning yuzi tirtishib ketdi.

— To'xta! — deb baqirdi u, so'ngra cho'qqayib o'tirib olib, panjalarini tarvaqaylatib, qo'rqa-pisa atrofga ko'z yugurtirdi. — Quloq sol. Men hozir ashula aytaman. Bir parranda boyqushning oldiga uchib kelib aytibdi.

Menga ayt-chi, boyqushim
Sendan ham katta kim bor?
Sendan ulug'roq kim bor?
Burgut podsho ekan.
Kalxat bakovul ekan,
Bo'ktargi qush – yasovul.
Kabutarlar–uralli,
Musicha – atamanli.
Maynalar qalmoq ekan,
Zag'chalar lo'li ekan,
Zag'izg'on to'ra ekan,
O'rdak piyoda ekan,
G'ozlar moldavan ekan.

— Shoshma! — dedi Ivan Alekseyevich dokadek oqarib. — Lixovidov, senga nima bo'ldi a?.. Betobmisan? A?

— Xalaqit berma! — dedi Lixovidov qizarib. Uning bo'zargan lablari bema'ni iljaydi, boyagiday dahshatli kuy bilan ashula boshladi:

G'ozlar moldavan ekan,
Tug'adoq ahmoq ekan,
Qurvaqalar sho'x ekan,
Qarg'alar to'pchi ekan,
Quzg'unlar o'qchi ekan,
Baliqchi qush – dutorchi.

Ivan Alekseyevich sapchib o'rnidan turdi:

— Yur, o'zimiznikilar oldiga boraylik, bo'lmasa — nemislar bizni tutib olishadi! Eshityapsanmi?

Lixovidov qo'lini tortib olib, og'zidan iliq tupugin sachratib, shoshib-pishib baqirib ashula ayta boshladi.

Bulbullar chaladi soz,
Qaldirg'och balandparvoz.
Qora qush faqir ekan,
Chittak o'lponchi ekan,
Chumchuq o'nboshi ekan.

Birdan ovozi o'chib, keyin xirillab mungli ovoz bilan ashula ayta boshladi. Uning qarishib qolgan og'zidan ashula emas, bo'rining uvlashiga o'xshash ovoz borgan sari zo'rayib chiqardi. O'tkir so'yloq tishlari ustida oppoq tupugi ko'piklanib tovlanardi. Ivan Alekseyevich yaqindagina qalin o'rtog'i bo'lgan Lixovidovning bejo qiyiq ko'zlariga, sochlari silliq qilib taralgan boshiga, oq mumdan yasalgandek quloqlariga qo'rquv aralash qarab turardi. Lixovidov jonjahdi bilan bo'kirib ashula aytardi:

Shon-shuhratdan darak berar yangrab karnay
Orqamizda qolib ketdi ulkan Dunay,
Turk sultonin yengdik, zafar qozondik biz,
Chumolidek qirlar oshib jo'nadik biz
Miltiqlardan o'q uzadi Don kazagi.
Tovuq, kurkang bo'lsa ovlab olamiz biz,
O'g'il-qizing bo'lsa olib ketamiz biz.

Ivan Alekseyevich sayhon yerda oyog'ini arang sudrab kelayotgan Martin Shamilni ko'rib:

— Martin, hoy Martin, bu yoqqa kel, — deb chaqirdi.

Shamil miltig'iga tayanib uning oldiga keldi. Ivan Alekseyevich ko'zi bilan jinni bo'lib qolgan o'rtog'ini ko'rsatib:

— Uni olib borib topshirishga yordamlash. Ko'ryapsanmi? — dedi. — Bo'ladigani bo'libdi. Miyasini yeb qo'yibdi.

Shamil ich ko'ylagining yengini uzib olib o'q tekkan oyog'ini bog'ladi; Lixovidovga qaramasdan uning bir qo'ltig'iga, Ivan Alekseyevich ikkinchi qo'ltig'iga kirib, jo'nadilar.

Lixovidov endi pastroq ovoz bilan:

Chumolidek qirlar oshib jo'nadik biz.

deb honish qildi. Shamil esa aftini burishtirib:

— Qo'ysang-chi ashulangni! Xudo haqi, shovqinlama. Esingni yeb qo'yibsan, qo'y! — dedi.

Tovuq, kurkang bo'lsa ovlab ketamiz biz.

Lixovidov kazaklarning qo'lidan yulqinib chiqishga harakat qilar, ashula aytishdan to'xtamas, ahyon-ahyonda kaftlari bilan ikki chakkasidan qisar, tishlarini g'irchillatar, osilib tushgan quyi jag'ini qaltiratib, junun vodiysidan esgan qaynoq shamoldan aynagan boshini bir yoqqa qiyshaytirardi.

IV

Stoxoddan qirq chaqirim pastda janglar bormoqda. Ikki hafta bo'yi to'plarning guldurosi tinmadi, kechalari uzoq moviy osmonda projektor nurlarining aksi yallig'lanib turdi, ular xira kamalak tusda nur sochar, jimjima qilar, urush alangasini bu yerdan kuzatib turganlarning yuragiga allaqanday g'ulg'ula solar edi.

Botqoqlik, xilvat joyda o'n ikkinchi kazak polki joylashgan edi. Kunduzlari sayoz okoplar ichida engashib chopgan avstriyaliklarni onda-sonda o'qqa tutishardi, kechalari esa botqoqlikka kirvolib uxlashar yoki qarta o'ynashardi; yolg'iz poyloqchilargina jang ketayotgan yerdagi qizg'ish alanga aksini kuzatib turishardi.

Sovuq kechalardan biri, yiroqdagi alanga aksi osmonni charaqlatganda Grigoriy Melexov yerto'ladan chiqib, xandaq ichi bilan

yurib okoplar orqasidagi pastak do'nglik ustidagi keksa o'rmonzorga ko'tarildi. Grigoriy keng, xushbo'y yerga yotib oldi. Yerto'la ichi papiros tutuniga to'lgan, qo'lansa qora tutun qoplab olgan stol atrofida sakkiz kazak qartabozlik qilmoqda. Tepalik ustidagi o'rmonda esa noma'lum bir qushning qanotidan hosil bo'lgan shamol singari shabada yelardi. Ushuk urgan o't-o'lanlardan ko'ngilni ozdiruvchi hid anqir edi. Uchlarini to'p o'qlari kallaklab ketgan o'rmon ustida zulmat qanot yoygan, Hulkar yulduzining nuri so'nmoqda, yetti qaroqchi yulduzlar turkumi Somon yo'lidan chaproqda laylak bo'lib to'ntarilib tushgan aravaga o'xshab yotardi. Faqat shimol tomondagina Oltin Qoziq yulduzi bir tekis nur sochib turmoqda.

Grigoriy ko'zlarini qisib, Oltin Qoziq yulduziga qaradi, xira va sovuq yulduzlarning o'tkir nuridan kiprik ostlarida shu yo'sin sovuq yoshlar tirqirab chiqdi.

Shu tepalik ustida yotar ekan, negadir, Nijne-Yablonovsk qishlog'idagi Yagodnoyega — Aksinya oldiga borgan kechasini o'yladi; Aksinya esiga tushgach, yuragi tuzdek achishib ketdi. Zamonlar o'tishi bilan unutilayozgan nihoyasiz qorong'i yo'llar, yot kishilarning basharalari esiga tushdi. Aksinyani so'nggi marta ko'rgandek ko'z oldiga keltirmoqchi bo'lganda yuragi birdan o'ynab ketdi. O'sha vaqtda uning yuziga qamchi izi tushib, ko'karib qolgan edi. Ammo xotirasi kuchlilik qilib, andek bir tomonga qiyshaygan, kulib turgan o'ktam basharani ko'z oldiga keltirar edi. Ana u boshini burib, chaqnab turgan qora ko'zlari bilan yer ostidan mehr bilan sho'x nazar tashlaydi, behayo-suqtoy lablari allaqanday ta'rifdan tashqari haroratli pichirlaydi, so'ngra asta nigohini olib qochib, teskari o'giriladi. Qoracha bo'yniga mayin sochi tushib turardi... Bu sochlarni u bir vaqtlar o'pishni yaxshi ko'rardi.

Grigoriy bir cho'chib tushdi. Nazarida Aksinyaning xushbo'y, mast etuvchi sochlarining bo'yi bir lahza dimog'iga kirganday bo'ldi; shu on u bukilib, burun kataklarini kattaroq ochdi, ammo hayhot! Uni hayajonga solgan hid – xazon hidi edi. Aksinyaning chehrasi ko'zi o'ngidan lip etib g'oyib bo'ladi, Grigoriy ko'zlarini yumadi. Kaftlarini g'adir-budur yerga tirab, ko'zlarini yummay qulagan qarag'ay orqasida, osmonning bir chekkasida muallaq turib qolgan Oltin Qoziq yulduzi xuddi zangori kapalakday jimjima qilib turadi.

Bir-biriga qovushmagan xotiralar Aksinyaning siymosini parda bilan qoplab olganday bo'ldi. U Aksinyadan ajralishgandan keyin Tatarsk xutorida kechirgan haftalarini esladi; kechalari o'sha vaqtda Natalya unga erkalanib tinka-madorini quritgan, go'yo ilgarigi – yoshligidagi sovuqligining hissasini chiqarmoqchiday bo'lardi. Kunduzlari esa uy ichidagilar unga parvona bo'lib, xushomadgo'ylik qilishar; qishloqdagilar, birinchi Georgiy nishonini olgan kishini hurmat bilan qarshilashardi. Grigoriy hamma yerda, hatto oilada ham hammaning hayratomuz hurmat nazari bilan qiya boqishlarini ko'rardi. Uning bir vaqtlar o'z so'zli xushchaqchaq yigit bo'lgan o'sha Grigoriy ekaniga go'yo ishonmasdilar. U bilan keksalar xutor maydonida xuddi o'z tengqurlaridek suhbatlashar, unga duch kelganlarida bosh kiyimlarini olib ta'zim qilishar, xotin-xalaj, qizlar esa shineliga yo'l-yo'l bog'ichli krest osgan Grigoriyning andak bukchaygan qaddi-qomatiga suqlanib tikilardilar. Panteley Prokofyevichning yonida cherkovga yoki mashq maydoniga ketayotganida otasining g'ururlanganini ko'rardi. Bu xushomadgo'ylik, izzat-hurmat, zavqlanishlarning achchiq zahari bir vaqtlar Garanja uning miyasiga singdirgan haqiqat urug'larini zaharlab xarob etdi. Grigoriy frontdan kelganida boshqacha edi, ketganida esa tamoman aynib qaytdi. Ona suti bilan kirgan va butun umr qon-qoniga singib ketgan kazaklik fe'latvori insoniy haqiqatlardan g'olib chiqdi.

Ozgina ichib olgan Panteley Prokofyevich xayrlashish vaqtida oq oralagan tim qora sochini silar ekan, hayajonlanib:

— Bilgan edim, Grishka, sendan yaxshi kazak chiqishini ko'pdan bilgan edim, — dedi. — Bir yoshga to'lganingda, qadimiy kazak odatiga ko'ra, seni hovliga olib chiqdim. Esingdami, kampir? So'ngra seni otga mindirdim. Sen tirmizak qo'lchalaring bilan otning yoliga tarmashib olding. O'sha vaqtdayoq sendan ma'no chiqishiga aqlim yetgan edi, gapim to'g'ri chiqdi.

Grigoriy frontga ketganida sofdil yaxshi kazak edi. Qalbida urushning bema'niligini bilib turib, kazaklik shuhratini sharaf bilan himoya qildi.

Bir ming to'qqiz yuz o'n beshinchi yil. May oyi. Olxovchik qishlog'i yaqinida ko'm-ko'k o'tloqni toptab, o'n uchinchi nemis piyoda temir polki yopirilib kelardi. Pulemyotlar chirqillar, daryo

yoqasida yotib olgan rus rotasining og‘ir pulemyoti tarillardi. O‘n ikkinchi kazak polki jangga kirgan edi. Grigoriy o‘z sotnyasidagi kazaklar bilan engashib chopib borar va atrofga alanglab, tikka kelgan laxcha cho‘g‘ oftobni va daryoning sekin oqadigan yerida aks etgan sariq barkashdek aksini ko‘rardi. Daryoning nariyog‘ida, terakzor orqasida ot yetaklovchilar yashiringan, ro‘parada esa – burgut tamg‘ali mis kaska kiygan nemislar... Shamol o‘qlarning sarg‘ish achchiq tutunini chayqaltirardi.

Grigoriy astoydil mo‘ljalga olib, shoshmasdan otar, o‘q uzgandan keyin nishonni ko‘rsatuvchi vzvod komandirining komandasiga quloq solardi. U gimnastorkasining yengiga o‘rmalab chiqqan xonqizini asta olib tashladi. So‘ngra hujumga o‘tildi...

Grigoriy novcha nemis leytenantini temir qoplangan qo‘ndog‘i bilan urib yiqitdi, uch nemis soldatini asir oldi, so‘ngra boshlaridan oshirib o‘q uzib, ularni daryo tomonga qarab qochishga majbur qildi.

Rava-Russkaya yonida, 1915-yil iyulida kazak vzvodi bilan birgalikda kazaklarning avstriyaliklar tomonidan bosib olingan batareyasini qaytarib oldi. O‘sha yerda, jang mahalida dushmanning orqasiga o‘tdi-da, qo‘l pulemyotidan o‘t ochib, hujum qilib kelayotgan avstriyaliklarni tumtaraqay qochirdi.

Bayanetsdan o‘tgach, olish-tutishda semiz bir avstriyalik ofitserni asir oldi, qo‘y singari uni otga o‘ngarib, chopib ketayotganda, ichi o‘tgan ofitserning tarqatgan badbo‘y hidini va qo‘rqqanidan terlab-pishib titraganini doim payqab bordi.

Yaydoq tepa ustida yotar ekan, ashaddiy dushmann Stepan Astaxovga duch kelib qolgani esiga tushdi. Bu voqea 12-polkni frontdan olib, Sharqiy Prussiyaga tashlagan paytlarida ro‘y bergan edi. Kazak otlari nemislarning tekis dalalarini payhon qilar, kazaklar nemis uylariga o‘t qo‘yar edilar. Ular bosib o‘tgan yo‘llarda qora tutunlar buruqsar, kuyib yongan uylarning devorlari va cherepitsali tomlari kuyib tutab yotardi. Stolipin shahri yonida polk 27-Don kazak polki bilan birlikda hujumga o‘tdi. Grigoriy oriqlab ketgan akasini, soqolini ustara bilan oldirgan Stepanni va boshqa hamqishloq kazaklarni ko‘rib qoldi. Jangda polklar mag‘lubiyatga uchragan edi. Nemislar ularni qurshab olgandi. Qisib kelayotgan dushman halqasini yorib o‘tish uchun o‘n ikki sotnya birin-ketin hujumga o‘tganida, Grigoriy

Stepanning o‘q tegib o‘lgan qora to‘riq otidan sakrab, o‘mbaloq oshganiga ko‘zi tushib qoldi. Ko‘ngliga birdan kelgan qat’iy qarordan suyunib ketgan Grigoriy jilovini tortib, otini arang to‘xtatdi. So‘nggi sotnya kazaklari sal bo‘lmasa Stepanni bosib ketayozdi, kazaklar yonidan o‘tib ketganidan keyin uning oldiga ot soldirib borib:

— Uzangidan ushlab ol!– deb qichqirdi. Stepan uzangining qayishini mahkam changallab, Grigoriyning oti yonida yarim chaqirimcha yo‘l bosdi.

— Sekinroq chop, xudo xayr bergur, — deb iltijo qildi u nafasi qisilib.

Ular eson-omon qurshovdan chiqib oldilar. Sotnya shoshib-pishib intilayotgan o‘rmonchaga yuz sarjincha masofa qolgan edi, o‘q Stepanning oyog‘iga kelib tegdi, qo‘li uzangidan chiqib ketib, mukkasi bilan tushdi. Shamol Grigoriyning furajkasini uchirib ketib, sochi ko‘zlarini berkitib qoldi. Grigoriy sochini orqaga tashlab atrofga alangladi. Stepan oqsoqlanib buta ostiga yetib keldi-da, kazakcha furajkasini uning ustiga uloqtirdi va o‘tirib olib shoshganicha qizil hoshiyali chalvarini yecha boshladi. Tepa yon bag‘ridan nemislar tap-tup qilib, yugurishib chiqmoqda edilar. Grigoriy Stepanning tirik qolmoq istagini payqadi, shuning uchun o‘zini soldat qilib ko‘rsatish maqsadida kazakcha chalvarini yechayotgan edi. U vaqtda nemislar kazaklarni asir olmasdilar... Grigoriy qalb amriga itoat etib, otning boshini burdi-da, buta yoniga chopib ketayotib, irg‘ib otdan tushdi-yu:

— Minib ol, — dedi.

Stepanning yalt etib bir qaraganini Grigoriy hech unutmaydi. U Stepanni egarga o‘tqazib, uzangini ushlaganicha, terlab-pishgan ot yonida chopib ketdi.

O‘qlar chiyillab havoni yorib o‘tar, uzoqdan ularning «tyu» degan ovozi kelardi.

Grigoriyning boshi ustidan rangi dokadek oqarib ketgan, Stepanning yon-atroflaridan o‘qlarning havoni kesib, zing‘illab o‘tishi eshitilar, orqa tomondan akatsiya shoxlarining qarsillab singanini eslatuvchi o‘q ovozlari kelardi.

O‘rmonga kirganda Stepan og‘riqdan ijirg‘anib egardan tushdi; tizginni qo‘yib yuborib, bir chekkaga qarab oqsoqlanib ketdi. Chap

etigining qo'njidan qon oqar, yaralangan oyog'ini har bosganda etigining ko'chgan tagcharmi orasidan olcharang qon sizib chiqar edi. Stepan shoxlari tarvaqaylagan eman daraxtining tanasiga suyanib, barmog'i bilan Grigoriyni imlab chaqirdi, Grigoriy uning oldiga keldi.

— Etigim qonga liq to'ldi, — dedi Stepan.

Grigoriy indamay boshqa tomonga qarab turardi.

— Grishka... shu safar hujumga o'tganimizda... eshityapsanmi, Grigoriy, — dedi Stepan cho'kkan ko'zlari bilan Grigoriyning ko'zlariga qaramoqchi bo'lib. — Yopirilib ketayotganimizda orqangdan senga uch marta o'q uzdim... Seni xudo asrab qoldi.

Ular ko'z urishtirib qoldilar. Stepanning chuqur tushib ketgan ko'zlari bigizdek teshib o'tgudek bo'lar edi. Stepan mahkam qisgan tishlari orasidan gapirib:

— Sen meni o'limdan qutqarib qolding..... Rahmat.., Aksinya uchun kechirolmayman. Hech ko'nglim yo'q. Meni o'z holimga qo'y, Grigoriy, — dedi.

— Xohishing, — deb javob qildi Grigoriy.

Ular yana avvalgidek bir-birlariga kushanda bo'lib ajraldilar.

Shundan so'ng... may oyida polk Brusilov armiyasining qolgan qismlari bilan Lutsk yonida frontni yorib o'tib, dushman orqasida harakat qildi, dushmanni savaladi, ba'zan esa o'zi ham zarba yedi. Lvov yonida Grigoriy hech kimdan so'ramay, sotnyani ergashtirib hujumga kirdi, avstriyaliklarning zambaraklarini komandasi bilan qo'lga tushirdi. Bir oydan keyin tunda «til» tutib kelish uchun Bug daryosidan suzib o'tdi. Postda turgan soqchini gupullatib yiqitdi. Chorpahildan kelgan zabardast nemis ustiga minib olgan yarim yalang'och Grigoriyni anchagacha gir aylantirib, tipirchilab, o'zini hech bog'latgisi kelmadi.

Grigoriy miyig'ida kulib, shu voqeani esladi.

Yaqinginada va o'tmishda bo'lgan jang maydonlarida tentirab yurgan kunlari oz bo'lganmi? Grigoriy kazaklik sha'nini qattiq saqladi, fidokorlik ko'rsatish uchun payt poyladi, tavakkalchilik va telbalik qildi, avstriyaliklarning orasiga boshqacha kiyinib bordi, qon to'kmay chegara soqchilarini asir oldi, mardonavorlik ko'rsatdi, urushning dastlabki kunlarida qalbida bo'lgan rahm-shafqat his-

si abadiy ko'nglidan ko'tarilganini his qildi. Yuragi toshga aylandi, sho'r bosgan yerdek qotib qoldi. Sho'rxok yer suv singdirmagandek, Grigoriyning ham yuragida rahm-shafqatdan asar qolmadi. O'zgalarning va o'zining hayotiga o'yinchoqdek qaraydigan bo'lib qoldi; shu sababdan botir degan nom chiqarib, to'rtta Georgiy kresti va to'rtta medal oldi. Ahyon-ahyonda bo'ladigan paradlarda ko'p janglarning o'q-dori tutuni bilan chulg'angan polk bayrog'i ostida turdi; ammo avvalgidek chehrasi ochilib kulolmasligini yaxshi bilardi; ko'zlari cho'kib ketganini, yonoq suyaklari turtib chiqib qolganini payqardi; go'dakni o'par ekan, porlab turgan ko'zlariga tik qarash qiyinligini ham bilardi; ko'kragi to'la krestlar, ofitserlik darajasiga erishish naqadar qimmatga tushganini Grigoriy tushunardi.

Grigoriy yonboshiga shinelining etagini qayirib, chap qo'li tirsagiga tayanib, tepalik ustida yotardi. O'tmish hodisalar xotirasida jonlanardi, urush to'g'risidagi yaxlit va laxtak xotiralar orasiga bolalik davridagi, qandaydir, uzoq bir hodisa moviy ip singari chirmashib ketardi. Grigoriy bir lahza bolalik chog'ini o'ylab dam xursand, dam xafa bo'lib ketardi, keyin uning xayoli yaqindagina bo'lib o'tgan hodisalar ustiga ko'char edi. Avstriyaliklar okopida kimdir mandalinni boplab chalardi. Shamol uchirib kelayotgan to'lqinli tovushlar Stoxod daryosidan o'tib, odamlarning qoni ko'p marta to'kilgan yer ustida mayin yangrar edi. Tik osmonda yulduzlar cho'g'dek yonar, qorong'ilik quyuqlashar, botqoqlik ustini tungi tuman chulg'ar edi. Grigoriy ustma-ust ikkita sigarka chekdi, miltig'ining qayishini dag'al siladi, chap qo'lining panjasiga tayanib, mehribon zamindan asta ko'tarildi-da, okoplar tomon yurib ketdi.

Yerto'lada hamon qarta o'ynab o'tirishardi. Grigoriy o'zini nar ustiga tashladi, allaqachon bosib o'tgan, o't bosib ketgan xotiralar so'qmog'ida yana adashib-uloqib yurmoqchi bo'ldi, lekin uyqu elitdi; qanday yotgan bo'lsa, o'sha taxlitda, noqulay vaziyatda uxlab qoldi. Tushda garmsel qovjiratgan poyonsiz dashtlarni, pushtirang gullar o'sib yotgan yerlarni, zangori gulli janbillar orasidagi taqasiz otlar izini ko'rdi. Dasht bo'm-bo'sh va suv quygandek jimjit. Grigoriy qumloq, zarang yer ustida yurib ketayotgan emish, ammo qadam tovushi eshitilmas emish, shundan vahimaga tushib qo'rqqan emish... Uyg'onib, boshini ko'tardi, noqulay yotib qolgani uchun chakkasi-

ga qizil izlar tushib qolgan edi. Grigoriy xuddi allaqanday xushbo'y o'tning hidi bir lahza dimog'iga urib, olazarak bo'lib qolgan otdek anchagacha tamshanib turdi. Shundan so'ng u tush ko'rmay, dong qotib uxlab qoldi.

Ertasiga Grigoriy negadir ko'ngli xira bo'lib uyg'ondi.

— Nega tumtayib qolding, a? Stanitsa tushingga kirdimi? — deb so'radi Kokildor.

— Topding. Tushimda dashtda yurganmishman. Ko'nglim shunday buzildiki... Qani endi uyga borsam. Podshoga xizmat qilish jonga tegdi.

Kokildor miyig'ida kulib qo'ydi. U yerto'lada doim Grigoriy bilan birga turardi, zo'r hayvon o'zidan zo'rroq hayvonga sipolik qilganiday, u ham Grigoriyni shunday izzat qilardi; 1914-yilgi dastlabki janjaldan beri ularning orasida mashmasha chiqmagan edi, Kokildorning ta'siri Grigoriyning xarakteriga va ruhiga o'tib qolgan edi. Urush Kokildorning fikrini ancha o'zgartirib yubordi. Shuning uchun ham u nuqul urushni inkor etadigan bo'lib qoldi. Podsho saroyida majlis qurgan xoin generallar va nemislar to'g'risida gapirgani-gapirgan edi. Ittifoqo u shunday deb qoldi: «Modomiki, malikaning o'zi nemis naslidan ekan, yaxshilik kutmay qo'ya qol. Payti kelganda u bizni sariq chaqaga sotib yuboradi...»

Bir kuni Grigoriy, unga Garanja o'rgatib ketgan gaplarni tushuntirib bergan edi, Kokildorga ma'qul bo'lmadi.

U zaharxanda qilib kulib, yarg'oq boshiga shapatilab turib:

— Bu gaplar quruq safsata, xolos, — dedi. — Shu to'g'rida Mishka Koshevoy ham chetan devor ustiga chiqib olgan xo'rozday qichqiradi. Bu revolyusiyalardan hech qanday ma'ni chiqmaydi, tantiqlik, xolos. Sen shuni bilib qo'y, biz, kazaklarga birovning hukumati emas, o'z hukumatimiz kerak. Bizga Mikolay Mikolaichday[1] qattiqqo'l podsho kerak. Mujiklar bilan yo'limiz bir emas. Ularning kasali boshqa — yerni tortib olish payida, ishchilar esa maoshim oshsin deydi. Bizga nima qoladi. Yerlarimiz oshib-toshib yotibdi, bundan

[1] Nikolay Nikolayevich (1856–1929) ulug' knyaz. Jahon urushi boshida rus armiyasining oliy bosh qo'mondoni bo'lgan. Grajdanlar urushi vaqtida chet elga qochib ketgan. U yerda Vrangel va aksari monarxistlar panohida rus taxtiga «da'vogarlar»dan biri bo'lgan edi.

boshqa nima kerak? Hammasi quruq gap. Podshohimiz o‘zi rasvo, yashirishning hojati yo‘q. Otalari qattiqqo‘l edi, bunisining beshinchi yil inqilobidagidek axir ishkali‘chiqadi, charxpalak bo‘lib, oyog‘i osmondan keladi. Bu bizga qo‘l kelmaydi. Xudo yuzini teskari qilsin, agar podshoni taxtdan tushirsalar, bizga ham navbat keladi. Shunda eski adovatlar qo‘zg‘alib, yerlarimizni mujiklarga bo‘lib berishadi. Quloqni ding qilib turish kerak.

— Sen doim bir tomonlama o‘ylaysan, — dedi Grigoriy xo‘mrayib.

— Bekor aytibsan-e! Hali ona suting og‘zingdan ketgani yo‘q, xomsan, g‘o‘rsan. Hali shoshma, ta’ziringni berganlaridan keyin kimning gapi to‘g‘riligini bilib qolasan.

Odatda shu bilan suhbat uzilar edi. Grigoriy jim qolar, Kokildor esa gapni boshqa yoqqa burib yuborardi.

O‘sha kuni bir voqea Grigoriyni noqulay ahvolga solib qo‘ydi. Tush paytida har vaqtdagidek dala oshxonasi tepalikning nariyog‘idan chiqib, kelib to‘xtadi. Kazaklar bir-birlaridan oldinroq borish uchun shoshilib oshxona oldiga to‘plandilar. Uchinchi vzvodga ovqat keltirish uchun Mishka Koshevoy borar edi. U uzun yog‘ochga ilingan, bug‘i chiqib turgan koteloklarni yerto‘laga olib kirar ekan:

— Bu o‘taketgan rasvogarchilik! Nima, biz itmizmi? — deb baqirdi.

— O‘zi nima gap? — deb so‘radi Kokildor.

— Bizni sasigan, qurtlatan go‘sht bilan boqyaptilar! — deb qichqirdi Koshevoy jig‘ibiyroni chiqib.

U boshini bir silkitib, chirmashib o‘sgan yetmak singari tillarang kokilini orqaga tashlab, koteloklarni taxta so‘ri ustiga qo‘ydi-da, Kokildorga ko‘z qirini tashlab:

— Hidlab ko‘r, karam sho‘rvadan nimaning hidi keladi? — dedi.

Kokildor o‘z kotelogi ustiga engashdi-da, burun kataklarini kerib, aftini bujmaytirdi. Koshevoy ham beixtiyor unga taqlid qilib, burun kataklarini kerib, rangpar yuzini burishtirdi.

— Sasigan go‘sht, — dedi Kokildor.

U jirkanib, kotelogini bir chekkaga surib qo‘ydi-da, Grigoriyga qaradi.

Grigoriy ham irg‘ib so‘ridan turdi va shundoq ham uzun bo‘lgan burnini karam sho‘rva ustiga engashtirib, keyin boshini orqaga tashladi-da, oldidagi kotelokni oyog‘i bilan sekin itarib tushirib yubordi.

— Bu nima qiliq? — dedi Kokildor muloyimlik bilan.

— Nimaga shunday qilganimni payqamadingmi? Qara. Yo ko‘zing ko‘rmi? Bu nima? — dedi Grigoriy oyog‘i ostiga to‘kilgan yuvindiga o‘xshash sho‘rvani ko‘rsatib.

— I-ye?.. Qurt-ku!.. Voy onasini... Men ko‘rmabman-a!.. Shuyam ovqat bo‘ldi-yu. Bu sho‘rva emas, ugra. Ugra o‘rniga qurt solibdilar.

Yerda qip-qizil go‘sht parchasi yonida, sho‘rva ichida pishgan va shishib ketgan bo‘g‘in-bo‘g‘in oq qurtlar cho‘zilishib yotardi.

Koshevoy negadir ularni:

— Bir, ikki, uch, to‘rt, — deb pichirlab sanardi. Bir lahza jimib qoldilar. Grigoriy tishlari orasidan tupurdi. Koshevoy qilich yalang‘ochlab:

— Hozir karam sho‘rvani hibsga olib, yuzboshi oldiga boramiz, — dedi.

— Rost! Bu ma’qul gap! — deb uning gapini ma’qulladi Kokildor.

U shoshib-pishib shtikni burab olib qo‘yib:

— Biz sho‘rvani ko‘tarib olib boramiz, sen Grishka, orqamizdan yur, yuzboshiga raport berasan, — dedi.

Kokildor bilan Mishka yalang‘ochlangan qilichlarini yelkalariga qo‘yib, koteloklarni shtikka ilib jo‘nab ketdilar. Grigoriy ular orqasidan yurdi, yerto‘lalardan yugurishib chiqqan kulrang shinelli kazaklar egri-bugri transheyadan turnaqator tizilishib bordilar.

— Nima gap?

— Trevogami?

— Yo sulh to‘g‘risida bir gap bormi?

— Nima deyapsan? Qanaqa sulh? Sulhmish-a? Notavon ko‘ngilga qo‘tir jomashov!

— Karam sho‘rvani hibs etdik!

Kokildor bilan Koshevoy ofitser yerto‘lasi oldida to‘xtadilar. Grigoriy engashib, chap qo‘li bilan furajkasini ushlab, «tulki uyasiga» kirdi.

Kokildor orqasidan kelib turtib yuborgan kazakka o'girilib:

— Tiqilma, ko'zingga qara, — dedi jahl bilan. Yuzboshi shinelining tugmalarini solib ichkaridan chiqdi va hayron bo'lib, yerto'ladan eng keyin chiqqan Grigoriyga tashvishlanib qaradi.

Komandir kazaklarning boshlari ustidan qarab:

— Nima gap, birodarlar? — dedi.

Grigoriy uning oldiga o'tdi, hamma jimib qolgach:

— Mahbusni olib keldik, — dedi.

— Qanaqa mahbus?

— Manavi... — Grigoriy Kokildorning oyog'i ostidagi bir kotelok sho'rvani ko'rsatdi. — Mana mahbus. Bir hidlab ko'ring, kazaklaringizni nima bilan boqyaptilar.

Uning qoshlari chimirilib egar bo'lib ketdi, keyin titrab yana o'z holiga keldi. Yuzboshi Grigoriyning yuzidagi ifodani diqqat bilan ko'zdan kechirdi; keyin qovog'ini solib, kotelokka qaradi.

— Qurtlagan go'sht bilan boqishga o'tdilar! — deb qichqirdi Koshevoy zarda bilan.

— Kapternamusni yangilash kerak!

— Ablah.

— Semirib ketibdi, cho'chqa!

— O'ziga hamisha ho'kiz buyragidan sho'rva pishirtiradi...

— Bizga bo'lsa qurtlagan go'sht beradi, — dedilar oldindagi kazaklar.

Yuzboshi, chuvullagan tovushlarning tinishini kutib turdi, so'ngra keskin ovoz bilan:

— Jim! — dedi. — Tovushingizni o'chiring! Hamma gapni eshitdim. Kapternamusni bugun haydab, boshqasini tayinlayman. Uning ishlarini tekshirish uchun komissiya belgilayman. Agar yaramas go'sht bo'lsa...

— Uni sudga berish kerak! — deb baqirishdi orqadagilar.

Yuzboshining tovushi yana shovqin ko'targan olomon tovushi ichida ko'milib ketdi.

Kapternamusni yo'lga chiqqanlaridan keyin almashtirishga to'g'ri keldi. G'alayonga kelgan kazaklar «sho'rvani hibsga olib» uni yuzboshi oldiga olib kelganlaridan keyin bir necha soat o'tgach, 12-polk shtabi pozitsiyadan jo'nab ketish va buyruqqa ilova qilingan marshrut

bo‘yicha poxod tartibi bilan Ruminiyaga harakat qilish to‘g‘risida buyruq oldi. Kechasi kazaklarning o‘rniga Sibir o‘qchilari yetib keldi. Rivinchi shahrida polk kazaklari o‘z otlarini minib olib, shitob bilan Ruminiyaga jo‘nab ketdilar.

Ketma-ket mag‘lubiyatga uchrayotgan ruminlarga yordam uchun yirik askariy qismlar yuborilayotgan edi. Bu narsa shundan ma’lum ediki, safarning birinchi kuni kechqurun marshrut jadvaliga binoan tunash lozim bo‘lgan qishloqqa yuborilgan kvartirerlar[1] hech kvartira topolmay kelardi: bu qishloqni Ruminiya chegarasiga qarab harakat etayotgan piyoda askarlar va artilleriya ishg‘ol qilgan edi. Polk kvartira olish uchun sakkiz chaqirim ortiq yo‘l bosishga majbur bo‘ldi.

O‘n yetti kun yo‘l yurdilar. Yem-xashak yetishmaganidan otlar oriqlab ketdi. Urush tufayli xarobazorga aylangan frontga yaqin yerlarda yem-xashak yo‘q; aholi Rossiya ichkarisiga qarab qochgan yoki o‘rmonlarda yashirinib yotardi; eshiklari lang ochiq kulbalarning devorlari qorayib ko‘rinar, kimsasiz ko‘chalarda kazaklar ahyon-ahyonda enka-tinkasi chiqqan bironta odamga duch kelar, u ham qurolli kishilarni ko‘rib, yashirinishga oshiqardi. Tinmay yo‘l yurib charchagan, sovqotgan va o‘zlari hamda otlarining qiynalayotganidan g‘azablangan kazaklar uylarning poxol bilan yopilgan tomlarini ochib tashlashar; talon-tarojdan omon qolgan qishloqlarda yem-xashak o‘g‘irlashar, komandirlarning har qanday do‘qlari ularni o‘zboshimcha o‘g‘irlik qilishdan tiya olmas edi.

Ruminiya chegarasiga yaqin bo‘lgan to‘q bir qishloqda Kokildor birovning omboridan bir Paqir arpa o‘g‘irladi. Uy egasi uni qo‘lga tushirdi, biroq Kokildor beozor, keksa bessarabiyalikni tutib olib urdi va arpani otiga berish uchun olib ketdi. Vzvod ofitseri otlar bog‘langan joyda uning ustidan chiqib qoldi. Kokildor to‘rvani otning boshiga ilib qo‘yib, titroq qo‘llari bilan uning ich-ichiga kirib ketgan biqinini silar, atrofida aylanib yurar va xuddi odamning ko‘ziga qaragandek, uning ko‘zlariga qarardi.

— Uryupin! Arpani qaytarib ber, itvachcha! Sen ablahni shu qilig‘ing uchun otib tashlaydilar, axir!.. Kokildor ofitserga xo‘mrayib

---

[1]*Kvartirer* – safarga chiqqan harbiy qismlarga uy-joy topish uchun yuboriladigan harbiy xizmatchilar. (Tarj).

xunuk qarash qildi va furajkasini yerga bir urib, polkka kelgandan beri birinchi marta g'azab bilan baqirdi:

— Sudga bering! Otib tashlang! Shu yerdayoq joyimni oling, lekin arpani qaytarib bermayman!.. Nima, otim ochidan o'lsinmi? A? Arpani bermayman! Bir donasini ham bermayman!

U goh boshini changallar, goh ochko'zlik bilan yem yeyayotgan otning yolini ushlar, goh qilichiga yopishardi...

Ofitser otning qoqsuyak bo'lib qolgan dumg'azasiga qarab indamay turardi, so'ngra u bosh irg'ab qo'yib:

— Nega sovumagan otga yem beryapsan? — dedi.

Uning ovozidan xijolat bo'lgani sezilib turardi.

Kokildor to'rvadan to'kilgan arpa donlarini kaftiga yig'ishtirib olib, ularni to'rvaga tashlar ekan, shivirlab:

— Yo'g'-e, ot sovugan, — dedi.

* * *

Noyabrning boshlaridayoq polk pozitsiyada edi. Transilvaniya tog'larida shamol o'ynar, tog' oralarini sovuq tuman bosgan, muz bilan qoplangan qarag'aylardan xushbo'y hid kelar edi. Birinchi yoqqan qor ustida vahshiy hayvonlarning izi ko'zga chalinardi: urushdan cho'chib ketgan bo'rilar, bug'ular, yovvoyi takalar o'zlarining ungurlarini tashlab, mamlakat ichkarisiga qarab qochmoqda edilar.

7-noyabrda 12-polk «320» nomerli tepani ishg'ol qilish uchun hujumga o'tdi. Bir kun ilgari okoplarda avstriyaliklar yotar edilar, hujum kuni esa yaqindagina fransuz frontidan keltirilgan saksoniyaliklar ularning o'rinlarini ishg'ol etdilar. Kazaklar piyoda bo'lib safga tizilib, ustiga oz-moz qor yoqqan toshloq yonbag'irdan ketmoqda edilar. Oyoq ostidan muzlab qotib qolgan tosh parchalari pastga tushib turar, qor to'zoni ko'tarilar edi. Grigoriy Kokildor bilan yonma-yon borar va aybdor kishidek qattiq uyalib:

— Negadir bugun yuragim po'killayapti... Go'yo birinchi marta urushga kirayotgandek, — dedi kulimsirab.

— Yo'g'-e, — deb hayron qoldi Kokildor.

U ishqalab tozalangan miltig'ining qayishidan ushlab borar, mo'ylovidan osilib tushgan sumalaklarni yalardi. Kazaklar qing'ir-

qiyshiq saf bilan o‘t ochmay toqqa tirmashib chiqmoqda edilar. Cho‘qqidagi dushman okoplarida dahshatli bir sukunat hukm surardi. U yerda, qiyalikning nariyog‘ida, nemis okoplarida izg‘irindan yuzi qizarib ketgan, burunlari po‘st tashlagan saksoniyalik bir ofitser butun gavdasi bilan orqasiga o‘girilib, soldatlarga kulib turib qattiq-qattiq gapirardi:

— Kameraden! Wir haben die Blaumänte[1] oft genug gerdroschen! Da Nollen wir’s auch diesen einpf efern was es heisst mit uns’n. Hühn chen zu rupfen! Ausharren! Senieset noch nichto!

Kazak bo‘linmalari yopirilib borar, oyoqlari ostidan pastga tosh aralash tuproq to‘kilardi. Grigoriy sarg‘ayib ketgan boshlig‘ining uchini kamariga qistirib, asabiy holda kulimsirardi. Qop-qora soqoliga allaqachondan beri ustara tegmagan, ozib ketgan yuzlari, cho‘michday burni sarg‘ayib ko‘karib ketgan, qirov bosgan qoshlari ostidan qop-qora ko‘mirday ko‘zlari yilt-yilt qilib turardi. U har vaqtdagidek xotirjam emasdi. Kutilmaganda yuragiga tushgan g‘ulg‘ulani yengishga urinib, chetlarini qor bosgan okoplarga ko‘zlarini qisib qarab, Kokildorga der edi:

— Tovush chiqarishmaydi-ya. Yaqin kelsin deyaptilar. Yuragim orqamga tortib ketyapti, menda uyat qolmadi... Hozir orqamga burilib, juftakni to‘g‘rilasam nima bo‘larkan-a?

— Nima deb vaqillayapsan o‘zing? — dedi Kokildor jahl bilan. — Bu, azizim, qimordek bir narsa, o‘zingga ishonmasang, boshingdan ayrilasan. Yuzing sarg‘ayib ketibdi-ya, Grishka... Yo sen betobsan, yoinki... shu bugun o‘q yeb o‘lasan. Qara! Ko‘ryapsanmi?

Qisqa shinelli, kaskasi nayzali bir nemis okoplar ustiga chiqdi-da, ko‘z yumib ochguncha yana tushib ketdi.

Grigoriyning so‘l tomonida ketayotgan Yelanskaya stanitsalik chiroyli mallasoch kazak, o‘ng qo‘lidagi qo‘lqopini dam yechar, dam kiyib olar edi. U tinmay shu harakatni takrorlar, tizzalarini zo‘rg‘a bukib, apil-tapil qadam tashlar va jo‘rttaga qattiq-qattiq yo‘talardi. «Go‘yo qorong‘i kechada bitta o‘zi ketyapti-yu... o‘ziga dalda berish uchun zo‘rma-zo‘raki yo‘talyapti» deb o‘yladi Grigoriy. Bu kazak-

---

[1] Do‘stlar! Biz ko‘k shinellarni necha martalab do‘pposlaganmiz! Keling, bularga ham o‘zimizning kim ekanligimizni ko‘rsatib qo‘yaylik. Sabr qilib turing. Hozircha o‘q otmang! (Nem.)

ning naryog‘ida uryadnik Maksayevning sepkil toshgan basharasi ko‘rinar, uning yonida shtikining uchi qayrilib qolgan miltig‘ini mahkam changallab olgan Yemelyan Groshev borar edi. Grigoriy Yemelyanning bir necha kun ilgari poxodda shu shtik bilan bir omborxonaning qulfini ochib, ruminning bir qop jo‘xorisini o‘g‘irlaganini esladi. Maksayevning yonginasida Mishka Koshevoy borardi. U yutoqib tamaki chekar, tez-tez burnini qoqib, barmoqlarini shineli-ning chap etagiga artardi.

— Suv ichgim kep qoldi, — dedi Maksayev.

— Yemelyan, oyog‘imni etigim siqyapti. Yurishga qo‘ymayapti, — deb zorlandi Mishka Koshevoy.

Groshev jahl bilan uning gapini bo‘lib:

— Shu paytda etigingni gapirasanmi? O‘zingga hazir bo‘lsangchi, hozir nemis pulemyotidan o‘q yog‘diradi, — dedi.

Birinchi zalpdan keyinoq Grigoriy o‘q yeb, «oh» deb yiqildi. U yarador qo‘lini bog‘lab olmoqchi bo‘lib, bint solingan sumkasiga qo‘l cho‘zmoqchi edi, ammo tirsagidan tirqirab yengi ichiga qaynoq qon oqayotganini sezdi-yu, madori qurib ketdi. Yonboshlab olib, og‘irlashgan boshini tosh panasiga yashirib, quruqshagan tili bilan momiqday qorni yaladi. U titragan lablari bilan sochilib turgan yumshoq qorni ilib og‘ziga olar, o‘qlarning keskin vizillashini, hamma yoqni tutib ketgan miltiq ovozlarini eshitib titrab ketardi. Boshini sal ko‘tarib, o‘z sotnyasidagi kazaklarning pastga qarab qochib tushayotganlarini, sirpanib, yiqilib, orqalariga va osmonga qaratib pala-partish o‘q uzayotganlarini ko‘rdi. Hech narsa bilan izoh qilib bo‘lmaydigan sababsiz bir qo‘rquv uni sakrab turishga va pastlikka, polk hujum boshlagan kungirador qarag‘ayzorga qarab qochishga majbur qildi. Grigoriy yarador bo‘lgan vzvod ofitserini sudrab olib ketayotgan Yemelyan Groshevdan o‘zib ketdi. Groshev uni tikka yonbag‘irdan choptirib olib tushayotgan edi; yuzboshi mast kishidek gandiraklab chopar va ba’zan Groshevning yelkasiga suyanib, laxta-laxta qora qon qusardi. Kazak sotnyalar o‘rmonga qarab sel kabi oqib tushmoqda edilar. O‘q yeb o‘lgan kazaklarning kulrang murdalari bo‘zrang yonbag‘irda qolib ketdi. Yetaklab olib ketishning imkoni bo‘lmagan yaradorlar o‘zlari sudralib tushmoqda edilar. Ularning orqalaridan pulemyotlar o‘q yog‘dirar edi.

Sidirg‘asiga ketma-ket otilayotgan o‘qlarning ovozi eshitilardi: paq-paq-paq!

Grigoriy Mishka Koshevoyning qo‘liga suyanib o‘rmonga kirdi. O‘rmon yoqasidagi qiyalikka o‘qlar tegib sakrab ketardi. Nemislarning chap qanotdagi okoplaridan pulemyot tarillatib o‘t ochdi. Go‘yo yangi qotgan muz ustiga kuchli qo‘l bilan otilgan tosh sakrab-sakrab, taraqlab ketayotganga o‘xshardi.

«Taq-taq-taraq-taraq...»

Kokildor go‘yo sevingandek:

— O‘qniyam ustimizga do‘ldek yog‘dirdilar-da — deb shang‘illadi.

Qahvarang qarag‘ay daraxtining tanasiga turib u okoplar ustidan chopib o‘tayotgan nemislarga shoshmay o‘q uzardi.

— Ahmoqlarning adabini berish kerak! Adabini! — deb bo‘g‘ilib gapirdi Koshevoy Grigoriydan qo‘lini tortib olib. — Itdan ham battar! Qora qoniga belanganidan keyingina nega boshiga tushirayotganlarini anglab, ko‘zi ochiladi.

— Nima deyapsan o‘zing? — deb so‘radi Kokildor ko‘zlarini qisib turib.

— Aqlli odam o‘zi tushunib oladi, ahmoq esa... ahmoqqa nima? Miyasiga mushtumlab ursang ham tushunmaydi.

— Qasam ichganing esingdami? Ont ichganmisan yoki yo‘q? — deb tirg‘ildi Kokildor.

Koshevoy javob qilmay, tiz cho‘kib olib, titragan qo‘llari bilan yerdan bir hovuch qor oldi va yo‘tala-yo‘tala, dildirab ochko‘zlik bilan uni yuta boshladi.

V

Tatarsk xutorining yon tomonidan olachalpoq bulutlar orasidan kuzgi oftob mo‘ralab turardi. Osmonda asta esgan shamol bulutlarni haydab, g‘arb tomonga surib borar, xutor ustida, Don daryosining to‘q zangori vodiysi ustida, yaydoq o‘rmonzor tepasida shamol zo‘rayib, sandiptollar va teraklarni yerga egar, Don suvlarini chayqaltirar, xazonlarni ko‘chalarda chirpirak qilib uchirardi. Xristonya uyib qo‘ygan bug‘doypoya g‘aramini shamol to‘zitib, ustidagi poyalarni uchirib, ingichka xodachani tushirib yubordi, xuddi sanchiqqa

ilganday bir bog‘cha keladigan oltindek bug‘doypoyani hovli ustidan uchirib, ko‘chada chirpirak qilib aylantirdi, keyin kimsasiz yo‘lni to‘ldirib sochib tashladi-da, to‘zg‘igan cho‘kirtaklarni Stepan Astaxovning tomiga keltirib tashladi, Xristonyaning xotini boshyalang holda, hovliga yugurib chiqdi, yubkasini tizzalari orasiga qisib olib, shamolning g‘aram ustida qanday beboshlik qilayotganiga qarab turdi-da, keyin yana ichkariga kirib ketdi.

Uch yil davom etgan urush xutor xo‘jaligiga ancha ta’sir ko‘rsatdi. Erkaklar qolmagan qo‘ralarda omborlar lang ochilib, hovlilar nurab qolgan, asta-sekin vayron bo‘lib, xunuk iz qoldirgan edi. Xristonyaning xotini to‘qqiz yashar o‘g‘li bilan ro‘zg‘or tebratib qoldi; Anikushkaning ayoli ro‘zg‘origa hech qaramay qo‘ydi, tul xotindek o‘ziga hadeb zeb bera boshladi: yuzini qizartirar, pardoz-andoz qilar, kattaroq erkaklar topilmaganidan balog‘at yoshidagi va undan kattaroqlarini uyiga chorlardi, chaplab qoramoy surtilgan taxta darvoza va unda qolgan sharmisor izlar buning aniq shohidi edi. Stepan Astaxovning qo‘rasi kimsasiz qolgan, uy egasi ketar oldida derazalarga taxta mixlab ketgan, tomlarning ba’zi joylari o‘pirilib ustida qariqiz o‘tlar o‘sib chiqqan, eshiklarning qulflari zanglab qolgan, sho‘ra bosib ketgan hovlining ochiq darvozasidan adashgan mollar issiqdan, qor-yomg‘irdan jon saqlash uchun har vaqt o‘zini shu yerga urardi. Ivan Tomilin xatasining bir yon devori ko‘chaga qulab tushgan, xatasini yerga ko‘milgan uchi ayri tirgovuch suyab to‘rar, bu manzara nemis va rus uylarini vayron qilgan to‘pchi Ivandan go‘yo taqdir qasd olayotgandek bo‘lardi.

Xutorning butun ko‘cha-yu tor ko‘chalari xuddi ana shu zaylda edi. Xutorning oyoq tomonida Panteley Prokofyevichning qo‘rasi avvalgicha o‘z taxlitini saqlab butunligicha turardi. Ammo qo‘raning hamma joyi ham shunday emasdi. Ombor tomi ustidagi tunuka xo‘roz zanglab qulab tushgan, ombor qaqqayib qolgan, sinchiklab qaralsa, xo‘jalikda ba’zi bir parokandaliklarni payqash mumkin edi. Cholning qo‘li qisqalik qilardi. Ekin-tikin kamayib ketdi, boshqasini gapirib o‘tirmasa ham bo‘ladi. Ammo Melexovlarning oila a’zosi kamaymadi: frontlarda tentirab yurgan Petro bilan Grigoriyning o‘rniga Natalya o‘tgan yil kuz boshida egizak tug‘di, u birdaniga o‘g‘il va qiz tug‘ib qaynatasi bilan qaynanasining ko‘nglini topdi. Natalya ho-

milasini og'ir ko'tardi. Ba'zan dard qiynaganidan kun bo'yi yurolmas, ijirg'anib, oyog'ini sudrab bosar, ammo dardga chidardi, uning qorayib, oriqlab ketgan ochiq chehrasida dard asari hech qachon aks etmasdi. Oyog'i juda toliqqan mahallarda chakkalarini marjondek ter bosardi; Ilinichna shunda nima gapligini bilib, bosh chayqardi-yu:

— Yotsang-chi, yer yutkur! Nega buncha o'zingni urintirasan, — deb jerkib berardi.

Sentabrning charaqlagan kunlarining birida Natalya oy-kuni yaqinlashganini bilib, ko'chaga chiqayotganida qaynanasi:

— Qayoqqa? — deb so'rab qoldi.

— O'tloqqa borib, mollarni bir qarab kelay.

Natalya shoshib-pishib xutordan chiqdi-da, atrofiga alanglab qornini ostidan changallab, baland o'sgan butalar orasiga kirib yotdi. U orqa ko'chadan uyga qaytganda qosh qoraygan edi. Mata fartugiga egizak bolalarini o'rab keldi.

— Aylanay, nima qilganing bu?.. Qayerdayding, yashshamagur, — deb to'ng'illadi Ilinichna.

— Yuzim chidamaganidan chiqib ketdim... Otamdan uyaldim... O'zim ham yuvinib oldim, ularni ham cho'miltirdim... Mana oling... — Bo'zarib ketgan Natalya o'zini oqlamoqchi bo'ldi.

Dunyashka g'izillagancha doya xotinni chaqirgani ketdi. Darya dovdirab qolib, g'alvir opkeldi. Ilinichna esa dam kulib, dam yig'lab:

— Dashka, g'alviringni qo'ysang-chi, ular mushuk bolasi emas-ku, g'alvirga solmoqchi bo'lasan-a? Yopiray, ikkita-ya! Voy xudoyim-e, bittasi o'g'il-a!.. Natalyushka!.. O'rin sobersalaring-chi!.. — derdi.

Panteley Prokofyevich kelini egizak tuqqanini hovlida turib eshitib, hayron qolganidan qo'llarini kerib qo'ydi, so'ngra suyunganidan soqolini chimdib ko'z yoshi qildi va hech narsadan hech narsa yo'q kirib kelgan doya xotinga o'shqirdi. U tirnog'i o'sgan panjasini kampirning tumshug'i ostida o'ynatib o'dag'ayladi:

— Hoy, parixon! Melexovning zurriyoti qurimaydi! Kelinim bir kazakvachcha bilan bir qiz tug'ib berdi. Kelinmisan kelin-da! Yo xudoyim-e! Bunday marhamati uchun kelinga harna qilsam kam.

O'sha yili barakali yil bo'ldi: sigiri egizak tug'di. Mixail bayrami kunida sovliqlar qo'shaloq-qo'shaloq tug'ib berdi. Echkilar... Panteley Prokofyevich bu ahvolga hayron bo'lib, o'z-o'zicha der edi: «Bu

yil omadli keldi, barakali! Birimiz ikki bo'lyapti. Qo'zi, buzoqlar ko'payyapti!»

Natalya bolalarini bir yil emizdi, sentabrda ularni ajratdi, ammo kech kuzgacha o'ziga kelolmadi. Yuzi oriqlab ketganidan ko'zlari katta-katta bo'lib, oppoq tishlari sanalib qolgan edi. Butun vaqtini bolalariga bag'ishlar, o'ziga qarashga qo'li tegmas, uy ishlaridan bo'shagan vaqtini ularga sarflardi: idish-tovoq yuvar, kir chayqar, to'qir, yamar, ko'pincha karavot ustidan osilib, belanchakdan bolalarini olar va yelkasini qimirlatib, keng ko'ylagi ostidan ko'kraklarini chiqarib, birdaniga ikki bolasini emizardi.

— Bolalaring seni so'rib tamom qildilar-ku! Hadeb emizganing-emizgan! — deb Ilinichna nevaralarining qat-qat bo'lib ketgan biqqa oyoqlariga sekin shapatilab qo'yardi.

— Emizaver! Sutingni ayama! Nima, sutingni yig'ib qaymoq qilarmiding! — derdi Panteley Prokofyevich qo'pol qilib, bolalarga achinganday.

Bu yil toshqin Don daryosining suvi pasaygandek, turmush ham orqaga ketdi. Kunlar zeriktiradigan, toliqtiradigan tarzda ish va muhtojlikda birin-ketin sezilmay o'tar, xursandlik oz, urushda yurganlarning tashvishi bilan o'tardi. Petro bilan Grigoriydan, harakatdagi armiyadan g'ijimlangan va pochta muhrlari urilgan kir konvertlarda keladigan xatlar siyraklashib qoldi. Grigoriyning so'nggi yozgan xati allakimlarning qo'lidan o'tib kelganga o'xshardi: xatning yarmi ko'k siyoh bilan yaxshilab bo'yalgan, kulrang qog'oz chekkasiga siyoh bilan noma'lum belgilar qo'yilgan edi. Petro Grigoriyga qaraganda tez-tez xat yozib turar va Daryaning ismiga yozgan maktublarida, sho'xlikni tashlashni iltimos qilar, tahdid etar edi, — aftidan; xotining suyuqoyoqligi to'g'risidagi gaplar uning qulog'iga borib yetgan bo'lsa kerak. Grigoriy esa xat bilan birga uyga moyanasi va «medal» pulini yuborib turar, ta'til olganda kelib ketishni va'da qilsa ham, negadir daragi yo'q edi. Aka-ukaning yo'li ikki yoqqa ajralib ketgan: urush Grigoriyning qaddini kamon qilgan, yuzining qizilini ketkazgan, sarg'aytirib yuborgan edi, urushning oxirigacha o'zining omon qolishiga ko'zi yetmasdi. Petroning esa martabasi oshib borardi, u o'n oltinchi yilning kuzida vaxmistrlik mansabiga erishdi, yuzboshiga laganbardorlik qilib, ikki krest oldi, yozgan xatlarida o'zining

ofitserlar maktabiga yubortirish uchun harakat qilayotganini bildirdi. Yozda ta'tilga kelgan Anikushkadan uyiga bir nemis kaskasi, shineli va o'zining fotosuratini yubordi. Kulrang karton parchasidan uning keksaygan mag'rur siymosi, uchlari buralgan malla mo'ylovlari ko'zga tashlanar, qanqaygan burni ostidagi qalin lablari qadimgiday ishshayib turardi. Hayot Petroga kulib boqar, urush esa uning oldida porloq bir istiqbol ochar edi: yoshligidan mol orqasida yurib katta bo'lgan bu oddiy kazak ofitserlikka erishib, yaxshi hayot kechirishni bir vaqtlar xayoliga ham keltirmasdi. Ammo urush olovi gur etib yongandan keyin uning qonli shafaq nurida kelajakdagi erkin hayot manzarasi aniq namoyon bo'la boshladi... faqat Petroning hayotida bir narsa ko'nglini g'ash qilardi: xutorda uning xotini to'g'risida xunuk gaplar yurardi. Stepan Astaxov shu yil kuzda ta'tilga borgan va polkka qaytib kelgandan keyin o'z bo'linmasidagi kazaklar oldida, Petroning xotini bilan maza qilib kun kechirganini aytib maqtangan edi. Petro o'rtoqlarining gapini eshitarkan, quloqlariga ishonmas, qizarib-bo'zarib, tirjayib:

— Stepka yolg'on aytadi! Grishkaning qasdini mendan olyapti, — der edi.

Ammo bir kuni Stepan, tasodifanmi, qasddanmi, xullas, yerto'ladan chiqar ekan, gul solib tikilgan dastro'molini tushirib yubordi; Petro uning orqasidan kelayotgan edi u chetiga to'r tikilgan guldor dastro'molni yerdan olib, xotinining qo'l hunarini tanidi. Petro bilan Stepan orasidagi adovat yana kuchayib, alamlarini ko'ngillariga tugib qo'yishdi. Petro payt poylab yurdi, ajal Stepanning payiga tushgan edi, — G'arbiy Dvina sohilida u miyasidan Petroning o'qini yeb o'lishi turgan gap edi. Ammo ko'p o'tmay, nimayam bo'ldi-yu, Stepan o'z ixtiyori bilan nemis chegara soqchilarini «ovlash» uchun ketib, qaytib kelmadi. Unga hamroh bo'lib borgan kazaklarning aytishicha, ularning sim to'siqlarni qirqayotganlarini go'yo nemis soqchisi eshitib qolib, granata otgan emish; kazaklar to'siqni yorib o'tishibdi, Stepan bir musht urib, soqchini qulatibdi, ammo soqchining yordamchisi o'q uzib, Stepanni yer tishlatibdi. Kazaklar soqchi yordamchisiga nayza tiqib o'ldirishibdi, Stepanning qo'rg'oshinday og'ir mushtini yeb hushidan ketgan nemisni sudrab olib ketishibdi, Stepanni ham ko'tarib olib ketmoqchi bo'lishgan ekan, og'irlik

qipti,– tashlab ketishga to‘g‘ri kepti. Yarador Stepan: «Og‘aynilar! Meni halok etmang! Og‘aynilar! Nega meni tashlab ketyapsiz?..» deb yalinibdi, ammo shu vaqtda sim to‘siq ustiga nemislar pulemyot o‘qi yog‘diribdi, kazaklar emaklab qochishibdi. «Hamqishloqlar! Og‘aynilar!» deb qichqiribdi ularning orqasidan Stepan, ammo har kimning joni o‘ziga shirin, – ular o‘zlarini qutqarishga harakat qilishibdi. Petro Stepan to‘g‘risidagi shu gapni eshitib, yengil tortdi, go‘yo zirqirab og‘riyotgan yarasiga malham qo‘yilganday bo‘ldi. Ammo shunday bo‘lsa hamki, «Ta’tilga borganimda Dashkaning qonini ichmasam, Petro emasman, sog‘ qo‘ymayman...» deb o‘ylab, xotinini o‘ldirmoqchi bo‘ldi-yu, lekin «U gazandani o‘ldirsam butun umrim xazon bo‘ladi, turmada chiriyman, hamma mehnatlarim zoye ketadi, hamma narsadan mahrum bo‘laman...» deb o‘ylab darhol bu fikridan qaytdi. U xotinini shunday do‘pposlashga qaror qildiki, esidan chiqmaydigan, ikkinchi bor qiypanglamaydigan bo‘lsin: «Gazandani urib ko‘zini ko‘r qilaman, o‘shanda unga hech kimning havasi kelmaydigan bo‘ladi». Qirg‘oqlari tik tushgan G‘arbiy Dvina yaqinidagi okopda o‘tirgan Petroning xayolidan shu fikrlar kechardi.

Kuz daraxtlar va o‘tlarni sarg‘aytirdi, subhidamning salqini o‘lanlarni so‘ldirdi, yer bag‘ri sovudi, kuz kechalari qorong‘i, uzoq. Kazaklar okoplarda navbatma-navbat turar, issiq kiyim talashib vaxmistrlar bilan urishar, ochin-to‘qin yashar, lekin fikr-xayollari fayzsiz Polsha yerlaridan uzoqda bo‘lgan Donda edi.

Darya Melexova esa shu kuz ersiz kechirgan hayotining hissasini chiqarmoqda edi. Pokrov bayramining birinchi kuni Panteley Prokofyevich har vaqtdagidek, hammadan erta uyg‘ondi: hovliga chiqdi-yu, boshini changallab qotib qoldi. Allakim sho‘xlik qilib, darvozani ilgagidan sug‘urib olib ko‘chaning o‘rtasiga ko‘ndalang qilib yotqizib qo‘yibdi. Bu sharmandagarchilik edi. Chol darvozani darhol o‘z joyiga o‘rnatdi va ertalabki nonushtadan keyinoq Daryani yozlik oshxonaga chaqirdi. Cholning u bilan nima to‘g‘risida gaplashgani noma’lum qoldi, ammo Dunyashka bir necha daqiqadan keyin Daryaning ro‘moli yelkasiga tushgan holda oshxonadan chopib chiqqanini, sochlari to‘zg‘ib, yum-yum yig‘layotganini ko‘rdi. U Dunyashkaning yonidan o‘tayotganda yelkalari lip-lip uchar, ko‘z yoshi bilan yuvilgan yuzi g‘azabnok, qayrilma qora qoshlari pirpirab turardi.

— Shoshma, yer yutkur!.. Men senga ko'rsatib qo'yaman, — deb pichirlardi uning shishgan lablari.

Daryaning koftasi orqa tomonidan yirtilgach, oppoq badani mo'mataloq bo'lgani ko'rinib turardi. U etaklarini hilpiratib, zinapoyaga chopib chiqdi-da, o'zini dahlizga urdi, oshxonadan esa darg'azab bo'lgan Panteley Prokofyevich yo'l-yo'lakay yangi charm tizginni to'rt buklab oqsab chiqdi.

Dunyashka otasining xirillagan ovozini eshitib qoldi:

— ...Sendek manjalaqiga bu ham oz! Mochag'ar!..

Oilada yana tartib joriy qilindi. Bir necha kungacha Darya qo'ydek yuvosh bo'lib yurdi, kechalari hammadan avval uxlagani yotar, Natalyaning achinib qarashlariga sovuqqina iljayish bilan javob qilar, yelkalari, qoshlarini uchirib qo'yardi: «Hechqisi yo'q, ko'ramiz hali», deganday bo'lardi. Oradan to'rt kun o'tgach, shunday bir hodisa bo'ldiki, buni Darya bilan Penteley Prokofyevichdan boshqa hech kim bilmadi. Shundan keyin Darya kerilib, kulib yurdi, chol esa, kechasi o'rnini bulg'atib chiqqan boladek xijolat tortib yurdi; bo'lgan voqea to'g'risida kampirga og'iz ham ochmadi, hatto cherkovda o'z gunohlariga iqror bo'lish marosimida bu voqeani va undan keyin ko'ngliga kelgan qabih fikrlarni pop Vissariondan ham yashirdi.

Voqea shundan iborat edi. Pokrov bayramidan keyin Daryaning butunlay tavba qilganiga ishongan Panteley Prokofyevich Ilinichnaga:

— Sen Dashkani judayam paypaslayverma! Ko'proq ishga sol. Ish ko'p bo'lsa, sho'xlik qilishga vaqti qolmaydi, yo'qsa u semirgan baytalday o'ynoqlaydi... Uning ko'ngli ko'chada, fikri o'yin-kulgida, — dedi.

Shu maqsadda u Daryaga o'rilgan bug'doy turadigan saroyni supurtirdi, orqa hovlidagi o'tinlarni terishni buyurdi, u bilan birga somonxonani tozaladi. Kech kirib qolganda u shamol mashinani omborxonadan somonxonaga kirtib qo'ymoqchi bo'lib, kelinini chaqirdi:

— Darya!

— Nima, deysiz, ota? — dedi u somonxonadan turib.

— Bu yoqqa chiq, shamol mashinani kiritib qo'yamiz.

Darya ro'molini to'g'rilab, koftasining yoqasidan tushgan somonni qoqib, somonxona eshigidan chiqdi-da, o'rilgan bug'doy turadigan saroy eshigidan o'tib, omborxonaga qarab yurdi. Kalta paxtali kurt-

ka va yirtiq chalvar kiygan Panteley Prokofyevich uning oldiga tushib oqsab ketaverdi. Omborxona kimsasiz edi. Dunyasha onasi bilan kuzda qirqilgan yungni yigirishar, Natalya esa xamir qorar edi. Xutor orqasida qip-qizarib botgan quyoshning aksi tushib turar; kechki ibodatga cherkovda jom chalinardi. Tip-tiniq osmonda, qoq tepada to'q qizil bulut parchasi harakatsiz turar, Donning narigi tomonidagi oq teraklarning yalang'och shoxlarida quzg'unlar qorayaloqdek tizilishib qo'nib o'tirardi. Shomi g'aribon sukunatida tiq etgan tovush jaranglab eshitilardi. Molxonadan buruqsagan go'ng va pichanning yoqimsiz hidi kelib turardi. Panteley Prokofyevich inqillab, Darya bilan birga to'q sariq rangga bo'yalgan, bo'yog'i ko'chgan shamol mashinani somonxonaga kiritib qo'yib, uni burchakka joylashtirdi, mashinadan to'kilgan somonni panshaxa bilan bir chekkaga surib, chiqib ketmoqchi bo'lib turgan ham ediki, Darya shivirlab:

— Ota, – deb chaqirib qoldi.

Chol, hech narsadan shubhalanmay, shamol mashina orqasiga o'tib:

— Nima deysan?– deb so'radi.

Yoqasining koftasi ochilgan Darya qaynatasiga qarab turar, qo'llarini gardaniga qo'yib, sochlarini to'g'rilar edi. Somonxona tuynugidan uning ustiga botgan quyoshning qip-qizil shu'lasi tushib turardi.

— Mana bu yerimda, ota, bir narsa g'imirlayotganga o'xshaydi. Yaqinroq kelib qarang, — dedi u bir yonga qiyshayib va qaynatasining yelkasi osha lang ochiq eshikka yashirincha nazar tashlab.

Chol unga yaqin kelganda, Darya birdan qo'llarini ochib yubordi-yu, qaynatasiniig bo'ynidan quchoqlab, barmoqlarini bir-biriga biriktirib oldi-da, tislanib uni bir burchakka torta boshladi:

— Mana, bu yoqqa, ota... u yer yumshoqqina ekan... — deb shivirladi.

— Senga nima bo'ldi? – deb so'radi qo'rqib ketgan Panteley Prokofyevich.

U bosh chayqab bo'ynini Daryaning qo'lidan chiqarib olmoqchi bo'ldi, lekin Darya uning boshini qattiqroq tortib o'z yuziga yaqinlashtirdi, kulimsirab bir nimalar deb shivirladi, uning soqoliga qaynoq nafasi kelib tegdi.

— Qo‘yvor, mochag‘ar! — deb chol ijirg‘andi, shu topda kelining tirsillagan qorni yaqinlashganini sezdi.

Darya uni quchoqlab olib, orqasi bilan yiqildi, chol uning ustiga chiqib qoldi.

— Jin urgur! Quturdingmi!.. Qo‘yvor!

— Ko‘nglingiz tilamaydimi? — deb so‘radi Darya harsillab, so‘ngra qo‘llarini ochib yubordi-da, qaynatasining ko‘kragidan itarib dedi: — Shu ishga tobingiz yo‘qmi? Yoinki qo‘lingizdan kelmaydimi?.. Undoq bo‘lsa, meni ayblamang!.. Eshityapsizmi?

Darya irg‘ib o‘rnidan turdi-yu, shoshib-pishib yubkasini tuzatdi, orqasidan somon parchalarini qoqib tashladi-da, hang-mang bo‘lgan Panteley Prokofyevichning betiga tikilib turib jilmaydi:

— Anavi kuni meni nega do‘pposladingiz? Nima, men kampirmanmi? O‘zingiz yoshligingizda qanday bo‘lgansiz? Erim-ku, bir yildan beri oldimda yo‘q!.. Axir, men nima qilay?

Darya beadabona bir harakat qildi va qoshlarini o‘ynatib eshik tomon yurdi. Bo‘sag‘ada u o‘z ust-boshiga sinchiklab qarab, koftasini va ro‘molining changini qoqdi-da, qaynatasiga qaramasdan dedi:

— Men busiz chidab turolmayman... Menga erkak odam kerak, sizning bu ishga tobingiz bo‘lmasa, men boshqasini topaman, tilingizni tiyib yuring!

U likanglab, tez-tez yurib xirmonxona eshigi oldigacha bordi-da, qayrilib ham qaramay, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Panteley Prokofyevich esa hamon to‘q sariq shamol mashinasining yonida qaqqayganicha turar, soqolining uchini og‘ziga tiqar va o‘zini yo‘qotib qo‘yib, aybdor kishidek somonxona ichiga ko‘z yugurtirar, seryamoq chorig‘ining uchiga qarar edi. «Nahotki, gapi o‘rinli bo‘lsa? Tavba, men u bilan gunoh ish qilishim kerakmidi?» deb o‘yladi shu topda gangib qolgan chol sarosimaga tushib.

VI

Noyabrda sovuq chirsillata boshladi. Qor ham erta tushdi. Don daryosi Tatarsk xutorining yuqori tomonida burilgan joyi muzladi. Ahyon-ahyonda ko‘m-ko‘k mo‘rt yax ustidan ba’zi odamlar narigi tomonga o‘tardi, pastki tomonda esa daryo qirg‘oqlarigina g‘adir-

budur muz parchalari bilan qoplangan, suvning o‘rtasidagi ko‘m-ko‘k to‘lqinlar ko‘piklanib bir-birini quvlab oqib borardi. Qora jarning ro‘parasidagi o‘pqonda, o‘n bir sarjin chuqurlikda laqqa baliqlar, ularning bosh tomonida usti shilimshiq bilan qoplangan zog‘ora baliqlar qishlagani yotgan, faqat kumush baliqlargina Don ichida izg‘ib yurar, to‘g‘onlar yaqinida sula baliqlar bodrezak baliq orqasidan quvib yurar edi. Sterlyad balig‘i qumloq joylarda qishlagani yotdi. Baliqchilar qattiqroq sovuq tushishini kutar, suv muzlashi bilanoq qiltanoqsiz baliqlarni sanchiq bilan ilib olishni mo‘ljallar edilar.

Noyabrda Melexovlar Grigoriydan bir maktub oldilar. Kuvinskdan, Ruminiyadan yozgan xatida u, birinchi jangdayoq yarador bo‘lganini, o‘q chap qo‘lining suyagini majaqlaganini, shu sababdan uni o‘z okrugiga, ya’ni Kamenskaya stanitsasiga davolash uchun yuborayotganlarini bildirgan edi. Shu xatdan keyin Melexovlar boshiga yana boshqa bir mushkul ish tushdi; bundan bir yarim yil ilgari Panteley Prokofyevich pulga muhtoj bo‘lib, Sergey Platonovich Moxovdan veksel bilan yuz so‘lkavoy olgan edi. Shu yoz cholni do‘konga chaqirtirdilar. Atepin Satsa olgan pensnesini qanshariga qo‘ndirib, ko‘zoynak ustidan Melexovning soqoliga qarab:

— Bu nima degan gap, Panteley Prokofich, pulni berasanmi, yo‘qmi? — deb so‘radi.

Panteley Prokofyevich bo‘shab qolgan taxta tokchalarga va silliq bo‘lib ketgan do‘kon peshtaxtasiga ko‘z yugurtirdi-da, mijg‘ovlanib:

— Sabr qilib tur, Yemelyan Konstantinich, o‘zimni o‘nglab olay, to‘layman, — dedi.

Gap shu bilan tamom bo‘ldi. Chol o‘zini o‘nglab ololmadi, hosil bo‘lmadi, sotadigan ortiqcha qoramoli yo‘q edi. Kutmaganida xutorga sud pristavi balo-qazodek yetib keldi, qarzdorni oldiga chaqirtirdi-da:

— Yuz so‘lkavoyni bu yoqqa cho‘zib qo‘y, — dedi.

Pristav kelib tushgan xonadagi stolning ustida uzun qog‘oz yotar, unda xuddi shu so‘zlar yozilgan edi.

IJROIYA VARAQASI

BUYUK IMPERATOR HAZRATI OLIYLARINING farmonlariga muvofiq, men, Donets okrugi 7-uchastka mirovoy sudyasi, 1916-yil 27-oktabr kuni meshchanin Sergey Platonovich Moxovning uryad-

nik Panteley Melexovga veksel badaliga bergan 100 so'mini da'vo qilib bergan shikoyatini tinglab va Grajdan Sudi Ustavining 81, 100, 129, 133, 145-moddalariga amal qilib, g'oyibona hukm chiqaraman:

Qarzdor uryadnik Panteleymon Prokofyevich Melexovdan, da'vogar, ya'ni meshchanin Sergey Platonovich Moxov foydasiga, 1915- yil 21-iyulda berilgan veksel qog'oziga muvofiq 100 so'm hamda sud xarji uchun uch so'm undirilsin. Qaror qat'iy emas, g'oyibona hukm ekani bildirilsin.

Bu hukm Grajdan Sudi Ustavining 156-moddasi 3-punktiga asosan qonun kuchiga kirgan deb hisoblanib, darhol ijro etilishiga tegishdir. Donets Okrugi Mirovoy sudyasining 7-uchastka sudyasi IMPERATOR HAZRAT OLIYLARIning farmoniga muvofiq amr etadi: ushbu qarorga taalluqli bo'lgan barcha mahkamalar, shaxslar mazkurni o'z vaqtida ijro etsinlar, mahalliy idoralar va politsiyachilar Pristavning chiqargan hukmini ijro etuvchilarga qonun doirasida darhol yordam ko'rsatsinlar.

Panteley Prokofevich pristavning gapini eshitib, uyga borib kelishga ruxsat so'radi, shu bugunoq aqchani keltirib berishga va'da berdi. Pristav turgan uydan to'g'ri qudasi Korshunovnikiga jo'nadi. Maydonda bir qo'li cho'ltoq Alyoshka Shamilga to'qnash kelib qoldi.

— Haliyam oqsab yuribsanmi, Prokofyevich? — deb u bilan so'rashdi Shamil.

— Ha, asta-sekin...

— Uzoqqami?

— Qudamnikiga. Ishim bor.

— E! Ularnikida to'y. Eshitmadingmi? Miron Grigorichning o'g'li frontdan kelibdi. O'g'li Mitka keldi deb aytishyapti.

— Rostdan-a?

Shamil lunjini uchirib va bir ko'zini pirpiratib, tamaki xaltasini olar ekan Panteley Grigoryevichga yaqinlashib:

— Ha, shunaqa bir gap eshitdim. Keling, tog'a, tamaki chekishaylik! Qog'oz mendan, tamaki sizdan, — dedi.

Panteley Prokofyevich tamaki chekar ekan, borsammikan, yo'qmikan, deb ikkilanib turdi-da, nihoyat borishga jazm qildi va Alyoshka bilan xayrlashib, oqsay-oqsay yurib ketdi.

Shamil esa uning orqasidan:

— Mitka ham krest olgan! Sening o'g'illaringdan qolishgisi kelmaydi. Endi bizning xutorimizda nishondorlar shunday ko'paydiki, asti qo'yaver, bemaza qovunning urug'idan ham ko'p, — deb shang'illadi.

Panteley Prokofyevich shoshilmay yurib, xutorning narigi boshiga yetib oldi; Korshunovning uyidagi derazalarga qaray-qaray, darvozasi yoniga keldi. Qudasining o'zi uni eshikda kutib oldi. Chol Korshunovning sepkil toshgan yuzi xursandligidan yangi yuvilgan samovarday yarqirardi, yuzi toza, cho'tirligi ham bilinmay qolgandi.

Miron Grigoryevich qudasi bilan qo'l berib ko'rishar ekan:

— Bizning suyunib qolganimizni eshitdingmi? — deb so'radi.

— Yo'lda kelayotganimda Alyoshka Shamildan eshitdim. Quda, men senga boshqa bir ish bilan...

— Ishingni qo'ysang-chi! Yur uyga, bizning pahlavonni ko'r. Rostini aytsam, biz xursandchilikka ozgina ichib olgan edik... Kampirim yaxshi kunlar uchun deb bir shisha aroq olib qo'ygan edi.

— Sen buni menga gapirib bermasang ham bo'ladi, ichganingni uzoqdan turib payqagan edim, — dedi Panteley Prokofyevich kulib va qirra burnining kataklarini kerib.

Miron Grigoryevich eshikni lang ochib yuborib, mehmonni ichkariga taklif etdi. Panteley Prokofyevich ostona hatlab ichkariga kirishi bilan stolning to'rida o'tirgan Mitkaga ko'zi tushdi.

— Mana, bizning qahramon! — deb Grisha bobo ko'z yoshi qildida, o'rnidan turgan Mitkaning yelkasiga yuzini qo'ydi.

— Xush kelibsan, ey kazak!

Panteley Prokofyevich Mitkaning uzun panjasini ushlab turib, orqaga bir qadam tashladi-da, hayron qolib uni boshdan oyoq ko'zdan kechirdi.

— Nimaga hayron bo'ldingiz, qudabuva? — deb do'rilladi Mitka tirjayib.

— Qarab, ko'zlarimga ishonmayman: Grishka ikkalangni xizmatga jo'natganimda bola edilaring, endi bo'lsa... Ataman polkiga yaraydigan kazak bo'libsan!

Yig'lab ko'zlari qizargan Lukinichna Mitkadan ko'zini uzmas edi, ryumkaga quyayotgan arog'i toshib yerga to'kila boshladi.

— Hay, badbaxt! Shunday qimmatbaho narsani yerga to‘kyapsan-a! — deb jekirib berdi unga Miron Grigoryevich.

— Sizning shodligingiz, Mitriy Mironich sening eson-omon yetib kelganing uchun! — deb Panteley Prokofyevich ko‘kish ko‘z soqqalarini g‘iltillatib, kipriklarini pirpiratib, baqaloq ryumkadagi aroqni nafas olmay simirdi. U kafti bilan lablari va mo‘ylovini artdi, ryumkaning tagiga ko‘z tashladi-da, boshini osmonga qaratib, bir-ikki tomchi aroqni tishlari qoraygan og‘ziga quydi-da, shundan so‘nggina nafasini chiqarib, bodringni tamaddi qildi-yu, rohatlanib, anchagacha ko‘zlarini qisib o‘tirdi. Qudabuva unga ikkinchi ryumkani tutdi, shundan so‘ng chol birdaniga kulgili tarzda mast bo‘lib qoldi. Mitka unga qarab kulardi. Uning mushuknikiga o‘xshagan ko‘zlarining qorachig‘i, goh ko‘kish tusga kirar, goh kengayib qorayib ketardi. Shu bir necha yil ichida u tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgargan edi. Bu qora mo‘ylov kazak bundan uch yil burun harbiy xizmatga jo‘natilgan xipcha bel, qad-qomati kelishgan Mitkaga sira o‘xshamas edi. Uning bo‘yi cho‘zilgan, yag‘rinlari kengaygan, semirib, biroz bukchaygan edi, o‘ziyam besh pudcha kelardi, dag‘allashgan yuzi, do‘rillagan ovozi uni o‘zidan katta odamga o‘xshatib qo‘ygan edi. Faqat ko‘zlarigina avvalgiday o‘ynab, olma-kesak terib turardi. Onasi dam kulib, dam yig‘lab, oppoq kafti bilan uning kalta qilib olingan sochlarini va ensiz, oppoq peshonasini silar ekan, uning ko‘zlaridan ko‘zlarini ololmasdi. Panteley Prokofyevich mastona kulib:

— Nishondor bo‘lib qaytdingmi? — deb so‘radi.

— Kazaklardan krest olmagan kim qoldi? — deb qovog‘ini soldi Mitka. — Shtabda laqillab yurgani uchun Kryuchkovga uchta krest berdilar-ku.

— Qudajon, bizning azamat juda mag‘rur, — deb gapga aralashdi Grishak bobo. — U shumtaka menga tortgan, birovning oldida bo‘yin egmaydi.

— Lekin buning uchun krest bermaydilar-ku, — deb Panteley Prokofyevich gap boshlagan edi, ammo Miron Grigoryevich uning qo‘lidan ushlab, mehmonxonaga olib kirdi-da, sandiqning ustiga o‘tirg‘izib so‘radi:

— Natalya bilan nevaralar qanday, sog‘-salomat yuribdilarmi? Ha, xudoga shukur! Sen, quda, mening oldimga bir ish bilan kelganingni

aytgan eding, shekilli? Gapir, nima ishing tushib qoldi? Ayt, yana ozgina ichsang, kayfing oshib qolishi tayin.

— Pul berib tur. Xudo xayringni bersin. Hojatimni chiqar, pul bo'lmasa, ishim xarob.

Panteley Prokofyevich mast kishilarga xos xokisorlik bilan yalinib-yolvorardi. Qudasi uning gapini bo'ldi:

— Qancha kerak?

— Yuz qog'oz.

— Qanaqa qog'oz? Qog'oz degan har xil bo'ladi.

— Yuz so'lkavoy.

— Shundoq degin-da.

Miron Grigoryevich sandig'ini kavlab, yog' bosgan ro'molchani oldi-da, uni yechdi; shaldirama qog'oz pullarni sanab, o'n «chervon» ajratdi.

— Rahmat, quda... mushkulimni oson qilding!

— Gapirishga arzimaydi. Qo'yindan to'kilsa, qo'njga!

Mitka uyida besh kun turdi; kechalarini Anikushkaning xotini yonida o'tkazar, yolg'iz xotin boshi bilan muhtojlikda yashagan, ko'ngilchan bu sodda xotinga achinardi. Kunduzlari qavmqarindoshlarinikiga mehmon bo'lib borardi. Uzun bo'yli, bir qavat yupqa qahvarang tujurka kiygan bu yigit furajkasini peshonasiga dol qo'yib, sovuq menga cho't emas, deganday xutor ko'chalarida lapanglab yurgani yurgan edi. Bir kuni kech kirgan paytda u Melexovlarnikiga keldi. Yaxshilab yoqib isitilgan yemakxonaga o'zi bilan birga qor hidi va askarlarga xos burunni yoradigan achchiq bir hid olib keldi. Urush to'g'risida, xutor yangiliklari to'g'risida gapirishib o'tirdi-da, yaproq singari yashil ko'zlarini Daryaga qisib qo'yib chiqib ketishga hozirlandi. Mitkadan ko'zini olmay o'tirgan Darya, Mitka keta turib eshikni qattiq yopganda xuddi sham yallig'iday lopillab ketdi, o'rnidan turdi-da, lablarini qimtib, yelkasiga ro'molini tashladi. Ammo Ilinichna:

— Qayoqqa? — deb so'rab qoldi.

— Eshikka... hojatxonaga.

— Yur, birga boramiz.

Panteley Prokofyevich esa, ularning gapini eshitmagan kishiday, quyi solingan boshini ko'tarmay o'tirardi. Darya tulkinikidek ay-

yorona ko'zlarining o'tini kipriklari ostiga yashirdi-da, uning yonidan o'tib eshikdan chiqib ketdi; qaynanasi inqillab, lapanglaganicha uning orqasidan ergashdi. Mitka yo'talib, etigini g'arch-g'urch bosib, darvoza oldida depsinib, papirosini kaftiga yashirib chekib turardi. Eshik taraq etib ochilishi bilan u zinapoya tomon qadam tashlagan ham ediki, Ilinichna piching aralash:

— Mitkamisan, a? Nima balo, begona hovlida eshikni topolmay adashib qoldingmi? — deb gap otdi. — Darvozani orqangdan yaxshilab yopib ket, tanbalanib qolsin, bo'lmasa kechasi shamol ochib-yopib taraqlatadi... Shamolni qara...

Mitkaning dami ichiga tushib, jahl aralash yo'taldi-da:

— Hech-da, adashganim yo'q... darvozangizni mahkam yopib ketaman, — dedi-yu, ko'chaning narigi betidagi Anikushkaning hovlisiga yo'l oldi.

Mitka qush kabi erkin, g'amsiz hayot kechirardi: shu bugun tirik bo'lganiga shukur qilar, ertaning g'amini yemas edi. Xizmatini takasaltanglik bilan o'tar, botir yuragida qoni qaynab turgan bo'lsada, xizmat ko'rsataman deb jon koyitmasdi, ammo Mitkaning xizmat daftarchasida allaqanday ko'ngilsiz narsalar yozilgan edi: Mitka rus fuqarosi bo'lgan bir polyak ayolni zo'rlagani va o'g'irlik qilgani uchun ikki marta sudlangan, uch yillik urush mobaynida jazo ustiga jazo va tanbeh ustiga tanbeh olgan; bir vaqt harbiy dala sudi uni hatto otishga hukm qilishiga andak qolgan edi; ammo Mitka polkda eng beobro' kazaklardan bo'lsa-da, boshiga tushgan kulfatlardan qutulib ketish yo'lini ham bilardi. Kazaklar uni sho'x kulgilari va shaloq ashulalari, (bunday ashulalarga Mitka chakana usta emasdi), soddaligi va hamma bilan o'rtoqlashib ketavergani uchun sevar edilar, ofitserlar esa yulduzni benarvon urishi uchun yaxshi ko'rardilar. Mitka kulib turib, qashqirdek yengil qadam tashlab yurar, qiliqlari ham bo'rinikiga o'xshar edi: bitta-bitta qadam tashlab, lapanglab yurar, yashil ko'zlari bilan yer ostidan qarar; agar biror yoqqa qarash kerak bo'lsa, Mitka butun gavdasi bilan aylanib qarar, o'qdan shikastlangan bo'ynini hech qachon burib qarolmas edi. Suyaklari yo'g'on, go'shtlari payga aylanib ketgan Mitka salmoqdor, yengil harakat qilar, undan sog'lom va baquvvat odamning hidi kelib turardi, omoch bilan ochilgan bo'z tuproq yerdan shunday hid keladi. Mitka uchun

hayot mushkulsiz adil yo'lga o'xshab ko'rinar, uning hayoti egatga o'xshab cho'zilib ketaverar, o'zi ham bu hayot yo'lidan tap tortmay yuraverardi. Shuningdek, uning o'y-xayollari ham murakkab emas, juda sodda edi: «Och qolsang, hatto o'rtog'ingning narsasini o'marib ketsang ham bo'laveradi», derdi. Och qolganda o'g'irlardi ham, etiging dabdala bo'lganda, asir nemisning etigini yechib olishdan osoni yo'q; gunoh ish qilib qo'yganingda uni yuvish kerak. Darhaqiqat, Mitka gunohini yuvar edi: razvedkaga borar, nemis soqchilarini xippa bo'g'ib chalajon qilib keltirar, eng xatarli ishlarga jon deb borardi. 1915-yili asir tushib, rosa kaltak yeb, qilich tegib yarador bo'lgan, kechasi omborxonaning tomini tirnoqlari qonaguncha sidirib ochib qochgan, esdalik uchun egar jabduqni o'marib ketgan edi. Shu vajdan ham Mitkaning ko'p ishlari kechirilar edi.

Kelganiga olti kun bo'ldi deganda Miron Grigoryevich o'g'lini Millerovoga olib bordi, uni vagongacha kuzatib qo'ydi, qutichaga o'xshash ko'k vagonlarning ketma-ket taraqlab ketayotganiga anchagacha quloq solib, qamchi dastasi bilan platformadagi shlakni kovlab, tinib ketgan ko'zlarini yerdan uzolmay turdi. Lukinichna o'g'li uchun ko'z yoshi to'kdi. Grishak bobo ih-ihlab yurdi, burnini kaftiga qoqib, qo'lini yog'i chiqqan chakmonining etagiga sidirib tashladi. Anikushkaning xotini ham g'arko'z Mitkaning otashdek badanini eslab xunibiyron bo'lib yig'ladi, undan yuqtirgan chakmazak kasalidan qiynalib yurdi.

Shamol otning yolini hilpiratganday zamon ham kunlarni birinketin uchirib ketaverdi. Rojdestvo arafasida birdaniga havo isib ketdi, bir kecha-kunduz yomg'ir yog'di. Don ustidagi tog'lardan jarlarga quturib suv oqdi; qordan ochilib qolgan daryo bo'ylarida bulturgi o'tlar ko'karib qoldi, xarsang toshlar ustini baxmal o't qopladi. Donning qirg'oqlari ko'piklanar, murdadek ko'kargan muzlar qaqqayib qolgan, qori ketgan qora tuproq yerlar nihoyatda xushbo'y hid taratardi. Getman katta yo'lida bulturgi arava izlarida suvlar pufak-pufak bo'lib turardi. Xutorning orqasidagi jarlar o'pirilib tuprog'i ochilib qolgan, janub shamoli Chir daryosidan chirigan o'tlarning hidlarini keltirar, tush paytida esa xuddi ko'klamdagi singari ufqda ko'kish mayin soyalar tebranib turardi. Qishloqda chetan devorlar tagidagi kultepalar yonida ko'lmak suvlar hosil bo'lgan. G'aramlar yonidagi

yerlar erigan, o‘tkinchilarning dimog‘iga chirigan somon hidi kelib urilardi. Usti poxol bilan yopilgan tomlarning bo‘g‘otlaridagi sumalaklardan sarg‘ish suv tomib turar, chetanlar ustida zag‘izg‘onlar tinmay sayrashar, Miron Grigoryevichning qo‘rasida qishlab chiqqan qishloq buqasi erta tushgan bahordan bezovtalanib bo‘kirar, shoxlari bilan chetan devorlarni buzib tashlar, qurt yegan qattiq so‘qaga ishqalanar, osilib tushgan mayin ko‘kragini silkitar, erib, yumshab qolgan qorni tuyoqlari bilan to‘zitardi.

Rojdestvoning ikkinchi kuni Donda muzlar yorila boshladi, daryoning o‘rtasidan katta-katta muzlar shuvullab oqa boshladi. Xuddi uyqudagi katta baliqlar singari muz palaxsalari qirg‘oqqa chiqib qoldi. Donning naryog‘ida, qattiq janub shamoli chayqaltirgan teraklar egilib yerga salom berar edi.

O‘sha yoqdan shovullagan ovozlar kelardi.

Ammo kechasi tog‘dan guvullagan ovoz keldi, qarg‘alar yerda sakrashib qag‘illay boshladi, Xristonyaning cho‘chqasi og‘zida bir tutam poxol bilan Melexovlar qo‘rasi yonidan g‘izillaganicha o‘tdi. Panteley Prokofyevich bahor ham tugadi, ertaga sovuq tushadi, deb o‘yladi. Kechasi shamol yo‘lini o‘zgartirib sharqdan esa boshladi. Kun isiganda yorilib ketgan halqobdagi muzlarni izg‘irin bir-biriga yamashtirdi. Ertalabga borib shamol Moskva tomondan esdi, sovuq achita boshladi. Yana qish boshlandi. Donning o‘rtasidagina, issiq kunlardan qolgan nishonadek, yaxlit oppoq muzlar suzib borardi, tepaliklarda yalang‘ochlangan yerlar sovuqdan bug‘ chiqarardi.

Rojdestvodan keyin ko‘p o‘tmay, stanitsa yig‘inida mirza Panteley Prokofyevichga, Kamenskayada Grigoriyni ko‘rganini, u tezda qaytaman, ota-onamga aytib qo‘y, deb iltimos qilganini xabar qildi.

VII

Sergey Platonovich Moxov siyrak yiltiroq jun bosgan kichkina qoracha qo‘llari bilan hayotni har jihatdan paypaslab ko‘rardi. Hayot ba’zan u bilan o‘ynashar, ba’zan esa suvga cho‘kkan odamning bo‘ynidagi og‘ir toshdek og‘irligini solardi. Sergey Platonovich o‘z umrida ko‘p narsalarni boshidan kechirdi, ko‘p mashmashalarni ko‘rdi. Bundan ancha muqaddam, g‘alla xarid qilish bilan

shug'ullanganida, kazaklarning don-dunini arzongarovga sotib olib dimiqtirib qo'ygan, so'ngra esa to'rt ming pud kuygan bug'doyni xutordan tashqariga olib chiqib, Yomonjarga to'kib tashlagan edi. 1905-yil ham uning esida. O'shanda kuz kezi bir kuni kechasi allakim unga sochma o'q otgan edi. Shunday bo'lsa-da, Moxov kundan kunga boyib ketaverdi, pirovardida oltmish ming jamg'arib, uni Volga-Kamsk bankiga qo'ydi, ammo zamon alg'ov-dalg'ov bo'lishi yaqinlashayotganini o'tkir farosati bilan his etdi. Qora kunlarning tushishini sezgan Sergey Platonovich yanglishmadi: o'n yettinchi yil yanvarda sil kasalidan o'lim to'shagida yotgan muallim Balanda unga:

— Inqilob burun ostiga yaqin kelib qoldi. Men esa ahmoqona va anoyi bir kasallikdan o'lib ketyapman. Alam qiladi, Sergey Platonovich!.. Sizning boyligingizga toroj kelishini va o'zingizni issiqqina uychangizdan haydab chiqarishlarini ko'rolmay dog'da qolyapman, shunisi alam qiladi, — deb zorlandi.

— Nimasi alam qiladi?

— Nimasi deysyzmi? Axir, bilsangiz, hammasining kuli ko'kka sovurilgani kishini quvontiradi-da.

— Yo'q, azizim. Sen bugun o'lsang o'laver, men esa ertaga o'larman, — dedi Sergey Platonovich zimdan g'ijinib.

Yanvar oyidayoq Rasputin va podsho oilasi haqida poytaxtda yurgan gaplarning aks sadosi xutorlar va stanitsalarda ham aylanib qoldi. Mart oyining boshida esa podshoning ag'darilgani to'g'risidagi xabar Sergey Platonovichning boshiga to'qmoqdek urildi. To'ntarish haqidagi xabarlarga kazaklar tashvish aralash intizorlik bilan qaradilar. Shu kuni Moxovning taqa-taq berk do'koni oldida kechgacha yosh-qari kazaklar uymalashib qoldi.

Sariq mo'ylovli, ko'zlari sal g'ilay, barvasta kazak — xutor atamani Kiryushka Soldatovning (o'ldirilgan Manitskovning o'rniga qolgan edi) juda kayfi buzuq edi, do'kon oldida qizigan gaplarga aralashmasdi, g'ilay ko'zlari bilan kazaklarga qarab-qarab qo'yar, goho parishonxotir gap qilardi:

— Ishlarni rasvo qilishdi!.. Ana, xolos!.. Endi turmush nima bo'ldi!..

Sergey Platonovich derazadan qarab do'kon oldiga to'plangan xaloyiqni ko'rdi-da, chollar bilan gurunglashmoq uchun tashqariga

chiqishga qaror qildi. Yonut po'stinini kiyib, oti va familiyasining bosh harflari kumush hal bilan kichkina qilib yozilgan qahvarang hassasiga tayanib ko'cha darvozasidan chiqdi.

Do'kon tomondan g'ovur-g'uvur ovozlar eshitilardi.

— Hoy, Platonich, sen savodxonsan, biz esa omi odamlarmiz, qani ayt-chi, endi nima bo'ladi, boshimizga nima ishlar tushadi? — deb so'radi Kashulin qo'rquv aralash kulimsirab. Uning sovqotgan burni jiyirilib ketdi.

Sergey Platonovichning salomiga javoban qariyalar hurmat yuzasidan shapkalarini oldilar, oralarini ochib davradan unga joy berdilar.

— Podshosiz yashaymiz... — dedi Sergey Platonovich dudmal qilib.

Chollar baravariga chuvullashdi:

— Podshosiz qanday yashab bo'ladi?

— Ota-bobolarimiz podsholar zamonida yashagan, kelib-kelib endi podsho kerak bo'lmay qoldimi?

— Boshsiz tana yashay oladimi?

— Endi qanaqa hukumat kelarkin?

— Platonich, tortinmay gapiraver! Bizga gapning ochig'ini ayt... Nimadan qo'rqasan?

— Ehtimol, uning o'zi ham hech narsa bilmas, — dedi lofchi Avdeich iljayib, shunda uning qip-qizil yuzidagi kuldirgichlari chuqurlashib ketdi.

Sergey Platonovich o'zining eskirgan, chuqur rezina kalishiga angrayib qarab qoldi-da, so'zlari ichini yondirayotgandek gapirdi:

— Hukumatni davlat Dumasi boshqaradi. Bizning mamlakat respublika bo'ladi.

— Onamizni ko'radigan bo'pmiz!

Avdeich:

— Bizlar marhum Aleksandr Ikkinchi zamonlarida xizmatda bo'lganimizda... — deb gap boshlagan edi, ammo badqovoq chol Bogatiryov uning gapini shartta bo'ldi:

— Eshitganmiz! Hozir gap boshqa narsa ustida ketyapti.

— Bundan chiqdi, kazaklarning kuni bitibdi-da?

Biz bu yerda bo'yintoblik qilsak, nemis qarab turmaydi, Sankt-Peterburggacha borib yetadi.

— Modomiki tenglik bo'lsa, bizni mujiklar bilan baravar qilib qo'yar ekanlar-da.

— Qarab tur, hali yerimizga ham qo'l cho'zadilar. Sergey Platonovich zo'rma-zo'raki kulib, tashvishga tushib qolgan chollarga ko'z yugurtirdi, yuragi g'am-g'ussa bilan to'ldi. Odat bo'lib qolgan bir harakat bilan qizg'ish soqolini ikki yoqqa ajratib, kimgadir achchiq qilib gapira ketdi:

— Mana, chollar, ko'rdinglarmi, Rossiyani qanday ahvolga soldilar. Sizlarni mujiklar bilan tenglashtiradilar, imtiyozlaringizdan mahrum etadilar, buning ustiga, eski adovatlarni ham eslaydilar. Og'ir kunlar kelyapti... Lekin hukumatning kimlar qo'liga o'tishiga ham bog'liq, balki bizlarni halokat jariga itarib tashlarlar.

— Bosh omon bo'lsa, ko'raveramiz! — Bogatiryov bosh chayqab qo'ydi, o'siq qoshlari ostidan Sergey Platonovichga ishonchsizlik bilan qaradi. — Sen Platonich, o'z g'amingni yeysan, ammo bizga, ehtimol, yengillik bo'lar.

— Sizga nima yengillik bo'lishi mumkin? — deb so'radi Sergey Platonovich zaharxanda qilib.

— Yangi hukumat urushni tugallashi mumkin... Shunday bo'lishi mumkinmi, a?

Sergey Platonovich qo'l siltab qo'ydi-da, oyog'ini sudrab o'zining yam-yashil, serhasham zinapoyasi tomon ketdi. U ketar ekan, goh pul, goh tegirmon to'g'risida, goh savdo-sotiqning kasodligi haqida o'ylar, Yelizavetaning Moskvaga kelib qolgani, Vladimirning tez orada Novocherkasskdan qaytib kelishi esiga tushar edi. Bolalari to'g'risida yegan g'ami bir-biriga bog'lanmagan bezovta fikrlariga xalal bermasdi. Shularni o'ylab u zinapoya oldigacha keldi, bir kun ichida hayot shami birdan xira bo'lib, ichini achchiq fikrlar mushukdek tirnayotganini sezdi. Tupugidan og'zi taxir bo'lib ketdi. Sergey Platonovich do'kon oldidagi chollarga qarab turib, zinapoyaning o'ymakor panjarasi orasidan «tuf» deb tupurdi-da, peshayvondan shipillab o'tib, o'z xonasiga kirib ketdi.

Anna Ivanovna yemakxonada eriga duch kelib qoldi, o'z odaticha nursiz ko'zlari bilan erining yuziga bir nazar tashlab:

— Choy oldidan picha ovqatlanib olasanmi? — deb so'radi.

— Yo‘g‘-e! Shu mahalda ovqat o‘tadimi? — deb qo‘l siltadi Sergey Platonovich ijirg‘anib.

Yechinar ekan, og‘zining taxir ekanini boshi g‘ovlaganini va ta’bi xira ekanini his etdi.

— Lizadan xat bor.

Anna Ivanovna pitir-pitir qilib, yotoq bo‘lmasiga kirib ketdi-da, u yerdan yirtilgan konvert olib chiqdi (u erga chiqib, katta ro‘zg‘or boshiga tushgandan beri shunaqa pitirlab yuradigan bo‘lib qolgan edi).

Sergey Platonovich qalin konvertdan gurkirab kelib turgan atir hididan burnini jiyirib, birinchi daf’a qizi to‘g‘risida «yengiltak, ehtimol, esipast qiz» deb o‘yladi. Chol hafsalasizlik bilan qizining xatini ko‘zdan kechirdi, negadir «kayfim» degan so‘z ustida to‘xtalib, uning zamirida nima gap borligini bilmay, anchagacha bosh qotirdi. Yelizaveta xatining oxirida pul yuborishni so‘ragan edi. Hamon kallasi g‘ovlab turgan Sergey Platonovich so‘nggi satrlarni o‘qidi-da, to‘satdan o‘tirib yig‘lagisi keldi. Ostin-ustun bo‘lib ketgan hayot shu paytda unga bema’ni narsaga o‘xshab ko‘rinardi.

«Bu qiz — menga begonadek, — deb o‘yladi u Yelizaveta to‘g‘risida. Men ham unga begona. Pulga muhtoj bo‘lib qolgandagina ota-ona esiga tushibdi... Murdor qiz, xushtorlari bor... Kichkinaligida sochlari sarg‘ish, biram shirin qiz ediki... Voy xudoyim-e! Dunyoda turlanib turmaydigan narsa yo‘q-a!. Qariganda ham menga aql kirmadi, kelajakda yaxshi umr kechiraman deb ishondim, vaholanki kimsasiz g‘arib odamman... Harom-xarish pul orttirdim, halol yo‘l bilan davlat orttirib bo‘larmidi! Muttahamlik qildim, qisdim, mana endi inqilob bo‘ldi, erta-indin o‘z yugurdaklarim meni uyimdan quvib chiqarishlari turgan gap... Hammaning boshida shu g‘alva bor!.. Bolalarim-chi? Vladimir g‘irt ahmoq... Undan nima chiqardi? Bormi-yo‘qmi, menga baribir...»

Bir vaqtlar tegirmonda bo‘lgan voqea bemavrid esiga tushib ketdi: tegirmonga don olib kelgan bir kazak, bug‘doy yirik tortilibdi, deb tegirmon haqi to‘lashdan bosh tortdi; u, ya’ni Sergey Platonovich, shu vaqtda mashina bo‘limida edi, shovqin-suronni eshitib u yerdan chiqdi-da, nima gapligini bilib, tarozibonga va tegirmonchiga, tortilgan unni bermang deb buyurdi. Mushtdakkina, ko‘rimsiz kazak

qopning og'zidan ushlab o'z tomoniga tortar, ko'krakdor, g'o'labir tegirmonchi Zavar o'z tomoniga tortardi. Nima bo'ldi-yu, kazak tegirmonchini turtib yubordi, u esa qulochkashlab turib, mahkam qisilgan zilday mushtumi bilan kazakning chakkasiga tushirdi. Kazak yiqilib tushdi, keyin gandiraklab o'rnidan turdi; so'l chakkasi shilinib, qon sizib turardi. U to'g'ri Sergey Platonovichning oldiga keldi-yu, jig'ibiyroni chiqib:

— Zaharingga unni yeya qol! Sen to'y! — deb pichirladi-da, chiqib ketdi, uning yelkalari qalt-qalt qilib turardi.

Sergey Platonovich hech qanday munosabatsiz shu hodisani va uning oqibatini esladi: o'sha pakana kazakning xotini unni qaytarib berishni so'rab keldi; u zo'rma-zo'raki yig'lab, un tortuvchilarning rahmini keltirish uchun:

— Yaxshilar, bu nima degan gap-a? Bu qanday nohaqlik? Qaytarib ber unni! — dedi.

— Bor, yaxshilikcha jo'nab qol, xola, bo'lmasa sochingni bittalab yulib olaman! — deb kuldi Zavar.

O'sha pakanagina kazak singari zaif, pakana bo'lgan tarozibon Valet, Zavar bilan mushtlasha ketdi, bu yoqimsiz manzara kishining g'ashini keltirardi. Rosa kaltak yegan Valet, javobimni bering, deb turib oldi. Sergey Platonovich to'g'riga qarab, o'qib bo'lgan xatni buklar ekan, shu xotiralar uning miyasidan lip etib o'tdi. Shu bugungi hodisalar uning yuragini hasrat-nadomat bilan to'ldirdi. Sergey Platonovich kechasi tinch uxlayolmadi, biridan biri bema'ni fikrlar va ushalmas orzular miyasiga kelib, u yonboshidan bu yonboshiga ag'anab chiqdi; yarim kechaga borib ko'zi ilindi, ertalab esa, frontdan Yagodnoyega, otasining oldiga Yevgeniy Listnitskiy kelganini eshitdida, gapirib, yuragining chigillarini yechish va haqiqiy ahvolni bilib olish uchun u yerga borishga jazm qildi. Yemelyan, trubkasini chekib turib, shaharbop chanaga tulporni qo'shdi-da, keyin xo'jayinini Yagodnoyega olib ketdi.

Xutor ustida oftob sap-sariq barkashday osilib turar, uning ostida va ustida tutun singari hafif bulutlar suzib yurardi. Muzdek havodan ho'l mevalarning hidi kelib turgandek edi. Tulpor otning tuyoqlari ostida yo'l ustidagi muzlar qirsillab sinar, otning og'iz-burnidan chiqqan bug'ni shamol orqaga uchirar, bug'lar yoliga yopishib, qirov

hosil qilardi. Chananing tez yurishidan va sovuqdan ko'ngli taskin topgan Sergey Platonovich chayqalib mudrab borar, chana orqasiga sirilgan gilamga orqasini ishqar edi. Po'stin kiygan kazaklar xutor maydonida uymalashar, pochapo'stinlarining etagiga qunduz sirilgan ayollar qo'y singari to'planishib turardi.

Olomonning o'rtasida kalta po'stinining bog'ichiga qizil lenta taqib olgan muallim Balanda dastro'molini ko'karib ketgan og'ziga tutib, ko'zlarini chaqchaytirib gapirar edi:

— ...Ko'rib turibsiz, la'nati samoderjaviye yiqildi! Endi ishchilarni qamchi bilan tinchitish uchun o'g'illaringizni yubormaydilar, endi qonxo'r podshoga sharmandalarcha xizmat qilish yo'q. Endi yangi, ozod Rossiyaning xo'jayini — Uchreditelnoye sobraniye bo'ldi. U boshqacha, yorqin hayot quradi.

Uning orqasida turgan rafiqasi kalta po'stinining etagidan tortib, yalinib-yolvorib shivirlar edi:

— Mitya, qo'ysangchi! Gapirish senga zarar-ku, axir. Yana og'zingdan qon keladi... Mitya!

Kazaklar xijolat bo'lganday yerga qarab, yo'talib, kulgilarini yashirib Balandaning gapiga quloq solar edilar. Muallimga nutqini tamomlashga yo'l bermadilar. Oldingi qatordagilardan biri unga achinganday:

— Ko'rinib turibdiki, hayotimiz yorqin bo'ladi, ammo sen bechora uni ko'rolmaysan. Yaxshisi, uyingga bor, havo sovuq... — dedi.

Balandaning gapi og'zida qoldi, u, bo'zarib ketib olomon ichidan chiqdi.

Sergey Platonovich Yagodnoyega choshgohda yetib keldi. Yemelyan tulporning jilovidan ushlab, otxona yonidagi chetan oxur oldiga yetaklab keldi, xo'jayini to chanadan tushib, po'stinining etagini ko'tarib dastro'molini olguncha, u otning yuganini chiqarib, ustiga to'qim tashlab qo'ydi. Zinapoya oldida Sergey Platonovichni bo'yi baland, yunglari oqara boshlagan, ustini sarg'ish dog' bosgan tozi it qarshiladi. U yot kishini ko'rgach, o'rnidan turib, paydor uzun oyoqlarini cho'zib esnadi, zinapoya oldida cho'zilishib yotgan boshqa itlar ham uning ketidan erinibgina o'rinlaridan turdi.

Sergey Platonovich ularga qo'rqa-pisa qarab, orqasi bilan zinadan ko'tarilar ekan: «Voy qurg'urlar-e, buncha ko'p ular!» — deb o'ylardi.

Yop-yorug' quruq dahlizdan it hidi va sirka isi anqib turardi. Sandiqning tepasida tarvaqaylagan kiyik shoxida ofitsercha qorako'l papoq, bezakli boshliq va yengsiz kavkaz chakmoni osig'liq turardi. Sergey Platonovich chakmonga qarab qoldi; bir lahza sandiq ustida hamma yog'ini jun bosgan, hayron bo'lib yelkalarini qisib qo'ygan bir odam ko'ringanday bo'ldi. Yon tomondagi xonadan to'lagina qorako'z juvon chiqib keldi. Yuzi qorachadan kelgan chiroyli juvon Sergey Platonovich yechinayotganda uni kuzatib turdi-da, keyin jiddiy sur'atda:

— Siz, Nikolay Alekseyevichni ko'rgani keldingizmi? — deb so'radi. — Hozir borib aytaman.

Juvon eshikni taqillatmasdan zalga kirdi-da, orqasidan eshikni mahkam yopib oldi. Sergey Platonovich tirsillab semirib ketgan bu qorako'z chiroyli juvonning Aksinya Astaxova ekanini zo'rg'a tanidi. Aksinya esa uni darrov tanigan edi, u la'li lablarini qimtib, qomatini g'ayritabiiy sur'atda tik tutib, sutdek oppoq yalang'och bilaklarini silkitib ichkariga kirib ketdi. Oradan bir lahza o'tgach uning orqasidan chol Listnitskiy chiqdi. U sipolikni qo'ldan bermay, iljayib turib, iltifot bilan:

— E! Janob! Qaysi shamol uchirdi? Qani, marhamat... – deb do'rilladi va o'zini bir chekkaga olib, qo'l ishorasi bilan mehmonni zalga taklif qildi.

Sergey Platonovich ko'pdan buyon ulug'lar oldida ta'zim qilib o'rganib qolgan edi, u hozir ham shunday ehtirom bilan bosh egib, zalga kirdi. Yevgeniy Listnitskiy o'rnidan turdi-da, pensne ostidan ko'zlarini suzib unga qarshi kelaverdi.

— Xo'p keldingiz-da, aziz Sergey Platonovich! Assalomu alaykum! Bu nima, qarib qoldingizmi deyman-a?

— Qo'ying-e, Yevgeniy Nikolayevich! Men hali sizdan ham uzoq yashamoqchiman. Xo'sh, o'zingiz qalaysiz? Sihat-salomat yuribsizmi?

Yevgeniy kulimsirab, oltin qoplama tishlarini yaltiratib, mehmonning qo'ltig'iga kirdi-da, uni kreslo tomon yetakladi. Ular stol yoniga o'tirib, u yoq-bu yoqdan gaplashar ekanlar, so'nggi mar-

ta ko'rishganlaridan beri bir-birlarining yuzlarida ro'y bergan o'zgarishlarni diqqat bilan ko'zdan kechirdilar. Pan Listnitskiy choy keltirishni buyurib, ichkari kirdi. Uning og'zidagi egri trubkasi tutab turar edi. Sergey Platonovich o'tirgan kreslo yonida to'xtab, qoq suyak uzun panjasini stolga qo'yib turib:

— Qishlog'ingizda nima gaplar bor?.. Xushxabarlarni eshitdingizmi? — deb so'radi.

Sergey Platonovich pastdan yuqoriga, generalning soqoli qirilgan burishiq bo'yniga va iyagiga qaradi-da, xo'rsinib:

— Eshitmay bo'ladimi! — dedi.

— Taqdirning taqozosi bilan bo'lgan ishlarni qarang... — general kekirdagini qimirlatib, tutun yutdi. — Urushning boshidayoq shunday bo'lishini bilgan edim. Nima qilaylik... podsho xonadoni mahv bo'lishga mahkum edi. Hozir Merejkovskiy esimga tushib ketdi... esingdami, Yevgeniy, «Pyotr va Aleksey» degan asari. Qiynoqlardan keyin shahzoda Aleksey otasiga: «Mening qonim sizning avlodingiz ustiga to'kiladi...» degandi.

— Biz jo'yali biror xabar eshitmadik-ku, axir, — dedi Sergey Platonovich hayajonlanib. Keyin o'tirgan joyida qimirlab qo'yib, trubkasini tortdi-da, so'zida davom etdi: — Bir haftadan beri gazeta olganimiz yo'q. Har xil bo'lmag'ur xabarlarni eshitamiz, shoshib qolganmiz. Bu bir baloyi ofat, vallohi! Men Yevgeniy Nikolayevich ta'tilga kelibdi, deb eshitib, oldingizga kelishga qaror qildim, u yerlarda nimalar bo'layotganini va nima bo'lishini azbaroyi surishtirib bilmoq uchun.

Yevgeniy endi kulmay, toza qilib qirilgan yuziga jiddiy tus berib hikoya qila ketdi:

— Dahshatli hodisalar... Askarlar orasida intizom tamomila buzilgan, urushishga toblari yo'q, charchaganlar. Aslini surishtirsangiz, shu bu yil tom ma'nosi bilan bizda askar qolmadi. Jangchilar bebosh, jinoyatchilar to'dasiga aylangan. Chunonchi, masalan... dadamlar bu holni tasavvur eta bilmaydilar. Qo'shinimizning naqadar buzilganini u kishi xayoliga ham keltira olmaydilar... Askarlar o'zboshimchalik qilib pozitsiyani tashlab ketadilar, talonchilik qiladilar, aholini qiradilar, ofitserlarni o'ldiradilar, xalqni talaydilar... Harbiy buyruqlarni bajarishdan bosh tortish — hozir oddiy hodisa bo'lib qolgan.

— Baliq boshidan chiriydi, — dedi keksa Listnitskiy og'zidan tutun chiqarib.

— Menimcha bunday emas, — dedi Yevgeniy aftini bujmaytirib. Shunda mayda tomirli qovoqlari asabiylik bilan pirpirab ketdi: — Menga qolsa... armiya pastdan, bolsheviklar ta'siriga berilib buzilyapti, deb aytar edim. Hatto kazak qismlari ham, xususan, piyoda askarlar bilan yaqin aloqada bo'lganlari og'machi. Haddan tashqari charchaganlar, kindiklarining qoni to'kilgan qishloqlarini qo'msaydilar... Bular kamlik qilganday bolsheviklar...

— Ularning niyatlari nima? — deb so'radi Sergey Platonovich o'zini tutib turolmay.

— U, — deb miyig'ida kuldi Listnitskiy, — ularning niyatlari... Vabo marazidan ham battar! Shu jihatdan ham yomonki, bu maraz odamga tez yuqadi va askarlar ommasi orasida tez tarqaladi. Men ularning g'oyalari to'g'risida gapiryapman. Bu shunday narsaki, hech qanday karantin bilan undan qutula olmaysan. Bolsheviklar orasida, shubhasiz, iste'dodli odamlar bor, ba'zilari bilan to'qnashishga to'g'ri keldi, o'taketgan mutaassiblari ham bor, ammo ko'pchiligi — bebosh, axloqsiz kimsalardir. Bolsheviklar ta'limotining mohiyati ularni qiziqtirmaydi, ular talonchilik qilish va frontdan ketish uchun bahona izlaydilar. Ular hammadan burun hokimiyatni o'z qo'llariga olib, o'zlarining tili bilan aytganda, «imperialistik» urushni har qanday shart bilan, hatto separat sulh tuzish yo'li bilan bo'lsa-da, tugatishni, yerni dehqonlarga, fabrikalarni ishchilarga olib berishni istaydilar. Albatta, bular xomxayol va behuda gaplar, ammo shunday oddiy yo'l bilan ular askarlarni o'z tomonlariga og'dirib olyaptilar.

Listnitskiy achchig'i chiqib tursa ham o'zini tutib turib gapirardi, fil suyagidan yasalgan mundshtugini barmoqlari bilan likillatardi. Sergey Platonovich hozir o'rnidan sapchib turishga shaylanayotgandek oldinga engashib quloq solardi. Keksa Listnitskiy yunglari hurpaygan burkasini qimirlatib qo'yib, oqargan ko'kish mo'ylovlarining uchini tishlar, zalda u yoqdan bu yoqqa yurib turardi.

Yevgeniy hatto inqilobdan ilgari kazaklarning o'ch olishlaridan qo'rqib, polkdan qochib ketishga majbur bo'lganini, Petrogradda o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarni hikoya qilib berdi.

Suhbat kesilib, bir muddat jim bo'lib qoldilar. Keksa Listnitskiy Sergey Platonovichning qanshariga tikilib turib:

— Nima, kuzda o'zing ko'rib ketgan bo'z otni — «Boyarin»dan bo'lgan ayg'irni sotib olasanmi? — deb so'rab qoldi.

— Nikolay Alekseyevich, shunday vaqtda otga balo bormi? — deb, Moxov aftini burishtirdi-da, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan odamday, qo'l siltab qo'ydi.

Shu payt xizmatchilar turadigan uyda isinib olgan Yemelyan endi choyxo'rlik qilar, qizil ro'molchasi bilan lavlagidek qizarib ketgan yuzidagi terni artar, xutordagi gaplardan, yangiliklardan hikoya qilardi. Aksinya karavotning naqshinkor panjarasiga ko'kragini tirab, tivit ro'molga o'ranib turardi.

— Bizning uyimiz qulab tushgandir-a? — deb so'rab qoldi u.

— Yo'g'-e, nega qulasin, joyida turibdi, balodek, — deb salmoqlab javob qildi Yemelyan.

— Qo'shnilarimiz Melexovlarning turmushi qanaqa?

— Kunlari o'tib turibdi.

— Petro ta'tilga kelgani yo'qmi?

— Kelmadi, shekilli.

— Grigoriy-chi? O'g'illari Grishka-chi?

— Grishka Rojdestvodan keyin bir kelib ketuvdi. Xotini shu bu yil egizak tug'di... Ha, aytganday, Grigoriy... Yarador bo'lgani uchun kelgan edi.

— Yaralangan ekan deysizmi?

— Bo'lmasa-chi? Qo'lidan o'q yebdi. Urushgan itday hamma yog'ini jarohat bosib ketgan: ko'kragiga osib olgan krestlari yarasidan ko'p, yaralari krestidan.

— Grishka o'zi qalay? — deb so'radi Aksinya tomog'iga bir narsa tiqilganday bo'g'ilib, keyin ovozini ochish uchun yo'talib qo'ydi.

— Avvalgiday... qush burun va qop-qora. Baayni turkning o'zi, burungisiday.

— Men unisini aytayotganim yo'q... o'zi qarib qolmaganmi?

— Kim biladi deysan, qarigan bo'lsa, biroz qarigandir. Xotini egizak tug'di, bundan chiqdi, judayam qarimagan.

Aksinyaning kiftlari qaltirab:

— Bu yer sovuq ekan... — dedi-da, chiqib ketdi. Yemelyan shu bilan sakkizinchi chashkaga choy quydi-yu, Aksinyaning orqasidan qarab, shoshmasdan:

— Gazanda, nas bosgan manjalaqi, — dedi. — Yaqindagina xutorda choriq kiyib yurardi, endi bo'lsa «bat» emas, «bu yer» deb gapiradigan bo'p qopti-ya. Bunday xotinlarni ko'rarga ko'zim yo'q. Mening qo'limda bo'lsa-ku, bu manjalaqilarni... Ha, chayon! «Bu yer sovuq ekan» deydi-ya! Tiling kesilgur!

U tutaqib ketganidan choy tomog'idan o'tmay qoldi, stol yonida turib cho'qindi-yu, atrofidagi narsalarga gerdayib qarab, yuvib tozalangan polni jo'rttaga loy etigi bilan bulg'ab chiqib ketdi.

Uyga qaytar ekan, yo'lda u ham xo'jayini singari tumtaygan edi. Aksinyaning qilig'idan jahli chiqqan Yemelyan alamini otdan olar, qamchisining uchi bilan otning nozik joyiga tushirar, piching qilib uni qirchang'i, cho'loq deb so'kardi. To xutorga yetib borguncha, Yemelyan o'z odatiga xilof qilib, xo'jayinga bir og'iz ham gap qotmadi. Dami ichiga tushib ketgan Sergey Platonovich ham churq etmay o'tirardi.

VIII

Fevral inqilobidan oldin, g'arbi-janubiy frontda rezervda turgan piyoda askarlar diviziyasidan birinchi brigada bilan unga qo'shib berilgan 27-Don kazaklari polkini frontdan olib ketdilar, bundan maqsad — endi boshlanayotan tartibsizliklarni bostirish uchun ularni poytaxt atrofiga joylashtirish edi. Brigadani front orqasiga olib o'tib, uni yangigina qishlik kiyim-kechak bilan ta'minladilar, bir kecha-kunduz rosa boqdilar, ertasiga vagonlarga o'tirg'izib jo'natdilar, ammo Minsk tomon jo'natilgan polklar kechikib qolgan edi: yo'lga chiqqan kunlariyoq, imperator bosh qo'mondon shtabida taxtdan voz kechish to'g'risidagi aktga qo'l qo'yibdi, degan ovoza tarqaldi.

Brigadani yarim yo'ldan orqaga qaytardilar. Razgon stansiyasida 27-polk vagondan tushish to'g'risida farmon oldi. Yo'llar poyezdlar bilan to'lib ketgan edi. Platformalarda shinellariga qizil bog'ich taqib olgan askarlar rus miltig'idan nusxa olib, Angliyada ishlangan yapyangi miltiqlar bilan u yoqdan bu yoqqa yurib turar edilar. Askarlar-

ning ko'pi, yuzta-yuztadan bo'lib saf tortayotgan kazaklarga qo'rqapisa qarab bezovtalanar edilar.

Havo aynigan, kech kirgan edi. Stansiya binosining tarnovidan suv sharillab oqib turar, yo'llarda ustini yiltiroq neft dog'lari bosgan ko'lob suvlarda bulutli kulrang osmon aks etardi. Manyovr qilib turgan parovozlarning bo'g'iq ovozi xirillab eshitilardi. Yuk omborlari orqasida otliqlar polki saf tortib, brigada komandirini qarshiladi. To'pig'igacha ho'l bo'lgan otlarning oyog'idan bug' ko'tarilib turardi. Quzg'unlar qo'rqmasdan safning orqa tomoniga qo'nar, sap-sariq yumaloq ot go'nglarini titkilab, don axtarardi.

Bo'ydor qora arg'umoq mingan brigada komandiri polk komandiri hamrohligida kazaklar oldiga keldi. Otning jilovini tortib turib, kazaklarga ko'z yugurtirdi. Yengi shimarilgan qo'lini to'lg'ab o'z og'zidan chiqqan salmoqsiz, tuturiqsiz gaplarini rad etayotganday gapirar edi.

— Kazaklar! Shu vaqtgacha podsholik qilib kelgan imperator Nikolay Ikkinchi xalqning eee... irodasi-la taxtdan tushirildi. Hokimiyat Davlat dumasining Muvaqqat komiteti qo'liga o'tdi. Armiya va shu jumladan sizlar bu... eee... axborotga parvo qilmasligingiz zarur... Kazaklarning vazifasi o'z vatanini tashqi va eee... demak, tashqi dushmanlar tazyiqidan himoya etmoqdan eee... iboratdir. Bizlar mamlakatda boshlangan g'alayonlarga aralashmaymiz. Aholiga yangi hukumat tuzish yo'llarini tanlash imkoniyatini beramiz. Bizlar xolis turishimiz zarur! Urush va siyosat armiya uchun olov bilan suvdek gap. Jamiyat negizlari... eee... shunday larzaga kelgan kunlarda, biz xuddi... — keksa va iste'dodsiz general — brigada komandiri nutq so'zlashga o'rganmagan edi, shuning uchun muqoyasa topolmay qiynalib, tili tutilib qoldi. Uning yuzi moy surtilganday yiltirar, qoshlari chimirilib turardi, kazak bo'linmalari sabr-toqat bilan so'zining oxirini kutib turardilar: — Eee... metinday bikir bo'lishimiz lozim. Kazaklik harbiy burchi sizlarni o'z boshliqlaringizga itoat etishga da'vat qiladi. Bizlar dushman bilan ilgari qanday urushgan bo'lsak, hozir ham shunday qahramonlik bilan urushajakmiz, u yerda... — general orqasiga qiyshayib qarab qo'ydi, — u yerda Davlat dumasi mamlakat muqaddirotini hal qilaversin. Urushni biryoqlik qilganimizdan keyin biz ham mamlakatning ichki ishlariga ishtirok etgusimizdir, hozircha

bizga... eee... ishtirok etish mumkin emas. Armiyani biz qo'ldan berolmaymiz... Armiyaning siyosat bilan ishi bo'lmasligi kerak!

Bir necha kundan keyin kazaklar shu stansiyada Muvaqqat hukumatga sodiq ekanliklariga ont ichdilar, to'da-to'da bo'lib, o'z hamqishloqlari bilan mitinglarga bordilar, lekin stansiyani to'ldirgan askarlarga qo'shilmadilar. Mitingdan keyin eshitgan nutqlarini uzoq muhokama qildilar, har bir shubhali so'zlarni esga olib, ularga ishonqiramay mulohaza qilib mag'zini chaqmoqchi bo'ldilar; negadir hammada: agar hurriyat bo'lgan bo'lsa – urush tugashi lozim, degan ishonch hosil bo'lgan edi. Odamlarning miyasiga o'rnashib qolgan bu fikr bilan, Rossiya oxirigacha urushish kerak, degan e'tiqodda bo'lgan ofitserlarning kurash olib borishi ancha qiyinlashdi.

O'zgarishdan keyin armiyaning yuqori doiralarini chulg'ab olgan sarosimalik pastki tabaqaga ham ta'sir etdi; yarim yo'lda to'xtab qolgan brigadaning bor-yo'qligidan diviziya shtabi bexabar edi. Vagonlardan tushgan brigada sakkiz kun uchun berilgan oziq-ovqatni yeb tamom qildi, askarlar to'p-to'p bo'lib, yaqin oradagi qishloqlarga ketib qolar, bozorda esa qayoqdandir keltirilgan spirt sotilar edi, shu sababdan, o'sha kunlari mast bo'lib yurgan askar va ofitserlarni ko'rish taajjublanarli narsa emasdi.

Safar munosabati bilan kundalik vazifalaridan chetlashtirilgan kazaklar issiq vagonlarda zerikishib, o'zlarini Donga jo'natishlarini kutishar («ikkinchi navbatdagi kazaklarni uy-uylariga jo'natar emishlar» degan mish-mish tarqalgan edi), otlarni parvosizlik bilan boqishar, uzun kun bozor maydonida sandiroqlab yurishar, pozitsiyadan keltirilgan bozorbop narsalar – nemis odeyallari, nayza, arra, shinel, charm sumkalar, tamaki sotishardi.

Frontga qaytilsin, degan buyruqqa olag'ovur ko'tarib qarshi chiqishdi. Ikkinchi sotnya frontga borishdan bosh tortdi, kazaklar vagonlarga parovozni tirkashga yo'l qo'yishmadi, ammo polk komandiri qurolsizlantiramiz, deb do'q qilgandan keyin, hayajon bosildi. Eshelonlar frontga qarab jo'nadi.

– Bu nima degan gap-a, og'aynilar? Hurriyat, hurriyat deyishadiyu, urush cho'zilib, yana qon to'kilaverarkan-da?

– Yana eski tartibga jon kirarkan-da!

– Bo'lmasa, podshoni nega o'rnidan tushirishdiykin?

— Uning davrida biz nima yaxshilik ko‘ruvdikki, endi nima ko‘ramiz.

— O‘sha eski tos, eski hammom-da!

— Balli, balli!

— Qachongacha shunaqa bo‘larkin-a?..

— Uch yil bo‘ladi, miltiq qo‘limizdan tushmaydi!

Vagonda shu xilda gaplar tinmas edi. Qandaydir katta bir stansiyada kazaklar xuddi til biriktirgandek, vagonlardan tushib, polk komandirining nasihat va tahdidlariga quloq solmay, miting boshlab yubordilar. Kulrang shinelli kazaklar orasida komendant bilan keksa stansiya boshlig‘i behuda tentirab yurib, vagonlarga chiqing, yo‘lni bo‘shatib qo‘ying, deb kazaklarga yalinib-yolvorar edilar. Kazaklar uchinchi sotnya uryadnigining nutqini diqqat bilan tinglardilar. Uryadnikdan so‘ng past bo‘yli, kelishgan kazak — Manjulov gapirdi. Uning oqargan, g‘azabdan qiyshaygan og‘zidan zaharli so‘zlar otilib chiqardi.

— Kazaklar! Bu bo‘lmag‘ur gap, axir! Bizlarni yana xijolatpazlikka qo‘ydilar. Bizlarni laqillatmoqchilar. Bas, inqilob bo‘lgan ekan va barcha xalqqa ozodlik berilgan ekan, binobarin, urushga barham berish lozim. Nainki biz ham, xalq ham urushni istamaymiz. To‘g‘ri aytyapmanmi? Rostmi, a?

— Rost!

— Enasiga bersin!

— Jonimizga tegdi!

— Etimiz borib ustixonga yopishdi, chalvarlar ushlamayapti... Yana qanaqa urush?!

— Xohla-may-miz!

— Uy-uyimizga ketamiz.

— Parovozni chiqarib ol, Fedot, bo‘l!

— Kazaklar! Shoshmanglar! Kazaklar, og‘aynilar? Zang‘arlar, xotin taloqlar!.. Og‘aynilar! — Manjulov minglab kishilarning ovozini bosib baqirardi.— Shoshilmanglar, parovozni qo‘zg‘atmanglar! Parovozning bizga keragi yo‘q, faqat aldash uchun... Bizlarni frontga borsin deb rostdan ham talab qilishganmi yoki bu polk komandirining nayranglarimi, shuni janobi polk komandiri hujjat bilan aytsin.

Hayajonga kelgan, o‘zini yo‘qotib qo‘ygan polk komandiri labi labiga tegmay, polkni frontga jo‘natish to‘g‘risida diviziya shtabidan olgan telegrammani ovoz chiqarib o‘qib berganidan so‘nggiia, kazaklar vagonlarga chiqdilar.

Bir qizil vagonda 27-polkda xizmat qiluvchi olti hamqishloq — Tatarsk qishloqlik Petro Melexov, Mishka Koshevoyning amakisi Nikolay Koshevoy, Anikushka, Fedot Bodovskov, lo‘li bashara, jingalak soqol, sarg‘ish ko‘zlari bejo Merkulov, Korshunovlarning qo‘shnisi — bebosh va sho‘x kazak Maksimka Gryaznovlar joylashgan edilar. Gryaznov urushga qadar butun stanitsada dovyurak ot o‘g‘risi deb yomon nom chiqargan edi. Kazaklar doim Gryaznovni mazax qilib: «Ot o‘g‘irlash Merkulovga yarashib tushadi, baayni lo‘lining o‘zi, lekin ot o‘g‘irlamaydi. Maksim, otning dumini ko‘rsa, o‘g‘irlaging kelib isitmang oshadimi!» — deb kazaklar doim Gryaznovni kalaka qilishardi. Maksimka qip-qizarib, chag‘ir ko‘zlarini qisib, shaloq gap qilardi. «Merkulovning onasi lo‘li bilan o‘ynashgan, mening onamning havasi kelgan chiqar, bo‘lmasa, men xudo ko‘rsatmasin, shunaqa bo‘larmidim!..»

Qizil vagon ichida shamol g‘o‘rillardi; to‘qim urilgan otlar naridan-beri qilingan oxurlar oldida turishardi; vagon o‘rtasidagi uyilgan tuproq ustida ho‘l o‘tin sasib yonar, uning achchiq tutuni eshik tirqishlariga qarab urardi. Egar ustida, olov atrofiga o‘tirib olgan kazaklar terdan namiqqan sassiq paytavalarini quritishardi. Fedot Bodovskov qiyshiq, yalang oyog‘ini o‘tga toblar edi. Uning qalmoqcha cho‘ziq yuzida xursandlik kulgisi o‘ynar edi. Gryaznov ko‘chib ketgan tagcharmni shoshib-pishib mumlangan ip bilan tikar ekan, xirillagan ovoz bilan kimgadir po‘ng‘illab gapirar edi:

— ...Kichkinaligimda qish mahali pech ustiga chiqib olardim. Buvim esa (o‘sha mahalda yuzdan oshgan edi), boshimning bitini boqib der edi: «Qo‘zichog‘im Maksimushka! Qadimda xalq bunaqa umr kechirmagan, risola bilan yashagan, hech qanday baloqazo ko‘rmagan. Sen, erkatoyim bo‘lsang, shunday zamonalarni ko‘rasanki, yer yuzini sim bilan chulg‘aydilar, osmonda temir tumshuq qushlar uchib yuradi. Qarg‘a tarvuz cho‘qigandek, u ham odamlarni cho‘qilaydi... Ocharchilik bo‘lib, vabo boshlanadi, shunda aka uka bilan, o‘g‘il ota bilan jiqqamusht bo‘ladi... Odamlar ham yak-

kam-dukkam bo'lib qoladi». – Maksim birpas jim turib, yana davom etdi. – Mana, rostdan ham shunday bo'ldi: telegrafni o'ylab chiqardilar, mana senga sim! Temir tumshuq qush esa – aeroplan. Aeroplanlar ozmuncha odamni majaqlamadimi! Hali ocharchilik ham bo'ladi. Biznikilar burnog'i yillarga qaraganda nisf ekin ekadi. Har bir dehqon ham shunday. Stanitsalarda chol-u go'daklar qolgan. Bordi-yu, ekin bitmasa, holimiz xarob.

Petro Melexov olovning o'tini jo'nashtirar ekan:

– Aka-uka jiqqamusht bo'ladi degani bo'lmag'ur gapdir? – deb so'radi.

– Shoshma hali, shu ham xalqning boshiga tushadi. Fedot Bodovskov gapga aralashib:

– Tayin bir hukumat bo'lmasa, alg'ov-dalg'ov boshlanadi, – dedi.

– Bundan tashqari, g'alvachilarni tinchitish ham kerak bo'ladi.

– Avval sen germanlarni bir yoqliq qil, – deb kuldi Koshevoy.

– Nima qipti, hali tag'in urushamiz... Anikushka o'zini qo'rqqanga solib, xotinchalish yuzini burishtirib dedi:

– Papoq oyim! Qachongacha «urushamiz?»

– Sen ko'saga soqol bitguncha, – deb piching qildi Koshevoy.

Olov atrofida o'tirganlar baravar kulib yubordilar. Tutundan yo'tali tutib qolgan Petro Anikushkaga jiqqa yosh ko'zlari bilan qarab, unga qo'lini nuqib qo'ydi.

Anikushka xijolat bo'lib:

– Tukning aqli bormi, nokerak joyda ham o'saveradi, – dedi. – Sen Koshevoy, bekorga valaqlayapsan...

– Bas endi! Pichoq borib ustixonga qadaldi, – dedi birdan Gryaznov qizishib. – Biz bu yerda bitlarga yem bo'lib, o'lyapmiz. Bolachaqamiz esa muhtojlikda kun kechiryapti. Ozib, cho'p bo'lib ketgan.

Petro qizg'ish mo'ylovini tishlab piching qilib:

– Sen nima qilib, aravani quruq opqochyapsan? – dedi.

– Nimagaligi ma'lum, – deb jingalak lo'li soqolli Gryaznov uchun Merkulov javob qildi-da, miyig'ida kuldi. – Ma'lum, kazak jonidan bezgan, g'am ichida. Gohida podachi podalarini maysazorga haydab olib boradi, oftob shabnamni quritguncha qoramol, harqalay o'tlab turadi, oftob tikkaga kelib, so'nalar o'ralashib molni chaqa

boshlaganda, ana shunda... — Merkulov kazaklarga ayyorona bir nazar tashlab qo'yib, Petroga o'girilib gapini davom ettirdi. — Shunda, vaxmistr janoblari, mollar dumini xoda qilib qochadi. O'zing ham bilasan-u, sen zakonchi amaldorlardan emassan-ku! Podaning ketida yurib o'sgansan... Bordi-yu, bitta-yarimta buzoq dumini xoda qilib, ma'rab qochib qolsa, butun poda orqasidan ergashadi. Podachi xalloslab chopaverib enka-tinkasi quriydi! Mollar tutqizib bo'pti. Poda, baayni biz – Nezvissk yonida nemislar ustiga bostirib borganimizdek, quyundek qochadi. Keyin oldini to'sib bo'psan.

— Gapni qayoqqa buryapsan?

Merkulov darrov javob qila qolmadi. Qora soqolining bir mo'yini barmog'iga o'rab turib, jon-jahdi bilan yulib oldi, keyin kulmasdan jiddiy gapira boshladi:

— Uch yildan beri urushyapmiz. Shundoqmi? Uch yil bo'ldi, okopga haydab qo'yganlariga. Nima uchun va nega? Hech kim bilmaydi... Shuning uchun aytyapman-ki, ko'p o'tmay bironta Gryaznov yoki Melexov degan frontdan dumini xoda qiladi-yu, unga butun bir polk, polk ketidan butun armiya ergashadi... Ha-da!

— E, gapning tagi bu yoqda ekan-ku...

— Ha, shu yoqda! Ko'zim ko'r emas, ochiq... Hamma narsa qil ustida. Birov «kisht» deb yuborsa bormi, hamma po'stinini tashlab qochadi. Uchinchi yil deganda biz uchun ham oftob tikkaga keldi.

— Sen ehtiyotroq bo'lsang bo'lardi, — dedi Bodovskov. — Axir, Petro... vaxmistr-ku.

— Men do'stlarga yomonlik qilganim yo'q-ku! — dedi Petro qizarib.

— Jahling chiqmasin, hazillashib aytdim-da. — Bodovskov xijolat chekdi, yalangoyoqlarining qing'ir barmoqlarini qimirlatib qo'ydi, so'ngra o'rnidan turib shipillab oxur yoniga ketdi.

Bir burchakda presslangan toy-toy pichanlar yonida boshqa xutorlik kazaklar shivirlashib gaplashib o'tirishardi. Ulardan ikkitasi karginlik Fadeyev bilan Kargin edi. Qolgan sakkiztasi esa boshqa xutor va stanitsalardan edi.

Bir ozdan keyin ular ashula boshlab yuborishdi. Ashulani chirlik kazak Alimov boshladi. U raqs kuyini boshlagandi, allakim uning yelkasiga shapillatib urib, g'urunglagan ovoz bilan:

— To‘xtat!.. — dedi.

— Hoy, yetimlar, olovga kelinglar, — deb chaqirdi Koshevoy ularni.

Gulxanga stansiya devorlaridan ko‘chirib olingan yog‘ochlar qoldig‘ini tashladilar. Olov oldida quvnoq qo‘shiqni barala qo‘ydilar.

Safar yuki ortilgan ot kishnar cherkov yonida,
Bir mushtipar kampir yig‘lab turadi g‘ov yonida,
Nevarasi, kelini ham yig‘laydi xunibiyron,
Sovut kiygan kazak chiqar ziyoratgoh cherkovdan,
Nayzasini uzatadi yosh jiyani. Xotini –
Jilovidan ushlab darhol keltiradi otini.

Qo‘shni vagonda garmonni xirillatib «Kazachok» raqsini chala boshladilar. Taxta pol ustida soldatcha etikning poshnalari qattiq to‘qillay ketdi. Kimdir nosoz ovoz bilan baqirib ashula aytdi:

Qayg‘u-alam xazon qildi umrimizni,
Chor kiygizgan bo‘yinturuq bo‘ynimizni
Yag‘ir qildi. Kazaklarga kun bermaslar,
Na tinch qo‘yar, na o‘ldirib o‘ldirmaslar!
Pugachyov Don bo‘ylaridan nido qilar,
Quyi Donning yo‘qsillarin jangga chorlar.
«Atamanlar, kazaklar!..»

Ikkinchisi birinchi ashulachining ovozini bosib jingillab bidirlaganicha maza-matrasiz ashulani qo‘ydi:

Podshoga bajon-u dil xizmat etamiz,
Yerimizni eslab doim hasrat chekamiz.
Xotin topsak tarqaladi darrov g‘amimiz,
Podshoning xizmatini ekib qo‘yamiz.
O‘yinga tush, tortinma hech, o‘yinga tush, ha!
U-uh, U-uh, ha-ha, ha-ha, ha-ha!

Kazaklar ashulani bas qilib, qo‘shni vagonda avj olgan tartibsiz g‘ovurga quloq sola boshladilar, bir-birlariga ko‘z qisib, ma’qullaganday jilmaydilar.

Petro Melexov o‘zini tutolmay hoholab kulib yubordi:

— E, rosa quturishyapti, shaytonlar! Merkulovning chaqnab turgan sarg‘ish ko‘zlari yaltirab ketdi. O‘rnidan sakrab turib, maqomga rostlab, etigining uchlari bilan mayda qadam tashlab, polni to‘qillata ketdi. Keyin birdan tepinib, cho‘nqaygancha davra olib aylana bosh-

ladi. Hammalari navbat bilan o‘yin tushdilar, bahona bilan isib ham oldilar. Qo‘shni vagonda allaqachon garmon ovozi tindi. U yerda xirillashib, boloxonador qilib so‘kishardi. Bu yerda esa o‘yinga tushib, otlarni bezovta qilishardi. Anikushka g‘alati qilib cho‘kkalab o‘ynayman deb olovga keti bilan yiqilib tushgandan keyingina, o‘yinni bas qildilar. Anikushkani qattiq kulgi ostida ko‘tarib oldilar, yonib sob bo‘layozgan sham yorug‘ida kuygan chalvarini anchagacha tomosha qildilar. Chalvarning og‘i kuyib ketgan, paxtali nimchasining etaklari yongan edi.

Merkulov unga achinib:

— Chalvaringni yech, — dedi.

— Sen, lo‘li, esingni yedingmi? Nima, yalang‘och qolamanmi?

Merkulov bo‘g‘jomasini kavlab, xotinlar kiyadigan ichki bez ko‘ylakni chiqardi. Yana gulxanni yoqdilar. Merkulov yelkalari tor ko‘ylakni ikki chetidan ushlab turar, tisarilib, kulgidan bo‘g‘ilib der edi:

— Men... Oh! Oh! Buni stansiyada devordan o‘marib oluvdim. Paytavaga mo‘ljallovdim... Oh! Yirtib o‘tirmayman, ola qol.

So‘kinib turgan Anikushkani zo‘rlab kiyintirishar ekan, shunday hoholashib kulishardiki, qo‘shni vagonlar eshigidan odamlar qiziqib, bosh chiqarib qarashardi. Tun qorong‘isida hasadli ovozlar eshitilardi.

— Nima qilyapsanlar?

— Quturgan ayg‘irlar!

— Nega buncha quturdinglar?

— Hoy, shaytonning mardikorlari, yombi topdilaringmi?

Keyingi stansiyada oldindagi vagondan bir garmonchini chaqirib keldilar. Boshqa vagonlardan kazaklar kelib, vagon liq to‘ldi. Oxurlarni sindirib, otlarni devorga qisib qo‘yishdi. Anikushka torgina bir doira ichida raqs tushardi. Barvasta bir xotinning oq ko‘ylagi unga uzun kelib, oyog‘i o‘ralashardi, ammo kazaklarning baqirig‘i va kulgisi dalda berardi. U holdan toyguncha o‘yinga tushdi.

Qonga belangan Belarus osmonida yulduzlar motamsaro ko‘z yoshi to‘kar, qora tun vagonlar yonidan tutundek suzib o‘tardi. Chirigan xazon hidi anqigan qizg‘ish, nam qumloq yer ustida, mart qori ustida shamol o‘ynardi.

IX

Polk bir kecha-yu bir kunduz yo‘l yurib frontga yaqinlashdi. Katta bir stansiyada eshelonni to‘xtatdilar. Vaxmistrlar kazaklarga «Vagonlardan tushilsin!» degan buyruqni yetkazdilar. Kazaklar shoshib-pishib otlarini vagonga qo‘yilgan taxtadan yetaklab tushib, egarlashar, shoshqaloqlikda unutib qoldirgan buyumlarini olish uchun vagonlarga chopib chiqishar, yo‘l ustidagi nam qumga toy-toy pichanlarni otishar, hovliqishar edi.

Petro Melexovni polk komandirining ordinaretsi chaqirib:

— Vokzalga kir, komandir chaqiryapti, — dedi. Petro shineli ustidan bog‘langan kamarini tuzatib, eran-qaran platforma bo‘ylab ketdi. Otlar oldida ivirsib yurgan Anikushkaga:

— Anikey, mening otimga ham ko‘z tashlab tur, — dedi.

Anikushka churq etmay, uning orqasidan qarab qoldi. Anikushkaning badqovoq, odmi basharasida tashvish va zerikish alomati ko‘rinardi. Petro sariq loy sachragan etigidan ko‘zini olmay qadam tashlab borar: «Nega polk komandiriga kerak bo‘lib qoldim ekan?» deb boshi qotar edi. Platformaning u boshidagi suv qaynatadigan bak oldida to‘plangan kichik bir olomon uning diqqatini jalb qildi. Uzoqdan ularning gapiga quloq solib, oldilariga keldi. Yigirma chog‘lik askar bo‘ydor, malla kazakni o‘rtaga olishgan, kazak esa qurshovda qolgan odamday orqasini bakka o‘girib olgan edi. Petro bo‘ynini cho‘zib, o‘ziga sal-pal tanish bo‘lgan sersoqol ataman polkidan bo‘lgan malla kazakka, uryadniklik ko‘k pogonidagi «52» raqamiga ko‘z tashladi; uni bir vaqtlar, qayerdadir ko‘rgandek bo‘ldi.

Yuziga sepkil toshgan, aqlli odamga o‘xshagan ko‘ngilli askar.

— Qanday hiyla ishlatib qochding? Tag‘in yelkangga latta chatib qo‘yishibdi-ya! — deb mallasoqol kazakni mayna qilayotgan edi.

Petro orqasini o‘girib turgan ko‘ngilli askarning yelkasiga qo‘lini tegizib:

— Nima gap? — deb so‘radi qiziqsinib. Askar unga yuzini o‘girib, istar-istamas javob berdi:

— Dizirtirni ushlab oldik... Sizning kazaklardan.

Petro, shu yuzi tovoqdek, sariq mo‘ylov, mallaqosh atamanli kazakni qayerda ko‘rgan edim-a, deb zo‘r berib xotirlashga tirishdi. Atamanli kazak ko‘ngilli sur askarning savollariga javob bermay,

to‘p o‘qi gilzasidan qilingan mis krujkasidan ho‘plab qaynoq suv ichar, suvga bo‘ktirgan qora qoq nonni tamaddi qilardi. Oralari ochiq bo‘ta ko‘zlarini qisib boqar, nonni chaynab yutar ekan, qoshlarini chimirar, yerga va tevarak-atrofga alanglab qarar edi. Uni qo‘riqlab turgan o‘rta yoshli g‘o‘labir askar miltig‘ini nayzasidan ushlab yonida turardi. Dezertir kazak krujkasidagi suvni ichdi-da, horg‘in ko‘zlari bilan uyalmay tomosha qilayotgan askarlarga tikildi, bolalarnikidek mas’um, moviy ko‘zlarida g‘azab o‘ti chaqnadi. Bir qultum suvni yutib, lablarini yalab oldi-yu, do‘rillagan ovoz bilan:

— Nima, maymun o‘ynatyaptimi? Ovqat yeb olgani ham qo‘ymaysanlarmi, zang‘arlar? Nima, odamzodni umrlaringda ko‘rmaganmisanlar? — dedi.

Askarlar kulib yubordilar. Petro dezertirning ovozini eshitishi bilanoq (hamisha shunday bo‘ladi), hayron qolarli bir ravshanlik bilan, bu kazak — Yelanskaya stanitsasiga qarashli Rubejin qishlog‘idan bo‘lib, oti Fomin ekanini esladi. Urushdan ilgari Yelan yarmarkasida Petro otasi bilan undan uch yashar novvos sotib olgan edi. U olomon orasidan siqilib o‘tib:

— Fomin! Yakov! — deb chaqirdi.

Fomin esankirab, beso‘naqaylik bilan krujkani bak jo‘mragiga tutdi; og‘zidagini chaynar ekan, xijolatpazlik bilan kulimsirab Petroga ko‘zini tikib qarab qoldi, so‘ngra:

— Taniyolmadim, og‘ayni, — dedi.

— Rubejinlikmisan?

— Ha, o‘sha yerlik. Uzing yelanskayalikdirsan.

— Men vyoshenskayalikman, lekin seni taniyman. Besh yil avval sendan novvos sotvoluvdik.

Fomin boyagidek xijolat chekib, bolalardek kulimsirar, o‘tgan voqeani eslashga urinayotgani aftidan ko‘rinib turar edi:

— Yo‘q, yodimdan ko‘tarilibdi, seni tanimay turibman, — dedi u achinganday.

— Sen ellik ikkinchi polkdanmisan?

— Ha, ellik ikkinchi polkdan.

— Shunday qilib, juftak urib qopsan-da, og‘aynichalish? Bu nima qilganing?

Shu payt Fomin papog‘ini yechib, ichidan titilib ketgan tamaki xaltasini oldi. Yelkasini qisib, papog‘ini asta qo‘ltig‘iga qistirdi-da,

qog'ozning burchagidan bir parcha yirtib oldi, shundan keyin jiddiy va yiltirab turgan namli ko'zlarini Petroga qattiq tikib turib:

— Toqatim toq bo'ldi-da, og'ayni... — dedi g'udranib.

G'o'labir soqchi askar miltig'ini yelkasiga osib:

— Hoy, hamqishloqlar, gapni bas qiling, sizning kasringizga baloga qolmay tag'in, — dedi xo'rsinib. — Yur, amaki!

Fomin krujkasini sumkasi ostiga tashlab, ko'zini opqochib turib Petro bilan xayrlashdi, so'ngra ayiqdek lapanglab, komendant oldiga jo'nadi.

Vokzalda, ilgarigi birinchi klass bufetida polk komandiri bilan ikki sotnya komandiri stol ustiga engashib turishar edi.

Polkovnik horg'in ko'zlarini pirpiratib:

— Sen, Melexov, shunaqa kuttirib qo'yasanmi, axir, — dedi.

Petro o'zining sotnyasi diviziya shtabi ixtiyoriga berilgani, kazaklarga ko'z-quloq bo'lib yurishi kerakligi, ularning ahvol-ruhiyalaridagi har bir o'zgarish haqida sotnya komandiriga ma'lumot berib turishi lozimligi to'g'risidagi xabarga diqqat bilan quloq osdi. U ko'zlarini pirpiratib turib polkovnikning ko'ziga qarar, unga diqqat bilan quloq solar ekan, Fominning miltirab turgan namli ko'zlari ko'z o'ngidan o'tar, «toqatim toq bo'ldi, og'ayni...» degan gap qulog'idan ketmas edi.

Petro dimiqib ketgan vokzaldan chiqib, o'z bo'linmasiga qarab yo'l oldi. Shu yerda, stansiyada polkning ikkinchi darajali yuk aravalari turardi. Petro o'z vagoniga yaqinlashganda aravachi kazaklarga va sotnya taqachisiga ko'zi tushib qoldi. Taqachini ko'rishi bilan Fominni ham, u bilan nima to'g'risida gaplashganini ham unutdi. Otlarni yangidan taqalatish to'g'risida taqachi bilan gaplashib olish uchun ildam yurib ketdi (shu on Petroni kundalik tashvishlar o'rab olgan edi), ammo shu vaqt qizil vagon burchagidan bir ayol yurib kelaverdi, uning boshida oq tivit ro'mol bo'lib, ro'molini bu yerdagi xotinlardan boshqacharoq qilib o'rab olgan edi. Uning ajib qiyofasi tanishdek ko'rindi, Petroni o'ziga jalb etdi. Ayol unga yuzlanib yalt etib qaradi-da, yelkalarini bilinar-bilinmas uchirib, qizlarnikidek ingichka belini qilpanglatib kelaverdi. Petro uning yuzini ko'rmasdanoq, qilpanglab yurishidan xotini ekanini payqadi. Vujudini muzdek yoqimli ter bosdi, birdaniga terisiga sig'may, xursand bo'lib ketdi. Undan

ko‘zini ololmay qolgan aravakash kazaklar, judayam suyunib ketdi-ya, deb o‘ylamasinlar degan andisha bilan jo‘rttaga yurishini sekinlashtirib, xotini tomon boraverdi. U xotinini quchoqladi, uch marta o‘pdi, nimanidir so‘ramoqchi bo‘lgan edi, ichki hayajoni yuzaga tepib, lablari dir-dir titrab, tili gapga kelmay qoldi.

— Kutmovdim, — dedi u tutilib nihoyat.

— Voy jonim-ey! Sirayam tanib bo‘lmaydigan bo‘p qopsan-a! — deb chapak chalib yubordi Darya. — Yetti yot begonaga o‘xshaysan-a... Seni ko‘rgani keldim, axir... Biznikilar: «Nima qilasan borib» deb yo‘limni to‘sishdi. Yo‘q, deb o‘yladim men, boraman, yorimni ko‘rib kelaman... — deb bidirlar, erining pinjiga suqilar, yoshga to‘lgan ko‘zlari bilan uning ko‘zlariga mo‘ltirab qarar edi.

Vagon yonida kazaklar to‘planishib turar, er-xotinga qarab tomoqlarini qirib qo‘yishar, ko‘z qisishar, gap otishar edi:

— Petroning bag‘ri butun bo‘ldi.

— Manjalaqi xotinim kelolmaydi, birdaniga uchta tug‘voribdi.

— Uning Nesterdan boshqa yana o‘nta jazmani bor!

— Melexov, jilla qurmasa, o‘z vzvodidagi kazaklarga xotinini bir kechaga berib tursaydi... o‘lib bo‘ldik-ku... O‘ho‘-o‘!

— Nariroq ketaylik, yigitlar! Erining pinjiga suqilishini ko‘rib, yuragimiz qon bo‘ladi!

Shu payt Petro xotinini o‘lguday urmoqchi bo‘lganini unutdi-yu, odamlarning ko‘z o‘ngida uni erkalab, tamaki tutunidan sarg‘aygan yo‘g‘on barmoqlari bilan xotinining bo‘yalgan qoshlarini silay boshladi, terisiga sig‘may quvonib ketdi. Darya esa, bundan ikki kecha ilgari vagonda Xarkovdan polkiga ketayotgan otliq askar — veterinar feldsheri bilan bir o‘rinda yotib kelganini esidan chiqarib yuborgan edi. Feldsherning mo‘ylovlari juda quyuq va qop-qora edi, ammo bu ikki kecha ilgari o‘tgan gap-ku! Hozir Darya xursandlik ko‘z yoshlarini to‘kib erini quchoqlar, unga ma’sum ko‘zlari bilan qarab to‘ymas edi.

X

Ta’tildan qaytib kelgandan keyin yasovul Yevgeniy Listnitskiy 14-Don kazaklar polkiga tayinlandi. Ilgari o‘zi xizmat qilgan va fevral inqilobi bo‘lmasdan ilgari rasvosi chiqib qochgan polkiga qaytib

bormay, to‘g‘ri diviziya shtabiga keldi; Dondagi mashhur kazak-dvoryan oilasidan chiqqan yosh general osongina uni boshqa polkka ko‘chirdi. U o‘z kabinetida Yevgeniy bilan yolg‘iz qolgach:

— Tushunaman, yasovul, eski joyda xizmat qilish siz uchun juda og‘ir, chunki kazaklarning sizni ko‘rarga ko‘zlari yo‘q, nomingizni eshitganda ularning safrosi qaynaydi, — dedi. — Shu vajdan siz o‘n to‘rtinchi polkka borganingiz ma’qul. O‘sha polkka ofitserlarning sarasi yig‘ilgan, kazaklari ham to‘pori va chidamli, ularning ko‘pi Ust-Medveditskiy okrugidan. O‘sha joy siz uchun juda bop. — General bir oz sukut qilib turgandan so‘ng: — Siz, nazarimda, Nikolay Alekseyevich Listnitskiyning o‘g‘illari bo‘lsangiz kerak? — deb so‘rab qoldi. O‘z savolini tasdiqlaydigan javob olgandan keyin so‘zida davom etdi: — Amin bo‘lingki, biz siz kabi ofitserlarni qadrlaymiz. Shu zamonda hatto ofitserlar orasida ham ikki yuzli odamlar ko‘p. Ular uchun boshqa dinga kirish va hatto ikki xudoga toat qilish ham hech gap emas... — Shtab boshlig‘i shu achchiq so‘zlar bilan gapini tugatdi.

Listnitskiy boshqa polkka ko‘chirilganidan juda xursand bo‘ldi. O‘sha kuniyoq Dvinskka jo‘nab ketdi, 14-polk o‘sha yerda edi. Ertasiga polk komandiri, polkovnik Bikadorovga rasmiy ravishda o‘zini tanishtirdi, diviziya shtabi boshlig‘ining gapi rost ekanini bilib juda quvondi: darvoqe, ofitserlarning ko‘pchiligi monarxist ekan, uchdan bir qismi ustxopyorlik, Kumiljensk, Glazunov va boshqa stanitsalik eski mazhabdagi kishilardan iborat bo‘lgan kazaklar aslo revolyusion ruhda emas, Muvaqqat hukumatga sodiq bo‘lish to‘g‘risida istar-istamas qasamyod qilgan ekanlar, tevarak-atrofda bo‘lib turgan qizg‘in hodisalarga tushunmas va tushunishni istamas ekanlar: polk komiteti va sotnya komitetlariga laganbardor va itoatli kazaklar saylanibdi. Yangi muhitda Listnitskiy ko‘kragini to‘ldirib erkin nafas oldi.

Ofitserlar orasida o‘zi bilan birga Ataman polkda xizmat qilgan ikkita ofitserni uchratdi, ular boshqa ofitserlarga qo‘shilmas edilar; qolganlari juda inoq va hamjihat bo‘lib, podsho dinastiyasini tiklash to‘g‘risida ro‘yirost gapirardilar.

Polk ikki oycha Dvinskda turib, kuch to‘pladi, intizomni mustahkamladi. Ilgari piyoda askar diviziyalariga biriktirilgan kazak sotnyalari Rigadan tortib Dvinskkacha front bo‘ylab tentirab yurgan-

lari yurgan edi, ammo aprel oyida allakim jonkuyarlik qilib hamma kazak sotnyalarini bir joyga to‘plattirdi, polk endi shaylanib turar edi. Qattiqqo‘l ofitserlar nazorati ostida kazaklar mashq qilishar, otlarini to‘yg‘izib boqishar, xuddi shilliqqurt singari imillib hayot kechirishardi, tashqaridan ularni taftish qilib turuvchi hech kimsa yo‘q edi.

Kazaklar polkining zimmasiga yuklangan vazifa to‘g‘risida noaniq tasavvurga ega bo‘lsalar-da, ofitserlar sir saqlamay, yaqin kelajakda polk, ishonchli bir odamning qo‘lida tarixning charxini aylantirib yuboradi, deb ro‘yirost gapirar edilar.

Dvinskka yaqin yerdagi front alanga ichida. Armiya jon berib, jon olar, o‘q-aslaha, oziq-ovqat yetishmas; jangchilar ko‘zlari to‘rt bo‘lib «sulh»ni kutishar edi. Armiyadagilar respublikaning muvaqqat hukmdori Kerenskiyni turlicha kutib olgan edilar. Uning asabiy holatda bergan buyruqlari bilan iyunda hujumga o‘tgan qo‘shin qoqilib to‘xtab qoldi; jonidan to‘ygan askarlarning g‘azabi buloqdek jo‘sh ura boshladi.

Dvinskda esa kazaklar tinchgina, bexavotir yashar: otlar suli bilan kungaboqar kunjarasini yeb yotar, kazaklar frontda ko‘rgan kulfatlarini unuta borar edilar; ofitserlar kanda qilmay yig‘ilishga borib turar, ovqatning mazaligini yeb, Rossiyaning taqdiri to‘g‘risida tortishar edilar.

Iyulning birinchisigacha ahvol shu zaylda o‘tdi. Uchinchi iyulda: «Bir daqiqa ham kechikmay safarga chiqilsin» degan buyruq keldi. Polk tushgan eshelonlar Petrogradga yo‘l oldi. Yettinchi iyulda esa kazak otlari poytaxtning ko‘chalariga yotqizilgan g‘o‘lalarni to‘qillatib yura boshladi.

Polkni Nevskiy ko‘chasidagi uylarga joylashtirdilar. Bo‘sh yotgan bir do‘konni Listnitskiyning sotnyasiga berdilar. Bu yerdagilar kazaklarga intizor ekanlar, shodlik ila kutib oldilar. Poytaxt hukmron doiralarining kazaklar uchun ajratilgan uy-joylarni hafsala bilan jihozlaganlari bunga shohid edi. Ohak bilan oqlangan devorlar yarqirab turar, ishqalab yuvilgan pollar yog‘ tushsa yalagudek toza, qarag‘ay taxtadan yasalgan yangi so‘rilardan xushbo‘y smola hidi kelib turar; yarim yerto‘lali bino ichi yorug‘ va shinam edi. Listnitskiy pensne taqib olib, bino ichini diqqat bilan ko‘zdan kechirib chiqdi, ko‘zni qamashtirgudek oppoq devorlar bo‘ylab yurib, turish uchun bun-

dan qulayroq joy topib bo‘lmas, degan fikrga keldi. U binoni ko‘rib chiqib, qanoat hosil qilgach, kazaklarni kutib olishga musharraf bo‘lgan shahar mahkamasining bashang kiyingan pakanagina vakili hamrohligida hovliga chiqib ketayotgan ham ediki, yoqimsiz bir hodisa ro‘y berdi; endi eshik tutqichini ushlaganda uchi o‘tkir bir narsa bilan devorga tirnab solingan bir rasmni — tishlarini irjaytirib turgan it bilan supurgi suratini ko‘rib qoldi. Aftidan, binoni jihozlashda mehnati singgan ishchilardan biri bu joyning kim uchun hozirlanayotganini bilgan bo‘lsa kerak...

Listnitskiy qoshlarini pirpiratib hamrohi bo‘lgan vakildan:

— Bu nimasi? — deb so‘rab qoldi.

Shahar mahkamasining vakili bitdek ko‘zlarini rasmga yugurtirib, burnini qattiq tortib qo‘ydi. Yuziga yugurgan qondan shu qadar qizarib ketdiki, hatto ko‘ylagining kraxmallangan oppoq yoqasi ham pushtirangga kirganday bo‘ldi...

— Kechirasizlar, ofitser janoblari... Yomon niyatli bir kimsa...

— Ishonamanki, bu yerga oprichnina[1] emblemasini solganlaridan siz bexabar qolgandirsiz?

— Xudo asrasin, esimni yebmanmi? Afv eting!.. Bolsheviklarning makri... Allaqanday bir ablah jur’at etib shu ishni qilibdi!.. Men darhol devorni boshqatdan oqartirishni buyuraman. Buni qarang-a! Kechirsinlar... bema’ni bir ish... Sizga rostini aytsam, birovning qilgan qabih ishidan men uyalib ketyapman...

Xijolatpazlikdan yerga kirib ketay degan kishiga Listnitskiyning astoydil rahmi kelib ketdi. U o‘qrayib qarab turgan ko‘zlarining ifodasini yumshatib, sipolik bilan:

— Rassom andek xatoga yo‘l qo‘yibdir, — dedi. — Kazaklar rus tarixini bilmaydilar, axir. Ammo bilib qo‘yingki, bizga bunday munosabatda bo‘lganlarning boshini silamaymiz.

Shahar vakili oppoq qo‘llarining tirnog‘i bilan ohak ustidagi rasmni tirnab o‘chira boshladi, qimmatbaho ingliznusxa paltosi ustiga mayda ohak kukuni to‘kilib, uni iflos qildi, u esa hamon oyog‘ining uchiga bosib bo‘ynini cho‘zib devordagi rasmni o‘chirar, Listnitskiy esa pensne oynasini artib, iljayardi, lekin shu on bir narsa unga juda alam qilib ketdi:

---

[1] *Oprichnina* – podsho Ivan IV bevosita boshqargan askariy qism. (Tarj.)

«Bizni kutib olganlarini qarang, zohirda bunaqa-yu, botinda unaqa!.. Nahotki, biz butun Rossiya ko'ziga oprichnina qiyofasida ko'rinsak?» deb o'yladi u hovlidan yurib otxona tomon borar ekan. Orqasidan ergashib kelayotgan vakilning gaplari uning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketar edi.

Hovlidagi chuqur va keng quduq ichiga quyosh nuri tik tushib turardi.

Ko'p qavatli uylarda turuvchi odamlar derazadan boshlarini chiqarib butun hovli sahnini to'ldirgan kazaklarni tomosha qilar, kazaklar otlarini otxonaga olib kirib bog'lamoqda edilar. Qo'llari bo'shagan kazaklar esa to'p-to'p bo'lib, devor bo'yida, salqinda cho'qqayishib o'tirishardi.

— Yigitlar, nega uyga kirmaysizlar? — deb so'radi Listnitskiy.

— Kirish qochmaydi, janob yasovul.

— U yer ham ko'ngilga urar.

— Otlarni joylab, so'ng kiramiz. Listnitskiy otxona uchun ajratilgan omborni ko'zdan kechirdi. Orqasidan ergashib yurgan vakilga nisbatan avvalgi adovatini saqlab:

— Tegishli odamlar bilan kelishib, bizga yana bir eshik ochdirib bering. Yuz yigirma ot uchun uchta eshik bizga kifoya qilmas. Mabodo trevoga bo'lib qolsa, otlarni yetaklab olib chiqmoq uchun yarim soat vaqt ketadi... Qiziq! Ajabo, o'z vaqtida shuni nazarda tutmoq mumkin bo'lmasmidi? Men bu haqda polk komandiriga ma'lumot topshirishga majbur bo'laman.

Shu bugun bir emas, ikki eshik ochib berish to'g'risida vakilning va'dasini olgandan keyin, Listnitskiy u bilan xayrlashdi; qilgan g'amxo'rligi uchun unga quruqqina tashakkur bildirgandan keyin, navbatchilar belgilash to'g'risida buyruq berdi-da, ikkinchi qavatda ofitserlar uchun vaqtincha ajratilgan kvartiraga chiqib ketdi. Yo'l-yo'lakay kitelining tugmalarini yechib, shapkasi ostidan oqib tushgan terni artdi, so'ngra orqa zinadan yurib, namxush, salqin bo'lmasiga kirdi-yu, ko'ngli ochilib ketdi. Kvartirada yasovul yordamchisi Atarshchikovdan bo'lak hech kim yo'q edi.

Listnitskiy o'zini brezent karavotga tashlab, chang bosgan etikdagi oyoqlarini osiltirib oldi-da:

— Boshqalar qayoqda? — deb so'radi.

— Ko‘chada. Petrogradni tomosha qilishyapti.

— Sen nega bu yerda o‘tiribsan?

— E, tomoshaning nima luzumi bor. Kirib kelmasdan burun darrov ko‘chaga chiqib ketishdi. Men bu yerda bir necha kun avval sodir bo‘lgan hodisalar haqida yozilgan narsalarni o‘qimoqdaman. Maroqli!

Listnitskiy terdan jiqqa ho‘l bo‘lgan ko‘ylagi orqasiga muzdek bo‘lib tegayotganidan huzur qilib, indamay cho‘zilib yotdi. U o‘rnidan turib yuvinishga erinar, yo‘lda qattiq charchagani endi bilingan edi. Nihoyat, o‘zini zo‘rlab o‘rnidan turdi-da, choparni chaqirdi. Kiyimlarini almashtirib, uzoq yuvindi, rohatlanib pishqira-pishqira momiq sochiq bilan qoraya boshlagan bo‘ynini artdi.

— Vanya, sen ham yuvin, — deb maslahat berdi Atarshchikovga. — Yelkangdan tog‘ tushib ketgandek bo‘ladi... Xo‘sh, gazetalarda nima xabarlar bor?

— Nafsilamr, bir yuvinib olish kerak. Yaxshi bo‘ladi, deyapsanmi? Gazetalardagi nima xabarlar bo‘lardi? Bolsheviklarning xuruji tasvir etilgan, hukumatning ko‘rgan choralari bayon qilingan... O‘zing o‘qib ko‘r!

Yuvinib yengil tortgan Listnitskiy gazetani qo‘lga olgan ham ediki, uni polk komandiri huzuriga chaqirib qolishdi. U erinibgina o‘rnidan turib, sovun hidi urib qolgan, yo‘lda g‘ijimlanib taxi buzilgan yangi kitelini kiydi-yu, katta ko‘chaga chiqdi. Ko‘chaning narigi betiga o‘tib olgach, orqasiga o‘girilib, sotnya joylashgan binoni ko‘zdan kechira boshladi. Tashqi ko‘rinishi va uslubi jihatidan bu uy boshqalardan farq qilmas edi: besh qavat, usti g‘adir-budur kulrang tosh bilan qoplangan bu bino o‘zi singari imoratlar qatorida saf tortib turardi. Listnitskiy papirosini tutatib olib, trotuardan yurib ketdi. Poxol shlapa, kotelok, kepka kiygan erlar, oddiy va serhasham nafis shlapa kiygan ayollar ko‘chada g‘ujg‘on o‘ynar edi. Olomon to‘lqini ichida goho bironta askarning odmi ko‘k furajkasi ko‘rinib ketardi-yu, shu on rang-barang alvon kiyimlar orasida g‘oyib bo‘lardi.

Dengiz qirg‘og‘idan salqin va orombaxsh shabada esib turar, ammo baland imoratlarga kelib urilib, kuchini yo‘qotar, har yoqqa taralib ketardi. Po‘lat rangli, zangori tusdagi xira osmonda bulutlar kun yurish tomonga qarab suzib ketmoqda. Ularning sutdek oppoq sirtla-

ri qirrali va kungirador. Shahar ustini yomg'ir oldidan dimiqtiruvchi bug' chulg'ab olgan. Qizigan asfalt hidi, o'tkir benzin isi anqir, yaqin oradagi dengizning gavjum shaharga xos bo'lgan allaqanday, turli-tuman islar, kishini mast etuvchi hafif atir hidlari kelib turar edi.

Papiros chekib ketayotgan Listnitskiy o'ng tomondagi trotuardan salmoqlab yurib borar, o'ziga yo'lovchilar hurmat nazari bilan qiyo boqqanlarini ahyon-ahyonda payqab qolar edi. Boshda u g'ijimlangan kiteli va eski furajkasi uchun andek xijolat tortdi, lekin so'ngra frontdan kelgan, ayniqsa shu bugunoq vagondan tushgan ofitserga tashqi qiyofasi uchun uyalish nojo'ya degan fikrga keldi.

Do'konlar va kafelarning eshiklari ustiga tortib qo'yilgan brezent soyabonlardan trotuarlarga sarg'ish olachalpoq soya tushib, chayqalib turar edi. Shamol oftobda kuygan brezent soyabonni silkib tebratar, trotuarlardagi soyalar jimjima qilar, o'tkinchilarning shipillagan oyoqlari ostidan sirg'anib ketganday bo'lardi. Vaqt choshgohdan oshib, kun dim bo'lishiga qaramay, ko'chada odam qaynar edi. Urush yillarida shahardan begonalashib qolgan Listnitskiy kulgi, avtomobil gudoklari, gazetfurushlarning qiyqiriqlari bilan to'lgan rang-barang tovushlarga xursand bo'lib quloq solib borar, bashang kiyingan, qorni to'q odamlarni o'ziga yaqin deb his qilar va o'ylar edi:

«Hammalaringiz hozir naqadar xursand, xushchaqchaq va baxtlisizlar, hammalaringiz: savdogarlar ham, birja dallollari ham, turli martabadagi amaldorlar ham, pomeshchiklar ham, aslzodalar ham — hammangiz naqadar mamnunsiz! Bundan uch-to'rt kun ilgari ahvolingiz nechuk edi? Avom xalq bilan askarlar xuddi lava kabi mana shu ko'chalardan oqib o'tganda avzoyingiz qanday edi? Aslini aytganda, men sizlarni ko'rib ham quvonaman, ham xafa bo'laman. Sizlarning tinch-omonligingiz uchun xursand bo'lishimni ham bilmayman...»

U o'zining hardamxayolligini tahlil qilib ko'rmoqchi, uning manbayini topmoqchi bo'ldi va osongina bir qarorga keldi: buning sababi shuki, urush va urush tufayli boshidan kechirganlari uni bu to'q va o'zidan mamnun odamlardan ajratib qo'ygan, shu vajdan u shunday xayolga boradi.

Yuzlari qip-qizil, soqol-mo'ylovi chiqmagan yigitga ko'zi tushib qolib: «Manavi biqqa semiz yosh azamat nega frontga borma-

gan ekan? Aftidan biror zavodchi boy yoki katta savdogarning o'g'li bo'lsa kerak... Askariy xizmatdan bosh tortgan bu ablah. Vatanni sariq chaqaga olmaydi, mamlakat ichkarisida qolib ketib, cho'chqadek semirgan, ayshini surib xotinbozlik qiladi...»

«Xo'sh, o'zing-chi? Axir, o'zing kim bilansan?» — deb o'z-o'ziga savol tashladi-yu, miyig'ida kulib turib javob qildi: «Albatta, mana shular bilan-da, axir! Men ularning bir zarrasi, ular mening bir zarram... Ularga xos yaxshi va yomon xislatlar qisman menda ham bor. Ehtimol, anavi semiz to'ng'izga qaraganda mening terim yupqaroqdir. Shu sababdan men har narsani ko'nglimga olaversam kerak, shuning uchun ham men mamlakat ichkarisida qolganim yo'q, halollik bilan frontga ketdim. Shu vajdan o'sha vaqtda, qishda Mogilyovda, bosh shtabdan jo'nab ketayotgan, taxtdan tushirilgan imperatorni avtomobilda ko'rganimda, uning tizzasiga shalvirab tushgan qo'llarining ajoyib bir holda yotishini va g'amgin vajohatini ko'rganimda qorga yotib olib, yosh boladay ho'ngrab yig'ladim. Axir men inqilobni chin ko'nglimdan yoqtirmayman, qabul etolmayman! Ko'nglim ham, aqlim ham bovar qilmaydi... Jonimni eski hayot uchun ikkilanmay, askarchasiga to'ppa-to'g'ri fido qilaman. Boshqalar ham shunday qila olarmikan?»

Fevral oyining qizg'ish shafaq nuriga cho'mgan oqshomini, Mogilyovdagi gubernator saroyini, sovuqdan qirov bosgan cho'yan panjarasini, uning orqasidagi qorni, yuziga ipak doka tutgan, qizargan pastakkina quyosh gardishini ko'z oldiga yaqqol keltirib, hayajonlanganidan rangi bo'zarib ketdi. Dneprning qiya sohillari orqasida osmon zangori, qizg'ish-sariq tusda tovlanar, ufq chiziqlari shu qadar hafif va muallaq ediki, ko'zni qamashtirib yuborardi. Darvoza oldida bosh shtabda ishlovchi bir necha harbiy va fuqaro kiyimidagi amaldorlar....

Jo'nab ketayotgan usti yopiq avtomobil... oynadan, aftidan Frederiks bilan orqasiga suyanib qolgan podsho ko'rinadi. Podshoning ozg'in yuzi ko'm-ko'k ko'karib ketgan. Oqarib ketgan peshonasiga kazak konvoy soqchilari kiyadigan qora papaxini qiyshaytirib kiyib olgan.

Listnitskiy o'ziga hayratomuz qaragan odamlar yonidan g'izillab o'tib ketar edi. Qora papaxiga qo'l tegizib chest bergan podshoning

birdan qo'li tushib ketgani ko'z o'ngidan nari ketmaydi. Jo'nab qolgan mashinaning tovushsiz g'irillab ketishi, so'nggi imperatorni uzatib qolgan xaloyiqning besharm sukuti qulog'i ostida...

Polk shtabi joylashgan binoning zinapoyasidan Listnitskiy asta chiqib bordi. Uning yuzlari hamon titrar, yig'idan shishib ketgan ko'zlari qizargan edi. Ikkinchi qavatning maydonchasida u ustma-ust ikki papiros chekdi. Pensnesini artib, zinaning ikki pog'onasini birdaniga bosib, uchinchi qavatga chopib chiqdi.

Polk komandiri, Listnitskiyning sotnyasi hukumat idoralarini himoya qilishi lozim bo'lgan rayonni Petrograd xaritasidan chizib ko'rsatdi, saqlanadigan muassasalarni birma-bir sanab ko'rsatdi, qorovullarning qaysisini qachon va qayerga qo'yish va almashtirish kerakligini batafsil tushuntirgach, oxirida shunday dedi:

— Qishki saroyga, Kerenskiy huzuriga...

— Kerenskiyni sira og'izga olmang, — dedi Listnitskiy murdadek oqarib, shivirlagan holda.

— Yevgeniy Nikolayevich, o'zingizni tuting...

— Polkovnik, sizdan o'tinaman!

— Ammo azizim...

— Iltimos qilaman!

— Sizning asablaringiz...

— Hozir Putilovskiyga bir to'da kazakni yuborishni buyurasizmi? — dedi Listnitskiy og'ir nafas olib.

Polkovnik lablarini tishlab turib jilmaydi-da, yelkalarini qisib javob qildi:

— Shu topdayoq! Tag'in vzvod ofitseri bilan birga.

Listnitskiy shtabdan qaytar ekan, boshidan o'tgan xotiralardan va polk komandiri bilan suhbatdan ruhan ezilib, bo'shashib chiqdi. Petrogradda turgan to'rtinchi Don polkining kazak razyezdini bino oldida turganini ko'rdi. Ofitserning bo'z oti yuganida so'lib qolgan gullarga ko'zi tushdi. Malla mo'ylovli ofitserning yuzida kulgi o'ynardi.

Qattiq hayajonlangan allaqanday keksa bir janob trotuardan tusharkan, shlapasini silkitib:

— Yashasin, vatanni qutqaruvchilar!.. — deb baqirdi.

Ofitser iyib ketib, chest berdi. Razyezd otlarini yo'rttirib ketdi. Listnitskiy kazaklarni og'iz ko'pirtirib olqishlagan janobga, uning

tang‘ib bog‘langan guldor bo‘yinbog‘iga nazar tashladi-da, aftini burishtirib, engashgancha o‘zi turgan uyga kirib ketdi.

XI

General Kornilov G‘arbi-Janubiy front bosh qo‘mondoni etib tayinlanibdi, degan xabarni 14-polk ofitserlari xursandlik bilan kutib olishdi. Kornilov haqida mehr-muhabbat va hurmat bilan gapirishar, uni temir irodali, Rossiyani (Muvaqqat hukumat boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘ygan Rossiyani) qutqazishga shubhasiz qodir bo‘lgan kishi deb bilishardi.

Xususan Listnitskiy bu xabarni qizg‘in tabrikladi. U o‘z bo‘linmasidagi kichik ofitserlar va o‘ziga yaqin bo‘lgan ofitserlar orqali kazaklarning bunga qanday qarashlarini bilmoqchi bo‘ldi, lekin olgan ma’lumotlari uni xursand qilmadi. Kazaklar churq etmas yoki hafsalalari kelmay zo‘rg‘a javob berishar edi:

— Bizga baribir...

— Kim bilsin uning qanaqaligini.

— Agarda u yarash-yarash qilaman degan bo‘lsa, u vaqtda, albatta...

— Uning yuqori martabaga minganidan bizga nima foyda...

Yuksak doiradagi grajdan aholi va harbiylar bilan aloqasi bo‘lgan ofitserlar orasida Kornilov, go‘yo Muvaqqat hukumatni qistibasga olib, frontda o‘lim jazosini tiklashni va armiya hamda urushning taqdirini hal qiluvchi qat’iy choralarni amalga oshirishni talab qilayotgan emish, degan mish-mish gaplar tarqaldi. Kerenskiy Kornilovdan qo‘rqar emish, uni o‘rnidan tushirib front bosh qo‘mondonligi lavozimiga boshqa itoatgo‘y generalni tayinlarmish, der edilar.

19-iyulda Kornilovni oliy bosh qo‘mondon qilib belgilanishi to‘g‘risidagi hukumat axboroti hammani hayratda qoldirdi. Ofitserlar uyushmasining Bosh komitetida tanish-bilishlari ko‘p bo‘lgan yasovul yordamchisi Atarshchikov, ishonchli manbalarga suyanib quyidagilarni hikoya qilib berdi. Muvaqqat hukumatga topshirish uchun hozirlangan yozma dokladida Kornilov quyidagi asosiy choralarni amalga oshirishni qattiq talab qilgan emish: butun mamlakat territoriyasida bo‘lgan askarlar bilan aholini sud qilish uchun harbiy-dala sudlariga huquq berishni, o‘lim jazosini joriy qilishni, intizomga so-

lish uchun harbiy boshliqlarning jazo choralari ko'rish huquqini tiklashni; harbiy qismlardagi komitetlarning faoliyatini cheklab qo'yish va hokazolarni talab etgan emish.

O'sha kuniyoq kechqurun Listnitskiy o'z sotnyasi va boshqa bo'linma ofitserlari bilan suhbatlashib: «Sizlar kim bilan?» degan savolni ko'ndalang qilib qo'ydi.

— Janob ofitserlar! — dedi u hayajonini yashirishga urinib. — Hammamiz bir otaning bolasidek inoq turamiz. Bir-birimizning kimligimizni bilamiz, ammo shu vaqtgacha o'rtamizdagi bir talay chigil masalalar hal qilinmay kelayotir. Endilikda, oliy bosh qo'mondon bilan hukumat orasida kelishmovchilik ro'y berishi aniq ko'rinib qolgan paytda: «Biz kim bilan va kim tarafdorimiz?» degan savol oldimizda ko'ndalang bo'ladi, keling, do'stlarcha, ochiqchasiga gaplashib olaylik.

Yasovul yordamchisi Atarshchikov bu savolga eldan burun javob berdi:

— Men general Kornilov uchun o'z qonim va boshqalarning qonini to'kishga tayyorman! Kornilov sofko'ngil, halol odam, yolg'iz ugina Rossiyani oyoqqa turg'izishga qodirdir. Armiyada qilayotgan ishini tomosha qiling! Faqat uning sharofati bilan harbiy boshliqlarning qo'llari baland bo'lib qoldi, bo'lmasa, komitetlar zo'ravonlik qilayotgan edi, frontda birodarlashuv, dezertirlik avjiga chiqqan edi. Bu to'g'rida gap bo'lishi mumkin emas. Har bir vijdonli kishi Kornilov tarafdoridir!

Oyoqlari chillakdek, lekin ko'kragi keng, g'o'labir Atarshchikov qizishib gapirdi. Ko'tarilgan masala uni qattiq hayajonga solardi. U gapini tamom qilib, stol atrofini qurshab olgan ofitserlarga ko'z yugurtirdi, nima der ekanlar, deb kutganday, papirosning orqasi bilan portsigarini to'qillatib qo'ydi. O'ng ko'zining pastki qovog'ida no'xatday so'gali bor edi. U qovoqlarining jips yumulishiga xalal berardi, shu vajdan Atarshchikovga birinchi qarashda u o'zini katta olib, kinoyaomuz kulib turibdi deb o'ylash mumkin edi.

— Bolsheviklarni tanlaysanmi, Kerenskiynimi yoki Kornilovnimi, deyishadigan bo'lsa, biz, albatta, Kornilovni tanlab olamiz.

— Kornilovning murodi nima ekanligini bilish qiyin: u Rossiyada faqat tartibni tiklamoqchimi yoki biror boshqa narsanimi...

— Bu — asosiy savolga javob emas.

— Yo'q, javob!

— Mabodo javob bo'lsa ham, har holda ma'qul javob emas.

— Siz nimadan qo'rqyapsiz, yuzboshi? Monarxiyaning tiklanishidanmi?

— Men bundan qo'rqmayman, aksincha, muddaoyim shu.

— Bas, nega gapni aylantiryapsiz?

— Janoblar! — dedi cho'rt kesib Dolgov shamollab xirillab qolgan ovoz bilan. Yaqindagina vaxmistr bo'lgan bu kazak jangda ko'rsatgan jasorati uchun xorunjiy unvonini olgan edi. — Nima to'g'rida masala talashyapsiz? Gapning o'g'il bolasini ayting, biz, kazaklar, onasining etagiga yopishib olgan boladay, general Kornilovga tayanishimiz kerak, deng. Sof ko'ngil bilan, ochiqchasiga shuni ayting! Biz undan ajralib qolsak adoyi-tamom bo'lamiz. Rossiya kulimizni ko'kka sovuradi. Masala ravshan: u qayoqqa boshlasa biz ham shu yoqqa yuramiz.

— Gap degan bunday bo'libdi-da!

Atarshchikov, zavqi kelib Dolgovning yelkasiga qoqib qo'ydi-da, kulib turgan ko'zlarini Listnitskiyga tikdi. Yevgeniy esa jilmayib, hayajonga tushib, shimining tizzasidagi g'ijimini qo'li bilan tekisladi.

— Xo'sh, nima deysiz, janob ofitserlar, atamanlar? — dedi Atarshchikov ovozini balandlatib. — Kornilov tarafini olamizmi?

— Ha, albatta!

— Dolgov, mushkul muammoni birpasda hal qildi-qo'ydi.

— Hamma ofitserlar Kornilov tarafdori.

— Biz bir chekkada qolishni istamaymiz.

— Qadrdon Lavr Georgiyevich sharafiga, qahramon kazak sharafiga, ura!

Ofitserlar kulishib, chashkalarini bir-biri bilan urishtirib choy ichdilar. Suhbat boyagi keskinligini yo'qotib, so'nggi kunlarda ro'y bergan voqealar ustiga ko'chdi.

— Biz barimiz oliy qo'mondon tarafdori, lekiniga kazaklar mijg'ovlik qilyapti... — dedi Dolgov dudmollik bilan.

— «Mijg'ovlik» qilyapti deganing nimasi? — deb so'radi Listnitskiy.

— Mijg‘ovlik qilyapti-da. U itvachchalarning uylariga, xotinlari yoniga borgisi kelib qolgan... It yotish, mirza turish jonlariga tekkan...

— Bizning vazifamiz– kazaklarni orqamizdan ergashtirishdan iborat bo‘lishi kerak! — deb yuzboshi Chernokutov stolni mushtladi. — Ergashtirish kerak!

Ofitserlik pogonini nima qilib taqib yuribmiz, axir!

Kazaklarga ularning do‘sti kim, dushmani kim asta-sekin tushuntirish kerak.

Listnitskiy qoshiq bilan stakanni jingillatdi; hamma ofitserlarning diqqatini o‘ziga jalb qilgandan keyin dona-dona qilib gapira boshladi.

— Janoblar, shuni yodingizda tutingki, bizning ishimiz, Atarshchikov aytganday, kazaklarga haqiqiy ahvolni tushuntirishdan iborat. Kazaklarni komitetlar ta’siridan qutqarib olmoq zarur. Buning uchun fe’l-atvorimizni o‘zgartirishimiz kerak. Chunonchi, ko‘pchiligimiz, fevral inqilobidan keyingi ahvolga qanday chidab kelgan bo‘lsak, hozir ham o‘shanday chidash kerak. Ilgarigi vaqtlarda, masalan, o‘n oltinchi yilda, bironta kazakni kaltaklasam, urushda gardanimdan o‘q yeyish xavfi ostida qolgan bo‘lardim, fevraldan keyin qo‘limizni kalta qilishga majbur bo‘ldik, chunki men birorta ahmoqni do‘pposlasam, qulay payt poylab o‘tirmasdan, meni okopdayoq o‘ldirib qo‘ygan bo‘lar edi. Endi ahvol butunlay boshqacha. Biz endi, — Listnitskiy urg‘u berib gapirdi, — kazaklar bilan og‘a-ini tutunishimiz lozim! Hamma narsa shunga bog‘liq. Birinchi va To‘rtinchi polklarda nima voqealar bo‘layotganidan xabaringiz bormi?

— Dahshat!

— Rost, dahshat! — deb gapida davom etdi Listnitskiy. — Ofitserlar xuddi avvalgidek kazaklarni nazar-pisand qilmay, natijada kazaklarning bari bolsheviklar ta’siri ostiga tushib qolgan, ularning o‘zlari ham bolsheviklashgan. Ma’lumki, oldimizda turgan dahshatli voqealar girdobiga tushmay ilojimiz yo‘q. Uchinchi va beshinchi iyul — beg‘am yurgan hamma odamlar uchun qattiq ogohlantirish bo‘ldi. Yo biz Kornilovga ergashib revolyusion demokratiyaga qarshi jang qilamiz, yo bo‘lmasa bolsheviklar kuch yig‘ib, o‘z ta’sirini kuchaytirib, yana bir revolyusiya qiladilar. Ular dam olib, kuch to‘playaptilar, biz esa lapashanglik qilyapmiz... Shunday ah-

volga yo'l qo'yib bo'ladimi?! Kelajakda bo'ladigan to's-to'polonda ishonchli kazak kunimizga yarab qoladi...

— Kazaklar bo'lmasa qo'ysiz qo'ychivondek gapmiz, — dedi xo'rsinib Dolgov.

— Gapingiz to'g'ri, Listnitskiy!

— Juda to'g'ri.

— Rossiyaning bir oyog'i go'rda...

— Nima, buni tushunishmaydi, deb o'ylaysizmi? Tushunamiz-u, lekin biror ishni qilishga qurbimiz yetmaydi. «Prikaz № I»[1] va «Okopnaya pravda»[2]ning sochgan urug'lari o'sib chiqyapti.

— Biz o'sib chiqqan bu maysani bosib-yanchib, o't qo'yib kuydirish o'rniga, uni tomosha qilib zavqlanamiz! — deb qichqirib yubordi Atarshchikov.

— Yo'q, biz tomosha qilib zavqlanayotganimiz yo'q, — biz ojizlik qilyapmiz.

— Gapingiz noto'g'ri, xorunjiy! Bizda g'ayrat yo'q, xolos.

— Yolg'on!

— Isbot eting!

— Sekinroq, janoblar.

— «Pravda»ni tor-mor qildik... Kerenskiyning aqli tushdan keyin kiradi.

— Bu nima... ot bozormi? Qo'yinglar-e!

Pala-partish gaplar, hayqiriqlar sekin-asta tindi. Listnitskiyning so'zlariga qiziqib quloq solib o'tirgan yuzboshilardan biri gap so'radi.

— Men nutqini tamomlash uchun yasovul Listnitskiyga imkon berishni taklif etaman.

— So'raymiz!

Listnitskiy mushti bilan tizzasining ko'zini ishqalab, so'zini davom ettirdi:

— Fikrimcha, kelajakda bo'ladigan janglarda, grajdanlar urushida (men grajdanlar urushining muqarrarligini hozirgina payqadim), biz-

---

[1] Petrograd sovetining Ijroiya komiteti revolyusion kayfiyatdagi ommaning tazyiqi ostida 1917-yil 1-martda harbiy qismlarda saylab qo'yiladigan tashkilotlar barpo etish va eski chor ofitserlari ustidan bu tashkilotlarning kontrolligini joriy qilish to'g'risida farmon chiqargan edi.

[2] «Okopnaya pravda» — jangovar bolsheviklar gazetasi.

ga sodiq bo'lgan kazaklarga ishimiz tushadi. Jon-jahdimiz bilan tirishib, ularni bolsheviklarga moyil bo'lgan komitetlar ta'siri ostidan ajratib olmog'imiz zarur. Nihoyatda zarur! Mabodo yangi bir to'ntarish bo'lsa bormi, Birinchi va To'rtinchi polk kazaklari o'z ofitserlarini otib tashlagusidirlar...

— Turgan gap!

— Ayab o'tirishmaydi!

— ...Ularning tajribalari, — kezi kelganda aytib o'tay, achchiq tajribalari biz uchun saboq bo'lishi lozim. Birinchi va to'rtinchi polk kazaklarining (endi ularni qanday kazak deb atab bo'ladi?) kelajakda ikkitadan bittasini osishga yoki hammasini gumdon qilishga to'g'ri keladi... Yovvoyi o'tni tag-tomiri bilan yulib tashlamoq zarur! Keling, o'z kazaklarimizni kelajakda falokatga olib boradigan xatolardan asrab qolaylik.

Listnitskiydan so'ng uning so'zlarini zo'r diqqat bilan tinglagan yuzboshi so'z oldi. Polkda to'qqiz yil xizmat qilgan, urushda to'rt marta yaralangan bu keksa ofitser, qadimda xizmat qilish oson bo'lmaganini, kazak ofitserlari og'ir ahvolda, qattiqchilik bilan kun ko'rganini, xizmat pog'onalarida yuqori ko'tarilish sust borganini, ofitserlarning ko'pchiligi uchun qo'shin starshinasi degan unvon eng so'nggi martaba bo'lganini gapirib, chor hukumati ag'darilgan paytda kazak boshliqlarining loqaydligini shu bilangina izohlash mumkin, dedi. Ammo bunga qaramasdan, dedi u, Kornilovni jon-jahdimiz bilan qo'llab-quvvatlash, kazak qo'shinlari soyuzi Soveti va Ofitserlar soyuzi Bosh komiteti orqali u bilan aloqani mustahkamlash zarur.

— Mayli, Kornilov diktator bo'lsin, kazak qo'shinlari uchun bu najot bo'ladi. U hukmdor bo'lsa, ehtimol, biz podsho vaqtidagidan ham yaxshiroq yasharmiz.

Vaqt yarim kechadan oshgan. Shahar ustini kumushrang tun qoplab olgan, osmonda pag'a-pag'a oq bulutlar suzib yuradi. Derazadan admiralteystvo[1] cho'qqisidagi minora nayzasi qorayib ko'rinadi, chiroq nurlarining sarg'ish nurlari har yoqni to'ldirgan.

Ofitserlar gaplashib o'tirib tong ottirdilar. Haftada uch marta kazaklar bilan siyosiy mavzularda suhbat o'tkazishga qaror qildilar,

---

[1] Oliy harbiy dengiz boshqarmasi. (Tarj.)

vzvod ofitserlariga har kuni o'z vzvodlari bilan gimnastika o'tkazish va kitob o'qib berib turish vazifasi yuklatildi, shu bilan kazaklarning bo'sh vaqtlarini mashg'ul qilib, ularni zararli siyosiy ta'sirlardan qutqarib qolmoqchi bo'ldilar.

Uy-uylariga ketishdan oldin «Toshdi, mavj urdi provaslav tinch Don» ashulasini aytdilar, o'ninchi samovarni ichib tugatdilar, hazillashib stakanlarni bir-biriga urishtirib, qadah ko'tardilar. Tarqalish oldida Atarshchikov Dolgov bilan shivirlashib olib:

— Endi, ovqatdan keyin yeyiladigan shirinlik o'rniga sizni qadimiy kazak ashulasi bilan xushnud qilamiz. Qani, jim bo'ling! Derazani ham ochib yuboring, uy tamaki tutuni bilan to'libdi, — dedi.

Ikki tovush — Dolgovning do'rillagan va bo'g'iq ovozi bilan Atarshchikovning juda yoqimli ingichka tovushi boshda bir-biriga qovushmadi, har biri o'zi xohlagan avjda ashula qildi, lekin bora-bora ularning tovushi bir-biriga monandlashib, kishini maftun etuvchi jarangdor ohang kasb etdi.

Bizning tinch Don naqadar mag'rurdir, bosh egmagan
Musulmonlar oldida, u yashash tartibini
So'ramagan Maskovdan, Turkiya bilan faqat
O'tkir qilich tili-la so'zlashib kelgan har vaqt.
Jondan aziz onamiz – Don dashtlari har zamon
Bizni muborak Maryam, provaslav dinimiz,
Hamda to'lqinli daryo – erkin va tinch Donimiz –
Uchun doim dushman-la jang qilishga chorlagan.

Atarshchikov panjalarini tizzasi ustida chalmashtirib, ovozini barala qo'yib, chinqirib ashula boshladi, Dolgovning do'rillagan ovozini orqada qoldirib ketgan bo'lsa ham, lekin ovozini turli maqomga solib, biror martaba ashulani buzmadi. Atarshchikov ko'rinishida juda qahrli edi, ammo Listnitskiy, uning pastki qovog'idagi qizg'ish xoli ustidan yiltirab sovuq yosh oqib tushganini payqab qoldi.

Boshqa sotnya ofitserlari tarqalishib, qolganlar uxlagani yotgandan keyin, Atarshchikov Listnitskiy karavotining chetiga o'tirdi-da, shimini ko'tarib turgan ko'k tasmani o'ynab turib shivirladi:

— Bilasanmi, Yevgeniy... Men Donni, kazaklarning asrlardan beri davom etib kelayotgan eskicha hayot tarzini o'lgudek yaxshi

ko‘raman. O‘z kazaklarimizni, kazak ayollarini sevaman! Cho‘lda bitgan shuvoq o‘tning hidi burnimga kelib urilishi bilan xo‘rligim keladi... Yoki kungaboqar gullaganda; Don qirg‘oqlaridagi yomg‘irdan ivigan toklarning xushbo‘y isi kelganda, Donni jonimdan ham ortiq sevaman bilsang... Ammo miyamga shunday bir o‘y keldi: biz o‘sha kazaklarni laqillatayotganimiz yo‘qmikan? Biz ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlayapmizmi ekan?

— Nima demoqchisan? — deb so‘radi Listnitskiy sergaklanib.

Atarshchikovning oq ko‘ylagi yoqasidan chiqib turgan qoracha bo‘yni bolalarnikiday ma’sum va yoqimtoy edi. Jigarrang xoli ustidagi qovog‘ining ko‘kish kipriklari osilib turar, yon tomondan yarim yopiq namli ko‘zining g‘iltillagani ko‘rinib turardi.

— Kazaklarga shu narsaning hojati bormi, deb o‘ylayman.

— Unday bo‘lsa, ularga nima kerak?

— Bilmasam... Ammo nima sababdan ular o‘z-o‘zlaricha bizdan uzoqlashayotirlar? Revolyusiya go‘yo bizni qo‘y va takalar singari bir-birimizdan ayirdi, bizning manfaatlarimiz bir-biriga zidga o‘xshaydi.

— Aftidan, — deb ehtiyot bo‘lib gap boshladi Listnitskiy, — bu narsa hodisalarni turlicha tushunishdan kelib chiqadi. Biz juda madaniyatlimiz, biz u yoki bu faktga tanqidiy ko‘z bilan qarab baho bera olamiz, kazaklar esa har narsani sodda, ibtidoiy sur’atda anglaydilar. Bolsheviklar, urushni bitirish kerak, to‘g‘rirog‘i, uni grajdanlar urushiga aylantirish kerak, deb ularning boshlarini aylantiradilar. Ular kazaklarni bizga qarshi qutquga soladilar, kazaklar charchagan vaqtida odamgarchiligini yo‘qotadi, vatan oldidagi burchlari va mas’uliyatlarini ham unutishadi (ular bizga o‘xshagan emas) shu sababdan, bolsheviklarning bu targ‘iboti uchun ular orasida qulay zamin bor, bu oynadek ravshan. Ular uchun vatan degan gap nima? Har holda ular uchun bu mavhum tushuncha. Ular: «Don qo‘shini Oblasti frontdan uzoq, nemis u yerlargacha yetib borolmaydi», deb o‘ylaydilar. Hamma balo shunda-da. Ularga, bu urushni fuqarolar urushiga aylantirishning oqibati nima bo‘lishini to‘g‘ri tushuntirish lozim.

Listnitskiy gap uqtirar ekan, so‘zlari mo‘ljalga borib tegmayotganini, Atarshchikov o‘z chig‘anog‘iga kirib olgan shilliq qurtday qalbining sirlarini yashirishini his etar edi.

Darvoqe shunday bo‘ldi: Atarshchikov bir narsa deb to‘ng‘illadi, keyin anchagacha churq etmay o‘tirdi. Listnitskiy nafasi ichiga tushib ketgan safdoshining xayolidan qanday fikrlar o‘tayotganini, ming urinsa ham, payqab ololmadi.

«Fikrini oxirigacha aytish uchun imkon bersam bo‘lar ekan...» deb o‘yladi u afsuslanib.

Atarshchikov unga: «Yaxshi yotib turing», — dedi-da, bir og‘iz so‘z aytmasdan chiqib ketdi. Bir daqiqa samimiy suhbat qilishni istagan edi, har bir odam singari o‘z sirini ko‘ngil yorib dardlashmoqchi bo‘lgan edi-yu, lekin botinolmadi.

Begona, yashirin sirni bilib ololmagani uchun Listnitskiyning ko‘ngli g‘ash bo‘lib qoldi. U papiros chekib, ko‘zlarini qorong‘iga tikib bir oz yotdi-da, Aksinyani, ta’tilda u bilan birga o‘tkazgan shirin kunlarini esladi. Turli fikrlar va hayotida duch kelgan ayollar haqidagi tasodifiy, bir-biriga bog‘lanmagan xotiralarga berilib uyquga ketdi.

XII

Listnitskiy sotnyasida Bukanov stanitsasidan kelgan Ivan Lagutin ismli kazak bor edi. Birinchi saylovda u polk harbiy-revolyusion komitetiga a’zo bo‘lib saylandi, polk Petrogradga kelmasdan burun u hech qanday ish bilan o‘zini ko‘rsatmagan edi, ammo iyulning oxirgi kunlarida vzvod ofitseri Listnitskiyga quyidagicha ma’lumot berdi: Lagutin Petrograd ishchi va soldat deputatlari Sovetining harbiy seksiyasiga qatnab turadi, Sovet bilan aloqa qilgan bo‘lishi ham mumkin, nimagaki o‘z vzvodidagi kazaklar orasida tez-tez suhbat o‘tkazib turgani sezilib qoldi, kazaklarga salbiy ta’sir ko‘rsatyapti. Sotnyada qorovul turish va razvedkaga chiqishdan ikki marta bosh tortish voqeasi yuz berdi. Vzvod ofitseri bu hodisaning sababi – Lagutinning kazaklarga ko‘rsatgan ta’siri bo‘lsa kerak deb taxmin qilardi.

Listnitskiy, har qalay, Lagutin bilan yaqindan tanishish, uni sinab ko‘rishga qaror qildi. Uni chaqirib ochiqchasiga suhbatlashish ahmoqlik va ehtiyotsizlik bo‘lar edi, shu vajdan Listnitskiy sabr qilib payt poylab yurmoqchi bo‘ldi. Ko‘p o‘tmay, qulay fursat topdi. Iyul oxirida uchinchi vzvod, navbat bo‘yicha, Putilov zavodiga olib boradigan ko‘chalarni kechasi bilan qo‘riqlab chiqishi lozim edi.

Listnitskiy vzvod ofitserini ogohlantirib:

— Kazaklar bilan o‘zim boraman, — dedi. — Buyuring, qora to‘riqni egarlasinlar.

Listnitskiy, o‘zining ta’biricha, har ehtimolga qarshi, ikkita ot saqlar edi. Darakchisining yordami bilan kiyinib, u hovliga tushdi. Vzvod ot ustida edi. Marjondek chiroqlar bilan yoritilgan tumanli qorong‘ilik ichida bir necha ko‘chani bosib o‘tdilar. Listnitskiy jo‘rttaga orqada qolib Lagutinni chaqirdi. Lagutin ko‘rimsizgina otining boshini burib, yasovul yoniga keldi-da, unga ko‘z qirini tashlab, sabr qilib turdi.

— Komitetingizda nima yangiliklar bor? — deb so‘radi Listnitskiy.

— Hech qanday yangiliklar yo‘q.

— Sen o‘zing qaysi stanitsadansan, Lagutin?

— Bukanovdan.

— Qaysi xutordan?

— Mityakindan.

Endi ularning otlari yonma-yon borar, Listnitskiy fonar yorug‘ida sersoqol kazakning yuziga ko‘z qirini tashlar edi. Lagutinning furajkasi ostidan chiqib turgan silliq sochlari ko‘rinardi, kulchadek to‘la yuzlaridagi soqoli yakkam-dukkam, turtib chiqqan qalin qosh usti suyaklari ostidagi ma’noli ayyor ko‘zlari botiq.

«Ko‘rinishdan sodda va g‘amgin odamga o‘xshaydi, lekin ko‘nglida nima borligini kim biladi? Ehtimol, eski usuli idora va «kapral tayog‘i» bilan bog‘liq bo‘lgan narsalar kabi meni ko‘rarga ko‘zi yo‘qdir!..» deb o‘yladi Listnitskiy va nimagadir Lagutinning o‘tmishini bilgisi kelib qoldi.

— Bola-chaqalimisan?

— Ha, xotinim va ikkita bolam bor.

— Ro‘zg‘oring-chi?

— Qanaqa ro‘zg‘or? — deb javob qildi Lagutin istehzo aralash taassuf ila. — Bir amallab ochin-to‘qin kun kechiryapmiz. Goh ho‘kiz bizni boqadi, goh biz ho‘kizni... Butun umr shu zaylda sargardon-u sarsonmiz... yerimiz bo‘lsa qumloq, — dedi u o‘ylanqirab, qovog‘ini osiltirib turib.

Listnitskiy bir mahal Bukanovdan o‘tib Sebryakovo stanitsasiga borgan edi. U katta yo‘ldan uzoqda bo‘lgan stanitsani ko‘z oldiga

keltirdi, janub tomoni ko'z ilg'amas tep-tekis o'tloq, o'tloqning etak tomonida Xopyor daryosi ilon izi bo'lib oqadi. O'shanda bir tepa ustida turib, Yelansk tomondan, o'n ikki chaqirim narida yalanglikdagi ko'm-ko'k bog'larni, baland cherkovning shuvog'i ko'chgan oppoq jomxonasini ko'rgan edi.

— Qumloq yerlar, — deb xo'rsindi Lagutin. — Uyingga ketging kelar-a, balkim?

— Ha-da, janob yasovul! Albatta! Qanotim bo'lsa uchib ketardim. Urushda ne-ne kulfatlarni ko'rmadik.

— Ammo og'ayni, tezda uyga qaytish bizga muyassar bo'lmas.

— Bo'ladi.

— Axir urushni tugatganimiz yo'q-ku, hali?

— Tezda tugatadilar. Ko'p o'tmay, uy-uyimizga ketamiz, — dedi Lagutin qattiq turib.

— Hali o'zaro urushlar ham bo'lishi turgan gap. Sen nima deb o'ylaysan?

Lagutin egarning qoshidan ko'zini olmay, jim turdi-da:

— Kim bilan urushamiz? — deb so'radi.

— Kim bilan bo'lardi... Masalan, bolsheviklar bilan.

Lagutinning nafasi yana ichiga tushib ketdi, xuddi otlarning tuyoq tovushlari allalaganday bo'ldi-yu, mudray boshladi. Bir necha daqiqa indamay yo'l yurishdi. Lagutin dona-dona qilib:

— Otamizdan meros qolibdimiki, ular bilan talashsak, — dedi.

— Yer-chi?

— Yer hammaga yetadi.

— Sen bolsheviklarning asl maqsadini bilasanmi?

— Biroz bilaman.

— Bordi-yu, bolsheviklar bizning yerlarimizni tortib olish, kazaklarni asoratga solish uchun ustimizga bostirib kelsalar, nima qilish kerak deb o'ylaysan? Sen nemislar bilan urushib, Rossiyani himoya qilgansan-ku, axir?

— Nemislar — boshqa gap.

— Bolsheviklar-chi?

— Nima deb o'ylaysiz, yasovul janoblari, — deb dangal gapirishga qaror qildi Lagutin boshini ko'targanicha Listnitskiyning ko'zlariga tikka qarab. — Bolsheviklar mening bor-yo'q bir parchagina yerimni

tortib olmaydilar. Mening bir chek yerim bor, ular mening yerimni boshlariga uradilarmi... Lekin siz tag'in xafa bo'lmang! Dadangizning o'n ming botmon...

— O'n ming emas, to'rt ming.

— Farqi yo'q, mayli, to'rt ming deylik, — ozmuncha yermi? — Axir shuyam insof bo'ldimi? Butun Rossiyani oling, — dadangizga o'xshaganlar son mingta. O'zingiz o'ylab ko'ring, yasovul, har bir og'iz bir parcha non so'raydi. Sizda bor og'iz, boshqalarda ham bor, hammaning ham yegisi keladi. Bir lo'li o'z baytalini ovqat yemaslikka o'rgatmoqchi bo'pti, bir necha kun yemasa, o'rganadi, deb o'ylabdi. Sho'rlik baytal o'n kun chidabdi, endi ovqat yemaslikka o'rganganda oyog'ini cho'zibdi... Podsho mahalida zamona zo'rniki, tomosha ko'rniki edi, kambag'al non desa, kesak g'irillardi... Dadangizning peshonasiga to'rt ming botmon yer bitibdi, axir uning og'zi ikkitamas-ku, biz faqirlarnikiga o'xshash — bitta. Bizga o'xshash bitta odamning ovqatini yeya oladi. Albatta, xalqning bu ahvoli odamning xo'rligini keltiradi! Bolsheviklar — nishonni to'g'ri olgan, siz bo'lsangiz – urushamiz deysiz.

— Sen nima, bolshevikmisan?

— Gap laqabda emas... — dedi cho'zib Lagutin kinoyaomuz. — Gap laqabda emas, haqiqatda. Xalq haqiqatni izlaydi, haqiqatni esa xalqdan yashiradilar. Dunyoda haqiqat yo'q, o'lgan deydilar.

— Demak, deputatlar Sovetida bolsheviklar senga shunday ta'lim berar ekanlar-da... Sen ular bilan bekorga og'iz-burun o'pishmas ekansan.

— Eh, janob yasovul, bizning singari sabr-qanoatli odamlarga qattiq turmushning o'zi ta'lim bergan, bolsheviklar faqat pilikka o't qo'yadilar...

— Sen bunday gaplaringni qo'y! Safsata sotish xonasi emas! — deb zarda bilan gapirdi Listnitskiy. — Menga ayt-chi, sen mening dadamning yeri to'g'risida, umuman zamindorlar yeri to'g'risida gapirding, ammo bu — xususiy mulk-ku. Aytaylik, sening ikkita ko'ylaging bo'lsa, meniki bo'lmasa, sening fikringcha, nima qilishim kerak, senikini tortib olishim kerakmi?

Listnitskiy Lagutinning aftini ko'rmasa ham tovushidan uning iljayayotganini sezdi.

— Men o‘zim ortiqcha ko‘ylagimni yechib beraman. Frontda ortiqchasini emas, eng so‘nggi ko‘ylagimni yechib berib, o‘zim yalang‘och badanga shinel kiyib yurganman, ammo hech kim o‘z yerini berishni xayoliga keltirmaydi...

— Nima, yering ozlik qilyaptimi? Yetishmaydimi?– deb so‘radi Listnitskiy jerkib.

Lagutinning rangi bo‘zdek oqarib ketdi, bo‘g‘ilib:

— Nima, sen u o‘zining g‘amini yeyapti deb o‘ylaysanmi? — deb o‘shqirib berdi. — Polshada bo‘ldik, odamlar qanday kun kechiryapti, ko‘rdingmi, yo‘qmi? Bizning mujiklar qanday tirikchilik qilyaptilar?.. Men o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman! Odamlarning yurak-bag‘ri qon bo‘p ketdi!.. Sen, nima, ularga meni achinmaydi deb o‘ylaysanmi? Men, balki, o‘sha sho‘rlik polyakka rahmim kelganidan uning bir parcha yeri to‘g‘risida g‘am yerman.

Listnitskiy bir gap bilan uni uzib olmoqchi bo‘lgan edi, lekin shu topda Putilov zavodining kulrang, baland korpuslari tomondan «ushla!» deb chinqirgan ovoz eshitildi. Bir otning tuyoq tovushi, «paq» etgan miltiq ovozi eshitildi. Listnitskiy qamchisini o‘ynatib, otini choptirib ketdi.

U Lagutin bilan chorrahada to‘planib turgan vzvod oldiga bir vaqtda yetib keldilar. Kazaklar qilich-qinlarini shiqillatib, otdan tushdilar, o‘rtada ular ushlab olgan bir odam tipirchilab turardi.

Listnitskiy oti bilan olomon ichiga otilib kirib:

— Nima? Nima gap? — deb baqirdi.

— Bir ablah, tosh bilan...

— Tosh otib, ura qochdi.

— Arjanov, tumshug‘iga tushir!

— Ha, itvachcha! Toshbo‘ron qilmoqchimisan? Egar ustida o‘tirgan vzvod uryadnigi Arjanov ot ustidan engashib, kamarband qora ko‘ylakli bir odamni orqa yoqasidan ushlab turardi. Otdan tushgan uch kazak uning qo‘llarini orqasiga burayotgan edi. Listnitskiy o‘zini tutib turolmay:

— Kimsan o‘zing? — deb so‘radi.

Qo‘lga tushgan odam boshini ko‘tardi, yuzi bo‘zarib, qimtilgan lablari burishib ketdi.

— Kimsan, axir? — deb Listnitskiy yana so‘radi. — Odamga qarab tosh otasanmi, ablah? A? Nega nafasing chiqmaydi? Arjanov...

Arjanov egardan sakrab tushdi, qo'lga tushgan kishining yoqasini qo'yib yuborib, qulochkashlab basharasiga tushirdi.

Listnitskiy otining boshini burib:

— Do'pposlang!– deb buyurdi.

Egardan tushgan uch-to'rt kazak qo'li bog'langan kishini yerga bulg'ab, qamchi bilan sola boshladilar. Lagutin otdan tushib, Listnitskiyning oldiga keldi.

— Janob yasovul!.. Bu nima qilganingiz?.. Janob yasovul! — u titroq bosgan changak qo'llari bilan yasovulning tizzasiga yopishib olib, baqirdi: — Bunday qilish yaramaydi!.. Odam-ku!.. Nima qilyapsiz, axir?

Listnitskiy jilovni siltab, otini niqtadi, lekin churq etmadi. Lagutin o'zini kazaklar ustiga otib, Arjanovning belidan ushlab, qilich qiniga o'ralishib, uni orqaga tortdi. Arjanov unga qarshilik ko'rsatib:

— Joning achimay qo'ya qolsin! Kuyunma! U tosh otsa-yu, biz indamay turaversak bo'ladimi? Qo'yvor!.. Yaxshilikcha qo'yvor deyapman!.. — dedi.

Kazaklardan biri boshini egib, bo'ynidan soyli miltig'ini chiqardida, qo'ndog'i bilan yerda yotgan kishining majaq-majaq bo'lgan gavdasiga tushira ketdi. Bir lahzadan keyin ko'cha ustida chinqirgan bir ovoz yangradi.

Bir necha sekundgacha uning nafasi ichiga tushib ketdi, keyin hiqillagan o'sha alamzada rasta ovoz do'rillab:

— Ablahlar!.. Kontrrevolyusionerlar!.. Uring!... O-oh! Aaaa!... — dedi. Kazaklar ustma-ust paqillatib tushira boshladilar.

Lagutin Listnitskiyning oldiga yugurib bordi; uning tizzasiga ko'kragini qo'yib, tirnoqlari bilan egarning chetini tirnab, harsillagan ovoz bilan:

— Rahm qil! — dedi.

— Qoch deyman!

— Yasovul!.. Listnitskiy!.. Eshityapsanmi? Javobgar bo'lasan!

Listnitskiy Lagutin ustiga oti bilan bostirib kelaverib:

— Tuf betingga-ye! — deb xirilladi.

Lagutin bir chekkada turgan kazaklar oldiga yugurib bordi-da:

— Og'aynilar! — deb baqirdi. — Men polk revkomining a'zosiman... Sizlarga buyuraman: bu odamni o'limdan saqlab qoling!.. Javob... javobgar bo'lasizlar!... Eski zamon emas!...

Listnitskiy o‘tday tutaqib, ko‘ziga hech narsa ko‘rinmay qoldi. Otining ikki qulog‘i orasiga qamchi bilan urib, Lagutin ustiga bostirib keldi. Miltiq moyining hidi kelib turgan qop-qora to‘pponchasining og‘zini uning yuziga tirab:

— Tovushingni o‘chir, xoin! Bolshevik! Otib tashlayman! — deb chiyilladi.

So‘ngra o‘zini arang bosib olib, barmog‘ini to‘pponchaning tepkisidan chiqardi-da, otini tortib, keyingi oyoqlari ustiga turg‘izdi-yu, choptirganicha ketdi.

Bir necha daqiqadan keyin uch kazak otlarini haydab uning orqasidan jo‘nab ketdi. Arjanov bilan Lapinning otlari orasida jiqqa ho‘l ko‘ylagi badaniga yopishib qolgan odam oyoqlarini ko‘tarolmay chayqala-chayqala tosh ko‘chada sudralib borardi. Uni qo‘ltig‘idan ushlab olishgan edi. Uning shilq etib tushgan boshi, turtib chiqqan yelkalari orasida liqillab borar, oppoq iyagi ko‘tarilib qolgan, boshi majaqlangan, qonga belangan edi. Uchinchi kazak nariroqda borar edi. Yorug‘ tushib turgan bir muyulishdagi izvoshchiga uning ko‘zi tushdi-yu, uzangi ustida turib olib, otini unga tomon yo‘rg‘alatib ketdi. Izvoshchiga bir nima deb, po‘pisa uchun qamchisi bilan etigining qo‘njiga urib qo‘ydi. Shundan so‘ng izvoshchi itoatkorlik bilan shoshib-pishib, ko‘cha o‘rtasida to‘xtab qolgan Arjanov bilan Lapin oldiga izvoshini haydab bordi.

Ertasi kuni Listnitskiy uyg‘onib, kecha kechirib bo‘lmaydigan katta bir xato ish qilganini payqadi. Kazaklarga tosh otgan kishining kaltaklatganini va o‘zi bilan Lagutin o‘rtasida o‘tgan mojaroni eslab, lablarini tishladi, aftini burishtirdi, o‘ylanqirab, yo‘talib qo‘ydi. Kiyinar ekan, polk komiteti bilan aloqani keskinlashtirmaslik uchun, hozircha Lagutinga indamaslik kerak, deb o‘yladi, kechagi to‘qnashuv bu mojaroning shohidi bo‘lgan kazaklarning yodidan ko‘tarilgandan keyin Lagutinni asta yo‘ldan olib tashlash lozim.

Listnitskiy o‘zidan kulib, istehzo bilan: «Mana kazaklar bilan inoqlashish...» der edi, u bir necha kungacha bu mojaroning ta’siri ostida ko‘ngli xira bo‘lib yurdi.

Avgustning boshlarida, havo ochilib, oftob charaqlab turgan kunlarning birida Listnitskiy Atarshchikov bilan shahar aylangani ko‘chaga chiqdi. Ofitserlar majlisi bo‘lgan kun oralaridan o‘tgan

suhbatdan keyin yuz bergan anglashilmovchilikni hal etish uchun qulay fursat bo'lmagan edi. Atarshchikov ichidagi sirini hech kimga aytmay, miyasidagi o'yini pishirib yurar, Listnitskiy uni gapga solib, fikrini bilmoqchi bo'lganda, o'z haqiqiy basharasini begona ko'zlardan yashirish uchun betini niqob bilan berkitgan kishilarday, u ham qalbining qopqog'ini berkitib olardi. Listnitskiyning nazarida, odamlar boshqalar bilan muomala qilganda tashqi qiyofasi ostida ko'rib bo'lmaydigan haqiqiy basharalarini berkitib yuradiganday tuyulardi. U, agar har bir odamning yuzidagi parda olib tashlansa, uning haqiqiy, chin basharasi ochilib qoladi, deb o'ylardi. Shu sababdan, u ko'rinishdan dag'al, qahrli, jasur, surbet, beg'am, xushchaqchaq odamlarning ichki sirini bilish orzusi bilan yonar edi. Hozir u Atarshchikov to'g'risida o'ylab bosh qotirar ekan, bir narsanigina payqadi: u yuzaga kelgan ziddiyatlardan qutulish, kazak manfaatlarini bolshevizm bilan bog'lash yo'lini zo'r berib axtarmoqda. Bu taxmini Atarshchikov bilan yaqinlashish uchun qilgan harakatini to'xtatishga, undan o'zini opqochib yurishga majbur qildi.

Ular Nevskiy prospektida, u yoqdan bu yoqdan gaplashib ketmoqda edilar.

Listnitskiy ko'zlari bilan restoran eshigiga ishora qilib:

— Kirib bir nima tamaddi qilmaymizmi? — dedi.

— Mayli, — deb ko'ndi Atarshchikov.

Ular restoranga kirib, har tarafga ko'z yugurtirib, tarvuzlari qo'ltiqlaridan tushdi: hamma stollar band edi. Atarshchikov burilib chiqib ketmoqchi bo'lib turgan ham ediki, deraza yonidagi stol yonida ikki xonim bilan o'tirgan, ularga diqqat bilan qarab turgan, xomsemiz, bashang kiyimli bir janob oldilariga kelib, nazokat bilan boshidagi silindrini ko'tardi-da:

— Afv etsinlar! Marhamat qilib, bizning stolga o'tirmaydilarmi? Biz ketyapmiz, — dedi tamaki tutunidan sarg'aygan siyrak tishlarini ko'rsatib. Keyin kulib turib qo'li bilan stolga taklif etdi. — Men janob ofitserlarning xizmatlariga bajon-u dil tayyordirman. Sizlar bizning iftixorimizdirsiz.

Stol yonida o'tirgan xonimlar o'rinlaridan turishdi. Bo'yi balandgina, qorachadan kelgan ayol turmaklangan sochini to'g'rilab qo'ydi, yoshrog'i esa shamsiyasini o'ynab kutib turar edi.

Ofitserlar stollarini bo‘shatib bergan janobga tashakkur bildirib, deraza yoniga o‘tishdi. Tushirib qo‘yilgan deraza darpardasi orqali dasturxon ustiga tanga-tanga oftob nuri tushib turardi. Ovqat hidi stollar ustidagi gullarning xushbo‘y hidini bosib ketar edi.

Listnitskiy ko‘katlardan pishirilgan sovuq sho‘rva keltirishni buyurdi-da, ovqat kutib, vazaga qo‘yilgan sariq gullarning bargini bittalab yulib xayol surib o‘tirdi. Atarshchikov esa dastro‘mol bilan peshonasini artib, horg‘in ko‘zlarini pirpiratib, yonidagi stolning oyog‘iga tushib, o‘ynab turgan oftob nuriga qarab o‘tirardi.

Ular hali ovqat yeb bo‘lgunlaricha yo‘q edi, ikkita ofitser shang‘illashib gaplashib, restoranga kirib keldi.

Oldin kirgan ofitser bo‘sh stol bormikan deb, ko‘zlarini yugurtirib, oftobda qoraygan yuzini Listnitskiyga o‘girdi. Tim qora qiyiq ko‘zlarida shodlik uchquni chaqnab ketdi.

— Listnitskiy! Senmisan-a?!.. — deb baqirdi u va tap tortmay, Listnitskiyning oldiga dadil kelaverdi.

Qop-qora mo‘ylovlari ostidan tishlarining oqi ko‘rinib ketdi. Listnitskiy yasovul Kalmikovni darhol tanidi, uning orqasidan kelayotgan ofitser Chubov edi. Ular qattiq qo‘l qisishib ko‘rishdilar. Listnitskiy o‘zining ilgarigi polkdoshlarini Atarshchikov bilan tanishtirar ekan:

— Sizlarni qaysi shamol uchirdi? — deb so‘radi. Kalmikov mo‘ylovlarini burab turib, boshi bilan orqasiga imlab, ko‘zlarini alanglatib:

— Ish bilan yubordilar. Keyin aytib beraman. Sen o‘zingdan gapir. O‘n to‘rtinchi polkda ishlar qay ahvolda? — deb so‘radi.

...Ular birgalashib restorandan chiqishdi. Kalmikov bilan Listnitskiy orqaroqda qolib, birinchi duch kelgan tor ko‘chaga burilishdi. Oradan yarim soat o‘tar-o‘tmas, shaharning sershovqin qismidan chiqishdi, tevarak-atrofga qo‘rqa-pisa qarab, shivirlashib ketishdi.

— Bizning Uchinchi korpus Ruminiya front rezervida turadi, — deb jonlanib hikoya qila ketdi Kalmikov. — Bundan bir yarim haftacha ilgari polk komandiridan: sotnyani topshirib, yuzboshi Chubov bilan birga diviziya shtabi ixtiyoriga jo‘nang, degan yozma buyruq oldim. Juda soz. Topshirdim. Diviziya shtabiga yetib keldim. Operativ bo‘limda ishlovchi polkovnik M. (sen uni bilasan), maxfiy ravishda, general Krimov huzuriga darhol jo‘nashim kerakligini bildirdi.

Chubov ikkimiz korpusga jo'nadik. Krimov meni qabul qildi, uning oldiga ofitserlardan kimlarni yuborganliklarini bilgani uchun tap tortmay shunday dedi: «Hokimiyat tepasida mamlakatni halokatga olib borayotgan kishilar o'tiribdi, — hukumat boshidagilarni o'zgartirish, ehtimol, Muvaqqat hukumatni harbiy diktatura bilan almashtirish lozim bo'ladi». U Kornilovning bu lavozimga belgilanishi mumkinligini aytib, menga, Petrogradga ofitserlar soyuzi Bosh komiteti ixtiyoriga boring, deb taklif qildi. Endi bu yerda bir necha yuz ishonchli ofitserlar to'plangan. Bizning vazifamiz nimaligini bilasanmi? Ofitserlar soyuzining Bosh komiteti bizning kazak qo'shinlari soyuzi Soveti bilan bir yoqadan bosh chiqarib ish ko'radi, katta stansiyalar va diviziyalarda zarbdor batalyonlar tashkil qilyapti. Bular hammasi yaqin kelajakda ishga yarab qoladi.

Oxiri nima bo'larkin? Nima deb o'ylaysan?

— Barakalla-ye! Nahotki shu yerda yashab turib, ahvolni tushunib olmagan bo'lsang? Albatta, hukumat ag'dariladi, Kornilov hokimiyat tepasiga keladi. Axir, butun qo'shin Kornilovni qo'llab-quvvatlash uchun shaylanib turibdi-ku. U yerda biznikilar: maydonda bir-biriga teng bo'lgan ikki kuch bor, biri Kornilov bo'lsa, ikkinchisi bolsheviklar, deyishadi.

Kerenskiy ikki tegirmon tosh orasida qolgan, — unisi bo'lmasa bunisi yanchib tashlaydi. Mayli, hozircha Alisaning[1] to'shagida ishrat qilib yotaversin. U — bir soatli xalifa. — Kalmikov birpas jim turib, xayol ichida qilichining popukli tasmasini o'ynar ekan, — biz haqiqatda shatranj taxtasidagi piyodalarmiz, — dedi, — shatranjbozning qo'li qayerga surib qo'yishini piyodalar bilmaydi... Masalan, men bosh shtabda nimalar bo'layotganidan bexabarman. Shunisini bilamanki, Kornilov, Lukomskiy, Romanovskiy, Krimov, Denikin, Kaledin, Erdeli va boshqa bir talay generallar o'rtasida maxfiy aloqa va kelishuv bor...

— Ammo armiya... butun armiya Kornilov orqasidan ergasharmikin? — deb so'radi Listnitskiy qadamini jadallashtirib.

— Soldatlar, albatta, ergashmaydi. Biz ularni ergashtiramiz.

---

[1] *Alisa* – Aleksandra Fyodorovna (turmushga chiqmasdan ilgari malika Alisa Gessenskaya), Nikolay II ning rafiqasi.

— Kerenskiy so'llarning tazyiqi ostida oliy bosh qo'mondonni o'rnidan tushirmoqchi bo'lganini bilasanmi?

— Qo'li kaltalik qiladi! Ertasigayoq uni tavbasiga tayantirishadi. Ofitserlar soyuzi Bosh komiteti bu xususda qanday fikrdaligini unga qat'iy ravishda bildirib qo'ygan.

— Kecha kazak qo'shinlari soyuzi Soveti uning oldiga o'z namoyandalarini yuborgan edi, — deb gapirdi Listnitskiy kulimsirab. — Ular kazaklarning Kornilovni o'rnidan tushirishga yo'l qo'ymasliklarini aytganlar. Bilasanmi, u nima deb javob qilibdi: «Bu – bo'hton. Muvaqqat hukumat bunday qilishni aqliga ham keltirgani yo'q», — debdi. U bir tomondan jamoatchilikni tinchitib, ikkinchi tomondan yengiltak ayollarday deputatlar Soveti ispolkomiga jilva qiladi.

Kalmikov yo'l-yo'lakay ofitsercha yon daftarchasini qo'ynidan chiqardi-da, ovoz chiqarib o'qidi.

— «Jamoat arboblari kengashi, siz, rus armiyasining oliy qo'mondonini tabriklaydi. Kengash sizning armiyadagi nufuzingizga va Rossiyaning sha'n-shavkatiga rahna solish uchun qilingan har bir harakatni jinoyat deb biladi, ofitserlar, Georgiy ordeni kavalerlari va kazaklar bilan hamjihat ekanini barala e'lon qiladi. Og'ir sinovlar oldidagi dahshatli damlarda butun Rossiyadagi aql egalari sizga umid va ishonch bilan ko'z tikkan. Yaratgan sizga, qudratli armiyani qaytadan barpo etish va Rossiyani qutqazish yo'lida qilgan harakatingizga madad bersin! Rodzyanko».

Masala ravshan! Kornilovning o'rnidan tushirilishi to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas... Ha, aytganday, sen Kornilov kelganda bormiding?

— Men Sarskoye Selodan shu bu kecha yetib keldim. Kalmikov tep-tekis oppoq tishlarini va qip-qizil sog'lom milklarini ko'rsatib kuldi. Uning qiyiq ko'zlari yumilib ketdi, ko'zlari atrofida o'rgimchak inidek mayda ajinlar hosil bo'ldi.

— Ishlar qiyomat! Uni taka turkmanlar eskadroni qo'riqlaydi. Avtomobillarda pulemyotlar o'rnatilgan. Hammasi Qishki saroyga qarab yo'l olgan. Bu — ochiqdan ochiq ogohlantirishdir. Bay-bay-bay! Papoq kiygan u turqi sovuq odamlarni bir ko'rsayding. Haqiqatan ham ularni tomosha qilsa arziydi! Ular odamda juda g'alati ta'sir qoldiradi.

Ofitserlar Moskva-Narva rayonida ko'chama-ko'cha aylanib yurganlaridan keyin bir-birlaridan ajraldilar.

Kalmikov xayrlashar ekan:

— Jenya, biz bir-birimizni yo'qotib qo'ymasligimiz kerak, — dedi. — Og'ir zamonlar kelyapti. Oyoq ustida mahkam turmasang, yiqilasan!

Listnitskiy nariroq ketgandan keyin unga qayrilib qarab qichqirdi:

— Senga aytishni unutibman. Do'stimiz Merkulov esingdami? Rassom-chi?

— Xo'sh, nima bo'pti?

— Uni may oyida o'ldirdilar.

— Yo'g'-e!

— Ha-da, bilmasdan o'ldirib qo'yishdi. Bundan ham bema'ni o'lim bo'lishi mumkin emas. Razvedkachining qo'lidagi granata portlab uning qo'lini tirsagigacha uchirib ketgan, Merkulovning esa ichak-chavoqlaridan bir qismini va maydalanib ketgan durbininigina topib oldik, xolos.

Kalmikov yana bir nima deb qichqirdi-yu, lekin shamol turib chang-to'zonni havoga ko'tardi-da, uning uzuq gaplarini eshittirmay qo'ydi.

XIII

Oltinchi avgustda oliy bosh qo'mondon shtabining boshlig'i general Lukomskiy bosh shtab birinchi kvartirmeyster generali Romanovskiy orqali, Nevel — N. Sokolniki — Velikiye Luki rayonida otliq askarlar korpusi bilan tog'liklar diviziyasini to'plash to'g'risida buyruq oldi.

— Nega endi shu rayonga? Axir, bu qismlar Ruminiya frontining rezervlari-ku? — deb so'radi gangib qolgan Lukomskiy.

— Bilmadim, Aleksandr Sergeyevich. Men oliy bosh qo'mondonning buyrug'ini sizga yetkazdim, xolos. — Siz buyruqni qachon oldingiz?

— Kecha. Oliy bosh qo'mondon kechasi meni soat o'n birda chaqirib, tong otgach, shu ma'lumotni sizga yetkazishni buyurdilar.

Romanovskiy oyoqlarining uchiga bosib, deraza tagida u yoqdan bu yoqqa yurdi, keyin Lukomskiy kabineti devorining yarmini

ishg'ol qilgan O'rta Yevropa strategik xaritasi oldida to'xtadi-yu, orqasini o'girib turib, haddan ziyod bir diqqat bilan xaritani ko'zdan kechira boshladi:

— Siz kirib o'zlari bilan gaplashing... Kabinetlarida o'tiribdilar.

Lukomskiy stol ustidan qog'ozlarini yig'ishtirib olib, kreslosini orqaga surib qo'ydi-da, semira boshlagan o'rta yoshli harbiylarga xos yurish bilan qattiq-qattiq qadam tashlab ketdi. Eshik oldiga yetganda avval Romanovskiyni o'tkazib yubordi-da, xayol surib:

— To'g'ri. Shunday,– deb qo'ydi.

Lukomskiyga notanish, oyoqlari uzun, novcha bir polkovnik Kornilov oldidan chiqib kelayotgan edi. Polkovnik hurmat bilan yo'l bo'shatgandan keyin, sal-pal oqsoqlanib va shikastlangan kiftini g'alati qilib qimirlatib yo'lakdan yurib ketdi.

Kornilov bir oz oldinga engashib, qiyshiq qo'ygan kaftlariga og'irligini solib, ro'parasida turgan o'rta yoshli bir ofitserga der edi:

— ...shunday bo'lishini kutish kerak edi. Gapimni uqdingizmi? Pskovga yetib borgan hamono menga xabar qilishingizni rijo etaman. Sizga endi javob.

Ofitser eshikni yopib chiqib ketgandan keyin, Kornilov yoshlarday epchil harakat bilan kresloga o'tirdi-da, ikkinchi bir kresloni Lukomskiyga surib qo'yib:

— Siz Romanovskiydan, mening Uchinchi korpusni ko'chirish to'g'risidagi buyrug'imni oldingizmi? — deb so'radi.

— Ha, oldim. O'zim ham shu xususda gaplashgani keldim. Siz uchinchi korpusni ko'chirish uchun nimaga mazkur rayonni tanladingiz?

Lukomskiy Kornilovning qoramtir basharasiga tikilib qoldi. Bu chehra sirli, tund yuzlaridan, burun kataklaridan mo'ylov bilan qoplangan og'zining chetlariga qiyasiga chuqur ajinlar tushgan.

Bolalarnikiday peshonasiga tushib turgan kokili yuzidagi qahrli, dag'al ifodani yumshatib turardi.

Kornilov tirsaklarini stolga qo'yib, kichkina qoqsuyak kaftini iyagiga tirab, chaqnagan qiyiq ko'zlarini qisdi. Lukomskiyning tizzasiga qo'lini tegizib dedi:

— Men otliq askarlarni Shimoliy frontga emas, balki shunday biron rayonga to'plashni istaymanki, natijada ularni bu yerdan Shimo-

liy yoki G'arbiy frontga yuborish o'ng'ay bo'lsin. Nazarimda, tanlangan rayon shu talablarga javob beradi. Siz boshqacha fikrdamisiz? A?

Lukomskiy dudmollik bilan yelkasini qisib qo'ydi.

— G'arbiy frontdan xavotirlanish uchun asos yo'q, Yaxshisi, otliq askarlarni Pskov rayoniga to'plash kerak.

— Pskovga? — deb so'radi Kornilov, so'ngra butun gavdasi bilan oldinga engashib, aftini burishtirib, qoni qochgan lablarini irshaytirdida, boshini chayqab: — Yo'q, Pskov rayoni noqulay, — deb qo'ydi...

Lukomskiy keksalardek horg'in harakat bilan kresloning suyanchig'iga kaftini qo'ydi-da, har bir so'zni o'ylab, ehtiyot bilan gapirdi.

— Lavr Georgiyevich, men hozir tegishli buyruqlarni chiqaraman, ammo nazarimda siz fikringizni aytib tamomlamaganga o'xshaysiz... Basharti, otliq askar qismlarini Petrograd yoki Moskva ustiga yuborish kerak bo'lgan taqdirda siz tanlagan rayon juda qulay, ammo Shimoliy front otliq askarlarni bu taxlitda joylashtirishni ta'min etolmaydi, shuning uchun hamki, ularni ko'chirish amrimahol. Bordi-yu, men yanglishayotgan bo'lmasam va siz o'z fikringizni ochiqchasiga aytmayotgan bo'lsangiz, — rijo etaman yo menga frontga ketish uchun ijozat bering, yoinki ko'nglingizdagi gapni bitta ham qoldirmay ayting. Shtab nachalnigi, boshliqning ishonchiga sazovor bo'lgan taqdirdagina o'z o'rnida qola oladi.

Kornilov boshini egib, uning so'zlariga diqqat qilib quloq solib turdi va o'zining o'tkir ko'zlari bilan Lukomskiyning beparvo ko'ringan yuzi hayajondan bilinar-bilinmas qizg'ish tusga kirganini payqadi. Bir lahza o'ylab turib:

— Siz haqlisiz, — dedi. — Mening sizga aytmagan ba'zi bir mulohazalarim bor edi... Otliq askar qismlarini ko'chirish to'g'risida farmon chiqarib, bu yerga uchinchi korpus komandiri general Krimovni chaqirtirishingizni iltimos qilaman, Petrograddan qaytib kelganimdan so'ng siz bilan bafurja gaplashamiz. Aleksandr Sergeyevich, amin bo'lingki, sizdan yashiradigan sirim yo'q. — Kornilov bu so'nggi gapni chertib gapirdi, shu payt eshik tiqillab qolgan edi, shartta o'sha yoqqa burilib: — Kiring, — dedi.

Bosh shtab qoshidagi komissarning yordamchisi fon Vizin bilan pakanagina malla general kirib keldi. Lukomskiy o'rnidan turdi; chiqib ketayotganida fon Vizinning savoliga Kornilovning:

— Hozir general Millerning ishini qaytadan ko'rishga fursatim yo'q. Nima? Ha, jo'nab ketyapman, — deb keskin javob berganini eshitdi.

Lukomskiy Kornilovning huzuridan chiqqandan keyin anchagacha deraza oldida qaqqayib qoldi. Oq oralagan cho'qqi soqolini, xayol surib, shamoldan chayqalayotgan kashtan daraxtlarining shox-shabbalarini va oftobda tovlanib, egilib-bukilib salom berayotgan o't-o'lanlarni tomosha qildi.

Oradan bir soat o'tgach, 3-otliq askarlar korpusi shtabi oliy Bosh qo'mondon shtab boshlig'idan yangi rayonga ko'chish uchun hozirlik ko'rish to'g'risida buyruq oldi. O'sha kuni, Kornilovning xohishi bilan 11-armiyaga qo'mondon bo'lishdan bosh tortgan general Krimov maxfiy yozishma alifbosi bilan tuzilgan telegramma orqali bosh shtabga chaqirtirildi.

9-avgustda Kornilov taka turkmanlar eskadroni himoyasi ostida maxsus poyezd bilan Petrogradga jo'nab ketdi.

Ertasi kuni bosh shtabda, oliy bosh qo'mondonning o'rindan tushirilgani, hatto qamoqqa olingani to'g'risida mish-mish gaplar tarqaldi, biroq 11-avgustda Kornilov erta bilan Mogilyovga qaytib keldi.

Kelgan zahoti Lukomskiyni o'z huzuriga chaqirtirdi. Telegrammalar va svodkalarni ko'zdan kechirib chiqib, u ingichka, za'farondek qo'liga soya tashlab, chiroyli qilib ko'rsatgan qordek oppoq manjetini hafsala bilan tekislab, yoqasini to'g'riladi. Uning shoshqaloqlik bilan qilgan bu harakati bezovta ekanligini ko'rsatardi.

— O'sha mahalda uzilib qolgan suhbatimizni endi tamomlashimiz mumkin, — dedi u past tovush bilan. — Uchinchi korpusni Petrograd yaqiniga ko'chirishga meni majbur qilgan va bu xususda sizga aytmagan mulohazalarimni bayon qilishni istayman. Bilsangiz, men uchinchi avgustda, Petrogradda hukumat majlisida bo'lganimda, Kerenskiy bilan Savinkov, mudofaa sohasidagi alohida muhim masalalar ustida to'xtalmang, chunki ministrlar orasida ishonchsiz odamlar bor, deb aytdilar. Men, oliy bosh qo'mondon, hukumat oldida hisobot bersam-u, operativ rejalar to'g'risida og'iz ocholmasam, bu nima degan gap? Aytilgan gaplar bir necha kundan keyin german qo'mondonligi qulog'iga borib yetmaydi, deb hech kim kafil bo'lolmaydi! Shu ham hukumat bo'ldimi? Shundan keyin, shu hu-

kumat vatanni qutqaradi, deb ishona olamanmi? — Kornilov shahdam qadamlar bilan tez-tez yurib, eshik oldiga bordi-yu, kalitni burab uni qulfladi, stol yonida u yoqdan bu yoqqa yurib: — Qayoqdagi bo'lmag'ur pastkash odamlar mamlakatni idora etgani odamga alam qiladi, — dedi. — «Hukumat» deb atashga ham odamning tili bormaydigan bu hokimiyat muassasasining ishini lapashang, irodasiz, no'noq, jur'atsiz, ko'pincha razil odamlar boshqaradi. Chernov singari janoblarning marhamati va ishtiroki bilan bolsheviklar Kerenskiyni qulatadilar... Rossiya, mana shu ahvolga tushib qoldi, Aleksandr Sergeyevich. Men janobingizga ma'lum bo'lgan prinsipga amal qilib, vatanimizni yangi larzalardan qutqarmoq istayman. Uchinchi otliq askarlar korpusini, asosan, avgust oxirida Petrograd ustiga yuborish va agar bolsheviklar xuruj qilsa, vatan xoinlarini yakson qilib tashlash maqsadida joyidan qo'zg'atyapman. Bu operatsiyaga bevosita rahbarlik qilishni general Krimovga topshiraman. Zarur bo'lsa, u o'ylab-netib o'tirmay, butun ishchi va soldat deputatlari Sovetini dorga tortib yuboradi, bundan ko'nglim to'q. Muvaqqat qukumat... Biz, hali ko'ramiz... Men o'zim uchun hech narsani istamayman. Rossiyani qutqazish... qanchalik qimmatga tushsa ham-ki, qutqazishni istayman!..

Kornilov yurishdan to'xtab, «Pukomskiyning ro'parasiga kelib to'xtadi-da, keskin so'radi:

— Siz mening, faqat shu tadbirlar bilangina mamlakatimiz va armiyamizning istiqbolini ta'min eta olishimiz mumkin, degan fikrimga qo'shilasizmi? Siz men bilan birga oxirigacha borasizmi?

Lukomskiy hayajonlanib Kornilovning qo'lini qattiq qisdi-da, o'rnidan turdi.

— Fikringizga batamom qo'shilaman! Ahdimdan qaytmayman. Ishni pishitib, aql tarozusiga solib, keyin birdan hal qilish kerak. Bu vazifani menga topshiring, Lavr Georgiyevich.

— Buning planini men ishlab chiqqanman. Ikir-chikirlarini polkovnik Lebedev va kapitan Rojenko ishlab tamomlashadi. Sizning ishingiz boshingizdan oshib yotibdi, Aleksandr Sergeyevich. Menga ishoning, bularning hammasini bamaslahat baqamti qilish va agar zarur bo'lsa, tegishli o'zgarishlar kiritish uchun hali-beri fursat bor.

O'sha kunlari bosh qarorgoh ari inidek g'uvullar edi. Kun sayin Mogilyov gubernatorining uyiga frontdagi turli qismlardan chang

bosgan gimnastorka kiygan, shamoldan va oftobdan qoraygan ofitserlar kelib, o‘z xizmatlarini taklif etar, ofitserlar soyuzi va kazak askarlar Soyuzining bashang kiyingan namoyandalari kelar, Don viloyati qo‘shinining birinchi marta kazaklardan belgilangan atamani Keledindan choparlar kelib turar edi. Allaqanday fuqaro kiyimidagi shaxslar ham pashshaxo‘rda bo‘lib qolgan edi. Fevralda inqirozga yuz tutgan eski Rossiyani oyoqqa bostirishga astoydil intilgan kishilar ham, qon isini sezgan, Kornilovning beomon qo‘li mamlakatni qonga botirishini sezgan «tullak» odamlar ham, biror narsani o‘marib qolish ilinjida yurganlar ham Mogilyovga yig‘ila boshladilar. Bosh qarorgohda Dobrinskiy, Zavoyko, Aladinlarning nomi og‘izdan tushmas, ular bosh qo‘mondon bilan bir yoqadan bosh chiqaradilar, deb gaplashar edilar. Bosh qarorgohda va Don qo‘shinlari atamanining ko‘chma shtabida, Kornilov har kimga ishonadi, shu sababdan firibgar, qallob odamlar qurshoviga tushib qoldi, degan shivir-shivir gaplar ko‘payib qoldi. Ammo ko‘pchilik ofitserlar, Kornilov Rossiyani oyoqqa bostiruvchi bayroqdor deb ishonishardi. Eski tartibni tiklashni jon-u dillari bilan istagan odamlar burchak-burchakdan shu bayroq ostiga to‘plana boshladilar.

13-avgustda Kornilov Moskvada bo‘ladigan davlat kengashiga jo‘nab ketdi.

Kun iliq, havoda parcha-parcha bulutlar kezardi. Osmon ko‘kish rangdagi oq tunuka bilan qoplanganday yarqirar edi. Qoq tepada chetlari ko‘kimtir bulut parchasi suzib yurar, relsdan guldurab ketayotgan poyezd ustiga, barglari so‘lib sarg‘aygan ajoyib o‘rmonga, uzoqdan oq bo‘yoq bilan chizilgan rasmga o‘xshab ko‘ringan qayin daraxtlariga, kuzakda huvullab qolgan yerga turli tusga kirib tovlangan kamalak orasidan qiyalab yomg‘ir quyib turardi.

Poyezd ostida yer orqaga qarab chopib ketayotganday edi. Poyezd orqasidan qizg‘ish tutun uzun ko‘ylak etagiday sudralib borardi. Ochiq deraza yonida pistoqirang mundir kiygan jikkakkina genaral o‘tirar, qop-qora qiyiq ko‘zlarini qisib, derazadan boshini chiqarib qarar, iliqqina yomg‘ir tomchilari allaqachon oftobdan qoraygan yuzini va o‘siq qora mo‘ylovlarini ho‘llar edi; shamol esa bolalarnikiday hadeb peshonasiga tushib ketavergan sochini hilpiratib, orqasiga tarar edi.

XIV

Kornilovning Moskvaga kelishidan bir kun burun yasovul Listnitskiy kazak qo'shinlari soyuzi Sovetidan u yerga maxsus topshiriq bilan bordi. Moskvada turgan kazak polki shtabiga paketni topshirgach, ertaga Kornilovning yetib kelishini bildi.

Listnitskiy tush paytida Aleksandrovskiy vokzaliga chiqdi. Kutish zaliga, birinchi va ikkinchi klasslarning bufetlariga odam sig'mas edi. Harbiylar ko'pchilikni tashkil qilardi. Perronga Aleksandrovskiy harbiy maktab shogirdlari, viadukda Moskva xotin-qizlar ajal batalyoni jangchilari faxriy qorovul bo'lib tizilmoqda edi. Kunduz soat uchga yaqinlashganda poyezd keldi, gap-so'zlar birdan tindi. Orkestr qattiq mashq qilib, hamma yoqni larzaga soldi, sonsiz-sanoqsiz oyoqlarning tapir-tupuri eshitildi. Tala-to'por olomon Listnitskiyni itarib-surib, perronga chiqarib tashladi. Tiqilinchdan chiqib olgach, u qarasa, bosh qo'mondonning vagoni oldida ikki qator tizilib taka turkmanlar turibdi. Vagonning yaltiragan devori ularning qizil choponlari aksidan jivir-jivir qilib turardi. Bir necha harbiylarning hamrohligida vagondan chiqqan Kornilov, faxriy qorovul oldidan, «Georgiy» ordeni kavalerlari soyuzi vakillari oldidan, armiya flot ofitserlari soyuzi va kazak qo'shinlari soyuzi Soveti vakillari oldidan yurib o'tdi.

Oliy bosh qo'mondonga taqdim qilingan kishilar orasida Listnitskiy Don atamani Kaledin bilan general Zayonchkovskiyni tanidi, qolganlarining nomini ularning ofitserlari aytib tanishtirdilar.

— Kislyakov — yo'l ishlari ministrining o'rinbosari.

— Shahar boshlig'i — Rudnev.

— Knyaz Trubetskoy — bosh shtab diplomatiya mahkamasining boshlig'i.

— Davlat kengashining a'zosi — Musin-Pushkin.

— Fransiya harbiy-attashesi polkovnik Kayo.

— Knyaz Golitsin.

— Knyaz Mansirev... — degan hurmatomuz ovozlar eshitildi.

Listnitskiy, o'zi tomon kelayotgan Kornilovni platforma bo'ylab g'uj turgan bashang kiyimli xonimlar gullarga ko'mib yuborganini ko'rdi. Pushtirang bir gul Kornilov mundirining zar uqasiga ilinib qoldi. Kornilov xijolat aralash bir harakat bilan uni qoqib tashladi.

Sersoqol, urallik keksa bir kazak tutilib-tutilib, o'n ikkinchi kazak qo'shinlari nomidan tabriklay boshladi. Listnitskiy uning gapini eshitolmadi, uni devorga siqib qo'ygan edilar, qilichining qayishi uzilishiga sal qoldi. Davlat Dumasining a'zosi Rodichevning nutqidan so'ng, zich xaloyiq o'rab olgan Kornilov yana yura boshladi. Birbirlarining qo'llaridan ushlab, muhofaza doirasi yasagan ofitserlarni surib ketdilar. Kornilovga o'nlab qo'llar cho'zilardi. Allaqanday semiz, sochi to'zg'igan bir xonim mayda qadam bilan uning yoniga kelib, och-yashil mundirining yengini o'pmoqchi bo'ldi. Vokzaldan chiqaverishda qattiq tabrik qiyqiriqlari ostida Kornilovni qo'lma-qo'l ko'tarib ketishdi. Listnitskiy allaqanday baland martabali amaldor janobni yelkasi bilan qattiq turtib surib tashlab, Kornilovning amirkon etigini ushlab oldi-da, chaqqonlik bilan uni yelkasiga qo'ydi. Uning og'irligini ham sezmay, nafasi tiqilgan holda, muvozanati va qadam tashlash ritmini saqlashga harakat qilib qadam tashlar, baqirib duxovoy orkestrning sadolarini bosib ketgan xaloyiq uni surib borardi. Eshik oldida u shimidan chiqib ketgan ko'ylagining burmalarini nariberi tuzatib, zinadan maydonga tushdi. Oldinda ko'k shinelli askarlar, otliq turgan kazaklar saf bo'lgan edi. Listnitskiy kaftini shapkasining chetiga qo'yib, namli ko'zlarini pirpiratib turar, lablarining titrog'ini bosolmas edi. Fotoapparatlarning chiqir-chiqiri, olomonning quturishi, yunkerlarning marosim marshi bilan qadam tashlab borishlari va ularni kuzatib turgan pastak bo'yli, mo'g'ul bashara, kelishgan general sal-pal esida qolgan edi.

* * *

Ertasi kuni Listnitskiy Petrogradga jo'nab ketdi. Vagonning yuqorigi taxta karavotiga joylashib olib, shinelini yechib ostiga soldi, papiros chekib o'tirib, Kornilov haqida o'ylay boshladi:

«Go'yo vatan uchun kerak bo'lib qolishini bilgandek hayotini taxlika ostiga qo'yib, asirlikdan qochgan. Siymosi naqadar ko'rkam! Baayni marmartoshdan yo'nib yasalgandek bejirim, oldiy odamlarnikiga o'xshamaydi... Xarakteri ham xuddi shunday. Har narsa uning uchun ochiq-oydin, har narsani o'lchab bichib qo'ygan bo'lsa kerak. Qulay payt kelganda bizni orqasidan ergashtiradi. Shunisi qiziqki,

men uning kimligini bilmayman, monarxistmikan? Konstitutsion monarxiya... Koshki edi hamma ham u kabi o‘z kuchiga ishongan bo‘lsa».

Taxminan, ayni shu vaqtda Moskvada Bolshoy teatrning zallarida, Moskva davlat kengashi a’zolarining majlisi tanaffusga chiqqan paytda, ikki general — biri jikkak, mo‘g‘ul bashara, ikkinchisi — g‘o‘labir, kallaxum, sochi kalta qirqilib orqasiga taralgan, tepakal, ikki chakkasidagi sochlariga oq oralagan, quloqlarining kemirchagi chakkasiga yopishgan general — o‘zlarini bir chetga olib, parket pol ustida yurib, past ovoz bilan gaplashar edi...

— Deklaratsiyaning bu moddasi harbiy qismlardagi komitetlarni yo‘q qilishni nazarda tutadimi?

— Ha.

— Shubhasiz, yakdil va hamjihat bo‘lish zarur. Men ko‘rsatib o‘tgan tadbirlar amalga oshirilmasa, najot yo‘q. Armiya endi urushga qodir emas. Bunday armiya g‘alaba qozonish u yoqda tursin, hatto jiddiyroq tazyiqqa qarshilik ko‘rsatolmaydi. Harbiy qismlar bolsheviklarning tashviqoti orqasida buzg‘unlikka yuz tutgan. Bu yerda, mamlakat ichkarisida-chi? Ishchilarni no‘xtalash uchun chora ko‘rilganda ular qanday qarshilik ko‘rsatayotganliklarini ko‘ryapsizmi? Ular ishtashlashlar va namoyishlar bilan javob berayotirlar. Kengash a’zolari piyoda yurishga majburdirlar. Sharmandalik! Mamlakat ichkarisida harbiy tartib joriy qilish, rahmsiz, qattiqqo‘l hokimiyat o‘rnatish, hamma bolsheviklarni, maraz tarqatuvchilarni qirib tashlash — bizning vazifamiz ana shulardan iborat. Kelajakda sizning yordam berishingizga ishonsam bo‘ladimi, Aleksey Maksimovich?

— So‘zsiz, siz bilan birga boraman.

— Mening sizdan ko‘nglim to‘q edi. Tashakkur. O‘zingiz ko‘ryapsizki, qat’iy va qattiq choralar ko‘rish kerak bo‘lganda hukumat yarim-yorti tadbirlar va tumtaroqli so‘zlar bilan cheklanadi, «iyul kunlaridagidek xalq hukumatiga qasd qilganlarni qilichdan o‘tkazamiz, qonga botiramiz», deb vaqillaydi. Yo‘q, bizlar oldin ish ko‘rsatib, keyin gapirishga o‘rganganmiz. Ular buning teskarisini qiladilar. Mayli, bir kuni yarim-yorti tadbirlarning oqibatini ko‘rarlar. Ammo men bu g‘irromboqi o‘yinda ishtirok etishni istamayman!

Men ochiqchasiga jang qilish tarafdori edim va bundan keyin ham shunday qilaman, mahmadanalik mening tabiatimda yo‘q.

Suhbatdoshining ro‘parasiga kelib to‘xtagan pakana general uning qoramtir pistoqirang frenchining mis tugmasini o‘ynab, hayajonidan tutilib-tutilib dedi:

— No‘xtani yechib yuborib, endi o‘zlarining revolyusion demokratiyalaridan qo‘rqayotirlar, frontdan poytaxtga ishonchli harbiy qismlarni keltirishni so‘raydilar, ayni zamonda shu demokratiyani yuzxotir qilib, biror amaliy chora ko‘rishdan qo‘rqadilar. Bir qadam olg‘a, bir qadam orqaga qadam tashlaydilar... Faqat kuchlarimizni birlashtirib turib, ma’naviy tazyiq yo‘li bilan hukumatni o‘zimizga yonbostirishimiz mumkin, yonbosmasa — ko‘ramiz. Men, o‘ylabnetib o‘tirmay frontni ochib qo‘yaman, mayli, nemislar ularning ta’zirini bersin!

— Biz Dutov bilan gapni bir joyga qo‘yganmiz. Kazaklar, sizga har taraflama yordam ko‘rsatadi, Lavr Georgiyevich! Biz bundan buyon birga qiladigan ishlarimiz to‘g‘risida kelishib olishimiz lozim.

— Majlisdan so‘ng sizni va qolgan boshqa generallarni o‘z uyimda kutaman. Sizning Dondagi ahvol-ruhiya qanday?

G‘o‘labir general soqoli qirtishlangan to‘rtburchak iyagini ko‘kragiga tirab, qovog‘ini solib yer ostidan qarab qo‘ydi. U javob qilar ekan, o‘siq mo‘ylovlari ostidagi lablari titrab ketdi:

— Men avvalgidek kazaklarga inonmayman...

Hozir ularning ahvoli ruhiyalari to‘g‘risida bir gap aytish qiyin. Murosasozlik qilish kerak. Chetdan ko‘chib kelganlarni o‘z ta’sirimizda saqlab qolish uchun kazaklar ba’zi bir narsalarda yon bosishlari zarur. Bu sohada biz ba’zi bir choralarni ko‘ryapmiz, ammo ularning muvaffaqiyatli chiqishiga kafil bo‘lish qiyin. Kazaklar bilan Donga ko‘chib kelganlar manfaati bir-biriga to‘qnash kelib, nifoq chiqmasaydi, deb qo‘rqaman. Yer... Ularning ham, bularning ham fikri-zikri shunda.

— Sizning qo‘l ostingizda ishonchli kazak qismlari bo‘lishi lozim, shu bilangina ichingizda nizo chiqqanda har xil tasodiflardan amin bo‘la olasiz. Bosh qarorgohga borganimda men Lukomskiy bilan gaplashaman, ehtimol, frontdan Donga bir necha polkni yuborish mumkin bo‘lar.

— Sizdan behad minnatdor bo‘laman.

— Shunday qilib, biz bugun kelajakda birgalashib qiladigan ishlarimiz haqida kelishib olamiz. Niyatimizga yetishamiz deb astoydil ishonaman, ammo omad degan narsa beqarordir, general. Agar omadim o‘ngidan kelmay qolsa, sizning Donda boshpana topa olamanmi?

— Yolg‘iz boshpana emas, himoyatimizga sig‘ina olasiz. Kazaklar qadimdan o‘zlarining mehmondo‘stliklari bilan nom chiqarganlar. — Boyadan beri tumtayib turgan Kaledin birinchi marta iljaydi, yer ostidan qaragan horg‘in ko‘zlari kulimsiradi.

Oradan bir soat o‘tgach, Don atamani Kaledin jimib qolgan majlis ahli oldida «O‘n ikki kazak qo‘shini deklaratsiyasi»ni o‘qib eshittirdi.

O‘sha kundan boshlab, Don, Kuban, Terek, Ural, Ussuriyani, mamlakatning bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha cho‘zilgan kazak yerlarini, butun stanitsalarni zo‘r fitna iplari qora o‘rgimchak inidek o‘rab ola boshladi.

XV

Iyun janglarida to‘p o‘qlaridan tep-tekis bo‘lgan xaroba shaharlardan bir chaqirimcha narida, o‘rmon yoqasida okoplar ilon izidek cho‘zilib ketgan.

O‘rmon yoqasidagi joyni maxsus kazak sotnyasi ishg‘ol etgan.

Ko‘m-ko‘k, qalin zirk daraxtlari va yosh qayinlar o‘sib yotgan chakalak orqasida, bir vaqtlar urushga qadar ishga solingan botqoqdagi torf qatlami qizg‘ish tusga kirgan. Na’matak qip-qizarib, chiroyli bo‘lib pishgan. O‘ngroqda cho‘zinchoq bo‘lib chiqqan o‘rmon orqasida to‘p o‘qlaridan dabdalasi chiqqan tosh yo‘l cho‘zilib yotadi, bu xuddi oyoq bosilmagan yo‘llarni eslatardi. O‘rmon yoqasida esa o‘qlar kallaklab ketgan burgan o‘tlar o‘sib ketgan, ko‘mirga aylangan to‘nkalar do‘ppayib yotar, okoplarning chetidagi soz tuproq qo‘ng‘ir tusda tovlanardi, okop chiziqlari yalang dala bo‘ylab, uzoq-uzoqlarga cho‘zilib ketgan. Orqada, har yer-har yeridan qazilib olingan botqoqlikdan ham, hatto vayron bo‘lgan tosh yo‘ldan ham mehnat tark etgan hayot asari sezilar, o‘rmon yoqasidagi yer inson ko‘z oldiga allaqanday xunuk va ayanchli manzarani keltirardi.

Xuddi shu kuni, bir vaqtlar Moxovning un tegirmonida mashinist bo'lib ishlagan Ivan Alekseyevich, birinchi razryad obozi turgan yaqin oradagi shaharchaga ketgan edi, u yerdan kechga yaqin qaytib keldi. O'z yerto'lasiga ketayotganda Zaxar Korolyovga to'qnash keldi. Tuproq to'la qoplarning qirrasiga qilichi bilan turtinib-turtinib, qo'llarini salanglatib Zaxar chopib kelmoqda edi. Ivan Alekseyevich unga yo'l berib, bir chekkaga chiqdi, lekin Zaxar uning gimnastorkasi tugmasidan ushlab, sarg'aygan ko'z soqqasini o'ynatib shivirladi:

— Eshitdingmi? O'ng tomondagi piyodalar juftakni uryapti! Balki frontni tashlab ketayotgandir.

Zaxarning baayni qozonning qora kuyasidek qop-qora soqoli judayam paxmayib ketgan, ko'zlari och odamning ko'zlaridek g'amgin edi.

— Tashlab ketyapti deganing nimasi?

— Ketyaptilar-da, qanaqaligini bilmayman.

— Ehtimol, ularning o'rniga yangilari kelayotgandir? Vzvod komandiri oldiga borib bilamiz.

Zaxar tiyg'onchiq yo'ldan sirg'ana-sirg'ana yerto'laga, vzvod komandiri oldiga ketdi.

Kazaklar o'rnini piyodalar ishg'ol qilgandan keyin bir soat o'tgach, sotnya shaharchaga yo'l oldi. Ertasiga ertalab otboqarlardan otlarini olishib, marsh bilan mamlakat ichkarisiga yurish qilishdi. Mayda yomg'ir yog'a boshladi, qayinlar shamoldan egilardi, yo'l o'rmon ichiga kirib ketdi. Bulturgi xazonlarning achigan hidini va rutubatni sezgan otlar pishqirar, ildam qadam bosar edi. Yomg'ir yuvib tozalagan itburunlarning mevasi pushtirang bo'lib tovlanar, mayda sebarga gullar chamani qordek yarqirar, shamol daraxtlardan otliqlar ustiga suv tomchilarini to'kardi. Shinellar va furajkalar go'yo sochma o'q teshgandek qora-qora dog'lar bilan qoplangan edi. Maxorkaning siyrak tutunlari qatorlar ustida suzib yurardi.

— Birdaniga qayoqqadir haydab qolishdi-ya.

— Okoplar joningga tegmaganmi edi?

— Darvoqe, bizlarni qayoqqa olib ketishyapti?

— Yangi otryadlar tuzishadiganga o'xshaydi.

— Yo'g'-e, unaqamasdir.

— Kel-e, kazaklar, chekishib, g'amlarimizni unutaylik.
— Men o'z g'amlarimni xaltamda olib yuraman.
— Janob yasovul, qo'shiq aytarga ruxsat eting.
— Ruxsat berdimi? Arxip, boshla.
Oldingi safdagi allakim yo'talib olib, boshladi:

Xizmatdan qaytardi kazaklar uyga,
Yelkada pogoni, ko'ksida nishon.

Rutubatdan bo'g'ilgan ovozlar ashulani sekin bir cho'zdi-yu, jimib qoldi.

Ivan Alekseyevich bilan yonma-yon ketayotgan Zaxar Korolyov o'zangida tik turib, zaharxanda qilib qichqirdi:

— Hoy, so'qir gadoylar, kazakchasiga shunaqa aytiladimi? Sizlar cherkov yonida kosa tutib turib, xonish qilinglar. Voy, sendaqa qo'shiqchilarni...

— Qani, boshla.

— Uning bo'yni kalta, unda ovoz nima qilsin.

— Maqtanishga maqtanib qo'yib, endi dumingni xoda qilyapsanmi?

Korolyov bitlagan soqolini tutamlab, bir lahza ko'zlarini yumdida, tizginni qattiq siltab, ashulani boshladi:

Qahramon kazaklar, xushnud bo'linglar...

Sotnya go'yo uning jaranglagan qattiq ovozidan uyg'ongandek, baravariga jo'r bo'ldi:

Shoningiz, shuhratingizga.

Namiqqan o'rmonda, yo'l ustida ashula yangradi:

O'q otib dushmanni bizlardek qiring,
Bu ishda do'stlarga o'rnak ko'rsating!
Urushda biz safni buzmay boramiz,
Boshliqlar amriga quloq solamiz.
Otamiz komandir na buyruq bersa,
Biz shuni qilamiz, chopib, sanchamiz.

Manzilgacha ashulani qo'yib bordilar, «jahannamning og'zi»dan omon qutulganlariga suyundilar. Kechga borib vagonlarga joylashdilar. Eshelon Pskov tomonga qarab yo'l oldi. Uch stansiya yurilgandan so'nggina, sotnyaning uchinchi otliq askarlar korpusining boshqa qismlari bilan birlikda Petrogradda boshlangan tartibsizlikni bostirish

uchun ketayotganlarini bilib qoldilar. Shundan keyin gap-so'zlar tindi. Qizil vagonlar sukunat ichida ancha vaqtgacha kazaklarni tebratib bordi.

Daroz Borshchyov ko'pchilikning fikrini ifoda qilib:

— Qordan qutulib, yomg'irga tutilibmiz-da, — dedi.

Fevral oyidan beri sotnya komitetining doimiy raisi bo'lib kelgan Ivan Alekseyevich, birinchi bekatdayoq, to'g'ri sotnya komandiri oldiga bordi.

— Kazaklar tashvishda, janob yasovul.

Yasovul Ivan Alekseyevichning iyagidagi chuqurchasiga tikilib turdi-da, miyig'ida kulib, dedi:

— Azizim, o'zim ham tashvishdaman.

— Bizni qayoqqa jo'natishyapti?

— Petrogradga.

— Tinchitishgami?

— Sen, tartibsizlikka yordamlashaman deb o'ylovdingmi?

— Bizga unisiyam kerakmas, bunisiyam.

— Bizdan so'rab o'tirisharmidi.

— Axir, kazaklar...

— «Kazaklar» deydi-ya! — deb g'azab bilan uning so'zini bo'ldi sotnya komandiri. — Men kazaklarning o'yinini bilaman. Menga bu ish ma'qul deb o'ylaysanmi? Manavini olib, kazaklarga o'qib ber. Narigi stansiyada o'zim kazaklar bilan suhbat qilaman.

Komandir naycha qilib o'ralgan telegrammani unga uzatdi-da, irganib aftini burishtirib, yog'i qotgan konservani arang chaynay boshladi.

Ivan Alekseyevich o'z vagoniga qaytdi. Telegrammani kaftida cho'g'dek ko'tarib keldi.

— Boshqa vagondagi kazaklarni ham chaqiringiz. Poyezd qo'zg'aldi, kazaklar vagonga irg'ishib chiqaverdilar. O'ttiz kishi jam bo'ldi.

— Komandirga telegramma kepti, hozir o'qib beradi.

— Qani, nima yozilgan ekan, o'qi.

— O'qi, to'g'ri o'qi!

— Tinchlik to'g'risidami?

— Jim!

Sukunat cho‘kkach, Ivan Alekseyevich, oliy bosh qo‘mondon Kornilovning xitobnomasini o‘qib eshittirdi. So‘ngra telegramma terlagan qo‘llardan bir-bir o‘tdi. Unda ba’zi so‘zlar xato yozilgan edi.

Men, oliy bosh qo‘mondon Kornilov, butun xaloyiqqa ma’lum qilamanki, askarlik burchi, erkin Rossiya grajdanining fidokorona sadoqati, vatanga bo‘lgan mendagi cheksiz mehr-muhabbat meni vatanimiz boshiga tushgan shu og‘ir kunlarda Muvaqqat hukumatga itoat etmaslikka, armiya va flot bosh qo‘mondonligini o‘z qo‘limda saqlab qolishga majbur etdi. Butun frontlarning bosh qo‘mondonlari mening shu qarorimni qo‘llab-quvvatlaganlariga ko‘ra, men butun rus xalqiga bosh qo‘mondonlik vazifasidan voz kechishdan o‘limni afzal ko‘rganimni oshkora ma’lum qilaman. Rus xalqining asl farzandi o‘z postida jon beradi va shirin jonini ham fido etadi.

Vatanimizning hayot-mamoti qil ustida turgan, tantana qilayotgan dushman uchun ikkala poytaxtimizning darvozalari ochiq qolgan bir paytda, Muvaqqat hukumat mamlakatning mustaqilligi kabi ulug‘ masalani unutib qo‘yib xalqni asossiz kontrrevolyusiya xavfi bilan qo‘rqitmoqda, vaholanki, Muvaqqat hukumatning o‘zi mamlakatni idora qila bilmasligi, o‘z hukumatining zaifligi, o‘zining qat’iyatsizligi orqasida kontrrevolyusiyani avj oldirmoqda.

Men o‘z xalqining haqiqiy farzandi bo‘lib, hammaning ko‘zi o‘ngida vatan uchun xizmat qilayotirman, agar mendek odam xalqimning ulug‘ istiqboli yo‘lida o‘z hayotimni fido qilmasam, kim fido qiladi. Lekin hozir istiqbol zaif va irodasiz odamlar qo‘lida. Sotqinlar va xiyonatkorlar yordami-la mutakabbur dushman o‘z uyimizda xo‘jayinlik qilmoqda, rus xalqining yolg‘iz erkinligi emas, balki hayotini ham halokat girdobiga sudramoqda. Rus kishilari, ko‘zingizni katta oching, nahotki, vatanimiz falokat jariga qulash oldida turganini ko‘rmasangiz!

Men hech qanday g‘alayonlarga yo‘l qo‘ymaslik, bir tomchi ham rus qonini to‘kmaslik uchun o‘zaro janglarning oldini olish uchun, butun tahqir va gina-kuduratni unutib, butun xaloyiq oldida Muvaqqat hukumatga murojaat etaman: mening yonimga – bosh qarorgohga keling, men sizning ozodligingizga va hayotingizning daxlsiz bo‘lishiga kafilman. Keling, birgalikda xalq mudofaasini shunday

uyushtiraylikki, u erkinlikni ta'min etsin, rus xalqini qudratli ozod xalqqa munosib bo'lgan ulug' istiqbol sari yetaklasin.

General Kornilov.

Keyingi stansiyada eshelonni to'xtatib qo'ydilar. Ana jo'natishadi, mana jo'natishadi deb mahtal bo'lib turgan kazaklar vagonlar yonida to'planishib, Kornilovning telegrammasini hamda Kornilovni xoin va kontrrevolyusioner deb e'lon qilgan, sotnya komandiri Kerenskiyning hozirgina o'qib eshittirilgan telegrammasini muzokara qilmoqda edilar. Kazaklar hang-mang bo'lib bir-birlariga qarar, sotnya komandiri bilan vzvod ofitserlari sarosimada edilar.

— Kallam g'ovlab ketdi, — deb xunob bo'lardi Martin Shamil. — Ularning qaysi biri gunohkor ekanini xudoning o'zi bilsin!

— O'zlari yoqalashadilar, askarlarni ham yoqavayron qiladilar.

— Boshliqlarimiz semizlikdan quturmoqdalar.

— Har biri o'zim hokim bo'lsam deydi.

— Holvani hokim yeydi, kaltakni — yetim.

— Bosh boshga qovushmaydi... Balo bo'ldi!

Bir to'p kazaklar Ivan Alekseyevichning oldiga kelib:

— Komandirning oldiga bor, nima qilishimizni aytsin, — deb turib oldilar.

To'p-to'p bo'lishib yuzboshining oldiga keldilar. Ofitserlar o'z vagonlarida to'planishib, bir narsa to'g'risida maslahatlashayotgan edilar. Ivan Alekseyevich vagonga kirdi.

— Janob komandir, kazaklar, endi nima qilamiz, — deb so'rayaptilar, — dedi.

— Hozir chiqaman.

Sotnya kazaklari eng chekkadagi vagon oldida yig'ilib kutib turishar edi. Komandir vagondan chiqdi, kazaklar uni o'rab oldilar. O'rtada qolgan komandir qo'lini ko'tarib, dedi:

— Biz, Kerenskiyga emas, balki oliy bosh qo'mondonga, o'zimizning bevosita boshlig'imizga itoat etamiz. To'g'rimi? Shu vajdan biz o'z boshlig'imizning farmonini bajo keltirib, Petrograd ustiga yurishimiz lozim. Hech bo'lmaganda biz Dno stansiyasigacha borib, u yerda Birinchi Don diviziyasi komandiridan vaziyatni bilib olamiz,

— u yog'i keyin ma'lum bo'ladi. Men kazaklardan hovliqmaslikni iltimos qilaman. Zamonamiz o'zi shunaqa alg'ov-dalg'ov.

Yuzboshi askarlik burchi, vatan, inqilob haqida uzoq gapirdi, kazaklarni tinchitdi, savollarga mujmal javob berdi. Shu yo'l bilan o'z maqsadiga erishdi; shu orada eshelonga parovoz tirkadilar (kazaklar, o'z bo'linmalarining ikki ofitseri stansiya boshlig'ini qurol bilan qo'rqitib, eshelonni tezroq jo'natishga majbur etganlarini bilmay qoldilar). Shundan so'ng kazaklar tarqalishib vagonlariga chiqib oldilar.

Eshelon bir kecha-yu bir kunduz yo'l yurib, Dno stansiyasiga yaqinlashdi. Kechasi uni to'xtatib qo'yib, ussuriyaliklar va Dog'iston polki tushgan eshelonni o'tkazib yubordilar. Kazaklar tushgan Poyezdni zapasdagi temir yo'l iziga ko'chirdilar. Zim-ziyo qorong'ilikda Dog'iston polki tushgan Poyezdning yorug' vagonlari ular yonidan o'tib ketaverdi. Dog'istonliklarning vag'ir-vug'urlari, surnay tovushi, quloq o'rganmagan ashula ozozlari borgan sari uzoqdan eshitilardi.

Sotnyani yarim kechada jo'natdilar. Kuchsiz parovoz vodokachka oldida uzoq turib qoldi, uning o'txonasidan yerga uchqunlar sachrardi. Mashinist tamakisini tutatib, go'yo bir narsani kutganday, derazadan qarab turardi. Parovoz yaqinidagi vagondan bir kazak boshini chiqarib:

— Hoy, Gavrila, hayda, bo'lmasa hozir otib tashlaymiz, — dedi.

Mashinist papirosini tuflab tashladi-da, uning havoda yarim doira hosil qilib uchishini indamay tomosha qilib turdi; keyin yo'talib:

— Hammani otib tashlab bo'psanlar, — dedi-yu, boshini tortib oldi.

Bir necha daqiqadan so'ng parovoz bir siltab vagonlarni tortdi, buferlar qasir-qusur qilib ketdi, vagon silkinib ketganda muvozanatini yo'qotgan otlar bezovtalanib depsina boshladi. Poyezd vodokachka yonidan, onda-sondagi uylarning yorug' tushib turgan to'rtburchak derazalari va temiryo'lning nari tomonidan qorayib ko'ringan qayin daraxtlar yonidan suzib o'tdi. Kazaklar otlarini xashaklatib, uxlagani yotdilar, ba'zilarining uyqulari kelmay, qiya ochiq eshiklar oldida, bepoyon osmonni tomosha qilib xayol surar edilar.

Ivan Alekseyevich kazak Korolyov yonida, eshik tirqishidan yulduz to'la osmonga qarab yotar edi. U bir kun ichida bo'lib o'tgan voqealarni o'ylab, nima qilib bo'lsa ham bo'linmaning Petrogradga

tomon harakatini to‘xtatishga qattiq bel bog‘ladi; o‘rnida yotar ekan, kazaklarni o‘z qaroriga moyil qilish, ularni o‘z gapiga kirgizish choralari ustida bosh qotirar edi.

Kornilovning murojaatnomasidan ancha avval, kazaklarning Kornilov boshlagan yo‘ldan keta olmasliklarini aniq tushungan edi, shu bilan birga Kerenskiyni himoya qilish befoyda ekanligini sezib turardi; o‘ylab-o‘ylab shu qarorga keldi: bo‘linmani Petrogradga kirishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, mabodo jang qilishga to‘g‘ri kelsa – Kerenskiyga emas, Kornilovga qarshi Kerenskiy hokimiyati uchun, lekin u yiqilgandan keyin barpo etilgan hokimiyat uchun jang qilish kerak. Kerenskiydan keyin orzu qilgan chinakam xalq hokimiyati barpo etilishiga u astoydil ishonar edi. U yozda Petrogradda, ijroiya komitetning harbiy seksiyasida bo‘lgandi. Komandiri bilan oralarida chiqqan ixtilof munosabatida sotnya uni maslahat uchun ijroqo‘m harbiy seksiyasiga yubordi. U ijroqo‘mning ishi bilan tanishib, bir necha bolshevik o‘rtoqlar bilan suhbatlashdi. Bu uyushma atrofida ishchilar uyushgach, u kengayib chinakam hokimiyatga aylanadi! Ivan, joningni ber, xuddi bola onasining ko‘kragiga qanday yopishib olsa, sen ham undan ajralma!» deb o‘ylagan edi.

Shu kecha, to‘qim ustida yotar ekan, o‘z hayotining mashaqqatli yo‘lini topib olishga yordam bergan rahbarini har mahalgidan ko‘ra qizg‘inroq esladi. Ertaga kazaklarga nima deyishini o‘ylar ekan, Shtokmanning kazaklar to‘g‘risidagi gaplarini esladi va sabog‘ini hijjalagan boladay bu so‘zlarni qayta-qayta takrorladi: «Kazaklar asli muhofazakor xalq. Sen agar bolshevizm ideyasining haqligiga kazaklarni ishontirmoqchi bo‘lsang, bu haqiqatni unutma, ehtiyotlik bilan, o‘ylab harakat qil, sharoitga uyg‘unlash. Sen bilan Mishka Koshevoy boshda menga qanday munosabatda bo‘lgan bo‘lsangiz, ular ham boshda senga shunday munosabatda bo‘ladilar, ammo sen gangib qolma. Tinmay, ishingda davom et – axir g‘alabaga erishamiz».

Ivan Alekseyevich, kazaklarni Kornilovga ergashmaslikka da’vat etsam, ularning ba’zilari e’tiroz qilishlari mumkin deb o‘yladi, lekin ertalab o‘z vagonida: «Frontga qaytarishlarini talab etish kerak, Petrogradga borib o‘z birodarlarimiz bilan urushmaymiz», deb ehtiyot bilan gap ochganida kazaklar bajon-u dil uning fikriga qo‘shildilar va Petrogradga yurish qilishdan bosh tortishga qattiq bel bog‘ladilar.

Zaxar Korolyov bilan Chernishevskiy stanitsalik kazak Turilin Ivan Alekseyevichning eng yaqin fikrdoshlari edi. Uzzukun ular vagondan vagonga o'tib, kazaklar bilan suhbatlashdilar, kechqurun allaqanday kichik bir stansiyada, Ivan Alekseyevich ketayotgan vagonga uchinchi vzvodning uryadnigi Pshenichnikov sakrab chiqdi.

— Birinchi stansiyadayoq sotnya vagonlardan tushadi! — deb qichqirdi u hovliqib Ivan Alekseyevichga qarab. — Kazaklarning istaklarini bilmasang, nima qilib komitet raisi bo'lib yuribsan? Bizni endi laqillata olmaydilar! Petrogradga bormaymiz!..Ofitserlar bo'ynimizga sirtmoq solyaptilar, sen bo'lsang og'zingga so'k solganday, miq etmaysan. Shu niyat bilan seni saylagan edikmi? Nega, tishlaringning oqini ko'rsatib tirjayasan?

— Allaqachon shunday qilish kerak edi, — dedi Ivan Alekseyevich kulimsirab.

U birinchi stansiyadayoq hammadan oldin vagondan sakrab tushdi. Turilin hamrohligida stansiya boshlig'ining oldiga kirdi.

— Poyezdni shu yerda to'xtat. Shu yerda vagondan tushamiz.

— Nega endi? — deb so'radi stansiya boshlig'i hang-mang bo'lib. — Menda farmoyish bor... yo'llanma...

— Ovozingni o'chir! — deb qahr bilan uning gapini bo'ldi Turilin.

Ular stansiya komitetini qidirib topdilar, g'o'labir, mallasoch komitet raisiga ahvolni tushuntirdilar, bir necha minutdan keyin mashinist jon deb poyezdni zapas yo'lga kiritib qo'ydi.

Kazaklar chapdastlik bilan taxta ko'prik qo'yib, vagonlardan otlarini yetaklab tusha boshladilar. Ivan Alekseyevich parovoz yonida oyoqlarini kerib, kulib turib, yuzidagi terlarini artar edi. Rangida rang qolmagan sotnya komandiri uning oldiga chopib kelib:

— Nima qilyapsan, axir? Bilasanki... — dedi.

— Bilaman! — deb shartta uning gapini bo'ldi Ivan Alekseyevich. — Sen, janob yasovul, shovqin solaverma. — So'ngra bo'zdek oqarib ketdi-da, burnining kataklarini kerib, dona-dona qilib gapirdi: — Endi kekirdagingni cho'zolmaysan yigit! Endi biz popiltirig'ingni pasaytirib qo'yamiz, shuni bilib qo'y!

— Oliy bosh qo'mondon Kornilov... — deb qizarib yasovul gap boshlagan edi, Ivan Alekseyevich qumga botib ketgan eski etigiga qarab, beparvogina qo'l siltadi:

— Endi Kornilovni bo‘yningga osib ol, bizga keragi yo‘q uning, — dedi.

Yasovul poshnalari ustida burilib o‘z vagoniga qarab chopdi.

Bir soatdan so‘ng, sotnya bir nafar ham ofitserni olmasdan, harbiy tartibni batamom saqlagan holda stansiyadan chiqib, g‘arbi-janub tomon jo‘nadi. Sotnya komandirligini o‘z zimmasiga olgan Ivan Alekseyevich bilan uning yordamchisi — past bo‘yli Turilin eng oldingi vzvodda, pulemyotchilar yonida ketar edilar.

Kazaklar, sobiq komandiridan tortib olingan xaritaga qaray-qaray, qayoqqa ketayotganlarini arang bilib olib, Goreloye qishlog‘iga yetib keldilar-da, o‘sha yerda tunadilar. Hammalari maslahatni bir joyga qo‘yib, frontga jo‘nashga, agar to‘xtatib qo‘ymoqchi bo‘lsalar — jang qilishga qaror qildilar. Otlarini tushovladilar, atrofga soqchilar qo‘yib, uxlagani yotdilar. Gulxan yoqmadilar. Ko‘pchilikning ta’bi tirriq ekani bilinib turardi, hamisha uyquga ketish oldidan gap otishib, hazillashishni yaxshi ko‘radigan kazaklar churq etmasdan, fikrlarini bir-birlaridan sir tutdilar.

Ivan Alekseyevich ustiga shinelini tortib yotar ekan: «Bordi-yu, kazaklar qilmishlaridan pushaymon bo‘lib, boshliqlarga bosh egib borsalar nima bo‘ladi?» — deb o‘ylar edi.

Turilin go‘yo uning fikrini bilganday oldiga kelib:

— Ivan, uxladingmi? — deb so‘radi.

— Yo‘q hali.

Turilin uning oyoq tomoniga o‘tirib oldi-da, tamakisining uchqunini sachratib, shivirladi:

Kazaklarning kayfi buzuq... Qilg‘ilikni qilib qo‘yib, endi yuraklari po‘killayapti. Ishni... pishiq qilmadik, nima deb o‘ylaysan, a?

— Keyin ma’lum bo‘ladi, — dedi Ivan Alekseyevich xotirjamlik bilan. — Sen o‘zing qo‘rqayotganing yo‘qmi?

Turilin furajkasi ostiga qo‘lini suqib qashindi-da, og‘zini qiyshaytirib kuldi:

— Rostini aytsam, qo‘rqyapman... Boshda qo‘rqmadim-u, hozir yuragim orqamga tortib ketyapti.

— Qasos olish payti kelganda «vit» der ekansan-da.

— Axir, Ivan, ularda kuch ko‘p.

Ular anchagacha indamay o‘tirdilar. Qishloq uylarining chiroqlari o‘chdi. Qayerdandir, tol o‘sib ketgan ko‘kalamzor botqoqlikning bir chekkasidan o‘rdaklarning g‘ag‘alagani eshitilardi.

— O‘rdaklarning zo‘ri g‘ag‘alayapti, — dedi Turilin o‘ylanqirab, so‘ngra nafasi ichiga tushib ketdi.

O‘tloq ustiga orombaxsh tun sukunati cho‘kkan edi. Kazaklar yotgan joyga shamol qarag‘ay, chirigan qo‘g‘a, shabnam tushib ho‘l bo‘lgan o‘tlarning hidlarini olib kelardi. Ahyon-ahyonda otlarning oyog‘idagi zanjirning shiqirlashi, kishnashi, yerga ag‘anagan otning dupuri va hansirashi eshitilardi. So‘ngra oraga yana sukunat cho‘kar, uzoq-uzoqlardan yovvoyi nar o‘rdakning g‘ag‘alashi, yaqinroqdagi moda o‘rdakning bergan javobi quloqqa chalinardi. Qorong‘ida ko‘zga ko‘rinmagan va tez uchib o‘tgan qushlarning qanot tovushi kelardi. Tun. Hammayoq jimjit. Tuman bosgan o‘tloqning rutubatli isi anqib turadi. Kunbotar tomonda, osmon etagidagi qora bulutlar oshgan xamirday bo‘kib yotadi. Osmonning o‘rtasida, qadimiy Pskov o‘lkasining qoq tepasida keng karvon yo‘li singari Somon yo‘llari cho‘zilib ketgan.

Tongotarda sotnya yo‘lga chiqdi. Goreloye qishlog‘idan o‘tar ekan, sigirlarini haydab chiqqan ayollar, bolalar kazaklarning orqasidan qarab qoldilar. Oftob nuridan qizargan tepa ustiga chiqib tomosha qildilar. Turilin atrofga qarab, oyog‘i bilan Ivan Alekseyevichning uzangisini turtdi.

— Uni qara, orqamizdan otliqlar chopib kelyapti, — dedi.

Qo‘ng‘ir chang-to‘zon ichida ot choptirib kelayotgan uch suvoriy qishloqdan o‘tgan edi.

— So-o-tnya, to‘x-ta! — deb komanda berdi Ivan Alekseyevich.

Kazaklar odatdagi chapdastlik bilan to‘rtburchak shaklida tizildilar. Suvoriylar yarim chaqirim yo‘l qolganda otlarini asta yo‘rttirib kela boshladi. Ulardan biri, kazak ofitser dastro‘molini olib boshi ustida silkita boshladi. Kazaklar kelayotgan otliqlardan ko‘zlarini olmay qarab turar edilar. Pistoqirang mundir kiygan ofitser oldinda, cherkascha mundir kiygan ikki otliq orqaroqda kelar edi.

Ivan Alekseyevich ularga peshvoz yurib:

— Nima ish bilan? — deb so‘radi.

Ofitser qo‘lini shapkasining soyaboniga tegizib:

— Muzokara olib borish uchun, — dedi. — Sotnyani qaysi biringiz qabul qilib oldingiz?

— Men.

— Men Birinchi Don kazaklar diviziyasining vakiliman, bular, ko'zi bilan tog'liklarga ishora qilib ko'rsatdi, — mahalliy diviziya vakillaridir. — Ofitser jilovni qattiq tortib, sovundek ko'pirib ketgan otining terga botgan silliq bo'yniga sekin urib qo'ydi. — Agar muzokara olib borishni istasangiz, kazaklarga otdan tushishni buyuring. Men diviziya komandiri general-mayor Grekovning og'zaki buyrug'ini sizga aytgani keldim.

Kazaklar otlaridan tushdilar. Kelgan vakillar ham egardan tushishdi-da, kazaklar orasidan o'tib, o'rtaga tushib olishdi. Kazaklar chekkaga chiqib kichik bir davra yasashdi.

Avval kazak ofitser gap boshladi:

— Kazaklar! Biz sizlarni o'z fikringizdan qaytishga da'vat etmoq va qilgan ishingizning xunuk oqibatidan sizni saqlab qolmoq uchun keldik. Kecha diviziya shtabi sizning allaqanday buzg'unchi odamlar so'ziga kirib, o'zboshimchalik bilan vagonlardan tushib jo'naganingizdan xabardor bo'ldi, bugun bizni, darhol Dno stansiyasiga qaytish to'g'risida berilgan buyruqni sizga yetkazish uchun yubordi. Tog'liklar diviziya askarlari va boshqa kavaleriya qismlari kecha Petrogradni ishg'ol qildilar, bugun telegramma keldi. Bizning ilg'or qismlarimiz poytaxtga kirib, barcha hukumat muassasalari, banklar, telegraf, telefon stansiyalari va hamma muhim joylarni ishg'ol qildilar. Muvaqqat hukumat qochdi, u endi yiqitilgan deb hisoblanadi. Kazaklar, es-hushingizni yig'ib oling! Siz jar yoqasida turibsiz, axir! Basharti, diviziya komandiriga itoat etmasangiz, ustingizga qurolli kuchlar yuboriladi. Sizning qilgan ishingizga xiyonat deb, harbiy topshiriqni bajarishdan bosh tortish deb qaraladi. Siz so'zsiz itoat qilish yo'li bilangina qon-qardosh urushining oldini olgan bo'lasiz.

Vakillar yetib kelgach, Ivan Alekseyevich kazaklarning ahvol-ruhiyalarini hisobga olib, muzokaralardan bosh tortish mumkin emasligini angladi, chunki muzokaralarga rozi bo'lmaslik teskari natija berishi muqarrar edi. Shu mulohaza bilan u sotnyaga otdan tushishga buyruq bergan va o'zi Turilinga ko'z qisib qo'yib, vakillarga yaqin-

roq borib turgan edi. Ofitser nutq qilayotgan paytda, kazaklarning yerga qarab qovoqlarini solib quloq tutayotganlarini ko'rdi; ba'zilari shivirlasha boshladilar. Zaxar Korolyov og'zini qiyshaytirib kular, qora cho'yanga o'xshash quyma soqoli ko'ylagining ustiga tushib turardi; Borshchyov qamchisini o'ynatar, yon tomoniga ko'z qirini tashlab qo'yardi. Pshenichnikov og'zini karrakdek ochganicha, gapirib turgan ofitserning ko'ziga anqayib qarab qolgan edi. Martin Shamil kir-chir qo'li bilan chakkasini ishqalab, ko'zlarini pirpiratar; uning orqasidagi Bagrovning ahmoqona yuzi sarg'ayib ketgan; pulemyotchi Krasnikov bir narsani kutganday ko'zlarini qisib boqar; Turilin pishillab nafas olardi; basharasiga sepkil toshgan Obnizov furajkasini gardaniga surib qo'yib, bo'yniga bo'yinturuq tushganini sezgan ho'kiz kabi kokilli boshini chayqatardi; butun ikkinchi vzvod xuddi ibodat vaqtidagidek boshini ko'tarmay yerga qarab qolgan; g'uj bo'lib turgan olomonning nafasi ichiga tushib ketgan, odamlarning isitmasi chiqib, og'ir-og'ir nafas olar, yuzlarida sarosimalik alomati ko'rinardi...

Ivan Alekseyevich kazaklarning kayfiyatlari o'zgarganini payqab qoldi: bir necha daqiqa o'tsa, mahmadona ofitser butun sotnyani o'z tomoniga og'dirib olishi turgan gap edi. Bir iloj qilib, ofitserning so'zlari qoldirgan taassurotni tarqatib yuborish, kazaklarning miyalarida paydo bo'lgan, lekin so'z bilan ifodalanmagan qarorlarini buzish lozim edi. U qo'lini ko'tarib, katta ochilgan va paxtasi chiqib ketgan ko'zlari bilan olomonga ko'z yugurtirib chiqdi-da:

— Og'aynilar! Bir oz sabr qiling! — dedi, so'ngra ofitserga o'girilib: — Telegramma yoningizdami? — deb so'rab qoldi.

— Qanaqa telegramma? — deb hayron bo'ldi ofitser.

— Petrogradning olingani to'g'risidagi telegramma.

— Telegramma?.. Yo'q. Telegrammaning bunga nima daxli bor?

— Aha! Yo'q! — deb butun sotnya yengillanib nafas oldi.

Ko'plar boshlarini ko'tarib, Ivan Alekseyevichga umid ko'zi bilan qaradi. U esa xirillab qolgan ovozini baland chiqarib, istehzo bilan, zaharxanda qilib o'ziga ishongan holda gapira boshladi va hammaning diqqatini o'ziga jalb etdi.

— Yo'q deyapsanmi? Hammani qo'yib biz senga ishonarmidik? Bizni anoyi deb o'ylovdingmi?

— Aldayapti! — deb kazaklar g'ovur ko'tardi.

— Telegrammani menga yuborishmagan! Kazaklar! — ofitser qo'llarini ko'ksiga bosib, kazaklarni ishontirmoqchi bo'ldi.

Endi uning gapiga hech kim quloq solmay qo'ydi. Ivan Alekseyevich kazaklarning rag'bati va ishonchini qozonganini sezib, gapini do'ndirdi:

— Olingani rost bo'lganda ham, baribir biz bilan sizlarning yo'lingiz bir emas! Biz o'z og'aynilarimiz bilan urushishni istamaymiz! Biz xalqqa qarshi borolmaymiz! Bizni xalqqa qarshi gijgijlamoqchimisiz? Yo'q! Yer yuzida endi ahmoqlar qolgani yo'q! Generallarni hokim qilib boshimizga chiqarib qo'yishni istamaymiz! Shuni bilib qo'ying!

Kazaklar bir og'izdan gapira boshladilar, olomon harakatga keldi, baqiriqlar eshitila boshladi.

— Mana gap bundoq bo'ladi!

— Gapning o'g'il bolasi shu!

— To'g'ri-ye!..

— Bu janoblarni gardaniga urib haydash kerak!

— Voy sendaqa elchilarni...

— Peterburgda uchta kazak polki bor, lekin ular xalqqa qarshi chiqishni o'ylamaydilar ham.

— Hoy Ivan! Tanoblarini tortib qo'y! Tuyoqlarini shiqillatsinlar!

Ivan Alekseyevich kelgan vakillarga qaradi, kazak ofitser lablarini qimtib, sabr qilib turar; bir-birlarining pinjiga suqilgan tog'liklar uning orqasida turishar, qomati kelishgan yosh ofitser-ingush cherkascha bashang mundirining ko'kragiga qo'llarini qo'yib, qora kubankasi ostidan qiyiq ko'zlarini chaqchaytirib, ikkinchisi – yoshi qaytgan qo'ng'irsoch osetin beparvolik bilan oyoqlarini kerib olgan; kaftini egri qilichining dastasiga qo'yib, ko'zlarini javdiratib, kazaklarga masxaraomuz qarab turardi. Ivan Alekseyevich endi muzokaralarni to'xtatmoqchi bo'lib turganida, kazak ofitser undan oldin gapirib qoldi; u ingush ofitser bilan shivirlashib olib, baland ovoz bilan baqirdi:

— Donliklar! Tog'lik diviziya vakilining so'zlashiga ruxsat berasizmi?

Ingush kazaklarning roziligini kutmasdan poshnasiz yumshoq etiklari bilan yurib, davraning o‘rtasiga chiqdi, ensiz, shokilali kamarini asabiylik bilan to‘g‘rilab qo‘yib:

— Kazak qardoshlar! — dedi. — Nechun bu qadar g‘ovg‘a edirsiz? Qizishmasdan so‘ylang. Siz general Kornilovni istamaysiz? Siz vurushmog‘i istaysiz? Marhamat! Biz vurushamiz. Qo‘rqmaymiz. Bu kun sizi ezib to‘zitajag‘iz! Ortimizdan ikki polk dog‘illiklar galmakdadir. Va! G‘ovg‘a etmak naya lozim! — Boshda u xotirjam gapirishga urindi, ammo gapning oxiriga kelib, qizishib kekirdagini cho‘za boshladi; u buzuq talaffuz bilan tomog‘ini qirib gapirar, nutqiga o‘z lahjasidagi so‘zlarni aralashtirib yuborar edi. — Bu kazak sizi yo‘ldan chixarar, u bolshevikdir! Sizda uning ortindan kedirsiniz! Va! Ko‘zlarim ko‘r dagil! Uni hibs eting! Qurolini oling!

U tap tortmay, qo‘llarini bigiz qilib Ivan Alekseyevichni ko‘rsatar, tor davra ichida u yoqdan bu yoqqa yugurib, rangi o‘chgan holda qo‘llarini paxsa qilib gapirar, yuzi bo‘rtib qizarib ketgan edi. Uning o‘rtog‘i, yoshi qaytgan qo‘ng‘ir soch osetin indamay qotib turar; kazak ofitser qilichining eskirgan tasmasini o‘ynardi. Kazaklarning nafasi yana ichiga tushib ketdi, yana ularning oralarida sarosimalik boshlandi. Ivan Alekseyevich ingush ofitserga, uning irshayib turgan oppoq tishlariga, so‘l chekkasidan oqib tushayotgan kulrang terga qattiq tikilar, fursatni bekor qo‘ldan berdim, bir og‘iz so‘z bilan muzokaralarni to‘xtatib, kazaklarni orqamdan ergashtirib ketsam bo‘larkan, deb o‘ylab xunob bo‘lardi. Turilin joniga oro kirib, uni og‘ir ahvoldan qutqardi. U bir sakrashda davraning o‘rtasiga tushib oldi, qo‘llarini silkitib, yoqasining tugmalarini uzib-uzib tashladi-da, og‘zini ko‘pirtirib, tufugini sachrata-sachrata o‘dag‘ayladi:

— Hoy, landavurlar! Hoy, ablahlar!.. Itvachchalar!.. Sizni xuddi axloqsiz ayolni aldagandek avrab aldayaptilar-u... siz bo‘lsangiz shalpangquloqlaringizni osiltirib gaplariga quloq solib o‘tiribsiz!.. Ofitserlar sizni o‘z nog‘oralariga o‘ynatmoqchilar!.. Siz nima qilyapsiz? Nima qilyapsiz?! Ularning kallalarini olish o‘rniga, gaplariga quloq osyapsiz?.. Boshlarini tanlaridan judo qilib, qonlarini suvdek oqizish kerak. Siz bu yerda ular bilan g‘ijillashib o‘tirgan vaqtingizda, bizni qurshab oladilar!.. Pulemyot bilan qirib tashlaydilar. Pulemyot o‘qlari ostida mitingbozlik qilolmaysanlar!

Askarlari yetib kelguncha bu yerda bizni kalaka qilmoqchilar... Eh, kazaklar! Erkak emas, xotinsizlar!

— Otlarga!... — deb baqirdi Ivan Alekseyevich miltiqdek ovozi bilan.

Uning baqirig'i olomon ustida to'p o'qidek yangrab ketdi. Kazaklar otlariga qarab yugurdilar. Bir necha daqiqadan keyin sotnya vzvod-vzvod bo'lib, kolonna shaklida tizildi.

Kazak ofitser jonsarak bo'lib:

— Quloq soling! Kazaklar! — deb baqirdi. Ivan Alekseyevich shartta yelkasidan miltig'ini oldi-yu, bo'g'inlari shishgan barmog'ini tepkiga qo'yib, o'ynoqlagan otining jilovini qattiq tortib, qichqirdi:

— Muzokaralar tamom! Endi agar siz bilan gaplashish kerak bo'lsa, mana bu til bilan gaplashamiz. — Shunday deb u tahdid qilib, miltig'ini o'ynatib qo'ydi.

Sotnya vzvod-vzvod bo'lib yo'lga chiqdi. Kazaklar orqalariga o'girilib qaradilar, vakillar otlarga minib olib, bir narsa to'g'risida maslahatlashayotganlarini ko'rdilar. Ingush ko'zlarini qisib, qo'llarini paxsa qilib, o'z gapini ma'qullamoqchi bo'lar; cherkascha chakmonining qaytarib qo'yilgan yengidagi shohi astari oppoq qordek tovlanardi.

Ivan Alekseyevich qayrilib qarab, ko'zni qamashtiradigan oppoq yeng astarini so'nggi marta ko'rdi va negadir garmsel shamol turgan mahalda chayqala boshlagan Don daryosi, ko'piklangan yashil to'lqinlar, qanotlarining uchini to'lqinlarga tegizib qiyalab uchgan baliqchi qushlar ko'zining o'ngida jonlandi.

XVI

29-avgustda Krimovdan olingan telegrammalardan qurolli to'ntarish ishi mag'lubiyatga uchragani Kornilovga ravshan bo'ldi.

Kunduz soat ikkida bosh qarorgohga Krimovdan ofitser-ordinarets keldi. Kornilov u bilan uzoq gaplashdi, so'ngra Romanovskiyni chaqirtirdi; asabiy holda qandaydir bir qog'ozni g'ijimlab gapirdi:

— Ishlar xarob! O'yinni yutqizdik... Krimov korpusni o'z vaqtida Petrograd yaqiniga to'play olmaydi, fursat qo'ldan ketayotir. Osonlik

bilan amalga oshirish mumkinday ko'ringan ish ming to'siqqa uchrayotir... Ishimizning oqibati xunuk bo'ladiganga o'xshaydi... Mana... qarang, qo'shinlar eshelon-eshelon bo'lib qanday joylashgan! — U Romanovskiyga korpus va tog'liklar diviziyasi tushgan eshelonlar to'xtagan so'nggi stansiyalar qalam bilan chizib ko'rsatilgan xaritani ko'rsatdi; uyqusizlikdan so'lgan jiddiy yuzi tirishib ketdi. — Butun temiryo'lchi ablahlar yo'limizga g'ov bo'lyaptilar, bilmaydilarki, agar ishimiz o'ngidan kelsa, ularning har o'ntasidan bittasini dorga torttiraman. Krimovning yuborgan ma'lumoti bilan tanishing.

Romanovskiy yapaloq kafti bilan xo'ppa semiz yuzini siypalab ma'lumotnomani o'qir ekan, Kornilov shoshib-pishib quyidagilarni yozdi.

Novocherkassk, qo'shin atamani
Aleksey Maksimovich Kaledinga.

Sizning Muvaqqat hukumatga yuborgan telegrammangizning mazmuni bilan meni tanishtirdilar. Xoinlar va sotqinlarga qarshi natijasiz kurash olib borgan, toqati toq bo'lgan shonli kazaklar, o'z mehnati va qoni bilan o'stirib voyaga yetkazgan vatanlarining mahv bo'layotganini ko'rib, qurol kuchi bilan uning hayoti va ozodligini saqlab qolajakdirlar. Bir-birimiz bilan aloqa qilish bir muddat qiyinlashishi mumkin. Men bilan bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishingizni iltimos qilaman, chunki vatanga bo'lgan muhabbat va kazaklik sharafi shunday qilishni taqozo etadi.

658.29.8.17.
General Kornilov.

U yozib tugatgach:

— Shu telegrammani darhol yubortiring, — deb Romanovskiydan iltimos qildi.

— Knyaz Bagrationga saf tortib yurishni davom ettirish to'g'risida ikkinchi marta telegramma yuborishni amr etasizmi?

— Ha, shunday.

Romanovskiy bir oz jim turib, o'ylanqirab:

— Lavr Georgiyevich, — dedi, — menimcha hali umidsizlikka tushishga asos yo'q. Siz voqealarning oqibatiga noto'g'ri baho beryapsiz...

Kornilov shoshqaloqlik bilan qo'lini ko'tarib, boshi ustida uchib yurgan jajjigina zangori kapalakni ushlab olmoqchi bo'ldi. Uning panjalari qisildi, chehrasida yengil bir intizorlik alomati ko'rinardi. Havo to'lqinida o'ynagan kapalak pastlashib, qanotlarini hilpiratib, ochiq derazadan uchib chiqib ketishga harakat etardi. Kornilov axir uni tutib oldi-yu, yengil nafas olib kresloning orqa suyanchig'iga o'zini tashladi.

Romanovskiy gapiga javob kutardi, ammo Kornilov xayolga botib, vazminlik bilan kulimsirab hikoya qila ketdi.

— Bugun bir tush ko'ribman. Go'yo piyoda diviziyalardan biri-ning brigada komandiri emishman. Karpat tog'larida hujumga o'tgan emishman. Shtab bilan qandaydir bir dehqonning qo'rg'oniga yetib kelibmiz. Bizni o'rta yoshli, bashang bir rus kishi qarshilabdi. U meni sut bilan siylabdi-da, boshidan oppoq namat shlapasini olib, sof nemis tilida: «Ich, general! Bu — haddan ziyoda shifoli sut», — debdi. Men sut ichar ekanman, rusinning betakalluflik bilan yelkam-ga qoqib qo'yganiga ajablanmas emishman. Keyin tog'dan toqqa oshib ketdik, endi Karpatlarda emas, Afg'onistonda, yolg'izoyoq tor so'qmoqda yo'ldan ketayotgan emishmiz... Ha, yolg'izoyoq yo'ldan, oyog'imiz ostidan toshlar va sarg'ish shag'al-qumlar ko'chib pastga dumalamoqda emish, pastlikda, daraning narigi tomonida zarrin qu-yosh nuriga cho'mgan ajoyib janub manzarasi ko'rinib turarmish...

G'urullab kirgan yengil shamol stol ustidagi qog'ozlarni hil-piratib, lang ochiq derazadan chiqib ketib turardi. Kornilov xira ko'zlarini uzoqlarga tikar, Dneprning nariyog'idagi o'nqir-cho'nqir do'ngliklarga, uzun-uzun sariq yo'l tushgan maysazorlarga qarar edi.

Romanovskiy ham u tikilib turgan joylarga qarab, sekin xo'rsinib qo'ydi-da, yuzini o'girib, dimlikda oynadek yarqirab turgan Dnepr-ga, erta kuzning subhidami rangini o'chirgan tumanli dalalarga tikilib qoldi.

XVII

Petrograd ustiga yuboriladigan 3-otliqlar korpusining qismlari va tog'liklar diviziyasi keng masofadagi sakkiz temir yo'l bo'ylab eshe-lon-eshelonlarga bo'linib joylashgan edi. Ravel, Vezenberg, Narva, Yamburg, Gatchina, Somrino, Viritsa, Chudovo, Gdov, Novgorod,

Dno, Pskov, Luga va oraliqdagi barcha stansiya va razyezdlar adashib qolgan, lekin juda imillab harakat qilayotgan eshelonlar bilan tirband edi. Polklar yuqori komanda tarkibining ma'naviy ta'siridan chetda edi, tarqoq sotnyalar esa o'zaro munosabatni yo'qotgan edilar. Ishkallik shunday chuqurlashdiki, tog'liklar diviziyasi bilan kuchaytirilgan korpus poxod mahalida armiyaga aylana boshlagan edi. Ma'lum darajada qismlarni almashtirish, tarqoq qismlarni to'plash, eshelonlarni qaytadan tuzish kerak edi. Bu ishlar hammasi o'taketgan chalkashlik tug'dirar, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan buyruqlar shundoq ham avjga chiqqan asabiy holatni yanada kuchaytirardi.

Kornilov armiyasining eshelonlari temiryo'l ishchi va xizmatchilarining qarshiligiga uchrab, o'z yo'lidagi to'sqinliklarni bartaraf qilib, Petrograd sari asta oqib kelar, stansiyalarda to'planib, yana tarqalib ketardi. Qizil vagonlardagi egarlog'liq, och otlar yonida ovqatsiz qolgan donliklar, ussuriyaliklar, Orenburg, Nerchin, Amur kazaklari, ingushlar, cherkaslar, kabardinlar, osetinlar, dog'istonliklar uymalashib turishardi. Eshelonlar jo'nalishlarini kutib, stansiyalarda soatlab to'xtab qolar, otliqlar duvullashib vagonlardan tushib, xuddi chigirtkadek vokzalga yopirilib kirar, temir yo'l izlarida to'dalashib, ilgari o'tib ketgan eshelonlardan qolgan yegulik narsalarni talashib yerdilar. Payt poylab turib, o'g'rilik qilib, ozuqa omborlarini talar edilar.

Kazaklarning shimlaridagi to'q sariq hoshiyalar, yengil otliq askarlarning olifta nimchalari, tog'liklarning cherkascha chakmonlari... Shimolning ranglarga kambag'al bo'lgan tabiati bu xil rango-rang bo'yoqlarni bir umr ko'rmagan edi.

29-avgustda Pavlovsk yonida knyaz Gagarin qo'mondonligi ostidagi tog'liklar diviziyasining 3-brigadasi dushmanga betma-bet kelgan edi. Diviziyaning boshida ketayotgan ingush va cherkas polklari yo'lning buzilgan joyiga kelib to'xtab qoldi-da, vagonlardan tushib, saf tortib Sarskoye Selo sari yo'l oldi. Ingush otryadlari Somrino stansiyasiga kirib bordi. Polklar shoshilmasdan hujumni kuchaytirib. diviziyaning qolgan qismlari yetib kelishini kutar, gvardiyachilarni surib borar edi. Diviziya qismlari esa Dno stansiyasida o'zlarini jo'natishlarini kutmoqda edilar. Ulardan ba'zilari hali bu stansiyaga yetib ham kelmagan edi.

Tog'liklar diviziyasining komandiri knyaz Bagration stansiya yaqinidagi bir pomeshchik qo'rg'onida qolgan qismlarning to'planishini kutib yotar, Varitsa ustiga qo'shin tortib borishga jur'at etolmas edi.

Yigirma sakkizinchi avgustda u Shimoliy front shtabidan quyidagi telegrammaning nusxasini oldi.

3-korpus komandiri va 1-Don. Ussuriya va Kavkaz tog'liklar diviziyalarining boshliqlariga oliy bosh qo'mondonning buyrug'ini topshirishni so'rayman: basharti nazarda tutilmagan biror ahvol sabab bo'lib, temir yo'llarda eshelonlarning harakatiga monelik tug'ilsa, oliy bosh qo'mondon diviziyalarga saf tortib olg'a harakat qilishni buyuradi, 1917-yil 27-avgust № 6411. Romanovskiy.

Soat 9 da Bagration telegraf bilan, ertalab soat 6-yu 40 daqiqada Petrograd okrug shtabining boshlig'i polkovnik Bagratuni orqali Kerenskiydan barcha eshelonlar qaytarilsin, degan mazmunda buyruq olganini va diviziya eshelonlari Gachki razyezdi bilan Oredej stansiyasi o'rtasidagi yo'lda ushlanib qolganini, Muvaqqat hukumatning farmoniga binoan, temiryo'l ma'muriyati poyezdlarni jo'natishga ijozat bermayotganini Kornilovga xabar qildi. Biroq shunga qaramay, Kornilovdan olingan rezolyusiyada shunday deyilgan edi.

Knyaz Bagrationga. Temiryo'l orqali qilinayotgan harakat davom ettirilsin. Basharti temiryo'ldan yurishning imkoni bo'lmasa, Lugagacha saf tortib borilsin. U yerda general Krimovga batamom itoat qilinsin.

Bagration saf bo'lib jo'nashga jur'at etolmay korpus shtabini vagonlarga joylashtirishga buyruq berdi.

Bir vaqtlar Yevgeniy Listnitskiy xizmat qilgan polk 1-Don kazaklar diviziyasi sostaviga kirgan boshqa polklar bilan birlikda Revel–Vezenberg–Narva yo'llari orqali Petrograd ustiga yuborildi. 28-avgust kunduz soat 5da polkning ikki sotnyasi tushgan eshelon Narvaga yetib keldi. Eshelon komandiri kechasi jo'nash mumkin emasligidan darak topdi. Narva bilan Yamburg o'rtasidagi yo'l buzilgan, temiryo'l batalyon qismi shoshilinch poyezdi bilan o'sha yoqqa jo'natilgan ekan. Agar ertalabgacha yo'l tuzatilsa, eshelon yo'lga tu-

shadi. Eshelon boshlig'i chor-nochor bunga ko'ndi. So'kinib o'z vagoniga chiqib, yangilikni ofitserlarga so'zlab berdi, ular bilan choy ichgani o'tirdi.

Qorong'i tushishi bilan havoni bulut qopladi, ko'rfaz tomondan rutubatli izg'irin esdi. Temiryo'l izlari ustida vagonlarda kazaklar g'o'ng'illashib gaplashishar, parovoz gudoklaridan cho'chigan otlar vagon taxtalarini tuyoqlari bilan dukullatardi. Eshelonning eng ketida yosh bir kazak yigit qo'shiq aytar, qorong'ilik ichida kimgadir zorlanardi.

Alvido, ey shahar, xayr ey qishloq,
Alvido, sevikli qadrdon xutor!
Alvido, ey dilbar va nozanin qiz,
Alvido, qip-qizil gulday go'zal yor!
Bir mahal oqshomdan tong otgungacha,
Yorimning qo'lida yotardi boshim,
Endi-chi? Sahardan quyosh botguncha,
Qo'limdan tushmaydi, miltiq yo'ldoshim.

Kulrang mol ombori orqasidan bir kishi chiqib, ashulaga quloq solib turib qoldi. Sarg'ish nur sochib lipillab turgan chiroqlarga va temiryo'l izlariga nazar tashladi-da, shahdam eshelon tomon qarab yurdi. Shpallarni bosganda qadam tovushi shipillab eshitilar, zarang bo'lib ketgan qumloq yerni bosganda tovush chiqmas edi. Eng orqadagi vagon yonidan o'tganda eshik oldida turgan kazak qo'shig'ini to'xtatib, uni chaqirdi:

— Kimsan?

— Senga kim kerak o'zi? — dedi yo'lovchi istar-istamas.

— Kechasi nima qilib tentirab yuribsan? Biz sendaqa o'g'rilarni shartta otib tashlaymiz. Qulay narsa axtarib yuribsanmi?

Yo'lovchi unga javob qilmay, sostavning o'rtasigacha bordi, so'ngra vagon eshigidan boshini suqib so'radi:

— Qaysi sotnya?

— Mahbuslar sotnyasi, — deb kulishdi qorong'ilik ichidan.

— Hazil qilmalaring, qaysi sotnya?

— Ikkinchi.

— To'rtinchi vzvod qayerda?

— Boshdan sanaganda oltinchi vagonda.

Oltinchi vagon oldida uch kazak tamaki chekar, bittasi cho'nqayib olgan, ikkitasi uning yonida turardi. Ular o'zlari tomon kelayotgan kishiga indamay qarab turishardi.

— Salomatmisizlar, qishloqilar?

Kazaklardan biri kelgan kishining yuziga tikilib:

— Xudoga shukur, — dedi.

— Nikita Dugin omonmi? O'zi qayda?

Cho'nqayib o'tirgan kazak jingillab:

— Men bo'laman, — dedi-da, o'rnidan turib, poshnasi bilan papirosini ezib tashladi. — Seni tanimayapman? Qayerliksan, kimsan o'zing? — U sersoqol yuzini oldinga cho'zib, shinel va g'ijimlangan furajka kiygan notanish kishini tanib olmoqchi bo'ldi, lekin birdan hayron bo'lib, tomog'ini qirib: «Ilya! Bunchukmisan? Og'aynichalish, qaysi go'rdan paydo bo'pqolding?» deb yubordi. So'ngra Bunchukning jun bosgan g'udur panjasini ushlaganicha unga tomon engashib asta dedi:

— Bular o'zimiznikilar, ulardan qo'rqib o'tirma. Bu yerga qayerdan kepqolding? Ayt, jin urgur!

Bunchuk boshqa kazaklar bilan qo'l olishib ko'rishgach, xirillab qolgan pang' ovoz bilan javob qildi:

— Piterdan keldim, sizlarni arang qidirib topdim. Zarur ish bor. Maslahatlashib olishimiz kerak. Og'ayni, seni eson-omon ko'rganimga xursandman.

Bunchuk kulib turardi. Uning yapaloq yuzi bo'zargan, tishlari oqarib ko'rinar, ko'zlari esa iliq, xotirjam va quvnoq chaqnar edi.

— Maslahatlashish? — deb so'radi sersoqol Dugin jingillab.

— Sen ofitser bo'lsang ham, biz bilan jo'ralik qilishdan hazar qilmaysan. Xudo xayringni bersin, Ilyusha, rahmat! Biz umrimizda birovdan shirin so'z eshitganimiz yo'q... — Uning ovozida loqayd va beg'araz kulgi ohangi bor edi.

Bunchuk ham gapni hazilga aylantirib:

— Yetar, bas qil, gapni aylantiraverma, sen doim hazillashganing hazillashgan. Soqoling tizzangga tushay debdi-yu, hazilingni qo'ymaysan, — dedi.

— Soqolni har vaqt shartta qirdirib tashlayversa bo‘ladi, qani, sen ayt-chi, Piterda nima gap? Alg‘ov-dalg‘ovlar boshlandimi?

— Yur, vagonga chiqaylik, — dedi Bunchuk bir narsani gapirib bermoqchi bo‘lgandek.

Ular vagonga chiqdilar. Dugin kimnidir oyog‘i bilan turtib, asta dedi:

— Hoy, yigitlar, turinglar. Bir kerakli mehmon kepqoldi. Bo‘-linglar, kazaklar, tezroq!

Kazaklar inqillab-sinqillab o‘rinlaridan tura boshladilar. Kaftidan tamaki va ot teri hidi kelgan allakim katta qo‘li bilan qorong‘ida, egar ustida o‘tirgan Bunchukning yuzini paypaslab, do‘rillab:

— Bunchukmisan? — dedi.

— Ha. Sen Chikmasovmisan?

— Ha, ha. Salom, og‘ayni!

— Salom.

— Yugurib borib, uchinchi vzvoddagi yigitlarni chaqirib kelay.

— Mayli, chop.

Uchinchi vzvoddagilar hammasi keldi. Ulardan ikki kishigina ot-lar yonida qoldi. Kazaklar Bunchuk yoniga yaqin kelib, qadoq bos-gan g‘udur qo‘llarini uzatishar, fonar yorug‘ida uning tumtaygan yalpoq yuziga tikilishar, uni dam Bunchuk, dam Ilya Mitrich, dam Ilyusha deb chaqirishardi. Lekin tovushlarning hammasida do‘stona iliq ohang bor edi.

Vagon ichi dim bo‘lib ketdi. Taxta devorlarga fonar yallig‘i tu-shib o‘ynar, beso‘naqay soyalar dam cho‘zilib, dam kichrayib chay-qalar, fonar go‘yo qora chiroqdek tutab yonardi.

Bunchukni hurmatlab chiroqqa yaqin o‘tirg‘izdilar. Oldingilar cho‘nqaydilar, qolganlar esa gir aylanib davra yasab turdilar. Dugin yo‘talib, jingillab:

— Ilya Mitrich, xatingni tunovi kuni oldik. Shunday bo‘lsa ham hamma gapni o‘z og‘zingdan eshitmoqchimiz. Bundan keyin nima qilishimizni bir aytib bersang. Bizlarni Piterga qarab haydab ketyap-tilar. Ilojimiz qancha, — dedi.

Eshik yonida turgan, qulog‘ining burishib ketgan go‘shtiga halqa taqqan kazak:

— Ko‘ryapsanmi Mitrich, gap shunaqa, — dedi. Bu — Listnitskiy bir vaqtlar okop to‘sig‘i ustida choy qaynattirmagan va xafa qilgan kazak edi: — Bizning oldimizga har xil agitatorlar kelib, Petrograd ustiga bora ko‘rmanglar, o‘zaro urushimizdan foyda yo‘q, degan gaplarni aytib, bizni yo‘ldan uryaptilar. Biz ularning gapiga quloq solsak hamki judayam ishonmaymiz. Begona odamlar. Balki ular bizni laqillatishayotgandir, kim bilsin. Yo‘q desang, Kornilov cherkaslarni ustimizga yuboradi.

Yana xunrezlik boshlanadi. Sen esa o‘zimizning kazaklardansan. Senga ko‘proq ishonamiz. Piterdan yozgan xatlaring uchun boshimiz osmonga yetdi. Gazetalar esa... rostini aytsak, bu yerda qog‘oz tanqis... gazeta olib turibmiz.

— Nimalar deb valdirayapsan, tentak buzoq, — dedi kazaklardan biri bo‘g‘ilib. — O‘zing savodsiz bo‘lganing uchun hammamizniyam nodon deb o‘ylayapsanmi? Go‘yo biz gazetaga tamaki o‘rab chekayotgan emishmiz. Nafsilamrini aytganda, Ilya Mitrich, biz avval gazetani boshdan oyoq o‘qiymiz.

— Yolg‘onniyam do‘ndirasan-da...

— «O‘rab chekamiz» deyishini qara-yu.

— Tentakning katta-kichigi bo‘lmaydi.

— Og‘aynylar, men unaqa demoqchi emasdim, — deb o‘zini oqlay boshladi halqa taqqan kazak. — Rost, boshda biz gazetani o‘qirdik.

— O‘zingiz o‘qirmidingiz?

— Menga savod nasib bo‘lmagan. Shuning uchun yoppasiga o‘qirdik, keyin tamaki o‘rardik.

Bunchuk miyig‘ida kulib, egar ustida kazaklarga nazar tashlab o‘tirardi. O‘tirib gapirish o‘ng‘aysiz bo‘lganidan tik turib, chiroqqa orqasini o‘girib, xirillab asta gap boshladi:

— Petrogradda sizlarga pishirib qo‘ygani yo‘q. U yerda hech qanday alg‘ov-dalg‘ov yo‘q. Bilyapsizlarmi, sizlarni nega u yerga yuboryaptilar. Muvaqqat hukumatni ag‘darish uchun. Sizlarni kim boshlab ketyapti? Podsho generali Kornilov. Kerenskiyni ag‘darish unga nima uchun kerak? Uning o‘rniga o‘zi o‘tirish uchun. Ogoh bo‘linglar, kazaklar. Bo‘yinlaringdan yog‘och bo‘yinturuqni olib tashlab, po‘lat bo‘yinturuq kiygizishmoqchi! Ikki ofatdan kichikrog‘ini tanlash kerak. Shunday emasmi? O‘zlaring bir o‘ylab ko‘ringlar. Podsho za-

monasida tumshuqlaringga tushirishardi. Urushda sizlarning panjangiz bilan olov olishardi. Kerenskiy davrida ham shunday qilishyapti, lekin tumshuqqa tushirishmaydi. Ammo lekin Kerenskiydan keyin, hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tgach, butunlay boshqacha bo'ladi. Bolsheviklar urushishni istamaydi. Hokimiyat qo'llariga o'tishi bilanoq darrov yarash-yarash qilishadi. Men u nobakor Kerenskiy tarafdori emasman. Ularning hammasi bir go'r. — Bunchuk kulib qo'ydi-da, peshona terini yengi bilan artib gapida davom etdi. — Men sizlarni ishchilarning qonini to'kmaslikka da'vat qilaman. Agar Kornilov hukumat boshlig'i bo'lsa, butun Rossiya tizza bo'yi ishchilar qoniga botadi. U tepamizga chiqsa, hokimiyatni undan tortib olish va uni mehnatkash xalq qo'liga olib berish mushkulroq bo'ladi.

Bunchuk singari girdig'um kazak orqaroqdan chiqib kelib:

— Shoshma, shoshma, Ilya Mitrich, — dedi. So'ngra yo'talib, keksa daraxtning tomiriga o'xshagan uzun dastpanjasini artib, Bunchukka kulimsiragan ko'kish bit ko'zlari bilan qattiq tikilib dedi: — Sen hali bo'yinturuq to'g'risida gap ochding... Bolsheviklar hukumatni qo'lga olgandan keyin bo'ynimizga qanaqa bo'yinturuq taqishadi?

— Sen, nima, o'z bo'yningga o'zing bo'yinturuq taqasanmi?

— Nega o'zimga o'zim?

— Nega deganingda, bolsheviklar hokimiyatni olsa, hukumat boshida kim o'tiradi? Agar seni saylashsa — sen yoki Dugin, yo esa manavi amakim. Sovet — saylanib qo'yiladigan hokimiyat. Tushundingmi?

— Eng yuqorida kim o'tiradi?

— Kimni saylasalar, o'sha o'tiradi. Agar seni saylashsa — sen.

— Rostdan-a? Yolg'on aytayotganing yo'qmi, Mitrich?

Kazaklar kulib yuborishdi. Hammasi chuvullab gapira boshladi, hatto eshik yonidagi soqchi ham turgan joyini besh daqiqaga tark etib, gapga aralashdi.

— Ular yer masalasiga qanday qaraydilar?

— Yerlarimizni tortib olmaydilarmi?

— Urushni tugatadilarmi? Yoinki, yonimizni olsinlar deb hozir shunaqa va'da beryaptilarmi?

— Sen bizga gapning po'stkallasini aytib ber!

— Biz bu yerda ko'r mulladekmiz.

— Yot odamlarga ishonish xavfli. Dunyoda nima ko'p, yolg'on gap ko'p...

— Kecha bir matros kelib, Kerenskiyning holiga yig'ladi, biz uning sochidan ushlab, vagondan itarib yubordik.

— «Siz aksilinqilobsiz» deb shovqin soldi, tentak!

— Biz bunday so'zlarni tushunmaymiz. Nima degani u?

Bunchuk alanglab, kazaklarni boshdan oyoq ko'zdan kechirar, gapdan to'xtashlarini kutib turardi. Boshda o'zi mo'ljallagan narsani uddalashga ko'zi yetmagan bo'lsa, endi kazaklarni o'z tomoniga og'dirib olgandan so'ng, harqalay eshelonlarni Narvada to'xtatib qolishga ishonchi komil bo'ldi. Bir kun avval u Petrograd rayon partiya komitetiga kelib, Petrograd ustiga kelayotgan birinchi Don diviziyasida tashviqot ishlarini olib borish uchun o'zini yuborishlarini taklif etganida, muvaffaqiyat qozonishga ishonar edi. Ammo Narvaga yetib kelgandan keyin, muvaffaqiyat qozonishiga ko'zi yetmay qoldi. U kazaklar bilan bir nav boshqacha so'zlar bilan gaplashish kerakligini angladi-yu, lekin ular bilan umumiy bir til topib gaplasha bilmasligini his etib yuragi po'killay boshladi, chunki u bundan to'qqiz oy burun ishchilar muhitiga qaytib kelib, ishchilar ommasi o'rtasida ildiz ota boshlagan, og'iz ochishi bilan uning gaplarini tushunishlariga va his etishlariga o'rganib qolgan edi. Bu yerdagi hamqishloqlari bilan esa yarim unutilgan, qora xalq tili bilan gaplashishi, pechanlik ko'rsatishi, ularni ishontira bilishi, ularning yuragiga o't solishi, asrlardan beri suyak-suyaklariga singib qolgan itoatgo'ylik hissini yo'qotishi, qaysarliklarini yengishi va o'zining haqli ekaniga ishontirib, ularni o'z orqasidan ergashtirishi kerak edi.

Dastavval, gapira boshlaganida o'z tovushida ishonchsizlik, soxtalik borligini sezar, go'yo o'zining shirasiz so'zlariga chetdan turib quloq solgandek, keltirgan dalillarining tuturiqsizligidan dahshatga kelar, miyasini ishlatib, salmoqli so'zlar topish va bular yordami bilan kazaklarning qaysarligini yengishni istar edi... lekin buning o'rniga og'zidan sovun ko'pigiday yengil gaplar otilib chiqqanini, miyasida bo'sh va kurakda turmaydigan fikrlar bir-biriga qorishib yotganini payqab, yuragi qon bo'lar edi. U qora terga botib, hansirab turardi. So'zlar ekan: «Menga shunday katta bir ishni topshirdilar-u, men bo'lsam, uni o'zim chatoq qilayotirman. So'zlarim bir-biriga

qovushmaydi... Menga nima bo'ldi-ya? Mening o'rnimda boshqasi bo'lsa, ming marta yaxshiroq gapirgan va ishontirgan bo'lardi... Uh, naqadar no'noq odamman-a!» deb o'ylar, bu fikr miyasini kavlar edi.

Bo'yinturuq haqida savol bergan ko'kko'z kazak uni bu mushkul ahvoldan qutqardi; shundan keyin boshlangan suhbat Bunchukka es-hushini yig'ishtirib, o'zini o'nglab olishga yordam berdi. Shundan so'ng u kuchiga kuch qo'shilib, xayoliga ravshan, o'tkir, achchiq so'zlar kelganini sezib o'zi hayron qoldi, yuzidagi xotirjamlik niqobi ostida hayajonlarini yashirib, qaltis savollarga salmoqli, o'tkir va keskin javoblar berdi, go'yo minishga o'rgatilmagan asov otni minib, sovunday ko'pirtirib, yuvoshlantirgan otliqday, suhbat jilovini qo'liga oldi.

— Xo'sh, ayt-chi, Uchreditelnoye sobraniyening nimasi yomon?

— Sizning Leniningizni nemislar keltirganmi-a?

— Mitrich, to'g'risini ayt, sen bu yerga o'z xohishing bilan keldingmi yoki seni yubordilarmi?

— Don qo'shini yerlari kimlar qo'liga o'tib ketadi?

— Podsho zamonida biz yomon yasharmidik?

— Mensheviklar ham xalq tarafdori emasmi?

— Bizda Qo'shin kengashi bor, hokimiyat xalqniki, bizga Sovetlarning nima keragi bor? — deb so'rab-surishtirar edilar kazaklar.

Kazaklar yarim kechada tarqalishdi. Ertasiga ertalab, har ikkala sotnyani to'plab miting o'tkazishga qaror qilishdi. Bunchuk uxlagani vagonda qoldi. Chikamasov unga o'zi bilan birga yotishni taklif qildi. U yotish oldidan cho'qinib olib, joy solar ekan:

— Sen, Ilya Mitrich, qo'rqmasdan yotaver, lekin aybga buyurmaysan... biroz bitlaganmiz. Agar bit yuqtirsang, xafa bo'lma. G'amimiz ko'pligidan bit ko'payib ketgan, asti qo'yasan! Har biri naq buzoqdek keladi. — Keyin bir oz sukut qilib turgandan keyin so'radi: — Ilya Mitrich, Lenin o'zi qaysi xalqdan? Xullas, qayerda tug'ilib o'sgan?

— Leninmi? Lenin — ruslardan.

— Yo'g'-e!

— Rostini aytayotirman, rus.

— Yo'q, do'stim! Ko'rinib turibdiki, sen uni yaxshi bilmaysan, — dedi Chikamasov bu haqda ko'p narsa bilgan odamday mag'rurlanib. Uning nasl-nasabini bilasanmi? Bizlardan. O'zi Don kazaklaridan,

Salsk okrugi, Velikoknyajesk stanitsasida tug'ilgan, tushundingmi? To'pchi bo'lib xizmat qilgan deyishadi. Uning aft-boshi ham noppanozanday, quyi Don kazaklariniki singari yonoqlari chiqiq, ko'zlari ham qiyiq emish.

— Qayoqdan eshitding?

— Kazaklar gaplashib turganda eshitib qoldim.

— Yo'q, Chikamasov! U — rus, Simbirsk guberniyasida tug'ilgan.

— Gapingga ishonmayman. Ovora bo'lma, ishonib bo'pman! Pugach kazakmi — kazak? Stepan Razin-chi? Yermak Timofeyevich-chi? Bilib qo'y! Ular yo'qsil xalqni podshoga qarshi oyoqlantirgan, hammasi kazaklardan. Sen bo'lsang Simbirsk guberniyasidan deysan. Bunday gapni sendan eshitish ayb, Mitrich...

Bunchuk kulib turib:

— Shunday deb kazak deyishadimi-a? — deb so'radi.

— O'zi-ku kazak-a, lekin hozircha o'zini ko'rsatmay turibdi. Men bir odamning aftiga tikilsam, darrov kimligini bilib olaman. — Chikamasov tamaki chekib, quyuq tutunini Bunchukning yuziga ufurib, xayol ichida yo'taldi. — Hayron bo'laman, bizlar bu yerda bir-birimiz bilan mushtlashgudek bo'lib tortishdik. Nahotki Vladimir Ilich bizning kazaklardan, to'pchilardan bo'lsa. Shunday ekan, shuncha ilmni qayoqdan olgan ekan. Deyishlaricha, urushning boshidayoq u nemislarga asir tushgan emish, u yerda o'qigan emish, butun ilmlarni o'qib olganmish. Ularning ishchilari orasida g'alayon chiqarib, olimlarini ham mot qilib qo'ygandan keyin, nemislarning o'takalari yorila yozibdi. «Bor, jo'nab qol, keng peshona, xudo xayringni bersin. Bo'lmasa, ishlarimizni shunday chalkashtirasanki, keyin butun umr kalavaning uchini topolmaymiz!» — deyishibdi va ishchilarni qo'zg'atmasin deb qo'rqib, uni Rossiyaga jo'natib yuborishibdi. O'ho', og'ayni u o'tkir odam. — Chikamasov so'nggi gapini g'urur bilan gapirib, qorong'ilik ichida jilmayib kuldi. — Sen, Mitrich, uni ko'rgan chiqarsan-a? Yo'qmi, esiz, esiz! Aytishlaricha, kallasi juda katta emish. — Yo'talib, burun teshigidan sap-sariq, pag'a-pag'a tutun chiqarib, sigarasini chekar ekan, gapida davom etdi. — Qani endi ana shunaqalar ko'paysa... O'tkir odam-da. U hali yana bir qancha podshoni to'ntarib tashlaydi... — Chikamasov og'ir nafas oldi. — Yo'q, Mitrich, sen men bilan tortishib o'tirma: Ilich — kazak... Gapni

chalg'itishning nima keragi bor! Sibir guberniyasida bunaqalar asti bo'lmaydi.

Bunchuk indamay anchagacha, ko'zlarini ochib kulib yotdi.

Tezda uyqisi kelavermadi. Rostdan ham, hammayog'ini bit bosdi, ko'ylagi ichiga kirib olib, chaqa boshladi. Uning yonida yotgan Chikamasov ham xo'rsinib, qashlanardi. Kimningdir, notinch oti qorong'ilikda pishqirib, uyquni buzar edi. Uning endi ko'zi ilinganda otlar urishib ketib, dupurlashib, hangillasha boshladi.

O'rnidan sapchib turib ketgan Dugin jingillab:

— E, harom o'lgurlar. Tak-tak, — deb, yaqin yerdagi otni og'ir bir narsa bilan tushirdi.

Bitlar bezovta qilavergandan keyin, Bunchuk qimirlab bir yonboshiga ag'darilib oldi. Uyqusi qochganiga alam qilib, ertangi bo'ladigan mitingni o'ylay boshladi. Mabodo ofitserlar qarshilik ko'rsatib qolsa, oqibati nima bo'ladi, deb o'ylab o'zicha kuldi: «Agar kazaklar baravar qarshi chiqsalar, ofitserlar juftakni rostlab qolsa kerak. Ammo kim bilsin, har holda garnizon komiteti bilan kelishib qo'yaman».

Bunchuk beixtiyor urushdagi bir hodisani, 1915-yil oktabridagi hujumni esladi. Keyin esa xotirasi go'yo o'ziga tanish, yurib o'tilgan yo'lga tushib olganidan xursand bo'lgandek, ko'z o'ngiga uzuq-uzuq achchiq esdaliklarni keltira boshladi: rus, nemis askarlarining xunuk vajohatda yotishlari, g'ala-g'ovur gaplar, bir vaqtlar ko'rilgan, lekin vaqt o'tishi bilan unutilgan ko'rimsiz manzaralar, aytilmagan bo'lsa ham negadir saqlanib qolgan fikrlar, to'plarning sezilar-sezilmas akssadolari, pulemyotlarning tanish tarillashlari, lentalarning shirillashi, kishining ko'nglini eritadigan jozibador kuy, bir zamonlar oshiq bo'lgan xotinning oqarinqiragan lablari, yana urush manzaralari... o'ldirilganlar va cho'kkan qardoshlar mozori...

Bunchuk shoshib-pishib o'rnidan turib o'tirdi. «O'lgunimcha bu xotiralarni esda saqlayman. Men emas, hamma omon qolganlar ham saqlaydi. Hayotni barbod etdilar, tahqirladilar, la'natilar! Mal'unlar!.. Sizlar o'z gunohingizni o'limingiz bilan ham yuva olmaysiz!» degan gaplar uning og'zidan chiqdi yoki shunday deb o'yladi.

Yana tag'in petrogradlik metallist ishchi, urushda o'ldirilgan oshnasining o'n ikki yashar qizi Lushani esladi. Bu ishchi bilan bir vaqt-

lar Tulada birga ishlagan edi. Kechqurun bulvardan ketayotsa, o'sha oriqqina, daroz o'smir qiz eng chetdagi o'rindiqda ingichka oyoqlarini kerib, tamaki chekib o'tirgan edi. Uning yuzlari so'lg'in, ko'zlari horg'in, bo'yalgan, erta balog'atga yetganidan ko'pchigan lablarining chetlarida g'am izlari ko'rinardi.

— Tanimayapsizmi, amaki? — deb so'radi u xirillabroq, odatlanib qolgan tabassum bilan. So'ngra bolalardek ayanchli bir holda o'rnidan turib, ho'ngrab yig'lab yubordi, bo'ynini egib, boshini Bunchukning tirsagiga suyadi.

Bunchuk o'zida paydo bo'lgan qattiq nafratdan bo'g'ilayozdi. Rangi oqarib, tishlarini g'ijirlatib, ingradi. Serjun ko'kragini ishqalar ekan, dir-dir titradi. Nazarida adovat ko'kragida po'latdek qaynab, nafas olishga xalal bera boshladi, yuragining tagida, chap tomonda og'riq paydo qildi.

U ertalabgacha mijja qoqmadi. Tong otishi bilan, har qachongidan ko'ra rangi sarg'aygan, tumtaygan holda temiryo'lchilar komitetiga bordi. Kazaklar eshelonini Narvadan chiqarmaslik to'g'risida kelishib oldi. Bir soatdan keyin garnizon komitetining a'zosini qidirib ketdi.

Soat sakkiz deganda poyezdga qaytdi. Tong salqinini butun vujudi bilan his etib, o'z safarining omadli kelishidan ichida xursand bo'lardi. Stansiya omborining zang bosgan tomi ustidan mo'ralagan quyosh ham, allaqayoqdan jaranglab eshitilayotgan xotin kishining ashulasi ham uni quvontirardi. Tong otishi oldidan birpas sharillatib jala quydi. Izlardagi qumloq yer yuvilib ketgan, ilon izi bo'lib ariqchalar oqqan, rutubatli yomg'ir isi kelar, yer ustida yomg'ir iz qoldirib ketgan o'ydim-chuqurlar ko'rinardi.

Vagon orqasidan shinel kiygan va uzun qo'njli etigiga loy sachragan bir ofitser chiqib, Bunchuk tomon kelaverdi. Bunchuk yasovul Kalmikovni tanidi-yu, yurishini sekinlashtirib, uni kuta boshladi. Ular yuzma-yuz kelib qolishdi. Kalmikov to'xtab, qiyg'och qora ko'zlarini sovuq chaqnatib:

— Xorunjiy Bunchuk? Sen qamoqdamasmisan? Kechir, senga qo'l uzatolmayman, — dedi.

— Men ham sen bilan qo'l berib ko'rishish niyatida emasman... xomtama bo'lma, — dedi Bunchuk istehzo aralash.

— Sen, nima, bu yerda jon saqlab yuribsanmi? Yoki... Petrograddan keldingmi? Jonajon do'sting Kerenskiy yubordimi?

— Nima, meni so'roq qilyapsanmi?

— Bir zamonlar men bilan bir qismda xizmat qilib, keyin dezertirlik qilgan kishining taqdiriga qiziqishim tabiiydir.

Bunchuk miyig'ida kulib, yelkalarini qisib qo'ydi.

— Ko'ngling to'q bo'lsin, meni bu yerga Kerenskiy yuborgani yo'q.

— Lekin sizlar, yaqinlashib kelayotgan tahlika oldida, og'iz-burun o'pishyapsiz. Harqalay, sen o'zing kimsan? Pogoning yo'q, soldatcha shineldasan... — Kalmikov burnini jiyirib, istehzo aralash nafrat bilan Bunchukning biroz bukik gavdasini boshdan oyoq ko'zdan kechirdi. — Siyosiy dallol? Topdimmi? — Shuni deb u javob kutmasdan orqasiga o'girildi-da, katta-katta qadam tashlab ketdi.

O'z vagoni oldida Bunchuk Duginni uchratib qoldi.

— Nima qilib yuribsan? Miting boshlandi-ku...

— Boshlandimi, a?

— Ha. Bizning yuzboshimiz Kalmikov Petrogradga ketgan edi, bugun parovozda o'sha yoqdan keldi-yu, kazaklarni bir joyga to'platdi. Kazaklarni avrab, o'z aytganiga ko'ndirmoq uchun ular oldiga ketdi.

Bunchuk to'xtab, Kalmikov Petrogradga qachon yuborilganini surishtira boshladi. Duginning gapidan Kalmikovning qariyb bir oydan beri bu yerda bo'lmaganini bilib oldi.

«Bu odam o'taketgan aksilinqilobchilardan biri bo'lib uni bomba otishga o'rgatish bahonasi bilan Piterga yuborgan. Demak, Kornilov sodiq odam. Hay, mayli», — deb o'yladi Bunchuk Dugin bilan birga miting bo'layotgan joyga ketar ekan.

Omborning orqa tomonida ko'k-yashil gimnastorkali, shinelli kazaklar tiqilishib turardi. Qoq o'rtada, atrofini ofitserlar o'rab olgan Kalmikov to'nkarib qo'yilgan bochka ustida turib dona-dona qilib:

— ... g'alaba qozonguncha urushni davom ettirish kerak! — deb qichqirardi. — Bizga ishonadilar, biz bu ishonchni oqlashimiz kerak! Hozir men general Kornilovning kazaklarga yuborgan telegrammasini o'qib eshittiraman.

U luzumsiz bir shoshqaloqlik bilan frenchining yon cho'ntagidan g'ijimlangan bir varaq qog'oz oldi-da, eshelon boshlig'i bilan shivirlashib qoldi.

Bunchuk bilan Dugin kazaklar oldiga kelib, ularga qo'shilib ketdi.

— «Kazaklar, aziz orqadoshlar! — deb Kalmikov ifodali, lekin ruhsiz bir tovush bilan telegrammani o'qiy boshladi: — Rossiya davlatining chegaralarini sizlarning ota-bobolaringiz jon fido qilib kengaytirmaganlarmi? Ulug' Rossiya, sizning jasoratingiz, shijoatingiz, fidokorligingiz va qahramonligingiz soyasida qudratli davlatga aylanmaganmi? Siz, tinch Don, go'zal Kuban, to'lqinli Terek, Ural, Orenburg, Astraxan, Yettisuv, Sibir dashtlari va tog'larining va uzoq Zabaykalye, Amur va Ussuriyaning balandparvoz burgutlari o'z bayroqlaringizning sharafi va shuhratiga soqchi bo'lib turgansiz, ota-bobolaringiz ko'rsatgan qahramonliklar haqida son-sanoqsiz dostonlar yaratilgan. Endi, vatanga yordam berish vaqti-soati yetib keldi. Men Muvaqqat hukumatni qat'iyatsizlikda, mamlakatni boshqarishda no'noqlik, layoqatsizlikda va mamlakat ichkarisida nemislarning xo'jayinlik qilishiga yo'l berishda ayblayman. Qozon shahrida ro'y bergan portlashda bir millioncha to'p o'qi yorilib ketib, 12 000 pulemyotning dabdala bo'lishi bunga shohiddir. Bu ham oz. Men hukumat a'zolarining ba'zilarini to'g'ridan to'g'ri vatanga xiyonat qilishda ayblayman va bunga dalillar keltiraman: Muvaqqat hukumatning Qishki saroyda, 3-avgustda o'tkazgan majlisida bo'lganimda Kerenskiy bilan Savinkov menga, bu yerda har narsani gapirib bo'lmaydi, chunki vazirlar orasida ishonchsiz odamlar bor, deyishdi. Hammaga ravshanki, bunday hukumat o'lkani halokatga olib boradi, bunday hukumatga ishonib bo'lmaydi va bunday hukumat baxtsiz Rossiyani qutqaza olmaydi... Shunga ko'ra, kecha Muvaqqat hukumat, dushmanlarning nayrangiga uchib, mendan oliy bosh qo'mondonlik vazifasidan kechishni talab etganda, men bir kazak sifatida, sharafim, nomusim, burchimni himoya etib, bu talabni bajarishdan bosh tortdim, vatanga xiyonat qilishdan, rasvogarchilikdan jang maydonida o'lishni afzal ko'rdim. Kazaklar, rus yerlarining pahlavonlari! Siz men bilan birga, men lozim topgan vaqtda vatanni himoya etish uchun bel bog'lashga va'da bergan edingiz. Vaqti-soati yetdi — vatan halokat jari yoqasida turibdi! Men Muvaqqat hukumatning farmoyishlariga itoat etmayman va erkin Rossiyani qutqarish maqsadida, Muvaqqat hukumatga va uning vatanni sotayotgan mas'uliyatsiz maslahatchi-

lariga qarshi boraman. Kazaklar, kazaklikning mislsiz shon-sharafini qo'llab-quvvatlang, shu bilan siz vatanni hamda inqilob tufayli qo'lga kiritilgan ozodlikni qutqazib qolasiz. Mening gapimga quloq solib, amr-farmonlarimni ijro eting! Mening orqamdan yuring! 28-avgust, 1917-yil. Oliy bosh qo'mondon general Kornilov».

Kalmikov o'qib bo'lib, biroz jim turdi-da, varaqani buklab turib:

— Bolsheviklar bilan Kerenskiyning agentlari bizning qismlarimizning temiryo'l orqali oldinga harakat etishiga monelik qilyaptilar, — deb qichqirdi. — Oliy bosh qo'mondondan: «Basharti temiryo'l orqali oldinga harakat etish mumkin bo'lmasa, Petrograd ustiga lashkar tortib borilsin», degan buyruq olingan. Shu bugun yo'lga chiqamiz, vagonlardan tushishga hozirlaning!

Bunchuk, tirsaklari bilan kazaklarni turta-turta o'ziga yo'l ochib, o'rtaga tushib oldi; ofitserlar davrasiga yaqinlashmay, notiqlarga xos baland ovoz bilan qichqirdi:

— Kazaklar, o'rtoqlar! Meni Petrograd ishchi va askarlari yubordi. Sizlarni qardosh qonini to'kish, revolyusiyani tor-mor ettirish uchun olib ketayotirlar. Agar xalqqa qarshi borishni istasangiz, agar podsho hukumatini tiklamoqchi bo'lsangiz, boringiz! Ammo Petrograd ishchilari va askarlari ishonadilarki, sizlar qotil emassizlar. Ular sizlarga alangali salomlarini yubordilar va sizlarni dushman emas, do'st bo'lishingizni orzu qiladilar...

Uni so'zlashga qo'ymadilar. Shunday shovqin-suron ko'tarildiki, go'yo bu hayqiriqlar Kalmikovni bochka ustidan uchirib yuborgandek bo'ldi. Kalmikov engashganicha tez-tez yurib, Bunchuk tomon bordi, unga bir necha qadam qolganda poshnasi ustida o'girilib qichqirdi:

— Kazaklar! Xorunjiy Bunchuk bultur frontdan qochib, dezertirlik qilgan, — sizlar buni yaxshi bilasizlar. Nima, endi biz bu qo'rqoq va xoinning gapiga quloq solib o'tiramizmi?

Oltinchi sotnya komandiri, qo'shin starshinasi Sukin do'rillagan ovozi bilan Kalmikovning tovushini bosib ketdi.

— Bu ablahni qamoqqa olish kerak! Biz frontda qonimizni to'kib yuribmiz, u esa front orqasida jonini qutqarib qolgan. Ushlang uni!

— Shoshmang, sabr qiling!

— Mayli, gapirsin!

— Birovning og‘ziga elak tutib bo‘ladimi. Mayli, ko‘ngildagi gapni aytsin.

— Qamoqqa olinsin!

— Bizga dezertirlarning hojati yo‘q.

— Gapir, Bunchuk!

— Mitrich, ularning dodini ber!

— Yo‘qolsin!

— Jim bo‘l, itvachcha!

— Dodini ber ularning, Bunchuk! Bo‘sh kelma! Ularga qarshi dadil gapiraver!

Polk revolyusion komiteti a’zosi, novcha, furajkasiz, sochi taqir qilib olingan kazak sakrab bochka ustiga chiqdi. U kazaklarni revolyusiya xoini bo‘lgan general Kornilovga itoat etmaslikka qizg‘in turg‘ib etib, xalqqa qarshi urushning halokatga olib borishini aytib berdi, so‘zini tamomlar ekan, Bunchukka qarab dedi:

— Siz esa o‘rtoq, janob ofitserlar kabi bular ham mendan nafrat qiladi deb aslo o‘ylamang. Biz kelganingiz uchun juda xursandmiz va sizni xalq vakili safatida hurmatlaymiz. Siz ofitser bo‘lgan vaqtingizda kazaklarga jabr qilmadingiz, bizga o‘z aka-ukalaringizdek muomala qildingiz, shuning uchun ham sizni izzat qilamiz. Sizdan dag‘al so‘z eshitmadik, lekin gumon qilmangki, bizdek o‘qimagan odamlar izzat-hurmatni tushunmaydi deb, — yaxshi gapni odam tugul, hayvon ham tushunadi. Sizning oldingizda bosh egamiz va Piter ishchi va soldatlariga ma’lum qilingki, biz ularga musht ko‘tarmaymiz!

Gurr etgan ovoz eshitildi, hamma uning gapini olqishlab suron ko‘tardi, shovqin o‘zining eng yuksak nuqtasiga chiqib, keyin pasaydi, hamma jim bo‘ldi.

Kalmikov yana novcha daraxtdek ingichka qomatini bukib, bochka ustiga sakrab chiqdi. Qadimiy Donning shon-shuhrati, kazaklarning tarixiy roli, ofitserlar bilan birlikda kazaklarning to‘kkan qonlari haqida bo‘g‘ila-bo‘g‘ila gapirdi, rangida rang qolmadi.

Kalmikovdan keyin g‘o‘labirdan kelgan mallasoch kazak chiqib nutq so‘zladi. Uning Bunchukka qarshi gapirgan achchiq-tiziq gapini bo‘lib qo‘ydilar, qo‘lidan tortib bochka ustidan tushirdilar. Chikamasov sakrab bochka ustiga chiqib oldi-da, xuddi o‘tin yorayotgandek qo‘llarini silkitib hayqirdi:

— Bormaymiz dedik, bormaymiz! Vagonlardan tushmaymiz. Telegrammada, kazaklar go'yo Korniloovga yordam berishga va'da berganlar, deb yozilgan. Lekin buni bizdan kim so'radi? Biz unga hech qanday va'da berganimiz yo'q! Kazak soyuzi Sovetidagi ofitserlar va'da bergan! Grekov uning oldida dumini likillatgan, — borib o'zi yordamlashsin!..

Notiqlar birin-ketin chiqib gapira boshladilar. Bunchuk keng peshonali boshini egib turar, uning yuzi bo'riqib ketgan, bo'yni, ikki chakkasidagi bo'rtib chiqqan tomirlari tez-tez urardi. Vaziyat juda keskinlashdi, agar ahvol shunday davom etsa, o'ylamasdan qilingan bir harakat qonli voqea bilan tugashi turgan gap edi.

Garnizon askarlari stansiya tomondan to'p-to'p bo'lib kela boshladi, shundan so'ng ofitserlar mitingni tashlab chiqib ketishdi.

Oradan yarim soat o'tgach Dugin Bunchukning oldiga hovliqib chopib keldi.

— Mitrich, nima qilamiz?.. Kalmikov bir baloni boshlamoqchi. Shu topda pulemyotlarni vagondan tushirayotir, qayoqqadir otliq chopar yubordi.

— Yur, o'sha yoqqa. Yigirma nafar kazakni ol! Darrov!

Kalmikov uch ofitser bilan eshelon boshlig'ining vagoni oldida otlarga pulemyot ortayotgan edi. Bunchuk avval ularga yaqinlashdi, u orqasidagi kazaklarga o'girilib qarab qo'yib, qo'lini shinelining cho'ntagiga suqdi-da, yarqirab turgan, yangi ofitsercha naganini chiqardi.

— Kalmikov, sen qamoqqa olinding! Qo'lingni ko'tar!

Kalmikov sakrab otdan tushdi, engashib to'pponcha qiniga chang soldi, lekin to'pponchasini chiqarishga ulgurmadi: bir o'q boshining ustidan vizillab o'tdi; Bunchuk o'q chiqmasdan burunoq bo'g'iq va shiddatli tovush bilan:

— Qo'lingni ko'tar! — deb baqirgan edi.

Nagan kurognning piston chaqadigan uchi yarim beligacha ko'tarildi. Kalmikov ko'zlarini qisib, uning harakatini ko'zdan qochirmay, qo'lini bazo'r ko'tardi, barmoqlarini shiqirlatib qo'ydi.

Ofitserlar istar-istamas yaroqlarini topshirdilar.

Yoshgina xorunjiy-pulemyotchi ehtirom ila:

— Qilichlarni ham yechishni buyurasizmi? — deb so'radi.

— Ha.

Kazaklar otlar ustidagi yukni tushirdilar, pulemyotlarni vagonga olib kirdilar.

— Bularni qo'riqlash uchun soqchilar qo'ying, — dedi Bunchuk Duginga qarab. — Chikamasov qolganlarni ham qamoqqa olib bu yerga olib keladi. Eshityapsanmi, Chikamasov. Kalmikovni esa biz sen bilan garnizon revkomiga olib boramiz. Yasovul Kalmikov, marhamat qilib oldimizga tush.

Ofitserlardan biri vagonga sakrab chiqdi-da, uzoqlashib ketayotgan Bunchuk, Dugin va Kalmikovni ko'zi bilan ta'qib etib:

— Uddaburonligini qara-ya! — dedi zavqi kelib.

— Janoblar! Ayb ish bo'ldi! Biz yosh bolalarning qilig'ini qildik! U ablahni shartta otib tashlash hech kimning aqliga kelmadi-ya! Kalmikovga nagan o'qtalgan paytda birimiz unga qarab o'q uzsaydik, ish bir yoqlik bo'lardi-qo'yardi! — Qo'shin starshinasi shuni deb, ofitserlarga nafratomuz nazar tashladi, qaltiragan barmoqlari bilan bir papirosni xiyla vaqtdan keyin portsigaridan chiqardi.

— Axir ular bir vzvod-ku... hammamizni otib tashlar edilar, — dedi xorunjiy-pulemyotchi aybdor kishidek.

Ofitserlar churq etmay papiros chekishar, bir-birlariga qarab-qarab qo'yishar edi. Ko'z yumib ochguncha bo'lib o'tgan voqealar ularni shoshirib qo'ygan edi.

Kalmikov qora mo'ylovining uchini tishlab, bir muddat indamay bordi. Yonoqlari turtib chiqqan yuzining chap yog'i xuddi shapaloq yeganday lovullar edi. Ularga duch kelgan yerli aholi hayron bo'lib qarab qolar, to'xtab shivirlashardi. Gavjum bo'lgan mahalda Narva ustidagi bulutli osmon asta ochila boshladi. Yo'l ustida qayin daraxtining to'kilgan barglari oltinday sochilib yotar, avgust jo'nab ketayotgan mahalda ularni yo'lda tushirib qoldirgandek edi. Ko'k gumbazli cherkov ustidan zag'chalar uchib o'tar, stansiyaning u tarafidagi ma'yus dalalar ustida sovuq kecha qanotlarini kergan, Narvadan Pskov va Luga tomon osmon yo'llaridan oqshom paytida qo'rg'oshin tus olgan olachalpoq bulutlar suzib bormoqda; tun qorong'isi ko'zga ko'rinmagan chegaradan o'tib hamma yoqni bosib kelmoqda edi.

Stansiya yonida Kalmikov shartta orqasiga burilib, Bunchukning aftiga tupurdi.

— Pastkash!

Bunchuk o'zini tufukdan olib qochdi-yu, birdan qoshlarini chimirib, qo'lini cho'ntagiga suqmoqchi bo'ldi, lekin o'ng qo'lini chap qo'li bilan ushlab, turib qoldi.

O'zini zo'rlab:

— Yur! — dedi.

Kalmikov behayo so'zlar bilan so'kinar:

— Sen xoinsan! Sotqinsan! Sen bu qilmishlaring uchun javob berasan, — deb qichqirardi yo'lda to'xtab-to'xtab, Bunchuk ustiga bostirib kelib.

— Yur deyapman, — deb Bunchuk har safar uni yurishga ko'ndirmoqchi bo'lardi.

Kalmikov mushtlarini qisib, yana joyidan qo'zg'alar, oyog'iga yem tushgan otday silkinib yurardi. Ular vodokachka yoniga keldilar. Kalmikov tishlarini g'ijirlatib baqirdi:

— Sizlar partiya emas, jamiyatning quyqasi, eng palid, razil banditlarsiz. Sizlarga kim rahbarlik qiladi! — Nemislarning bosh shtabi! Bolshe-vik-lar... Ha-ha-ha! Pastkashlar! Sizning partiyangizni, bu yalangoyoqlarni j... dek sotib oladilar! Yuzsiz, beorlar!.. Vatanni sotdingizlar!.. Mening qo'limda bo'lsa, hammangizni bir dorga osar edim... He, hali vaqti-soati keladi! Sizning Leniningiz Rossiyani o'ttiz nemis markasiga sotmadimi?! Bir millionni cho'ntakka urib, juftagini rostladi... katorga-chi!..

Bunchuk duduqlanib, cho'zib dedi:

— Devorga suyan!

Duginning kayfi uchib ketib, turgan joyida qotib, qoldi.

— Ilya Mitrich, shoshmay tur! Nima qilmoqchisan? To'x-ta!..

G'azabdan avzoyi buzilgan, yuzi bo'riqib ketgan Bunchuk bir sakrab Kalmikovning oldiga keldi-yu, jon-jahdi bilan chakkasiga qarab tushirdi. Kalmikovning boshidan uchib ketgan furajkasini oyog'i ostiga olib tepkilab, o'zini vodokachka(suv chiqaruvchi nasoslar o'rnatilgan bino)ning qorayib ketgan devori tomon sudradi.

— Devorga suyan!

— Nima qilyapsan? Sen!.. Haqqing yo‘q! Urishga haqqing yo‘q! — deb bo‘kirdi Kalmikov qarshilik ko‘rsatib.

Vodokachka devoriga orqasi bilan borib urilgandan so‘ng, qomatini rostladi-yu, nima bo‘lishini angladi:

— O‘ldirmoqchimisan?

Bunchuk egilib, shoshib-pishib, to‘pponchasiga chang soldi, tepkisi cho‘ntagining astariga ilashib qoldi.

Kalmikov shinelining butun tugmalarini solib, olg‘a bir qadam tashladi:

— Ot, itvachcha! Ot! Ko‘r, rus ofitserlari o‘limni qanday qarshi oladilar... Men o‘lim oldi...

Uzilgan o‘q uning og‘zidan kirib ketdi. Vodokachkaning orqasidan o‘qning aks sadosi yangradi. Kalmikov ikki qadam bosgandan keyin qoqilib ketdi-yu, chap qo‘li bilan boshini ushlab yiqilib tushdi. Kamonday bukildi, qora qonga belangan tishini ko‘kragiga tuflab tashladi va tilini taqillatib qo‘ydi. U gavdasini to‘g‘rilab, shag‘al ustiga cho‘zilganda, Bunchuk yana o‘q otdi. Kalmikov bir sapchib tushdi-yu, yonboshlab, uxlashga yotgan qushdek, boshini yelkasi ostiga olib, hiqilladi.

Birinchi muyulishda Dugin Bunchukning orqasidan yetib oldi.

— Mitrich... Bu nima qilganing, Mitrich! Sen uni nima uchun o‘ldirding?

Bunchuk Duginning yelkasini qo‘li bilan qisib, tikandek o‘tkir ko‘zlarini uning ko‘ziga tikdi-da, kishini hayron qoldiradigan sovuqqonlik bilan asta dedi:

— Yo ular bizni, yo bizlar ularni!.. O‘rta yo‘l yo‘q. Qonga qon. Kim kimni... Angladingmi? Kalmikov singarilarni yo‘qotish, boshlarini ilonday yanchish kerak. Ularga rahm qilganlarni ham otish kerak... angladingmi? Nega so‘lakayingni oqizasan? Lab-dahaningni yig‘ishtirib ol! G‘azabnok bo‘l! Agar hukumat Kalmikov qo‘lida bo‘lsaydi, papiros chekib turib, bizni shartta otib tashlardi, sen bo‘lsang... Eh, mishiqi!

Ancha vaqtgacha Duginning tishlari tishlariga tegmay boshi qaltqalt qilib turdi, ohori ketgan etikdagi uzun oyoqlari chalishardi.

Kimsasiz tanho ko‘chada churq etmay bordilar. Bunchuk ahyonahyonda orqasiga burilib qarab qo‘yardi. Zulmat ichida qora bulutlar

boshlari ustida mavjlanar, sharqqa qarab suzib borardi. Avgust osmonini qoplagan bulut orasidan kechagi yomg‘irda yuvingan kemtik oy yashil ko‘zlari bilan qarab turardi. Keyingi muyulishda bir soldat bilan yelkasiga oq ro‘mol tashlagan bir xotin bir-birining pinjiga suqilib turar edi. Soldat ayolni quchoqlab o‘ziga tortar, bir nima deb shivirlar, ayol esa ikki qo‘lini uning ko‘ksiga tirab, boshini orqasiga tashlab, entika-entika: «Ishonmayman! Ishonmayman» — der va hiringlab kulardi.

XVIII

Kerenskiy tomondan chaqirtirilgan general Krimov 31-avgustda Petrogradda o‘zini otib o‘ldirdi.

Krimov armiyasidagi qismlarning komandirlari va namoyandalar bosh egib Qishki saroyga kela boshladilar. Yaqindagina Muvaqqat hukumatga qilich ko‘tarib kelmoqchi bo‘lgan odamlar endi Kerenskiy oldida kelib tiz cho‘kar va unga o‘z sadoqatlarini izhor qilar edilar.

Ma’naviy jihatdan sob bo‘lgan Krimov armiyasi haligacha talvasa ichida edi: uning qismlari g‘ayriixtiyoriy ravishda Petrogradga yaqinlashar, ammo bu harakat endi o‘z ma’nosini yo‘qotgan edi, chunki Kornilov fitnasi sob bo‘layozgan, reaksiya rang-barang bo‘lib yongan mushakdek bir lovullab so‘ngan, respublikaning muvaqqat hokimi (garchi shu kunlar ichida uning go‘shtdor yuzi oriqlab bir holatda bo‘lib qolgan bo‘lsa-da), tugmali qo‘nj kiygan boldirini napoleonchasiga dirkillatib, hukumatning navbatdagi majlisida «siyosiy stabillik»ka batamom erishilgani to‘g‘risida lof urdi.

Krimov o‘zini o‘ldirmasdan bir kun avval general Alekseyev oliy bosh qo‘mondon qilib belgilandi. Nazokatli, sirkasi suv ko‘tarmaydigan Alekseyev o‘zini uyatga qoldiradigan dudmal ahvolga tushib qolishini anglab, avval bu lavozimdan qat’iyan bosh tortdi, keyin esa yolg‘iz Kornilov va uning hukumatga qarshi fitnasida ma’lum darajada qatnashganlarning qismatini yengillashtirish niyati bilan bu vazifani o‘z ustiga oldi.

Yo‘lda kelar ekan, telefon orqali bosh qarorgoh bilan gaplashdi, o‘zining bu yangi mansabga belgilanishiga va bosh qarorgohga keli-

shiga Kornilovning qanday munosabatda bo'lishini aniqlashga urindi. O'zini xunob qilgan bu muzokaralar yarim kechagacha cho'zildi.

O'sha kuni Kornilov huzurida shtab amaldorlari va Kornilovga yaqin kishilarning maslahat majlislari bo'layotgan edi. Muvaqqat hukumatga qarshi kurashni davom ettirish maqsadga muvofiqmi, yo'qmi deb berilgan savolga majlisda qatnashuvchilarning ko'pchiligi kurashni davom ettirish istagini bildirdi.

Butun majlis davomida miq etmay o'tirgan Lukomskiyga qarab:

— O'z mulohazangizni aytishingizni so'rayman, — dedi Kornilov.

Lukomskiy ehtiyot bilan, lekin qat'iy qilib, bu ichki urushlarni davom ettirishga qarshi e'tiroz bildirdi.

Kornilov uning gapini bo'lib:

— Taslim bo'laylikmi? — dedi keskin tovush bilan.

Lukomskiy yelkalarini qisib qo'ydi.

— Bu savolga beriladigan javob o'z-o'zidan ma'lum.

Suhbat yana yarim soat davom etdi. Kornilov butun iroda kuchini sarf qilib, o'zini sovuqqon qilib ko'rsatishga urinardi. Ko'p o'tmay, majlisni tarqatib yuborib, bir soatdan keyin Lukomskiyni oldiga chaqirtirdi.

— Siz haqlisiz, Aleksandr Sergeyevich! — dedi u barmoqlarini shiqillatib va yonib ustini kul qoplagan cho'g' singari so'niq ko'zlarini bir tomonga qaratib, horg'in tovush ila:– Bundan keyin qarshilik ko'rsatish ham ahmoqlik, ham jinoyat bo'lur edi, — deb qo'ydi.

U barmoqlari bilan stolni uzoq chertib, bir narsaga quloq solib o'tirdi, balki xayolidan lip-lip o'tayotgan chalkash fikrlari ta'siriga berilayotgandir. Bir qancha vaqtgacha mum tishlaganday o'tirdi, keyin:

— Mixail Vasilyevich qachon keladi? — deb so'rab qoldi.

— Ertaga.

Birinchi sentabrda Alekseyev yetib keldi. O'sha kuni kechqurun u Muvaqqat hukumatning farmoni bilan Kornilov, Lukomskiy va Romanovskiyni qamoqqa oldi. Qamoqqa olinganlarni «Metropol» musofirxonasiga yuborishdan oldin (mahbuslar shu musofirxonada soqchilar nazorati ostida saqlanishlari kerak edi), Alekseyev Kornilov bilan xilvatda yigirma daqiqacha bir nimalar to'g'risida gaplashib oldi; u Kornilovning xonasidan chiqqanda nihoyat darajada ma'yus

va dovdirab qolgan edi. Romanovskiy Kornilovning huzuriga kirmoqchi bo'lganda uning xotini:

— Afv eting! Lavr Georgiyevich o'z huzuriga hech kimni kiritmaslikni so'ragan edi, — dedi.

Romanovskiy ayolning parishon chehrasiga yalt etib qaradi-yu, hayajonidan ko'zlarini pirpiratib, nariroq ketdi; uning ikki beti bo'riqib ketgan edi.

Ertasi kuni Berdichevda janub-g'arb frontining bosh qo'mondoni general Denikin, uning shtab boshlig'i general Markov, general Vannovskiy va Alohida armiya qo'mondoni general Erdeli qamoqqa olindi.

Bixovda, xotin-qizlar gimnaziyasida, tarix tomonidan mahkum qilingan kornilovchilik harakati sharmandalarcha xotima topdi: kelgusidagi fuqarolar urushi va inqilobga keng jabha bilan hujum etish rejasi xuddi o'sha yerning o'zida tuzildi.

XIX

Oktabr oyining so'nggi kunlarida, erta bilan yasovul Listnitskiy polk komandiridan o'z sotnyasini Saroy maydoniga piyoda keltirish to'g'risida buyruq oldi.

Listnitskiy vaxmistrga tegishli buyruqlarni bergandan so'ng, shoshib-pishib kiyindi.

Ofitserlar esnab o'rinlaridan turishar, so'kinishardi.

— Nima gap?

— Gap bolsheviklar ustida!

— Janoblar, patronlarimni kim oldi?

— Qayoqqa boramiz!

— Eshityapsizmi: otyaptilar?

— Yo'g'-e. Qulog'ingizga eshitilayotganga o'xshaydi.

Ofitserlar hovli sahniga chiqdilar. Sotnya vzvod-vzvod bo'lib, kolonnalarga tizildi. Listnitskiy kazaklarni jadal yurish bilan ko'chaga olib chiqdi. Nevskiy ko'chasi bo'm-bo'sh. Rostdan ham qayerdandir sira-sira miltiq ovozi kelardi. Saroy maydoni bo'ylab bronevik kezar, yunkerlar patruli izg'ib yurardi. Ko'chalar suv quygandek jimjit. Qishki saroy darvozasi oldida kazaklarni yunker navbatchilar va

to'rtinchi sotnya kazak ofitserlari qarshiladi. Ulardan biri – sotnya komandiri Listnitskiyni bir chekkaga chaqirib oldi:

– Sotnyadagilarning hammasi shu yerdami?

– Ha, nimaydi?

– Ikkinchi, beshinchi va oltinchi sotnyalar kelishdan bosh tortdi, lekin pulemyotchilar komandasi biz bilan. Kazaklar qalay?

Listnitskiy qo'l siltab qo'ydi.

– Chatoq. Birinchi va to'rtinchi polklar-chi?

– Ulardan darak yo'q, kelmaydilar. Siz bugun bolsheviklarning xuruj qilishlaridan xabardormisiz? Hech nimaga aqlim yetmay qoldi! – Listnitskiy xo'rsinib qo'ydi: – Boshingni olib, Donga jo'nab ketging keladi...

Listnitskiy sotnyasini saroy hovlisiga olib kirdi. Kazaklar miltiqlarini bir-biriga suyab, chorpoya qilgach, mashq maydoni kabi keng hovli sahniga taralib ketishdi. Ofitserlar uzoq bir burchakdagi uyga to'planishdi. Papiros chekishib, gaplasha boshlashdi.

Oradan bir soat o'tgach, yunkerlar polki bilan ayollar batalyoni yetib keldi. Yunkerlar saroyga kiraverishdagi katta dahlizga joylashdi, pulemyotlarni ham o'sha yerga olib chiqishdi. Zarbdor ayollar[1] hovli sahnida uymalashib turishardi. Tentirab yurgan kazaklar ular yaqiniga kelib, qaltis hazil qilishardi. Uryadnik Arjanov kaltagina shinel kiygan xo'ppa semiz ayol jangchining orqasiga shapatilab urdi.

– Sen, xola, erkaklarning ishini qilgandan ko'ra, bola tug'sang bo'lardi.

– O'zing tug'aver! – deb javob berdi yo'g'on ovoz bilan serzarda «xola».

Eski mazhabdagi xotinboz Tyukovnov ayol askarlarga shilqimlik qilib:

– Voy jononlar-e! Sizlar ham biz bilan birga ekansiz-da? – dedi.

– Bu mochag'arlarni boplash kerak!

– Shular ham askar bo'ldimi!

– Uylarida o'tirsalar – o'ladilarmi! Bu yerda ularga pishirib qo'yibdimi?

– Ko'rmaysanmi bu xunasalarni!

---

[1] *Zarbdor ayollar* – ayollar batalyoni («ajal batalyoni») soldatlari.

— Oldidan qarasang — soldatga, orqasidan yo popga, yo allanima baloga o‘xshaydi... Tuf betlaringga deging keladi!

— Hoy, jangovar ayol! Ketingni ko‘tar, bo‘lmasa qo‘ndoq bilan solib qolaman!

Kazaklar hoholashib, xotinlarni kalaka qilib ko‘ngil ochishardi. Ammo tushga borib, bu xursandchilik barham topdi. Zarbdor ayollar vzvod-vzvod bo‘lib, maydondan yo‘g‘on qarag‘ay g‘o‘lalarini keltirdilar va darvozaning og‘zini to‘sa boshladilar. Erkaknusxa, shineli yaxshi o‘tirgan, Georgiy medalli yo‘g‘on bir ayol ularga farmonbardorlik qilar edi. Bir bronevik maydonning u yog‘idan bu yog‘iga o‘tib turar, yunkerlar qayerdandir patron va pulemyot lentalari solingan yashiklarni saroyga olib kirar edilar.

— Hoy, kazaklar, ehtiyot bo‘linglar!

— Bundan chiqdi urusharkanmiz-da.

— Sen nima deb o‘ylovding? Zarbdor ayollar biz bilan qitiqlashgani kelganlar deb o‘ylovdingmi?

Lagutinning hamqishloqlari — bukanovliklar, slashchevliklar uning atrofini o‘rab olgan edilar. Ular bir narsa to‘g‘risida maslahatlashishar, bir yerdan ikkinchi yerga borar edilar. Ofitserlar allaqayoqqa chiqib ketishgan edi. Hovlida kazaklar va zarbdor ayollardan boshqa hech kim yo‘q edi. Pulemyotchilar tashlab ketgan pulemyotlar darvoza og‘zida turar, ularning qalqonlari moy surtgandek yiltyilt qilib turardi.

Kechga yaqin mayda yomg‘ir yog‘a boshladi.

— Bu nima degan gap-a? Bizni bu hovliga qamab, ochimizdan o‘ldirmoqchilarmi?

— Listniikiyni topish kerak.

— Topib bo‘psan! U saroyda, yunkerlar bo‘lsa bizlarni u yerga qo‘ymaydilar.

— Ko‘chma oshxonaga odam yuborish kerak, ovqat olib kelsin.

Ikki nafar kazakni ko‘chma oshxonani keltirishga yubordilar.

— Miltiqsiz boringlar, bo‘lmasa qo‘lingizdan olib qo‘yishadi, — deb maslahat berdi Lagutin.

Ko‘chma oshxonani rosa ikki soat kutishdi. Na oshxonadan darak bor edi, na choparlardan. Keyin ma’lum bo‘ldiki, ko‘chma oshxona darvozadan chiqishi bilan semyonovchi soldatlar uni hovliga qaytarib

yuborib dilar. Darvoza og'zida to'plangan zarbdor ayollar taralishib saf tortishdi; g'o'lalar tagiga yotib olib, maydonning narigi tomoniga qarab qayoqqadir o'q uza boshlashdi: kazaklar bir chekkada papiros chekib po'ng'illar edilar. Lagutin sotnyani devor tagiga to'pladi, saroy derazalariga qo'rqa-pisa nazar tashlab dedi:

— Hoy, kazaklar, bilsangiz — bizning bu yerda qiladigan ishimiz yo'q. Bu yerdan jo'nab qolish kerak, bo'lmasa bekordan bekorga o'lib ketamiz. Saroyga qarab o'q otishsa otishaversin, bizning nima ishimiz bor? Ofitserlar juftakni to'g'riladilar... biz, nima, qarg'ishga uchraganmizki, bu yerda baloning o'qiga duchor bo'lsak? Yuringlar uyga, bu yerda bizga pishirib qo'ygani yo'q! Muvaqqat hukumatning bizga hojati yo'q! Nima deysizlar, kazaklar?

— Agar tashqariga chiqsak, qizil gvardiyachilar pulemyotdan o't ochadilar.

— Kallamizni oladilar.

— Yo'g'-e, unday qilmasliklari kerak.

— Bo'lmasa safga tizilinglar!

— Yo'q, oxirigacha poylab o'tiramiz.

— Bizning ishimiz oson — ovqat yeyish-u, uyquga ketish.

— Kim nima qilsa qilaversin, lekin bizning vzvod ketadi!

— Unday bo'lsa, biz ham ketamiz!

— Bolsheviklarning oldiga odam yuborish kerak. Bizga tegmasinlar, biz ham peshonalariga chertmaymiz.

Birinchi va to'rtinchi sotnya kazaklari ham ular oldiga kelishdi. Har bir sotnyadan bittadan kazak ajratishdi, uch kazak darvozadan chiqib ketdi, bir soatdan keyin uch matrosni boshlab keldi. Matroslar darvoza og'ziga taxlab qo'yilgan g'o'lalar ustidan sakrab o'tib, jo'rttaga hech narsani nazar-pisand qilmaganday hovliga kirishdi. Ulardan biri — qora mo'ylovli, paxtali kamzulining oldi ochiq, shapkasini gardaniga surib qo'ygan matros g'uj bo'lib turgan kazaklar orasiga kirdi.

— Kazak o'rtoqlar! Biz, revolyusion Boltiq flotining vakillari, sizga Qishki saroyni tark etishni taklif etgani keldik. O'zingizga yetti yot begona bo'lgan burjua hukumatini himoya etmoqdan siz uchun bir chaqalik foyda yo'q. Qo'ying, uni burjua bolalari, yunkerlar himoya etsin. Soldatlardan bittasi ham muvaqqat hukumatni himoya et-

madi va sizning orqadoshlaringiz bo'lgan Birinchi va To'rtinchi polk kazaklari bizga qo'shildi. Kim biz bilan ketishni istasa – so'l tomonga o'tsin.

Birinchi sotnyaning azamat uryadnigi oldinga chiqib:

– Shoshma, og'ayni! – dedi. – Ketish bo'lsa biz jon deb ketamiz... Bordi-yu, qizil gvardiyachilar bizning kulimizni ko'kka sovursa-chi?

– O'rtoqlar! Petrograd harbiy-revolyusion komiteti nomidan sizlarning xavfsizligingizni ta'min etishga va'da beramiz. Hech kim sizga daxl qilmaydi.

G'o'labir, cho'tirroq bir matros qora mo'ylovli sherigi yoniga kelib turdi. U buqanikiday yo'g'on bo'ynini burib, kazaklarga ko'z yugurtirdi-da, keng ko'kragini siqib turgan matroscha ko'ylagiga qo'li bilan urdi.

– Biz sizlarga hamroh bo'lamiz! Og'aynilar, shubhalanmang, biz sizlarga dushman emasmiz va Petrograd proletarlari ham sizning dushmaningiz emas, dushmanlaringiz mana bular... – deb u kerik boshmoldog'i bilan saroyni ko'rsatdi va oppoq tishlarini ko'rsatib jilmaydi.

Kazaklar ikkilanib qolishdi, zarbdor ayollar ularning oldiga kelib, gaplariga quloq solar, kazaklarga qarab qo'yib, yana darvoza oldiga ketishardi.

– Hoy, ayollar! Biz bilan birga ketasizmi? – deb baqirdi sersoqol kazak.

Ayollar javob bermadilar.

– Miltiqlaringizni oling, yuring! – dedi Lagutin qat'iy qilib.

Kazaklarning hammasi miltiqlarini olib, safga tizildi.

Pulemyotchi kazak qora mo'ylovli matrosdan:

– Pulemyotlarni ham olaylikmi? – deb so'radi.

– Oling. Ular kadetlarga qolmasin.

Kazaklar chiqib ketay deb turganlarida sotnya ofitserlari hammasi birdan kelib qolishdi. Ofitserlar g'uj bo'lib, matroslardan ko'zlarini uzmay turar edilar. Sotnyalar safga tizilgach, qo'zg'aldi. Oldinga tushib olgan pulemyot komandasi pulemyotlarini ham olishgan edi. Pulemyotlarning sal-pal g'ichillagan ho'l g'ildiraklari toshlar ustida irg'ishlab, taraqlar edi. Paxtali kamzul kiygan matros birinchi sotnya-

ning oldinda ketayotgan vzvodi yonida borardi. Fedoseyev stanitsalik novcha, malla kazak uning yengidan ushlab, gunohkor kishidek ta'sirli bir ovoz bilan:

– Azizim, xalqqa qarshi chiqishga kimning tobi bor, deysiz? Ahmoqlik qilib, bu yerga kepqoldik, bilganimizda kelarmidik? – dedi kokilli boshini chayqab. – So'zimga ishon, kelmas edik, xudo haqi!

To'rtinchi sotnya eng oxirda borardi. Ayollar batalyoni darvoza oldida g'uj bo'lib to'xtab qoldi. Baquvvat bir kazak g'o'lalar ustiga chiqib olib, tirnoqlari o'siq qop-qora barmog'ini o'ynatib ma'nodor qilib:

– Hoy, merganlar, gapga quloq osinglar! – deb ularga gap uqtirmoqchi bo'ldi. – Mana biz endi ketyapmiz, sizlar esa xotinligingizga borib, aqlingiz kaltaligidan bu yerda qolyapsiz, lekin ahmoqlik qila ko'rmang! Bordi-yu, orqamizdan o'q otadigan bo'lsangiz, qaytib kelib, hammangizni burda-burda qilib tashlaymiz. Yo gapim noo'rinmi? Shuni bilib qo'ying! Hozirchalik, xayr.

Matros g'o'lalar ustidan sakrab tushdi-yu, yo'rg'alab o'z qismiga yetib oldi, orqasiga o'girilib, qarab-qarab qo'yadi.

Kazaklar maydonning o'rtasiga yetganda, ulardan biri orqasiga qayrilib, hayajon bilan:

– Qaranglar, yigitlar! Orqamizdan ofitser kelyapti, – dedi.

Ko'plar keta turib, boshlarini o'girib qaradilar. Baland bo'yli bir ofitser qilichini ushlagancha, maydon sahnida chopib kelaverdi.

U qo'li bilan to'xtang degandek ishora qildi.

– Bu – uchinchi sotnya ofitserlaridan Atarshchikov.

– Qaysi biri?

– Novchasi, ko'zining tagida xoli bori.

– Biz bilan birga ketmoqchi bo'pti-da.

– O'zi yaxshi yigit.

Atarshchikov chopa-chopa sotnyaga yetib oldi, uzoqdan iljayayotgani ko'rinib turibdi. Kazaklar qo'llarini silkitib kuladilar.

– Ildamroq qimirlang, janob ofitser.

– Qattiqroq.

Saroy darvozasidan paqillagan o'q ovozi eshitildi. Atarshchikov qo'llarini havoda o'ynatib, chalqanchasiga, orqasi bilan yiqilib tushdi, oyoqlarini tipirlatib, o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Sotnyalar koman-

da berilgandek yuzlarini saroy tomon o‘girdilar. Og‘zi saroyga qaratilgan pulemyotlar yonida pulemyotchilar tiz cho‘kib oldilar, lentalar shirilladi. Saroy darvozasi og‘zida, qarag‘ay g‘o‘lalar orqasida hech zog‘ yo‘q. Otilgan o‘q bir daqiqa avval o‘sha yerda to‘planib turgan zarbdor ayollar va ofitserlarni go‘yo supurib tashlagandek bo‘ldi. Sotnyalar yana shoshib-pishib safga tizildi va ildam yurib ketdi. So‘nggi vzvod kazaklaridan ikki nafari Atarshchikov yiqilgan joydan qaytib keldi. Ulardan biri butun sotnyaga eshittirib:

— So‘l kuragining ostbdan teshib o‘tibdi. Joni uzilibdi, — deb baqirdi.

Baravariga tashlangan qadamlar gursillab eshitildi. Paxtali kamzul kiygan matros:

— O‘ngga buril, marsh, — deb komanda berdi. Sotnyalar egri-bugri bo‘lib o‘ngga burildilar. Suv quygandek jimjit bo‘lib, mung‘ayib qolgan saroy ularni indamay kuzatib qoldi.

XX

Kuz issiq keldi. Paydar-pay yomg‘irlar yog‘di. Bixov shahri ustida nursiz quyosh har zamon-har zamondagina ko‘rinib qo‘yar edi. Oktabr oyida yovvoyi qushlar issiq o‘lkalarga uchib keta boshladi. Hatto kechalari ham zax, qora tuproq yer ustida turnalar qurqullashib uchib o‘tgani eshitilardi. Sovuqdan, shamoldan balandlab esib keladigan izg‘irinlardan qo‘rqqan qushlar gala-gala bo‘lib shoshib-pishib jo‘nab qolardi.

Kornilov ishi yuzasidan Bixovda qamoqqa olingan mahbuslar bir yarim oydan beri sudni kutib yotardilar. Shu vaqt ichida ularning turmadagi hayoti bir maromga tushib qolgandek edi. Garchi odatdagidan boshqacharoq bo‘lsa-da, harqalay o‘ziga xos mustahkam bir tus olgan edi. Har kuni ertalab nonushtadan keyin generallar sayr qilgani chiqishardi; qaytib kelgach, pochta orqali qarindosh-urug‘lari va tanish-bilishlaridan kelgan xatlarni olib o‘qishardi. Tushki ovqatdan keyin mizg‘ib olib har qaysisi o‘z xonasida o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘lardi. Kechqurunlari esa Kornilovning xonasiga yig‘ilishib, anchagacha maslahatlashib o‘tirishardi.

Turmaga aylantirilgan ayollar gimnaziyasida ular shinam hayot kechirishardi. Turmaning tashqarisini Georgiyevskiy batalyoni-

ning askarlari, ichkarisini esa, taka turkmanlar qo'riqlar edi. Bu qo'riqchilar mahbuslarning erkinligini bir qadar siqib qo'ygan bo'lsalar-da, buning afzallik tomoni ham bor edi. Qo'riqchilar shunday qo'yilgan ediki, agar istasalar, mahbuslar xohlagan vaqtlarida bu yerdan bemalol qochib keta olar edilar. Turmada bo'lgan vaqtlarida ular tashqi dunyo bilan bahuzur aloqa qilib turdilar, tergovni va sudni tezlashtirishni talab qilib, burjua jamoatchiligiga tazyiq ko'rsatdilar. Fitna izlarini yo'qotib yubordilar, ofitserlarning qo'yinlariga qo'l solib ko'rdilar va nihoyat, qochishga tayyorlandilar.

Kornilov o'z yonida bo'lgan sadoqatli taka turkmanlarning g'amini yeb, Kaledinga murojaat qildi. Kaledin esa, uning talabi bilan Turkistondagi och qolgan taka turkmanlarning oilalariga tezlik bilan bir necha vagon g'alla jo'natdi. Kornilov fitnasida qatnashgan ofitserlarning oilalariga yordam ko'rsatish uchun u Moskva va Petrograddagi katta banklarning egalariga keskin mazmunda xat yozib murojaat qildi. Ular o'zlarining sirlari ochilib sharmanda bo'lib qolishlaridan xavotirlanib, tezlik bilan bir necha o'n ming so'm yubortirdilar. Kornilov bilan Kaledin o'rtasida noyabr oyigacha muttasil yozishma davom etdi.

Kornilov oktabr oyi o'rtalarida Kaledinga yuborgan katta xatida Dondagi ahvolni va o'zining u yerga borishiga kazaklarning qanday qarashini surishtirdi. Xatga Kaledindan ijobiy javob oldi.

Oktabr o'zgarishi Bixovdagi mahbuslarning oyog'i ostidagi zaminni larzaga keltirdi. O'zgarishning ertasigayoq har tomonga o'qday uchib choparlar jo'nab ketdi. Bir haftadan keyin esa mahbuslarning taqdiri haqida jonkuyarlik qilgan allakimning qistovi bilan Kaledin general Duxoninga xat yozib yubordi. Duxonin bu vaqt o'zini o'zi bosh qo'mondon deb e'lon qilgan edi. Kaledin bu xatida Kornilovni va boshqa mahbuslarni kafilga olishni qattiq iltimos qilgan edi. Kazak qo'shinlari soyuzi Soveti, armiya va flot ofitserlari soyuzi Bosh komiteti Bosh qarorgohga ham shunday iltimos bilan murojaat qildi. Duxonin esa sustkashlik ko'rsatdi.

1 noyabrda Kornilov unga xat yozdi, Duxonin xatining chekkalariga yozgan izohi Bosh qarorgohning juda zaiflanib qolganini ochiq ko'rsatuvchi bir dalil edi. Bu vaqtda endi Bosh qarorgoh

so‘nggi kunlarini kechirayotgan, ruhi tushgan armiya ustidan bo‘lgan o‘z hukmdorligini butunlay qo‘ldan boy bergan edi.

Marhamatli zoti oliy

Nikolay Nikolayevich!

Taqdir sizni shunday bir mavqega qo‘ydiki, mamlakatni halokatga eltuvchi hodisalarning borishini faqat sizgina o‘zgartira olasiz. Bu hodisalar katta qo‘mondonlik sostavining beqarorligi va masalaga befarq qarashi orqasida shunday tus olgan edi. Ba’zan shunday bir payt keladiki, bunda odamlar yo tavakkal qilib bir ish chiqarishi yoki iste’foga chiqishi kerak, aks holda mamlakatning halokati uchun javobgarlik va armiyaning batamom tor-mor bo‘lishi kabi sharmandalik dog‘i ularning zimmasiga tushadi.

Menga kelgan chala ma’lumotlarga qaraganda ahvol og‘irga o‘xshaydi-yu, lekin hali najotsiz emas. Basharti siz bosh qarorgohning bolsheviklar qo‘liga o‘tib ketishiga yo‘l qo‘ysangiz yoki bo‘lmasa, o‘z ixtiyoringiz bilan ularning hokimiyatini tan olsangiz, u holda najot to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmasa ham bo‘ladi.

Sizning ixtiyoringizdagi yarmi yo‘ldan ozdirilgan Georgiyevskiy batalyoni va kuchsiz taka turkmanlar polki zaiflik qiladi.

Hodisalarning borishini oldindan ko‘rib, shuni o‘ylayman-ki, siz shoshilinch ravishda shunday choralar ko‘rishingiz kerakki, bu tadbir bosh qarorgohni amin etib, bosib kelayotgan anarxiyaga qarshi kurashni uyushtirmoq uchun qulay sharoit yaratib bersin.

Men quyidagilarni shunday tadbir deb hisoblayman.

1. Tezlik bilan chex polklaridan birini va polk otliq askarlar polkini Mogilyov shahriga ko‘chirish;

Duxoninning izohi: *Bosh qarorgoh ularni ishonchli deb hisoblamaydi. Bu qismlar bolsheviklar bilan sulh qilishga birinchi bo‘lib kirishdilar.*

2. Polyak korpus qismlari tomonidan Orsha, Smolensk, Jlobin va Gomelni ishg‘ol qilish; buning uchun polyak korpuslari diviziyalari frontdagi kazak to‘pchilari bilan kuchaytirilsin.

I z o h: *Orsha va Smolenskni ishg‘ol qilmoq uchun 2-Kuban diviziyasi va Astraxan kazaklari brigadasi to‘plangan. Mahbuslarning xavfsizligi uchun birinchi polyak diviziyasi polkini Bixov shahridan olish yaramaydi. 1-diviziya qismlarida kadrlar zaif bo‘lib, shu sa-*

bahdan haqiqiy kuch hisoblanmaydi. Korpus Rossiyaning ichki ishlariga aniq aralashmaslik fikridadir.

3. Orsha – Mogilyov – Jlobin liniyasiga butun Chexo-Slovak korpusi qismlarini, Kornilov polki (Petrogradga olib borish bahonasi bilan) va eng mustahkam kazak diviziyalaridan bir-ikkitasini to'plash.

I z o h: *Kazaklar bolsheviklar bilan urushmaymiz deb qattiq turib olganlar.*

O'sha rayonga barcha ingliz, Belgiya bronemashina qismlarini to'plash, ularning komandasini faqat ofitserlardan qilish.

Mogilyov va unga yaqin punktlardan biriga, ishonchli soqchilar ostida, zapas miltiq, o'q, pulemyot, avtomat, miltiq va qo'l granatlari jamlash va ularni shu rayonga yig'iladigan ofitserlar va ko'ngillilarga bo'lib berish.

I z o h: *Bu chora ekssesslar chiqarishi mumkin.*

4. Don, Ters va Kuban qo'shinlari atamanlari hamda polyak va chex komitetlari bilan mustahkam aloqa o'rnatish va aniq bir qarorga kelish. Kazaklar mamlakatda tartib o'rnatishga ochiq tarafdor bo'lib chiqdilar. Polyaklar va chexlar uchun Rossiyada tartib o'rnatish esa hayot-mamot masalasidir.

Kundan kun vahimali xabarlar kelmoqda, Bixovdagilar bezovtalana boshlagan edi. Mogilyov bilan Bixov o'rtasida Kornilov tarafdorlarining avtomobillari u yoqdan bu yoqqa qatnab turar, ular Duxonindan mahbuslarni ozod qilishni talab etar edilar. Kazak soveti hatto maxfiy sur'atda tahdid ham qildi.

Sodir bo'layotgan voqealardan gangib qolgan Duxonin ikkilanib qolgan edi. 18-noyabrda u mahbuslarni Donga jo'natish haqida buyruq berdi-yu, lekin buyruqni darhol bekor qildi.

Ertasi kuni erta bilan Bixov gimnaziyasi – turmaning katta darvozasi oldiga hamma yog'iga loy sachragan avtomobil kelib to'xtadi. Haydovchi e'zoz-ikrom bilan avtomobil eshigini ochdi, mashinadan o'rta yoshli, kelishgan bir ofitser chiqdi. U qorovul ofitserga bosh shtab polkovnigi Kosunskiy nomiga yozilgan hujjatni ko'rsatdi.

– Men bosh qarorgohdan keldim. Qamoqqa olingan general Kornilovga shaxsiy topshirig'im bor. Komendantni qayerdan topsam bo'ladi?

yo‘q, kazak yovvoyi, yuragi toshdan deb o‘ylaydilar. Biz ham hammadek odammiz-da: xotinlarni yaxshi ko‘ramiz, qizlarni erkalatamiz, o‘z qayg‘uyimizga o‘zimiz yig‘laymiz, birovning xursandchiligi bilan ishimiz yo‘q... Sen qanday deb o‘ylaysan, Alyoshka? Mening hayotga mehrim zo‘r, dunyoda ne-ne nozaninlar borligini eslasam, yuragim orziqib ketadi! Nazarimda hech qaysisiga yetishadiganga o‘xshamayman. Siqilganimdan dod degim keladi! Xotinlarga shunday mushtoq bo‘lganmanki, har qanaqasini ham bag‘rimga tortgim keladi. Oriqmi, turiqmi, ishqilib, nozanin bo‘lsin... Buni qarang, zap aql topishibdi-da: o‘lguningcha bittasi bilan bo‘l emish, joningga tegsa ham o‘shani de emish. Tag‘in urushni chiqarishibdi, e-ha...

— Sen ho‘kizning sag‘riga kamroq tushirishganga o‘xshaydi, — deb beg‘araz so‘kindi Beshnyak.

Koshevoy chalqanchasiga tushib oldi-yu, indamadi, anchagacha poyonsiz osmonga qarab yotdi va xayol ichida jilmayib, muzlagan qattiq yerni qo‘llari bilan sekin silab qo‘ydi.

Smena kelmasdan bir soat burun ularni nemislar tappa bosib qoldi. Beshnyak o‘q uzdi-yu, tishlarini g‘ijirlatib, o‘lar holatda ikki bukilib o‘tirib qoldi: nemis nayzasi uning ichak-chavog‘ini ag‘darib, qovug‘ini yorib yuborgan, umurtqasiga qadalib qolgan edi. Koshevoyni esa miltiq qo‘ndog‘i bilan urib dumalatib tashladilar. Uni girdig‘um landshturmist yelkasiga ko‘tarib, yarim chaqirim joygacha olib bordi. Mishka o‘ziga kelib, og‘zidan qon kelganini bildi-da, entikib nafas oldi, bor kuchini to‘plab, nemisning yelkasidan yulqinib tushdi. Unga qarab baravariga o‘q uzdilar, ammo qorong‘i tun va chakalakzor joniga oro kirdi-yu, qochdi.

Chekinish to‘xtab, rus-rumin qismlari qurshovdan chiqqach, 12-polkni turgan joyidan olib, o‘z uchastkasidan bir necha chaqirim chaproqqa, ichkariroqqa tashlashdi. Polkka buyruq e’lon qilindi: «Qochoqlarning oldi to‘silsin, yo‘llarga poyloqchilar qo‘yilsin, dezertirlar ichkariga o‘tkazilmasin, ular ushlansin, qurol ishlatishdan ham tortinilmasin va soqchilar nazoratida diviziya shtabiga jo‘natilsin».

Mishka Koshevoy birinchi bo‘lib navbatchilikka chiqdi. U, yana uch kazak ertalab qishloqdan chiqib, vaxmistrning topshirig‘i bilan yo‘l yoqasidagi jo‘xoripoya etagiga joylashishdi. Yo‘l kichik o‘rmonzor yonida burilib, tepalikdagi chorburchak paykallar ora-

siga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘lardi. Kazaklar navbatma-navbat poyloqchilik qilishdi. Tushdan keyin o‘zlari tomonga kelayotgan o‘n chog‘liq askarni ko‘rib qolishdi. Askarlar yo‘l muyulishidagi qishloqchani yonlamasiga o‘tish niyatida kelayotgan edilar. O‘rmonzorga yaqin kelib, to‘xtadilar. Maslahatlashib turib, papiros chekdilar. Keyin yo‘llarini o‘zgartirib, shartta chapga burilib, to‘g‘riga qarab ketdilar.

Koshevoy jo‘xoripoya orasidan chiqib, sheriklaridan:

— Ovoz beraylikmi? — deb so‘radi.

— Osmonga o‘q ot.

— Hoy, to‘xtanglar!

Kazaklardan bir necha sarjin narida turgan askarlar hayqiriqni eshitib, bir lahza to‘xtadilar, keyin istar-istamas yo‘lga tushdilar.

— To‘x-ta! — deb baqirdi kazaklardan biri, osmonga ustma-ust o‘q uzib.

Kazaklar miltiqlarini qo‘lga olib, sekin yurib ketayotgan soldatlarni quvib yetdilar. Soqchilar boshlig‘i uryadnik Kolichev chopib kelib:

— Nega to‘xtamaysanlar, ablahlar? Qaysi qismdansanlar? Qayoqqa ketyapsanlar? Hujjatlaring bormi? — deb hayqirdi.

Askarlar to‘xtadilar. Uchtasi imillab miltig‘ini oldi. Eng orqadagisi etigining ko‘chib ketgan tag charmini telefon simi bilan bog‘lamoqchi bo‘lib engashdi. Ularning hammasi juldurvoqi, kir-chir edi. Shinellarining etagiga qo‘ytikanaklar yopishgan edi. Aftidan, shu kecha chakalak ichida tunab chiqishganga o‘xshardi. Ikkitasining boshida yozlik shapka, boshqalarnikida esa bog‘ichlari yechilib, silkinib kelayotgan kulrang to‘qima papax bor edi. Eng keyindagisi novcha va keksalardek bukchaygan askar, aftidan boshliq bo‘lsa kerak, salqi betlarini dirillatib, do‘rillagan pang ovoz bilan qichqirdi:

— Sizlarga nima kerak? Sizlarga daxl qilyapmizmi? Nega tirg‘ilib qoldilaring?

Uryadnik vajohat bilan uning gapini bo‘lib:

— Hujjatlaringni ko‘rsat! – dedi.

Moviy ko‘z va xumdondan yangi chiqqan g‘ishtday qip-qizil soldat kamaridan shishasimon granatani oldi-da, uni uryadnikning bur-

ni tagida o‘ynatib, sheriklariga bir qarab qo‘ydi, so‘ngra Yaroslavl shevasida bidirlab gapira ketdi:

— Mana, bizning hujjatimiz! Mana! Bu hujjat butun umringga yetadi! Joningni asrasang-chi, bo‘lmasa irg‘itib yuboraman, ichak-chavog‘ing ag‘darilib tushadi. Angladingmi? Angladingmi, deyapman? Angladingmi?

— Sen granata bilan hazillashma, — dedi uryadnik uning ko‘k-ragiga turtib. — Granata bilan bizni ko‘rqitaman deb xomtama bo‘lma, biz qo‘rqib bo‘pmiz. Modomiki qochoq ekansiz, yurlaring shtabga. U yerda sen kabi ta’viyalarni chiyiriqdan o‘tkazishadi.

Askarlar bir-biriga qarashib, miltiqlarini qo‘lga oldilar. Ulardan biri — qora mo‘ylov, rangi za’faron, aftidan shaxtyorga o‘xshagan soldat g‘azabnok ko‘zini Koshevoydan boshqa kazaklar ustiga ko‘chirib, shipshidi:

— Yo‘lni bo‘shat! Bo‘lmasa qorningga sanchamiz!.. Qochlaring deyapman. Xudo ursin, otib tashlayman!..

Ko‘kko‘z askar, granatani boshi ustida aylantirdi, oldindan novcha, bukchayganroq askar, miltig‘ining zanglagan nayzasi bilan uryadnikning shinelini ilib oldi, shaxtyorga o‘xshagan askar so‘kib, Mishka Koshevoyga qo‘ndog‘ini ko‘tardi, Mishkaning esa tepki ustidagi barmog‘i titrar, miltig‘ini mahkam qisib olgan tirsagi qaltirardi; kazaklardan biri ushoqqina askarni orqa yoqasidan ushlab, sudrab olib borar va orqamdan tushirib qolmasmikinlar deb olazarak bo‘lardi.

Jo‘xoripoyalarning qurigan barglari shitirlar edi. Past-baland yalanglikning orqa tomonidan tog‘ sirtlari ko‘m-ko‘k bo‘lib ko‘rinardi. Qishloq yaqinidagi ekinlari o‘rib olingan dalada targ‘il sigirlar o‘tlab yurardi. O‘rmonzor orqasida shamol muzdek yerning chang-to‘zonini uchirib yurardi. Fayzsiz sunbula kuni tinch; oftob nuri xira yoritib turgan bu manzara osoyishta va jimjit edi. Yo‘ldan sal nariroqda, insonlar ma’nosiz bir qahr-g‘azab bilan depsinib turar, yomg‘irga to‘ygan, don sochilgan serhosil yerga o‘z qonlarini to‘kishga hozirlanar edilar.

Ular bir oz g‘ijillashib olgandan keyin jahldan tushib, sekin-asta gzplasha boshladilar.

— Pozitsiyadan kelganimizga uch kun bo‘ldi! Biz front orqasida yurganimiz yo‘q! Siz bo‘lsangiz, qochib ketyapsiz, ayb axir! O‘z o‘rtoqlaringizni tashlab ketyapsiz-a. Bunday bo‘laversa, frontni kim ushlab turadi? Shu ham odamgarchilikmi!.. Mening yonginamdagi sherigimni nayza sanchib o‘ldirishdi, ikkalamiz maxfiy poyloqchilikda edik, sen bo‘lsang, urushda bo‘lmagansiz, deysan. Sen ham bizchalik urushda bo‘lsayding! — dedi jahl aralash Koshevoy.

— Bular bilan aytishib o‘tirishning nima hojati bor! — deb uning gapini bo‘ldi kazaklardan biri: — Yurlaring shtabga, gapni cho‘zmalaring!

— Kazaklar, yo‘lni bo‘shating! Bo‘lmasa, xudo haqi, otib tashlaymiz! — deb gap uqtirardi shaxtyorga o‘xshagan askar.

Uryadnik ta’na qilganday, qo‘llarini kerib qo‘ydi:

— Og‘ayni, biz bunday qilolmaymiz! Bizni o‘ldirib ketganingizda ham, baribir qutulib ketolmaysiz: anavi qishloqda bizning sotnyamiz turibdi.

Bukchaygan novcha askar, dam po‘pisa qilar, dam gap uqtirmoqchi bo‘lar, dam yalinib-yolvorardi. Nihoyat, tipirchilab, yag‘ir bo‘lib ketgan sumkasidan poxol bilan o‘ralgan bir shisha chiqardi, yaltoqlanib, Koshevoyga ko‘z qisib qo‘yib shivirladi:

— Hoy kazaklar, buning ustiga bir oz pul ham beramiz, o‘ziyam... nemis arog‘i... yana biror narsa so‘na qilamiz... Xudo haqi, bizlarni qo‘yib yuboring... uyda bola-chaqamiz chirqirab qolgan, o‘zingizdan qolar gap yo‘q. Azob-uqubatdan, g‘amdan ado bo‘ldik... Qachongacha chidab bo‘ladi?.. Yo xudo!.. Nahotki, bizlarni qo‘yib yubormasangiz? — u shoshib-pishib, etigining qo‘njidan tamaki xaltachasini oldi-da, ikkita g‘ijimlagan Kerenskiy pulini qoqib tushirdi-yu, zo‘rlab Koshevoyning qo‘liga tutqiza boshladi. — Ol, deyapman, ol! E, xudoyim-e! Mendan xavotirlanma!.. Busiz ham yetib olamiz!.. Pul degan qo‘lning kiri... pulsiz ham kunimiz o‘tib ketaveradi... Ol! Yana to‘plab beramiz...

Uyalganidan qip-qizil bo‘lib ketgan Koshevoy, qo‘lini orqasiga qilib, boshini chayqab, undan nari ketdi. Yuziga qon tepib, ko‘zlaridan yosh chiqib ketdi: «Beshnyak tufayli men toshyurak bo‘lib qoldim... Menga nima, zarur keptimi... o‘zim urushga qarshiman-u, odamlar-

ning yo'lini to'syapman-a, — shunday qilishga mening haqim bormi?.. Voy xudo urgur-e, qilg'ilig'ingni qara-ya! Voy it-e!»

Koshevoy uryadnik yoniga kelib, uni bir chekkaga tortib, ko'ziga qaramasdan dedi:

— Kel, bularni qo'yib yubora qolaylik! Sen nima deysan, Kolichev? Kel, xudo haqi, qo'yib yuboraylik!..

Uryadnik ham ko'zlarini yashirib, shu onda uyat bir ish qilayotganday:

— Mayli, ketaversinlar... — dedi. — Ularni boshimizga uramizmi? Biz o'zimiz ham, ko'p vaqt o'tmay, shu ko'yga tushamiz... Buni yashirib o'tirishning nima hojati bor!

Shuni deb u askarlarga o'girilib, norozi ohangda:

— Ablahlar! Rahmimiz kelib, sizlarga odamgarchilik qilsak, bizlarga pul qistirmoqchi bo'lasizlarmi? Nima, o'zimizda pul qurib qolganmi? — dedi bo'zarib. — Hamyoningni berkitib qo'y, bo'lmasa shtabga olib boraman.

Kazaklar bir chetga chiqib turdilar. Koshevoy uzoqdagi qishloqning bo'm-bo'sh ko'chalariga qarab-qarab qo'yib, uzoqlashib ketgan askarlarga baqirdi.

— Hoy, tentak buzoqlar! Nega yalanglikdan ketyapsizlar! Huv, anavi o'rmonzorga kirib, kechgacha o'tiring-da, kechasi yo'lga tushing! Boshqa postga duch kelib qolsalaring, shtabga olib boradilar!

Askarlar atroflariga alanglab qarab, bir muddat taraddudlanib turdilar-da, keyin isqirt bo'rilar singari turnaqator bo'lib, oq terak o'sib chakalak bo'lib ketgan pastqamlikka urib ketdilar.

Noyabrning boshlarida kazaklarning qulog'iga, Petrograddagi to'ntarish haqida bir-biriga zid xabarlar eshitila boshladi. Yuz bergan yangiliklardan hammadan ko'ra ko'proq xabardor bo'lgan shtab ordinaretslari, Muvaqqat hukumat Amerikaga qochdi. Kerenskiyni matroslar ushlab olib, sochini tap-taqir qilib qiribdilar-da, butun badaniga qora moy surtib, fohishadek Petrograd ko'chalarida ikki kun sazoyi qilib aylantirib yuribdilar, der edilar.

Keyinroq, Muvaqqat hukumatning yiqitilgani va hokimiyatning ishchi-dehqonlar qo'liga o'tgani haqida rasmiy ma'lumot olinganidan keyin, kazaklar sergaklanib pisib qoldilar. Ko'plar endi urush to'xtar ekan, deb xursand bo'lar, ammo 3-otliq askarlar korpusi Kerenskiy

va general Krasnov bilan birgalashib, Petrograd ustiga harakat etayotgan emish, vaqtdan foydalanib, Donga kazak polklarini olib borgan Kaledin janubdan yurish boshlagan emish degan mish-mish gaplar kazaklarning yuragiga g'ulg'ula solar edi.

Front parokanda holda edi. Agar oktabr oyida askarlar uyushmagan holda to'p-to'p bo'lib pozitsiyani tashlab chiqib ketsalar, noyabr oxirida butun-butun rotalar, batalyonlar, polklar keta boshladi, ba'zilari hech narsa olmay chekinar, ammo aksariyat polk mulkashyolarini talon-toroj qilib, skladlarni buzar, ofitserlarni otib tashlab, yo'l-yo'lakay talanchilik qilar, toshqin selday duch kelgan narsani ag'darib-to'ntarib, vatanlariga qaytar edilar.

Bunday vaziyatda 12-polkka qochoqlarni to'xtatish vazifasini yuklash ma'nosiz narsa edi. Shundan keyin polkni yana pozitsiyaga yuborib, o'z uchastkalarini tashlab ketgan piyodalarning bo'sh qolgan o'rnini to'ldirishga urinib ko'rdilar, biroq polk dekabrda pozitsiyani tashlab, saf tortib, eng yaqinidagi stansiyaga yetib oldi va polkning butun ashqol-dashqollari, pulemyotlari, zapas patronlari, otlarini vagonlarga yuklab, urush olovi ichida qolgan Rossiya ichkarisiga qarab jo'nadi.

12-polk eshelonlari Ukrainani bosib, Don tarafga yo'l oldi. Znamenka shahri yaqinida qizil gvardiyachilar polkni qurolsizlantirishga urinib ko'rdilar. Muzokara yarim soatga cho'zildi. Koshevoy va sotnya revolyusion-komitetlari raislari bo'lgan besh nafar kazak o'zlarini qurol bilan o'tkazib yuborishlarini iltimos qildilar.

— Qurol-aslahaning sizga nima keragi bor? — deb so'rashdi stansiya deputatlari Sovetining a'zolari.

— O'z burjuylarimiz va generallarimizni otib o'ldirish va Kaledinning belini sindirish uchun! — deb hamma uchun javob qildi Koshevoy.

— Qurol-yaroqlar o'zimizniki, qo'shinniki, bermaymiz, — deb kazaklar g'alva ko'tara boshladilar.

Qizil gvardiyachilar ularni o'tkazib yubordilar. Kremenchugda kazaklarni yana qurolsizlantirish uchun urinib ko'rdilar. Pulemyotchi kazaklar vagonlarning eshigi og'ziga pulemyotlarini qo'yib, stansiya binosini nishonga olganlaridan va sotnyalardan biri yoyilib, temiryo'l izining narigi tomoniga yotib olgandan so'nggina eshelonni qo'yib

yuborishga rozi bo'ldilar. Yekaterinoslav yaqinida kazaklar qizil gvardiyachilar bilan otishib ko'rdilar, lekin bu ham yordam bermadi, — polkni qisman qurolsizlantirdilar: qizil gvardiyachilar pulemyotlarni, yuzdan ortiq patron yashiklarini, dala telefoni apparatlarini va bir necha g'altak simni olib qoldilar. Ofitserlarni qamoqqa olish taklifini kazaklar rad etdilar. Butun yo'l bo'yi faqat birgina ofitserlarini — polk ad'yutanti Chirkovskiyni yo'qotdilar, uni kazaklarning o'zi o'limga hukm etdilar, hukmni Kokildor bilan yana qandaydir qizil gvardiyachi matros ijro etdi.

17-dekabrda kechga yaqin Sinelnikovo stansiyasida kazaklar ad'yutantni vagondan sudrab chiqdilar.

— Kazaklarni sotgan ofitser ana shumi? — deb kulib turib so'radi mauzer va yapon miltig'i bilan qurollangan qoradengizchi matros.

— Sen bizni adashyapti deb o'ylaysanmi? Yo'q, biz yanglishmadik, xuddi o'zini qo'lga tushirdik, — deb nafasi tiqilib javob qildi Kokildor.

Yasovul yordamchisi bo'lgan yosh ad'yutant orqasidan ovchi quvayotgan yirtqich hayvon kabi olazarak bo'lib atrofga qarar, terlagan kafti bilan sochlarini silar, yuzini jazillatib chaqib olgan sovuqni ham, miltiq qo'ndog'i bilan tushirib qolganlarida og'riqni ham sezmas edi.

Kokildor bilan matros uni vagondan nariroqqa olib bordi.

— Shunga o'xshash ifloslarning kasofati bilan odamlar g'alayon ko'taradilar, shunaqalarning kasriga revolyusiya bo'ldi. Hoy, akang o'rgilsin, ko'p qaltirayverma, uchinib qolasan, — deb Kokildor shivirladi-da, furajkasini yechib cho'qindi. — Ana endi ta'ziringni yeysan, janob yasovul.

Matros qo'lida mauzerni o'ynatib, ishshayib, Kokildordan:

— Tayyormisan? — deb so'rab qoldi.

— Tayyor!

Kokildor yana cho'qindi-da, oyoqlarini kerib, mauzerini ko'tarayotgan va diqqat bilan ko'zini qisayotgan matrosga ko'z qirini tashladi, so'ngra xunuk kulish qilib, matrosdan oldinroq o'q uzdi.

Chaplino yaqinida polk, anarxistlar bilan ukrainlar orasida borayotgan urushga tasodifan aralashib qoldi, uch kazakdan ajralib, qan-

daydir piyoda askarlar diviziyasi tomonidan ishg'ol qilingan yo'lni ulardan zo'rg'a tozalab, ming mashaqqat bilan qutulib chiqdi.

Uch kundan keyin polkning bosh esheloni Millerovo stansiyasida vagonlardan tushdi.

Qolganlari Luganskda qolib ketdi.

Yarim-yortisi qolgan polk (ikkinchi yarmi stansiyalarda tushib, uy-uylariga tarqalib ketdi) Kargin xutoriga yetib keldi. Ertasi kuni frontdan keltirilgan, avstriyaliklardan o'lja qilib olingan otlarni kimoshdi qilib sotdilar, polk aqchalari, kiyim-kechaklarini bo'lashib oldilar.

Koshevoy va Tatarsk xutorlik boshqa kazaklar kechga tomon uylariga yo'l oldilar. Tepaga chiqqanlarida, pastda, ilonday buralib, muzlari yaltiragan Chir soyining narigi betida Yuqori Dondagi eng chiroyli xutor – Kargin xutori ko'rindi. Bug' tegirmonining quvuridan halqa-halqa bo'lib tutun chiqib turardi. Xutor maydoniga to'plangan xaloyiq qorayib ko'rinardi; kechki ibodatga jom chalinayotgan edi. Kargin tepasining narigi tomonida Klimovsk xutoridagi oq tollarning uchi ko'rinadi, xutor orqasida osmonning yarmini alvon rangga bo'yagan quyosh botmoqda, ufqqa tutashib ketgan qor bosgan dasht oftob nurida tovlanadi.

O'n sakkiz otliq, uch tup yovvoyi olma o'sib yotgan tepalikdan oshib, otlarini yo'rg'alata-yo'rg'alata, egar charmlarini g'ichirlatib, sharq-shimol tomon yo'l oldi. Tepaning narigi tomonidagi yerlarni ayoz tun qorong'isi bosib kelmoqda. Kazaklar boshliqlariga o'ralib olib, ba'zan otlarini choptirib ketar edilar. Otlarning taqalari taraqlab quloqni bitkizar edi. Ot tuyoqlari ostida toptalib tekislangan yo'l janubga qarab cho'zilib ketgan; har ikki tomonni qor qoplagan, bir necha kun avval kun isiganda erib yerga yopishgan, o'tlarga ilashib muzlab qolgan qor oy nurida kamalakdek tovlanardi.

Kazaklar indamay otlarini niqtab qo'yar edilar. Yo'l janubga qarab ketgan. Kun botish tomonda Dubovenko jarligidagi o'rmon xuddi aylanayotganga o'xshardi. Yo'l chekkalarida quyonlarning mayda to'rga o'xshash izlari ko'zga chalinardi. Dasht ustida yetti qaroqchi yulduzlar turkumi bezakli kazak kamari kabi osmonning belini siqib olgan edi.

BESHINCHI QISM

I

1917-yil kech kuzida kazaklar frontdan qaytib kela boshladilar. Qartayib qolgan Xristonya ham o‘zi bilan 52-polkda xizmat qilgan uch kazak bilan birga qaytib keldi. Harbiy xizmatdan batamom bo‘shatilgan, avvalgisidek ikki beti qip-qizil Anikushka, to‘pchilardan Ivan Tomilin bilan Yakov Taqachi, ulardan keyin Shamil Martin, Ivan Alekseyevich, Zaxar Korolyov, beso‘naqay, daroz Borshchyovlar ham qaytdilar. Dekabr oyida to‘satdan Mitka Korshunov ham kelib qoldi. Bir haftadan keyin esa, 12-polkda xizmat qilgan bir to‘p kazaklar: Mishka Koshevoy, Proxor Zikov, Kashulin cholning o‘g‘li Andrey Kashulin, Yepifan Maksayev, Yegor Sinilinlar qaytishdi.

Avstriyalik ofitserdan tortib olingan chiroyli bo‘z otni minib, o‘z polkini tashlab ketgan qalmoqbashara Fedot Bodovskov Voronejdan keldi. Keyinchalik u Voronej guberniyasidagi revolyusiya g‘alayoni ichida qolgan bir qishloqdagi, qizil gvardiyachi otryadlari oldidan o‘z chopqir otiga ishonib qanday o‘tib kelganini hikoya qilib berdi.

Uning ketidan bolsheviklashgan 27-polkdan, Kamenskdan Merkulov, Petro Melexov va Nikolay Koshevoylar yetib keldilar. Ular, so‘nggi vaqtda 2-zaxira polkda xizmat qilgan Grigoriy Melexovning bolsheviklar tomoniga o‘tib, Kamenskda qolib ketgani to‘g‘risida xabar keltirdilar. Ilgari bebosh bo‘lgan ot o‘g‘risi, yangidan boshlangan olag‘ovur zamonda bamaylixotir yashamoq orzusida bolsheviklar tomoniga o‘tgan Maksimka Gryaznov 27-polkda qolib ketgan. Maksimka o‘ziga juda xunuk, lekin nihoyatda uchqur ot topib olibdi, der edilar. Ularning gapiga qaraganda, Maksimka otining butun belidan tasmaga o‘xshash uzun oq yo‘l o‘tgan ekan. Ot o‘zi pakanagina bo‘lsa ham bo‘yi cho‘ziq, rangi to‘riq ekan. Grigoriyni tilga ham olmas edilar. Hamqishloqlari bilan bir yo‘ldan ketmagani uchun

u to‘g‘rida gapirishni istamasdilar. Uning hamqishloqlari bilan topishish-topishmasligi noma’lum edi.

Kazaklar qaytib kelgach, mehmon-izlomlar bilan to‘lgan uylarda xursandchilik boshlandi. Bu xursandchilik o‘z tug‘ishganlari va yaqinlaridan abadiy mahrum bo‘lgan kishilarning hasratlariga hasrat qo‘shar edi. Bir talay kazaklar qaytmagan edi. Ularni Galitsiya, Bukovina, Sharqiy Prussiya, Karpat tog‘ etaklari, Ruminiya dalalarida otib tashlagan edilar. To‘plar gumburlab turgan dashtlarda ularning behisob murdalari chirib yotar, ularning mozorlarini o‘t bosib ketgan, yomg‘irlar cho‘ktirgan, qor bosgan. Kazak ayollari boshyalang bo‘lib, ko‘cha-ko‘yga chopib chiqib, naqadar intizorlik bilan boqmasin, mehribon yostiqdoshlaridan darak topolmaydilar. Shishinqiragan va nursizlangan ko‘zlardan qancha yosh oqmasin, baribir, g‘am-g‘ussani yuvib ketolmaydi. Ular o‘z yaqinlarining yil oshlari va ma’rakalarida naqadar dodlab yig‘lamasinlar, sharq shamoli ularning faryodlarini Galitsiya va Sharqiy Prussiyaga, cho‘kkan qardoshlik mozorlariga uchirib olib borolmaydi.

Mozorlarni o‘t bosib ketadi, vaqt o‘tishi bilan g‘am-g‘ussa unutiladi, shamol ketganlarning izlarini o‘chirib tekislab ketadi, zamon esa qayg‘u-alamni, o‘z yaqinlarini orziqib kutganlarning xotirasini esdan chiqaradi. Insonning hayoti qisqa bo‘lgani uchun o‘t-o‘lanlarni uzoq vaqtgacha payhon qilish kishiga nasib bo‘lmagani uchun ham kutishga umr kifoya qilmaydi.

Proxor Shamilning xotini marhum erining ukasi Martin Shamil frontdan qaytib kelib, o‘z homilador xotinini bag‘riga bosganini, bolalarini erkalatganini, ularga sovg‘alar ulashib berganini ko‘rib, boshini qora tuproqqa urib, yer timdalar edi. Proxorning xotini o‘zini savalab, tizzalab yer uzra sudralar, bir tomonda bolalar qo‘ydek g‘uj bo‘lib olib, faryod ko‘targan onalariga qarashar, qo‘rqqanlaridan dodlashardi.

Faryod ko‘tar, ey bechora ayol, yagona ko‘ylagingning yoqasini chok-chok qil, og‘ir va ko‘ngilsiz hayotdan siyraklashgan sochlaringni yul! Qontalash lablaringni tishla, mehnatda mayishgan qo‘llaringni qayir, buk! Huvullab qolgan uying bo‘sag‘asiga kallangni ur! Uying egasiz, o‘zing ersiz, bolalaring otasiz qolgan. Shuni bilki, o‘zingni ham, yetimchalaringni ham endi hech kim erkalatmaydi. Seni og‘ir

ish va qashshoqlikdan hech kim xalos etolmaydi. Kechalari sening boshingni o‘z bag‘riga bosadigan hech kimsa yo‘q, holdan toyib charchab yiqilganingda, bir vaqtlar u: «Xafa bo‘lma, Aniska! Bir amallab kun kechiramiz», degandek gapni endi hech kim aytmaydi. Endi seni er olmaydi, chunki seni mehnat, muhtojlik va bolalar tinka-madoringni quritgan, husningdan ayrilgansan. Yarim yalang‘och mishiqi bolalaring endi otalik bo‘lolmaydi. Yerni o‘lib-tirilib o‘zing haydaysan, o‘zing mola bosasan. O‘roq mashinada o‘zing ishlaysan, bug‘doy bog‘larini o‘zing aravaga ortasan. Og‘ir bug‘doy bog‘larini panshaxa bilan o‘zing ko‘tarasan, ichingda bir narsa uzilsa, juldur ko‘rpani yopinib olib, to‘lg‘anasan, qonga belanasan.

Aleksey Beshnyakning eski oq ko‘ylagini qo‘liga olib onasi zor-zor yig‘lar, Mishka Koshevoy olib kelgan va choklarida o‘g‘lining ter isi qolgan so‘nggi ko‘ylagini iskar, yuzlariga surtib, chayqalib, aytib-aytib yig‘lar, muhr bosilgan kir bo‘z ko‘ylagini ko‘z yoshlari bilan ho‘l qilar edi.

Manitskov, Afonka Ozerov, Yevlantiy Kalinin, Lixovidov, Yermakov va boshqa kazaklarning bola-chaqalari ham yesir qoldilar.

Yolg‘iz Stepan Astaxovga hech kim yig‘lamadi, chunki yig‘laydigan kishisi ham yo‘q edi. Uning mixlab qo‘yilgan, yozda ham sovuq ko‘ringan xaroba uyi huvullab yotardi. Aksinya Yagodnoyeda turar, xutorda uning haqida burungidek kam eshitishar, o‘zi ham xutorga borgisi yo‘q, xabar olgisi ham kelmas edi.

Donets okrugining yuqori stanitsalaridan bo‘lgan kazaklar o‘z hamqishloqlari bilan to‘p-to‘p bo‘lib kelar edilar. Vyoshenskaya stanitsasiga qarashli qishloqlarga frontdagi hamma kazaklar qaytib keldi.

Tatarsk xutori ichidan kecha-kunduz to‘da-to‘da otliq askarlar Don daryosining so‘l tomoniga o‘tib turardi.

Chollar uylaridan chiqib:

— Hoy, askar bolalar, qayerdansizlar? — deb so‘rardilar.

— Qorasoydan.

— Zimovnayadan.

— Dubrovkadan.

— Reshetovskayadan.

— Dudarevskayalik.

— Goroxovskayalik.

— Alimovskayalik, — deb javob qilar edilar kazaklar.

— Urushib xumordan chiqdingizmi? — deb so'rar edilar chollar piching qilib.

Ba'zi insofli va yuvosh frontchilar muloyimlik bilan kulib:

— Bas qildik, urushib xumordan chiqdik, — der edilar.

— Abgor bo'ldik, endi uy-uyimizga ketyapmiz.

Serjahl, dovyurak kazaklar onadan so'kib qolardilar.

— Nega surishtiraverasiz? Sizga nima daxli bor? Sizga o'xshagan ezma chollar bu yerda achib yotibdi! — deb o'dag'aylashardi kazaklar.

Qish oxirida Novocherkasskda fuqarolar urushi boshlanib, dastlabki janglar bo'ldi, Donning yuqori qismida xutor va stanitsalar suv quygandek jim-jit edi. Kazaklarning uylarida oila a'zolari o'rtasida maxfiy, ba'zan oshkor ichki nizolar bo'lib turardi: chollar frontchilar bilan chiqishmas edilar.

Don qo'shinlari viloyatining poytaxt shahri yaqinida boshlangan qizg'in janglar to'g'risida mish-mish gaplar yurardi; kazaklar yuz bergan siyosiy oqimlar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaganlari uchun voqealarning nima bilan tugashini to'rt ko'z bilan kutar edilar.

Yanvargacha Tatarsk xutori osoyishta hayot kechirdi. Frontdan qaytib kelgan kazaklar xotinlar yonida dam olib yotar, to'yguncha ovqat yeb qorin solar, lekin uylarining bo'sag'alarida ularni urushda boshlaridan kechirgan baloyi-ofatlardan ham og'ir falokatlar kutib turganini bilmas edilar.

II

Grigoriy Melexov janglarda ko'rsatgan mardligi uchun 1917-yilning yanvarida xorunjiylik martabasiga ko'tarildi va 2-zaxira polkning vzvod ofitseri qilib belgilandi.

Sentabr oyida, zotiljam kasalidan tuzalganidan keyin ta'til oldi. Uyida ikki yarim oycha turib, butunlay sog'ayib ketgach, okrug tibbiy komissiyasidan o'tdi va yana polkka yuborildi. Oktabr inqilobidan keyin sotnya komandiri vazifasiga tayinlandi. Xuddi shu vaqtda uning ruhida o'zgarish paydo bo'ldi, bu uning atrofida bo'layotgan

hodisalar, qisman polk ofitserlaridan yuzboshi Yefim Izvarin bilan tanishganidan keyin uning ta'siri natijasida yuz bergan o'zgarish edi.

Grigoriy ta'tildan qaytib kelgan kuniyoq Izvarin bilan tanishdi, keyin xizmat vaqtida va xizmatdan bo'shaganidan keyin hamisha u bilan ko'rishib turdi, uning ta'siri ostiga tushganini o'zi ham sezmay qoldi.

Yefim Izvarin Gundorovsk stanitsalik boy bir kazakning o'g'li bo'lib, Novocherkassk yunkerlar maktabida ta'lim oldi. Uni tamomlagach frontga ketib, 10-Don kazaklar polkiga xizmatga kirdi, bu polkda bir yilcha xizmat qildi, o'zining ta'biricha, ko'kragiga osish uchun ofitserlik Georgiy nishoni oldi, munosib va nomunosib joyidan o'n to'rt marta granata parchasi tegib yaralandi, keyin o'zining qisqa muddatli xizmatini tugallash uchun 2-zaxira polkka tushib qoldi.

Juda qobiliyatli, shubhasiz iste'dod egasi bo'lgan Izvarin kazak ofitserlari ola biladigandan ham ancha yuqoriroq ma'lumot olgan, lekin ashaddiy kazak avtonomisti edi. Fevral revolyusiyasi uning fikrini uyg'otib, erkin harakat qilishga imkon berdi, u mustaqillik tarafdori bo'lgan kazaklar bilan aloqa bog'lab, Don qo'shinlari viloyatida to'la avtonomiya o'rnatish uchun, Don kazaklari samoderjaviye asoratiga tushguncha u yerda mavjud bo'lgan usul-idora tartibini tiklash uchun ustalik bilan tashviqot yurgizdi. U tarixni yaxshi bilar, aqli raso, hushyor va qiziqqon odam edi. O'z qadrdon Donida Kengash hukmron bo'lganda, viloyat miqyosida bitta ham rus qolmaganida va kazaklar o'z hukumat chegaralariga soqchilar qo'yib, ukrainlar va velikoruslar bilan teng asosda, bemalol gaplashadigan va ular bilan savdo-sotiq va mol ayirboshlash qila boshlagan davrda naqadar erkin hayot bo'lishini qiziqarli qilib tasvirlab berar edi. Izvarin soddadil kazaklar va past ma'lumotli ofitserlarning boshini aylantirardi. Grigoriy ham uning ta'siri ostiga tushib qoldi. Boshda ular qizg'in tortishardi, ammo chalasavod Grigoriy o'z raqibi oldida zaif edi. Daxanaki jangda Izvarin uni yengardi. Ular odatda kazarmaning bir burchagida munozara qilishar, lekin tinglovchilar aksari Izvarin tarafida bo'lar edilar. U kelajakdagi mustaqil hayot manzarasini tasvirlab berib, o'z mulohazalari bilan kazaklarga manzur bo'lar, aksari o'ziga to'q pastki tabaqa kazaklarning ko'nglidagi orzularini qitiqlar edi.

— Bizda bug‘doydan boshqa hech narsa bo‘lmagandan keyin Rossiyasiz qanday yashamog‘imiz mumkin? — deb so‘rardi Grigoriy.

Izvarin sabr-matonat bilan unga tushuntirardi:

— Men Don viloyatining yolg‘iz o‘zini mustaqil va alohida yashashini tasavvur etolmayman. Biz Kuban, Terek kazaklari va Kavkaz tog‘liklari bilan federatsiya, ya’ni birlashish asosida yashaymiz. Kavkazda ma’dan boyligi serob, u yerda biz har narsa topamiz.

— Toshko‘mir-chi?

— Donets ko‘mir havzasi ixtiyorimizda bo‘ladi.

— Axir u Rossiyaniki-ku!

— Uning kimniki ekanligi va kimning yeridaligi janjalli masala, lekin basharti Donets ko‘mir havzasi Rossiyaga o‘tgan taqdirda ham biz ko‘p narsa yo‘qotmaymiz. Bizning federatsiya ittifoqimiz sanoatga suyanmaydi. Bizning o‘lkamiz tabiatan dehqonchilik o‘lkasi. Modomiki shunday ekan, mo‘jazgina sanoatimizni toshko‘mir bilan ta’minlamoq uchun biz uni Rossiyadan sotib olamiz. Yolg‘iz toshko‘mirnigina emas, boshqa ko‘p narsalarni ham Rossiyadan sotib olamiz. Chunonchi, yog‘och, ma’dan sanoati buyumlari va shu singarilarni. Bularning badaliga a’lo sifat bug‘doy, neft beramiz.

— Ajralishdan bizga nima naf?

— Nafi ma’lum. Avvalo, siyosiy homiylikdan qutulamiz, rus podsholari poymol etgan tartiblarimizni tiklaymiz, kelgindilarni surib chiqaramiz. O‘n yil mobaynida chet ellardan mashina kirgizish yo‘li bilan o‘z xo‘jaligimizni shunday ko‘taramizki, o‘n karra boyib ketamiz. Bu yerlar o‘zimizniki, ota-bobolarimizning qoni bilan sug‘orilgan, suyaklari o‘g‘it bo‘lgan, Rossiya asoratida qolgan bizlar esa, to‘rt yuz yildan beri Rossiyaning manfaatlarini himoya qilib, o‘zimizni unutdik. Dengizga chiqiladigan yo‘llarimiz bor. Bizning juda kuchli va urishqoq armiyamiz bo‘ladi. Ukrainagina emas, balki Rossiya ham bizning mustaqilligimizga qasd etolmaydi!

O‘rta bo‘yli, qaddi-qomati kelishgan, chorpahil Izvarin borib turgan kazak edi: jingalak sochlari sarg‘ish, pishmagan javdar poyasiga o‘xshash, yuzlari qoracha, peshonasi yassi va oq, yuzlari andek qoraygan, qoshlari oqish. Uning ovozi jingillagan, gaplashganda chap qoshi pir-pir uchib turar, kichkina qirra burnini jiyirib qo‘yardi. Go‘yo doim bir narsani iskagandek bo‘lib ko‘rinardi.

Shahdam qadam tashlashlari, bo‘y-bastiga bino qo‘yishi, qo‘y ko‘zlarini parpiratib turishi bilan u polkdagi boshqa ofitserlardan ajralib turardi. Kazaklar unga, hatto polk komandiridan ham ko‘proq hurmat nazari bilan qarar edilar.

Izvarin Grigoriy bilan uzoq suhbatlashar, Grigoriy esa yaqindagina mustahkam bo‘lgan oyog‘i ostidagi zamin yana larzaga kelayotganini sezib, Moskvada bir vaqtlar Snegiryov ko‘z shifoxonasida Garanja bilan uchrashgan vaqtida qanday holga tushgan bo‘lsa, hozir ham shunday holga tushdi.

Oktabr o‘zgarishidan bevosita keyinroq Izvarin bilan o‘rtalarida shunday gap bo‘lib o‘tdi. Bir-biriga zid fikrlar qiynog‘ida qolgan Grigoriy ehtiyotlik bilan bolsheviklar haqida so‘rab-surishtirdi.

— Qani ayt-chi, Yefim Ivanich, seningcha bolsheviklar qanday? Haqmi, nohaqmi?

Izvarin qoshini chimirib, burnini g‘alati jiyirib, kuldi.

— Nima deding? Ha-ha-ha!.. Azizim, sen xuddi chaqaloqqa o‘xshaysan... Bolsheviklarning o‘z programmasi, o‘z istiqboli, o‘z orzu-umidlari bor. Bolsheviklar o‘z nuqtayi nazarlarida haq, biz esa o‘z nuqtayi nazarimizda. Bilasanmi, bolsheviklar partiyasining nomi nima? Yo‘q? Nahotki bilmasang... Rossiya sotsial-demokrat ishchilar partiyasi. Tushundingmi? Ishchilar! Hozir ular dehqonlar bilan kazaklarni avrayapti, ammo ularning o‘zagi ishchilar sinfi. Ular ishchilarni ozod qiladilar, dehqonlarni, ehtimol, battarroq asoratga tushirarlar. Hayotda hammaning teng yashashi mumkin emas. Bolsheviklar ustun chiqsa, ishchilarga yaxshi bo‘ladi, boshqalarga yomon. Bizga unisining ham, bunisining ham keragi yo‘q. Bizga o‘z hokimiyatimiz kerak, avvalo, har qanday homiylardan, u Kornilov bo‘ladimi, Kerenskiymi yoki Leninmi, xalos bo‘lish kerak. Biz o‘z yerimizda bu siymolarsiz ham kun ko‘raveramiz. Xudo o‘zing do‘stlardan bizni qutqar, dushmanlarni o‘zimiz bartaraf qilamiz.

— Ammo kazaklarning ko‘pchiligi, bilsang, bolsheviklar tarafida.

— Do‘stim Grisha, sen bir narsani tushungin — bu muhim narsa, hozir kazaklar bilan dehqonlar bolsheviklar bilan yo‘ldosh. Nega degin.

— Xo‘sh?

— Chunki... — Izvarin burnini shishirib kuldi. — Chunki bolsheviklar sulh tarafdori, darhol sulh tuzish tarafdori. Urushning og'irligi hozir kazaklarning mana bu yerida!

U o'zining qorayib ketgan gardaniga shapatilab urdi va hayrat bilan chimirilgan qoshlarini to'g'rilab:

— Shunga ko'ra kazaklardan bolshevizm hidi kepqoldi, ular bolsheviklar bilan baravar qadam tashlaydilar. Ammo urush tamom bo'lishi bilanoq bolsheviklar kazaklarning yer-suvlariga qo'llarini cho'zadilar, shu zahoti kazaklar bilan bolsheviklarning yo'li ajralib ketadi! Bu narsa isbotlangan va tarixan muqarrardir. Kazaklarning bugungi tarzi hayoti bilan bolshevistik revolyusiyaning natijasi bo'lgan sotsializm orasida osmon bilan yercha farq bor...

— Men rostini aytsam... — deb po'ng'illadi Grigoriy, — hech narsaga aqlim yetmay qoldi. Bu masalani tagigacha tushunib yetolmayman... Kallam g'ovlab qolgan.

— Bu gap bilan sen qutulib ketolmaysan! Hayot seni tagigacha tushunib yetishga majbur etadi, majbur etish u yoqda tursin, seni zo'rlab u yoki bu tomonga o'tkazib qo'yadi.

Bu suhbat oktabr oyining so'nggi kunlarida bo'lgan edi. Noyabrda esa Grigoriy boshqa bir kazak — Dondagi revolyusiya tarixida katta rol o'ynagan Fyodor Podtelkov bilan tanishib qoldi, bir oz taraddudan keyin u o'zining qalbidagi haqiqat yana ustun chiqqanini bildi.

O'sha kuni choshgohdan keyin mayda yomg'ir sepalab yog'a boshladi. Kechga yaqin havo ochilib ketdi. Grigoriy esa o'z hamqishlog'i — 28-polkda xizmat qilgan xorunjiy yordamchisi Drozdovning kvartirasiga borishga qaror qildi. Oradan chorak soat o'tgach, u ostona tagidagi oyoq ostiga solingan lattaga etigini artib, Drozdovning eshigini taqillatdi. Majmag'il fikus gullari bilan bezalgan va eskirgan mebel bilan jihozlangan uyda mezbondan tashqari buklama ofitsercha karavotda, derazaga orqa qilib, gvardiya batareyasi vaxmistri pogonini taqqan barvasta, miqti kazak o'tirar edi. U bir oz bukchayib, qora movut shim kiygan oyoqlarini kerib, sarg'ish tuk bosgan qo'llarini yumaloq tizzalari ustiga qo'yib o'tirardi. Gimnastorkasi uning belini qisib, qo'ltiqlarining osti burishib keng, to'la ko'krag'ini tarang qilib turar edi. Eshik g'irchillab ochilishi bilan u

yo‘g‘on bo‘ynini o‘girib, Grigoriyga sovuq bir nazar tashladi, shunda bir oz shishinqiragan qovoqlari ostidagi qiyiq ko‘zlari sovuq yaltirab ketdi.

— Tanishinglar. Grisha, bizning qo‘shni qishlog‘imiz Ust-Xopyorskdan, Podtelkov.

Grigoriy bilan Podtelkov indamay qo‘l qisishdi. Grigoriy o‘tirar ekan uy egasiga qarab kuldi:

— Uyingni iflos qildim, xafa bo‘lmaysanmi?

— Yo‘q, qo‘rqma. Uy bekasi tozalaydi. Choy-poy ichasanmi?

Chuvakkina, epchil uy egasi tamaki tutunidan sarg‘ayib ketgan tirnoqlari bilan samovarni chertib:

— Suvi o‘lib qopti, sovuq choy ichishga to‘g‘ri keladi endi, — dedi.

— Choy ichgim yo‘q, ovora bo‘lma. – Grigoriy Podtelkovga papiros tutdi.

O‘zining qip-qizil, yo‘g‘on barmoqlari bilan Podtelkov papiros qutisiga tig‘iz qilib solingan papiroslardan birini tortib chiqarmoqchi bo‘ldi-yu, keyin uyalganidan qip-qizarib ketib, jahl aralash:

— Tortib chiqarolmayman... Voy savil qolgur-e! — dedi.

U nihoyat, bir donasini tortib chiqardi-da, kulgidan qisilib ketgan ko‘zlarini ko‘tarib, Grigoriyga qaradi. Grigoriyga uning soddaligi yoqdi.

— Qaysi xutordansiz? — deb so‘radi u.

— Men asli krutovskiylikman, — deb mamnuniyat-la javob qildi Podtelkov. — O‘sha yerda o‘sib katta bo‘lganman, keyin Ust-Kalinovskayaga kelib turib qoldim. Krutovskiy xutorini bilarsiz, ehtimol, eshitgandirsiz? Bu xutor Yelan bilan chegaradosh.

Pleshakov xutorini ko‘rganmisan? Uning orqasi Matveyev xutori, bizning stanitsaning yonboshida Tyukanov degan xutor bor, u yog‘i men tug‘ilgan xutor: Yuqori va Quyi Krutovskiy xutorlari.

Butun suhbat davomida u Grigoriyni dam sensirar, dam sizsirar, tortinmasdan bemalol gaplashardi, hatto bir marta uni o‘ziga yaqin olib, o‘zining og‘ir qo‘li bilan yelkasiga qoqib ham qo‘ydi. Podtelkovning yuzi yalpoq, sal-pal cho‘tir, soqoli qirtishlab olingan, mo‘ylovlari burab qo‘yilgan, yiltirab turar, ho‘llangan, taralgan sochlari kichkina quloqlarigacha tushib turar, chap tomondagi sochi taroq bilan jingalak qilib qo‘yilgan edi. Uning qiyofasi odamga

yoqar, biroq katta tanqaygan burni bilan ko'zlari xunukroq edi. Birinchi qarashda uning ko'zlarida g'ayrioddiy hech narsa yo'qdek edi, lekin Grigoriy tikilib turib, bu ko'zlarning odamga tikandek qadalishini sezdi. Soqqaga o'xshagan bu ko'zlar qo'rg'onlardagi shinakka o'xshash qiyiq qovoqlari orasidan yaltirab qarab turar, unga tikilgan odamning ko'zini yerga qaratar, bir nuqtaga tikilganicha qotib qolardi.

Grigoriy bu odamga qiziqsinib qarab turib, uning o'ziga xos bo'lgan bir odati borligini sezdi: Podtelkov ko'zlarini sira yummas, suhbatdoshidan o'qraygan ko'zini olmas, gaplashganda, ko'zlarini dam-badam bir narsadan ikkinchi narsaga ko'chirib turar, oftobdan sarg'aygan qisqa kipriklari doim tushirilgan, harakatsiz edi. Ahyon-ahyonda shishinqiragan qovog'ini tushirib, yerga qarab qolardi, lekin yana birdan boshini ko'tarib tikandek ko'zlarini bir yerga tikar, atrofdagi narsalarni ko'zdan kechirib chiqardi.

— Juda qiziq gap-a, og'aynilar! — dedi Grigoriy uy egasi va Podtelkovga murojaat qilib. — Urush tamom bo'lsa, biz yangicha hayot kechira boshlaymiz. Ukrainada hukumatni Rada[1] bizda esa Qo'shin Kengashi boshqara boshlaydi.

— Ataman Kaledin, — dedi past ovoz bilan Podtelkov uning gapini to'g'rilab.

— Baribir. Nima farqi bor?

— Hech qanaqa farqi yo'q, — deb uning gapiga qo'shildi Podtelkov.

Grigoriy:

— Endi biz ona Rossiyaga engashib ta'zim qilib bo'pmiz, — deb Izvarinning nutqlarini takrorlay boshladi; bu masalaga Drozdov bilan bu barvasta gvardiya to'pchisining qanday qarashlarini bilib olmoqchi bo'ldi. — O'z hokimiyatimiz, o'z tartib-nizomimiz bo'ladi. Xoxollarni kazak yerlaridan quvib chiqaramiz, chegaramizni ajratib olamiz, — yaqin kelmalaring, deymiz. Qadimgi vaqtlarda bobolarimiz qanday yashagan bo'lsa, biz ham shunday yashaymiz. O'ylashimcha, revolyusiyaning bizga nafi yo'q. Sen nima deb o'ylaysan, Drozdov.

---

[1] *Rada* – Ukrain burjuaziyasining 1917–1919-yillardagi kontrrevolyusion tashkiloti. (Tarj.)

Uy egasi qilpanglab, kulimsirab qo'ydi.

— Albatta, yaxshi bo'ladi! Mujiklar kuch-quvvatimizni olib qo'ydilar, ularning dastidan kun ko'rolmaymiz. Tayinlangan atamanlar hammasi nemis: fon Taube, fon Grabbe va shunga o'xshashlar! Hamma yerlarni shu shtab-ofitserlarga qirqib berdilar... Endi, hech bo'lmasa, yengilroq nafas olamiz.

— Rossiya bunga ko'narmikin? — deb asta so'radi Podtelkov, hech kimga murojaat qilmay.

— Ko'nmay nima qilardi, — dedi Grigoriy.

— Yana o'sha eski hammom, eski tos ekan-da.

— Xuddi shundoq. — Podtelkov soqqadek ko'zlarini g'ildirlatib, Grigoriyga yer ostidan o'qrayib qarab qo'ydi. — Yana mehnatkash xalq ustiga atamanlar minib oladi. U janoblar oldida ta'zim qilib turasan, ular yumshoq joyingga tushiraveradilar. O'sha sen aytgan yaxshi hayot... bo'lsa, bo'ynimizga tosh bog'lab, jarga itaradilar!

Grigoriy o'rnidan turib, torgina xona ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi, bir necha marta oyoqlarini kerib o'tirgan Podtelkovning tizzasiga oyog'ini urib oldi. Keyin uning ro'parasida to'xtab:

— Bas, nima qilish kerak? — deb so'radi.

— Oxirigacha yetkazish kerak.

— Nimani oxirigacha?

— Bir ishni boshlagandan keyin uni oxirigacha oborish kerak. Modomiki podsho bilan kontrrevolusiyaga qarshi ekanmiz, hokimiyatning ham xalq qo'liga o'tishi uchun kurashuvimiz kerak. Sening aytganlaring — quruq safsata, bular bilan faqat bolalarni aldasa bo'ladi. Ilgarilari bizni podsholar ezar edi, endilikda esa podsholar emas, boshqa kimsalar ezib suvimizni chiqaradi.

— Shunday bo'lsa, sening fikring qanday, Podtelkov?

Podtelkovning soqqaga o'xshash og'ir ko'zlari tor uyni yana boshdan oyoq qarab chiqib:

— Xalq hokimiyati... saylanib qo'yiladigan hokimiyat kerak, — dedi. — Agar generallarning panjasiga tushib qolsak, yana urush bo'ladi, urushni esa biz boshimizga uramizmi! Hamma yoqda, butun dunyoda shunday hukumat barpo etmoq lozimki, u xalqni ezmasin, xalqlarni bir-biriga gij-gijlab urishtirmasin. Shunday bo'lmasa-chi? Yirtiq-yamoq chalvarni teskarisini aylantirib kiysang ham yirtig'i

«ajiy» deb ko'rinib turadi. — Podtelkov qo'llari bilan tizzasiga shapatilab urib zaharxanda qilib kuldi, sadafdek oppoq mayda tishlari ko'rinib ketdi. — Biz iloji boricha eski hayotdan qutulishimiz kerak, bo'lmasa podsho bo'yinturug'idan ham og'irroq bo'yinturuqni bo'ynimizga soladilar.

— Bizlarni kim idora qiladi?

— O'zimiz! — dedi Podtelkov jonlanib. — Hokimiyatni o'z qo'limizga olamiz, — o'zimiz idora etamiz. Boshvog'imizni sal bo'shatib qo'ysalar, Kaledinlarni o'zimiz ustimizdan itqitib tashlaymiz!

Grigoriy terlagan oyna oldida qaqqayganicha, xiyla vaqtgacha ko'chada, g'alati bir o'yin o'ynayotgan bolalarni tomosha qildi, narigi tomondagi uylarning ho'l tomlariga, uy oldida o'sgan yaydoq qora terakning kulrang novdalariga tikilib qoldi; Drozdov bilan Podtelkov nima ustida tortishayotganlarini eshitmadi; chuvalgan kalavaning uchini topish, miyasini ishlatib, bir qarorga kelishga urindi.

Grigoriy deraza oldida o'n daqiqacha turib, oynaga o'z ismi va familiyasining bosh harflarini chaplashtirib chizdi. Deraza ro'parasida, pastakkina uyning tomi ustida mezon quyoshi holdan ketib, botmoqda: zanglagan tunuka tomning qirrasiga qo'ngan quyosh ho'l mis barkash singari qizarib, tomning yo u yog'iga, yo bu yog'iga dumalab tushib ketadigandek ko'rinar edi. Yomg'irdan shalabbo bo'lgan shahar bog'idan shitirlab barglar uchib kelar, Ukrainadan, Luganskdan esgan va borgan sari kuchayayotgan shamol stanitsa ustida g'uvullar edi.

III

Novocherkassk bolshevistik inqilobdan qochganlar yig'iladigan markazga aylandi. Parokanda bo'lgan rus armiyasining taqdirini bir vaqtlar hal qilgan katta generallar reaksiyachi donliklarning yordamidan umidvor bo'lishib, quyi Donga kela boshladilar, ular shu platsdarmdan Sovet Rossiyasiga qarshi hujumga o'tish niyatida edilar.

2-noyabrda rotmistr Shapron hamrohligida general Alekseyev Novocherkasskka yetib keldi. Kaledin bilan til biriktirib, ko'ngilli otryadlar tuza boshladi. Shimoldan qochib kelgan ofitserlar, yunkerlar «zarbdorlar», talabalar, kazaklarning eng kontrrevolyusion tabaqalari

va ajoyib sarguzashtlarni sevadigan Kerenskiy puli bilan bo'lsa-da, katta maoshlar olish dardida yurgan odamlar, — kelajak Ko'ngilli armiyaning o'zagini tashkil qildilar.

Noyabr oyining oxirlarida generallardan Denikin, Lukomskiy, Markov, Erdelilar yetib kelishdi. Bu vaqtda Alekseyevning otryadi ming nafar kishidan oshib ketgan edi.

Kornilov yo'lda o'zining taka turkman soqchilarini tashlab, kiyimini o'zgartirib Don chegarasiga yetib keldi, 6-dekabrda Novocherkasskda paydo bo'ldi.

Ruminiya, Avstriya-Germaniya frontlarida bo'lgan kazak polklarini shu vaqtgacha Donga to'play olgan Kaledin ularni Novocherkassk — Chertkovo — Rostov — Tixoretskaya temiryo'l magistrali bo'ylab joylashtirdi. Ammo uch yillik urushdan charchagan, frontdan revolyusion kayfiyatda qaytgan kazaklarning bolsheviklar bilan urushishga hafsalalari yo'q edi. Polklar sostavida bo'lishi lozim bo'lgan otliqlarning qariyb uchdan biri qolgan edi. Tarkibi to'laroq bo'lgan 27, 44 va 2-zaxira polklari Kamenskaya stansiyasida joylashgan edilar. Leyb gvardiya Ataman polki va Leyb gvardiya Kazak polklari o'z vaqtida Petrograddan o'sha yerga jo'natilgan edi. Frontdan kelgan 58, 52, 43, 28, 29, 35, 10, 39, 23, 8 va 14-polklar hamda 6, 32, 12 va 13-batareyalar Chertkovoda, Millerovoda, Lixovoda, Glubokoy, Zverovoda va kon rayonlarida joylashtirilgan edilar. Xopyor va Ust-Medveditskiy okrugidagi kazaklardan tashkil topgan polklar Filonov, Uryupinsk, Sebryakov stansiyalariga yetib keldi, u yerda bir necha vaqt qolgandan keyin tarqalib ketdi.

Kazaklarni qadrdon uylari o'z bag'riga chorlar, ularning uyuylariga ketish istagiga g'ov bo'ladigan hech qanday kuch yo'q edi. Don kazak polklaridan faqat 1, 4 va 14-polklargina Petrogradda turar edi, ular ham Petrogradda uzoq vaqt qolmadi.

Kaledin ba'zi bir qismlarni, xususan, ishonchsiz qismlarni qaytadan tuzish yoki ularni eng ishonchli qismlar bilan o'rab olib, birbirlaridan ajratishga urinib ko'rdi.

Noyabrning oxirida u birinchi marta revolyusion Rostov ustiga frontdan kelgan qismlarni yuborganda, kazaklar Aksayga yetib kelishlari bilan hujumga o'tishdan bosh tortdilar va orqalariga qaytib ketdilar.

«Qurama» otryadlar tashkil etish uchun keng miqyosda olib borilgan harakat o'z natijasini berdi: noyabrning 27-sida Kaledin matonatli ko'ngilli otryadlar bilan hujumga o'tishga muvaffaq bo'ldi, bu vaqtgacha bir necha batalyon to'play bilgan Alekseyevdan yordam olib ish boshlab yubordi.

2-dekabrda Rostovni ko'ngilli qismlar jang bilan ishg'ol qildilar. Kornilov kelgandan so'ng Ko'ngilli armiya tashkilotining markazi Rostovga ko'chirildi. Kaledin yakkamoxov bo'lib qoldi. U kazak qismlarini viloyat chegaralariga tarqatib, Saritsin va Saratov guberniyasi chegarasiga yubordi, biroq tez hal qilinishi kerak bo'lgan kundalik vazifalarni bajarish uchun ofitser partizan otryadlarini ishga solardi; kundan kunga ojizlanayotgan zaif «qo'shin hokimiyati» yolg'iz ofitserlargagina tayana olardi.

Donets shaxtyorlarini tinchitish uchun yangidan tashkil etilgan otryadlar ular ustiga yuborildi. Makeyevsk rayonida yasovul Chernetsov bosh ko'tardi, muntazam 58-kazak polkining qismlari ham o'sha yerda edi. Novocherkasskda tezlik bilan Semiletov, Grekov otryadlari va har xil drujinalar tuzildi; shimolda Xopyor okrugida ofitser va partizanlardan «Stenka Razin otryadi» deb atalgan qism tashkil etildi. Ammo Don viloyatiga qizil gvardiyachilar kolonnalari uch tomondan bostirib kelmoqda edi. Xarkovda, Voronejda oqlarga zarba berish uchun kuch to'planayotgan edi. Don ustini qora, qalin bulutlar o'rab ola boshladi. Ukrainadan esgan shamol birinchi janglarda otilgan to'plarning ovozlarini olib keldi.

IV

Novocherkassk ustida oq-sariq, qadimgi kema singari ko'kragi baland bulutlar asta suzib o'tmoqda. Yuksak moviy osmonda, katta cherkovning yarqirab turgan gumbazi ustida taram-taram barra bulut parchasi muallaq turar, uning quyrug'i pastga tushib, qayerdadir Krivyanskiy stansiyasi ustida qizg'ish tusga kirib, kumushdek tovlanardi.

Oftob xira nur sochib chiqib kelmoqda, ammo ataman saroyining deraza oynalariga oftob nuri tushib jilolanib turardi. Uylarning nishab tomlari ustidagi tunukalar yarqirar, Sibir toj-taxtini shimolga

uzatib turgan Yermakning haykali kechagi yomg‘irdan ho‘l bo‘lgan edi.

Piyoda kazaklar vzvodi Kreshchenskiy qiyaligidan yuqoriga chiqib borar, miltiqlarining nayzalarida quyosh nuri barq urar edi. Onda-sonda o‘tib turadigan yo‘lovchilarning qadam tovushi va izvosh g‘ildiraklarining shaldirashi tong paytining orombaxsh sukunatini buzar, lekin baravariga shipillab qadam tashlab ketayotgan kazaklarning sharpasi bu sukunatga unchalik xalal bermasdi.

Shu kuni ertalab Moskva poyezdi bilan Ilya Bunchuk Novocherkasskka yetib keldi. U eskirgan yupun paltosining etaklarini tortib, to‘g‘rilab qo‘yib, hammadan keyin vagondan tushdi, chunki u fuqaro kiyimi o‘ziga yarashmaganini his etib siqilardi.

Platformada jandarmlar u yoqdan bu yoqqa yurib turar, ikkita yoshgina qiz o‘zidan o‘zi kulib kezib yurar edi. Bunchuk eskirgan jo‘ngina chamadonini qo‘ltiqlab olib, shaharga jo‘nadi. Ko‘chaning boshiga yetguncha yo‘lda hech kim uchramadi. Shaharni ko‘ndalangiga kesib chiqqan Bunchuk yarim soatdan keyin yarim xaroba holiga kelgan bir kulba oldida to‘xtadi. Ko‘pdan beri shikast-rexti tuzatilmagan bu uy ayanch holda edi. Zamon marhamatsiz og‘ir qo‘li bilan bu uyni bosib, tomini o‘pirib tushirgan, uyning devorlari nuragan, deraza qopqoqlari shalvirab osilib, derazalar shol odamdek qiyshayib qolgan edi. Bunchuk ko‘cha eshigini ochib, hayajon ichida uyga va torgina hovliga ko‘z yugurtirdi-da, shoshib-pishib zinadan yurib chiqa boshladi.

Torgina yo‘lakning yarmini ichi eski-tuski bilan to‘lgan sandiq egallab yotar edi. Qorong‘ida Bunchuk tizzasini sandiqqa urib oldi-yu, og‘riqni his etmay eshikni qattiq tortdi. Pastakkina dahlizda hech kim yo‘q edi. U ikkinchi xonaga o‘tdi. Bu yerda ham hech kim yo‘qligini ko‘rib, ostonada to‘xtadi. O‘ziga juda tanish va shu uygagina xos bo‘lgan hid dimog‘iga urilgach, boshi aylanib ketdi. Bir qarashda uydagi narsalarning hammasini: dahlizning o‘ng burchidagi og‘ir romli ikonani, karavot, stol, uning ustida eskirib dog‘ bosib ketgan kichik oyna, fotorasmlar, bir necha ko‘hna stul, tikuv mashinasi, pech ustidagi ishlatilaverib jilosi ketgan samovarni ko‘rdi. Bunchukning yuragi birdan dukurlab ketib, bo‘g‘ilgandek og‘zini ochib nafas oldi, keyin burilib, chamadonini yerga qo‘ydi-yu, oshxonaga ko‘z yu-

gurtirdi; anilin bilan bo'yalgan katta, ko'm-ko'k pech ko'ziga issiq ko'rindi, havorang chit parda orqasidan targ'il mushuk qarab turardi; bu mushukning ko'zlari ma'noli bo'lib, xuddi odamday qiziqsinib ko'z tikib turardi, – aftidan, bu yerga odam bolasi kamdan kam kirsa kerak. Stol ustida yuvuqsiz idish-tovoqlar tartibsiz holda yotar, taburetka ustida jun ip kalavasi qolgan, to'qilib bitmagan paypoqning to'rt burchiga qadalgan sanchiq simlar yilt-yilt qilib turar edi.

Sakkiz yildan beri bu yerda hech narsa o'zgarmabdi. Go'yo, Bunchuk bu yerdan kechagina ketgandek edi. U zinapoyaga yugurib chiqdi. Hovlining bir chekkasidagi ombor eshigidan g'am chekaverib ado bo'lgan, bukchayib qolgan kampir chiqdi. «Ona!.. Nahotki onam bo'lsa?» Lablari titrab ketgan Bunchuk uning oldiga yugurdi. U shapkasini boshidan olib, qo'lida g'ijimlab turardi.

– Sizga kim kerak? Kim? – deb bezovtalanib so'radi joyida qotib qolgan kampir kaftini oqargan qoshlari ustiga qo'yib.

– Oyi!... – deb qichqirdi Bunchuk bo'g'iq ovoz bilan. – Sizga nima bo'ldi, meni tanimayapsiz-a?..

Bunchuk qoqina-suqina onasi oldiga kelar ekan, uning ovozidan onasi go'yo zarba yeganday gandiraklab ketganini ko'rdi, aftidan, u yugurib kelmoqchi bo'lgan edi-yu, lekin majoli kelmay, go'yo shamolga qarshi yurib borayotgan kishiday, oyoqlarini siltab bosardi. Bunchuk oz bo'lmasa yiqilib tushay degan onasini ushlab qolib, ajin bosgan yuzlaridan, qo'rqqanidan, quvonganidan tinib ketgan ko'zlaridan o'par, o'zini yo'qotib qo'yib, ko'zlarini pirpiratardi.

– Ilyusha... Ilyusha, jonim!.. O'g'lim! Tanimabman-a... Yo xudo qayoqdan kelding-a?.. – deb shivirlar edi kampir qaddini rostlashga va bo'shashgan oyoqlari ustida bosib turishga urinib.

Ona-bola boshlashib uyga kirishdi. Boshidan kechirgan hayajonli daqiqalardan keyin birovning paltosini kiyib kelgan Bunchuk o'zini noqulay seza boshladi, – palto tor, qo'ltiqlarining osti qisar, harakat qilishga qo'ymas edi. Bunchuk uni yechib tashlagandan keyin o'zini yengil his etib, stol yoniga kelib o'tirdi.

– Seni tirik ko'raman deb o'ylamovdim!.. Ko'rishmaganimizga necha oy va yillar bo'ldi. Bo'ylaringdan aylanay! O'sib, kap-katta bo'lib qolibsan, qanday qilib taniy, axir!

— Oyijon, hol-ahvolingiz qalay! — deb so‘radi Bunchuk, kulimsirab.

Kampir poyma-poy gapirar, shoshib-pishib, stol ustiga dasturxon yozar, samovarga ko‘mir tashlar va ko‘z yoshini artaman deb yuziga ko‘mir qurumini yoyib yuborar, o‘g‘lining oldiga dam-badam yugurib kelib, uning qo‘lini silar, yelkasiga suykanib, qalt-qalt titrab yig‘lardi. U suv isitib, o‘g‘lining boshini yuvdi, sandiq ostida yotaverib sarg‘ayib ketgan toza ko‘ylak-ishtonni olib kiygizdi, qadrdon mehmondek siyladi, — yarim kechagacha o‘g‘lidan ko‘z uzmay o‘tirdi, hol so‘rab, boshini irg‘atib, uning gapini eshitdi.

Bunchuk uxlagani yotganda cherkov soati ikki marta jom chaldi. U yostiqqa bosh qo‘yishi bilan uyquga ketdi, ko‘zi ilinar ekan, ko‘z o‘ngida o‘tmishi gavdalandi: hunar maktabida o‘qib yurgan sho‘x bolalik davri, yelib-yugurib charchagandan keyin yotib, uyquga ketganda oshxona eshigini ochib, onasi: «Ilyusha, ertalik darsingni tayyorladingmi?» degani esiga tushdi. Bunchuk shod bo‘lib, lablarida qotib qolgan tabassum bilan uxlab qoldi. Tong otguncha mushtipar ona bir necha marta o‘g‘lining oldiga kelib, dam ko‘rpasini, dam yostig‘ini to‘g‘rilab qo‘yar, bir tutam sochi tushib turgan keng peshonasidan o‘par, keyin shipillab yurib chiqib ketardi.

Oradan bir kun o‘tgandan keyin Bunchuk jo‘nab ketdi. Ertalab askarcha shinel, yap-yangi pistoqirang furajka kiygan bir o‘rtog‘i kelib, unga allanarsa deb shipshigan edi, Bunchuk shoshib-pishib kiyimlarini chamadonga joyladi-da, eng ustiga onasi yuvib bergan bir juft ko‘ylak-ishtonini qo‘yib, ijirg‘anib paltosini kiydi. Onasi bilan naridan beri xayrlashdi-da, bir oydan keyin qaytib kelaman dedi.

— Ilyusha, qayoqqa ketyapsan?

— Rostovga, oyijon, Rostovga. Tez qaytib kelaman... Siz, siz, oyijon, ko‘p g‘am yemang! — deb kampirga dalda berdi u.

Onasi shosha-pisha o‘z krestini oldi-yu, o‘g‘lini o‘pib, cho‘qintirib, uning bo‘yniga osdi, krest tasmasini to‘g‘rilab qo‘yayotganda titrayotgan barmoqlari Bunchukning bo‘yniga muzdek tegib ketdi.

— Ilyusha, krest bo‘yningda yursin. Bu — muqaddas Nikolay Merlikiyskiy krestidir. Yo, muborak aziz avliyo, o‘g‘limni o‘z panohingda asra, o‘zing muhofaza et... Ko‘zimning oq-u qorasi, yolg‘iz

o'g'lim... — deb shivirladi kampir, krestni qizargan ko'zlariga surtib.

U titrab-qaqshab o'g'lini quchoqlar ekan, o'zini to'xtatolmadi, lablari titrab so'ljayib ketdi. Bunchukning tuk bosgan qo'llariga obi rahmatdek bir-ikki tomchi ko'z yoshi tomdi. Bunchuk onasining qo'lini bo'ynidan olib, qovog'ini soldi-da, shoshgancha tashqariga chiqib ketdi.

* * *

Rostov vokzali. Tumonat odam, pollarda papiros qoldiqlari, chaqib tashlangan pista po'choqlari sochilib yotibdi. Vokzal maydonida garnizon askarlari xazinaga qarashli kiyim-bosh, tamaki, o'g'irlik mol olib sotar edilar. Janubdagi sohil bo'ylarida joylashgan shaharlarda turli millat kishilari yashaydi. Hozir ular g'ovur-g'uvur qilib, ko'chalarda kezib yurardi.

Papiros sotuvchi bir bola baqirib:

— As-s-smol papirosi, As-s-smol papirosi chakanalab sotiladi! — deb bo'kirar edi.

Ko'rinishidan shubhali, noma'lum bir sharqlik kishi Bunchukning qulog'i tagiga kelib:

— Arzon-garovga sotaman, janob grajdanin, — deb shivirladi-da, shinelining etagi ostida qappayib turgan bir narsani imlab ko'rsatdi.

— Qovurilgan pista! Pista oling! — deb chuvullashardi vokzal oldida savdo qilib o'tirgan qiz va ayollar.

Olti nafar qoradengiz matrosi odamlar orasini yorib, shang'illashib, hoholashib o'tib ketdi. Ustlarida bayramda kiyiladigan bog'ichli, yaltiroq sariq tugmali forma, pochasi keng, loy sachragan chalvar. Hamma ularni hurmatlab yo'l bo'shatib berardi.

Bunchuk xalq orasini yorib o'tib, asta borardi.

Radio-telegraf komandasidan bo'lgan ushoqqina bir askar:

— Tilladan? Ol-a! Misi chiqib qopti-ku tillangni, ko'rmayapmanmi? — der edi kinoyaomuz.

Sotuvchi kattagina, shubhali oltin zanjirni silkitib, nafrat bilan:

— Sen nimani bilasan? Oltin, qizil oltin, u yog'ini surishtirsang, mirovoy sudyadan sotib olganman... Tuyog'ingni shiqillat, juldurvoqi! Probasini ko'rsat ham dersan... manavini xohlamaysanmi!

— Flot bormaydi... bema'ni gapingni qo'y! — degan ovoz eshitildi yon tomondan.

— Nechun bormaydi?

— Bu gazetalarda...

— Hoy shumtaka, bu yoqqa opke!

— Biz beshinchi nomerga ovoz berdik. Boshqa iloji yo'q, foydasiz.

— Zog'ora! Mazali zog'ora! Bittasini olib beraymi?

Eshelon boshlig'i: ertaga jo'naymiz, deb va'da qildi.

Bunchuk partiya komiteti binosini topib, zinadan ikkinchi qavatga ko'tarildi. Nayzasi pichoqqa o'xshagan yapon miltig'i ushlagan qizil gvardiyachi ishchi yo'lini to'sdi.

— Kimni qidirib yuribsiz, o'rtoq?

— O'rtoq Abramsonni. Shu yerdami?

— Chap tomondagi uchinchi xonada.

Qisqa bo'yli, burni katta, habashlardek qop-qora bir odam chap qo'lining barmoqlarini syurtugining tugmalaydigan joyiga suqib, o'ng qo'lini paxsa qilib, o'rta yoshli temiryo'lchiga jahl bilan gapirardi:[1]

— Bu ishingiz yaramaydi. Shuyam tashkilot bo'pti-yu! Siz bu xildagi tashviqot usulini qo'llasangiz, ishni pachava qilasiz!

Temir yo'lchi bir narsa demoqchi bo'lar, yuzining ifodasidan, xijolat chekib turishidan o'zini oqlamoqchi bo'lgani sezilib turardi, lekin habashga o'xshagan kishiga og'iz ochirmas edi; aftidan, g'azabi qaynab-toshganga o'xshar, suhbatdoshining gapiga quloq solishni istamay, ko'zlariga qaramasdan hadeb baqirar edi:

— Mitchenkoni darhol ishdan chetlashtiring! Sizda yuz berayotgan hodisalarga biz befarq qaray olmaymiz. Verxotskiy revolyusion sud oldida turib javob beradi! U qamoqqa olindimi? A!.. Men uning otilishini talab etaman! — deb qahr bilan so'zini tamomladi va qizaribbo'rtib ketgan yuzini Bunchukka o'girdi; hali jahldan tushmagani uchun keskin ovoz bilan so'radi: — Siz nima ish bilan keldingiz?

— Abramson siz bo'lasizmi?

— Ha.

---

[1] Uchreditelnoye sobraniyega bo'lgan saylovlarda bolshevik nomzodlar beshinchi ro'yxat bilan o'tgan.

Bunchuk unga hujjatlarini va Petrogradda eng mas'ul ishda bo'lgan bir o'rtoqning xatini uzatdi-da, o'zi deraza tokchasiga o'tirdi.

Abramson xatni diqqat bilan o'qib chiqdi, xijolat chekkandek kulimsirab qo'ydi (o'rinsiz o'shqirgani uchun xijolatda edi), so'ngra:

— Bir oz kutib turing, siz bilan hozir gaplashamiz, — dedi.

U terlab-pishib ketgan temiryo'lchiga javob berib yubordi-da, eshikka chiqib ketdi, oradan bir necha daqiqa o'tgach, soqoli qirtishlangan, quyi jag'i ustida qiyalab tushgan qilich yarasining ko'mko'k izi qolgan novcha, qomatini ofitsercha tuta bilgan bir harbiyni boshlab keldi.

— Bu kishi — bizning harbiy-revolyusion komitetimizning a'zosi. Tanishing. Siz, o'rtoq... kechiring, familiyangizni unutibman.

— Bunchuk.

— ...O'rtoq Bunchuk... aftidan, siz pulemyotchi mutaxassis bo'lsangiz kerak?

— Ha.

— Bizga xuddi pulemyotchi kerak edi, — deb kulimsiradi harbiy kishi.

Uning qulog'i tagidan iyagigacha cho'zilgan chandig'i kulgidan qizarib ketdi.

— Siz eng qisqa bir muddatda bizga qizil gvardiyachi ishchilardan pulemyot komandasi tashkil eta bilasizmi? — deb so'radi Abramson.

— Harakat qilaman. Gap — muhlatda.

— Xo'sh, bu ishga qancha vaqt kerak? Bir hafta, ikki, uch haftami? — deb engashib so'radi harbiy kishi Bunchukdan; keyin kulimsirab javobini kutib turdi.

— Bir necha kun.

— Juda soz.

Abramson peshonasini ishqalab, jahl aralash dedi:

— Garnizon qismlari buzg'unlikka yuz tutgan, ularning haqiqiy qimmati yo'q. Bizning ham, o'rtoq Bunchuk, hamma yerdagidek umidimiz ishchilardan. Matroslar — tuzuk, askarlar esa... Shu sababdan, bilsangiz, o'z pulemyotchilarimiz bo'lishini istaymiz. — U jingalak ko'k soqolini tutamlab, g'amxo'rlik qilib so'radi. — Siz moddiy ta'minot jihatidan qalaysiz? Ha, biz bu jihatdan ta'minlaymiz. Bugun ovqat qildingizmi? Albatta, yo'q.

«Ey birodar, sen ham ocharchilikni ko'rganga o'xshaysan, negaki bir qarashda to'q odamni och odamdan ajrata bilding, ko'p dahshatli, og'ir kunlarni boshingdan kechirgandirsanki, bir tutam soqoling oppoq bo'pketibdi», deb o'yladi Bunchuk va Abramsonning habashnikiga o'xshash chehrasiga, o'ng tomoni paxtadek oqarib ketgan boshiga qarab yuragi simobdek erib ketdi. Yo'l ko'rsatuvchi bilan Abramsonning kvartiriga ketar ekan, Bunchuk uni o'ylar edi: «Mana bu chin inson, haqiqiy bolshevik! Bir tomondan, ishga o'ch, qattiqqo'l, matonatli, ikkinchi tomondan, unda eng yaxshi odamshavandalik xislati saqlanib qolgan. U Verxotskiy kabi sabotajchini shartta o'limga hukm qilib yubora biladi, ayni zamonda o'z o'rtog'iga mehribonlarcha g'amxo'rlik qila oladi».

Abramson bilan uchrashuv natijasida olgan yoqimli taassurot ostida uning Taganrog ko'chasi boshidagi kvartiriga yetib bordi, torgina kitoblar bilan to'lgan xonada dam olib, ovqatlandi, Abramsonning maktubini kvartira bekasiga berdi-da, karavotga cho'zildi, qayerda yotganini bilmay qattiq uyquga ketdi.

V

Bunchuk to'rt kun, ertalabdan kechgacha partiya komiteti o'zining ixtiyoriga yuborgan ishchilar bilan mashg'ulot o'tkazdi. Ular o'n olti kishi edi. Bular turli yoshdagi turli kasb egalari bo'lib, hatto har xil millatlardan iborat edilar. Bularning ikkitasi hammol, biri poltavalik ukrain Xvilichko, boshqalari — ruslashgan grek Mixalidi, harf teruvchi Stepanov, sakkiztasi metallist, Paramonov, ma'dan konida ishlovchi Zelenkov, nimjon armani novvoy Gevorkyans, rus nemislaridan chilangar usta Iogann Rebinder, ikkitasi depo ishchisi edi, o'n yettinchi yo'llanmani askarcha paxtali nimcha kiygan, oyoqlariga katta xapqat etik kiygan ayol kishi olib keldi.

Bunchuk ayoldan og'zi yopiq paketni olar ekan, uning nima maqsadda kelganini bilmay:

— Siz qaytishda shtabga kirib o'ta olasizmi? — deb so'radi.

Ayol kulimsiradi, shoshqin bir harakat bilan ro'moli ostidan hurpayib chiqib qolgan sochlarini tuzatar ekan, hadiksirab:

— Meni sizning ixtiyoringizga yuborishdi... — bir lahza xijolat ichida qolib, tili tutilib, — pulemyotchilikka, — dedi.

Bunchuk qip-qizarib ketdi.

— Bu nimasi, u yerdagilar esini yeb qo'ydimi? Men bu yerda ayollar batalyoni tuzyapmanmi?.. Siz meni kechiring, bu — sizga munosib ish emas: og'ir ish, erkak kishining kuchi yetadigan ish... Bu nima qilganlari-a?.. Yo'q, men sizni qabul qilolmayman!

U qovog'ini solib, paketni ochdi, ixtiyoringizga partiya a'zosi Anna Pogudko yuboriladi, deb yozilgan yo'llanmaga ko'z yugurtirib, Abramsonning yo'llanmaga ilova qilgan maktubini qayta-qayta o'qib chiqdi.

«Aziz o'rtoq Bunchuk!

Sizga Anna Pogudko nomli yaxshi bir o'rtoqni yuboryapmiz. Biz uning qattiq talabini rad etolmadik, uni yaxshi pulemyotchi jangchi qilib yetishtirasiz degan umid bilan ixtiyoringizga yuboryapmiz. Men bu qizni taniyman. Uni sizga qizg'in tavsiya etish bilan, bir narsani iltimos qilaman: u qimmatli partiya xodimi, lekin juda qiziqqon va jo'shqindir (hali yoshlik g'ururi boshidan ketmagan), uni ehtiyotsiz harakatlardan saqlang, himoya eting.

Shubhasizdirki, ixtiyoringizdagi sakkiz nafar metallist sizdagi odamlarning yadrosi bo'lib, ularni jipslashtiradilar, ulardan o'rtoq Bogovoyga alohida e'tibor berishingizni o'tinaman. Juda ishbilarman va revolyusiyaga sodiq kishidir. Sizning pulemyotchilar otryadingiz — sostavi bo'yicha internatsional otryaddir, bu yaxshi xislat: ular shubhasiz jangda matonatli bo'lurlar.

Ta'limni tezlashtiring. Kaledin ustimizga bostirib kelmoqchi emish, degan ma'lumotlar bor.

Do'stlik salomi bilan S. Abramson».

Bunchuk ro'parasida turgan qizga bir nazar tashladi (ular Moskovskiy ko'chasidagi uylardan birining yerto'lasida, pulemyot otishni o'rganayotgan xonada edilar). G'ira-shira yorug'lik yuziga ko'lanka tashlab turardi.

— Nima ham qilardik! — dedi Bunchuk noxushlik bilan. — Bu sizning istagingiz ekan... Abramson ham iltimos qilyapti; mayli qoling.

* * *

Og‘zi karrakdek «maksimka»ni har yoqdan o‘rab olib, oldingilarning yelkasiga suyanishib, pulemyot ustida engashib turishar, Bunchukning mohir qo‘llarida uning qismlarga ajralishini sinchkovlik bilan kuzatishardi. Bunchuk sekin va aniq harakat qilib, uning qismlarini yana yig‘ishtirar, ayrim qismlarning tuzilishi va vazifasini tushuntirar, pulemyotni ishlatish usullarini o‘rgatar, o‘qlash, nishonga olish qoidalarini ko‘rsatar, trayektoriya bo‘yicha o‘qning qanday qilib o‘ng tomonga og‘ishini, o‘qning qancha masofaga borib tushishini uqtirardi. Dushmanning o‘q seli ostida qolmaslik uchun jang vaqtida qanday joylashishni ta’lim berardi. U bo‘yog‘i ko‘chib ketgan pulemyot qalqoni ostiga yotib olib, joy tanlash, o‘q lentalari solingan yashiklarni qayerga qo‘yishni gapirib berar edi.

Novvoy Gevorkyansdan boshqa hamma osongina bilib oldi. Bunchuk pulemyotni qismlarga ajratishni har qancha ko‘rsatsa ham Gevorkyans uqib ololmas; esida turmas, adashar, shoshib qolar, xijolat ichida shivirlab:

— Nega bo‘lmayaptiykin? Axir, men... Gunohkormi?.. Manavini bu yoqqa. Yana bo‘mayapti!.. — deb achchiqlanib xunob bo‘lardi. — Nega ekan?

— Mana senga negaligi! — deb qoracha, yuz-ko‘ziga porox sachrab ko‘m-ko‘k dog‘ qoldirgan Bogovoy uni mayna qilardi. — O‘zing no‘noqsan, shuning uchun bo‘lmayapti. Mana bunday qilish kerak, — deb qismlarni joy-joyiga qo‘yib ko‘rsatdi u. — Men bolalik chog‘imdanoq harbiy ishga ishqibozman, — deb hammani kuldirib, barmog‘i bilan yuzidagi porox dog‘ qoldirgan izlarni ko‘rsatdi. To‘p quyayotgan edim, u portlab ketdi. Azobini ko‘ryapman, lekin hozir ishga qo‘lim chechan bo‘pqoldi.

Darhaqiqat, u pulemyotni hammadan oldin osongina o‘rganib oldi. Gevorkyans noshudligicha qoldi. Uning xafa bo‘lib, yig‘lamsirab:

— Yana chiqmayapti! Nimaga ekan? Bilmadim, — degan ovozi eshitilib qolardi.

Tili zahar grek Mixalidi g‘azablanib:

— Obbo, kaltafahm-e. Naxchivondan chiqqan bitta anqov sen ekansan-da, — der edi.

— Bunaqa noshud olamda topilmaydi, — deb uning gapiga qo'shildi og'ir-vazmin Rebinder.

— Bu senga kulcha yopish emas, — dedi kulib Xvilichko. Uning gapiga hamma beg'araz kulib qo'ydi.

Faqat Stepanov sholg'omdek qizarib, titrab-qaqshab qichqirdi:

— O'rtoqqa o'rgatish kerak, mayna qilish yaramaydi.

Uning gapini qo'llari uzun, ko'zlari ola-kula keksa depo ishchisi Krutogorov quvvatladi.

— Kulaver-a, shaqildoqlar, ish qolaversin. O'rtoq Bunchuk, bularni tinchit yo haydab yubor. Inqilob xatarda-yu, bularga kulgi bo'lsa, — deb do'rilladi cho'kichga o'xshagan mushtini ko'tarib.

Anna Pogudko har ishni hafsala bilan o'rganar, Bunchukni holi-joniga qo'ymay, uning ro'dapo paltosining yengidan ushlab olib, pulemyot yonida o'ralashgani-o'ralashgan, chaqnab turgan qora, katta-katta ko'zlarini Bunchukka tikib:

— Agar qobig'ida suv muzlab qolsa, nima bo'ladi? Qattiq shamolda qanday chalg'iydi? Shunda qanday bo'ladi, o'rtoq Bunchuk? — deb savollar yog'dirardi.

Bunchuk u borligida o'zini o'ngg'aysiz his qilardi. Shu o'ng'aysizligining hissasini chiqarish uchun Annaga juda talabchanlik bilan muomala qilar, o'zini atayin sovuq tutar, ammo ertalab soat yettida u qo'llarini paxtali nimchasining yenglariga tiqib, junjikib, katta askarcha etigini to'qillatib, yerto'laga kirib kelganda Bunchuk o'zini hayajonga kelgandek his etardi. Anna Bunchukdan biroz bo'yi pastroq, jussasi mehnatkash qizlarnikiga o'xshash miqtidan kelgan, biroz bukchayganroq, agar butun vujudiga husn berib turgan ajoyib katta ko'zlarini mustasno qilganda, o'zini xunukkina desa ham bo'lardi.

To'rt kun mobaynida Bunchuk Annani to'yibroq ham ko'rolmadi. Chunki yerto'laning ichi nim qorong'i, buning ustiga, uning basharasiga tikilaverish noqulay, vaqt ham ko'tarmas edi. Beshinchi kun deganda ular yerto'ladan birga chiqdilar. Anna oldinda borardi. Beshinchi pog'onaga ko'tarilganda Anna orqasiga o'girilib, Bunchukka qandaydir bir savol tashladi. Bunchuk esa unga kechki quyosh yorug'ida qarab, ich-ichidan oh tortib qo'ydi. Anna o'z odatiga ko'ra sochlarini to'g'rilab turib, boshini sal orqaga tashlagan holda unga

qiyo boqib javob kutdi. Lekin Bunchuk savolni eshitmagan edi. U yuragi uvushib sekin-asta zinapoyadan ko'tarilar edi. Anna xijolat chekkanidan botayotgan quyosh yorug'ida burnining kataklari qimirlab turardi(ro'molini olmasdan sochini tuzatish o'ng'aysiz edi). Lablarining bichimi mardonavor, lekin bolalarnikidek ma'sum edi. Ustki do'rdoq labi ustida qorayib chiqqan mayin tuklar yuzining rangini ochib yuborgan edi. Bunchuk zarb tushishidan qo'rqqandek, boshini egdi va hazil aralash:

— Anna Pogudko... ikkinchi raqamli pulemyotchi, sen birovni baxtiyor qiladigan darajada ajoyibsan, — dedi.

— Bo'lmagan gap! — dedi u shartta va kulib qo'ydi. — Bo'lmagan gap, o'rtoq Bunchuk. Men soat nechada mashq maydoniga boramiz, deb so'rayapman.

Bu kulgidan Anna allaqanday sodda va yaqin bo'lib ko'rinib ketdi. Bunchuk uning yoniga kelib to'xtadi, oftob hamma yoqni zarga ko'mib botayotgan ko'chaning boshiga alanglab qarab sekin dedi:

— Mashq maydonigami? Ertaga. Qayoqqa bormoqchisan, turadigan joying qayerda?

Anna chekkadagi bir tor ko'chaning nomini aytdi. Birgalashib ketdilar.

Chorrahaga yetganda ularni Bogovoy quvib yetdi.

— Menga qara, Bunchuk! Ertaga qayerga to'planamiz?

Yo'l-yo'lakay Bunchuk Tinch chakalak orqasida yig'ilishlarini aytdi, Krutogorov bilan Xvilichko pulemyotni izvoshda keltirishadi; erta bilan soat sakkizda hamma to'planishi kerak, dedi. Bogovoy ular bilan birga ikki kvartal yergacha bordi, keyin xayrlashdi. Bunchuk bilan Anna Pogudko bir necha daqiqagacha indamay borishdi. Anna ko'zining qiri bilan qarab so'radi:

— Siz kazakmisiz?

— Ha.

— Ilgari ofitser bo'lganmisiz?

— E, ofitserlikni menga kim qo'yibdi?

— Asli qayerliksiz?

— Novocherkassklik.

— Rostovga kelganingizga qancha bo'ldi?

— Bir necha kun.

— Bundan ilgari qayerda bo‘lgansiz?

— Petrogradda.

— Nechanchi yildan beri partiyadasiz?

— Bir ming to‘qqiz yuz o‘n uchinchi yildan beri.

— Oilangiz qayerda?

— Novocherkasskda, — deb g‘uldurab shoshib javob berdi Bunchuk, so‘ngra iltijo qilayotgandek qo‘lini cho‘zib: — Shoshma, so‘rashga ijozat et: o‘zing asli rostovlikmisan? — deb so‘radi.

— Yo‘q, men Yekaterinoslavshchinada tug‘ilganman, lekin so‘nggi vaqtlarda shu yerda turganman.

— Endi men so‘rab-surishtiraman... Ukrainkamisan?

Anna bir lahza ikkilanib turib, dadil javob berdi:

— Yo‘q.

— Yahudiymisan?

— Ha. Nimaydi? Tilimdan bilinib turibdimi?

— Yo‘g‘-e.

— Bo‘lmasa mening yahudiyligimni qayoqdan bilding?

Bunchuk u bilan baravar qadam tashlab ketish uchun yurishini sekinlashtirib, javob berdi:

— Qulog‘ing, qulog‘ingning shakli va ko‘zingdan bildim. O‘z millatingdan senda juda oz nishona bor... — Keyin o‘ylanqirab turib: — Biz bilan birga bo‘lganing juda yaxshi, — dedi.

— Nega? — deb qiziqsinib so‘radi Anna.

— Bilasanmi, yahudiylar haqida bir gap tarqalgan, bilishimcha, ko‘p ishchilar ham shunday fikrdalar, — shu yerda Bunchuk, — men o‘zim ham ishchilardanman, — deb qo‘shib qo‘ydi, — yahudiylar odamlarga yo‘l ko‘rsatib, o‘zlari o‘t ichiga kirmas emishlar. Bu xato fikr, sening biz bilan bo‘lishing shu xato fikrni chippakka chiqaradi. Sen o‘qiganmisan?

— Ha, o‘tgan yili gimnaziyani tamomladim. Sizning ma’lumotingiz qanaqa? Shuning uchun so‘rayapmanki, gapingizdan ishchi emasligingiz bilinib turibdi.

— Men ko‘p mutolaa qilganman.

Ular sekin-asta yurib borar edilar. Anna uni jo‘rttaga tor ko‘chalardan olib yurdi. U o‘zi to‘g‘risida qisqacha gapirib ber-

gandan keyin, Kornilov fitnasi, Petrograd ishchilarining kayfiyati, oktabr inqilobi to‘g‘risida so‘rab-surishtirdi.

Uzoqdan, dengiz bo‘yidan miltiqdan uzilgan o‘q ovozi eshitildi, pulemyot bir necha o‘q otib, tinchlikni buzdi. Anna fursatdan foydalanib:

— Qaysi sistemadagi pulemyot? — deb so‘radi.

— Lyuis.

— Lentaning qancha qismi otilib sob bo‘ldi?

Bunchuk javob qilmadi, u botayotgan quyosh shafag‘idan qizarib yallig‘langan osmonga langar tashlagan harbiy kemadan uzun qo‘l kabi cho‘zilgan, projektor yorug‘ini tomosha qildi.

Huvullagan shahar ko‘chalarida uch soat aylanib yurib, ular Anna turadigan uyning darvozasi oldida xayrlashdilar.

Bunchuk sababini o‘zi bilmagan quvonch hissi bilan to‘lib uyiga qaytdi. «Yaxshi o‘rtoq, aqlli qiz! U bilan shirin suhbat qildik, ko‘nglim orom oldi. So‘nggi zamonlarda ancha dag‘allashdim, odamlar bilan do‘stona aloqada bo‘lib turish ham zarur, bo‘lmasa odam askarning xaltasidagi qoq nondek qotib qoladi...» deb o‘yladi u o‘zini o‘zi aldab va o‘zini aldayotganini o‘zi payqab.

Hozirgina harbiy-inqilobiy komitetning majlisidan kelgan Abramson pulemyotchilarning tayyorgarligini so‘rab-surishtirdi; so‘z orasida Anna Pogudkoni ham so‘radi:

— Anna qalay? Agar to‘g‘ri kelmasa biz uni boshqa ishga yuboramiz, o‘rniga odam beramiz.

— Yo‘g‘-e, nima deyapsiz! — dedi Bunchuk qo‘rqib ketib. — Juda salohiyatli qiz.

Bunchuk Anna to‘g‘risida gapirishga tili qichishib tursa ham, lekin iroda kuchi bilan o‘zini arang bosib oldi.

VI

25-noyabr qiyom vaqtida Kaledin o‘z askarlarini Novocherkasskdan olib kelib, Rostov yaqinida to‘pladi. Hujum boshlandi. Temiryo‘l izining har ikki tarafida Alekseyevning ofitserlardan tuzgan siyrak otryadi saf tortib kelardi. O‘ng qanotda kulrang kiyimli yunkerlar g‘uj bo‘lib, general Popov otryadidagi ko‘ngillilar so‘l qanotdagi qizil jarni aylanib, o‘rmalab kelardi. Uzoqdan guvalaga

o'xshab ko'ringan askarlar jar ichiga sakrab tushar; jarning bu tomoniga o'tib to'planishar, yana o'rmalab ketishardi.

Naxichevan rayonining bir chekkasida safga tizilgan qizil gvardiyachilar bezovtalana boshladi. Birinchi marta qo'liga miltiq olgan ishchilarning ko'pi qo'rqar, yer bag'irlab, qora paltolarini qop-qora ko'z balchig'iga bulg'ardilar; ba'zilari boshlarini ko'tarib qarar; uzoq masofadan kichik bo'lib ko'ringan oqlarni ko'zdan kechirar edilar.

Bunchuk safda, pulemyot yonida tiz cho'kib, durbindan qarar edi. U bir kun ilgari qo'pol, jo'n paltosini yechib tashlab, shinel kiyib olgan, o'rganib qolgan shinelda o'zini yaxshi his qilardi.

Qizil gvardiyachilar komanda berilmasdan o't ochdilar. Yurakni siquvchi sukunatga tob-toqat keltirolmadilar. Birinchi uzilgan o'q paqillab eshitilgach, Bunchuk so'kindi-da, dast o'rnidan turib:

— Otishni to'xtating, — dedi.

Paq-paq o'q ovozlari uning hayqirig'ini eshittirmay qo'ydi, Bunchuk qo'lini silkib qo'ydi-da, miltiq ovozini bosib, Bogovoyga: «O't ochilsin!» deb komanda berdi. Kulib tursa ham, lekin yuzining rangida rang qolmagan Bogovoy pulemyot yoniga yotib olib, barmoqlarini zamok ustiga qo'ydi. Pulemyotning tanish ovozi Bunchukning qulog'ini teshib o'tgandek bo'ldi. U bir-ikki daqiqa dushmanning yer bag'irlab yotib qolgan saflarini ko'zdan kechirib, o'qlarning qayerga borib tushayotganini aniqlashga tirishdi, so'ngra sakrab turdi-da, saf bo'ylab, boshqa pulemyotlar oldiga chopib ketdi.

— O't ochilsin!

Xvilichko rangi o'chgan, quvnoq yuzini unga o'girib:

— Otamiz! Ha-ha-ha-hoy! — deb baqirdi.

O'rtadan boshlab hisoblaganda uchinchi pulemyot yonidagi yigitlar u qadar ishonchli emasdi. Bunchuk ular yoniga chopib bordi. Yarim yo'lda egilib, durbindan qaradi: durbinning terlagan oynalarida g'imirlashayotgan kulrang gavdalar ko'rindi. U tomondan baravariga otilgan o'q ovozi eshitildi. Bunchuk yerga yotib oldi-yu, yotgan joyida uchinchi pulemyotning yanglish nishonga olganini aiiqladi. U saf bo'ylab emaklab borarkan:

— Pastroq! La'natilar!.. — deb qichqirdi.

O'qlar uning boshi ustidan o'lim vahmini sochib vizillab o'tardi. Alekseyevchilar mashq vaqtidagidek, ustalik bilan otardilar.

Og‘zi balandga qaratib qo‘yilgan pulemyot yonida pulemyotchilar yerga yotib olgan: navodchik grek Mixalidi, juda baland nishon olib, beto‘xtov o‘q otar, lenta zaxiralarini isrof qilardi; uning yonida esxonasi chiqib, rangi bo‘zarib ketgan Stepanov po‘ng‘illardi; orqaroqda Krutogorovning do‘sti, temiryo‘lchi ishchi boshini yerga egib, toshbaqadek do‘mpayib yotardi.

Bunchuk Mixalidini nari itarib tashlab, xiyla vaqtgacha ko‘zini qisib turib nishonni to‘g‘riladi, tepkini bosganda pulemyot uning qo‘lida bir maromda tarillab o‘q socha boshladi, natijasi ham darhol ko‘rina qoldi: birin-ketin chopib chiqqan bir to‘da yunkerlar o‘zini tepadan pastga otdi, sug‘ur inlari bo‘lgan tepa ustida ulardan biri qolib ketdi.

Bunchuk o‘z pulemyoti yoniga qaytib keldi. Rangi dokadek oqarib ketgan Bogovoy (uning yuzidagi porox dog‘lari ko‘m-ko‘k bo‘lib ko‘rinardi) yonboshlab yotib olib, yaralangan boldirini bog‘lar edi.

— Ot, padar qusur! — deb baqirardi uning yonida yotgan qo‘ng‘irsoch qizil gvardiyachi to‘mpayib olib. — Ot! Bostirib kelyaptilarku, ko‘rmayapsanmi, axir?!

Otryaddagi ofitserlar muntazam saf bilan temiryo‘l ko‘tarmasi bo‘ylab chopib kelmoqda edilar.

Rebinder Bogovoyning o‘rnini oldi. U shoshmasdan mo‘ljalga olib, ustalik bilan o‘qni tejab ota boshladi.

So‘l qanotdan esa Gevorkyans quyonday sakrab-sakrab, boshi ustidan o‘q vizillab o‘tganda yerga yotib olib, uh torta-torta, Bunchuk oldiga chopib keldi.

— Evlayolmayapman!.. Otilmayapti!

Bunchuk boshini egmayoq tik tutib egri-bugri safda yotgan qizil gvardiyachilar qatori bo‘ylab chopib ketdi.

Uzoqdan Annaning pulemyot yonida tiz cho‘kib turganini, paxmaygan sochini tuzatib, kafti ostidan dushman safiga qaraganini ko‘rdi.

Annaning hayoti uchun vahimaga tushgan Bunchuk qip-qizarib bo‘rtib ketib:

— Yot! Yot deyapman! — deb baqirdi.

Anna unga o‘girilib qaradi-da, yana boyagicha turaverdi. Bunchukning og‘zidan yomon bir so‘kish chiqib ketdi. Uning oldiga chopib borib, zo‘rlab yerga yotqizdi.

Pulemyot qalqoni panasida yotgan Krutogorov pishillab titrab-qaqshab, Bunchukka:

— Pulemyot tishlashib qoldi! O‘q otilmayapti! — dedi va ko‘zi bilan Gevorkyansni axtarib, bo‘g‘ilib qichqirdi: — Qochdi, la’nati! Daqyonusdan qolgan eshak qochdi... Uh tortaverib bezor qildi!.. Ish qilishga qo‘ymadi!..

Gevorkyans ilonday buralib sudralib kelardi. Uning qirilmagan qop-qora soqoliga loy yopishib qolgan edi. Krutogorov ter bosgan yo‘g‘on bo‘ynini burib, unga bir lahza qarab turdi-da, keyin otishma tovushini bosib:

— Lentalarni qayerga qo‘yding?.. E, hayvon!.. Bunchuk! Hoy Bunchuk! Uni daf qil, bo‘lmasa o‘ldiraman!.. — dedi.

Bunchuk pulemyot ustida engashib uni tuzatayotgan edi, bir o‘q pulemyot qalqoniga zarb bilan kelib tegdi, Bunchuk qo‘lini qaynoq narsaga tegizib olganday birdan tortib oldi.

Pulemyotni sozlagandan keyin o‘zi otishga boshladi. Tap tortmay yelib kelayotgan Alekseyevchilarni yerga yotib olishga majbur etdi, so‘ngra ko‘zlari ila pana joy qidirib, sekin orqaga chekindi.

Dushman saflari hamon yaqinlashmoqda edilar miltiqlarining qayishidan ushlab, o‘xtin-o‘xtin yerga yotib olardi, ularning kelayotganlari durbindan ko‘rinib turardi. Oqlar shiddatli o‘t ochdilar. Qizil gvardiyachilardan ba’zilari sudralib kelib o‘q yeb o‘lgan uchta sheriklarining miltiq patronlarini oldilar, — o‘liklarga bularning endi luzumi yo‘q edi... Krutogorov pulemyoti yonida yotgan Anna bilan Bunchukning ko‘z o‘ngida safda yotgan yoshgina qizil gvardiyachi yigit o‘q yeb o‘ldi. Yigit talvasa ichida, paytava o‘ralgan oyog‘ini yerga ura-ura uzoq xirillab yotdi, oxiri qo‘llarini kerib, ko‘tarildi-yu, so‘nggi marta nafas olib, ingrab yuzi bilan yerga yiqilib tushdi. Bunchuk Annaga ko‘z qirini tashladi. Qizning paxtasi chiqib ketgan katta ko‘zlarida qo‘rquv alomati bor edi. U ko‘zini yummay, yigitning oyog‘iga qarab turar, yonidagi Krutogorovning:

— Bog‘ich!.. Bog‘ich ber!.. Hoy qiz, bog‘ichni bersang-chi! — degan baqirig‘ini eshitmasdi.

Kaledinchilar ikki flangdan o‘rab olib, qizil gvardiyachilarni orqaga chekintirdilar. Shaharning Naxichevan rayonidagi ko‘chalarida orqaga chekinayotgan qizil gvardiyachilarning qora paltolari va shinellari ko‘zga chalinardi. O‘ng qanotda bo‘lgan eng chetdagi pulemyot oqlarning qo‘liga tushdi. Allaqanday bir yunker grek Mixalidining ko‘kragiga miltig‘ini tirab turib, otib o‘ldirdi, ikkinchi raqamli pulemyotchini mashq maydonidagi qo‘riqchi kabi nayza bilan sanchib o‘ldirdilar; pulemyotchilardan faqat harf teruvchi Stepanov jon saqlab qoldi.

Harbiy kemalardan ilk to‘p o‘qlari yog‘ila boshlagach, chekinayotganlar to‘xtadilar.

Bunchukka tanish bo‘lgan inqilobiy komitet a’zosi oldinga chopib o‘tib:

— Safga!.. Qani, orqamdan!.. — deb baqirdi.

Qizil gvardiyachilar safi harakatga kelib hujumga o‘tdi. Bunchukning pinjiga suqilgan Krutogorov, Anna va Gevorkyansning yonginalaridan uch kishi o‘tib ketdi. Ulardan biri papiros chekar, ikkinchisi yurib ketaturib, miltig‘ining qulfiga tizzasini urar, uchinchisi o‘z paltosining loyga botgan barlaridan ko‘z uzmay borardi. Uning yuzida, mo‘ylovlarining uchida ma’sum bir kulgi o‘ynar — go‘yo u o‘lishga ketayotgani yo‘q, balki o‘rtoqlari bilan birga ziyofat yegandan keyin uyiga qaytayotgandek va bulg‘angan paltosini ko‘rganda, zahar xotini qanday jazo berishini o‘ylab ketayotgandek edi.

Krutogorov uzoqdagi chetan devorni va uning orqasida g‘imirlashayotgan kulrang kiyimli kishilarni ko‘rsatib:

— Ana ular! — deb baqirdi.

— Pulemyotlarni o‘rnat! — deb Bunchuk beso‘naqaylik bilan pulemyotni burdi.

Pulemyotning dahshatli ovozini eshitgach, Anna quloqlarini berkitib oldi. U cho‘nqayib olib, devor orqasidagi g‘imirlashlar to‘xtaganini, bir necha daqiqadan so‘ng u yerdan baravariga o‘q uzilganini ko‘rdi. O‘qlar tuman pardasiga o‘ralgan havoning bag‘rini teshib o‘tib, boshlari ustida vizilladi.

To‘xtovsiz otilgan o‘qlarning sadosi nog‘ora ovoziga o‘xshab eshitilar, pulemyot ustida ilondek buralgan lentalar qizib ketgan edi. Yakka o‘q ovozlari quloqni teshib o‘tgudek qattiq eshitilardi. Qora

dengizchi matroslarning qizil gvardiyachilar boshi ustidan oshirib, harbiy kemadan otgan to'p o'qlari vag'illab uchib o'tib turardi. Anna, novcha, qorako'l papax kiygan, mo'ylovlarini qo'ng'iznusxa qilib qirqtirgan qizil gvardiyachilardan biriga qarab turardi: qizil gvardiyachi uchib o'tgan har bir to'p o'qini g'ayriixtiyoriy ravishda bosh egib salomlar va uni kuzatar ekan:

— Ha, Semyon, baraka top, o'qlarni yog'dir! — der edi.

To'p o'qlari rostdan ham do'l kabi yog'ilardi. Nishonni to'g'ri olgan matroslar hamma to'plardan galma-gal o't ochar edilar. Sekin chekinayotgan kaledinchilar ayrim qismlari ustiga quyuq shrapnel o'qlari yog'dirardilar. Dushmanni mag'lubiyatga uchratgan to'plardan birining o'qi chekinayotgan dushman safining qoq o'rtasida yorildi. Portlashdan hosil bo'lgan, havoga ustundek ko'tarilgan qo'ng'ir tuman odamlarni to's-to's qilib tashladi, hosil bo'lgan chuqur voronka ustidagi tutun cho'kib asta-sekin tarqaldi. Anna durbinni uloqtirib tashlab, oh deb, kirlangan qo'llari bilan qo'rquvdan olayib ketgan ko'zlarini berkitdi, u durbin oynasida to'p o'qining portlab yorilishini va begona odamlarning halok bo'layotganini yaqindan ko'rdi. Uning bo'g'ziga bir narsa kelib tiqilib qolgandek bo'ldi.

Bunchuk unga tomon engashib:

— Nima bo'ldi? — deb so'radi.

Annaning tishlari qarishib, katta ochilgan ko'zlarining oldi qorong'ilashib ketdi.

— Toqat qilolmayman.

— Dadil bo'l! Menga qara... Anna, eshityapsanmi? Eshityapsanmi? Bu qilig'ing yaramaydi. Yara-ma-y-di! — deb Bunchuk uning qulog'i ostida qattiq baqirar edi.

O'ng qanotda, kichik bir tepa ostidagi pastqamlikda dushman piyoda askarlari to'planmoqda edi. Bunchuk ularni ko'rib qoldi-yu, pulemyotini sudrab yugurganicha qulayroq joyga borib oldi-da, tepalikka va pastqamlikka o'q yog'dira boshladi.

Rebinderning pulemyoti notekis, pala-partish o'q uzardi.

Yigirma qadamcha narida allakim bo'g'ilib, jahl bilan:

— Nosilki! Zambil yo'qmi? Zambil! — deb baqirardi.

Front jangchilaridan bo'lgan vzvod komandiri jaranglagan ovoz bilan:

— Nishon... o'n sakkiz... Vzvod, o't och! — deb qichqirardi.

Kechga yaqin qattiq yer ustiga birinchi qor uchqunlab yog'a boshladi. Biror soatdan keyin dalani yopishqoq ho'l qor bosdi. Goh hujumga o'tib, goh chekingan, qattiq turib urushgan, joylarda jon bergan jangchilar qop-qora guvaladek qotib qolgan edi.

Kechga yaqin kaledinchilar chekindilar.

Birinchi qor yog'ib, hamma yoq oppoq bo'ldi, shu kechani Bunchuk pulemyot bo'linmasida o'tkazdi. Krutogorov qayerdandir topib olgan ot yopqichini boshiga tashlab, ipliq-ipliq go'shtni chaynab-chaynab yer, tufurinar, po'ng'illab so'kinardi. Gevorkyans, shu yerda, shahar chetidagi hovlining darvozasi yonida, sovuqdan ko'kargan barmoqlari orasiga papiros qistirib chekib o'tirar, Bunchuk esa qalaydan yasalgan patron yashigi ustida, sovuqdan qaltiragan Annani shinelining bari bilan o'rab o'tirar, ko'ziga bosib turgan ho'l panjalarini ko'zidan ayirib, ularni o'pib qo'yardi. Dudoqlari orasidan og'zi o'rganmagan navozishli muloyim gaplar chiqar edi:

— E, bu nima qilganing?.. Axir sen bardam, dadil eding-ku... Anya, o'zingni qo'lga ol!.. Anya!.. Jonginam... do'stim!.. Borib-borib o'rganib ketasan... Agar g'ururing bu yerdan ketib qolishga yo'l bermasa, bu qilig'ingni tashla. O'liklarga bunaqa tikilib qarash yaramaydi. Qaramasdan, yonlaridan o'tib ketaver, vassalom! Fikrlaringga erk berma, no'xtalab ol. Ko'ryapsan-ku: sen nima desang ham, baribir ayolligingga borasan-da.

Anna churq etmasdi. Uning kaftidan kuzgi tuproq isi bilan iliqqina ayol badanining hidi kelardi.

Buralib yog'ayotgan qor osmonni xira va mayin parda bilan qoplab olgan. Hovlilar, atrofdagi dalalar va jimjit shahar shirin uyquga tolgan.

VII

Rostov yonida va Rostovning o'zida bo'lgan urush olti kun davom etdi.

Ko'chalarda ham, chorrahalarda ham jang bo'ladi. Qizil gvardiyachilar Rostov vokzalini ikki marta qo'ldan berib, ikki marta dushmanni u yerdan quvib chiqardilar. Olti kun davomida u tomondan ham, bu tomondan ham asir olinmadi.

Noyabrning 26-sida Bunchuk Anna bilan birga yuk stansiyasi yonidan o'tib ketayotganda ikkita qizil gvardiyachi asir tushgan bir ofitserni otishganini ko'rishdi; Bunchuk yuzini teskari o'girgan Annaga jahl qilib:

— Mana bu ma'qul ish. Ularni o'ldirish, shafqatsizlik bilan qirib tashlash kerak! — dedi. — Ular bizga rahm-shafqat qilmaydilar, biz ham ularning marhamatlariga muhtoj emasmiz, shu sababdan ularga achinish kerak emas. Qurib ketsinlar! Yer yuzini bu murdorlardan supurib tashlash lozim! Umuman, inqilob taqdiri hal qilinayotgan mahalda ko'ngilchanlikning hojati yo'q. Bu ishchilar to'g'ri qilyaptilar.

Uchinchi kuni Bunchuk betob bo'lib qoldi. Shunga qaramay, u bir sutkagacha yotmadi, oyoq ustida yuraverdi, lekin u borgan sari ko'ngli behuzur bo'lar, qo'l-oyog'i bo'shashib, boshi toshday og'irlashib borar, qulog'i shang'irlar edi.

Parokanda bo'lgan qizil gvardiya otryadlari 2-dekabr tong chog'i shahardan chiqib ketdilar. Anna bilan Krutogorov qo'ltiqlab olgan Bunchuk pulemyot ortilgan, yaradorlar tushgan arava ketida borar, bo'shashgan, zaif gavdasini zo'rg'a ko'tarib, cho'yanday og'irlashgan oyoqlarini tushdagidek arang ko'tarib bosar edi. Annaning javdirab turgan ko'zlariga ko'zi tushar, uning:

— Ilya, aravaga chiqib ol. Eshityapsanmi? Gaplarimni tushunyapsanmi, Ilyusha? Baraka topgur, biroz tirib dam ol, axir sen kasalsanku! — degan gaplarini go'yo uzoqdan eshitayotgandek bo'lardi.

Ammo Bunchuk Annaning so'zlarini tushunmas, tif kasali uning kuchini ketkazib, yengib qo'yganini ham anglamasdi. Atrofidagi begona va tanish odamlarning g'alati tovushlari ongiga yetib bormas, qayerdadir, uzoqda Annaning alang-jalang, charosdek ko'zlari yonib turar, Krutogorovning paxmaygan soqoli selkillar edi.

Bunchuk boshini ushlab ko'rar, isitmasi chiqib bo'rtib turgan yuzini kafti bilan ushlab ko'rar edi. Nazarida ko'zlaridan tirqirab qon oqayotgandek, butun dunyo, chayqalib turgandek, qandaydir ko'zga ko'rinmaydigan parda bilan to'silgan bepoyon dunyo oyog'i ostidan chiqib chopib-chopib ketayotganday, aylanayotganday tuyular edi. Xasta tasavvuri aqlga to'g'ri kelmaydigan narsalarni ko'z oldiga keltirardi.

O‘xtin-o‘xtin to‘xtab, o‘zini aravaga o‘tqizmoqchi bo‘lgan Krutogorovga qarshilik ko‘rsatardi.

— Keragi yo‘q! Shoshma! Sen kimsan? Anna qayoqda?.. Menga bir qisim tuproq ber... Anavilarni qirib yubor — men komanda beraman, sen pulemyot bilan! Nishonni to‘g‘ri ol! To‘xta! Qizib ketibdi!.. — deb xirillar edi u, qo‘lini Annaning qo‘lidan tortib olib.

Uni zo‘rlab aravaga o‘tirg‘izdilar. Bir lahza uning dimog‘iga turli-tuman hidlar kelib urilgandek bo‘ldi-yu, shunda qo‘rqib ketib aqlhushini yig‘ishtirib olmoqchi bo‘ldi, lekin yig‘ishtirib ololmadi. Ko‘z o‘ngida qop-qorong‘i, jimjit bir bo‘shliq paydo bo‘ldi. Faqat boshi uzra, osmonda allanarsa zangori tusga kirib lovullab yonayotganday, qip-qizil chaqmoqlar shamshirdek yalt-yult qilib chaqilayotganday bo‘ldi.

VIII

Tomlardan sarg‘ayib ketgan sumalaklar uzilib tushib, yerda jaranglab mayda-mayda bo‘lib ketardi. Kunlar isib ketib, xutor ko‘chalarida ko‘lmaklar paydo bo‘ldi, do‘ng yerlar ko‘rinib qoldi. Ko‘chalarda hurpaygan sigirlar iskanib, tentirab yurar, molxona yonidagi shox-shabba ustida uymalashgan chumchuqlar bahordan nash’alanib chirqillardi. Yalanglikda Shamil Martin otxonadan qochgan semiz jiyron otni quvalab yurardi. Ot esa paxmoq dumini xoda qilib chopar, to‘zigan yolini shamolda pirpiratib, tuyoqlari bilan qorlarni to‘zg‘itib shataloq otardi, u maydonni bir aylanib, cherkov panjarasi oldida to‘xtadi-da, g‘ishtni iskadi. Yaqin kelgan egasiga, qo‘lidagi yuganga chag‘ir ko‘zlarini yaltiratib qarab, yeldek uchib ketdi.

Yanvar oyi yerni iliq bulutli kunlar bilan ardoqlardi. Kazaklar Donga qarab, bemavrid toshqin bo‘lishini kutardilar. Miron Grigoryevich, o‘sha kuni qo‘ra orqasidagi molxona oldida uzoq turib, qordan ko‘pchigan o‘tloqqa, Donning ko‘kish muziga nazar tashlab: «Bu yil ham bulturgidek suv toshadi shekilli, qor ham zap yog‘di-da, yerni zil-zambildek bosib qoldi», deb o‘yladi.

Pistoqirang gimnastorkasini kiyib olgan Mitka og‘ilxonani tozalar, oq papog‘i uning gardanida arang turardi. U terdan ho‘llangan,

peshonasiga tushgan sochini go'ng isi kelgan iflos kaftining orqasi bilan to'g'rilab qo'yardi. Og'ilxona darvozasi oldida muzlab qotib qolgan go'ng uyilib yotar, uning ustida baroq echki tentirab yurardi. Qo'ylar chetan devorga qapishib olgan. Onasidan katta bo'lib ketgan qo'zi emmoqchi bo'lar, onasi esa suzib uni itarib tashlardi. Bir tomonda shoxlari qayrilgan qora qo'chqor omochga suykanardi.

Omborxonaning sariq loy bilan bo'yalgan eshigi oldida, oftobro'yada labi so'ljaygan, sariq «to'rtko'z» it yotardi. Bostirma shifti, ombor devoriga baliq ovlaydigan, halqali to'r osib qo'yilgan; Grishak bobo hassasiga tayanib turib, unga qarar ekan, bahorning yaqinlashayotganini ko'rib, baliq to'rlarini yamash kerak ekan-da, deb o'ylanib qoldi.

Miron Grigoryevich usti yopiq xirmonni ko'zdan kechirib, pichan g'aramini chamaladi. Endi, echkilar tortqilab to'kkan tariq poxolni panshaxa bilan to'plamoqchi bo'lib turgan ham ediki, qulog'iga begona tovush chalindi. U panshaxani g'aram ustiga tashlab, molxona tomon ketdi.

Mitka oyoqlarini kerib, papiros o'rar, jononasi tikib bergan gulli tamaki xaltachasini ikki barmog'i orasida qisib turardi. Xristonya bilan Ivan Alekseyevich uning yonida turishardi. Xristonya atamancha havorang furajkasi ichidan kirlangan tamaki qog'oz oldi. Molxona chetan to'sig'iga suyanib turgan Ivan Alekseyevich shinelining oldini ochib, paxtali chalvarining cho'ntaklarini kavlar edi. Qirtishlab qirilgan yuzida, iyagidagi qorayib turgan chuqurchasida noxushlik bor edi: nimanidir unutgan ko'rinardi.

— Yaxshi uxlab turdingizmi, Miron Grigoryevich? — deb hol so'radi Xristonya.

— Xudoga shukur.

— Keling, birgalashib tamaki tortishaylik.

— Qulluq. Yaqinda chekuvdim.

Kazaklar bilan qo'l berishib so'rashgach, Miron Grigoryevich usti qizil quloqchinini boshidan oldi-da, dikkaygan oppoq sochini silab turib:

— Qaysi shamol uchirdi, atamanli og'aynilar? — dedi.

Unga boshdan oyoq nazar solib chiqqan Xristonya tezda javob qilmadi. Avval anchagacha papiros qog'ozini buqaning tilidek

g‘udrish tili bilan yalab ho‘llab yopishtirgach, o‘rab oldi-da, do‘rillab javob qildi.

— Mitriyda yumushimiz bor edi,,— dedi.

Ular yonidan gardishli to‘r ko‘targan Grishak bobo o‘tdi. Ivan Alekseyevich bilan Xristonya shapkalarini yechib, u bilan so‘rashdilar. Grishak bobo to‘rni ayvonga qo‘yib qaytdi:

— Hoy shovvozlar, nega sizlar uy-uylaringizda o‘tiribsizlar? Xotinlaringizning pinjida isinib yotibsizlarmi? — dedi u kazaklarga.

— Bo‘lmasa nima qilaylik? — dedi Xristonya.

— Sen Xristoshka, jim bo‘l, bir gapdan xabaring yo‘qmi?

— Xudo haqi, xabarim yo‘q, — dedi Xristonya, — O‘lay agar, bobo, bilsam!

— Voronejdan tunov kuni bir savdogar keldi, Sergey Platonich — Moxovning tanishimi yoki chatishganimi, bilolmadim. Keldi-yu, Chertkovoda yot qo‘shin turibdi, bolshovoylar bo‘lsa kerak, dedi. Rus bizga qarshi urush ochgan, sizlar bo‘lsangiz uy-uylaringizda yotaverasizlarmi? Hoy haromi Mitka, menga qara. Og‘zingga suv oldingmi, nega indamaysan? Nima qilmoqchisizlar?

— Hech narsa, — deb kuldi Ivan Alekseyevich.

— Hech narsani o‘ylamaganlaring chakki-da, — dedi Grishak bobo qizishib. — Sizlarni xuddi kaklikdek tuzoqqa tushirib olishadi. Mujiklar sizni bandi qilib olib, iyig‘ingizni chiqaradi.

Miron Grigoryevich kulimsiradi; Xristonya ko‘pdan beri ustara tegmay o‘sib ketgan soqolini qashib qo‘ydi; Ivan Alekseyevich, papirosini tutatib, Mitkaga qaradi, Mitkaning mushuknikiga o‘xshagan bitko‘zlari chaqnab turar, uning chag‘ir ko‘zlari kulyaptimi yoki g‘azab sochyaptimi, payqab bo‘lmasdi.

Biroz gaplashib turgandan keyin Ivan Alekseyevich bilan Xristonya xayrlashib, Mitkani eshik oldiga chaqirib oldilar.

— Kecha nega majlisga kelmading? — deb jahl bilan so‘radi Ivan Alekseyevich.

— Vaqtim bo‘lmadi.

— Melexovlarnikiga borish uchun vaqt topasan-a? Mitka boshini bir silkitib, papog‘ini peshonasiga tushirdi-da, g‘ijinib:

— Kelolmadim — vassalom. Gapni cho‘zib o‘tirishning nima keragi bor? — dedi.

— Xutordagi frontchilarning hammasi bor edi, faqat Petro Melexov kelmadi. Xabaring bordir... Xutordan Kamenskayaga vakillar yuborishga qaror qildik. U yerda o'ninchi yanvarda frontchilar qurultoyi bo'ladi. Chek tashladik, men, Xristonya va sen boradigan bo'ldik.

— Men bormayman, — dedi Mitka qat'iy qilib.

— Senga nima bo'ldi? — Xristonya qovog'ini solib uning gimnastorkasi tugmasidan ushladi. — Bundan tonasanmi? Aynadingmi?

— U Petka Melexov bilan og'iz-burun o'pishadi... — dedi Ivan Alekseyevich Xristonyaning shineli yengiga qo'lini tegizib: — Xayr mayli, ketdik. Bu yerda qiladigan ishimiz yo'qqa o'xshaydi. Mitka, bormaysanmi?

— Bormayman... «Yo'q» degandan keyin yo'q-da.

— Xayr bo'lmasa! — dedi Xristonya boshini egib.

— Oq yo'l!

Mitka ko'zini olib qochib, unga issiq qo'lini uzatdi-da, xayrlashib uyga kirib ketdi.

— Ablah, — dedi Ivan Alekseyevich past ovoz bilan, burnining kataklarini kerib. Keyin uzoqlashib ketayotgan Mitkaning keng yag'riniga qarab, shang'illab:

— Ablah! — dedi.

Ular yo'l-yo'lakay ba'zi odamlarga yo'liqib, Korshunovning qurultoyga borishdan bosh tortganini va ertaga ikkovlari jo'nab ketishlarini bildirdilar.

8-yanvar tong paytida Xristonya bilan Ivan Alekseyevich xutordan chiqib jo'nab ketdilar. Yakov Taqachi o'z xohishi bilan ular tushgan aravani haydadi. Bir juft yaxshi ot qo'shilgan shaldiroq arava juda tezlik bilan xutordan chiqib, tepaga chiqdi. Havo ilib yo'l ustidagi qorlarni eritib yuborgan edi. Qori erib ketgan yerlarda chana qo'shqarog'i yerga yopishib qolar, chana silkinib ketar, otlar esa qayishlarni tarang qilib, chanani arang sudrab borardi.

Kazaklar arava orqasida borar edilar. Subhidamning shamolidan betlari qizargan Taqachi etiklari bilan muz parchalarini toptab maydalab ketardi. Yuzi qizargan bo'lsa hamki, taqa izi tushib qolgan chandig'i murdadek bo'zarib turardi.

Xristonya, yo'lning chekkasida, dona-dona quruq qorni bosib-yanchib, og'zini kappa-kappa ochib, harsillaganicha tepalikka chiqib borardi, chunki 1916-yili Dubnô yaqinida nemislarning zaharli gazini bir iskab ko'rgan edi.

Tepa ustida shamol yelib yurar, havo sovuq edi. Kazaklar miq etmay borishardi. Ivan Alekseyevich yuzini po'stinining yoqasi bilan burkab olgandi. Uzoqdagi o'rmonzor borgan sari yaqinlashardi. O'rmon ichidan kesib o'tgan yo'l tik bir tepalikka olib chiqardi. Bu yerda shamol oqar suv singari shildirab esar, sershox eman og'ochining po'stloqlari tilla va zumrad taxtakachday tovlanardi. Uzoq bir yerda zag'izg'on sayrardi. Zag'izg'on dumini qiyshaytirib, yo'l ustidan uchib o'tdi. Shamol uni surib borar, shunday bo'lsa ham boshini qiyshaytirib, ola-bula patlarini hurpaytirib, tez uchib ketardi.

Xutordan chiqqandan beri churq etmay kelgan Taqachi Ivan Alekseyevichga yuzlanib, dona-dona qilib bunday dedi (aftidan, u bu gapni miyasida pishitib kelayotgan edi):

— Qurultoyda, ishning urushsiz bartaraf qilinishiga harakat qiling. Urushga hech kimning tobi yo'q.

— Albatta, — deb gapini ma'qulladi Xristonya; bu zag'izg'onning erkin uchishiga havas bilan tikilib, miyasida qayg'usiz qush hayoti bilan inson hayotini bir-biri bilan solishtirdi.

Kamenskayaga ular yanvar oyining o'ninchi kuni kechqurun yetib keldilar. Katta stanitsa ko'chalarida kazaklar to'p-to'p bo'lib, stanitsa maydoni tomon ketayotgan edilar. Hammaning ruhlanib, g'ayratga kirgani ko'zga tashlanib turardi. Ivan Alekseyevich bilan Xristonya Grigoriy Melexovning kvartirasini qidirib topdilar, lekin u uyida yo'q ekan. To'lagina, oq-sariq uy bekasi: «Kvartirant qurultoyga ketdi», dedi.

— O'sha, haligi qurultoy qayerda bo'ladi? — deb so'radi Xristonya.

— Balki okrug mahkamasida, yo bo'lmasa pochtaxonada, — dedi uy bekasi beparvogina Xristonyaning yuziga eshikni yopib.

Qurultoyning ishlari qizg'in ketmoqda edi. Serderaza katta xonaga vakillar zo'rg'a sig'ishgan edi. Kazaklar zinapoyada, yo'laklarda va qo'shni xonalarda uymalanib turar edilar.

— Orqamdan yuraveringlar, — dedi Xristonya tirsagi bilan yo'l ochib.

Uning ochib bergan torgina yo'lidan Ivan Alekseyevich g'izillab yurib borardi. Qurultoy bo'layotgan xona eshigiga yaqin joyda Xristonyani kazaklardan biri to'xtatdi, lahjasiga ko'ra quyi donlikka o'xshardi.

— Sekinroq turtsang o'lasanmi, naynov, — dedi u.

— Qo'yvor deyapman.

— Shu yerda turasan, ko'rib turibsan-ku tiqilinch.

— Qo'yvor deyman, jinqarcha, bir chertsam o'lasan-qolasan, — deb Xristonya pakana kazakni dast ko'tarib, chetga olib qo'ydi-da, oldinga qarab ketdi.

— Ayiqqa o'xshaydi-ya!

— Polvonligini ayt! Atamanli kazak ekan.

— Zap zo'r ekan-da! Katta to'pga qo'shsa bo'larkan!

— Dast ko'tarib opqo'ydi-ya!

G'uj bo'lib turgan kazaklar hoholashib kulishdi va hammalaridan bir qarich baland bo'lgan Xristonyaga hayratomuz hurmat bilan tikilib qolishdi.

Grigoriy orqa devor tagida cho'nqayib, papiros chekib o'tirar va 35-polkdan vakil bo'lib kelgan qandaydir bir kazak bilan suhbatlashmoqda edi.

Uni o'sha yerdan topdilar. Hamqishloqlarini ko'rgan Grigoriyning tabassumdan qora mo'ylovi qimirlab ketdi.

— Xo'sh, qaysi shamol uchirdi sizlarni? Salomatmisiz, Ivan Alekseyevich! Qalaysiz, Xriston tog'a!

Xristonya Grigoriyning qo'lini o'zining yalpoq kaftiga olar ekan, kulib turib:

— O'zlarimiz sog'miz-u, lekin ishlarning mazasi yo'q, — dedi.

— Bizning uy ichi qalay?

— Xudoga shukur, sog'-salomat, salom deyishdi. Otang: «Bir kelib ko'rib ketsin», dedi.

— Petro qalay?

— Petro... — Ivan Alekseyevich o'ng'aysizlanib kuldi, — Petroning bizdaqalar bilan bordi-keldisi yo'q.

— Xabarim bor. Natalya-chi? Bolalar-chi? Ularga ko'zingiz tushdimi?

— Hammalari sog', salom deyishdi; lekin otang bir oz xafa...

Xristonya boshini burib, prezidium stoli orqasida o'tirganlarni ko'zdan kechirdi. Orqadan ham unga hamma narsa barala ko'rinib turardi. Grigoriy qisqa tanaffus vaqtidan foydalanib, hamma narsani so'rab-surishtirdi. Ivan Alekseyevich xutor to'g'risida va undagi yangiliklar haqida gapirib, o'zini Xristonya bilan bu yerga yuborgan frontchilar yig'ini to'g'risida qisqacha ma'lumot berdi. U Kamenskayada nimalar bo'layotganini bilmoqchi bo'lgan edi, shu vaqt stol orqasida o'tirgan allakim:

— Jim, kazaklar! Hozir konchi ishchilardan kelgan vakil so'zlaydi. Diqqat qilib eshitishlaringni va tartib saqlashlaringni so'raymiz, — dedi.

O'rta bo'yli kishi orqaga taralgan malla sochini tuzatib, gap boshladi. G'ovur-g'uvur birdan tindi.

Bu begona kishining otashin va alangali nutqida Grigoriy va boshqalar zo'r kuch his etdilar. U kazaklarni Rossiya ishchilar sinfi va dehqonlarga qarshi kurashga g'ij-g'ijlovchi xoinona Kaledin siyosati to'g'risida, kazaklar bilan ishchilarning manfaatlari birligi to'g'risida, kazak aksilinqilobchilariga qarshi kurash olib borayotgan bolsheviklarning ko'zlagan maqsadlari to'g'risida do'rillab gapirdi:

— Biz mehnatkash kazaklarga birodarlik qo'lini cho'zamiz va oq gvardiyachi bandalarga qarshi kurashda frontchi kazaklar yonimizni olishiga ishonamiz. Chor hukumati olib borgan urushda ishchi va kazaklar birgalikda qon to'kdilar, endi Kaledin o'z panohiga olgan burjua quyqalariga kurashda ham biz birga, hamjihat bo'lamiz. Mehnatkashlarni asrlar bo'yi asoratga solib kelganlarga qarshi urushmoq uchun qo'lni qo'lga berib birga boramiz!

— Voy xumpar-e! Rosa bopladi-ku, — deb Xristonya hayajonlanib shivirladi va Grigoriyning bilagini shunday qisdiki, u ijirg'anib qo'ydi.

Ivan Alekseyevich og'zini ochib uning gapiga quloq soldi, astoydil tinglaganidan ko'zini yumib ochar va:

— Rost! Manavi gapi to'g'ri! — deb g'o'ldirardi.

U vakildan keyin shamolda chayqalgan terakdek daroz bir shaxtyor chiqib gapirdi. U o'rnidan tura solib, qomatini birdan rostladi, ko'zlarini tikib turgan olomonga qarab, shovqin-suron tinguncha kutib turdi. Bu shaxtyor jun arqondek chayir, miqti va qotmadan kelgan, yuzi dahanaparangdek ko'kish edi. Yuzidagi har bir tuki ostiga ko'mir changi o'tirgan, qorong'i yer ostida nursizlangan ko'zlari ko'mirdek yiltirab turar edi. U kalta qirqilgan sochlarini silkidi, qo'lini cho'kich singari siltab gap boshladi:

— Frontda askarlarga o'lim jazosini kim joriy qildi? Kornilov! Kaledin bilan birga bizni bo'g'ayotgan kim? O'shaning o'zi! — So'ngra tez-tez gapirib chinqirdi: — Kazaklar! Og'aynilar! Og'aynilar! Sizlar kimning tarafida bo'lasizlar? Kaledin istaydiki, bizlar bir-birimizning qonimizni ichsak! Yo'q, ular aytganicha bo'lmaydi. Ularni qora yerga joylaymiz, kunini ko'kdan keltiramiz!

— Obbo zang'ar-e! — Xristonyaning og'iz tanobi qochib chapak chalib yubordi va o'zini tutib turolmay hoholab:

— Rost aytasan, bopla ularni! — dedi.

— Og'zingni yum, Xriston! Senga nima bo'ldi? Xuddi chiqarvorishadi-ya! — dedi Ivan Alekseyevich cho'chib.

Bukanovkalik kazak va ikkinchi chaqiriq Umum Rossiya Markaziy Ijroiya Komiteti qoshidagi kazaklar sho'basining birinchi raisi Lagutin poyma-poy gapirsa ham, kishining ko'nglidagi gapni topib gapirardi. Undan keyin raislik qilib turgan Podtelkov nutq so'zladi, so'ngra xushmo'ylov, sochlari ingliznuxsa kalta qilib qirqilgan Shchadenko gapirdi.

Xristonya xaskashga o'xshash qo'lini cho'zib, Grigoriydan:

— Bu kim? — deb so'rab qoldi.

— Shchadenko. Bolsheviklar komandiri.

— Bunisi kim?

— Mandelshtam.

— Qayoqdan kelishgan?

— Moskvadan.

— Bular kim? — deb, Xristonya Voronej qurultoyidan kelgan bir to'p vakillarni ko'rsatdi.

— Biroz jim tursangiz-chi.

— Yopirim-e, bilgim kelaversa nima qilay!.. Menga ayt-chi: huv anavi, Podtelkovning yonida o'tirgan kim o'zi?

— Krivoshlikov, yelanlik, Gorbatôv xutoridan. Uning orqasidagilar bizning xutorlik Kudinov bilan Donetskov.

— Yana bir narsa so'ramoqchiman... Huv, anavi... yo'q! U emas, eng chekkada o'tirgan, kokilli?

— Yeliseyev... Qaysi stannsalikligini, o'zim ham bilmayman.

Xristonyaning ko'ngli joyiga tushib, churq etmay, yangi notiqning so'zini avvalgidek diqqat bilan tingladi va do'rillagan ovozi bilan hammadan burun: «To'g'-rii!» — deb baqirib, yuzlab kishilarning ovozini bosib ketdi.

Bolshevik kazaklardan biri bo'lgan Stexindan keyin 44-polk vakili chiqib gapirdi. U tutila-tutila, bitta so'zni kuchanib aytib to'xtab qolar, burnini tortib qo'yardi. Ammo kazaklar uning gapiga qiziqsinib quloq solishar, ahyon-ahyonda ma'qullab, gapini bo'lar edilar. Aftidan, uning gaplari kazaklarga moydek yoqardi.

— Og'aynilar! Bizning qurultoyimiz bu katta ishni shunday bir yoqlik qilsinki, six ham kuymasin, e... kavob ham! — deb cho'zib gapirardi u duduq kishidek. — Mening gapim shuki, ishni qonli urushsiz bitirish kerak, deyman. Shundoq ham uch yarim yil okoplarda ko'rgilikni ko'rdik, agar bordi-yu, yana bizni urushga ro'para qilishsa bormi, kazaklar tozayam jondan to'ygan...

— To'g'-rii!..

— Juda To'g'-rii!..

— Urushga tobimiz yo'q!..

— Bolsheviklar bilan ham, qo'shin kengashi bilan ham kelishib olish kerak!

— Tinchlik bilan, po'pisa qilmasdan... Xo'rozlik qilishga hojat yo'q.

Podtelkov stolni qattiq mushtladi, shu zahoti shovqin-suron tindi. 44-polk vakili yana ko'kragiga tushib turgan soqolini siypab:

— Biz o'z qurultoyimizdan Novocherkasskka deputat yuborib, yaxshilikcha iltimos qilishimiz kerakki, ko'ngillilar va har xil partizanlar bu yerdan chiqib ketsinlar. Bolsheviklarning ham bu yerda qiladigan ishi yo'q. Biz ishchi xalqning dushmanlarini o'zimiz biryoq-

lik qilamiz. Hozircha birovning yordamiga muhtoj emasmiz, agarda kerak bo'lsa, biz o'shanda yordam bering deb so'raymiz.

— Bu jo'yali gap emas!

— To'g'-rii!

— Shoshma, shoshma! Nima «to'g'ri!» Ular g'ippa tomog'ingdan bo'g'ib olgandan keyin yordam so'rab ko'r-chi. Qochgani joy topolmay qolasan!

— O'z hukumatimiz bo'lsin.

— Holva degan bilan og'iz chuchimaydi... Xalq qo'ydek gap ekan!

44-polk vakilidan keyin Lagutin otashin nutq so'zladi. Uning nutqini qiyqirib, bo'lib turdilar. O'n daqiqalik tanaffus qilish to'g'risida taklif tushdi, lekin hamma jim bo'lgandan keyin Podtelkov, hayajonga kelgan xaloyiqqa qarab:

— Kazak og'aynilar! — deb baqirdi. — Biz bu yerda majlis qilib o'tirgan paytimizda mehnatkash xalq dushmanlari mudrab yotmaydi. Biz six ham kuymasin, kavob ham, deymiz. Kaledin bo'lsa — bunday o'ylamaydi. Biz uning shu qurultoyda qatnashuvchilarning barini qamoqqa olish to'g'risidagi buyrug'ini qo'lga tushirdik. Hozir shu buyruqni o'qib eshittiramiz.

Kaledinning qurultoy a'zolarini qamoqqa olish to'g'risidagi buyrug'i o'qib eshittirilgach, vakillar hayajonga keldilar. Oddiy stanitsa maydonida ko'tariladigan shovqindan o'n chandon ortiq shovqin-suron ko'tarildi.

— Gap bilan ovora bo'lmasdan ishga o'tish kerak.

— Jim!.. Tsss!..

— Tss deganing nimasi! Gapir!..

— Lobov! Lobov!.. Ularga bir so'z ayt!..

— Bir oz sabr qilayik!..

— Kaledin ahmoq emas!

Grigoriy indamay quloq solib turar; boshlarini chayqatib, qo'llarini paxsa qilib gapirgan vakillarga qarab, toqati toq bo'lardi, nihoyat, bo'ynini cho'zib baqirdi.

— Jim bo'lsalaring-chi, ablahlar!.. Nima, bu yer bozormi! Podtelkovning gapiga quloq solsalaring-chi!..

Ivan Alekseyevich 8-polk vakili bilan tortisha ketdi.

Xristonya polkdoshining hujumini daf qilar ekan, bo'kirardi:

— Bundan chiqdi, endi bu yerga qorovul qo'yish kerak ekanda! Sen menga... Nima deb vallaqlayapsan! Oyimtilla-ye! Voy, og'aynichalish-e! O'zimizni o'zimiz eplashga qo'limiz kaltalik qiladi, axir!

Shovqin-suronlar tindi. Endigina cho'kkan sukunat ichida Krivoshlikovning qizlarnikidek mayin ovozi jingillab qoldi:

— Daf bo'lsin Kaledin! Yashasin kazak Harbiy-revolyusion komiteti!

Xaloyiq chuvvos ko'tardi. Uni olqishlagan hayqiriqlar quloq-miyani teshib o'tgudek bo'ldi.

Krivoshlikov qo'lini ko'targanicha qaqqayib qoldi. Barmoqlari novda ustidagi yaproqlar singari titrab turardi. Bosilib qolgan shovqin yana ko'tarilishi bilan Krivoshlikov bo'ri ovlayotgan ovchilar kabi ovozi boricha qiyqirib:

— O'z oramizdan kazak Harbiy-revolyusion komiteti saylab qo'yishni taklif etaman! — dedi. — Kaledin bilan kurash olib borish va tashkilo...

Xuddi tog' ag'anab tushganday «Gurrr!» etgan ovoz ko'tarildi. Shiftning ko'chib qolgan shuvoqlari yerga to'kila boshladi.

Revolyusion Komitetga a'zolar saylay boshladilar. Boya nutq so'zlagan 44-polk vakili va boshqalar rahbarligidagi bir hovuch kazak Qo'shin hukumati bilan nizoni tinchlik yo'li bilan bartaraf qilishni talab etib turib oldi, ammo qurultoy ishtirokchilarining ko'pchiligi ularni qo'llab-quvvatlamadi; kazaklar Kaledinning qamoqqa olish to'g'risidagi buyrug'ini eshitib, to'nlarini teskari kiyib oldilar va Novocherkasskka qarshi keskin kurash olib borishni talab etdilar.

Grigoriy saylovning oxirigacha majlisda turolmadi, uni shoshilinch sur'atda polk shtabiga chaqirtirdilar. U eshikka chiqib ketayotganida Xristonya bilan Ivan Alekseyevichdan:

— Majlis tamom bo'ldi deguncha mening oldimga kelinglar, — deb iltimos qildi. — Kimlarning a'zo bo'lib saylanganini bilgim keladi.

Ivan Alekseyevich kechasi qaytib keldi.

— Podtelkov — rais, Krivoshlikov — kotib, — deb xabar qildi ostonadan turib.

— A'zolari-chi?

— Ivan Lagutin, Golovachayev, Minayev, Kudinov, yana allakimlar.

— Xristan qayoqda qoldi?

— U kazaklar bilan Kamenskayadagi hukumatdorlarni qamoqqa olishga ketdi. U shunday qizishib ketganki, ustiga suv sepsang, hovuri osmonga chiqadi.

Xristonya tongotarda qaytdi. Etigini inqillab yechar ekan, anchagacha bir nimalar deb po'ng'illadi.

Grigoriy chiroqni yondirdi, shundagina u Xristonyaning qorayib ketgan yuzida qon izi borligini va peshonasining yuqori tomonini o'q tirnab ketganini ko'rdi:

— Kim sizni yarador qildi?.. Bog'lab qo'yaymi? Hozir... shoshmang, bint olib kelay, — deb Grigoriy karavotdan sakrab turdi-yu, doka bilan bint topib keltirdi.

— It yarasidek bitib ketadi, — deb do'ng'illadi Xristonya. — Menga o'sha, haligi qo'shin boshlig'i nagandan o'q uzdi. Biz xuddi mehmondek ko'cha eshigidan kirib keluvdik, u yaroqqa yopishsa bo'ladimi! Yana bir kazakni otib yarador qildi. Jonini sug'urib olmoqchi bo'ldim, ofitserning joni qanaqaligini bilmoqchi edim-u, lekiniga kazaklar qo'ymadilar-da, bo'lmasa dodini berardim... Kekirdagini uzib olardim!

IX

Ertasi kuni Kaledinning buyrug'i bilan 10-Don kazak polki, qurultoy a'zolarining barini qamoqqa olish va eng revolyusion kazak qismlarini qurolsizlantirish uchun Kamenskayaga yetib keldi.

Shu paytda stansiyada miting bo'lib turgan edi. Tumonat kazak g'ovur-g'uvur ko'tarar, notiqning gapini har kim o'zicha tushunardi.

Minbarga chiqqan Podtelkov nutq so'zlar edi:

— Otalar, og'a-inilar, men hech bir partiyaga yozilgan emasman, bolshevik emasman. Men faqat bir narsaga: adolat va baxt-saodatga intilaman, barcha mehnatkashlarning aka-ukalardek inoq bo'lib, har qanday zulm, mushtumzo'rlar, burjuylar va boylarning yo'q bo'lishini, hammaning erkin va o'z ixtiyoricha yashashini istayman. Bolsheviklarning tilagi shu va shu yo'lda kurash olib borayotirlar. Bolsheviklar – ishchilar, xuddi biz kazaklar singari mehnatkashlardir.

Faqat bolshevik ishchilar bizdan ko‘ra ongliroqdirlar: bizni qorong‘i zulmat ichida asrab kelganlar, ular bo‘lsa, shaharlarda turib, hayotni bizdan ko‘ra yaxshiroq tushunib olganlar. Bundan chiqdi, garchi bolsheviklar partiyasiga yozilmagan bo‘lsam ham, demak men bolshevikman.

Vagonlardan tushgan polk mitingga kelib qo‘shildi. Polkning yarmini tashkil etgan baland bo‘yli va xushqomat gundorovchilar boshqa polk kazaklari bilan aralashib ketdilar. Ularning ahvol-ruhiyalarida keskin bir o‘zgarish ro‘y berdi. Polk komandirining Kaledin tomonidan berilgan farmonni ijro etish to‘g‘risidagi buyrug‘iga kazaklar itoat etmadilar. Ular orasida g‘alayon boshlandi, bu — bolshevik tarafdorlarining zo‘r berib olib borgan tashviqotlari natijasi edi.

Shu payt Kamenskaya stanitsasi front yaqinlashib qolganday tashvish ichida edi: shoshilinch tuzilgan kazak qismlari stansiyalarni ishg‘ol etishi va ishg‘ol qilinganlarini mustahkamlash uchun yuborilmoqda, Zverevo — Lixaya stansiyalari tomon eshelonlar tez-tez jo‘nab turmoqda edi. Qismlarda komandirlar sostavi saylanmoqda. Urushishni istamagan kazaklar yashirincha Kamenskayadan qochib ketmoqda edilar. Kechikib qolgan qurultoy vakillari xutor va stanitsalardan ham kelib turar edilar. Ko‘chalar juda ham serqatnov bo‘lib qolgan edi.

13-yanvarda oqlar tuzgan Don hukumatining vakillar hay’ati muzokara olib borish uchun Kamenskayaga yetib keldi. Bu hay’at Qo‘shin kengashining raisi Ageyev, Kengash a’zolari Svetozarov, Ulanov, Karev, Bajelov va qo‘shin starshinasi Kushnaryovdan iborat edi.

Vokzalda ularni tumonat xalq kutib oldi. Leyb-gvardiya Ataman polkining kazaklari kelgan vakillarni pochta-telegraf mahkamasi binosigacha qo‘riqlab olib bordilar. Harbiy-revolyusion komitet a’zolari bilan Kamenskayaga kelgan hukumat vakillarining birlashgan majlisi kechasi bilan davom etdi.

Harbiy-revolyusion komitet a’zolaridan majlisda o‘n yetti kishi qatnashdi. Podtelkov birinchi so‘z olib, harbiy-inqilobiy komitet Donga xiyonat qildi va bolsheviklar til biriktirdi, deb tuhmat qilgan Ageyevga qaqshatqich zarba berdi. Undan keyin Krivoshlikov bilan

Lagutin chiqib gapirdi. Qo'shin starshinasi Kushnaryovning nutqini yo'lakda to'plangan kazaklar dam-badam qichqirib bo'lib turdilar. Pulemyotchilardan biri revolyusion kazaklar nomidan Don hukumati vakillarini qamoqqa olishni talab etdi.

Kengashdan hech bir natija chiqmadi. Kechasi soat ikkida bitimga kelish mumkin emasligi hammaga ravshan bo'lgach, Qo'shin kengashi a'zosi Karevning hokimiyat masalasini uzil-kesil hal qilish maqsadida Novocherkasskka harbiy-inqilobiy komitet a'zolaridan vakil yubortirish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi.

Don hukumat vakillari ketishi bilan Novocherkasskka Podtelkov boshliq harbiy-inqilobiy komitet vakillari jo'nadi. Ko'pchilik ovoz bilan Podtelkov, Kudinov, Krivoshlikov, Lagutin, Skachkov, Golovachyov va Minayevlar vakil qilib saylangan edilar. Kamenskayada qamoqqa olingan Ataman polki ofitserlari garovga olindi.

X

Vagon derazalari orqasida bo'ron bo'layotgan edi. Temiryo'l izi bo'ylab tizilgan, yarmi yiqilib tushgan taxta to'siqlarning ustini shamol yalab ketgan qor uyumlari bosib yotardi. Qor uyumlarining ustiga qushlarning mayda to'rdek izlari tushib qolgan.

Yarim stansiyalar, sim yog'ochlar va boshdan oyoq qor bilan qoplangan kimsasiz dala shimolga tomon cho'zilib ketardi.

Yangi charm kamzul kiyib olgan Podtelkov deraza yonida o'tirardi. Yelkalari ensiz, o'smir boladay qotma Krivoshlikov uning ro'parasida tirsagini stolcha ustiga qo'yib, derazaga qarab o'tirardi. Uning bolalarnikidek ma'sum ko'zlarida tashvish va zoriqish alomati bor edi. Lagutin esa siyrak, sariq soqolini taroq bilan tarardi. Barvasta kazak Minayev o'tirgan joyida tipirchilab bug' quvurlariga qo'lini tutib isitardi.

Golovachyov bilak Skachkov vagonning ustki taxtasida yotib bir narsa to'g'risida sekin gaplashishardi.

Vagon ichini papiros tutuni to'ldirgan, sovuq edi. Novocherkasskka yo'l olgan vakillarning ko'ngillari bezovta edi. Gaplari bir-biriga qovushmas, o'rtaga yurakni ezadigan sukunat cho'kkan edi. Lixayadan o'tib ketdilar. Podtelkov hammaning ko'nglidagi gapni topib:

— Bir ish chiqazolmaymiz. Kelisholmaymiz, — dedi.

— Bekorga ketyapmiz, — deb uning gapini ma'qulladi Lagutin.

Yana og'izlariga so'k solganday jimib qoldilar. Podtelkov xuddi to'r to'qiyotganday hadeb qo'lini qimirlatardi. Ba'zan yarqirab turgan charm kamzuliga ko'z tashlab, zavqi kelardi.

Novocherkassk yaqinlashib qolgan edi. Minayev xaritaga, shahardan uzoqlashib ketgan Don daryosiga qarab turib, ohista hikoya qila boshladi.

— Bir vaqtlar kazaklar Ataman polkida o'z xizmat muddatlarini tugatganlaridan keyin ularni anjomlari bilan uy-uylariga jo'natar edilar. Vagonlarga sandiqlarini, ashqol-dashqollarini, otlarini yuklar edilar. Eshelon yo'lga tushar, Voronej yaqinida Don daryosi ustidagi ko'prikka yaqin qolganda poyezd haydab kelayotgan mashinist, parovozning yurishini sekinlashtirardi... Uning bir gapdan xabari bor edi. Poyezd ko'prik ustiga chiqishi bilan, shunday bir hol ro'y berardiki, asti qo'yaverasiz! Kazaklar jinni bo'lib qolganday: «Don! Bizning Don! Tinch Don! Qadrdon Don, valine'matimiz! Urr-aaa!» deb baqirishar va derazadan ko'prikning panjarasi ustidan oshirib, daryoga furajkalarini, eski shinellari, chalvarlari, xaltalari, ko'ylaklari va balo-battarlarini itqitar edilar. Xizmatdan qaytayotganlarida bularning hammasini Donga baxsh etar edilar. Ba'zan, daryoga qarasang, suv ustida havorang ataman furajkalari go'yo oqqushdek yoinki guldek suzib borardi... Qadimdan shunday odat bor edi.

Poyezd yurishni sekinlashtirib, keyin to'xtadi.

Kazaklar o'rinlaridan turdilar. Krivoshlikov shinel ustidan kamarini bog'lab, og'zini qiyshaytirib kuldi:

— Mana, sog'-salomat yetib keldik!

— Negadir non-u tuz olib chiqib kutib olmadilar! — deb hazil qilmoqchi bo'ldi Skachkov.

Eshikni taqillatmasdan novcha, barvasta bir yasovul kirib keldi. U vakillarga o'qrayib qarab, jo'rttaga dag'allik bilan:

— Sizni qo'riqlab borish menga topshirilgan, — dedi. — Bolshevik janoblar, marhamat qilib, vagonni tezroq bo'shatinglar. Olomon quturib ketguday bo'lsa... sog'-salomatligingizga kafil bo'lolmayman.

U hammadan ko'proq Podtelkovga, to'g'risi, uning ofitsercha charm kamzuliga qarab qoldi; so'ngra ochiq bir dushmanchilik bilan:

— Vagondan tushing, tez bo'ling! — deb komanda berdi.

Odam bilan liq to'lgan perronda mo'ylovi shopdek qandaydir bir ofitser:

— Ana, mal'unlar, kazaklarga xiyonat qilgan ablahlar! — deb baqirdi.

Podtelkovning rangi oqarib ketdi, hang-mang bo'lib, Krivoshlikovga ko'z qirini tashladi. U Podtelkovga ergashib vagondan tushdi va kulimsirab shipshidi:

— «Biz olqish sadolari shirin madhiyalarda emas, g'azab to'la hayqiriqlarda yangrayotganini eshityapmiz...» Eshityapsanmi, Fyodor?

Podtelkov, garchi keyingi so'zlar qulog'iga chalinmagan bo'lsada, jilmayib qo'ydi.

Ularni bir to'da ofitserlar boshlab borardi. Oblast mahkamasi binosiga yetgunlaricha, ularni o'ldirib o'ch olish orzusida bo'lgan olomon orqalaridan ergashib bordi. Yolg'iz ofitserlar va yunkerlar emas, yana qandaydir kazaklar va yasangan-tusangan ayollar, talabalar adabsizlik qilib, vakillarni tahqirlar edilar.

Ularni boshlab olib borayotgan ofitserlardan biriga Lagutin:

— Siz beboshlikka yo'l qo'yayapsiz, — dedi. Ofitser unga boshdan oyoq nafrat bilan ko'z yugurtirib dedi:

— Sog'-salomat qolganing uchun xudoga shukur qil. Agar ixtiyor menda bo'lsaydi, men sendaqa tagi pastni... he, o'laksa!

Yoshroq bir ofitser ta'na qilganday qarab qo'ygan edi, u tilini tishlab qoldi.

Golovachyov fursatdan foydalanib, Skachkovga shipshidi:

— Boshimizga balo orttirdik-ku.

— Go'yo dor tagiga olib ketyaptilar...

Oblast mahkamasining zali to'plangan xaloyiqqa torlik qilib qolgan edi. Kelgan vakillar, qandaydir farmonbardor bir yuzboshi ko'rsatgan joyga — stolning bir tomoniga joylashdilar, keyin hukumat a'zolari zalga kirdi.

Biroz bukchaygan Kaledin xuddi bo'ridek, oyoq panjasini ohista yerga bosib, Bogaevskiy hamrohligida ular yonidan o'tib ketdi. U o'z stulini surib qo'yib o'tirdi va xotirjamlik bilan peshonasiga ofitserlik nishoni taqilgan pistoqirang furajkasini stol ustiga qo'ydi, so'ngra

so‘l qo‘li bilan frenchining yon cho‘ntagi tugmasini qadadi-da, unga qarab bir nima deb gapirayotgan Bogayevskiy tomon engashdi. U imillab harakat qilar, har bir harakati o‘ziga ishonchi zo‘rligi va kuch-quvvatga to‘lganligidan dalolat berardi; hukumat tepasida turgan va uzoq yillar davomida boshqalardan ko‘ra qomatlari, boshlarini bosh-qacharoq tutishga, savlat to‘kib yurishga o‘rganib qolgan kishilargi-na odatda o‘zlarini shunday tutadilar. Podtelkov bilan uning o‘rtasida bir o‘xshashlik bor edi. Holbuki Kaledinning yonida o‘tirgan Boga-yevskiyning vajohati unga nisbatan ko‘rimsiz bo‘lib, olib boriladigan muzokaralardan hayajonga tushgani ko‘rinib turardi.

Bogayevskiy salqi malla mo‘ylovlari qoplab olgan lablarini qi-mirlatib bir nima deb pichirlar, pensne ostidagi qiyiq ko‘zlari chaqnar edi. Yoqasini to‘g‘rilab, qattiq iyagini asta silab qo‘yishidan, ko‘zlari ustidagi keng qoshlarining lipillab uchib turishidan asabiy holatda ekani bilinib turardi.

O‘rtada o‘tirgan Kaledinning har ikki tomonida qo‘shin hukuma-ti a’zolari joylashgan edilar. Ularning ba’zilari: Karev, Svetozarov, Ulanov, Ageyev Kamenskayaga kelgan edilar; sal nariroqda Yelaton-sev, Melnikov, Bosse, Shoshnikov, Polyakovlar o‘tirishardi.

Mitrofan Bogayevskiyning Kaledinga bir nima deb aytgani Pod-telkovning qulog‘iga chalindi.

Kaledin ko‘zini qisib Podtelkovga bir qarab qo‘ydi-da:

— Menimcha, boshlasa ham bo‘ladi, — dedi. Podtelkov kulimsirab vakillarning nima maqsad bilan kelganini hammaga eshittirib aytib berdi. Krivoshlikov harbiy-inqilobiy komitet hozirlab qo‘ygan kes-kin talabnomani stol ustidan uzatdi, ammo Kaledin oppoq kafti bilan qog‘ozni itarib, qat’iy sur’atda dedi:

— Hukumatning har bir a’zosini bu hujjat bilan ayri-ayri tanish-tirib, vaqtni zoye ketkazishning ma’nisi yo‘q. O‘z ultimatumingizni, marhamat qilib, ovoz chiqarib o‘qib bering, keyin muhokama qila-miz.

— O‘qi, — dedi Podtelkov.

U o‘zining obro‘sini qo‘ldan bermay o‘tirar, lekin boshqa vakillar singari, yuragi dadil emasdi. Krivoshlikov o‘rnidan turdi. Uning qiz-larnikiday jaranglagan, lekin mayin ovozi odamga liq to‘lgan zalda yangrab eshitildi:

— «1918-yilning 10-yanvaridan e'tiboran, Don Qo'shini Viloyatidagi askariy qismlar ustidan hukmronlik qilish huquqi qo'shin atamanidan Don kazak harbiy-inqilobiy komiteti ixtiyoriga o'tadi.

Inqilobiy qo'shinga qarshi harakatda bo'lgan barcha otryadlar chaqirtirib olinadi va qurolsizlantiriladi, shuningdek, ko'ngilli drujinalar, yunkerlar maktablari va ofitserlar maktablari qurolsizlantiriladi. Donda ilgari yashamagan, lekin shu tashkilotda qatnashganlarning bari Don oblasti chegarasidan chiqariladi va o'z joylariga qaytariladi.

E s l a t m a. Qurol-aslaha, harbiy anjom va kiyim-bosh. Harbiy-inqilobiy komitet komissariga topshirilishi lozim, Novocherkasskdan chiqib ketish uchun Harbiy-inqilobiy komitet komissari ruxsatnoma beradi.

Novocherkassk shahri Harbiy-inqilobiy komiteti tayinlagan polklar tomonidan ishg'ol qilinishi zarur.

Qo'shin kengashi a'zolari shu yanvar oyining o'n beshidan o'z huquqlaridan mahrum etilgan hisoblanadilar.

Qo'shin hukumati tomonidan Don viloyatining kon va zavodlariga qo'yilgan politsiya batamom chaqirtirib olinadi.

Xunrezlikning oldini olish uchun qo'shin hukumati ixtiyoriy ravishda o'z vakolatidan voz kechgani, oblastda mehnatkash xalq hokimiyati barpo etilguncha hokimiyat viloyat kazak Harbiy-inqilobiy komitetga topshirilgani butun viloyatga e'lon qilinadi».

Krivoshlikov o'qib bo'lar-bo'lmas, Kaledin baland ovoz bilan:

— Sizga qaysi qismlar vakolat bergan? — deb so'rab qoldi.

Podtelkov Krivoshlikov bilan ko'z urishtirib olgach, go'yo o'qiyotgandek javob qildi:

— Leyb-gvardiya Ataman polki, Leyb-gvardiya kazak polki, oltinchi batareya, qirq to'rtinchi polk, o'ttiz ikkinchi batareya, o'n to'rtinchi alohida sotnya... — bularni sanar ekan, u chap qo'lining barmoqlarini birin-ketin bukar edi. Zalda shivir-shivir boshlandi, kinoyaomuz kulgilar eshitildi. Shunga qaramay Podtelkov qovoq solib, sap-sariq tukli qo'lini stol ustiga qo'ydi-da, ovozini balandlatib so'zida davom etdi: — Yigirma sakizinchi polk, yigirma sakkizinchi batareya, o'n ikkinchi batareya, o'n ikkinchi polk...

— Yigirma to'qqizinchi polk, — deb sekin qo'shib qo'ydi Lagutin.

— ...Yigirma to'qqizinchi polk, — deb davom etdi Podtelkov dadillanib va ovozini qattiqroq chiqarib: — O'n uchinchi batareya, Kamenskayaning mahalliy komandasi, o'ninchi polk, yigirma yettinchi polk, ikkinchi piyoda askarlar batalyoni, zaxiradagi ikkinchi polk, sakkizinchi polk, o'n to'rtinchi polk, — dedi. Ahamiyatsiz savollar va qisqacha fikr olishuvdan keyin, Kaledin ko'kragini stolning chetiga tirab, Podtelkovga ko'zini qattiq tikib so'rab qoldi:

— Sizlar Xalq Komissarlar Sovetini tan olasizlarmi?

Podtelkov stakandagi suvni ichib bo'lib, grafinni likop ustiga qo'ydi-da, yengi bilan mo'ylovini artib, dudmal javob qildi:

— Buni xalq biladi.

Soddadil Podtelkov ortiqcha bir so'z aytib qo'ymasin, deb Krivoshlikov gapga aralashdi.

— Kazaklar «xalq ozodligi, partiyasi»[1] vakillaridan iborat bo'lgan organni tan olmaydilar. Biz — kazakmiz, hukumat idoralari ham kazaklar qo'lida bo'lishi kerak.

— Sovetlarning boshida Naxamkeslar va shu kabilar o'tiradi, buni qanday tushunsa bo'ladi?

— Ularga Rossiya ishonch bildirdi, binobarin, biz ham ishonamiz!

— Ular bilan aloqada bo'lasizmi?

— Ha!

Podtelkov «hm» deb qo'yib uning gapini ma'qulladi:

— Biz shaxslar bilan emas, maqsad va g'oyalar bilan hisoblashamiz.

Qo'shin hukumati a'zolaridan biri soddalik qilib: «Xalq Komissarlar Soveti xalq manfaatini ko'zlaydimi?» deb so'rab qoldi.

Podtelkov unga o'smoqchilab yer ostidan qarab qo'ydi, so'ngra kulimsirab, grafinga qo'l uzatdi-da, suv quyib ishtaha bilan ichdi. Uning yuragi kuyar, go'yo ichida yonayotgan olovni suv bilan so'ndirmoqchi bo'lardi.

Kaledin barmoqlari bilan stolni chertib, sinchkovlab so'radi:

— Siz bilan bolsheviklar o'rtasida qanday o'xshashlik bor?

— Biz o'z Don viloyatimizda kazak usuli idorasini joriy qilmoqchimiz.

---

[1] Kadetlarning kontrrevolyusion partiyasi «xalq ozodligi partiyasi» deb atalardi.

— Balli, ammo sizga ma'lum bo'lsa kerakki, to'rtinchi fevralda Qo'shin kengashi chaqiriladi. A'zolar qaytadan saylanadi. Sizlar o'zaro nazorat o'rnatishga rozimisiz?

Yerga qarab o'tirgan Podtelkov boshini ko'tarib, qat'iy javob berdi.

— Yo'q! Agar siz ozchilikni tashkil etsangiz, u holda biz o'z aytganimizni qildiramiz.

— Bu zo'ravonlik bo'ladi-ku!

— Ha!

Mitrofan Bogayevskiy Podtelkovdan ko'zini olib, Krivoshlikovga qaradi-da:

— Sizlar Qo'shin kengashini tan olasizlarmi? — deb so'radi.

Podtelkov yelkasini qisib:

— Mumkin bo'lganicha... — dedi. — Viloyat Harbiy-inqilobiy komiteti xalq vakillari syezdini chaqiradi. Bu syezd barcha harbiy qismlar nazorati ostida ish olib boradi. Bordi-yu, syezd bizni qanoatlantirmasa, u holda biz uni tan olmaymiz.

— Kim hakamlik qiladi? — deb so'radi Kaledin qoshini chimirib.

— Xalq! — deb javob qildi Podtelkov boshini g'oz ko'tarib. U o'ymakor stulning suyanchig'iga yaslanib olgan edi, charm kamzuli shildirab ketdi.

Qisqacha tanaffusdan keyin Kaledin gap boshladi. Zal jimib qoldi, sukunat ichida atamanning past ovozi ming'irlab, aniq eshitildi.

— Hukumat Viloyat Harbiy-inqilobiy komitet talabiga muvofiq o'z vakolatidan voz kecholmaydi. Bu hukumatni butun Don aholisi saylagan, shu sababdan, ayrim qismlar emas, balki butun aholi o'z vakolatimizdan voz kechishimizni bizdan talab eta biladi; Sizlar viloyatga o'z tartiblarini zo'rlik bilan qabul qildirmoqchi bo'lgan bolsheviklarning jinoyatkorona tashviqotiga uchib, butun hokimiyatni o'zlaringizga berilishini talab etayotirsizlar. Siz bolsheviklar qo'lidagi ko'r-ko'rona qurolsiz. Sizlar kazaklar oldida buyuk bir mas'uliyatni bo'yningizga olayotganingizni sezmagan holda, nemislarga sotilganlarning xohishini bajo keltiryapsiz. Maslahatim shuki, bu fikrdan qayting, chunki siz butun aholining irodasini aks ettirgan hukumat bilan nizolashib, o'z o'lkangizni katta falokat jari yoqasiga sudrayapsiz. Men hokim bo'laman deb o'lib turganim yo'q. Qo'shin

kengashi to‘planib, o‘lkaning taqdirini hal qiladi, ammo kengash chaqirilguncha men o‘z vazifamda qolaman. So‘nggi marta sizni o‘z fikringizdan qaytishga da’vat etaman.

Shundan keyin hukumatning kazak va kazak bo‘lmagan qismlardan kelgan a’zolari nutq so‘zladilar. Eser Bosse inqilobiy komitet a’zolariga qarab, uzundan uzun, ensani qotiradigan nutq so‘zladi.

Lagutin qichqirib uning gapini bo‘ldi:

Bizning talabimiz shu: hokimiyatni harbiy-inqilobiy komitetga topshiring! Modomiki qo‘shin hukumati masalani tinchlik yo‘li bilan biryoqlik qilmoqchi ekan, kutib o‘tirishning hojati yo‘q...

Bogayevskiy kulimsiradi:

— Xo‘sh!.

— ...Barcha xalqqa, hokimiyatning inqilobiy komitetga o‘tganini e’lon qilish kerak. Qo‘shin kengashi yig‘iladi, deb, ikki yarim haftagacha kutib turish mumkin emas! Xalqning sabr kosasi to‘lgan.

Karev imillab mujmal gap qildi. Svetozarov esa behudaga ikki tomonni yarashtirishga urindi.

Podtelkov bu gaplarga quloq solib o‘tirib zardasi qaynab ketdi. U o‘z sheriklariga yalt etib qaradi: Lagutin dokadek oqarib tumtayib o‘tirar, Krivoshlikov stoldan ko‘zini olmas, Golovachyov sabrsizlik bilan bir gap aytgisi kelib turardi. Krivoshlikov payt poylab turib Podtelkovga: «Gapir!» deb shipshidi.

Podtelkov shuni kutib turganday stulni orqaroqqa surib qo‘ydida, kuchanib hayajonidan duduqlanib gapira boshladi, u bama’ni so‘zlarni topib gapirishga urinardi:

— Hamma gapingiz noto‘g‘ri! Qo‘shin hukumatiga ishonish mumkin bo‘lganda edi, men o‘z talablarimni jon deb qaytib olgan bo‘lardim... Ammo xalq ishonmaydi! Biz emas, sizlar fuqarolar urushini boshlayapsiz! Qayoqdagi qochoq generallarga kazak yerlarida nega boshpana beryapsiz? Shu vajdan bolsheviklar bizning Tinch Donga qilich yalang‘ochlab kelyaptilar. Men sizga bo‘ysunmayman. Bunga rozi bo‘lmayman! Mening murdam ustidan hatlab o‘tmoqchi bo‘lsalaring, unda boshqa gap. Ammo biz faktlar bilan sizni yengamiz! Qo‘shin hukumatining Donni qutqazib qolishiga ko‘zim yetmaydi! Sizga bo‘ysunishni istamagan qismlarga nisbatan qanday chora qo‘llayapsiz? Aha, ko‘ryapsizmi? Nega o‘z ko‘ngilli askarla-

ringizni shaxtyorlar ustiga yuboryapsiz? Bu bilan hammani alamzada qilyapsiz-ku! Qani, ayting-chi, fuqarolar urushining oldini olishga qo'shin hukumatining qodirligiga kim kafil bo'la oladi?.. Bunga javob berolmaysiz. Xalq ham, frontchi kazaklar ham biz tomonda!

Zalda hiringlagan kulgi ovozlari eshitildi; Podtelkovning gapidan g'azablangan norozi tovushlar eshitildi. Podtelkov bo'rtib-qizarib ketgan yuzini o'sha tomonga o'girib, nafrat aralash g'azab bilan baqirdi:

— Hozir kulyapsiz-u, lekin keyin yig'laysiz! — Kaledinga burilib, unga tikandek ko'zlarini tikdi: — Biz hokimiyatni bizga, ya'ni mehnatkash xalq vakillariga topshirishingizni va barcha burjuylar bilan ko'ngilli armiyani haydab yuborishingizni talab etamiz!.. Sizning hukumatingiz bu yerdan chiqib ketishi kerak!

Kaledin charchagan kishidek boshini egib:

— Novocherkasskdan chiqib ketishni xayolimga ham keltirganim yo'q, hech qayoqqa ketmayman ham, — dedi.

Kichik bir tanaffusdan so'ng majlis Melnikovning qizg'in nutqi bilan boshlandi:

— Qizil gvardiya otryadlari kazaklarni mahv etmoq uchun Don ustiga yurish boshladilar! Ular o'zlarining noma'qul tartiblari bilan Rossiyani barbod etdilar, endi bizning viloyatimizni barbod qilmoqchilar! Bir hovuch o'zboshimcha va muttaham odamlarning mamlakatni yaxshi idora etgani va xalq foydasini ko'zlagani tarixda ko'rilgan emas. Rossiya es-hushini yig'ishtirib olgach, bunday Otrepyevlarni[1] uloqtirib tashlaydi! Sizlar birovlarning noma'qulchiligidan o'rnak olib, bolsheviklarga darvozani ochib bermoqchi, qo'limizdan hokimiyatni tortib olmoqchi bo'lasiz! Yo'q!

— Hokimiyatni inqilobiy komitetga topshiring, o'shanda qizil gvardiya hujumni darhol to'xtatadi... — deb luqma tashladi Podtelkov.

Kaledinning ijozati bilan xalq orasidan, to'rt darajali Georgiy ordenini olgan va oddiy kazaklar orasidan yasovul yordamchisi darajasiga ko'tarilgan Shein chiqib nutq so'zladi. U go'yo hozir ko'rik

---

[1]*Grigoriy* — Chudovo monastirining monaxi. Aksariyat tarixchilarning aytishicha, u XVII asr boshlarida o'zini shahzoda Dimitriy Ivanovich deb tanitgan. (Tarj).

bo‘ladigandek, gimnastorkasining taxlarini tekislab, tomdan tarasha tushgandek birdan gap boshladi:

— Kazaklar, shularga quloq solib o‘tirasizmi! — deb qichqirdi u komanda berayotgandek, qo‘llarini silkitib. — Bolsheviklar bizga yo‘ldosh bo‘lolmaydi! Faqat Donga va kazaklarga xiyonat qilganlargina hokimiyatni Sovetlarga topshirishga va kazaklarni bolsheviklar bilan birga borishga da’vat etadi! — So‘ngra u Podtelkovni ko‘rsatib, qiyshanglab, unga qarab gapirdi. — Hoy Podtelkov, Don ahli hammani qo‘yib siz kabi nodon va savodsiz bir kazak orqasidan ergasharmidi? Faqat yo‘ldan ozgan, bir hovuch darbadar kazaklargina ergashishi mumkin. Lekin ularning ko‘zi ochilgan, seni dorga osadilar!

Shamolda kungaboqarlarning boshlari chayqalgandek, zaldagi odamlarning kallalari ham qimirlab ketdi, uning so‘zlarini ma’qullagan ovozlar eshitildi. Shein o‘rniga o‘tirdi. Belburma kalta po‘stin kiygan, qo‘shin starshinasi pogoni taqqan novcha bir ofitser iyib ketib, Sheinning yelkasiga qoqib qo‘ydi. Ofitserlar uni o‘rab olishdi. Asabiy bir ayol:

— Baraka toping, Shein! Rahmat! — deb chiyilladi.

Orqa qatorda o‘tirganlardan biri gimnaziya talabalaridek, do‘rillagan ovoz bilan:

— Ofarin, yasovul Shein, yashang, — deb yasovul yordamchisi Sheinning unvonini bir pog‘ona oshirib do‘rilladi.

Don hukumatining mahmadana og‘zi katta a’zolari Kamensk inqilobiy komiteti a’zolari bo‘lgan kazaklarni yo‘ldan ozdirmoqchi bo‘ldilar. Papiros ko‘p chekilganidan zal dim, ko‘m-ko‘k tutunga to‘lgan edi. Oyna orqasidan ko‘ringan oftob ufqqa bosh qo‘ygan. Oyna derazalariga sovuqdan archa bargiga o‘xshash gul tushgan edi. Deraza tokchalarida o‘tirgan kishilar kechki ibodatga chalinayotgan qo‘ng‘iroq sadolarini va parovozlarning bo‘g‘iq ovozlarini eshitar edilar.

Lagutinning toqati toq bo‘lib, qo‘shin hukumati notiqlaridan birining nutqini bo‘ldi-da, Kaledinga qarab:

— Masalani biryoqlik qiling, gapni tamom qilish kerak, — dedi.

Bogayevskiy asta gapirib:

— O‘zingizni bosing, Lagutin! — deb gap bilan uning og‘ziga urdi. — Mana suv. Bola-chaqaly, suyagida falaj kasali bo‘lgan odam-

ga hayajonlanish zararli. Umuman, notiqlarning so'zini bo'lish yaramaydi, bu yer allaqanday bir deputatlar soveti emas-ku.

Lagutin ham unga o'xshatib javob berdi, ammo hammaning qulog'i Kaledinda edi. U majlisning boshida ustalik bilan siyosiy nayrang ishlatar va boyagidek Podtelkovning oddiy va to'pori e'tirozlariga duch kelardi.

— Hokimiyatni bizga topshirsangiz, bolsheviklar Donga hujumni to'xtatadilar, deb aytdingiz. Ammo siz shunday deb o'ylaysiz. Bordi-yu, bolsheviklar Donga kelgudek bo'lsa, nima qilishlari bizga noma'lum.

— Komitet ishonadiki, bolsheviklar xuddi men aytgan so'zlarni tasdiqlaydilar. Bir tajriba qilib ko'ring, hokimiyatni bizga topshiring. Dondan «ko'ngillilar»ni chiqarib tashlang — ko'rasiz, bolsheviklar urushni to'xtatadilar.

Bir ozdan so'ng Kaledin o'rnidan turdi. Uning javobi avvaldan hozirlanib qo'yilgan edi. Chernetsov Lixaya stansiyasiga hujum boshlash uchun otryadini bir joyga to'plash to'g'risida undan buyruq olgan edi. Ammo Kaledin vaqtdan yutish uchun majlisni cho'zish harakatida edi:

— Don hukumati revolyusion komitetning takliflarini muzokara etib, ertaga ertalab soat o'nda yozma javob beradi.

XI

Ertasiga ertalab Don hukumgtining revolyusion komitet vakillariga bergan javobi shu bo'ldi:

«Don qo'shini hukumati Ataman, Leyb-kazak 44, 28, 29-polklari, 10, 27, 23, 8, 2-zaxira polklari qismlari hamda 43-polk, 14-alohida sotnya, 6-gvardiya, 32, 28, 12 va 2-piyoda batalyonning 13-batareyalari va Kamensk-mahalliy komandasi vakil qilib yuborgan harbiy-inqilobiy kazak komiteti namoyandalarining talablarini muzokara etib ma'lum qiladiki, hukumat butun viloyatdagi kazak aholisining vakillaridan tashkil topgandir. Aholi tomonidan saylangan hukumat yangi Qo'shin kengashi chaqirilmaguncha o'z vakolatidan voz kecha olmaydi.

Don qo'shini hukumati Kengashning avvalgi sostavini tarqatib, stanitsalar va qo'shin qismlaridan kengashga vakillar saylashni lozim

topdi. Butun kazak aholisi tomonidan to‘ppa-to‘g‘ri, teng, yashirin ovoz berish yo‘li bilan erkin saylangan (bunda tashviqot erkinligiga yo‘l qo‘yiladi) kengashning yangi tarkibi Novocherkasskda shu bu yil 4-fevralda Donga ko‘chib kelganlar qurultoyi bilan bir mahalda to‘planadi. Inqilob tomonidan tiklangan, birdan bir qonuniy organ va viloyat kazaklarining vakili bo‘lgan Kengash qo‘shin hukumatini o‘rnidan tushirib, yangi hukumat saylash huquqiga egadir. Shu Kengash qo‘shin qismlarini idora etish va hokimiyatni himoya qilish uchun otryadlar va Ko‘ngilli armiya kerakmi-yo‘qligi masalasini muhokama qiladi. Ko‘ngilli armiya tuzish va uning faoliyati masalasiga kelsak, birlashgan hukumat ilgari Viloyat harbiy komiteti ishtirokida ularni o‘z nazorati ostiga olishga qaror qilgan.

Qo‘shni hukumat tomonidan yuborilgan politsiyani tog‘-kon zavod rayonidan chaqirib olish masalasi xususida hukumat shu narsani bildiradiki, politsiya masalasi 4-fevralda Kengash muhokamasiga qo‘yiladi.

Hukumat bildiradiki, mahalliy masalalarni hal qilishda faqat mahalliy xalq ishtirok eta oladi, shu sababdan Kengashning irodasiga amal qilib, viloyatga o‘z tartiblarini joriy qilishga intilgan bolsheviklar otryadlarining kirishiga qarshi tish-tirnog‘imiz bilan kurash olib borishni lozim deb topadi. Aholi o‘z hayotini o‘z istagicha qura biladi.

Hukumat fuqarolar urushini istamaydi, masalani tinchlik yo‘li bilan bartaraf qilish uchun butun choralarni ko‘radi, shunga ko‘ra Harbiy-inqilobiy komitetga, bolshevik otryadlari oldiga vakillar yuborishda hamkorlik qilishni taklif etadi.

Hukumat shu narsani qayd etadiki, basharti boshqa viloyat otryadlari viloyat chegarasiga bostirib kirmasalar, fuqarolar urushi bo‘lmaydi, nimagaki hukumat Don o‘lkasini mudofaa etadi, urush boshlash maqsadida hujumga o‘tmaydi. Rossiyaning boshqa qismlariga o‘z irodasini zo‘rlab qabul qildirmaydi, shu sababdan boshqalarning ham Donga o‘z tartiblarini majburan habul qildirishlarini istamaydi.

Hukumat stanitsalarda va harbiy qismlarda to‘la saylov erkinligini ta’min etadi, shuning uchun har bir fuqaro o‘z tashviqotini yurgiza biladi va Qo‘shin kengashi saylovlarida o‘z nuqtayi nazarini bayon eta oladi.

Kazaklarning ehtiyojlarini tekshirish uchun barcha diviziyalarda darhol qism vakillaridan iborat komissiyalar belgilanishi lozim.

Qo'shin hukumati, Harbiy-inqilobiy komitetga o'z vakillarini yuborgan barcha qismlarga, Don o'lkasini himoya etish yuzasidan o'z zimmalaridagi vazifani bajarishni tavsiya etadi.

Qo'shin hukumati, o'zimizning donlik qismlarimiz hukumatga qarshi chiqadi va shu bilan tinch Donda o'zaro urushlarni boshlab yuboradi, degan o'yni xayoliga ham keltirmaydi.

Harbiy-inqilobiy komitetni saylagan qismlar tarqatib yuborilishi lozim, buning evaziga butun qismlar o'z vakillarini viloyatdagi barcha qo'shin qismlarini birlashtirgan viloyat harbiy komitetiga yuborishlari lozim.

Qo'shin hukumati, Harbiy-inqilobiy komitet tomonidan qamoqqa olingan kishilarni darhol ozod qilishni talab etadi. Viloyatda mo'tadil hayot barpo etish maqsadida ma'muriyat xodimlari o'z vazifalarini davom ettirishlari lozim.

Harbiy-inqilobiy komitet juda oz qismlarining vakili bo'lgani uchun hamma qismlar nomidan, xususan, butun kazaklar nomidan bizga talablar qo'yishga haqli emasdir.

Qo'shin hukumati komitet bilan Xalq Komissarlar Soveti o'rtasida aloqa o'rnatilishiga va komitetning undan pul bilan yordam olib turishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi deb topadi, chunki bu — Xalq Komissarlar Soveti ta'sirining Don viloyatiga yoyilishi demakdir, vaholanki kazaklar Kengashi va Donga ko'chib kelgan dehqonlar qurultoyi Ukraina, Sibir, Kavkaz va barcha kazak qo'shinlari singari Sovetlar hokimiyatini tan olib bo'lmaydi deb hisoblaydi.

Qo'shin hukumati boshlig'i,
Qo'shin atamani muovini M. BOGAYEVSKIY
Don qo'shinlari starshinalari: YELATONSEV,
POLYAKOV, MELNIKOV.

Bolsheviklar bilan muzokara olib borish uchun Don hukumati tomonidan Taganrogga yuborilayotgan vakillar orasida Kamensk inqilobiy komiteti a'zolari — Lagutin va Skachkovlar ham bor edi. Inqilobiy komitetning boshqa a'zolari bilan Podtelkovni Novocherkasskda ushlab qoldilar. Bu vaqtda bir necha yuz askardan iborat

bo‘lgan Chernetsov otryadi, og‘ir to‘plar batareyasi va ikki yengil to‘p bilan qo‘rollanib, shiddatli jang qilib Zverevo va Lixaya stansiyalarini ishg‘ol etdi va u yerni saqlash uchun ikki to‘p bilan bir rotani qoldirib, asosiy qismlar bilan Kamenskka hujum boshladi. Chernetsov Severniy Donets degan kichik bir stansiya yonida inqilobchi kazaklarning qarshiligini sindirib, 17-yanvarda Kamenskni ishg‘ol qildi. Ammo oradan bir necha soat o‘tgach, Sablinning qizil gvardiyachi qismlari Chernetsovning Zverevo va Lixaya stansiyalarida qoldirgan qismini surib chiqargani to‘g‘risida xabar olindi.

Chernetsov o‘sha tomonga yurish boshladi. U qisqa bir jangdan so‘ng 3-Moskva otryadini yengdi, jangda Xarkov otryadiga shikast yetkazdi va sarosimaga tushgan qizil gvardiyachilarni avvalgi pozitsiyalariga chekintirdi.

Lixaya tomonidagi vaziyat yana tiklanganidan keyin tashabbusni qo‘lga olgan Chernetsov Kamenskka qaytib keldi. Novocherkasskdan unga 19-yanvarda madad keldi. Ertasiga Chernetsov Glubokaya stansiyasiga hujum etishga qaror berdi.

Harbiy kengashda yuzboshi Linkovning taklifi bilan uzoqdan aylanib o‘tib Glubokayani ishg‘ol qilishga qaror qilishdi. Chernetsov temiryo‘l bo‘ylab hujum qilishdan hadiksirardi, chunki bu tomonda Kamensk inqilobiy komiteti qismlari va Chertkovodan ularga kelib qo‘shilgan qizil gvardiyachi otryadlari qattiq qarshilik ko‘rsatadi, deb qo‘rqardi.

Kechasi Glubokayani ishg‘ol qilish harakati boshlandi. Kolonnani Chernetsovning o‘zi boshlab olib bordi.

Tongotarda Glubokaya stansiyasiga yetib keldilar. Kolonna muntazam ravishda qismlarga bo‘linib sep tuzdi. Chernetsov so‘nggi buyruqlarni berib otdan tushdi va uvushgan oyoqlarini ishqalay-ishqalay, rota komandirlaridan biriga xirillagan ovoz bilan amr berdi:

— Ko‘ngilchan bo‘lmang, yasovul. Gapimni uqdingizmi?

Bosilib qotib qolgan qorni g‘archillatib bosib, qorako‘l papog‘ini chakkasiga surib qo‘ydi-da, qo‘lqopi bilan lovullashgan qulog‘ini ishqaladi. G‘azabnok chag‘ir ko‘zlarining osti uyqusizlikdan ko‘karib ketgan edi. Lablari sovuqdan jiyirilgan, kalta qilib kesilgan mo‘ylovlaridagi qirov og‘zining haroratidan eriy boshlagan edi.

Biroz isingandan keyin u sakrab otiga minib oldi, pistoqirang ofitsercha nimcha po'stinining g'ijim joyini tekislab, egar qoshidagi jilovni qo'liga oldi-da, jiyron Don arg'umog'ini oyog'i bilan niqtadi va o'ziga ishongan dadil ovoz bilan:

— Boshlaymiz, — dedi.

XII

Frontchi kazaklarning Kamenskdagi qurultoyidan avval yasovul yordamchisi Izvarin polkdan qochgan edi. Bir kun ilgari u Grigoriynikiga keldi va qochganiga bahona qilib:

— Hozirgi sharoitda polkda xizmat qilish qiyin, — dedi. — Kazaklar ikki oqim o'rtasida ovora-yu sarson. Bolsheviklar bilan avvalgi podsholik tuzumi orasida qolib, o'zlarini goh u yoqqa, goh bu yoqqa uradilar. Kaledin hukumatini hech kim qo'llab-quvvatlagisi kelmaydi, qisman buning sababi shuki, u o'z vatanparvarligini hammaga pesh qilgani qilgan. Bizga mustahkam irodali, kelgindilarning popiltirig'ini pasaytirib qo'ya biladigan odam kerak... Ammo hozirgi vaziyatni nazarda tutib, hamma narsani boy berib qo'ymaslik uchun Kaledinni qo'llab-quvvatlagan yaxshiroq deb o'ylayman. — Keyin gapdan to'xtab, papirosini tutatdi-da: — Sen... chamamda qizillarning e'tiqodini qabul etgansan-a? — deb so'rab qoldi.

— Ha, desam ham bo'ladi,— deb uning gapini ma'qulladi Grigoriy.

— Bajon-u dilmi yoinki Golubov singari kazaklar orasida nom chiqarish uchunmi?

— Nom chiqaraman deb o'lib turganim yo'q. O'zim najot yo'lini izlayapman.

— Sen boshi berk ko'chaga kirib qolgansan, hali najot yo'lini topganing yo'q.

— Ko'ramiz-da.

— Grigoriy, bir-birimizga dushman bo'lib qolamizmi deb qo'rqaman.

— Yefim Ivanich, jang maydonida do'st axtarmaydilar, — deb kuldi Grigoriy.

Izvarin biroz o'tirib chiqib ketdi, ertalab esa nom-nishonsiz g'oyib bo'ldi.

Qurultoy ochilgan kuni Grigoriynikiga Vyoshenskaya stanitsasiga qarashli Lebyajye xutorlik atamanli kazak keldi. Grigoriy naganini tozalab, miltiq moyi bilan moylayotgan edi. Kazak biroz o'tirdida, ketish oldidan go'yo anchayin gapdek:

— Grigor Panteleyevich, men bugun stansiyada oshnangni ko'rdim, — dedi. Aslida u shu gapni aytish uchun kelgan edi (u Ataman polkining sobiq ofitseri Listnitskiy Grigoriyning o'ynashini tortib olganini bilardi, tasodifan vokzalda Listnitskiyni ko'rib qolib, Grigoriyni ogohlantirgani kirgan edi).

— Qanaqa oshnam?

— Listnitskiy-da. Taniysan-a?

— Qachon ko'rding? — deb so'radi Grigoriy jonlanib ketib.

— Bir soat bo'ldi.

Grigoriy o'tirib qoldi. Eski dard-alami yuragiga o't soldi. U dushmaniga nisbatan avvalgidek kuchli adovati borligini sezmasa ham, lekin endi boshlangan fuqarolar urushi sharoitida Listnitskiyga duch kelib qolsa, u bilan qirpichoq bo'lishini yaxshi bilardi. Listnitskiyning nomini tasodifan eshitganda, eski yarasi tamoman bitib ketmaganini angladi: ehtiyotsiz bir so'z bilan eski yarasi yangi bo'ldi. Grigoriy eski alami uchun qoyil qilib qasos ola bilardi. Bir nokasning kasofati bilan hayot guli so'lgan va shodlik bilan to'lgan avvalgi hayoti o'rnini ko'ngilsiz turmush egallagan edi.

Biroz jim o'tirgandan keyin qoni qochib, rangi oqarayotganini sezib:

— Shu yerga keptimi, bildingmi? — deb so'radi.

— Qaydam. Cherkasskka ketayotgan bo'lsa kerak.

— E...

Atamanli kazak qurultoy to'g'risida, polkdagi yangiliklar to'g'risida biroz gaplashib o'tirdi-da, chiqib ketdi. Shundan keyin bir necha kungacha Grigoriy yuragini tuzdek achishtirayotgan alamini unutishga harchand, urinib ko'rsa-da, unutolmadi. U xuddi mast kishidek yurar, Aksinyani har qachongidan ham ko'proq eslar, og'zi qaqrab, yuragi toshga aylanar edi. Grigoriy Natalyani, bolalarini esladi, lekin vaqt o'tgan sari, xotirotlar eskirgan sari, bular unga shodlik bag'ishlamas edi. Yuragida faqat Aksinya yashar, ko'ngli avvalgidek faqat uni tusar edi.

Chernetsov bostirib kelgandan keyin Kamenskdan tezlik bilan chekinishga to'g'ri keldi. Don inqilobiy komitetining tarqoq otryadlari va yarim-yorti kazak sotnyalari tartibsiz holda poyezdlarga yuklanar yoki olib ketish mumkin bo'lmagan og'ir narsalarni tashlab, piyoda jo'nar edilar. Aslida ancha katta kuchga ega bo'lgan bu otryadlarni bir joyga to'plab, ularni tartibga solish uchun mustahkam bir odam yo'qligi sezilib turardi: uyushqoqlik yo'q edi.

Saylangan komandirlar orasida qayoqdandir paydo bo'lib qolgan qo'shin starshinasi Golubov boshqalardan ajralib turardi. U eng jangovar 27-kazak polkiga qo'mondonlik qilishni o'z qo'liga oldi va qattiqqo'llik bilan ish olib bordi. Kazaklar uning polkdagi kamchiliklarni tugatib, puxta uyushgan tarkib tashkil qilish, vazifalarni taqsimlash, yo'lboshchilik qilish qobiliyatiga ega ekanini ko'rib unga so'zsiz itoat etdilar. Girdig'umdan kelgan, lo'ppi yuzli, g'arko'z ofitser Golubov stansiyada qilichini o'ynatib, vagonga imillab chiqayotgan kazaklarga o'shqirardi:

— Bu nima qilganingiz? Kuyovnavkarga ketyapsizmi?! Voy sizlarni!.. Yuklarni ort... So'zsiz itoat etishni buyuraman!.. Nima?.. Kim demagog? Shartta otib tashlayman, ablah! Ovozingni o'chir!.. Sabotajchilar bilan maxfiy kontrrevolyusionerlarga shafqat qilmayman!

Shu tariqa kazaklar unga itoat etdilar. Xuddi ilgarigidek uning qilig'i ko'plarning ko'ngliga yoqdi, chunki eski tartib ularning ko'nglidan ko'tarilmagan edi. Ilgarigi vaqtlarda kazaklar nazarida qattiqqo'l komandir eng yaxshi komandir hisoblanardi. Golubov singarilar to'g'risida gapirib: «Bu odamning xonligi ham bor, bekligi ham», der edilar.

Don inqilobiy komitetining chekingan qismlari Glubokaya stansiyasini to'ldirgan edilar. Butun harbiy kuchlarning qo'mondonligi aslida Golubov qo'liga o'tgan edi. U ikki kun o'tmasdan parokanda qismlarni intizomga soldi, Glubokayani mustahkamlash uchun tegishli choralarni ko'rdi. Uning talabi bilan Grigoriy Melexov zaxiradagi 2-polkning ikki sotnyasidan iborat divizioni bilan atamanlilar sotnyasi qo'mondonligini o'z qo'liga oldi.

20-yanvarda qosh qoraygan paytda Grigoriy liniya orqasidagi soqchilar punktiga qo'yilgan atamanlilar postini tekshirish uchun

kvartiridan chiqdi-yu, darvoza oldida Podtelkov bilan to‘qnashib qoldi. Podtelkov uni tanib:

— Melexovmisan? — deb so‘radi.

— Ha.

— Yo‘l bo‘lsin!

— Soqchilar postini tekshirib chiqmoqchiman, Cherkasskdan kelganingga ko‘p bo‘ldimi? Xo‘sh, ishlar qalay?

Podtelkov qovog‘ini soldi.

— Xalqning ashaddiy dushmanlari bilan sulh tuzib bo‘lmaydi. Qilg‘iliqlarini ko‘rdingmi? Muzokara vaqtida... Chernetsovni zanjirdan yechib yuboribdilar: Kaledin naqadar iflos odam ekan-a?! Xo‘p sog‘ bo‘l, fursatim yo‘q, shtabga shoshilyapman. U shoshib Grigoriy bilan xayrlashdi-da, katta-katta qadam tashlab markazga yo‘l oldi.

U revolyusion komitet raisi qilib saylanmasdan burunoq Grigoriyga va boshqa tanish kazaklarga nisbatan muomalasi o‘zgarib, o‘zini katta oladigan bo‘lgan, dimog‘i shishgan edi. Yuqori martabaga erishib, bu oddiy kazakning boshi gangib qoldi.

Grigoriy shinelining yoqasini ko‘tarib, tez-tez qadam tashlab ketdi. Kechasi ayoz bo‘ladiganga o‘xshardi. Qozoq cho‘llaridan shamol esib turar, havo ochilib kelayotgan edi. Sovuq chirsillar, qor g‘ichirlardi. Qomati bukilgan oy osmonga asta ko‘tarilmoqda edi. Uylarning orqa tomonidagi cho‘lga ko‘kish shom qorong‘iligi cho‘kmoqda. Har narsa o‘z shaklini, rangini, masofasini yo‘qotgan govgum mahal edi; bu paytda kun yorug‘i tun qorong‘isi bilan olishib, bir-biri bilan qo‘shilib ketadi-yu, har narsa fusunkor, tebranib turgandek ko‘rinadi; hatto bu paytda hidlar ham o‘tkirligini yo‘qotib, xiralashib qoladi.

Grigoriy, postdagi soqchilarni tekshirib bo‘lib, kvartiriga qaytdi. Temiryo‘l xizmatchisi bo‘lgan, ayyor, cho‘tir yuzli uy egasi samovar qo‘yib, stol yoniga kelib o‘tirdi.

— Hujumga o‘tasizmi?

— Ma’lum emas.

— Yoinki ularning kelishini kutasizmi?

— Ko‘ramiz-da.

— Juda to‘g‘ri aytasiz. Gumonimcha, hujum qilish uchun sizda kuch yo‘q, shunday bo‘lgach, albatta, kutish lozim. Mudofaada

bo'lish qulayroq. Kamina, german urushida sapyor bo'lib xizmat qilgan, taktika nima-yu, strategiya nima, suvdek bilaman, yod qilib olganman... Nafsilamr, kuchingiz ozlik qiladi.

Uning gapidan yuragi siqilgan Grigoriy dudmal qilib:

— Xo'p, bo'ldi, — dedi.

Ammo uy egasi surbetlik qilib hadeb gap surishtirar, stol atrofida parvona bo'lib, movut jiletkasi ostidagi ichiga kirib qapishib ketgan qornini qashirdi:

— To'plaringiz ko'pdir-a? To'p-zambaraklar?

— Xizmat qilishga qilibsan-u, lekin xizmat qoidasini bilmas ekansan! — dedi zardasi qaynab Grigoriy va shunday o'qrayib qaradiki, uy egasi o'zini chetga oldi. — Xizmat qilibsan-u, lekin uqib olmabsan!.. Bizning askarlarimiz va planlarimizni so'rab-surishtirishga nima haqqing bor? Seni so'roqqa olib borsam...

— Janob... ofitser! No... Nodon!.. — rangi bo'zarib ketgan uy egasining tili kalimaga kelmay qoldi, yarim ochiq og'zidagi qop-qora kemtik tishlari ko'rinib ketdi. — No... Nodonlik qilibman! Kechirsinlar!..

Choy ichib o'tirarkan, tasodifan uy egasiga Grigoriyning ko'zi tushib qoldi, shunda uning pirpiragan ko'zlaridan o't chaqnab ketgandek bo'ldi, lekin uy egasi kipriklarini ko'tarib qaraganda ko'zlarining ifodasi o'zgarib, muloyimlashgan, hatto undan mehr yog'ilib turardi.

Uy egasining oilasi — xotini bilan ikki qizi shivirlashib gaplashib o'tirishardi, Grigoriy dastali piyoladagi choyini chala qoldirib, o'z bo'lmasiga kirib ketdi.

Bir ozdan keyin Grigoriy bilan bir kvartirada turadigan zaxiradagi 2-polk to'rtinchi sotnyasidan to'rt nafar kazak qayerdandir kelishdi. Ular shang'illashib gaplashib choy ichishar, kulishar edi. Grigoriyning ko'zi ilingan mahalda ularning ba'zi gaplari qulog'iga chalindi. Ulardan biri (Grigoriy ovozidan uning Luganskaya stanitsalik kazak vzvod komandiri Baxmachyov ekanini bildi) hikoya qilar, qolganlari ahyon-ahyonda luqma tashlar edilar.

— Bu hodisa ko'z o'ngimda yuz berdi. Gorlovsk rayonidagi o'n birinchi kondan uchta shaxtyor kelib: gap shunday, biz bir uyushma tuzdik, qurol-yaroq juda zarur bo'lib qoldi — qo'lingizdan kelganicha qarashvoring, dedilar. Inqilobiy komitet raisi... Men o'z qulog'im

bilan eshitdim! — u kimningdir luqmasiga javob qaytarib ovozini balandlatib hikoya qila ketdi, — shunday dedi: «O'rtoq Sablinga murojaat qiling, bizda hech balo yo'q». Nega endi hech narsa yo'q bo'lsin? Men ortiqcha miltiqlar borligini bilaman. Gap boshqa yoqda... Er kishilarning shijoatini ko'rib, rashklari kelyapti.

— To'g'ri-da! — deb gapirdi boshqa bir kazak. — Ularga yaroq bersang, yo urushadilar, yo yo'q, lekiniga yer masalasi ko'tarilsa, darrov qo'llarini cho'zadilar.

— Biz u qalang'i-qasang'ilarni bilamiz! — deb do'rilladi uchinchisi.

Baxmachyov o'ylanqirab choy qoshig'i bilan stakanni chalib qo'ydi:

— Yo'q, bunday qilish yaramaydi, — dedi u dona-dona qilib, qoshig'ini o'z so'z ohangiga monand chalib. — Bolsheviklar butun xalq g'amini yeyapti, biz esa, yaxshi bolshevik emasmiz. Kaledinni supurib tashlasak, keyin zaptimizga olamiz...

— Shunday, og'aynichalish! — dedi rasta bo'lgan o'g'il bolalardek do'rillab bir kazak gapini ma'qullatmoqchi bo'lib. — Tushunsang-chi axir, bizning beradigan yerimiz yo'q! Chekimizga bir yarim botmondan tuzukroq yer tushadi, qolganlari qumloq, jarlik, o'nqir-cho'nqir yerlar. Nimani beramiz?

— Sening hech narsangni olmaydilar, yer-suvi ko'p boylar bor.

— Qo'shin yerlari-chi?

— Salomat bo'ling! O'zingnikini ber-u, boshqalarga mute bo'lasanmi? Ho, og'zim bor deb gapiraverasiz-a!

— Qo'shin yerlari o'z kunimizga yaraydi.

— Bu to'g'rida gapirib o'tirishga hojat yo'q.

— Ochko'zlikni qara-ya!

— Ochko'zlik deganing nimasi!

— Balki o'zimizning yuqori donlik kazaklarni ko'chirib kelishga to'g'ri kelar. Biz ularning yerlari qanaqaligini bilamiz — sap-sariq qumloq yerlar.

— Shundoq, shundoq!

— Nonimizni tuya qildirmaymiz.

— Yarimta aroq bo'lmasa kalavaning uchini topolmaydiganga o'xshaymiz.

— Hoy yigitlar! Bugun vino skladini tala-tala qildilar. Bittasi spirtga cho'kib bo'g'ilib o'libdi.

— Shu topda bo'lsa-yu, otardim-a. Po'latga suv bergandek bo'lardi-da.

Grigoriy uyqu ichida kazaklarning polga o'rin solganlarini, esnashib qashinganlarini, hamon yer to'g'risida, yerni qaytadan taqsimlash to'g'risidagi gaplarini eshitib yotdi.

Tongotarda deraza tagida «paq» etib miltiq ovozi eshitildi. Kazaklar irg'ib o'rinlaridan turdilar. Grigoriy gimnastorkasini kiymoqchi bo'lib yengini topolmas edi. Shosha-pisha etigini kiydi-yu, shinelini qo'liga oldi. Deraza orqasida osmondan do'ldek o'q yog'ardi. Shaldirab bir arava o'tib ketdi. Kimdir eshik yonida qo'rqib ketib:

— Miltiqqa!.. Miltiqqa yopish!.. — deb baqirardi.

Chernetsovchilar soqchilikka qo'yilgan kazaklarni orqaga surib, Glubokayaga kirgan edilar. Tong g'ira-shirasida otliqlar chopar, etiklarini do'qillatib piyodalar qochardi. Chorrahaga pulemyot o'rnatdilar. O'ttiz chog'lik kazak ko'ndalang saf tortdi. Yana bir guruh kazak tor ko'chani kesib o'tdi. O'qdonga o'q joylayotgan miltiqlarning qulflari shaqir-shuqur qilardi. Narigi kvartaldan baland ovoz bilan allakim komanda berdi:

— Uchinchi sotnya, ildamroq! Kim u safni buzayotgan?.. Hozirlan! Pulemyotchilar — o'ng qanotga! Tayyormisiz? Sot-otnya...

Bir vzvod to'p shaldirab o'ta boshladi. Otlar lo'killab chopar, suvoriylar qamchi o'ynatar edi. O'q yashiklarining qisirlashi, g'ildiraklarning shaldirashi, shotilarning g'ichillashi shahar chetida otilayotgan o'q ovozlariga qo'shilib ketgan edi. Qayerdadir, yaqin orada pulemyotlar qasira-qusurga olib ota boshladi. Qayoqqadir chopib ketayotgan dala kuxnyasi muyulishga qoqilgan ustunga urilib ag'darilib tushdi.

O'sha tomondan o'lgudek qo'rqib ketgan bir kishining:

— Ko'rmisan, shayton! Ko'rmayapsanmi?! Ko'zing o'yilib tushganmi? — deb bo'kirgani eshitildi.

Grigoriy zo'r-bazo'r sotnyasini bir yerga to'pladi, otlarni yeldirib stanitsaning bir chekkasiga olib chiqdi. U yerda kazaklar g'uj bo'lib orqaga chekinayotgan edilar.

— Qayoqqa?.. — dedi Grigoriy oldindagi kazakning miltig'iga yopishib.

— Qo'y-vor!.. — deb yulqindi kazak. — Qo'yvor, padar la'nat!.. Nega menga yopishasan? Chekinyaptilar, ko'rmayapsanmi?..

— Dushman zo'r keldi!..

— Orqa-o'ngiga qaramay kelyapti...

— Qayoqqa qochamiz?.. Qaysi tomonga — Millerskayagami? — deb halloslab gapirgan kishilarniig tovushi eshitilardi.

Grigoriy stanitsaning eng chetidagi uzun bir omborxona yonida o'z sotnyasini safga tizishga harakat qildi, lekin yangi bir guruh qochoqlar safni yorib o'tib ketdi. Grigoriyning sotnyasidagi kazaklar qochib kelayotganlar bilan aralashib ketdi-yu, ko'cha bo'ylab orqaga qarab qocha boshladi.

— To'xta!..Qochma!.. Otaman!.. — deb baqirar edi Grigoriy g'azabidan titrab.

Ammo unga quloq soladigan odam yo'q edi. Pulemyotdan otilgan o'q ko'chaga yog'ila boshladi, kazaklar bir zum to'p-to'p bo'lib yerga yotib oldilar, devorlarning tagiga sudralib kelib, tor ko'chalarga o'zlarini urdilar.

— Endi ular so'zingga kirmaydi, Grigoriy, — dedi uning yonidan chopib o'tayotgan vzvod komandiri Grigoriyning ko'ziga tikilib.

Grigoriy tishlarini g'irchillatib, miltig'ini o'ynatib, uning orqasidan ketdi.

Otryad sarosimaga tushib, Glubokayadan chiqib, tartibsiz holda qocha boshladi. Otryadning qariyb barcha anjomlarini tashlab ketdilar. Faqat kun yorishgandan keyingina sotnyalarni bir joyga to'plab, qarshi hujumga o'tishga muvaffaq bo'ldilar.

Bo'rtib qizarib ketgan, terlab-pishgan Golubov, nimcha po'stinining oldini ochib, o'z komandasidagi 27-polkning seplari yonida yugurib yurib, keskin ovoz bilan qichqirardi.

— Chaqqonroq qimirla! Yotma!.. Marsh, marsh!

14-batareya yeridan qo'zg'alib, pozitsiya ishg'ol qildi, to'plar o'q solingan aravalardan chiqarildi; batareyaning starshiy ofitseri o'q yashigi ustida turib, durbindan qaray boshladi.

Jang soat beshdan oshganda boshlandi. Kazaklar hamda Petrovning Voronej otryadidagi qizil gvardiyachilarning aralashib ketgan

saflari g'uj bo'lib yopirilib borar, oppoq qor ustida odamlar qora-qora nuqtalarga o'xshab ko'rinardi.

Kunchiqar tomondan muzdek shamol esardi. Shamol bulutlarni haydab yuborgach, osmon etagi qonga bo'yalgandek, qip-qizarib ko'rindi.

Grigoriy ataman sotnyasining yarmini 14-batareyani qo'riqlash uchun qo'yib, qolgani bilan hujumga o'tdi.

Mo'ljal uchun otilgan birinchi to'p o'qi Chernetsov otryadining saflaridan ancha beriga tushdi. O'q yorildi-yu, to'q qizil olov havoga ko'tarildi. Ikkinchi o'q ham gumburlab yorildi. To'plar galma-gal o'q uzib mo'ljalni aniqlab oldi.

To'p o'qlari havoda vizillar, uzoqlashar edi.

Bir lahza o'rtaga sukunat cho'kdi, bu orada miltiqlardan baravariga otilgan o'q tovushlari eshitildi, keyin uzoqdan gumburlagan sado keldi.

Mo'ljaldan nari tushayotgan o'qlar saflarga yaqin yerda yorila boshladi. Grigoriy shamoldan ko'zini qisib, xursandlik bilan: «Topdilar» deb qo'ydi.

44-polk sotnyalari o'ng qanotda borar edi. Golubovning polki o'rtada, Grigoriy undan so'lroqda edi. So'l qanotdagi qizil gvardiya otryadlari ular orqasidan borardi. Grigoriy qo'l ostidagi sotnyalarga uch pulemyot berilgan edi. Pulemyotchilar komandiri bo'lgan o'rta bo'yli, badqovoq, qo'llarini tuk bosgan qizil gvardiyachi mahorat bilan o't ochib, dushmanning hujumini qaytarardi. U atamanlilar sepi bilan birga harakat qilayotgan pulemyotlardan nari ketmas edi. Uning yonida shinel kiygan to'lagina qizil gvardiyachi ayol bor edi. Grigoriy saf oldidan o'tarkan, ensasi qotib: «Xotinboz! Pozitsiyada ham xotindan bir qarich nari ketmaydi-ya. Bundaylar bilan bir ish chiqarib bo'larmidi!.. Bola-chaqasi bilan par to'shagini ham olib kelsa bo'lardi!..» deb o'yladi. Pulemyot komandasining boshlig'i Grigoriyning oldiga kelib, naganining bo'ynidagi qayishini tuzatdi.

— Shu otryadga siz komandirlik qilasizmi?

— Ha, men.

— Men atamanli yarim sotnya uchastkasida dushman yo'lini o'qqa tutaman. Ko'ryapsiz, bizning yo'limizni to'sib qo'yishgan.

— Mayli, shunday qiling, — deb Grigoriy uning gapiga ko'ndi va ovozi tingan pulemyot tomondan birovning qichqirganini eshitib o'sha tomon burildi.

Sersoqol, barvasta pulemyotchi:

— Bunchuk!.. Pulemyot erib ketadi-ku!.. Shunaqayam bo'ladimi? — deb baqirardi.

Shinel kiygan ayol uning yonida tiz cho'kib turardi. Ayolning tivit ro'mol ostidagi qora ko'zlari Grigoriyga Aksinyani eslatdi, bir lahza u nafasini qisib, ko'zlarini yummay, ayolga hasrat bilan boqdi.

Choshgohda Golubovdan chopar kelib, Grigoriyga xat topshirdi. Dala daftaridan notekis yirtib olingan bir varaq qog'ozga katta-katta harflar bilan shular yozilgan edi:

«Don revolyusion komiteti nomidan, ixtiyoringizda bo'lgan sotnyalarni pozitsiyadan olib, shitob bilan dushmanning o'ng qanotiga o'tib olishni, shu yerdan ko'rinib turgan uchastkaga, yel tegirmonning so'l tomonidagi jarlik bilan borishni sizga buyuraman... Harakatingizni dushman sezmasin (bir necha o'qib bo'lmaydigan so'zlar)... Biz qat'iy hujumga o'tganda siz yon biqindan hamla qilasiz.

Golubov».

Grigoriy ikki sotnyani ajratib, otlantirdi, dushman qay tomonga ketayotganini payqab qolmasligi uchun orqaga chekindi.

Dushman ustiga yigirma chaqirimcha naridan aylanib bordilar. Otlar qalin qorga botib-botib ketar edi. Ular o'tib borayotgan jarlikni qor bosgan edi. Ba'zi joylarda qor otlarning qornidan kelardi. Grigoriy to'plarning gumburlashiga quloq solar, bezovtalanib dam-badam soatiga qarar edi. Bu soatni u Ruminiyada o'zi o'ldirgan bir ofitserning qo'lidan yechib olgan edi. Ketayotgan yerini kompasga qarab belgilab borayotganiga qaramay, ancha so'l tomonga burilib ketdi. Qiyamalikdan yalanglikka chiqib oldilar. Terlab ketgan otlardan bug' ko'tarilar, papoqlar ho'l bo'lib ketgan edi. Grigoriy egardan tushishga komanda berib, birinchi bo'lib tepalikka. chiqdi. Otlar jarlikda ot yetaklovchilar qo'lida qoldi. Grigoriyning ketidan kazaklar ham qiyalikdan emaklab chiqa boshladilar. U qayrilib qaradi, orqasida yuzdan ortiq kazakning qor bosgan yon bag'irdan mo'r-malaxdek o'rmalab chiqayotganini ko'rib, o'zini dadil va bardam his etdi.

Jangda, har kimda bo'lgani singari, uni ham hamjihatlik, birdamlik hissi qamrab oldi. Grigoriy bir qarashdayoq vaziyatni tushunib oldi, yo'lning og'irligini hisobga olmasdan, loaqal yarim soatga kechikkanini payqadi.

Golubov mahorat-la harakat etib, Chernetsov otryadining chekinadigan yo'llarini to'sib qo'ygan, ikki tomonga posbon qo'yib, qurshovga tushay deb qolgan dushmanga hamla qilmoqda edi. Baravariga otilgan to'plar gumburlar, miltiq o'qlari tunuka tom ustiga tushayotgan do'l singari sharaqlardi. Chernetsov otryadining buzilgan saflari ustiga shrapnel to'kilar, to'p o'qlari ustma-ust kelib tushardi.

— Saf-ga ti-zil!..

Grigoriy o'z sotnyalari bilan dushmanning yon tomonidan hamla qildi. Otish mashqiga ketayotgandek, emaklamasdan ro'y-rost bostirib boraverdilar, ammo Chernetsov otryadidagi bir epchil pulemyotchi safni shunday ustalik bilan o'qqa tutdiki, kazaklar uch kishini yo'qotib, apil-tapil yerga yotib oldilar.

Kunduz soat uchda Grigoriy o'q yedi. Usti nikel bilan qoplangan o'qning cho'g'dek parchasi tizzasidan yuqoriroqqa — soniga kirib jazillatdi. Grigoriy qizib ketgan o'q zarbidan, qon oqayotganidan ko'ngli behuzur bo'lib, tishlarini g'ichirlatdi. Safdan chiqdi-da, jon achchig'ida o'rnidan sakrab turib, o'q zarbidan gangigan boshini silkitib qo'ydi. Oyog'ining og'rig'i borgan sari kuchayardi, chunki o'q teshib chiqmagan edi. O'q shineli, chalvari va terini teshib o'tib, yumshoq et ichida soviy boshladi. Qattiq sanchiq harakat qilishga qo'ymas edi. Grigoriy yotgan joyida 12-polkning Transilvaniya tog'larida hujumga o'tgan paytini esladi, o'shanda qo'lidan yaralangan edi. O'sha hujum manzarasi ko'z o'ngida yaqqol gavdalandi: Kokildor, Mishka Koshevoyning g'azabdan bujmayib ketgan chehrasi, yaralangan yuzboshini qo'ltiqdab pastga olib tushib ketayotgan Yemelyan Groshev esiga tushdi.

Sotnya komandirligini Grigoriyning yordamchisi ofitser Lyubishkin Pavel qabul qilib oldi. Uning buyrug'i bilan ikki kazak Grigoriyni ot yetaklovchilar oldiga oborib qo'ydi. Kazaklar Grigoriyni otga mingazishar ekan, achinishib:

— Yarani bog'lab olsangiz bo'lardi, — deb maslahat berishdi.

— Bint bormi?

Egar ustiga chiqib olgan Grigoriy o'ylab turib otdan tushdi, chalvarini pastga tushirdi, terlab ketgan yag'rini, qorni va oyoqlari muzlay boshlaganini sezib aftini bujmaytirdi, qalamtarosh tilgandek ochilib qolgan qonli yarasini bog'ladi-da, ordinarets hamrohligida o'zlari hujum boshlagan yerga o'sha yo'l bilan ketdi. Grigoriy qor ustiga tushgan tuyoq izlarini, bir necha soat ilgari o'z sotnyasini olib o'tgan jarlikning o'ziga tanish manzarasini tomosha qilib ketdi. Uni mudroq bosar, tepalik ustida yuz berayotgan hodisalar unga juda uzoqda bo'layotgan keraksiz narsadek tuyulardi.

Tepalik tomondan pala-partish otilgan o'q sadolari, o'z askarlarini qutqarish uchun o'q otgan dushman og'ir batareyasining gumburlashi, pulemyotlarning o'xtin-o'xtin tarillashi eshitilardi.

Grigoriy uch chaqirim joygacha jar ichi bilan ketdi. Otlar qorga botib-botib ketar edi.

Grigoriy qor uyumi ustiga otini haydab:

— Tekis yo'ldan boshlasang-chi, — dedi. O'liklar, dalaga qo'ngan go'ngqarg'alar kabi onda-sonda qorayib ko'rinardi. Yiroqda egasiz bir ot chopib yurar, kichkina bo'lib ko'rinardi.

Grigoriy dabdalasi chiqqan va siyraklashgan Chernetsov otryadining asosiy qismi jangdan qochib, Glubokaya tomon chekinayotganini ko'rdi. U jiyron otini choptirib ketdi. Uzoqda to'p-to'p kazaklar ko'rinar edi. Grigoriy ulardan birining oldiga ot choptirib borib, Golubovni ko'rdi. Golubov egar ustida ko'kragini kerib o'tirardi. Etaklariga sheroziy qorako'l teri tutilgan nimcha po'stinining oldi ochiq, papog'i chakkasiga dol qo'yilgan, peshonasi terlagan edi. U vaxmistrlarnikidek dikkaygan uzun mo'ylovlarini burab, xirillab dedi:

— Melexov, ofarin! Iya, yaralandingmi? Chatoq bo'pti-ku! Suyaging butunmi? — Melexovning javobini kutmasdan majaqlab tashladik! Dabdala qildik!.. — dedi. — Ofitserlar otryadini shunday to'zg'itib yubordikki, endi ularni yig'ib ololmaydilar! Dumlarini xoda qilib qochishdi!

Grigoriy papiros so'radi. Har tomondan kazaklar va qizil gvardiyachilar kelib to'plana boshladilar. Eng uzoqda qorayib ko'ringan bir to'p askarning oldida bir kazak ot choptirib kelardi.

— Golubov, qirq odamni asir oldik! — deb qichqirdi u uzoqdan turib. — Qirq ofitser bilan Chernetsovning o'zini qo'lga tushirdik.

— Rostdanmi? — deb Golubov yuragi shig‘ etib ketdi, egar ustida qimirlab qo‘ydi va oyog‘i oq, novcha otini ayamay qamchilab choptirib ketdi.

Grigoriy biroz kutib turdi-da, keyin u ham otini yeldirib ketdi.

Asir qilib olingan ofitserlar to‘dasini 44-polk va 27-polk sotnyalaridan birining |o‘ttiztacha kazagi qurshab olib kelardi. Eng oldinda Chernetsov kelardi. U ta’qibdan qo‘rqib qochganda nimcha po‘stinini yechib tashlagan, yengilgina charm kurtkada qolgan edi. Chap yelkasidagi pogoni uzilib tushgan, chap ko‘zining yon tomoni kaltak zarbidan qontalash bo‘lib qolgan edi. U oyoqlarini to‘g‘ri tashlab, tez-tez yurib kelardi. Peshonasiga dol qo‘yilgan papaxi uni beg‘am, tetik odamga o‘xshatib ko‘rsatardi. Qip-qizil yuzida qo‘rquv asari yo‘q: aftidan, bir necha kundan beri yuziga ustara tegmagan bo‘lsa kerak, chakkalarini va iyagini mallarang soqol bosgan edi. Chernetsov oldiga chopib kelgan kazaklarga yalt etib qahrli nazar tashladi; nafrat va g‘azabidan qoshlarining orasi burishib ketgandi. U keta turib gugurt chaqib, papirosini tutatdi-da, qimtilgan qip-qizil lablarining burchiga qistirib cheka boshladi.

Ofitserlarning ko‘pchiligi yoshlar bo‘lib, bir nechasininggina sochi oqargan edi. Oyog‘idan yaralangan bir ofitser orqaroqda qolgan edi, pakanagina xumkalla, cho‘tir kazak qo‘ndoq bilan orqasidan turtdi. Chernetsovning yonida novcha, dadil bir yasovul kelardi. Ikki ofitser (biri xorunjiy, ikkinchisi yuzboshi) qo‘ltiqlashib kulimsirab kelishar; ularning orqasidan boshyalang, sochlari qo‘ng‘iroq, g‘o‘labir yunker kelardi. Biri yelkasiga pogon chatilgan soldatcha shinel tashlab olgan edi. Boshqa biri shapkasiz, qip-qizil ofitsercha boshlig‘ini qizlarnikidek chiroyli ko‘zlari ustiga tushirib olgan edi. Shamol yelkasiga tashlangan boshlig‘ining uchini hilpiratardi.

Golubov eng orqada ot ustida borar edi. U orqaroqda qolib, kazaklarga:

— Hoy, menga qarang!.. Asirlarning sog‘-salomatligi uchun siz harbiy-revolyusion davr talabiga muvofiq javobgarsiz! Ularni shtabga eson-omon olib borib topshiring! — deb qichqirdi.

U otliq kazaklardan birini oldiga chaqirib olib, egar ustida o‘tirgan joyida bir xat yozdi-da, uni o‘rab kazakka uzatdi:

— Ot choptirib borib, buni Podtelkovga topshir.

U Grigoriyga yuzlanib:

— Sen o‘sha yoqqa borasanmi, Melexov? — deb so‘radi.

Golubov ha, degan javob olgandan keyin Grigoriyning yoniga kelib dedi:

— Podtelkovga ayt, Chernetsovni men kafillikka olaman! Angladingmi?.. Shunday deb ayt. Hayda.

Grigoriy asirlar to‘dasidan o‘zib ketib, allaqaysi bir xutor yaqinida joylashgan shtabga ot choptirib keldi. Podtelkov g‘ildiraklaridagi loylari yaxlab qotib qolgan, ko‘k g‘ilof bilan yopug‘liq pulemyot o‘rnatilgan keng tavrichan aravasi yonida u yoq-bu yoqqa yurib turardi. Shtab xodimlari, choparlar, bir necha ofitser va kazak ordinaretslar ham shu yerda o‘ralishib yurishardi. Minayev ham Podtelkov singari, hozirgina pozitsiyadan kelgan edi. U aravaning peshtaxtasida o‘tirib, yaxlab qolgan qoq nonni tishlab, kisirlatib chaynar edi.

— Podtelkov! — dedi Grigoriy otini bir chekkaga surib. — Hozir asirlarni haydab olib kelishadi. Sen Golubovning xatini olib o‘qidingmi?

Podtelkov bor kuchi bilan qamchini silkitdi-da, qonga to‘lgan ko‘zlarini yerdan olmay:

— Golubov bekor aytibdi!.. — dedi. — Ko‘ngillari tag‘in nimani tusar ekan? Men hammani qo‘yib Chernetsovdek bosqinchi, aksilinqilobchini unga kafillikka berar ekanmanmi? Bermayman!.. Hammasini shartta otib tashlash kerak — vassalom!

— Golubov uni kafillikka olaman deb aytdi.

— Bermayman!.. Bermayman dedim, bermayman. Gap bitta. Uni revolyusion sudga berib, darhol jazolash zarur. Toki boshqalarga ham ibrat bo‘lsin!.. — Keyin u yaqinlashib kelayotgan asirlar to‘dasiga tikilib turib, xotirjamlik bilan gapira boshladi. — Sen uning qancha qon to‘kkanini bilasanmi? Dengiz qadar!.. Qanchadan qancha shaxtyorlarning yostig‘ini quritgan, bilasanmi?.. — u yana qizishib ketib, ko‘zlarini olaytirdi. — Kafillikka bermayman!..

— Bekorga kekirdagingni cho‘zaverma! — dedi Grigoriy jerkib: uning butun vujudi titrar, Podtelkovning g‘azabi unga ham ta’sir qilgan edi. — O‘zlaring xon, o‘zlaring bek bo‘lib ketibsanlar-ku. Sen, yaxshisi, anavi yoqqa bor! — dedi u burnining kataklarini kerib. — Asir ustidan xo‘jayinlik qiladiganlar ko‘payib qolibdi-ku!

Podtelkov qamchinini siqimlab nari ketdi va uzoqdan turib:

— Men u yerda ham bo'ldim! — deb qichqirdi. — O'ylamaginki, aravada qochib jon saqlab qopti deb. Sen Melexov, ovozingni o'chir! Tushundingmi?.. Kim bilan gaplashayotganingni bilasanmi? Ha!.. Ofitserlarcha oliftagarchilik qilma! Ularni faqat harbiy-inqilobiy komitet sud qiladi...

Grigoriy uning ustiga oti bilan boraverdi, yarasini unutib egardan o'zini yerga tashladi-yu, shu zahoti o'q yegan qushday yerparchin bo'ldi-qoldi. Yarasini jizillatib qon keta boshladi. Keyin o'rnidan turdi-da, arava oldigacha sudralib bordi-yu, keyingi tagirchigiga suyanib qoldi.

Asirlar ham yetib kelishdi. Piyoda soqchilarning bir qismi ordinaretslar va shtabni qo'riqlayottan kazaklar bilan aralashib ketdi. Urushda bo'lgan kazaklar hali sovumagan, qizishib, ko'zlarini yaltiratib, jang tafsiloti va natijasi haqida chuvullashib gaplashardilar.

Podtelkov katta-katta qadam tashlab, qorga bota-bota asirlar oldiga keldi. Eng oldinda turgan Chernetsov g'azab o'ti bilan chaqnagan ko'kish ko'zlarini qisib unga qarar, oldinga tashlangan so'l oyog'ini qimirlatib, oq tishlari bilan astari qip-qizil labini tishlab turardi. Podtelkov unga yaqin keldi.

U dag'-dag' titrar, ko'zlarini chaqchaytirib, oyoq izi tushgan qorga qarab turardi, keyin boshini ko'tarib, yeb qo'ygudek bo'lib qarab turgan Chernetsov bilan ko'z urishtirdi, tikandek o'tkir ko'zlari bilan uning ko'zini qochirdi.

— Qo'lga tushding-ku, la'nati, — dedi sekin xirqiroq ovoz bilan Podtelkov, so'ngra bir qadam orqaga tisarildi; u og'zini qiyshaytirib kulgan edi, yuzida xuddi qilich izidek chiziq paydo bo'ldi.

— Kazaklarga xiyonat qilgan xoin! Ablah! Sotqin! — deb jingilladi Chernetsov tishlari orasidan.

Podtelkov yuziga kelib tushgan shapaloqdan o'zini olib qochmoqchi bo'lgandek, boshini chayqatib qo'ydi. Ikki beti qizarib ketdi, og'zini ochib yutoqib nafas oldi.

Bundan so'ng ro'y bergan hodisalar odamni hayron qoldiradigan darajada tezlik bilan o'tdi. Tishlarini irjaytirgan, rangida rang qolmagan Chernetsov mushtlarini ko'kragiga bosib, oldinga engashib, Podtelkovning ustiga bostirib kelaverdi. Uning titrab turgan lablari

orasidan so‘kish aralash so‘zlar chiqdi. Uning nima deganini faqat asta-asta orqaga tisarilayotgan Podtelkovning o‘zigina eshitdi.

— Bilasanmi... seni nima qiladilar? — deb birdan shang‘illab gapirdi Chernetsov.

Uning og‘zidan chiqqan so‘zlarni asir ofitserlar ham, konvoy ham, shtab xodimlari ham eshitdilar.

— Ovozingni o‘-chir! — dedi xirillab Podtelkov bo‘g‘ilib va qilichining dastasiga chang soldi.

Birdan hamma jim bo‘lib qoldi. Minayev, Krivoshlikov va yana bir necha kishi Podtelkovning oldiga chopib keldilar, ularning oyoqlari ostida qor g‘ichirlardi. Biroq Podtelkov ular kelib yetmasdanoq, butun gavdasi bilan o‘ngga burildi-yu, sal engashib, qilichini qinidan shartta sug‘urib oldi va oldinga tashlanib, zalvori bilan Chernetsovning kallasiga soldi.

Grigoriy Chernetsovning qaltirab ketib, o‘zini himoya qilish uchun so‘l qo‘lini boshi uzra ko‘targanini, so‘ngra qo‘lining suyagi sinib, qiyshayib uzilib ketganini, orqaga tashlagan boshi ustiga qilich kelib tushganini ko‘rdi. Eng oldin Chernetsovning papaxi yerga tushib ketdi, so‘ngra o‘zi poyasi qirqilgan bug‘doy boshog‘idek shilq etib tushdi, uning og‘zi qiyshayib, ko‘zlari yashindan qamashgandek qisilib qoldi.

Podtelkov yana bir karra qilich soldi, so‘ngra keksa kishidek oyoqlarini arang bosib nari ketdi, yo‘l-yo‘lakay qonga belangan qilichining ikki yonini artdi.

U aravaga o‘zini urib olib, konvoylarga yuzlandi-da, bo‘g‘ilgan ovoz bilan:

— Chopib tashlanglar ularni... onalarini!.. Bit-tasiniyam tirik qo‘ymang!.. Asir olish yo‘q... Og‘zidan qonini keltiring! — deb baqirdi.

Ketma-ket o‘q uzila boshladi. Ofitserlar turtinishib, har tarafga o‘zlarini urdilar. Qizlarnikidek ko‘zlari chiroyli, ofitsercha, qizil boshliq kiygan ofitser boshini changallab qochdi. Bir o‘q kelib tekkach, u baland to‘siqdan hatlab o‘tgandek bir irg‘idi-yu, keyin gurs etib yiqilib, yer tishlab qoldi. Novcha, azamat yasovulni ikki kishi chopib tashlali. U qilichni tig‘idan ushlar, kesilgan qo‘llaridan yengiga tirqirab qon oqardi; u boladek chinqirib, cho‘kkalab oldi, keyin

chalqanchasiga yiqilib, qor ustida boshini to'lg'adi; chehrasida qonga to'lgan ko'zlari bilan tinmay chinqirgan og'zigina qorayib ko'rinar edi. Uning yuziga va qorayib ko'ringan og'ziga ustma-ust qilich tushar, u hamon dahshat va alamga chidolmay chinqirardi. Shinelining bel kamari uzilgan bir kazak ijirg'anib, bir o'q bilan uning joni oldi. Qo'ng'iroq sochli yunker oz bo'lmasa kazaklar orasidan o'tib ketay degan edi, allaqanday atamanli kazak orqasidan yetib borib, gardaniga qilich bilan urib o'ldirdi. Shu kazak shinelining etagi shamoldan ko'tarilgan bir yuzboshining ikki kuragi orasiga o'q otib yiqitdi. Yuzboshi cho'nqayib o'tirib qoldi va joni chiqquncha ko'kragini timdaladi. Sochlari oqara boshlagan yasovul yordamchisini turgan joyida o'ldirishdi. Jon berarkan, u oyog'i bilan qorda chuqur qazidi, agar rahmi kelgan kazaklar uni darhol o'ldirmasalar, qoziqdagi arg'umoqdek anchagacha oyog'i bilan yer qazib turardi.

O'ch olish boshlangani hamono Grigoriy aravadan nari ketdi, nursizlangan ko'zlarini Podtelkovdan olmay, oqsoqlanib uning ustiga tez-tez yurib kelaverdi. Minayev orqadan kelib, qo'lini orqasiga qayirdi-da, naganini tortib oldi va xiralangan ko'zlarini uning ko'ziga tikib:

— Sen nima deb o'ylovding? — dedi.

XIII

Sirtini qanddek oppoq qor bosgan tepalik quyosh shu'lasi va bulutsiz kun yog'dusida ko'zni qamashtirgudek jimirlar edi. Tepalik yon bag'rida Olxoviy Rog shaharchasi quroq ko'rpadek cho'zilib yotar, so'l tomonida Svinyuxa, o'ng tomonida kichik xutorlar va nemis koloniyalari uzoqdan xuddi tuman parchasidek ko'zga chalinar, daryo qayrilib oqqan joyning narigi tomonida Ternovskaya stanitsasi ko'm-ko'k bo'lib ko'rinar edi.

Shaharchaning kunchiqar tomonida jarliklar bilan bir-biridan ajralib turgan past-baland tepalar yuqoriga qarab cho'zilib ketgan, bu tepalar ustida qoziqqa o'xshab dikkayib turgan simyog'ochlar Kasharigacha cho'zilib borardi.

Havo ochiq va ayoz edi, bunday kunlar kamdan kam bo'lardi. Quyoshning atrofi xuddi kamalak singari aks etar, shimoldan shamol esib, cho'lda izg'irin qorlarni uchirib yurardi. Ammo ufqqacha

cho‘zilgan qorli dasht oppoq, faqat kun chiqish tarafda, ufqning bir burchida dasht ko‘kish tumanda tovlanib turardi.

Grigoriyni Millerovodan olib ketayotgan Panteley Prokofyevich Olxoviy Rogda to‘xtamasdan, birato‘lasi Kasharida dam olishga qaror qildi. U Grigoriydan telegramma olgach, 28-yanvar kuni Millerovoga yetib kelgan edi. Grigoriy uni karvonsaroyda kutib yotardi. Ular erta bilan yo‘lga chiqdilar va soat o‘n birga yaqin Olxoviy Rogdan o‘tib ketdilar.

Grigoriy Glubokaya yaqinida yarador bo‘lgandan keyin Millerovodagi ko‘chma lazaretda bir hafta yotdi; oyog‘i biroz tuzalgandan keyin uyga ketishga jazm qildi. O‘z hamqishloqlari uning otini keltirib berdilar. Grigoriy ketayotganidan ham norozi, ham xursand edi, — bir tomondan, Donda hokimiyat uchun kurash qizigan paytda o‘z otryadini tashlab ketayotganidan norozi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘z oilasini, o‘z xutorini ko‘rishidan xursand bo‘lar edi; Aksinya bilan ko‘rishish orzusida ekaniga o‘zi iqror bo‘lmasa-da, butun fikri-xayoli unda edi.

U otasini xuddi begona odamdek qarshiladi. Panteley Prokofyevich Grigoriyga shubha ko‘zi bilan qarardi (Petro qulog‘iga bir gapni shipshitib qo‘ygan edi). Uning qattiq tikilib qarashida norozilik, tashvish alomati ko‘rinardi. U stansiyaga yetganlaridan keyin kechqurun Grigoriydan viloyatda ro‘y bergan hodisalarni so‘rab-surishtirdi; o‘g‘lining javoblari, aftidan, uni qanoatlantirmadi. U oqargan soqolining uchini tishlab, tagiga charm solib tikilgan piymasiga qarar, burnini tortar edi. Tortishishga tobi yo‘qroq ko‘rinardi, ammo Kaledinning yonini olar ekan, qizishib ketdi va avvalgidek, Grigoriyga jerkib, cho‘loq oyog‘ini yerga tap-tap etib urib qo‘ydi.

— Meni laqillatma. Shu bu yil kuzda Kaledin xutorimizga kelgan edi. Maydonda yig‘ilish bo‘ldi, u stol ustiga chiqib, chollarga nutq so‘zladi va tavrotda aytilgandek, mujiklarning bostirib kelishini, urush bo‘lishini va agar biz ikkilanib tursak — hamma narsamizni tortib olishlarini va viloyatga kelib joylashishlarini gapirdi. O‘sha vaqtdayoq urush bo‘lishini bilgan edi. Siz, itvachchalar nimalarni o‘ylaysiz? Yo bo‘lmasa, u sizlardan kamroq biladimi? O‘qimishli, butun armiyaga boshchilik qilgan general senlardan oz biladimi? Kamenskda sen kabi nodonlar yig‘ilib olib, xalqning kallasini qotira-

yotir. Podtelkoving kim? Vaxmistrmi? E-ha, men bilan mansabi bir ekan-ku. Balli-ye!.. Shu kunlarga qoldikmi?.. Tamom, vassalom.

Grigoriy otasi bilan istar-istamas bahslashar, chunki otasining fe'lini bilgani uchun bahslashuvdan foyda chiqmasligini tushunar edi. Bir tomondan yaqinda ro'y bergan hodisa uni hijil qilar: u Chernetsovning o'ldirilishi va asir zobitlarning sudsiz otilishini sira kechira olmas, esidan chiqarmas edi.

O'rtadagi yog'ochning ikki tomoniga qo'shilgan otlar chanani baholzur tortib borardi. Grigoriyning chana orqasiga bog'lab qo'yilgan egarlog'liq oti yo'rtib kelardi. Bolalik chog'idan beri Grigoriyga tanish bo'lgan shaharcha va xutorlar: Kashari, Popovka, Kamenka, Nijne-Yablonovskiy, Grachyov, Yasenovka yo'l ustida yastanib yotar edi. Xutorga yetib olgunlaricha Grigoriy yaqindagina bo'lgan hodisalar ustida o'ylab o'yiga yetolmasdi, kelajakda nima qilishini umuman belgilab qo'ymoqchi bo'lar edi-yu, lekin uning fikri uyiga borib dam olishdan nariga o'tmas edi: «Uyga yetib olib, biroz dam olaman, yaramni davolayman, u yog'i... — deb o'ylar, so'ngra qo'l siltab qo'yib, — u yog'i bir gap bo'lar. Boshga tushganni ko'rarmiz», — der edi.

Urush uni toza charchatgan, madordan ketkizgan edi. Dushmanchilik, adovat bilan qaynab toshgan, tushunib bo'lmaydigan dunyodan yuz o'girgisi kelardi. Orqada qolgan narsalarning hammasi ziddiyat bilan to'lgan muammo edi. To'g'ri yo'lni topish juda qiyin, oyog'i ostidagi zamin botqoqlik ustiga tashlangan taxtadek qimirlab turar, ketayotgan yo'li ikki tomonga ayrilib ketgan, qaysi biridan borish kerakligini aniq bilmas edi. Avval bolsheviklarga mayli bor edi, — u bolsheviklar ketidan bordi, boshqalarni ham ergashtirdi, keyin fikri o'zgarib, yuragi sovidi. «Nahotki Izvarin haqli bo'lsa? Kimga ergashish kerak?» — deb xayol surardi Grigoriy chana orqasiga suyanib. Ammo bahorga molalarni, aravalarni qanday tayyorlashni, tol chiviqlaridan oxur yasashini, yerning qori ketib qurigandan keyin dashtga chiqishini, mehnatni sog'ingan qo'llari bilan plug dastasini ushlab, yer haydayotganida silkinib, qalqib-qalqib ketishini tasavvur qilganda, sabzalarning va palaxsa-palaxsa qilib ag'darilgan rutubat anqib turgan yerning yoqimli hidini hidlab, nafas olishini ko'z oldiga keltirganda ko'ngli yumshab ketardi. Shu topda mol tagini tozalagi-

si, pichan o'rgisi, qurigan yovshan, yovvoyi arpa, chirigan go'ng hidini qo'msadi. Grigoriy tinchlik va osoyishtalikni istar edi, shuning uchun u atrofdagi narsalarga: otlarga, po'stin kiygan otasining keng yag'riniga qarar ekan, o'tkir ko'zlarida shodlik va yashirin uyatchanlik ifodasi namoyon bo'lardi. Hamma narsa: qo'y terisidan tikilgan po'stin hidi ham, qashlanmagan otlarning ko'rinishi ham, omborxona ustida qichqirayotgan xo'rozlar ham unga yodidan ko'tarilayozgan avvalgi hayotini eslatardi. Shu payt bu dashtlardagi hayot sharbat kabi shirin ko'rinardi.

Ertasi kuni kechki tomon xutorga yaqinlashdilar. Grigoriy tepalikdan turib Donga qaradi: ana etaklari qamishzor Xotin chakalak; ana, qurigan terak. Dondan kechib o'tiladigan yo'l boshqa yerdan tushibdi. Ana xutor, o'ziga tanish bo'lgan to'rtburchak mahallalar, cherkov, maydon... O'z uyiga ko'zi tushgach, Grigoriyning ko'ngli bir xil bo'lib ketdi. Xotiralar uning xayolini to'ldirdi. Mol qo'radagi quduq ustidagi havoza, go'yo qo'lini ko'tarib uni chorlayotgandek edi.

— Ko'zlaringga yosh kelmadimi? — deb so'radi Panteley Prokofyevich unga qarab. Grigoriy quvlik qilmay, rostini aytdi:

— Yosh kelganda qanday!..

— Shuning uchun vatan deydilar-da, — dedi Panteley Prokofyevich mamnunlik bilan.

U chanani xutorning o'rtasiga haydadi. Otlar tepalikdan chopib tushar, chanalar goh u tomonga, goh bu tomonga qiyshayib ketar edi. Grigoriy otasining niyatini payqagan bo'lsa hamki:

— Nega chanani xutorning o'rtasiga haydayapsiz? O'z ko'chamizga buring, — dedi.

Panteley Prokofyevich o'girilib qaradi va qirov bosgan soqol-miyig'ida kulib, ko'zini qisdi:

— O'g'illarim urushga ketayotganda oddiy kazak edi, ofitser bo'lib qaytishdi. Nima, o'g'limni xutor o'rtasidan olib o'tib mag'rurlanmaymi? Do'st-dushman ko'rib havasi kelsin. Axir, o'g'lim, bilasanmi, ko'kragim tog'dek ko'tariladi-ya!

Katta ko'chaga yetganda u otlarga asta «chuv» deb qo'yib, peshtaxtaga qiyshiq o'tirib oldi, uchi shokilali qamchisini o'ynatdi. Otlar uylari yaqinlashganini sezib (go'yo yuz qirq chaqirim yo'lni bosib

o'tmagandek), o'ynoqlab chopib ketdi. Duch kelgan kazaklar engashib salom berar, mol qo'ralar va uylarning derazalaridan ayollar kaftlarini peshonalariga qo'yib qarar, tovuqlar qaqolashib ko'chaning u yuzidan bu yuziga chopib o'tar edilar. Hamma narsa kutganlaridek bo'lib chiqdi! Xutor maydonidan o'tib ketdilar. Grigoriyning oti allakimning Moxovlar chetan devoriga bog'langan otiga qarab kishnadi va boshini baland ko'tarib yo'rtib ketdi. Xutorning eng chetidagi uylar, Astaxovning tomi ko'rindi.!. Ammo bu yerda, birinchi muyulishda ko'ngilsiz bir hodisa yuz berdi: ko'chaning u betiga chopib o'tib ketayotgan cho'chqacha, falokat bosib, otlarning oyog'i ostiga tushib qoldi-da, singan belini arang ko'tarib, chiyillaganicha qochdi.

— E, harom o'lgur, — deb so'kindi Panteley Prokofyevich chana tagida qolgan cho'chqani qamchi bilan urib.

Aksiga bu cho'chqa o'lgudek zahar va tili bir qarich Anyutkaniki, — Afonka Ozerovdan tul qolgan xotinniki ekan. Anyutka shu zahoti qo'rasidan chopib chiqdi-yu, ro'molini boshiga o'rab shunday qarg'ish yog'dira boshladiki, Panteley Prokofyevich otning boshini tortib, orqasiga qayrilib qaradi.

— Ovozingni o'chir, manjalaqi! Buncha baqirasan? Qo'tir cho'chqangning pulini to'laymiz!..

— Imonsiz chol!.. Shayton!.. Sen o'zing qo'tirsan, cho'loq it! Hozir ustingdan atamanga dodlab boraman!.. — deb Anyutka qo'llarini o'ynatib vaysab ketdi. — Men senday nokasga beva-bechoraning molini bostirib ketish nimaligini ko'rsatib qo'yaman!..

Uning gapi Panteley Prokofyevichga juda alam qilib ketdi, rangi bo'zarib:

— Sharmanda! — dedi.

— La'nati turkvachcha!.. — deb uzib oldi Ozerova.

— Mochag'ar, tuqqan onangga ming la'nat! — deb do'rillab jerkib berdi Panteley Prokofyevich.

Ammo Anyutka Ozerova og'ziga kelganni qaytarmaydigan manjalaqi edi.

— Kelgindi!.. O'g'ri! Mola o'g'risi! Beva kazak xotinlarga modobozlik qilishingni bil! — deb valdirab ketdi u.

— Hozir qamchi bilan sopqolaman, ahmoq!.. Tuvakka o'xshagan og'zingni yum!

Lekin Anyutka shunday bir gap aytdiki, hatto ko'pni ko'rib, ko'p gapni eshitib qulog'i pishigan Panteley Prokofyevich ham, uyalganidan qulog'igacha qizarib, hamma yog'ini ter bosib ketdi.

— Haydasangiz-chi!.. Nima qilasiz g'ijillashib? — dedi Grigoriy jahl bilan, ko'chaga asta-sekin odam to'planayotganini va keksa Melexov bilan nomusli beva ayol Ozerovaning g'ijillashiga quloq berayotganini ko'rib.

— Tilini qara... bir qarich-a! — deb Panteley Prokofyevich tupurib qo'ydi va Anyutkani bostirib ketmoqchi bo'lgandek otini qattiq haydab ketdi. Ko'chaning boshiga yetganda qo'rqa-pisa alanglab:

— Og'ziga kelganini qaytarmay akillaydi-ya!.. Voy, padar la'nati-ye.. Huv qorning yorilgur, xo'ppa semiz! — deb so'kindi chol. — Seni cho'chqang bilan birga bosib o'ldirish kerak edi! Bunaqa sharmsiz mochag'arlarga ro'para bo'lsang, ikki yamlab bir yutadi.

Uylarining ko'k panjarali derazalari yonidan o'tdilar. Boshyalang, gimnastorka ustidan kamar bog'lagan Petro darvozani ochdi. Zinapoya ustida oq ro'mol o'ragan, qora ko'zlari kulib turgan Dunyasha ko'rindi.

Petro inisi bilan o'pishib ko'risharkan, uning ko'ziga tikilib:

— Omonmisan? — deb so'radi.

— Yarador bo'ldim.

— Qayerda?

— Glubokaya yaqinida.

— U yerlarda tentirab yurishga nima hojat bor edi-ya! Allaqachon uyga qaytish kerak edi.

Petro Grigoriyni mehr bilan quchoqlagandan keyin, uni Dunyashka tomon turtdi. Grigoriy singlisining to'lishgan yelkalaridan quchoqlab, uning yuz-ko'zlaridan o'pdi, keyin orqaga tisarilib hayrat bilan:

— Voy, Dunyaxa, kap-katta bo'lib, juda yetilibsan-u, men bo'lsam xunukkina, ko'rimsizgina bo'lasan deb o'ylovdim, — dedi.

Dunyashka chimchilab olmoqchi bo'lgan akasidan o'zini opqochib:

— E, qo'ysang-chi!.. — dedi. So'ngra Grigoriynikiga o'xshash sadaf tishlarining oqini ko'rsatib kuldi-da, nari ketdi.

Ilinichna bolalarini qo'lida ko'tarib kelardi, Natalya chopib undan o'zib ketdi. U guldek ochilgan, bir husniga o'n husn qo'shilgan edi. Sip-silliq qilib taralgan va orqasiga turmaklangan qora sochi xursandlikdan loladay ochilgan yuziga tarovat berardi. U Grigoriyning pinjiga suqilib, bir necha marta yonoqlaridan o'pdi va Ilinichnaning qo'lidan o'g'lini olib, Grigoriyga uzatdi.

— O'g'ling azamat bo'lib qoldi, qara, — dedi u shodlik aralash mag'rurlik bilan.

— Bu yoqqa tur, men o'z o'g'limni ko'ray, — deb Ilinichna hovliqib uni nari itardi.

Kampir Grigoriyning boshini egib, uning peshonasidan o'pdi, uning yuzini silab turib, behad xursand bo'lganidan yig'lab yubordi.

— Gri-i-sha!.. Qizingni ko'r!.. Ma, ol!..

Natalya ro'molga o'ralgan qizini Grigoriyning ikkinchi qo'liga tutqizdi. Grigoriy shoshganidan Natalyagami, onasigami, bolalarigami qarashni bilmay qoldi. Qoshi chimirilgan, ko'zi o'qraygan o'g'li Melexovlarga tortgan edi: uning ham jiddiy qiyiq ko'zlari qop-qora, qoshlari qalin, o'zi qorachadan kelgan edi. Bola kir bo'lib ketgan mushtumchasini og'ziga tutib, otasiga tik qarab turardi. Grigoriy qizining ham diqqat bilan qarab turgan mitti ko'zlarinigina ko'rardi, — qizchaning yuzi ro'molga o'rog'liq edi.

Grigoriy ikkalasini ko'tarib, zinapoya tomon yurdi, lekin oyog'i zirqirab og'rib ketdi.

— Natasha, bularni ol... — Grigoriy aybdor kishidek, lablarini burib kuldi. — Bo'lmasa zinadan chiqolmayman...

Darya oshxonaning o'rtasida sochlarini tuzatib turardi. U kulimsirab, betakalluflik bilan Grigoriyning oldiga keldi va kulib turgan ko'zlarini yumib, issiq lablarini uning labiga bosdi.

— Gup-gup tamaki hidi keladi-ya! — dedi u qalamdek qop-qora qayrilgan qoshlarini o'ynatib.

— Kel, yana bag'rimga bosib, diydoringga to'yay, o'g'lim! Bo'ylaringdan aylanay!

Grigoriy onasining pinjiga suqilib kulimsirar, yuragi orziqar edi.

Panteley Prokofyevich hovlida otlarni chiqarar, chana atrofida oqsab yurar, pushti kamari bilan papaxining ustiga sirilgan qizil alvon yiltirab ko'rinardi. Petro Grigoriyning otini otxonaga olib borib

bog‘lab qo‘ydi, dahlizga egarini olib kirar ekan, yo‘l-yo‘lakay, chakadan kerosin idishini olib kelayotgan Dunyashkaga bir nima deb shivirladi.

Grigoriy yechinib, nimcha po‘stini bilan shinelini karavot boshiga ildi-da, sochlarini taradi. Keyin o‘rindiqqa o‘tirib, o‘g‘lini chaqirdi:

— Bu yoqqa kel, Mishatka. Nima, meni tanimayapsanmi?

Mishatka og‘zidan mushtumini olmay, yoni bilan yurib, qo‘rqapisa stol yoniga kelib to‘xtadi. Pechka yonida turgan onasi mag‘rurlik bilan kulib tikilib turardi. U qizining qulog‘iga bir nima deb shipshidi-da, qo‘lidan yerga tushirib, orqasidan sekin turtib qo‘ydi.

— Bora qol!

Grigoriy ikkalasini ham quchog‘iga oldi; keyin tizzasiga o‘tqazib so‘radi:

— Tanimayapsizlarmi meni, tirmizaklar? Polyushka, sen ham dadangni tanimayapsanmi?

— Siz dadamiz emassiz, — deb shivirladi Misha (singlisi yonidaligida yuragi dadil bo‘lar edi).

— Bo‘lmasa kimman?

— Boshqa kazaksiz.

— Gapingni qara-ya, — deb Grigoriy qahqahlab kulib yubordi. — Bo‘lmasa sening dadang qayerda?

— U xizmatda, — dedi qiz boshini egib dadillik bilan (u, yuraklirroq edi).

— Bo‘sh kelmanglar, bolalarim, uyaltiringlar! O‘z uyi — o‘lan to‘shagi borligi esiga tushsin. U oylab-yillab qayoqlardadir sanqib yurgandan keyin uni qanday qilib tanib bo‘ladi! — dedi Ilinichna, ginaxonlik qilganday. Grigoriy kulgan edi, u ham kulib yubordi. — Bunday qilsang, xotining sendan yuz o‘giradi. Biz uni uzatib yubormoqchi ham bo‘luvdik.

— Iya, bu qanaqa gap, Natalya! Shunaqami hali? — dedi Grigoriy xotiniga hazil aralash.

Natalya uy ichidagilardan uyalib qip-qizarib ketdi, keyin o‘zini tutib olib, Grigoriyning oldiga kelib yoniga o‘tirdi-da, sevinch to‘la ko‘zlarini tikib, unga qarab qoldi, keyin qadoq bosgan issiqqina qo‘llari bilan erining quruq sarg‘ish qo‘lini siladi.

— Darya, dasturxon yoz!

— Xotini yozsin, — deb kuldi Darya va likillab, yengil qadam tashlab pechka yoniga ketdi.

Darya avvalgidek tannoz va yasangan-tusangan edi, nozik, bejirim oyoqlarida gunafsharang jun paypoq, xuddi atayin tikilgandek o'tirishgan etikcha bor edi; to'q qizil burma yubkasi belini siqib turar, kashta solib tikilgan ko'krakchasi qordek oppoq edi. Grigoriy yuzini xotiniga o'girdi, uning ham tashqi qiyofasi biroz o'zgarganini ko'rdi. Natalya erining kelishini kutib yasanib olgan edi; yenglariga ensiz to'r tutilgan havorang satin koftasi xipcha beliga yopishib, yumshoq, baland ko'kragini do'ppaytirib ko'rsatar, etaklari guldor burma yubkasining past tomoni keng, yuqorisi belini siqib turardi. Grigoriy yon tomondan uning to'la yo'nib yasalgandek kelishgan boldirlariga, kishini maftun qiluvchi xipcha, nozik beliga va boquvda yotgan biyaning sag'risidek keng orqasiga qarab: «Kazak ayolini yuz xotin ichidan ham tanib olasan, shunday kiyinadiki, qomati ko'zga tashlanib turadi, hadeb qaraging kelaveradi. Mujik xotinlarda esa na bel bor, na dumba,– xuddi qopda yurganga o'xshaydi...» deb o'yladi.

Ilinichna o'g'lining qarab turganini ko'rib:

— Bizning ofitser xotinlari mana shunday kiyinadi! Shahar ayollarini ham yo'lda qoldirib ketadi, — dedi.

— Onajon, nimalar deyapsiz? — deb gapini bo'ldi Darya. — Shahardagidar bilan tenglasha olarmidik! Bir isirg'am bor edi, u ham sindi, o'ziyam bir pulga qimmat narsa ediy-u, — deb so'zini tamomladi hasrat bilan.

Grigoriy qo'lini xotinining keng va ishda pishgan kiftiga qo'ydida, birinchi marta: «Chiroyli juvon, ko'zga yaqin, — deb o'yladi. — Men yo'g'imda qanday turgan ekan? Kazaklar uni ko'rganda ko'zlari o'ynagandir, ehtimol, bu ham ulardan biriga ko'z suzgandir. Agar birontasi bilan o'ynashib yurgan bo'lsa-chi?» To'satdan miyasiga kelgan bu fikrdan yuragi siqilib, ko'ngli xira bo'ldi. U Natalyaning to'lishgan, guldek muattar yuziga sinchkov nazar tashladi. Natalya uning tikilib turganini ko'rib qizarib ketdi-da, o'zini bosib:

— Nega bunday qarayapsan? Sog'indingmi? — deb so'radi.

— Sog'inganda qandoq!

Grigoriy miyasidan yaramas fikrlarni quvib yubordi, lekin shu on unda xotiniga nisbatan qandaydir bir adovat paydo bo'ldi.

Panteley Prokofyevich yo'talib eshikdan kirib keldi, ikonaga qarab cho'qinib:

— Eson-omon diydor ko'rishganlaring muborak bo'lsin! — dedi.

— Xudoga shukur. Ha, nima, sovqotdingmi? Biz seni kutib o'tiruvdik: sho'rvani hozir suzuvdik, qaynoq, — deb Ilinichna qoshiqlarni shaqirlatib keltirib qo'ydi.

Panteley Prokofyevich bo'ynidan qizil sharfini oldi-da, tagiga charm solib tikilgan muzdek piymasini to'qillatib, po'stinini yechdi, mo'ylovi bilan soqolidagi yaxlarni yulib olib tashlab, Grigoriyning yoniga o'tirarkan:

— Toza sovqotgan ekanman, xutorga kelib qizib ketdim... Anyutkaning cho'chqasini bosib oldik, — dedi.

— Qaysi Anyutkaning? — deb so'radi Darya bir buxanka oppoq nonni to'g'rashdan to'xtab.

— Ozerovaning cho'chqasini. Juvon o'lgur yugurib chiqib ayyuhannos solsa bo'ladimi! Sen falonsan, pismadonsan, falonchining molasini o'g'irlagansan, deb vaysab ketdi. Qanaqa mola? — buni xudo biladi.

Panteley Prokofyevich Anyutkaning o'zi to'g'risida nima deb vaysaganini gapirib berishga berdi-yu, lekin yosh bevalarga modabozlik qilgani to'g'risidagi so'zini og'izga olmadi. Grigoriy stol yoniga kelib o'tirar ekan, miyig'ida kulib qo'ydi. Panteley Prokofyevich o'g'li oldida o'zini oqlash uchun qizishib:

— Shunday behayo gaplarni aytdiki, hech og'izga olib bo'lmaydi! — deb gapini tugatdi. — Orqamga qaytib, qamchi bilan solib qolmoqchi edim-ku, lekin yonimda Grigoriy bor edi, uning yonida bunday qilishga qo'lim bormadi.

Petro eshikni ochdi, Dunyasha bo'yniga belbog' bog'langan, peshonasida qashqasi bor qizil buzoqni yetaklab ichkari olib kirdi.

Petro buzoqni oyog'i bilan turtkilab:

— Maslenitsa bayramiga yupqani qaymoq bilan yeymiz, — dedi quvonib.

Ovqatlanib bo'lishgandan keyin Grigoriy qopchig'ining og'zini ochib, uy ichidagilarga atagan sovg'alarini ulasha boshladi.

— Oyi, manavi sizga, — deb jun ro'mol uzatdi. Ilinichna yosh juvonlardek qizarib, tortinib ro'molni oldi-da, yelkasiga tashlab o'zini oynaga solib, kiftlarini o'ynatib qo'ydi. Buni ko'rib Panteley Prokofyevichning ensasi qotdi:

— Shum kampirning qilig'ini tomosha qiling, o'zini oynaga solyapti-ya. Tuf-e!.. — dedi.

Grigoriy hammaning ko'z o'ngida gardishi qip-qizil baland furajkani chiqara solib:

— Manavi sizga, ota, — dedi.

— Xudo xayringni bersin! Tuzukroq furajkam yo'q edi. Bu yil do'konlarda ham furajka topolmadim... Bo'lmasa nima kiyardim... Eski furajkada cherkovga borish uyat. Manavi ko'hnasi bog'dagi qo'riqchiga kiygizishdan boshqaga yaramaydi... — der edi chol jahli chiqqandek; go'yo birov o'g'lining sovg'asini tortib olib qo'yadigandek, alanglab.

U oyna oldiga borib kiyib ko'rmoqchi bo'ldi, lekin Ilinichna undan ko'zini olmay turganini payqab, oqsay-oqsay samovar oldiga keldi. Furajkasini peshonasiga dol qo'yib, samovarga qaray boshladi.

— Nima qilyapsan, esini yegan chol? — deb uzib oldi Ilinichna.

Panteley Prokofyevich darrov gap topib:

— Voy, shum kampir-e, tariqcha aqling yo'q-a, bu oynami? Samovar-ku, voy seni qara-ya! — deb qo'ydi.

Grigoriy xotiniga yubkalik jun mato berdi, bolalarga bir qadoq shirin otnon ulashdi, Daryaga haqiq toshli kumush isirg'a uzatdi, Dunyashkaga kofta uchun mato, Petroga bir quti papiros ila bir qadoq tamaki sovg'a qildi.

Ayollar chug'ullashib, sovg'alarni ko'zdan kechirarkan, Panteley Prokofyevich gerdayib yemakxonada u yoqdan bu yoqqa yurar va:

— Mana Leyb-gvardiya Kazak polkining kazagi! Imperator ko'rigida birinchi mukofotni olgan kazak! Egar, yugan-jabduq olgan! Tomosha qiling!.. — deb ko'kragini kerib qo'yardi

Petro qizg'ish mo'ylovining uchini tishlab, otasiga zavqlanib qarar, Grigoriy miyig'ida kulardi. Keyin papiros chekishib oldilar, Panteley Prokofyevich xavotirlanib derazadan qaradi-da:

— Qavm-qarindosh, urug'-aymoqlar kelmasdan burun... U yerlarda nima bo'layotganini Petroga gapirib ber, — dedi.

Grigoriy qo'l siltab qo'yib:

— Urushyaptilar-da, — dedi.

— Hozir bolsheviklar qayerda? — deb so'radi Petro joylashib o'tirib olib.

— Uch tomondan: Tixoretskaya, Taganrog, Voronej tomondan kelyaptilar.

— Yaxshi, sizning revkom nima qilmoqchi? Nima uchun ularni bizning yerlarga qo'yayaptilar? Xristonya bilan Ivan Alekseyevich kelishdi, qayoqdagi bo'lmagan gaplarni aytishadi, lekin ularga men ishonmayman. U yerda ishlar boshqachadir...

— Harbiy-inqilobiy komitet kuchsiz. Kazaklar uy-uylariga qochib ketyaptilar.

— Shu sababdan ham komitet Sovetlarga suyanayotgan ekan-da?

— Albatta, shu sababdan.

Petro jimib qoldi, yana papiros chekib, ukasining ko'ziga qarab:

— Sen qaysi tomondasan? — deb so'rab qoldi.

— Men sovet hokimiyati tarafdoriman.

— Ahmoq! — dedi Panteley Prokofyevich birdan tutaqib ketib. — Petro, hech bo'lmasa sen aqlini kirgizib, ko'zini ochib qo'y!

Petro kulimsirab, Grigoriyning yelkasiga qoqib qo'ydi.

— Bu hali minishga o'rgatilmagan otdek asov. Unga gap uqtirib bo'ladimi, dada?

— Menga aql o'rgatishning hojati yo'q, — deb Grigoriy qizishib ketdi. — O'zimning ham aqlim bor... Frontdan kelganlar nima deyishyapti?

— Frontdan kelganlar bilan bizning nima ishimiz bor! Yoki sen esi past Xristonyani bilmaysanmi? U nimani tushunadi? Xalq boshdan oyoq yo'ldan adashgan, qayoqqa borishini bilmaydi... Musibat! — deb Petro mo'ylovining uchini tishladi. — Sen qarab tur, bahorda nima bo'larkin, it egasini tanimay qoladi... Biz frontda bolshevik bo'lib ham ko'rdik, endi aqlimizni yig'ishtirib olishimiz zarur. Ustimizga bostirib kelganlarga kazaklar: «Bizga birovning cho'pi ham kerak emas, biznikiga ham tegmang», deyishlari lozim. Kamenskdagi ishlaring yaramaydi. Bolsheviklar bilan og'iz o'pishasiz, shuning uchun ham ular o'z tartiblarini qabul qildiryaptilar.

— Grisha, sen tanangga bir o'ylab ko'r. Shuni yaxshi bilib qo'yki, kazak kazakligicha qoladi. Murdor Rus bizga xo'jayinlik qilishi kerak emas. Kelgindilar hozir nima deb vaqillashyapti, bilasanmi? Butun yerlarni jon boshiga qarab bo'lish kerak deyaptilar. Bunga nima deysan?

— Eskidan Donga kelib o'rnashib qolganlarga yer beramiz.

— Shimildiriqni olsinlar! Manavini olsinlar!.. — dedi Panteley Prokofyevich barmoqlari orasidan boshmaldog'ini chiqarib. — U tirnog'i o'sib ketgan Boshmaldog'ini anchagacha Grigoriyning qirrali burni tagida qimirlatib turdi.

Zinapoyada oyoq tovushi eshitildi. Sovuqda muzlab qolgan zina bosqichlari qisirlab ketdi. Anikushka, Xristonya va quyon terisidan tikilgan uzun papax kiygan Ivan Tomilin kirib kelishdi.

— Xush kelibsan, askar bola, Panteley Prokofyevich, topgan-tutganingni olib chiq! — deb shang'illadi Xristonya.

Issiq pechka yonida mudrab yotgan buzoqcha uning shang'illagan tovushidan cho'chib ma'rab yubordi. Buzoqcha titrab turgan oyoqlari ustiga bosib o'rnidan turdi-da, aqiq ko'zlarini tikib angrayib qoldi, qo'rqqanidanmi, polga tizillatib siyib yubordi. Dunyashka uning orqasiga bir turtib to'xtatib qo'ydi; ho'l bo'lgan joyni latta bilan artib, tagiga cho'yan tuvak tutdi.

— Shang'illab buzoqni qo'rqitvording-a! — dedi Ilinichna jahl aralash.

Grigoriy kazaklarga qo'l berib ko'rishdi-da, o'tirishga taklif qildi. Ko'p o'tmay xutorning u tomonidagi kazaklar ham keldilar. Gaplashib o'tirib, shu qadar ko'p papiros chekdilarki, tutundan chiroq miltillab qoldi, buzoq qattiq-qattiq yo'taldi.

— Jin ursin senlarni! — deb po'ng'illadi Ilinichna yarim kechada mehmonlarni chiqarib yuborib. — Tashqariga chiqib cheksalaring bo'lmaydimi! Boringlar! O'g'limiz yo'ldan charchab kelgan, dam olsin. Xudo xayringizni bersin, boringlar.

XIV

Ertasiga ertalab Grigoriy hammadan kech uyg'ondi. Bahordagi singari, bo'g'ot tagiga va romlarning chorcho'plariga qo'ngan chumchuqlar qattiq chirqillashib uni uyg'otib yubordi. Deraza qop-

qoqlarining tirqishlaridan oftobning zarrin nurlari tushib turardi. Tushki ibodatga zang urayotgan edilar. Bugun yakshanba ekani Grigoriyning esiga tushdi. Natalya yonida emasdi, lekin paryostiq issiqqina edi. Aftidan, u yaqindagina o'rnidan turgan bo'lsa kerak.

— Natasha! — deb chaqirdi Grigoriy. Dunyashka kirib keldi.

— Nima deysiz, aka?

— Derazani ochib, Natalyani chaqir. U nima qilyapti?

— Oyim bilan ovqat pishiryapti, hozir keladi.

Natalya ichkari kirib, qorong'idan ko'zlarini qisdi.

— Uyg'ondingmi?

Uning qo'lidan hozirgina qorilgan xamir hidi kelardi. Grigoriy yotgan joyida uning belidan quchoqladi va kechani xotirlab kuldi.

— Uxlab qolibsanmi?

— Ha. Kechasi... yomon charchabman, — deb kulib qip-qizarib ketdi-yu, boshini Grigoriyning serjun ko'kragiga berkitdi.

Yarasini boshqatdan bog'layotgan Grigoriyga yordamlashdi, sandiqdan bayramlarda kiyadigan chalvarini olib:

— Krest taqilgan mundiringni kiyasanmi? — deb so'radi.

Grigoriy qo'rqib ketgandek:

— Qo'ysang-chi, deb qo'l siltadi.

Ammo Natalya uni o'z holiga qo'ymay:

— Kiyib ol. Dadam xursand bo'ladilar. Nima, sen ularni bekorga olibsanmiki, sandiqda bekor yotsin,– dedi.

Grigoriy uning so'zini o'ldirmaslik uchun kiyishga rozi bo'ldi. O'rnidan turdi-da, Petroning ustarasini olib soqolini oldi, yuzini va bo'ynini yuvdi.

— Gardaningni qirdingmi? — deb so'radi Petro.

— Yo'q, esimdan chiqibdi-ya!

— O'tir, qirib qo'yaman.

Sovib qolgan cho'tkacha bo'yniga muzdek tegdi. Grigoriy oynaga qarab, Petroning xuddi bolalardek tilini chiqarib, ustara solayotganini ko'rdi.

— Qo'shdan chiqqan ho'kizning bo'ynidek, sening ham bo'yning qiltiriq bo'lib qolibdi, — deb kuldi u.

— Hukumat bergan ovqat bilan semirib bo'larmidi.

Grigoriy yelkasiga xorunjiylik pogoni tikilgan, ko'kragiga bir talay krestlar osilgan mundirini kiydi, terlagan oynaga qarab, o'zini tanimay qoldi: novcha, qotmadan kelgan, qop-qora lo'libashara ofiser oynadan unga qarab turardi.

— Sen xuddi polkovnikka o'xshaysan-a! — dedi Petro ukasiga qarab faxrlanib.

Bu so'zlar beixtiyor Grigoriyga yoqib ketdi. U yemakxonaga chiqdi. Daryaning zavqi kelib undan ko'zini ololmay qoldi. Dunyashka bo'lsa ichini tortib:

— Voy, buncha yarashmasa-ya! — deb yubordi.

Ilinichna ham iyib ketib ko'zlariga yosh oldi.

Kir-chir fartug'i bilan ko'z yoshini artar ekan, o'zini masxara qilayotgan Dunyashkaga qarab:

— Hoy, qaqildoq, sen o'zing shunaqa o'g'illar tug'ib ko'r, innaykin maqtan. Ikkala o'g'lim ham odam bo'ldi-i! — dedi.

Natalya sevgi to'la xumor ko'zlarini eridan uzolmasdi.

Grigoriy yelkasiga shinelini tashlab, hovliga chiqdi. U zinadan tushishga qiynaldi — og'riq oyog'i xalal berardi. Zina panjarasini ushlab tusharkan: «Qo'ltiqtayoqsiz yurolmay qoladiganga o'xshayman», deb o'yladi.

Millerovoda sonini kesib o'qni olishgan, yarasining o'rni chandiq bo'lib bitib qolgan edi, shu chandiq terini tortib, oyoqni istagancha bukishga yo'l qo'ymas edi.

Supacha ustida mushuk isinib yotardi. Zinapoya tagida oftobro'yada qor erib, suv ko'lmak bo'lib qolgan edi. Grigoriy xursandligini ichiga sig'dirolmay, diqqat bilan qo'rani ko'zdan kechirdi. Zinapoya yonidagi ustunga chambarak osib qo'yilgan edi. Grigoriy bolalik chog'idan beri bu chambarak ayollarga juda kerakli narsa ekanini bilardi: ayollar zinapoya ustida turib, kechqurun sut to'la tovoqlarini ilib qo'yar, kunduz kuni idish-tovoqlarini ko'vachalarini oftobda quritishardi. Qo'radagi ba'zi o'zgarishlar ko'zga tashlanib turar: omborxonaning rangi o'ngib ketgan, eshigi sariq balchiq bilan suvalgan, bostirmaning tomi yangi poxol bilan yopilgan edi; qalab qo'yilgan o'tinlar ham nazarida ozdek ko'rindi, aftidan, chetan devorni yamash uchun uning bir qismini ishlatib yuborishgan bo'lsalar kerak. Yerto'laning do'ppaygan kulrang tomi ustida go'ngqarg'adek

qop-qora xo‘roz bir oyog‘ini ko‘tarib turar, atrofini tuxumga kirgan o‘ntacha olachipor tovuqlar o‘rab olgan edi. Dehqonchilik asbob-uskunalarini yog‘ingarchilikdan asrash uchun bostirma tagiga qo‘ygan edilar: arava shotisiga qoqilgan qoziqlar qobirg‘adek sanalib turar, o‘roq mashinasining po‘latdan qilingan bir qismi tomning tuynugidan tushib turgan oftob yorug‘ida yalt-yult qilib turardi. Otxona yonidagi issiq go‘ng tepa ustida g‘ozlar o‘tirardi. Golland zotli kokildor nar g‘oz, yonidan oqsab o‘tayotgan Grigoriyga mensimaganday qarab qo‘ydi.

Grigoriy qo‘rani ko‘zdan kechirib yemakxonaga qaytdi. Bu yerdan sariyog‘, yangi yopilgan non hidi kelib turardi. Dunyashka naqshli likopchada tuzlangan olmalarni yuvib turardi. Grigoriy olmalarga qarab, og‘zining suvi keldi-da:

— Tuzlangan tarvuz bormi? — deb so‘radi.

Ilinichna uning gapini eshitib:

— Natalya, tushib, tuzlangan tarvuz olib chiq! — deb buyurdi.

Panteley Prokofyevich ham cherkovdan qaytib keldi. Bir chekkasi ushalgan tabarruk cherkov nonini, uy ichidagilarning soniga qarab, to‘qqizga bo‘ldi-da, dasturxon yonida hammaga ulashib berdi. Hammalari nonushta qilgani o‘tirdilar. Yasanib, mo‘ylovlarini nima bilandir moylab olgan Petro Grigoriy yoniga kelib o‘tirdi. Ularning ro‘paralaridagi taburetkaning bir chekkasida Darya o‘tirar, oftob shu’lasi uning yog‘upa surtib yiltiratgan qip-qizil yuziga tushib turardi. U g‘ashi kelib ko‘zlarini qisar, qayrilma qora qoshlarini chimirardi. Natalya bolalariga pishgan qovoq yedirar, o‘xtin-o‘xtin kulimsirab Grigoriyga qarab qo‘yardi. Dunyashka dadasining yonida, Ilinichna esa to‘rda, pechkaga yaqinroq joyda o‘tirardi.

Hamisha bayram vaqtidagidek, juda ko‘p ovqat yedilar. Qo‘y go‘shtidan pishirilgan karam sho‘rvadan keyin, ugra, so‘ng yaxna qo‘y go‘shti, tovuq go‘shti, kallapocha, qovurilgan kartoshka, sariyoqqa pishirilgan so‘k bo‘tqasi yedilar, so‘ngra yupqani qaymoqqa botirib yeb, ustidan tuzlangan tarvuz tamaddi qildilar. Ovqatdan qorni shishgan Grigoriy arang o‘rnidan turib, mast kishidek cho‘qindida, pishillab karavotga kelib yotdi. Panteley Prokofyevich hamon bo‘tqani tushirar: qoshiq bilan o‘rtasini chuqur qilib, unga kahraboday moy quyar, bo‘tqani moy bilan aralashtirib turib og‘ziga tiqar

edi. Bolalarni jonidek ko'radigan Petro Mishatkaga ovqat yedirar; hazil qilib, yuziga, burniga qatiq surkab qo'yardi.

— Amaki, jinnilik qilmang!

— Ha, nima?

— Nega yuzimga qatiq surasiz?

— Nima qilibdi?

— Oyimga aytaman.

— Nima qilardi?

Mishatkaning Melexovlarga tortgan o'tkir ko'zlari g'azabdan chaqnab ketar, alamidan ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh kelardi: mushti bilan burnini artib, yaxshilikcha gapini o'tkaza olmagandan keyin, baqirib:

— Surtmang deyapman!.. Ahmoq!.. Tentak! — dedi.

Petro xursand bo'lib, qahqahlab kuldi. U hamon jiyaniga ovqat yedirar, bir qoshiqni og'ziga tiqsa, bir qoshiqni burniga tiqardi.

— Xuddi yosh boladek tirg'iladi, — deb po'ng'illardi Ilinichna.

Dunyashka Grigoriyning yoniga o'tirib olib gapira ketdi:

— Petro judayam hazilkash, doim bir baloni o'ylab topadi. Tunov kuni Mishatka bilan qo'raga chiquvdi, bola faqirning qorni og'rib qoldi: «Amaki, zina tagiga o'tirsam bo'ladimi?» deb so'ragan edi, Petro: «Yo'q, bo'lmaydi, nariroq borib o'tir», dedi. Mishatka sal nariroq bordi: «Shu yergami?» — «Yo'q, borib omborxona yoniga o'tir». Omborxonadan otxonaga, otxonadan xirmonxonaga haydadi. U yerdan bu yerga haydayverdi, bola bechora ishtoniga... Natalyaning joni chiqib, toza qarg'adi!

— Menga bering, o'zim yeyman! — dedi Mishatka qo'ng'iroqdek ovozi bilan.

Petro ko'nmay, mo'ylovlarini g'alati qilib qimirlatib qo'ydi:

— Yo'q, yigitcha! Senga o'zim ovqat yediraman.

— Men o'zim!

— O'zim-o'zim deyaversang, og'ilxonaga oborib bog'lab qo'yamiz. Buving yuvindi bilan boqadi.

Grigoriy ularning gapiga quloq solib, kulimsirab, tamaki o'radi. Panteley Prokofyevich uning oldiga kelib:

— Shu bugun Vyoshkiga borib kelmoqchiman, — dedi.

— Nima ishingiz bor u yerda?

Panteley Prokofyevich qattiq kekirdi-da, soqolini silab:

— U yerda sarrojga bir ishim bor edi, — dedi, — ikkita xomutimizni tuzatib qo'ygandir.

— Bir o'zingiz borasizmi?

— Nima qipti? Kechqurun qaytib kelaman.

U damini olib bo'lib, shu bu yil ko'r bo'lib qolgan qari biyani yapaloq chanaga qo'shib jo'nab ketdi. Yo'l pichanzorning ichidan o'tardi. Ikki soatda u Vyoshenskayaga borib yetdi. Pochtaxonaga kirib chiqdi, keyin xomutlarni olib, yangi cherkov yonida turadigan eski oshnasining uyiga jo'nadi. Juda mehmondo'st bo'lgan uy egasi uni dasturxonga o'tirg'izib ovqat qo'ydi.

— Pochtaga kiruvdingmi? — deb so'radi u ryumkaga bir nima quyaturib.

— Ha, kiruvdim, — dedi Panteley Prokofyevich cho'zib, so'ngra alang-jalang grafinga qarab, biror jonivorning payiga tushgan itdek havoni iskab qo'ydi.

— Yangi gapni eshitmadingmi?

— Yangi gap? Yo'q, hech nimani eshitmadim.

— Kaledin, Aleksey Maksimovich qazo qilibdi-ku.

— Nima deyapsan?!

Panteley Prokofyevichning rangi quv o'chib, shubhali grafinni ham, hidni ham unutdi, stulning suyanchig'iga suyanib serrayib qoldi. Uy egasi tumtayib, ko'zlarini pirpiratib:

— Telegramma kelibdi, bugun Novocherkasskda o'zini o'zi otibdi, — dedi. — U butun viloyatga tatiydigan general edi. Nishondor edi, armiyaga qo'mondonlik qilar edi. Qanday sofko'ngil odam edi-ya! Bunday odam kazaklarni himoya qila bilardi.

— Menga qara, birodar, endi nima bo'ladi? — deb so'radi esankirab qolgan Panteley Prokofyevich, ryumkani itarib.

— Nima bo'lishini xudo biladi. Boshimizga og'ir kunlar keladiganga o'xshaydi. Zamona yaxshi bo'lsa, u o'zini o'zi otib o'ldirarmidi?

— Nima sababdan bunday qilibdi?

Eski mazhabdagilar singari chayir odam bo'lgan uy egasi jahl bilan qo'l siltab qo'ydi.

— Frontchilar undan yuz o'giribdilar, bizning viloyatga bolsheviklarni kiritibdilar, — ana shu vajdan ataman o'zini o'ldirgan.

Endi unday odam topiladimi, yo‘qmi? Endi bizni kim himoya qiladi? Kamenskda qandaydir rivkom tuzilibdi, frontchi kazaklar shuni o‘ylab-o‘ylab topibdilar. Bizda ham... eshitgandirsan, axir? Ulardan buyruq kelibdi: atamanlar bitsin, haligi rivkom tuzinglar deb. Buni ko‘rib mujiklarga jon kirib qopti? Bemaza qovunning urug‘i ko‘p bo‘lganday, Vyoshenskayada ham duradgorlar, taqachilar, qalang‘i-qasang‘i odamlar ko‘p!

Panteley Prokofyevich xiyla vaqtgacha boshini egib, churq etmay o‘tirdi; u boshini ko‘targanda uning ko‘zlari jiddiy va qahrli edi.

— Grafindagi nima?

— Spirt. Jiyanim Kavkazdan olib kelibdi.

— Kel, marhum ataman Kaledinning xotirasi uchun ko‘taraylik. Xudo rahmat qilsin!

Ular ichishib oldilar. Uy egasining novchadan kelgan, yuziga sepkil toshgan qizi tamaddi keltirdi. Panteley Prokofyevich boshda uy egasining chanasi yonida boshini solintirib turgan biyasiga qarab-qarab qo‘yardi, ammo uy egasi:

— Oting to‘g‘risida tashvishlanma. Hozir buyuraman, sug‘orib, yem beradilar, — dedi.

Panteley Prokofyevich ichkilik va suhbatga qiziqib ketib, otni ham, dunyoning butun ishlarini ham unutdi. U Grigoriyning kelganini poyma-poy gapirib berdi, so‘ngra mast bo‘lib qolgan uy egasi bilan bir narsa ustida tortishib qoldi, keyin nima to‘g‘risida talashganini hech eslayolmadi. Kechqurun ketish esiga tushib qoldi. Shu yerda tunab qolishni yalinib so‘rashsa-da, ketaman deb turib oldi. Uy egasining o‘g‘li biyani qo‘shib berdi; uy egasi uni chanaga o‘tqazib qo‘ydi. U mehmonni kuzatib qo‘ymoqchi bo‘ldi; ular quchoqlashib chana ichiga yotib oldilar. Chana eshikka urilib ketdi, keyin har muyulishga urila-urila, nihoyat o‘tloqqa chiqib oldi. Shunda uy egasi yig‘lab yubordi-da, chanadan qulab tushdi. U ancha vaqtgacha o‘rnidan turolmay muk tushib yotdi. Panteley Prokofyevich esa biyasini yo‘rttirib ketdi. U uy egasi burnini qorga tegizib, qor ustida emaklab ketayotganini ko‘rmadi, xursand bo‘lib, hoholab:

— Qitiqlama!.. Qitiqlamasang-chi, — degan so‘zlarini eshitmadi.

Panteley Prokofyevichning biyasi bir necha qamchi yegandan keyin qizishib yo‘rtib ketdi, lekin ko‘r bo‘lgani uchun cho‘chib, qadam

tashlardi. Uzoqqa bormay mast bo‘lib qolgan Panteley Prokofyevich-ni mudroq bosdi, u chananing yonidagi taxtaga boshini qo‘yib ux-lab qoldi-yu, ovozi o‘chdi. Otning jilovi tasodifan egasining tagida qoldi. Hech kim haydamagani uchun biya sekin-sekin yura boshla-di. Birinchi chorrahada u adashib, Maliy Gromchenokka boradigan yo‘lga tushib oldi-yu, to‘g‘ri ketaverdi. Bir necha daqiqadan keyin shu yo‘lni ham yo‘qotib qo‘ydi. Ot endi bir umr haydalmagan, hech kim oyoq bosmagan bo‘z yerdan ketaverdi-da, borib-borib, o‘rmon yoqasidagi qorga botib qoldi, keyin pishqirib jarlikka tushib ketdi. Chana bir daraxtga ilashib qolgandan keyin to‘xtadi. Chana silkinib ketib Panteley Prokofyevichni uyg‘otib yubordi. U boshini ko‘tarib:

— Chu, harom o‘lgur! — deb xirilladi-da, yana boshini qo‘ydi.

Biya eson-omon o‘rmondan o‘tib, Don bo‘yiga tushib oldi, sharq-dan tezak hidini olib kelgan shamol tomonga burilib, Semyonovskiy xutori tomon yurib ketdi.

Xutordan yarim chaqirim berida, Donning so‘l tomonida o‘pqon bor; bahorda erigan qor suvlari shu o‘pqonga quyiladi, uning cheti-dagi qumloq yer tagidan buloqlar qaynab chiqadi, bu yerda suv muz-lamay, xalqob bo‘lib yotadi. Don ustidan tushgan yo‘l uni chetlab, boshqa yoqqa burilib ketadi. Bahor toshqin suvlari chekilib Donga quyilayotgan paytda bu yerda suv chinqirib, girdob bo‘lib aylanadi, ostidagi qumlar-ni yuvib ketadi. Butun yoz bo‘yi chuqurligi bir necha sarjin keladigan bu yerda zog‘ora baliqlar bo‘ladi, ular qirg‘oqdan tushgan xas-cho‘plar orasiga kirib berkinib yotadi.

Melexovning ko‘r oti Donning so‘l tomonidagi shu o‘pqon to-monga qarab ketmoqda edi. Panteley Prokofyevich u yonboshiga ag‘darilib ko‘zini ochgan vaqtda o‘pqonga yigirma sarjincha joy qolgan edi. Xuddi pishib yetilmagan giloslarga o‘xshagan sarg‘ish ko‘kimtir yulduzlar qorong‘i osmondan milt-milt qilib qarab turardi. Miyasi g‘ovlagan Panteley Prokofyevich: «Kech bo‘pqopti-ya» deb o‘yladi-da, jilovni siltab:

— Chu, chu!.. Harom o‘lgur... — dedi.

Biya yo‘rtib ketdi. Yaqin qolgan suvning rutubatli hidi otning dimog‘iga kelib urildi. U quloqlarini chimirib, hayron bo‘lganday, egasiga ko‘r ko‘zlarining qirini tashlab qo‘ydi. Shu payt suv to‘lqinlarining shovullashini eshitdi, birdan pishqirib, yon tomonga

burildi-da, tisarila boshladi. Ustini suv qoplab yotgan muz parchasi uning oyoqlari ostida qirs etib qor bosgan zehi sinib ketdi. Biya o'lgudek qo'rqib ketib, qattiq pishqirib yubordi. U bor kuchi bilan keyingi oyoqlariga og'irligini soldi, lekin oldingi oyoqlari suvga kirib ketgan edi, u keyingi oyoqlarining birini olib, birini qo'yar, oyoqlari ostida muz sinib parchalanar edi. Muz qars etib joyidan ko'chib ketdi. O'pqon biyani qa'riga tortib keta boshladi, u tipirchilab keyingi oyog'ini shotiga qattiq urib oldi. Shu payt bir falokat bo'lganini payqab, Panteley Prokofyevich chanadan sakrab tushdi-yu, orqasiga tisarildi. U cho'kib ketayotgan biyaning og'irligidan chana to'nkarilib tushganini, yulduzlar yorug'ida qo'shqarog'i yiltirab keyin qop-qora ko'kish suv qa'riga cho'kib ketganini, betida muz parchalari suzib yurgan suv shaloplab, to'lqinlari oz bo'lmasa o'zini ham yutib yuboray deganini payqadi. U hayron qolarli tezlikda keti bilan sudralib qirg'oqqa chiqib oldi-da, o'rnidan turib:

— Dod, yordam beringlar!.. Cho'ka-yap-miz!.. — deb baqirdi.

Uning mastligi birdan tarqalib, ko'zi moshdek ochilib ketdi. U o'pqon yoniga chopib bordi. Yangi ko'chgan muz yaltirab turardi. Shamol bilan tez oqayotgan suv muz parchalarini girdobga qarab haydar, yashil to'lqinlar ko'piklanib shaloplar edi. Tevarak-atrofga qabriston sukunati cho'kkan edi. Uzoqdagi xutor chiroqlari qorong'ida milt-milt qilib ko'rinardi. Baxmal kabi osmondagi yulduzlar ishqalab tozalangan tangalardek yiltirardi. Yengil shamol qorni uchirib turar, qor uchqunlari girdob suv ustiga to'kilardi. Ustini bug' qoplab olgan o'pqon avvalgidek o'ynab, sovuq yaltirardi.

Panteley Prokofyevich endi dodlab o'tirishdan naf yo'qligini, payqadi. U tevarak-atrofiga qarab, mastlik bilan bilmasdan qayerga kelib qolganini angladi va o'zidan jahli chiqib, ro'y bergan hodisadan g'azabga kelib, titrab ketdi. Chanadan sakrab tushganda qo'lida qamchisi qolgan edi. So'kinib, o'zining orqasiga qamchi bilan sola boshladi, lekin orqasi og'rimasdi, chunki qo'sqa po'stini qalin, uni yechib tashlash bema'nilik bo'lardi. Soqolining bir tutamini shartta yulib oldi-da, xarid qilgan narsalari, biyasi, chanasi va xomutlarning bahosini hisoblab, qancha zarar ko'rganini bilgach, xunob bo'lib so'kina boshladi, o'pqonga yaqinroq kelib:

— Hoy, ko'r baytal!.. — deb chiyillab, cho'kib ketgan biyaga xitob qildi, uning ovozi qaltirar edi. — Mochag'ar! O'zing botganing yetmagandek, meni ham botirayozding! Alvasti seni qayerga olib kirib ketdi?!.. Ajinalar u yerda seni aravaga qo'shib haydaydilar, lekin savalashga qamchilari yo'q!.. Mana, qamchini ham olinglar! — deb jon-jahdi bilan girdobning o'rtasiga gilos shoxidan qilingan qamchisini uloqtirdi.

Qamchi shuv etib suvga tik tushdi-da, cho'kib ketdi.

XV

Kaledinchilar revolyusion kazak qismlarini to'zg'itib yuborgandan keyin, Millerovoga ko'chishga majbur bo'lgan Don harbiy-inqilobiy komiteti Kaledinga qarshi, Ukraina kontrrevolyusion radasiga qarshi jang olib borayotgan qism rahbariga quyidagi mazmunda deklaratsiya yubordi.

Xarkov. 19-yanvar 1918-yil. Luganskdan, № 449, soat 18 dan 20 daqiqa o'tgan. — Don kazak harbiy-inqilobiy komiteti, Don viloyatining quyidagi qarorini Petrograddagi Xalq Komissarlar Sovetiga yetkazishingizni iltimos qiladi.

Kazak harbiy-inqilobiy komiteti Kamenskdagi frontchilar qurultoyining rezolyusiyasiga asosan qaror qiladi:

Rossiya Sovet respublikasining markaziy davlat hokimiyati, kazak, dehqon, soldat va ishchilar vakillarining markaziy ijroiya komiteti va uning tomonidan tayinlangan Xalq Komissarlari Soveti tan olinsin.

Kazak, dehqon va ishchi vakillarining qurultoyida Don viloyat hukumati tuzilsin.

E s l a t m a. Don viloyatida yer masalasi mazkur viloyat qurultoyida hal qilinadi.

Bu deklaratsiyani olgandan keyin qizil gvardiyachi qismlar inqilobiy komitet qo'shinlariga yordam berish uchun yetib keldilar, ularning yordami bilan Chernetsovning jazo otryadi tor-mor qilindi va tartib qaytadan tiklandi. Zverevo, Lixaya ishg'ol qilingandan so'ng Sablin va Petrovning qizil gvardiyachi qismlari inqilobiy komitetning kazak qismlari yordami bilan hujumga o'tdi, dushmanni surib, Novocherkasskka taqab qo'ydi.

O‘ng qanotda, Taganrog tomonda, Neklinovka yaqinida polkovnik Kutepovning ko‘ngilli otryadi tomonidan mag‘lubiyatga uchragan Sivers bir to‘p, 24 pulemyot va bir bronovikdan ayrilib Amvrosiyevkada qoldi. Ammo Sivers mag‘lubiyatga uchrab chekingan kuni Taganrogdagi Boltiq zavodida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Sivers o‘zini o‘nglab olib hujumga o‘tdi va hujumni kuchaytirib, ko‘ngillilarni Taganrogdan quvib chiqardi.

Omad sovet qo‘shinlari tomoniga oqqani aniq ko‘rinib qolgan edi. Ular Ko‘ngilli armiyani va Kaledinning «qurama» otryadlarini uch tomondan o‘rab olgan edilar. 28-yanvar kuni Kornilov Kaledinga telegramma yuborib, Ko‘ngilli armiyaning Rostovdan chekinib, Kubanga ketishini bildirdi.

29-yanvarda ertalab soat to‘qqizda ataman saroyida Don hukumati a’zolarining oshg‘ich kengashi chaqirildi. Kaledin o‘z kvartirasidan hammadan keyin chiqdi. U stol yoniga kelib, gurs etib o‘zini stulga tashladi-da, qog‘ozlarni oldiga surib qo‘ydi. Uning rangruxsori uyqusizlikdan sarg‘ayib ketgan, nuri ketib o‘qrayib qolgan ko‘zlarining osti ko‘karib ketgandi; go‘yo uning qotma yuzini yel yalab sarg‘aytirib yuborgandek edi. U Kornilovning telegrammasini, Novocherkasskning shimol tomonida qizil gvardiyachilar hujumiga qarshilik ko‘rsatayotgan qism komandirlarining ma’lumotlarini shoshilmay o‘qib chiqdi. Bir dasta telegramma ustiga endi oppoq qo‘lini qo‘ygancha taglari ko‘kargan, shishinqiragan ko‘zlarini yerdan olmay, bo‘g‘iq ovoz bilan:

— Ko‘ngilli armiya ketyapti. Viloyat va Novocherkasskni mudofaa etish uchun bir yuz qirq yetti nafar askar qoldi... — dedi.

So‘l ko‘zi pir-pir uchib, qimtilgan lablari titrab, tirishib ketdi; ovozini balandlatib, so‘zini davom ettirdi:

— Ahvolimiz juda yomon. Aholi bizni qo‘llab-quvvatlash u yoqda tursin, bizga hatto dushmanlik ko‘zi bilan qaraydi. Bizda ortiq kuch yo‘q, shu sababdan qarshilik ko‘rsatish foydasiz. Men ortiq qurbon berishni, ortiqcha qon to‘kishni istamayman. O‘z vakolatlaringizdan voz kechib, hokimiyatni boshqa odamlar qo‘liga berishingizni tavsiya etaman. Men o‘zim qo‘shin atamani vakilligi huquqidan voz kechaman.

Katta deraza chaspagidan tashqariga qarab turgan Bogayevskiy ham pensnesini to‘g‘rilab qo‘ydi-da, boshini o‘girmay:

— Men ham o‘z vakolatimdan voz kechaman, — dedi.

— Butun hukumat a’zolari ham, albatta, o‘z vakolatidan voz kechadi. Bas, shundoq ekan, hokimiyatni kimga topshiramiz, degan masala tug‘iladi.

— Shahar dumasiga, — deb quruqqina javob qildi Kaledin.

— U holda bu ishni rasmiylashtirmoq lozim, — dedi dudmal qilib hukumat a’zosi Karez.

Hamma bir daqiqacha noqulay ahvolga tushib jim bo‘lib qoldi. Bulutli yanvar tongining sutrang yog‘dusi terlagan deraza oynalaridan tushib turardi. Tuman qoplagan, qirov tushgan shahar pinakka ketgan, tiq etgan tovush eshitilmas edi. To‘plarning gumburlashi (qayerdadir, Sulin stansiyasi yaqinida borayotgan janglarning aks sadosi) shahar harakatini to‘xtatib qo‘ygan, baloyi-ofat singari shahar ustida qanot yozgan edi.

Tashqarida u yoki bu yoqqa uchib o‘tgan qarg‘alarning qag‘illashi aniq-taniq eshitilardi. Ular o‘laksa ustida aylanganday, oq cherkov jomxonasi atrofida uchib yurardi. Katta cherkov yonidagi maydonda erimay yotgan qor ko‘kish tusga kirib tovlanardi. Maydonni kesib o‘tgan odamlar yoki chanalar qorda qop-qora iz qoldirib ketar edi.

Bogayevskiy sukunatni buzib, hokimiyatni shahar dumasiga topshirish to‘g‘risida akt tuzishni taklif etdi.

— Hokimiyatni topshirish uchun ular bilan birga majlis qurish kerak edi.

— Qachon yig‘ilsak qulay bo‘larkin?

— Kechroq soat to‘rtlarda.

Hukumat a’zolari og‘ir sukunatdan qutulganlariga xursand bo‘lganlaridek, hokimiyatni topshirish, majlisni qachonga chaqirish masalasini muhokama qila boshladilar. Kaledin miq etmay, stolni tirnoqlari bilan chertib o‘tirardi. Solingan qovoqlari ostidagi ko‘zlari ter bosgan shisha parchasiday yiltirab turardi. Haddan tashqari charchaganidan, zardasi qaynaganidan ko‘zlarining qarashlari ham xunuklashgan edi.

Hukumat a’zolaridan biri kimgadir qarshi uzoq gapirib, hammani bezdirdi. Kaledin jahl bilan uning gapini bo‘lib sekin dedi:

— Janoblar, qisqaroq gapiringlar! Vaqt ziq. Rossiya shunaqa bema'ni gapdonlik kasofatidan halok bo'ldi. Yarim soatlik tanaffus e'lon qilaman. Muhokama eting-da... so'ngra ishni tezroq bartaraf qiling.

Kaledin o'rnidan turib, o'z kvartirasiga kirib ketdi. Hukumat a'zolari to'p-to'p bo'lib, asta gaplashib turar edilar. Allakim, Kaledinning rang-ro'yi bir holatda ekanligini aytdi. Bogayevskiy deraza oldida turardi, allakimning:

— Aleksey Maksimovich kabi odam uchun o'z-o'zini o'ldirishdan boshqa chora yo'q, — deb shipshigani qulog'iga chalindi.

Bogayevskiy bir seskanib tushdi-yu, tez-tez qadam tashlab Kaledinning kvartiriga qarab ketdi. Ko'p o'tmay ataman bilan yana qaytib keldi.

Hokimiyatni topshirish va akt uchun shahar dumasi bilan birlikda soat to'rtda yig'ilishga qaror qildilar. Kaledin o'rnidan turishi bilan hamma oyoqqa bosdi. Hukumatning ko'zga ko'rinarli a'zolaridan biri bilan xayrlashayotganda Kaledin, Karev bilan bir nima to'g'risida shivirlashib turgan Yanovga ko'z qirini tashlab:

— Nima gap? — deb so'radi u.

Yanov bir oz tortinib uning oldiga keldi.

— Kazaklardan bo'lmagan hukumat a'zolari yo'l xarji uchun pul berilishini so'rayaptilar.

Kaledin peshonasini tirishtirib, o'shqirdi:

Menda pul-mul yo'q... Jonimga tegdilaring? Hamma tarqala boshladi. Keyingi gapni eshitib qolgan Bogayevskiy Yanovni bir chekkaga chaqirib oldi:

— Mening xonamga yuring. Svetazarovga ayting, vestibyulda kutib tursin.

Ular bir oz bukilib, tez-tez yurib ketayotgan Kaledinga ergashib zaldan chiqdilar. Bogayevskiy o'z xonasiga kirib, Yanovga bir bog'lam pul berdi.

— O'n to'rt ming so'm. Ularga ulashib berarsiz. Yanovni vestibyulda kutib turgan Svetozarov pulni olib, tashakkur bildirdi-da, xayrlashib eshik tomon yurdi. Yanov shveytsar qo'lidan shinelini olayotganda zinapoyada allakimning shovqinlayotganini eshitib, o'girilib qarardi. Kaledinning ad'yutan-ti — Moldavskiy zinadan sakrab-sakrab tushayotib:

— Doktor chaqiring! Darrov! — dedi.

Yanov shinelini uloqtirib, uning oldiga chopib bordi. Navbatchi ad'yutant bilan vestibyulda to'planishib turgan ordinaretslar pastga chopib tushgan Moldavskiyni o'rab oldilar.

— Nima bo'ldi? — deb qichqirdi Yanov dokadek oqarib.

— Aleksey Maksimovich o'zini o'zi otib qo'ydi! — Moldavskiy ho'ngrab yig'lab yuborib, zina panjarasiga ko'kragini qo'yib oldi.

Bogayevskiy o'z xonasidan chopib chiqdi; uning lablari sovqotganday dirillar edi, tili tutilib:

— Nima? Nima? — dedi.

Hamma bir-biridan o'zib, zinadan yuqoriga chopib chiqa boshladi. Dukur-dukur oyoq tovushlari eshitilardi. Bogayevskiy og'zini kappa-kappa ochib, xirillab nafas olardi. U eshikni taraqlatib ochib, hammadan oldin dahlizdan kabinetga chopib kirdi. Kabinetning bir chetidagi hujraning eshigi lang ochiq edi. U yerdan achchiq ko'kish, tutun, porox hidi chiqib turardi.

Kaledinning xotinining dahshatli faryodi eshitilardi:

— Voy! Voy! Oh, Alyo-o-osha! Vafo-do-r yo-rim!.. Bogayevskiy bo'g'ilgandek, ko'ylagining yoqasini yirtib, hujraga chopib kirdi. Karev derazaning tilla suvi yugurtirilgan tutqichidan ushlab, bukchayib qoldi. Uning syurtugi ostidan kuraklari qimirlab, bir-biriga yaqinlashib yana ochilgani ko'rinib turar, o'zi qalt-qalt qilardi. Bu kap-katta odamning dod-faryod solib ho'ngrab yig'lashi Bogayevskiyni esankiratib qo'ydi.

Kaledin ofitsercha safar karavotida qo'llarini ko'kragiga qo'yib, chalqanchasiga tushib yotardi. Yuzi yon tomonga, devorga qaratib qo'yilgan edi; yostig'ining oppoq jildi uning oqarib ketgan peshonasi bilan yostiqqa qapishib yotgan yuzini chiroyli qilib ko'rsatardi. Ko'zlari sal-pal ochiq, qimtilgan og'zining bir burchi azob chekayotgandek qiyshayib qolgan edi. Uning oyog'i uchida tiz cho'kkan xotini o'zini yulqib yig'lardi. Uning vahshiyona faryodi quloqni teshib yuboray der edi. Karavot ustida kolt sistemasidagi to'pponcha yotar, qop-qora qon Kaledinning ko'ylagi ustidan ariqcha bo'lib jildirab oqib tushar edi.

Karavot yonidagi stul boshiga frenchi osib qo'yilgan, stolcha ustida qo'l soati yotardi.

Bogayevskiy qaltirab, bir yoniga qiyshaydi-yu, tiz cho'kib olib, Kaledinning hali sovimagan yumshoq ko'ksiga qulog'ini qo'ydi. Undan erkaklarga xos, sirkadek o'tkir ter hidi kelib turar, yuragi urmay qo'ygan edi. Shu topda Bogayevskiy butun vujudi bilan quloq sola boshlagan edi, biroq stol ustidagi qo'l soatning chiqillashi-yu, o'lik atamanning xirillab qolgan xotinining bo'g'iq faryodidan bo'lak tovush eshitilmadi. Tashqaridan esa qarg'alarning xunuk ovoz bilan bo'g'ilib qag'illagani quloqqa urildi.

XVI

Bunchuk birinchi marta ko'zini ochganda Annaning sevinch yoshlariga to'lgan qora ko'zlarini ko'rdi.

Uch haftadan beri u hushsiz yotar edi. Uch haftadan beri boshqa bir olamda, xayol olamida kezib yurardi. Yigirma to'rtinchi yanvar oqshom paytida hushi o'ziga keldi. U tumanlashgan jiddiy ko'zlari bilan Annaga uzoq tikildi, uni va u bilan bog'liq bo'lgan xotiralarni xotirasida tiklamoqchi bo'ldi; bunga uncha muvaffaq bo'lolmadi, chunki xotirasi o'tmaslashib qolgan, uchga itoat etmas, ko'p narsalar qalbining chuqur joyida qolib ketgan edi.

— Suv, suv ber... — deyar ekan uning tovushi o'ziga uzoqdan eshitilar, bundan suyunib kulimsirardi:

Anna yugurib uning oldiga keldi. Bilinar-bilinmas tabassumdan yuzi yorishib ketdi. U Bunchukning krujkaga zo'rg'a uzatgan qo'lini itarib:

— Mening qo'limdan ich, — dedi.

Bunchuk bosh ko'tarish uchun bor kuchini sarf qilib, titrab-qaqshab suv ichdi-da, charchab, yana yostiqqa o'zini tashladi. Anchagacha yon tomonga qarab yotdi, bir narsa demoqchi bo'ldi-yu, ammo madori kelmadi, keyin ko'zi uyquga ketdi.

Yana ko'zini ochganda, birinchi galdagidek, Annaning tashvish bilan o'ziga tikilib turgan ko'zlarini, so'ngra lampaning sarg'ish shu'lasi, bo'yalmagan shift taxtasiga lampadan tushib turgan to'garak yog'duni ko'rdi.

— Anya, bu yoqqa kel.

Anna uning yoniga kelib, qo'lidan ushladi. Bunchuk uning qo'lini bilinar-bilinmas qisib qo'ydi.

— Qalay, ruhing yengilmi?

— Tilim ham, boshim ham, oyoqlarim ham o'zimnikiga o'xshamaydi, o'zim go'yo ikki yuz yil yashaganga o'xshayman, — dedi u dona-dona qilib. Bir oz jim turib: – Tif bo'pmanmi? – deb so'radi.

— Ha, tif bo'lgansan.

Bunchuk uyni boshdan oyoq ko'zdan kechirib:

— Biz qayerdamiz? — deb so'radi. Anna savolni tushunib jilmaydi.

— Saritsindamiz.

— Sen... qanday qilib?

— Sen bilan yolg'iz o'zim qoldim, — dedi u, go'yo o'zini oqlamoqchi yoinki u aytmagan bir gapga e'tiroz qilmoqchi bo'lgandek, shoshilib: — Seni begona odamlar qo'lida qoldirib bo'lmas edi. Abramson bilan byuro a'zolari senga qarab turishimni iltimos qilishdi... Ko'rib turibsanki, sen bilan birga qolishga to'g'ri keldi, hech kutmagan edim.

Bunchuk ko'zlari va qo'llarining zaif harakati bilan unga minnatdorchilik bildirdi.

— Krutogorov qani?

— Voronej yo'li bilan Luganskka ketdi.

— Gevorkyans-chi?

— U... bilsang, tifdan o'ldi.

— E!..

Go'yo marhumning xotirasini yod etganday, birpas jim turdilar.

— Meni qo'rqitib yubording. Sen qattiq yotuvding, — dedi Anna past tovush bilan.

— Bogovoy-chi?

— Hech qaysisidan xabar yo'q. Ba'zilari Kamenskka ketib qoldi. Hoy, menga qara, senga gaplashish zarar-ku? Ha, aytgandek, sut ichging kelayotgani yo'qmi?

Bunchuk «yo'q» degandek boshini sarak-sarak qildi; tili g'o'ldirab:

— Abramson-chi? — deb so'radi.

— Bundan bir hafta ilgari Voronejga jo'nab ketdi.

Bunchuk zo'r-bazo'r u yonboshiga ag'darildi, boshi aylanib, ko'zlariga qon to'ldi. Peshonasiga muzdek qo'l tekkanini sezib,

ko'zlarini ochdi. Uni bir masala qiynar edi: behush bo'lib yotganida ostini kim tozaladi? Nahotki Anna bo'lsa? Uning yuzi bilinar-bilinmas qizarib ketdi.

— Menga yolg'iz o'zing qarab turdingmi?

— Ha, yolg'iz o'zim.

Bunchuk yuzini devorga o'girib olib shivirladi:

— Ayb-e... Pastkashlar? Meni yolg'iz o'zingga tashlab ketibdilar-a...

Tif quloqlarida yomon ta'sir qoldirgan edi: Bunchukning qulog'i og'ir bo'lib qolgandi. Saritsin partiya komiteti tomonidan yuborilgan doktor Annaga, bemor tuzalib oyoqqa bosgandan keyin qulog'ini davolashga kirishish mumkin, degan edi. Bunchuk asta-sekin tuzala boshladi. Uning ishtahasi karnay bo'lsa ham, Anna parhezga qattiq rioya qilardi. Shu vajdan ular o'rtasida to'qnashuv bo'lib turardi.

— Menga yana sut ber, — deb yalinardi Bunchuk.

— Bundan ortiq berib bo'lmaydi.

— Iltimos qilaman — ber! Nima, meni ochlikdan o'ldirmoqchimisan?

— Ilya, o'zing bilasan, me'yordan ortiq ovqat berolmayman.

Bunchuk ko'ngli og'rib, indamay devorga o'girilib oldi, xo'rsinib ancha vaqtgacha gaplashmadi. Anna yuragi achib tursa-da, lekin parhezga qattiq rioya qildi. Oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin Bunchuk tumtayib (shuning uchun avvalgidan ham battar ayanchli bir qiyofada), yalinib-yolvorib:

— Tuzlagan karam bersang bo'lmaydimi? Anya, baraka topkur, menga rahm qilsang-chi... Zararli?.. Bu doktorlarning safsatasi! — dedi.

Bunchuk qat'iy rad javob olgan paytlarida ba'zan qattiq gapirib Anyani xafa qilardi.

— Sen meni bunday xo'rlashga haqqing yo'q! Men o'zim uy bekasini chaqirib, so'rab olaman. Sen bag'ritosh, palid ayol ekansan!.. Rostini aytsam, ko'zimga balodek ko'rinyapsan.

— Senga qarayman deb tortgan azob-uqubatlarimning oqibati shu bo'ldimi! — deb yubordi Anna o'zini tutib turolmay.

— Men, yonimda qol, deb senga yalinib-yolvorganim yo'q edi-ku! Xizmatingni pesh qilaverish noinsoflik. Sen o'z ustunligingdan foy-

dalanyapsan. Ha, mayli... Menga hech narsa bermay qo'ya qol. Mayli ochimdan o'lay... Uncha katta zarar ko'rmaysiz.

Anyaning lablari titradi, lekin o'zini bosib olib, indamay qo'ya qoldi; achchiq-tiziq gaplariga chidadi.

Bir marta, Anna unga ortiqcha bir somsa berishga unamaganda yana janjal chiqdi, Bunchuk yuzini teskari o'girib oldi. Anna uning ko'zlarida olmosdek ikki tomchi yoshni ko'rib, yuragi jazillab ketdi.

— Sen xuddi bolaga o'xshaysan-a! — dedi u.

Oshxonaga chopib borib, bir likop to'la somsa olib keldi.

— Ye, Ilyusha, ye, aylanay! Bas, endi xafa bo'lma! Mana bunisi yaxshi qizaribdi! — deya u titragan qo'llari bilan qo'liga somsa tutqazdi.

Bunchuk yegisi kelib o'lib tursa ham, somsaning bahridan o'tmoqchi bo'ldi, lekin o'zini tiyolmadi; ko'z yoshini artib, turib o'tirdi-da, somsani oldi. Uning jingalak mayin soqol bosib ketgan yuzi yorishib, gunohkor kishidek kulimsiradi. Ko'zlari bilan uzr so'rab:

— Men yosh boladan battar bo'lib qoldim... Ko'rib turibsanki, oz qolsa yig'lab yuborardim, — dedi.

Anna uning qiltiriq bo'yniga, yoqasi ochiq ko'ylagi ostidan ko'rinib turgan qoqshol ko'kragiga, qoqsuyak qo'llariga qaradi; shu vaqtgacha sezmagan chuqur muhabbat bilan yuragi ezilib, birinchi daf'a uning sarg'aygan quruq peshonasidan o'pdi.

Bunchuk ikki haftadan keyingina birovning yordamisiz uy ichida yura boshladi. Chillakdek bo'lib qolgan oyoqlari qiyshayib ketardi; u yurishga yangidan o'rgana boshladi.

— Menga qara, Anya, yuryapman! — deb birovning yordamisiz, tez-tez yurishga urinar, lekin oyoqlari og'irligini ko'tara olmas, chalishib ketardi.

Bunchuk birinchi duch kelgan narsaga suyanib olishga majbur bo'lgach, keksalardek og'zini qulog'iga yetkazib kular, shunda rangpar yuzlarining terisi tortishib, tirishib ketardi. Chollar singari qiqirlab kular, keyin zo'riqib, kulgidan charchab, karavotga o'zini tashlar edi.

Ular turgan kvartira pristanga yaqin edi. Derazadan qor bosib yotgan Volga daryosi, uning narigi tomonida yarim doira shakli-

dagi bo'z rangli o'rmon, uzoqdagi past-baland tepalarning sharpasi ko'rinardi. Anna deraza oldida uzoq turib qolar, o'zining ajoyib va keskin o'zgarib ketgan hayoti to'g'risida o'ylar edi. Bunchukning kasali ularni ajib sur'atda bir-biriga yaqinlashtirdi.

Boshda, uzoq va mashaqqatli yo'l yurib, ikkovlari Saritsinga kelganlaridan keyin ozmuncha azob-uqubat tortmadi. Anna birinchi marta sevikli kishisi bilan yaqin aloqada bo'lishning sirli tomonlarini ochiq-oydin ko'rdi. U tishlarini tishlariga qo'yib, Bunchukning ko'ylagini almashtirar, qaynoq boshini tarab, bitlarini tushirar, zil-zambil gavdasini u yonboshdan bu yonboshga aylantirib qo'yar, po'st-ustixon bo'lib qolgan erkak gavdasiga ko'zi tushar edi. Uning ko'ngli bir xil bo'lib ketsa ham, Bunchukning tashqi qiyofasi yuragida tomir yoygan chuqur hislarga dog' tushirolmasdi. Bu his amri bilan iztirob va ikkilanish hislarini yengishga o'rgandi va yengdi. Endi faqat achinish hissi qolgan, muhabbat bulog'ining ko'zi ochilib, qaynay boshlagan edi. Bir kuni Bunchuk:

– Butun bu ishlardan keyin mendan jirkanarsan... Shundaymi? – deb so'radi.

– Bu bir imtihon bo'ldi.

– Nimaning imtihoni? Sabr-toqatningmi?

– Yo'q, hislar imtihoni.

Bunchuk yuzini o'girib, anchagacha lablarining titrashini bosolmadi. Bu to'g'rida endi gaplashmadilar. So'zlar endi ortiqcha va ma'nosiz edi... Yanvarning o'rtalarida ular Saritsindan Voronejga jo'nab ketdilar.

XVII

O'n oltinchi yanvarda Bunchuk bilan Anna Voronejga yetib kelishdi. U yerda ikki kun turib, Millerovoga jo'nashdi, chunki Don harbiy-inqilob komiteti va unga sodiq qolgan, lekin kaledinchilarning tazyiqi bilan Kamenskni tashlab ketishga majbur bo'lgan qismlar Millerovoga ko'chib kelgan edi.

Millerovo odam bilan gavjum va g'ala-g'ovur edi. Bunchuk bu yerda bir necha soat turib, keyingi poyezd bilan Glubokayaga jo'nadi. Ertasi kuni pulemyot komandasini qabul qilib oldi, indiniga ertalab Chernetsov otryadiga qarshi jangda qatnashdi.

Chernetsovni tor-mor qilishgandan keyin ular kutilmaganda bir-birlaridan judo bo'ldilar. Anna erta bilan shtabdan hovliqib keldi-yu, ko'ngli buzilib:

— Bilsang, — Abramson shu yerda ekan. U seni ko'rishga mushtoq, — dedi. — Yana bir yangilik bor, bugun jo'nab ketyapman.

— Qayoqqa? — deb so'radi Bunchuk hayratlanib.

— Abramson, men va yana bir necha kishi Luganskka tashviqot ishlarini olib borish uchun ketyapmiz.

— Otryadni tashlab ketasanmi? — deb so'radi Bunchuk sovuqqina qilib.

Anna kulib, loladay qizargan yuzini uning bag'riga bosdi-da:

— Rostini ayt: otryadni tashlab ketayotganim uchun emas, seni tashlab ketayotganimga xafa bo'lyapsan, a? — deb so'radi. — Ammo bu vaqtinchalik ish. Sening yoningda bo'lgandan ko'ra o'sha ishda ko'proq foyda keltiraman. Tashviqot ishi pulemyotchilikka qaraganda menga yaqinroq soha... — so'ngra u ko'zlarini sho'x-sho'x o'ynatib, — garchi pulemyotni Bunchuk singari tajribali komandir rahbarligida o'rgangan bo'lsam ham... — deb qo'shib qo'ydi.

Birozdan keyin Abramson keldi. U ilgarigidek serg'ayrat, ishchan va serharakat, xuddi moy surtilganday qop-qora sochlari o'rtasidagi tepakal boshi avvalgidek yarqirab turardi. Bunchuk uni ko'rib, juda suyunib ketdi.

— Sog'ayib ketdingmi? Jud-da soz! Annani biz olib ketamiz, — dedi va bir narsani payqagandek ko'zlarini qisib gapirdi. — Sen qarshi emasdirsan? Shundaymi? Ha-ha... Ha, jud-da soz! Saritsinda birga turib, bir-biringizga qadrdon bo'lib qolgandirsiz, shuning uchun ham surishtiryapman.

— Undan judo bo'layotganimga achinayotganimni yashirmayman, — shuni deb, Bunchuk qovog'ini solib, zo'rma-zo'raki kulib qo'ydi.

— Achinyapsan?! Shu gapning o'zi ham kifoya... Anna, eshityapsanmi?

U xona ichida u yoqdan bu yoyuqa yurdi, to'xtamay egilib, sandiq orqasidan Garin-Mixaylovskiyning chang bosgan bir tomlik kitobini oldi-da, boshini silkib qo'yib, xayrlasha boshladi.

— Qachon tayyor bo'lasan, Anna?

— Sen borib tur. Men — hozir, — dedi Anna to'siq orqasidan.

U ko'ylagini almashtirib bo'lib, to'siq orqasidan chiqdi. Anna beli kamar bilan tang'ilgan, ko'kragi baland, pistoqirang gimnastorka, u yer, bu yeri yamalgan, ammo top-toza eski qora yubka kiyib olgan edi. Yangi yuvilgan qalin sochlari ro'molining ostidan chiqib turardi. U shinelini kiyib, kamarini bog'lar ekan so'radi:

— Sen bugungi hujumda ishtirok etasanmi? (Biroq avvalgi xushchaqchaqligidan asar qolmagan, yolvorayotgan kishidek past ovoz bilan gapirar edi).

— Albatta. Axir men qo'llarimni cho'ntakka suqib, bekor yurolmayman.

— Iltimos... Gapimga quloq sol, o'zingga ehtiyot bo'l! Meni desang shunday qilasan, xo'pmi? Men senga bir juft jun paypoq qoldiryapman. Shamollab qol- ma, oyog'ingni iloji boricha quruq saqla. Luganskdan senga xat yozaman.

Anna ko'zlarining o'ti negadir birdan so'ndi; xayrlasharkan:

— Ko'rib turibsanki, sendan ayrilish menga juda og'ir, — deb iqror bo'ldi. — Boshda, Abramson Luganskka borishni menga taklif etganda jonlanib ketdim, hozir bo'lsa, sensiz u yer men uchun zimiston bo'lishini his etib turibman. His-tuyg'ular ortiqcha bir narsa ekani shundan ko'rinib turibdiki, u qo'l-oyog'imizni bog'lab qo'yayapti... Nima bo'lsa, bo'ldi, xayr!..

Ular sovuqqina xayrlashdilar, ammo Bunchuk buning ma'nisini to'g'ri tushundi: Anna, shaxtimdan qaytib qolaman deb qo'rqardi.

Bunchuk uni kuzatishga chiqdi. Anna shoshib-pishib borar, yelkalarini tez-tez qisib qo'yar, lekin orqasiga qayrilib qaramasdi. Bunchuk uni chaqirgisi keldi, lekin xayrlashayotgan vaqtda uning qiyg'och, namli ko'zlari mo'ltirab turganini payqagan edi, shuning uchun zo'rma-zo'raki yasama bir tetiklik bilan:

— Rostovda ko'rishamiz deb umid qilaman! Oq yo'l! — dedi.

Anna unga bir qayrilib qaradi-yu, qadamini tezlashtirib yurib ketdi.

Annani jo'natgandan keyin Bunchuk o'zining yolg'iz qolganini sezib dahshatga tushdi. Ko'chadan o'z xonasiga qaytib keldi, ammo o't tushgan uydan qochib chiqqanday, chopib tashqariga chiqdi... Xona ichidagi narsalarning hammasi Annani eslatar, har bir buyum:

uning esdan chiqarib qoldirgan dastro'moli, harbiycha sumkacha bilan mis suvdon ham, – Annaning qo'li tekkan har bir narsa uning muattar hidini saqlab qolgan edi.

Bunchuk bezovtalanib, kechgacha stansiyada sandiroqlab yurdi, u o'zini bir narsasini yo'qotib qo'ygandek his etar, yangi sharoitga o'rgana olmas edi. U o'z xayoli bilan bo'lib notanish qizil gvardiyachilar va kazaklarga qarar, ba'zilarini tanir, ba'zilari uni tanir edi.

Bir joyda Germaniya urushida birga xizmat qilan kazak uni to'xtatdi. U Bunchukni o'z kvartirasiga olib borib, qarta o'ynashni taklif etdi. Stol yonida Petrov otryadining qizil askarlari va yaqindagina kelgan Mokrousov otryadidan bo'lgan matroslar «yigirma bir» o'ynar edilar. Tutunga to'lgan xona ichida bular qartani stolga urib, Kerenskiy pullarini shildiratishar, so'kinishar, bekordan-bekorga baqirishardi. Bunchuk toza havo olgisi kelib, tashqariga chiqdi.

Bir soatdan keyin boshlangan hujum uning joniga oro kirdi.

XVIII

Kaledin o'lgandan keyin Novocherkassk stanitsasi hokimiyatni Don qo'shini safar atamani general Nazarovga topshirdi. Yigirma to'qqizinchi yanvarda Kengashga yig'ilgan vakillar tomonidan u qo'shin atamani etib saylandi. Kengashga vakillarning juda oz qismi, asosan quyi Don okruglari vakillari yig'ildilar. Kengashga Kichik kengash deb nom berildi. Kengash tomonidan qo'llab-quvvatlangan Nazarov o'n sakkiz yoshdan ellik yoshgacha bo'lgan kazaklarni safarbar deb e'lon qildi, ammo kazaklarni safarbar qilish uchun stanitsalarga qurolli otryadlar yuborilishiga va tahdidlarga qaramay, kazaklar o'lganlarining kunidan qo'llariga qurol olar edilar.

Kichik kengash ish boshlagan kuni general Krasnoshchekovning 6-Don kazak polki qo'shin starshinasi Tatsin qo'mondonligi ostida Ruminiya frontidan saf tortib Novocherkaskka yetib keldi. Polk Yekaterinoslavdan bu yerga har yer-har yerda bolsheviklar halqasini yorib, janglar bilan yetib kelgan edi. Uni Pyatixatka, Mejeva, Matveyev Kurganda va bir ko'p yerlarda qattiq savalagan bo'lsalar-da, bunga qaramay, polk butun sostavda, hamma ofitserlari bilan yetib keldi.

Polkni tantanali sur'atda qarshi oldilar. Cherkov maydonida duo-yi-takbir o'qilgandan so'ng, kazaklar ingizomni saqlab, tartibga qat-

tiq rioya qilgan holda qo'lda qurol bilan Donni himoya qilishga kelganlari uchun Nazarov ularga tashakkur bildirdi.

Ko'p o'tmay, polk Sulin stansiyasi yaqinidagi frontga jo'natildi, ammo oradan ikki kun o'tgach, Novocherkasskka: polk bolsheviklar tashviqoti ta'siriga berilib, o'zboshimchalik bilan pozitsiyani tashlab ketibdi va qo'shin hukumatini himoya qilishdan bosh tortibdi, degan qora xabar keldi.

Kengash ishlari sust borar edi. Bolsheviklarga qarshi olib borilayotgan kurashning nima bilan tugashini hamma payqab qolgan edi. Juda g'ayratli, serharakat general Nazarov majlis vaqtida tirsagiga suyanib, peshonasini kaftiga tirab o'tirar, go'yo bir narsani o'ylab iztirob chekayotgandek ko'rinar edi.

So'nggi umidlar ham puchga chiqdi. Hatto Tixoretskoy yaqinida to'p ovozlari eshitilmoqda edi. O'sha yerlik qizil komandir xorunjiy Avtonomov Saritsindan Rostovga qarab harakat qilmoqda degan mish-mishlar yurar edi. Sivers tomonidan surib kelinayotgan kapitan Chernov otryadi Rostovga kirib keldi, Gnilovskaya stanitsasi kazaklari uni orqasidan o'qqa tutgan edilar. Qizillarning birlashishiga oz masofa qolgan edi, shu vajdan general Kornilov Rostovda qolish xatarli ekanini payqab, o'sha kuniyoq Olginskaya stanitsasiga chekinish to'g'risida buyruq berdi.

O'sha kuni kechgacha ishchilar Temernikdan vokzalni va ofitser patrullarni o'qqa tutdilar. Kechga yaqin Rostovdan qo'shin kolonnalari g'uj bo'lib chiqa boshladi. Qo'shin Don daryosi ustidan qora ilon singari cho'zilib o'tib, Oqsoyga tomon ketdi. Dumi yulingan rotalar yumshoq, ho'l qorni bosib, og'ir-og'ir qadam tashlab ketmoqda edilar. Gimnaziyachilarning yaltiroq tugmalari, shinellari, mavjud maktab o'quvchilarining yashil shinellari ora-sira ko'zga chalinardi, ammo askarcha, zobitcha shinel kiyganlar ko'pchilikni tashkil qilardi. Vzvodlarga polkovniklar va kapitanlar komandirlik qilar edilar. Saflarda yunkerlar va praporshchiklardan tortib, polkovniklargacha bor edi. Qochqinlar — yoshi qaytgan, basavlat odamlar palto va kalish kiyib olib, qator-qator yuk aravalari ketidan, baland poshnali tufli kiygan ayollar qorga bota-bota aravalar yonida borar edilar.

Yevgeniy Listnitskiy Kornilov polkidagi rotalardan birida edi. Qomati kelishgan qo'shin ofiseri, shtabs-kapitan Starobelskiy, suvo-

rovchi Fanagoriya grenadyor polkining kichik ofitseri Bochagov va qarib qolgan, tishlari tushib ketgan, hamma yog'ini qari urg'ochi tulkinikidek sariq tuk bosib ketgan podpolkovnik Lovichev Listnitskiy bilan bir qatorda borar edi.

Qosh qorayib kelmoqda. Kun ayoz. Donning quyi tomonidan sho'rtak va rutubatli yel esmoqda. Listnitskiy odati bo'yicha yurishini buzmasdan, bilchillab ketgan qorni kechib borar, rotaning oldida ketayotgan odamlarga tikilib qarar edi. Kornilov polkining komandiri kapitan Nejensev va shinelining oldi ochiq, furajkasi gardaniga surib qo'yilgan, sobiq Preobrajenskiy gvardiya polkining komandiri polkovnik Kutepov yo'lning bir chetidan kelmoqda edilar.

Polkovnik Lovichev miltig'ini epchillik bilan tutamlab:

— Janob komandir! — deb Nejensevni chaqirdi. Peshonasi keng, qora ko'zlarining orasi ochiq, patak soqolli Kutepov ho'kiznusxa yuzini o'girib qaradi; Nejensev ovoz kelgan tomonga uning yelkasi osha ko'z tashladi.

— Birinchi rotaga buyruq bering, ildamroq yurishsin! Bunday yursak sovqotib qolishimiz turgan gap. Oyoqlarimiz ho'l bo'ldi, safarda bunday yurish...

— Rasvogarchilik! — deb do'rilladi shang'i Starobelskiy.

Nejensev javob qilmasdan uning yonidan o'tib ketdi. U Kutepov bilan bir narsa ustida tortishardi. Bir ozdan so'ngra Alekseyev ulardan o'zib ketdi. Izvoshchisi dumlari tugilgan to'q otlarni haydab o'tdi; otlarning tuyoqlari ostidan atrofga qor va muz parchalari sachrardi. Shamoldan qizarib ketgan, oq mo'ylovlari dikkaygan, oppoq qoshlari o'siq Alekseyev furajkasini quloqlarigacha bostirib kiyib olib, kolyaskaning suyanchig'iga yonboshi bilan tayanib, sovqotganidan chap qo'li bilan yoqasini ushlab o'tirardi. Ofitserlar uning tanish yuziga qarab, kulimsirar edilar.

Minglarcha oyoqlar ostida yumshab ketgan yo'lning u yer, bu yerida sariq ko'lmak suvlar hosil bo'lgan edi. Yurish juda qiyin, oyoqlar tiyg'onib ketar, etiklar ichiga suv kirar edi. Listnitskiy qadam tashlab ketar ekan, oldindagilarning gapiga quloq solardi. Nimcha po'stin va kazakcha oddiy papax kiygan allaqanday ofitser do'rillab gapirar edi.

— Ko'ryapsizmi, poruchik? Davlat dumasining raisi — keksa Rodzyanko ham piyoda ketyapti.

— Rossiya Golgofaga[1] ketyapti.

Allakim yo'talib, xirillab balg'am tashladi-da, piching qildi:

— Golgofaga... farqi shuki, shag'al yo'l emas, qorli bilchillagan yo'ldan, qahraton sovuqda ketyapti.

— Janoblar, qayerda tunaymiz, bilmaysizmi?

— Yekaterinodarda.

— Bir marta biz Prussiyada xuddi shunaqa sharoitda yurish qilgan edik...

— Kuban bizni qanday qarshilar ekan-a?.. Nima?.. Albatta, u yerda vaziyat boshqa.

— Sizda papiros-mapiros bormi? — deb poruchik Golovachyov Listnitskiydan so'radi.

Jun qo'lqopini yechib, papiros oldi-da, tashakkur bildirdi, so'ngra burun qoqib, barmoqlarini shinelining etagiga artdi.

— Avomning qiliqlarini o'zlashtiryapsiz deyman, a, poruchik?.. — deb piching qildi podpolkovnik kulimsirab.

— Istasang-istamasang o'rganasan. Nazarimda siz... bir talay dastro'mol zapas qilib olganga o'xshaysiz.

Lovichev javob qilmadi. Uning oqara boshlagan qo'ng'ir mo'ylovlarida ko'kish sumalakchalar osilib yotardi. U o'qtin-o'qtin burnini tortib qo'yar, shamol hilpiratgan shinelidan sovuq o'tib, uni dildiratardi.

Listnitskiy yo'lda qing'ir-qiyshiq saf tortib ketayotgan saflarga, kolonna oldida ketayotganlarga qarab, yuragi ezilib ketib, «Rossiyaning sara odamlari» deb o'yladi.

Bir necha suvoriy ot choptirib o'tdi, ular orasida baland Don arg'umog'i mingan Kornilov ham bor edi. Uning och yashil rangli va ikki yonida qiyshiq cho'ntagi bo'lgan nimcha po'stini bilan oq papaxi ancha mahalgacha qatorlar orasida lipillab ko'rinib turdi. Ofitserlar batalyoni uni qattiq «ura» ovozi bilan qarshiladilar.

— Hammasi ham mayli-yu, lekin bola-chaqa... — deb Lovichev keksalardek yo'taldi-da, gapimni ma'qullarmikin, degandek qilib,

---

[1]*Golgofa* – Iso dorga tortilgan yer. (Tarj.)

Listnitskiyning ko'ziga tikildi: — Bola-chaqam Smolenskda qoldi... — deb gapini takrorladi u. — Xotinim bilan qizalog'im — balog'atga yetgan qizim. Rojdestvoda o'n yetti yoshga to'ldi... Ko'ryapsizmi, yasovul?

— Haaa...

— Siz ham oilalimisiz? Novocherkasskdanmisiz?

— Yo'q, men Donets okrugidanman. Mening ham otam qolgan.

— Bilmadim, ularga nima bo'ldiykin... Mensiz hollari nima kechayotgan ekan? — deb gapida davom etdi Lovichev.

Starobelskiy jahl bilan uning gapini bo'ldi.

— Hammaning ham bola-chaqasi qolgan. Bilmayman, nega hadeb g'ingshiy berasiz, podpolkovnik? Qiziq odamlar? Rostovdan endi chiqib, yo'lga tushishimiz bilan...

— Starobelskiy! Pyotr Petrovich! Siz Taganrog yonidagi jangda bo'lganmisiz? — deb qichqirdi birov bir qator orqadagi safdan.

Starobelskiyning zardasi qaynab o'girilib qaradi-yu, zo'rmazo'raki iljaydi.

— E... Vladimir Georgiyevich, qaysi shamol sizni bizning vzvodga uchirib olib keldi? O'zingiz o'tdingizmi? Kim bilan chiqisholmadingiz? Hah-ha... masala ravshan... Siz Taganrog jangi to'g'risida so'rayapsizmi? Ha, bo'ldim... nimaydi? Gapingiz to'g'ri... O'q yeb o'ldi.

Ularning gapi Listnitskiyning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketar, u o'zining Yagodnoyedan chiqqan kunini, otasini, Aksinyani esladi. Esladi-yu, birdaniga yuragi g'ash bo'lib, o'zini qayerga qo'yishini bilmay qoldi. U og'ir-og'ir qadam tashlab, miltiqlarning, uchidagi nayzalarning tebranib borishiga, odamlarning qadam tashlashiga monand qimirlayotgan papaxlarga, furajkalarga, boshliqlarga qarab borar ekan, o'ylar edi.

«Quvg'indi bo'lgan mana shu besh ming kishining har biri, xuddi men kabi, yuragida nafrat va behad qahr-g'azab olovi bilan yonib ketyapti. Ablahlar bizni Rossiyadan quvib chiqardilar, shu yerda poymol qilmoqchilar. Ko'ramiz? Kornilov bizni Moskva ustiga boshlab olib boradi!»

Shu on u, Kornilovning bir vaqtlar Moskvaga kelganini esladi va o'sha kunning shirin xotiralari yodiga tushib ketdi.

Qayerdadir orqaroqda, ehtimol, rotaning ketida batareya kelardi. Otlar pishqirar, aravaning tegarchiklari shaqirlar, u yerdan hatto otlarning ter hidi kelardi. Listnitskiy bu tanish va yuragini orziqtiruvchi hidni sezib, o'girilib orqasiga qaradi; oldinda kelayotgan suvoriy, yoshgina praporshchik unga qarab, tanigandek kulib qo'ydi.

* * *

Martning o'n birinchisida Ko'ngilli qo'shin Olginskaya stanitsasi rayonida to'plangan edi. Kornilov Novocherkasskdan chiqib, Don orqasidagi cho'llarga chekingan va 1600 otliq askari, 5 to'pi hamda 40 pulemyoti bo'lgan Don Qo'shini safar atamani general Popovning yetib kelishini kutib, yo'lga chiqishni kechiktirmoqda edi.

13-martda Popov, o'z shtabining boshlig'i polkovnik Sidorin hamrohligida, bir necha kazak ofitserlari himoyasi ostida Olginskayaga shitob bilan yetib keldi.

Kornilov turgan uyning oldidagi maydonda Popov otining boshini tortdi; bir qo'li bilan egarning qoshini ushlab, oyog'ini egar ustidan arang oshirib otdan tushdi. Yoshgina, qorachadan kelgan, ko'zlari odamga tikandek qadaladigan qorasoch kazak — chopar yugurib kelib qo'ltig'idan ushladi. Popov unga otning jilovini berib, sipogarchilik bilan zinapoya tomon yurdi. Sidorin bilan ofitserlar otdan tushib, unga ergashdilar. Choparlar otlarni darvozadan qo'raga kiritdilar. Yoshi qaytgan, cho'loq, chopar otlarning boshiga to'rva ilayotgan mahalda qorasoch ko'zlari tikandek uy egasining xizmatkor qiziga gap otdi. Yigit qizga tegishib bir narsa dedi shekilli, durrasini satangcha o'ragan, yalang oyoqlariga kalish kiygan, ikki beti qip-qizil qiz hiringlab, ko'lmak suvlarni shopillatib, uning yonidan o'tdi-yu, omborxonaga kirib ketdi.

Yoshi qaytgan, basavlat Popov uyga kirdi. Dahlizda apil-tapil shinelini yechib, uni epchil choparga uzatdi-da, qamchisini qoziqqa ilib, burnini qattiq qoqdi.

Chopar yo'l-yo'lakay sochini tarab borayotgan Sidorinni Popov bilan zalga olib kirdi.

Kengash majlisiga chaqirilgan generallarning hammasi yig'ilgan edi. Kornilov stol ustiga yozilgan xaritaga tirsagini qo'yib o'tirardi; sochlari oqargan, qotmadan kelgan, soqolini yangi qirdirgan Alekse-

yev qomatini tik tutib, uning o‘ng tomonida o‘tirardi. Aqlli ko‘zlari chaqnab turgan Denikin Romanovskiy bilan nima to‘g‘risidadir suhbatlashardi. Qayeridir Denikinga sal o‘xshagan Lukomskiy, xona ichida u yoqdan, bu yoqqa sekin yurar, soqolini chimdir edi. Markov esa hovli tomonga qaragan deraza yonida turib, otlar atrofida yurgan choparlarning xizmatkor qizga gap otib kulishlarini tomosha qilardi.

Kelganlar salomlashgandan keyin stolga yaqinlashdilar. Alekseyev yo‘l to‘g‘risida, Novocherkasskning taslim qilinishi to‘g‘risida bir necha ahamiyatsiz savol berdi. Kornilov tomonidan kengashga chaqirilgan bir necha ofitserlar bilan birgalikda Kutepov ham kirib keldi.

Kornilov, o‘ziga bino qo‘ygan sipogarchilikni qo‘ldan bermay o‘tirayotgan Popovga tik qarab turib so‘radi:

— Qani ayting-chi, general, otryadingizda qancha askar bor?

— Bir yarim ming otliq askar, batareya, komandasi bilan qirq pulemyot.

— Ko‘ngilli armiyaning Rostovdan chiqib ketishga majbur qilgan sabablar o‘zlaringizga ma’lum. Kecha bizda maslahat majlisi bo‘lgan edi. Tevarak-atrofida ko‘ngilli otryadlar jang qilayotgan Yekaterinodar tomondan Kubanga kirishga qaror qilindi. Biz shu marshrut bilan ketamiz... — Kornilov qalamining yo‘nilmagan uchi bilan xaritani chizib ko‘rsatdi: — Yo‘lda Kuban kazaklarini orqamizdan ergashtirib, harakatimizga mone bo‘lishga intilgan bir hovuch, tarqoq va urushga layoqatsiz qizil gvardiya otryadlarini to‘zg‘itib yuboramiz. — Shuni deb u, ko‘zlarini qisib, yon tomonga qarab turgan Popovga tikilib, gapini tamomladi: — Biz o‘z otryadingiz bilan Ko‘ngilli armiyaga qo‘shilib, birgalikda Yekaterinodar ustiga yurishingizni tavsiya etamiz.

— Men borolmayman, — deb Popov qat’iy va keskin javob berdi.

Alekseyev unga tomon engashib:

— Sababini so‘rashga ruxsat eting, nima uchun? — deb so‘radi.

— Chunki men Don viloyatini tashlab, Kuban degan allaqaysi go‘rga borolmayman. Shimol tomondan Don daryosi to‘sib turgan, qishlov rayonida voqealarning nima bilan tugashini kutib yotamiz. Dushman aktiv harakat boshlaydi deb gumon qilib bo‘lmaydi, chunki bugun bo‘lmasa erta, eruvgarchilik boshlanadi, — Dondan artilleriya

tugul, otliq askarlarni olib o'tish ham mumkin bo'lmay qoladi, ammo yem-xashak va g'allaga boy bo'lgan qishlov rayonidan esa biz istagan vaqtda, istagan tomondan partizanlik urushini boshlab, kuchaytirib yuborishimiz mumkin.

Popov dadillik bilan Kornilovning taklifini rad etuvchi dalillar keltirdi. Chuqur nafas olib, Kornilovning bir nima demoqchi bo'lganini ko'rib, o'jarlik bilan bosh chayqadi:

— So'zimni tamomlashga ruxsat eting. Bundan tashqari, yana bir juda muhim faktor borki, biz, ya'ni qo'mondonlik uni ham nazarda tutamiz: bu — kazaklarimizning ruhiy kayfiyatlaridir. — Shuni deb u ko'rsatkich barmog'iga tilla uzuk taqqan yumshoq oq qo'lini bigiz qilib ko'rsatdi, ovozini biroz balandlatib, hammani boshdan oyoq ko'zdan kechirib chiqdi-da, gapida davom etdi: — Mabodo biz Kubanga qarab burilsak, otryadimiz tarqalib ketadi. Kazaklar bormaymiz deb turib olishlari mumkin. Yana shuni esdan chiqarmaslik kerakki, mening otryadimning doimiy va eng mustahkam qismi kazaklardir, ular ma'naviy jihatdan... chunonchi sizning qismlaringizdek matonatli emaslar. Ular ongli emaslar deyish mumkin. Bormaydilar, vassalom. Shu vajdan tavakkal qilib, butun otryadning tarqalib ketishiga yo'l qo'ya olmayman, — deb Popov yana Kornilovning so'zini og'zidan oldi: — Afv eting, biz sizga o'z qarorimizni bildirdik, shuni ham aytayki, biz bu qarorimizni o'zgartira olmaymiz. Albatta, kuchlarimizni maydalab yuborish biz uchun zararlidir, ammo mavjud vaziyatdan qutulish uchun birgina yo'l bor. Mening fikrimcha, men hozir aytib o'tgan mulohazalarga ko'ra, Ko'ngilli qo'shin Kubanga emas (Kuban kazaklarining kayfiyatlari meni tashvishga solayotir), balki Don otryadi bilan Donning narigi tomonidagi dashtlarga ketsa ma'qul bo'lardi. U yerda qo'shin dam olib o'zini o'nglab oladi, bahorda esa Rossiyadan kelgan ko'ngillilar bilan o'z safini to'ldiradi...

— Yo'q! — dedi Kornilov kekirdagini cho'zib. Holbuki kechagina o'zining Donning narigi tomonidagi dashtlarga yurishga mayli bor edi va buning aksini iddao etgan Alekseyevning fikrini o'jarlik bilan rad etgan edi. — Qishlov rayoniga chekilishning ma'nosi yo'q. Bizning olti ming chog'liq askarimiz bor...

— Hurmatli general janoblari, agar gap oziq-ovqat ustida ketayotgan bo'lsa, amin bo'lingki, qishlov rayoni juda bop. Bundan tashqari,

siz xususiy ot zavodlaridan ot olib, askaringizning bir qismini otlantira bilasiz. Manyovrli dala janglari olib borishda sizning qo'lingiz baland keladi. Siz uchun otliq askar juda zarur. Ko'ngilli armiya esa otlarga boy emas.

Bugun Alekseyevga nisbatan sertakalluf bo'lgan Kornilov unga qarab qo'ydi. U ikki tomonning qay birini tanlashni bilmay taraddudlanib qolgani uchun nufuzli bir odamning yordamiga muhtojlik sezardi. Alekseyevning gapiga diqqat bilan quloq soldilar. Masalani qisqa, aniq va ochiq-oydin hal qilishga o'rgangan keksa general, bir necha ma'noli so'z bilan Yekaterinodarga qarab yurish boshlash fikrida ekanligini aytdi.

— Shu tomonga qarab yursak, bolsheviklar halqasini yorib o'tishimiz va Yekaterinodar yaqinida jang qilayotgan otryad bilan qo'shilishimiz oson, — deb gapini tamomladi u.

— Mixail Vasilyevich, agar biz bu rejani amalga oshira bilmasak nima bo'ladi? — deb so'radi Lukomskiy ehtiyotlik bilan.

Alekseyev tamshanib, qo'li bilan xaritani chizib ko'rsatdi.

— Agar bu rejani amalga oshira bilmasak u holda bizda Kavkaz tog'lariga chekinib, u yerda armiyamizni tarqatib yuborish imkoni bor.

Romanovskiy uning gapini ma'qulladi. Markov qizishib, bir necha og'iz so'z aytdi. Alekseyevning asosli dalillariga qarshi bir fikr aytish mumkin emasdek ko'rinsa ham, lekin Lukomskiy so'z olib, posangini tenglashtirdi.

— Men general Popovning taklifini quvvatlayman, — dedi u salmoqlanib. — Kuban ustiga yurish juda qiyin, bu qiyinchiliklarni hisobga olish lozim. Avvalo, bizga temiryo'lni ikki marta kesib o'tishga to'g'ri keladi...

Kengashda o'tirganlarning ko'zlari uning xarita ustida yurgan barmoqlariga tikildi. Lukomskiy ishonch bilan so'zini davom ettirdi.

— Bolsheviklar bizni quchoq ochib kutib olmaydilar, albatta, ular zirhli poyezdlarni ustimizga yuboradilar. Bizning esa yuk ortilgan aravalarimiz va yaradorlarimiz ko'p. Ularni qoldirib ketolmaymiz. Bularning hammasi armiyaning ishini og'irlashtiradi va tezroq harakat qilishiga to'sqinlik qiladi. Innaykeyin, Kuban kazaklari bizga xayrixoh degan ishonch qayerdan kelib chiqqanini tushunolmayman.

Don kazaklari bolsheviklardan norozi degan asossiz gaplarni yodimizda tutib, Kuban kazaklari haqidagi mish-mishlarga juda ehtiyot bo'lib, shubha ko'zi bilan qarashimiz kerak. Kubanliklarga ham eski rus armiyasi keltirgan maraz yuqqan... Ular dushmanlik kayfiyatida bo'lishlari mumkin. So'zimning oxirida shuni takrorlab o'tayki, men sharqdagi cho'llarga qarab yurish kerak va kuch yig'ib turib, u yerdan bolsheviklarga tahdid solish kerak degan fikrdaman.

O'z generallarining ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Kornilov Velikoknyajeskayadan g'arbga qarab yurishga, safarbar vaqtida armiyaning safdan tashqari xizmat qiluvchi qismini otliq askarlar bilan to'ldirishga va u yerdan Kubanga burilishga qaror qildi. U majlisni berkitgandan keyin Popov bilan uch-to'rt og'iz gaplashib olib, xayrlashdi-da, o'z xonasiga chiqib ketdi. Alekseyev uning orqasidan ergashdi.

Don otryadi shtabining boshlig'n polkovnik Sidorin, shporlarini jiringlatib, zinapoyaga chiqdi-da, sevingandek shang'illab, choparlarga:

— Ot keltiring! — deb qichqirdi.

Yoshgina, sariq mo'ylovli yuzboshi qilich qinini ushlab, ko'lmak suvlar ustidan hatlab, zinapoya oldiga keldi. U zinaning birinchi pog'onasida turib, shivirlab:

— Nima bo'ldi, janob polkovnik? — deb so'radi.

— Yomon bo'lmadi, — dedi sekin, ko'tarinki ruh bilan Sidorin. — Bizning general Kuban tomonga yurishdan bosh tortdi. Hozir yo'lga chiqamiz. Siz tayyormisiz, Izvarin?

— Ha, otlarni keltirishyapti.

Choparlar otlarini minib keldilar. Qorasoch, baqako'z chopar o'z o'rtog'iga qarab:

— Qalay, husni joyidami? — deb so'radi-da, kulib qo'ydi.

Yoshi qaytgan chopar miyig'ida kuldi.

— Be, ta'viya-ku.

— Agar imlab chaqirsa yo'q demassan.

— Qo'ysang-chi, tentak! Bugun ro'za-ya.

Ilgari Grigoriy Melexov bilan bir qismda xizmat qilgan Izvarin o'zining sag'risi katta, oqtumshuq qashqa otiga sakrab minib oldi-da, choparlarga buyurdi:

— Otlarga minib ko‘chaga chiqing.

Popov bilan Sidorin generallarning ba’zi birlari bilan xayrlashib, zinadan tushdilar. Choparlar biri ofning jilovidan ushlab turdi, generalning oyog‘ini uzangiga kirgizib qo‘ydi. Popov kazakcha oddiy qamchisini o‘ynatib, otini yo‘rttirib ketdi, uning ketidan choparlar, ofitserlar va Sidorin oyoqlarini uzangiga tirab, sal oldinga egilib, otlarini haydadilar.

Ko‘ngilli armiya ikki kecha qo‘nib, Mechetinskaya stansiyasiga yetib keldi. Bu yerda Kornilov qishlov rayoni to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumot oldi. Bu ma’lumotlar maxfiy xarakterda edi. U safdagi qismlar komandirlarini chaqirib, Kubanga tomon yo‘l olish to‘g‘risida qaror qabul qilinganini e’lon qildi.

Popovga ordinarets yuborildi, bizga qo‘shiling, deb ikkinchi marta taklif qilindi. Ordinarets-ofitser armiyani Staro-Ivanovskiy uchastkasi yaqinida quvib yetdi. U Popovdan xuddi avvalgi javobni keltirgan edi: Popov nazokat bilan sovuqqina qilib, Kornilovning taklifini qabul qilishdan bosh tortgan va o‘z qarorimni o‘zgartira olmayman, hozircha Salskiy okrugida qolaman, deb yozib yuborgan.

XIX

Novocherkasskni zabt etish uchun aylanma yo‘l, bilan harakat qilayotgan Golubov otryadi bilan Bunchuk ham yo‘lga tushgan edi. Yigirma uchinchi fevralda, ular Shaxtnayadan chiqdilar, Razdorskaya stanitsasidan o‘tib, kechasi Melixovskaya stanitsasiga yetib keldilar, Ertasi kuni tong yorishganda stanitsadan chiqib ketdilar.

Golubov o‘z otryadini tez yurgizib olib borardi, Chorpahildan kelgan komandir otryadning oldida borar, qo‘lidagi qamchisi otning sag‘risiga tez-tez tushib turar edi. Kechasi Bassergenevskaya stanitsasidan o‘tgandan keyin otlarga bir oz dam berib, yulduzsiz, bulutli kechada otliqlar yana yo‘lga tushdilar, muzlab qolgan yo‘l ot tuyoqlari ostida taraqlar edi.

Krivyanskaya stanitsasiga yaqinlashganda yo‘lni yo‘qotib qo‘ydilar, lekin darrov uni topib oldilar, Krivyanskayaga kirganlarida tong yorisha boshlagan edi. Stanitsa ko‘chalari huvullab yotardi. Stanitsa maydoni yaqinidagi quduq yonida bir keksa kazak tog‘oradagi

yaxni chopib ko'chirar edi. Golubov uning yoniga bordi, otryad to'xtadi.

— Salom, ota.

Chol qo'lqopli qo'lini papaxiga tegizib, noxushlik bilan:

— Alaykum assalom, — dedi.

— Buvajon, stanitsangizdagi kazaklar Novocherkasskka ketib qoldilarmi? Kazaklarni safarbar qilishdimi?

Chol darhol boltasini yelkasiga qo'yib, indamay darvoza tomon qarab ketdi.

Golubov otini burib so'kindi-da:

— Yuringlar! — deb baqirdi.

Xuddi shu kuni Kichik qo'shin kengashi Konstantinovka stanitsasiga ko'chishga hozirlanayotgan edi. Don qo'shinining yangi safar atamani, general Popov, qurolli kuchlarini Novocherkasskdan olib chiqqan, qo'shinning qimmatli ashyolarini tashittirib olgan edi. Erta bilan, Golubovning Melixovskayadan chiqib, Bessergenevskayaga tomon ketayotgani to'g'risida ma'lumot olindi. Kengash Novocherkasskni taslim etish shartlari to'g'risida Golubov bilan muzokara olib borish uchun yasovul Sivolobovni yubordi. Qarshilikka uchramagan Golubovning otliq askarlari uning ketidan Novocherkasskka bostirib kirdi. Golubovning o'zi bir talay kazaklar bilan birga, terlab, ko'pirib ketgan otini Kengash binosi tomon haydadi. Darvoza oldida bir necha bekorchi odam to'planib turar, bir chopar Nazarovning egarlog'liq otining jilovidan ushlab, generalni kutardi.

Bunchuk otdan sakrab tushib, qo'l pulemyotini ko'tarib oldi. Golubov ketidan boshqa kazaklar bilan birga Kengash binosiga chopib kirdi. Eshik taraqlab ochilganda zaldagi vakillar boshlarini o'girib qaradilar. Ularning yuzi dokadek oqarib ketdi.

Golubov ko'rik vaqtidagidek keskin ovoz bilan:

— O'rningizdan tur-ing! — deb baqirdi-da, shoshganidan qoqilib ketdi, kazaklar qurshovida, prezidium stoli tomon yurdi.

Amirona baqiriqni eshitgach, Kengash a'zolari stullarini taqirlatib o'rinlaridan turdilar; Nazarov o'rnidan turmay o'tiraverdi.

— Kengashning majlisini to'xtatishga sizning qanday haqqingiz bor? — deb chinqirdi u g'azab bilan.

— Siz qamoqqa olindingiz! Ovozingizni o‘chiring! — g‘azabidan yuzi bo‘riqib ketgan Golubov Nazarovning oldiga chopib bordi, tujurkasining yelkasidan pogonini yulib oldi-da, xirillab: — Tur deyapman, senga! Oboring uni!.. Hoy! Kimga gapiryapman!? Oltin pogonli!.. — deb baqirdi.

Bunchuk eshik og‘ziga pulemyot o‘rnatdi. Kengash a’zolari qo‘y suruvidek g‘uj bo‘lib oldilar. Kazaklar Nazarovni, qo‘rqqanidan ko‘karib ketgan Kengash raisi Voloshinovni va bir necha odamni sudrab Bunchuk yonidan olib o‘tdilar.

Yuzi qizarib, bo‘rtib ketgan Golubov qilichini qo‘li bilan ushlab, ular ketidan borardi. Kengash a’zolaridan biri uning yengidan tortib:

— Janob polkovnik, marhamat qilib aytsangiz, biz qayoqqa boramiz? — deb so‘radi.

Quvligi yuzidan bilinib turgan boshqa bir a’zo uning yelkasi osha qarab:

— Biz ketaversak bo‘ladimi? — dedi.

— Menga desa jahannamga keting! — deb baqirdi Golubov qo‘l siltab. Bunchukning oldiga kelgandan keyin Kengash a’zolariga yuzini o‘girib, yer tepindi-da: — Jo‘na-jo‘na! Senlar bilan pachakilashib o‘tirishga vaqtim yo‘q. Boring! — dedi.

Uning shamollab, xirillab qolgan ovozi ancha vaqtgacha zaldan eshitilib turdi.

Bunchuk onasining oldiga borib yotdi. Ertasi kuni, Sivers Rostovni olibdi, degan xabar kelganda, Golubovning ruxsati bilan ertalab otiga mindi-da, Rostovga jo‘nadi.

U Siversning shtabida ikki kun ishladi. Sivers «Okopnaya pravda» gazetasining muharriri bo‘lgan mahalda uni tanir edi. Bunchuk revkomga kirdi, bu yerda Abramson ham, Anna ham yo‘q edi. Sivers shtabi qoshida inqilobiy tribunal tashkil etilgan edi. Revtribunal qo‘lga tushgan oq gvardiyachilarga omon bermay, ular ustidan qat’iy hukm chiqarib turardi. Bunchuk bir kun ishlab sud ishlariga yordamlashdi, qurshovlarda qatnashdi, ertasi kuni Annani ko‘rishga umidi bo‘lmasa ham, birrov kirib o‘tish uchun revkomga jo‘nadi. Zinadan chiqayotganida uning tanish ovozini eshitdi. Sekin yurib Annaning tovushi va kulgisi eshitilgan ikkinchi xonaga kirdi-yu, yuragi dukurlab urib ketdi.

Avvallari komendant joylashgan xonaning ichi tutunga to'lgan edi. Burchakdagi mo'jaz stolcha yonida shinelining tugmalari tushib ketgan, soldatcha papaxining quloqlari yechilgan odam bir narsalarni yozardi, askarlar va nimchapo'stin hamda palto kiygan kishilar uning atrofini o'rab olgan edilar. Odamlar to'p-to'p bo'lib chekishar, gurunglashardilar. Anna deraza yonida eshikka orqasini o'girib turar, Abramson esa panjalarini bir-biri bilan chalishtirgan holda tizzasini ushlab deraza tokchasida o'tirar, uning oldida latishga o'xshagan novcha bir qizil gzardiyachi boshini yoniga xiyol egib turardi. U papirosini og'zidan olib, jimjilog'ini ko'tarardi, qandaydir kulgili bir hikoyani so'zlayotganga o'xshardi. Anna o'zini orqaga tashlab, qah-qahlab kular, Abramson aftini bujmaytirib iljayar, uning yonida o'tirganlar jilmayishib quloq solishar edi. Qizil gvardiyachining esa xuddi bolta bilan yo'nib ishlangandek yelpishtovoq yuzida aqlli, o'tkir, kinoyali ifoda bor edi.

Bunchuk qo'lini Annaning yelkasiga qo'ydi.

— Salom, Anya!

Anna qayrilib qaradi. Yuziga qon yugurib, quloqlarining tagigacha qizarib ketdi.

— Qaysi shamol uchirdi? Abramson, manavinga qara! Soppasog', yuzi yangi barkashday yarqirab turibdi, sen bo'lsang undan xavotir olib yuribsan, — deb bidirladi Anna, ko'zlarini yerdan olmay. Keyin uyalib, o'zini yo'qotib qo'yganini yashirolmagani uchun eshik oldiga ketdi.

Bunchuk Abramsonning issiq qo'lini qisib ko'rishdi-da, u bilan biroz suhbatlashdi, suyunchini ichiga sig'dirolmay, yuzida bema'ni iljayish paydo bo'lganini o'zi sezib turardi, Abramsonning bir savoliga javob bermasdan (savolning ma'nosini tushunmagan edi), Annaning oldiga bordi.

— Ha, yana so'rashib qo'yaylik, qalaysan? — dedi Anna. — Sog'-salomat yuribsanmi? Qachon kelding? Novocherkasskdanmi? Sen Golubovning otryadidamiding? E, shundoq degin... Xo'sh, nima gap?

Bunchuk undan ko'zini olmay, qattiq tikilib, savollariga javob berardi. Anna uning ko'zlariga tik qaray olmay, alanglab turardi.

— Kel, bir lahzaga ko'chaga chiqaylik, — dedi Anna.

Shu payt Abramson ularni chaqirib qoldi.

— Darrov qaytib kelasizmi? O‘rtoq Bunchuk, senda zarur bir ishim bor. Senga bir topshiriq bermoqchimiz.

— Bir soatdan keyin qaytib kelaman.

Ko‘chaga chiqqanlarida Anna mehr bilan Bunchukning yuziga qaradi-yu, o‘zidan xafa bo‘lganday qo‘l siltab:

— Ilya, uyalib ketganim yaxshi bo‘lmadi-da, xuddi qiz boladay qizarib-bo‘zarib ketdim-a. Buning sababi, avvalo kutilmaganda uchrashuvimiz, ikkinchidan, oramizdagi munosabatning noaniqligidir, — dedi. — Aslini surishtirilsa, bir-birimizga kim bo‘lamiz? G‘oyibona sevishgan «kelin va kuyovmi». Bilasanmi, nima bo‘ldi, bir kuni Abramson Luganskda: «Bunchuk bilan birga turasanmi?» deb so‘rab qoldi. Men «yo‘q» dedim, ammo u juda sergak odam, ko‘zga tashlanib turgan narsani ko‘rmasligi mumkin emasdi. U menga hech narsa demadi, lekin ko‘zlaridan so‘zimga ishonmayotgani ko‘rinib turardi.

— Xo‘sh, gapni sendan eshitaylik, ishlar qalay?

— E, biz bu yerda katta ish boshlab yubordik! Ikki yuz o‘n bir askardan iborat otryad tuzdik. Ham tashkiliy, ham siyosiy ishlar olib bordik... Hammasini; ikki og‘iz so‘z bilan gapirib berib bo‘ladimi? Men kutilmagan uchrashuvdan esankiragan ekanman, haliyam o‘zimga kelolmayapman. Sen qayerda... kechasi qayerda yotibsan? — deb so‘rab qoldi Anna gapini bo‘lib.

— Shu yerda... bir o‘rtog‘imnikida.

Bunchuk aldagani uchun uyalib ketdi: u Siversning shtabi joylashgan xonada tunab qolgan edi.

— Sen shu bugunoq biznikiga ko‘chib kelasan. Uyim qayerdaligi esingdami? Bir vaqtlar sen meni kuzatib qo‘ygan eding.

— Uyingni topaman. Ammo... uyingdagilar siqilishib qolmasmikan?

— Bunaqa gaplaringni qo‘y, hech kim siqilmaydi, bu to‘g‘rida endi og‘iz ochma.

Kechqurun Bunchuk lash-lushini keng bir askarcha sumkaga joylab, Annaning shahar chekkasidagi uyiga keldi. Mo‘jazgina g‘ishtin uyning eshigi og‘zida uni bir kampir qarshi oldi. Kampirning yuzi Annanikiga sal-pal o‘xshardi: uning ham ko‘zlari tim qora, burni qirrali, ammo yuzini ajin bosib, sarg‘ayib ketgan, tishlari tushgan, o‘radek bo‘lib qolgan edi.

— Siz Bunchukmisiz? — deb so‘radi u.

— Ha.

— Kira qoling, aylanay. Qizim siz to‘g‘ringizda gapiruvdi.

Kampir Bunchukni tor bir hujraga olib kirdi, buyumlarini qo‘yishga joy ko‘rsatib, shishinqiragan barmoqlari bilan hujrani ko‘rsatdi va:

— Siz shu yerda turasiz. Bu karavot ham siz uchun qo‘yilgan, — dedi.

Kampir so‘zlarni yahudiylardek sal-pal boshqacha talaffuz etardi. Uyda undan boshqa bo‘yi yetmagan, oriqqina, ko‘zlari Annaniki singari chuqur o‘rnashgan bir qiz bor edi.

Bir ozdan so‘ng Anna ham keldi. U kelishi bilan uy g‘ovur-g‘uvurga to‘ldi, hamma jonlanib ketdi.

— Bizni hech kim yo‘qlamadimi? Bunchuk kelmadimi?

Onasi unga o‘z tilida bir nima deb javob qildi. Shundan keyin Anna shipillab yurib eshik oldiga keldi.

— Kiraversam bo‘ladimi?

— Ha.

Bunchuk o‘rnidan turib, uni qarshiladi.

— Xo‘sh, qalay? Joylashib oldingmi?

Anna kulib turgan ko‘zlari bilan unga qarab, so‘radi:

— Hech narsa yedingmi? Yur, bu yoqqa.

Anna Bunchukning yengidan ushlab, birinchi xonaga olib kirdi-da:

— Oyijon, bu mening do‘stim, — deb jilmayib qo‘ydi. — Siz uni xafa qilmang.

— Gapingni qara-ya, nega xafa qilarkanman?.. U bizning mehmonimiz-ku.

Kechasi Rostovda bodroq qovurganday patir-putur o‘q ovozlari eshitildi. O‘qtin-o‘qtin pulemyot tarillab, keyin jim bo‘lib qoldi. Zim-ziyo fevral kechasi yana sukunati bilan ko‘chalarni o‘z quchog‘iga oldi. Bunchuk bilan Anna shinamgina hujrada uzoq gaplashib o‘tirdilar.

— Bu hujrada men bilan singlim turardik, — dedi Anna. — Ko‘rib turibsanki, uyimiz sahobalar uyiga o‘xshaydi. Na arzonbaho suratlar, na fotosuratlar bor? Gimnazistkaning uyiga yarashadigan hech narsa yo‘q.

— Qanday tirikchilik qilar edingiz? — deb so'radi gap orasida Bunchuk.

Anna g'urur bilan javob berdi:

— Men Asmolov fabrikasida ishlardim, ham dars berardim.

— Hozir-chi?

— Oyim kiyim tikadilar. Ikki kishi uchun ko'p pul kerak emas.

Bunchuk Novocherkasskning olinishi, Zverevo va Kamensk yaqinida bo'lgan janglar tafsilotini gapirib berdi. Anna esa Lugansk bilan Taganrogda ishlagan paytlaridagi taassurotlarini so'zlab berdi.

Soat o'n birda onasi o'z xonasidagi lampani o'chirishi bilan Anna chiqib ketdi.

XX

Mart oyida Bunchukni Don revkomi qoshidagi inqilobiy tribunalga ishga yuborishdi. Novchadan kelgan, ko'zlari xiralashgan, ish va uyqusizlikdan rang-ro'yi ketgan tribunal raisi uni deraza yoniga tortib:

— Nechanchi yildan beri partiyadasan? E, juda soz. Shunday qilib, sen bizda komendant bo'lasan, — dedi qo'l soatini silab qo'yib (u majlisga shoshilayotgan edi) — o'tgan kecha biz o'z komendantimizni pora olgani uchun «Duxonin shtabiga» jo'natdik. O'ziyam odamga ozor berishdan lazzatlanadigan, beadab, yaramas odam edi, — bunaqalari bizga kerak emas. Bu — iflos ish, ammo bunda ham partiya oldidagi mas'uliyatingni tamomila saqlashing zarur. Gapimni tushunib ol, bu ishda, — rais shu keyingi gapni chertib gapirdi, — odamgarchilikni saqlash kerak. Biz zarurat yuzasidan kontrrevolyusionerlarni mahv etamiz, ammo bu ishni o'yinga aylantirib yubormaslik kerak. Gapimni uqdingmi? Juda soz. Bor, ishni qabul qilib ol.

Bunchuk shu kechasi o'n olti kishidan iborat qizil gvardiyachilar komandasi bilan yarim kechada, o'limga hukm qilingan besh kishini shahardan uch chaqirim nariga olib chiqib otib tashladi. Ulardan ikkitasi Gnilovskaya stanitsalik kazak, qolganlari Rostov shahri fuqarolari edi.

Deyarli har kun o'limga mahkum qilinganlarii yarim kechada yuk mashinalariga solib, shahar tashqarisiga olib chiqardilar, ular uchun naridan beri go'r qazilardi. Bu ishni o'limga hukm qilinganlar, qis-

man qizil gvardiyachilar bajarar edilar. Bunchuk qizil gvardiyachilarni safga tizib, bo‘g‘iq ovoz bilan:

— Inqilob dushmanlariga... — deb naganini siltardi, — o‘t ochilsin!..

Bir hafta ichida u qorayib, ozib, cho‘p bo‘lib qoldi. Ko‘zlari chuqur tushib ketgan, lip-lip uchgan qovoqlari ko‘zlaridagi g‘am va hasrat ifodasini yashirolmasdi. Anna uni faqat kechalari ko‘rardi. Anna revkomda ishlar, uyiga juda kech qaytar, ammo har vaqt Bunchuk kelib, derazani tiqillatguncha uxlamay poylab o‘tirar edi.

Bir kuni Bunchuk, odati bo‘yicha, yarim kechadan oshgandan keyin keldi. Anna eshikni ochib:

— Ovqatlanib olasanmi? — deb so‘radi. Bunchuk javob qilmadi: mast kishidek gandiraklab, o‘z hujrasiga o‘tdi-da, shineli, shapkasi, etigini yechmasdan karavotiga o‘zini tashladi. Anna oldiga kelib, yuziga tikildi: uning ko‘zlari yarim ochiq qolgan, qarishib qolgan tishlari orasidan tupugi oqib turar, tifdan keyin siyraklashib qolgan sochlari peshonasiga yopishgan edi.

Anna yoniga o‘tirdi. Unga rahmi kelib yuragi ezilib ketdi. Shivirlab:

— Ilya, bu ish senga og‘irlik qilyaptimi? — deb so‘radi.

Bunchuk uning qo‘lini qisib qo‘ydi-da, tishlarini g‘irchillatib yuzini devorga o‘girib oldi, churq etmay uyquga ketdi. Keyin uyqusirab, bir nima deb g‘o‘ldiradi, yotgan joyida sapchib-sapchib tushdi. Anna uning holini ko‘rib, tepa sochlari tikka bo‘lib ketdi. Bunchukning yarim ochiq qolgan ko‘zlari orqasiga tortib ketgan, kipriklari orasidan ko‘zlarining sarg‘ish oq soqqasi ko‘rinib turardi. Ertalab Anna unga yolvorib:

— Bu ishni tashla! — dedi. — Bundan frontga ketgan yaxshi. Rangro‘ying bir holatda, Ilya! Bu ish seni halok qiladi.

G‘azabidan ko‘zining paxtasi chiqib ketgan Bunchuk:

— Bas qil!.. — deb baqirib yubordi.

— Baqirmasang-chi. Ko‘nglingga qattiq tegdimmi?

Bunchuk birdan jim bo‘lib qoldi, go‘yo bir baqirish bilan yuragini bo‘shatganday bo‘ldi. Qo‘llariga horg‘in nazar tashlab, dedi:

— Murdor insonlarni o‘ldirish — iflos ish. Odamni otib tashlash sog‘liq uchun ham, yurak uchun ham zararli... Voy seni... — U Anna

oldida birinchi marta behayo so'zlar bilan so'kindi. — Bunday iflos ishga yo ahmoqlar yoki vahshiy odamlar, yoinki mutaassib odamlar kiradi. Shunday emasmi? Hammaning ham gulzor ichida sayr etgisi keladi, ammo savil qolgur gullar va daraxtlarni ekishdan oldin yerni axlatlardan tozalash kerak! Yerga o'g'it solish kerak! Qo'lingni tuproqqa bulg'ash kerak? — dedi u ovozini baland chiqarib, holbuki Anna undan yuzini o'girib, miq etmay o'tirardi. — Axlatlarni yo'qotish kerak, ammo bu ishdan hazar qiladilar!.. — Bunchuk borgan sari qizishib, stolni mushtlab, qon to'lgan ko'zlarini pirpiratardi.

Annaning onasi eshikdan bosh suqib qaradi. Bunchuk o'ziga kelib, sekin gapira boshladi:

— Men bu ishdan ketmayman. O'zimning foydali ish qilayotganimni ko'rib turibman, his etib turibman? Axlatlarni chiqarib tashlayapman! Yer unumdor bo'lsin deb o'g'itlayapman? Serhosil bo'lsin deb! Bir vaqt kelib, bu yer ustida baxtli odamlar kezadi... Ehtimol, hali tug'ilmagan o'g'lim kezadi... — deb kuldi u xirillab. — Men u gazandalar... kanalarning qanchadan qanchasini otib tashladim. Kana shunday hasharotki, badanning ichiga kirib ketadi... Men bu ifloslarni o'nlab o'z qo'lim bilan o'ldirdim... — Bunchuk kalxat panjasiday tirnoqli, qora tuk bosgan, mahkam yumilgan mushtini uzatib ko'rsatdi; keyin qo'llarini tizzasi ustiga qo'yib, shivirlab dedi: — Umuman, yer yutsin ularni! Yonadigan bo'lsang pirillab yon, sasib yonma... Lekin charchaganim rost... Biroz vaqt o'tsin, keyin frontga ketaman... sen haqlisan.

Anna uning gapiga indamay quloq solib turdi-da, asta dedi:

– Yo frontga ket, yoki boshqa ishga o't... Ket, Ilya, bo'lmasa... miyang aynib qoladi.

Bunchuk unga orqasini o'girib, oynani chertdi.

— Yo'q, men qalin-qattiq odamman... Sen, albatta, temirdek odamlar bor deb o'ylama. Biz hammamiz. bir xil materialdan qilinganmiz... Urushda qo'rqmaydigan, odam o'ldirganda azob... ruhiy aziyat chekmaydigan odam yo'q... Ammo pogonlarga kishining, yuragi achishmaydi. Ular sen bilan bizdek ongli odamlar. Menga qara, kecha otib o'ldirilgan to'qqiz kishi ichida uch mehnatkash... ka-

zaklar bor edi,.. Birining qo'lini yecha boshladim... – Bunchuk go'yo borgan sari uzoqlashib ketayotgandek, tovushi sekin va noaniq eshitila boshladi: – Qo'lini ushlasam – charmdek... qattiq... qo'lini qadoq bosgan... Qop-qora kafti g'adir-budur... qavarib ketgan... Xayr, men ketdim, – dedi u gapini shartta bo'lib. Annaga bildirmay, xuddi jun arqon bilan bo'g'ilgandek tomirlari tortishib qolgan bo'ynini ishqalab qo'ydi.

U etigini kiydi, bir stakan sut ichib chiqib ketdi. Anna uning ketidan yugurib, yo'lakda yetib oldi. Uning og'ir qo'lini o'z qo'llari orasiga olib turdi-da, qizarib, lovullab ketgan yuziga mahkam bosdi-yu, so'ngra chopgancha hovliga chiqib ketdi.

Kun isib ketdi. Bahor Donning etagidan boshlab yuqorisiga tomon siljimoqda. Martning oxirlarida gaydamaklar va nemislar tomonidan mag'lubiyatga uchragan ukrain qizil gvardiyachi otryadlar Rostovga kela boshladilar. Shaharda odam o'ldirish, talonchilik, o'zboshimchalik bilan birovlarning molini musodara qilish hodisalari yuz bera boshladi. Revkom so'ng darajada intizomi buzilgan otryadlarni qurolsizlantirishga majbur bo'ldi. Bu ish to'qnashsiz, otish-tutishsiz hal bo'lmadi. Novocherkassk yaqinidagi kazaklar bosh ko'tara boshladilar. Mart oyida teraklarning kurtaklari bo'rtib qolgandek, stanitsalarda ham kazaklar bilan kelgindi dehqonlar o'rtasidagi ziddiyat zo'rayib ketdi, ba'zi joylarda isyon ko'tarildi, kontrrevolyusion fitnalar ochildi. Rostov esa qizg'in bir hayot kechirmoqda edi: kechalari Bolshaya Sadovaya ko'chasida soldat, matros, ishchilar kezib yurar edilar. Ular miting qilishar, pista chaqishar, po'chog'ini yo'lkalarning chetida oqib turgan ariqlarga tuflab tashlashar, ayollarga tegishar edilar. Ilgarigidek ishlar, ovqat yer, ichar, uxlar, o'lar, tug'ar, sevar, dushmanlashar, dengizdan esgan sho'rtak havodan nafas olar, katta-kichik ehtiroslarga berilar edilar. Rostov ustiga falokatli kunlar kelmoqda edi. Havodan erigan qora tuproq yerning va yaqinlashib kelayotgan janglarning qonli hidi kelmoqda edi.

Shunday serquyosh, ajoyib kunlarning birida Bunchuk uyiga har vaqtdagidan ertaroq keldi va Annani ko'rib hayron qoldi.

– Sen-ku hamisha kech kelarding, bugun nega erta kelding?

– Bugun tobim yo'qroq.

Anna unga ergashib hujrasiga kirdi. Bunchuk yechindi-da, xursandligidan titrab, iljayib turib:

— Anya, bugundan boshlab tribunalda ishlamayman, — dedi.

— Rostdan-a? Seni qayoqqa yuborishmoqchi?

— Revkomga. Bugun Krivoshlikov bilan gaplashdim. U meni biror okrugga yuborishga so'z berdi.

Ular kechki ovqatni birga yedilar. Bunchuk uxlagani yotdi. U hayajonlangani uchun uzoq vaqtgacha uxlayolmadi, papiros chekdi, qattiq to'shak ustida to'lg'anib, xursandligidan chuqur-chuqur nafas olardi. U, tribunaldan ketayotganiga juda xursand edi, chunki yana biroz ishlasa mazasi qochib qolishini bilardi. U to'rtinchi papirosni chekib tugatganda eshik g'ichirlab ochildi. Boshini ko'tarib qarasa, Anna ekan. U yalangoyoq, ich ko'ylakda, bo'sag'adan hatlab o'tib, asta uning karavoti yoniga keldi. Deraza qopqog'ining tirqishidan uning yalang'och yelkasiga ko'kish oy nuri tushib turardi. U engashdi-da, qaynoq kaftini lablari ustiga qo'ydi.

— Nariroq suril. Jim...

Anna Bunchukning yoniga yotdi-yu, sabrsizlik bilan sambittol novdasidek og'ir sochlarini peshonasidan olib tashladi, xumor ko'zlari chaqnab ketdi-yu, o'zini zo'rlab, dangal gapirdi.

— Bugun bo'lmasa, ertaga sendan ayrilib qolaman... Men seni jon-u tanim bilan sevishni istayman. — Anna o'zining jur'atidan qo'rqib ketib: — Tezroq bo'la qol! — dedi.

Bunchuk uni o'pdi-yu, lekin o'zining ojizligini his etib dahshatga keldi, uyalganidan yerga kirib ketgudek bo'ldi.

Bunchukning boshi qalt-qalt qilar, ikki beti lovullashib yonardi. Anna uning quchog'idan chiqib, jahl bilan itarib tashladi, nafratidan, jirkanganidan nafasi tiqilib, shipshish bilan so'radi.

— Sen... sening erlik quvvating yo'qmi? Yoki sen... kasalmisan? E-voh, qanday sharmandalik?.. Qo'lingni tort, mendan!

Bunchuk Annaning panjasini shunday qisdiki, barmoqlari sal-pal qirsillab ketdi, uning katta ochilgan adovat to'la ko'zlariga tikilib, duduqlanib, boshini qaltiratib turib so'radi:

— Nima aybim bor? Nega meni mazamat qilasan? Ha, iligim qurigan!.. Hatto shu ishga ham hozir qodir emasman... Kasal emasman... gapimga quloq sol! Men adoyi tamom bo'lganman... Oh-h...

U bo‘g‘iq ovoz chiqarib ingradi, karavotdan sakrab tushib, papiros chekdi. Kaltak yegan kishidek, anchagacha deraza yonida bukchayib turdi.

Anna o‘rnidan turdi-yu, uni quchoqlab, ona kabi peshonasidan o‘pdi.

Bir haftadan keyin Anna o‘tdek yongan yuzlarini uning qo‘llari ostiga yashirib:

— ... Men, quvvatingni sarf qilib qo‘ygansan deb o‘ylovdim... Ish iligingni quritganini bilmagan ekanman, — dedi.

Shundan keyin Bunchuk Annaning navozishini emas, balki uning to‘lib-toshgan, iliq onalik mehrini ham his etdi.

Bunchukni chetga jo‘natmadilar. Podtelkovning talabi bilan uni Rostovda qoldirdilar. Don revkomining ishi boshidan oshib yotgan payt edi. Revkom viloyat Sovetlar syezdiga va Donning narigi tomonida yana bosh ko‘targan kontrrevolyusiyaga qarshi kurashga hozirlanmoqda edi.

XXI

Soy bo‘yidagi sambittollarning orqa tomonida qurbaqalar qurullashadi. Quyosh tepa orqasiga o‘tib olgan. Setrakov xutoriga kechki salqin tushgan. Quruq yo‘l ustiga uylarning uzun egri-bugri soyalari tushib turibdi. Dashtdan yilqilar qaytib kelgan. Kazak ayollar bir-birlariga yangiliklarni gapirib berib, qo‘llaridagi chiviq bilan sigirlarini o‘tloqdan haydab kelishmoqda. Tor ko‘chalarda yalangoyoq, oftobda qoraygan kazak bolalari bir-birlarining ustlaridan sakrashib o‘ynashadi. Chollar eshik og‘zidagi supachalarda viqor bilan o‘tirishibdi.

Qishloq ekin-tikindan qutulgan, ba’zi joylardagina tariq va kungaboqar ekayotgan edilar.

Eng chekkadagi hovli oldidagi eman g‘o‘lalari ustida bir necha kazak o‘tirardi. Uy egasi, cho‘tir to‘pchi german urushida bo‘lgan bir voqeani hikoya qilar edi. Suhbatdoshlari — chol qo‘shnisi bilan kuyovi bo‘lgan yosh, qo‘ng‘iroqsoch kazak uning gapiga indamay quloq solib o‘tirishardi. Uy egasining boyar ayoliga o‘xshagan baland bo‘yli, ko‘rkam, to‘lagina xotini zinadan tushdi. Etagi yubka ichiga tiqilgan, pushtirang ko‘ylagining yengi shimarilgan, qoracha,

do‘mboq bilaklari yalang‘och edi. U chelak ko‘tarib kazak ayollariga xos erkinlik bilan oliftachasiga qadam tashlab og‘ilxonaga o‘tib ketdi. Sinkalangan oq ro‘mol bilan tang‘ilgan sochi to‘zg‘igan (u hozirgina tappi qalab, pechkani ertaga ovqat pishirishga taxt qilib qo‘ygan edi), yalangoyog‘iga ilib olgan kavshlari shaloplar, hovlida o‘sib, ko‘rpa bo‘lgan ko‘katlarni asta bosib yurardi.

G‘o‘la ustida o‘tirgan kazaklarning qulog‘iga chelakka sog‘ilgan sutning chirtillagan ovozi eshitildi. Uy bekasi sigirini sog‘ib bo‘lib, chelakni ko‘targan chap qo‘li tomonga biroz egilib, uyiga qarab qadam tashladi. Ostonadan turib, yoqimli ovoz bilan:

— Syoma, buzoqni qidirib topib kelsang-chi! — dedi.

— Mityasha qayoqda? — deb so‘radi uy egasi.

— Qaysi go‘rga ketgan, kim biladi deysan.

Eri eran-qaran o‘rnidan turdi-yu, muyulish tomonga qarab ketdi. Chol bilan kuyovi ham uylariga jo‘nay deb turganlarida, uy egasi:

— Dorofey: Gavrilich, bu yoqqa kel! — deb chaqirib qoldi.

Chol bilan kuyovi uning oldiga kelishdi. Kazak indamay qo‘li bilan dashtni ko‘rsatdi. Yo‘l ustini qoplagan qo‘ng‘ir chang-to‘zon yaqinlashib kelmoqda edi. Uning orasidan saf-saf bo‘lib kelayotgan piyoda, otliq askarlar, aravalar ko‘rindi.

Chol hayron bo‘lib, ko‘zlarini qisib qaradi-da, kaftini oppoq qoshlari ustiga qo‘yib:

— Bular askar emasmikan? — dedi.

— Bular kim bo‘ldiykin? — deb bezovtalandi uy egasi.

Uning xotini darvozadan chiqib oldilariga keldi, endi u koftasini kiyib olgan edi. Ayol dashtga qarab turdi-da, hang-mang bo‘lib:

— Voy, bular kimlar? E xudoyim, yer-u ko‘kni odam bosib ketibdi-ya! — dedi.

— Aftlaridan yaxshi odamlarga o‘xshamaydi...

Chol joyida depsinib turib, keyin o‘z uyi tomon jo‘nadi, kuyoviga:

— Bor uyingga, bu yerda pishirib qo‘yibdimi! — deb o‘shqirdi.

Bolalar va ayollar tor ko‘chaning boshiga qarab yugurishdi, kazaklar to‘p-to‘p bo‘lib uy tomonga borar edilar. Dashtda, qishloqdan bir chaqirim narida askarlar kolonnasi kelar; shamol g‘ovur-g‘uvur

tovushlar, otlarning kishnashi, g'ildiraklarning gumburlashini keltirar edi.

— Bular kazaklar emas... Biznikilarga o'xshamaydi, — dedi kazak ayol eriga.

U yelkasini qisib qo'ydi.

— Albatta, kazaklar emas. Nemislar kelayotgan bo'lmasin tag'in. Yo'q, ruslar... Qara, yalovlari qizil!.. E, bundan chiqdi ular...

Novcha atamanli kazak ularning oldiga keldi. Ko'rinishdan bezgagi tutib turganga o'xshardi: rangi somondek sap-sariq, egnida po'stin, oyog'ida piyma bor edi. U hurpaygan papog'ini sal ko'tarib.

— Ko'ryapsanmi, bayroqlarini? Bolsheviklar, — dedi.

— Ha, bolsheviklar.

Kolonnadan bir necha otliq ajralib chiqdi. Ular qishloqqa qarab ot choptirib kelaverishdi. Kazaklar bir-birlariga qarab qo'yib, indamay tarqalishdi, qizlar va bolalar chekka-chekkaga to'zib ketishdi. Besh daqiqadan keyin ko'chada hech zog' qolmadi. Otliqlar yopirilib tor ko'chaga kirishdi, otlarini niqtab, chorak soat ilgari kazaklar o'tirgan g'o'lalar oldiga kelishdi. Uy egasi bo'lgan kazak darvoza oldida qaqqayib turardi. Eng oldindagi otliq (aftidan, ularning boshlig'i bo'lsa kerak) chovkar ot mingan, kubanka kiygan, belini kamar bilan tang'igan, pistoqirang ko'ylagiga katta qizil bog'ich taqqan kishi otini darvoza oldida to'xtatib:

— Salom berdik, xo'jayin. Darvozangni och, — dedi.

To'pchining cho'tir yuzi oqarib ketdi:

— Sizlar kim bo'lasizlar?

— Darvozani ochsang-chi! — deb baqirdi kubanka kiygan askar.

Chovkar ot, betoqatlik bilan ko'zlarini chaqnatib, ko'pirib ketgan og'zidagi so'lig'ini chaynab, oldingi oyog'i bilan chetan devorni tepa boshladi. Kazak darvozani ochdi, otliqlar birin-ketin qo'raga kirdilar.

Kubanka kiygan otliq epchillik bilan egardan tushdi, ot minaverib qiyshayib qolgan oyoqlari bilan katta-katta qadam tashlab zinapoya tomon yurdi. Qolgan otliqlar egardan tushgunlaricha zina bosqichiga o'tirib, portsigarini chiqardi. Papirosini tutatayotib, uy egasiga chekishni taklif etdi. Kazak chekishdan bosh tortdi.

— Cheksang-chi!

— Rahmat.

— Bu yerdagilar eski mazhabdami?

— Yo'q, pravoslav dinida... O'zingiz kim bo'lasiz? — deb so'radi kazak qovog'ini solib.

— Bizmi? Ikkinchi sotsialistik armiyaning qizil gvardiyachilari.

Qolganlar ham otdan tushgandan keyin otlarini yetaklab zinapoya oldiga kelishdi. Ulardan biri — sochi otning yolidek paxmayib ketgan daroz askar qo'yxonaga qarab yurdi. U go'yo shu uyning egasidek, qo'yxonaning eshigini ochdi, boshini engashtirib to'siq tagidan ichkari kirdi-da, quyrug'i katta do'nan qo'chqorni shoxidan sudrab olib chiqdi.

— Petrichenko, bu yoqqa kel, qarashvor! — deb qichqirdi u keskin tovush bilan.

Kalta avstriycha shinel kiygan kichkinagina askar yugurib keldi. Uy egasi bo'lgan kazak, go'yo birovning qo'rasiga kirib qolgan kishidek, soqolini silab turar edi. U g'iring demadi. Faqat qilich bilan bo'g'izlangan qo'chqor ingichka oyoqlarini pitirlayotganda tomog'ini qirib qo'yib, zinapoya tomon yurdi.

Kubanka kiygan askar bilan yana ikki kishi: biri — xitoy, boshqasi kamchatkalikka o'xshagan askar kazak orqasidan ergashib uy ichiga kirishdi.

— Xo'jayin, xafa bo'lma, — dedi kubanlik ostonadan hatlab o'tarkan tagdor qilib, — biz oshig'i bilan to'laymiz.

U shimining cho'ntagiga urib, qiqirlab kulib qo'ydi, keyin birdan kulgidan to'xtab, uy egasining xotiniga tikilib qoldi. Ayol tishini tishiga qo'yib, pechka yonida turar, unga jovdirab qarardi.

Kubanlik xitoyga o'girilib, olazarak bo'lib:

— Sen, xo'jayin bilan (u barmog'i bilan uy egasini ko'rsatdi) birpasga chiqib tur, — dedi, — u bilan birga chiq, otlarga beda beradi... Bor, beda ber. Eshityapsanmi? Biz ortig'i bilan to'laymiz! Qizil gvardiya talonchilik qilmaydi. Bor, kazak, tezroq bo'l! — Kubanlikning ovozida tahdid ohangi eshitildi.

Kazak xitoy bilan yana bitta askarning oldiga tushib, orqasiga bir qarab qo'ydi-da, uydan chiqib ketdi, lekin zinadan tushishi bilan xotinining yig'lagan tovushini eshitdi. Orqasiga qaytib, yugurganicha dahlizga kirib, eshikni qattiq tortdi. Kichkina ilgakning zulfini

chiqib ketdi. Kubanlik to‘lagina ayolning yalang‘och bilagidan ushlab, nimqorong‘i dahlizga sudramoqda edi. Ayol tixirlik qilib, uning ko‘kragidan itarardi. Kubanlik uning belidan quchoqlab, dast ko‘tarib dahlizga olib kirib ketmoqchi bo‘lib turganda, eshik taraqlab ochilib ketdi. Kazak katta-katta qadam tashlab borib, xotinining oldini to‘sdi. U past yelimshiq ovoz bilan dedi:

— Sen uyimga mehmon bo‘lib kelding... nega endi xotinimni xafa qilasan? Bu nima qiliq? Qoch! Qurol-yarog‘ingdan qo‘rqadigan odam yo‘q! Olganingcha ol, tala, lekiniga birovning xotiniga shilqimlik qilma! O‘ligimning ustidan hatlab, bu ishni... Nyurka, sen ham... — u burun kataklarini kerib, xotiniga o‘girildi: — Chiq bu yerdan, Dorofey tog‘aning uyiga bor. Bu yerda qiladigan ishing yo‘q.

Kubanlik ko‘ylak ustidan bog‘lagan kamarini to‘g‘rilab, og‘zini qiyshaytirib qo‘ydi:

— Voybo‘y, judayam serjahl ekansan-u, xo‘jayin... hazillashib ham bo‘lmas ekan-da... Mening hazilkashligimni rotadagilarning hammasi biladi. Men bu ishni jo‘rttalikka qildim. Kel, bu ayolni bir sinab ko‘ray dedim, u bo‘lsa chivin tegmay chirillaydi... Sen otlarga beda berdingmi? Beda yo‘qmi? Qo‘shnilarda-chi?

U hushtak chalib, qamchisini o‘ynatib, uydan chiqdi. Ko‘p o‘tmay, butun otryad qishloqqa yetib keldi. Otryadda sakkizta otliq va piyoda askar bor edi. Qizil gvardiyachilar tunash uchun qishloqdan nariroqda manzil qurdilar. Otryad komandiri turli xalqlardan tashkil topgan bebosh askarlariga ishonmaganidan, qishloqda tunashni istamadi.

Gaydamaklar va Ukrainani oyoqosti qilgan nemislar bilan bo‘lgan urushda shikast yegan ikkinchi sotsialistik armiyaning Tiraspol otryadi jang bilan dushman halqasini yorib o‘tib, Donga yetib keldi. Ular Sheptuxovka stansiyasida vagonlardan tushdi. Lekin oldinda nemislar bo‘lgani uchun, shimolga, Voronej guberniyasiga yetib olish maqsadida, saf tortib Migulin stanitsasiga qarashli qishloqlardan bosib o‘tdi. Otryadga kirib olgan bir talay jinoyatchi unsurlarning ta’siri ostida axloqlari buzilgan qizil gvardiyachilar yo‘lda o‘zboshimchalik qilib keldi. 17-aprelga o‘tar kechasi Setrakov qishlog‘i yaqinida tunash uchun manzil qurgan soldatlar, komandirlar sostavining tahdidi va man qilishiga qaramay, to‘p-to‘p bo‘lib, qish-

loqqa kelib, qo'ylarni bo'g'izlay boshlashdi, qishloq chekkasida ikki kazak ayolini zo'rlashdi, maydonda bekordan bekorga miltiq otishib, o'z odamlaridan birini yarador qilishdi. Kechasi qorovulga qo'yilgan soldatlarning hammasi ichkilik ichib mast bo'lib qoldi (har bir aravada spirt topilar edi). Shu payt xutordan atrofdagi qishloqlarga yuborilgan uch otliq kazak hammani oyoqqa turg'izdi.

Kazaklar tun qorong'isida otlarini egarlab, qurollanib olishdi-da, frontchilar va chollardan otryadlar tuzishdi va qishloqlarda yashagan ofitserlar yoinki vaxmistrlar boshchiligida Setrakovga yig'ilishdi, qizil gvardiyachilar otryadini o'rab olib jarliklarda, do'nglar orqasida biqinib yotishdi. Migulindan, Kolodezniydan, Bogomolovdan kechasi yarim-yorti sotnyalar yetib kela boshladi. Verxnechirliklar, napolovliklar, kalinovliklar, yeyliklar, kolodzyanliklar oyoqlandi.

Osmonda Hulkar yulduzining nuri o'chdi. Tong yorisha boshlagach, kazaklar suron ko'tarib, har tarafdan qizil gvardiyachilar ustiga ot soldilar. Pulemyot tarillay boshladi, lekin darrov ovozi o'chdi, pala-partish otilgan o'qlarnnng ovozi ham tindi, qilichlarning vizillagan ovozigina eshitilardi.

Bir soatdan keyin ish tamom bo'ldi: otryad butunlay tor-mor qilindi, ikki yuzdan oshiqroq odam qilichdan o'tkazildi, otib o'ldirildi, besh yuztachasi asir olindi. To'rt to'pdan iborat ikki batareya, yigirma olti pulemyot, mingta miltiq bir talay anjom va aslaha kazaklar qo'liga tushdi.

Ertasiga butun okrug bo'ylab katta tosh yo'llar va so'qmoqlarda qizil bayroqchalarini hilpiratib xabarchilar ot choptirib yurar edilar. Stanitsalar va qishloqlar ari inidek g'uvullar edi. Mahalliy Sovetlarni yiqitib, darhol atamanlar saylashardi. Kazansk va Vyoshenskaya stanitsalarining sotnyalari Migulinga kechikib kelishdi.

Aprelning yigirmalarida Dokets okrugining yuqori qismidagi stanitsalar ajralib chiqdi. Ular o'z okruglarini tuzib, unga yuqori Don okrugi deb nom berishdi. Viloyatda aholisining soni, o'ziga qarashli bo'lgan qishloqlarning ko'pligi jihatidan Mixaylovskdan keyin ikkinchi o'rinda turgan Vyoshenskaya okrug markazi qilib belgilandi. Ko'p o'tmay, avvalgi qishloqlar stanitsalarga aylantirildi. Shumilin, Kargin, Bokov stanitsalari paydo bo'ldi. Yigirma stanitsa va bitta ukrain volostini o'ziga qaratib olgan Yuqori Don okrugi markaz-

dan ajralib, mustaqil bo‘lib oldi. Yuqori Don okrugi tarkibiga sobiq Donets okrugining quyidagi stanitsalari: Kazansk, Migulin, Shumilin, Vyoshenskaya, Yelan, Kargin, Bokov, Ponomaryov volosti; sobiq Ust-Medveditsa okrugidan: Ust-Xopyor, Krasnokutsk, Xopyor okrugidan: Bukanovsk, Slashchevsk, Fedoseyev stanitsalari kirdi. Yelan stanitsasining kazagi, harbiy akademiyani bitirgan general Zaxar Akimovich Alferov bir og‘izdan okrug atamani qilib saylandi. Alferov to‘g‘risida shunday gaplar yurardi; hech narsasi qolmagan bu kazak ofitseri serg‘ayrat va aqlli xotinining harakati bilan odam qatoriga kirgan; bu iste’dodsiz ofitser uch marta imtihondan yiqilibdi, to‘rtinchi imtihondan arang o‘tib, akademiyaga kirgandan keyingina, xotini uni tinch qo‘yibdi.

Lekin bu kunlarda Alferov orqasidan ko‘p gapirishmas edi. Odamlarning miyasi boshqa narsalar bilan band edi.

XXII

Toshqin suvlar kamaya boshladi. Poliz chetanlari yonidagi o‘tloqzorda soz tuproqli qo‘ng‘ir yerlar yalang‘ochlanib qoldi. Suv bilan oqib kelgan xas-cho‘p, quruq qamishlar, shox-shabbalar, qo‘g‘alar, bulturgi xazonlar toshqin joylar chetiga tasmaday tizilib qolgan. Daryo bo‘yidagi tolzor suv ichida qolib, tollarning uchi ko‘karib ko‘rinar, popuklari suvga osilib turardi. Teraklar kurtak chiqara boshlagan, qishloqdagi qo‘ralar atrofida toshqin ichida qolgan qizil tollarning novdalari suvga engashgan. O‘rdak jo‘jalariga o‘xshagan sap-sariq momiq kuchalalar shamolda chayqalib, suv betida suzib yurardi.

Yovvoyi g‘ozlar, o‘rdak galalari tong g‘ira-shirasida ovqat izlab, polizlarga suzib kelardi. Daryoning adog‘idagi chakalakzorda sahar paytida o‘rdaklar g‘ag‘alashib yurardi. Kunduzlari, tush paytida ham, shamolda to‘lqinlangan Don ustida ola-bula churraklar chayqalib suzib yurardi.

O‘sha yili qushlar juda ko‘p uchib kelgan edi. Baliqchi kazaklar qayiqlarda to‘rlar yoniga yo‘l olishar ekan, tong payti, oftob qizarib chiqib suvda aks etgan mahalda, suv bosgan chakalakzor ichida yashirinib dam olayotgan oqqushlarni bir necha marta ko‘rganlar. Ammo Xristonya bilan Matvey Kashulin bobo qishloqqa keltirgan

yangilik hammadan ham ajibroq edi. Ular imoratbop yog'och kesib kelish uchun xazinaga qarashli o'rmonzorga borgan ekanlar. O'rmon ichiga kirayotganda chakalakzor ichida yotgan bolali yovvoyi echkini hurkitib yuboribdilar. To'ng'iztaroq va tikanaklar o'sgan chakalakzor ichidan sarg'ish-qo'ng'ir, oriq echki chopib chiqibdi-da, balandlikda turib, daraxt kesuvchilarga bir necha soniya qarab qolibdi, keyin ingichka, chiroyli oyoqlari bilan depsinib turibdi, bolasi pinjiga suqilib turgan ekan. Xristonyaning hayrat ichida «uh!» deganini eshitishi bilanoq, urasolib chakalakzor ichiga kirib ketibdi, kazaklar kumushsimon tuyog'ini-yu, kaltagina sarg'ish dumini ko'rib qolishibdi. Matvey Kashulin boltani qo'lidan tushirib yuborib:

— Qanaqa jonivor ekan bu? — deb so'rabdi. Birdan zavqlanib ketgan Xristonya sehrlanganday sukut ichida turgan o'rmonning tinchligini buzib:

— Echki bo'lsa kerak! Yovvoyi echki! Voy qurmag'ur-e! Bizlar bunaqasini Karpat tog'larida ko'rgan edik, — dedi.

— Bundan chiqdi bu jonivorni biz tomonlarga urush haydab keptida.

Xristonyaning bu gapga qo'shilmay iloji yo'q edi.

— Shundoq. Ko'rdingmi, bobo, echkini? Voy, harom qotgur-e! Qurg'ur biram yaxshiki! Yoshgina-ya!

Ular qaytishda Don viloyatida ko'rilmagan jonivor to'g'risida gaplashib keldilar.

Matvey bobo keyin shubhalanib:

— Echki bo'lmasa-chi? — dedi.

— Echki, xudo ursin, echki! Bo'lak narsamas.

— Balki... basharti echki bo'lsa, nega shoxi yo'q.

— Shoxini boshingga urasanmi?

— To'g'riku-ya. Agar u echki naslidan bo'lsa... nega asliga tortmagan deyappan-da. Shoxsiz echki ko'rganing bormi? Ha. Balki yovvoyi qo'ydir?..

— Matvey bobo, esingni yeb qo'yganga o'xshaysan — deb o'pkaladi Xristonya. — Ishonmasang, Melexovnikiga borib ko'rgin. O'g'li Grishkaning qamchi dastasi echki oyog'idan qilingan. Ishonasanmi, yo'qmi?

O‘sha kuni Matvey bobo Melexovlarnikiga bordi. Rostdan ham, Grigoriyning qamchi dastasiga yovvoyi echkining oyoq terisi qoplama qilinibdi. Hatto dastaning uchida kichkina tuyoqchasi ham bor. Tuyoqchaga juda ustalik bilan chiroyli mis taqa ham qoqilibdi.

Ro‘zaning oltinchi haftasida chorshanba kuni Mishka Koshevoy o‘rmon yoqasida suvga tashlangan to‘rni tekshirish uchun barvaqt bordi. Uydan tongotarda chiqqan edi. Tong sovug‘ida yerlar muzlab, loylar qotib qolgan edi. Kalta paxtalik nimcha, choriq, oq paypog‘i ichiga pochasi tiqilgan chalvar kiygan Mishka furajkasini gardaniga surib qo‘ygan, rutubatli suv hidi anqigan muzdek havodan nafas olib, yelkasiga uzun eshkak qo‘yib ketmoqda. U katta qayiqni yechdi-da, eshkakni qattiq eshib, tik turgan holda suzib ketdi.

Suvga tashlab qo‘ygan to‘rlarini nari-beri tekshirib, eng chetdagisidan bitta baliqni oldi-yu, to‘rni yana to‘g‘rilab, tuzatib suvga tashladi. Sal nariroq borib, chekmoqchi bo‘ldi. Kun yorishib kelayotgan edi, kunchiqarda bo‘zargan osmon etagiga go‘yo qon sachragandek edi. Qon ufqqa singishib, zarrin tus olgan edi. Mishka sekin parvoz qilib ketayotgan o‘rdakning uchishini tomosha qilib, tamaki chekdi. Pag‘a-pag‘a tutunlar butalar orasiga kirib ketar edi. To‘rga tushgan uchta tangabaliqqa, sakkiz qadoq keladigan zog‘orabaliq, bir to‘da oqbaliqqa qarab, o‘ylanib qoldi:

«Bir qismini sotsa ham bo‘ladi. Lukeshka g‘ilay oladi. Nok qoqiga alishaman. Hammasini onam pishirib ulgurolmas».

Papirosini chekib, pristanga qarab suzib ketdi. Qayiq bog‘laydigan poliz chetani yonida bir odam o‘tirardi. Mishka abjirlik bilan eshkak eshib qayiqni haydar ekan: «Kim bo‘ldiykin bu?» deb o‘yladi.

Chetan devor yonida cho‘nqayib Valet o‘tirardi. U gazeta qog‘oziga katta qilib o‘ralgan tamaki chekardi. Sichqonnikiga o‘xshagan mitti ko‘zlari uyqusiragan, soqoli tikanakdek o‘sgan edi.

— Nima qilib o‘tiribsan?! — deb baqirdi Mishka. Uning ovozi suv ustida yangrab eshitildi.

— Bu yoqqa kel-chi.

— Baliqqa keldingmi?

— Boshimga uramanmi baliqni?

Valet qattiq yo‘talib, balg‘am tupurdi-da, istar-istamas o‘rnidan turdi. Qo‘rg‘ichga kiyintirgan chopondek katta uzun shinel ustida

osilib turar edi. Furajkasining salqi ayvoni qulog'ining kemirchagini berkitib turardi. U qishloqqa yaqindagina kelgan, qizil gvardiyachi deb yomon nom chiqargan edi.

Kazaklar undan, armiyadan bo'shagandan keyin qayerda bo'lding, deb so'rashgan, ammo Valet dudmol javob qilgan, o'zi uchun xatarli bo'lgan gapni boshqa yoqqa burgan edi. Ivan Alekseyevich bilan Mishka Koshevoyga to'rt oy Ukrainadagi qizil gvardiyachi otryadda bo'ldim, gaydamaklarga asir tushdim, undan qochib Sivers otryadiga qo'shildim, u bilan Rostov atrofida javlon urdim, keyin o'zimga o'zim ta'til berib, jo'nab qoldim, degan edi.

Valet boshidan furajkasini yechib, tikandek sochlarini siladi. Alanglab, qayiq oldiga yaqinlashdi-da, xirillab:

— Ishlar chatoq... chatoq... Baliq ovlashni yig'ishtir. Baliq bilan ovora bo'lib, hamma narsani boy berib qo'yamiz, — dedi.

— Nima yangiliklar bor, ayt!

Mishka uning qoqsuyak qo'lini baliq hidi urib qolgan qo'li bilan ushlab ko'rishdi-da, iljaydi. Ikkisi qadrdon do'st edi.

— Migulin yonida kecha qizil gvardiyani tor-mor qildilar. Raso olish-tutish bo'ldi, og'ayni. Qirg'in bo'ldi.

— Qaysinisini? Nega Migulinda?

— Stanitsadan o'tib ketishayotgandi, kazaklar savalab qolishdi... Bir talay asirlarni Karginga haydab ketishdi! U yerda harbiy-dala sudi patillatib hukm chiqarib turibdi. Hozir mobilizatsiya. Qarab tur, ertaga ertalab jom chalib qolishadi.

Koshevoy qayiqni bog'lab, baliqlarni to'rvasiga soldi-da, eshkakni hassa qilib, katta-katta qadam tashlab ketdi. Valet esa uning yonida mayda qadam tashlab borar, goh oldinga o'tar, shinelining etaklarini yig'ishtirib olib, qo'lini qattiq silkitib ketardi.

— Menga buni Ivan Alekseyevich aytdi. U shu topdagina mendan navbatchilikni oldi. Tegirmon butun kechasi bilan gupullab ishlab chiqdi, g'alla to'lib yotibdi. Ivan Alekseyevich uning o'zidan eshitibdi. Sergey Platonovichning oldiga Vyoshenskayadan allaqanday bir ofitser ot choptirib kepti.

— Endi nima bo'ladi? — Urush yillarida balog'atga yetib, silliqlashgan Mishkaning yuzida sarosimalik paydo bo'ldi. U Valetga ko'z qirini tashlab: — Endi nima bo'ladi? — deb so'radi yana.

— Qishloqdan ketish kerak.

— Qayoqqa?

— Kamenskka.

— U yerda ham kazaklar bor-da.

— Chaproqqa.

— Qayoqqa?

— Obliviga.

— Qanday o'tsa bo'ladi?

— Astoydil xohlasang — o'tasan. Bo'lmasa, qolaver. Battar bo'l! — deb po'ng'illadi Valet, — «Qayoqqa, qayoqqa» deydi. Men qayoqdan bilay? Iskanjaga olsa, sichqonning uyini ijaraga olasan.

— Sen ko'pam qizishma. Qizishgan kishi nima bo'lishini bilasanmi? Ivan nima deydi?

— Sening Ivaningni qo'zg'atguncha...

— Ko'p shang'illama. Huv anavi xotinni ko'ryapsanmi, qarab turibdi.

Ular xavotirlanib. Avdeich Lofchining og'ildan mol haydab chiqayotgan yoshgina keliniga qarashdi. Birinchi muyulishga yetganda Mishka orqaga qaytdi.

— Qayoqqa? — deb hayron bo'lib so'radi Valet.

Koshevoy orqasiga qaramay:

— To'rlarni olib kelaman, — dedi.

— Nega?

— Bekorga qolib ketmasin.

— Demak ketamiz, — dedi suyunib Valet.

Mishka eshkakni silkib, uzoqdan:

— Sen Ivan Alekseyevichnikiga bor. Men to'rlarni uyga eltib tashlab, darrov kelaman, — dedi.

Ivan Alekseyevich o'ziga yaqin kazaklarni xabardor qilib qo'ygan edi. Uning o'g'li Melexovlarnikiga borib, Grigoriyni boshlab keldi. Xristonya esa bir falokatni sezganday o'zi yetib keldi. Ko'p o'tmay Koshevoy ham keldi. Maslahat boshlandi. Hammalari shoshib, baravariga gapirishar, daqiqa sayin jom chalinishini kutishardi.

— Hoziroq jo'nab qolish kerak! Shu bugunoq juftakni to'g'rilash kerak, — dedi Valet hayajonlanib.

— Sen sababini ayt. Nega ketishimiz kerak? — deb so‘radi Xristonya.

— Negamish-a! Mobilizatsiya boshlanadi. Hayallasang, ilinasan.

— Bormayman-qo‘yaman-da.

— Sudrab oborishadi.

— Oborib bo‘pti. Men buzoqmidimki sudrasalar. Ivan Alekseyevich g‘ilay xotinini uydan chiqarib yuborib, zarda bilan gapirdi:

— Olishga oladi. Valet rost aytyapti. Qayoqqa ketsak ekan? Hamma gap shunda.

— Men unga buni aytuvdim, — deb xo‘rsindi Mishka Koshevoy.

— Hammang menga zaril kepsanmi? O‘zim yolg‘iz ketaveraman. «Qanaqa? Nima uchun? Nimaga?» deb surishtiraveradiganlar kerak emas. Hammangning adabingni berishadi, bolshevizmda ayblab turmaga tiqib qo‘yishadi. Hazil qilyapsanlarmi? Zamon qanaqaligini ko‘rib turibsanlar-ku. Bu yerda hamma narsaning rasvosi chiqadi.

Devordan sug‘urib olgan zangli mixni qo‘lida aylantirib turgan Grigoriy Melexov zarda bilan Valetning gapini bo‘ldi.

— Sen ko‘p vajirlay berma! Sening yo‘rig‘ing boshqa. Hech og‘irliging yo‘q, jo‘naysan-ketaverasan. Biz esa xo‘p o‘ylashimiz kerak. Meni xotinim, ikki bolam bor. Men sendan bitta ko‘ylakni oshiq yirtganman. — Grigoriy o‘qraygan qora ko‘zlarini yaltiratib, zich tishlarini irjaytirib o‘shqirdi: — Sen vaqillayverasan. Valetligingcha qolgansan. Ustingdagi kamzulchangdan bo‘lak hech narsang yo‘q.

— Nega og‘zingni karrakdek ochasan? Ofitserligingni ko‘rsatmoqchi bo‘lasanmi? Baqiraverma. Tuf sendaqalarga! — deb qichqirdi Valet. Kirpinikidek ingichka yuzi g‘azabdan oqarib ketdi, birbiriga yaqin qahrli ko‘zlari olazarak bo‘ldi. Hatto ko‘kish soqoli ham qimirlab ketdi.

Ivan Alekseyevichning qizil gvardiyachilar otryadi okrugga kirgani haqidagi gapini eshitib hayajonlangan, tinchligi buzilgani uchun jahli chiqqan Grigoriy alamini Valetdan oldi. Valetning qichqirib gapirgani uning jahlini chiqarib yubordi. Bir yerini urib mayib qilib olgan odamday irg‘ib o‘rnidan turdi va taburetka ustida qimirlab o‘tirgan Valetning ustiga bostirib keldi-da, musht solishni istab, qichishib turgan qo‘lini arang to‘xtatib, dedi:

— Ovozingni o'chir, gazanda, iflos kal! Tagi past! Buyruq berishni senga kim qo'yibdi? Ketadigan bo'lsang, ketaver, seni hech kim... ushlab turgani yo'q! Bor, yo'qol, qorang o'chsin! Og'zingni ochma, bo'lmasa, ketmasingdan burun yerga jo qilib qo'yaman...

— Qo'y, Grigoriy! Yaxshi emas! — dedi Koshevoy Valetning jiyirilgan burni tagidan Grigoriyning mushtumini chetlatib.

— Kazakcha qiliqlaringni tark et! Ayb emasmi?.. Uyat! Melexov! Uyat!

Valet o'rnidan turdi; arazlagandek yo'talib, eshik trmon yurdi. Ostona oldiga yetgaida o'zini tutib turolmay, qayrilib qaradi-da, zaharxanda qilib turgan Grigoriyni uzib oldi:

— Tag'in Qizil gvardiyada bo'lgan emish... Sen jandarmsan!.. Biz sendaqalarning tomirini quritganmiz!

Grigoriy ham chidab turolmadi, sapchib turib, Valetni dahlizga itarib chiqardi, uning mayishgan etigining dastagiga tepib, o'dag'ayladi:

— Bor, yo'qol! Adabingni beraman!

— Yarashmagan qiliq! Xuddi bolalarga o'xshaysiz-a!

Ivan Alekseyevich ma'qullamagandek bosh chayqadi, noxushlanib Grigoriyga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

Mishka churq etmay, lablarini tishlab o'tirar, aftidan, yomon bir so'zni aytishdan o'zini tiyib tu-rar edi.

— Nega u o'ziga aloqasi bo'lmagan ishga aralashadi? Nega buncha kekirdagini cho'zadi, — deb Grigoriy uyalmay-netmay o'zini oqladi. Xristonya uning tarafini olgandek qarab qo'ydi. Buni ko'rib, Grigoriyning og'zi qulog'iga yetdi, boladek kulib qo'ydi. — Oz bo'lmasa, uni do'pposlardim!.. Nima joni bor, bir ursam... chiqib ketadi.

— Xo'sh, nima deysizlar? Bir chora ko'rish kerak-ku, axir.

Ivan Alekseyevich bu savolni bergan Mishka Koshevoyning diqqat bilan tikilib qarab turganini ko'rib, xunob bo'ldi-da:

— Nima ham qilardik, Mixail?.. Grigoriy qisman haqli: hozirlanmay yo'lga chiqib bo'larmidi? Oilamiz bor. Sen shoshma, — dedi u Mishkaning sabrsizlanib qimirlab qo'yganini ko'rib. — Balki hech narsa bo'lmas... Qayoqdan bilamiz? Setrakov yonida otryadni tormor qilishibdi, boshqalari burunlarini suqmas... Biz biroz sabr qilib

turamiz. Keyin bir gap bo‘lar. O‘rni kelganda shuni aytib o‘tayki, mening xotinim, bolalarim bor, kiyim-kechagi yirtilib sob bo‘lgan, uyda un yo‘q... qanday qilib, darrov ketib bo‘ladi? Ular yonida kim qoladi?

Mishkaning joni chiqib, qoshlarini chimirib, ko‘zini yerga tikdi.

— Ketginglar yo‘qmi?

— Mening fikrimcha, biroz kutib turish kerak. Ketish hech mahal qochmaydi... Siz nima deysiz, Grigoriy Panteleyev, sen-chi, Xristan?

— Bundan chiqdi... kutib turamiz.

Kutilmaganda Ivan Alekseyevich bilan Xristonya fikrini ma’-qullaganini ko‘rib Grigoriy jonlanib ketdi:

— Menam shuni aytyappan-da. Shuning uchun ham Valet bilan so‘kishib qoldim. Axir, yo‘lga chiqish — o‘tin yorish emas. Bo‘yoqchining nilimi bu?.. O‘ylash... o‘ylash kerak, deyapman-da.

Cherkov jomxonasidan qo‘ng‘iroqning darang-darangi eshitildi, bu tovush hamma yoqni — maydonni, ko‘chalar, tor ko‘chalarni to‘ldirdi; toshqin suvlar ustida, bo‘r tog‘ning qurimagan etaklari ustida yangrab, o‘rmonga singib ketganday bo‘ldi. Qo‘ng‘iroq yana chalina boshladi, bu safar to‘xtamasdan, hammani tashvishga solib daranglayverdi!

— Ana, chorlashyapti! — deb Xristonya ko‘zlarini pirpiratdi. — Hozir qayiqqa o‘tirib, bu yoqqa, to‘qayzorga urib ketaman. Dumimni tutqizib bo‘pman!

— Xo‘sh, nima qilamiz? — deb Koshevoy chollardek arang o‘rnidan turdi.

— Hozir hech qayohqa ketmaymiz, — deb javob qildi Grigoriy hamma uchun.

Koshevoy yana qoshlarini chimirib, peshonasiga tushgan qo‘ng‘iroq malla sochini qo‘li bilan orqasiga taradi.

— Yaxshi qolinglar... Aftidan, yo‘limiz ayrilib ketadiganga o‘xshaydi.

Ivan Alekseyevich iltifot bilan kulib qo‘ydi.

— Sen, Mishatka, hali yoshsan, g‘o‘rsan... Po‘llarimiz birlashmaydi deb o‘ylaysanmi? Bir-la-shadi! Ko‘nglingni to‘q qil!

Koshevoy xayrlashib chiqib ketdi. Qo‘radan o‘tib, qo‘shni omborxonaga kirdi. Valet ariq ichida o‘tirardi. U Mishkaning shu yer-

ga kelishini avvaldan bilgandek edi; Mishka kelishi bilan o'rnidan turib:

— Xo'sh, nima bo'ldi? — deb so'radi.

— Ketmaymiz, dedilar.

— Men buni avvaldan bilardim. Mazalari yo'q... Grishka, sening og'ayning, mazasi yo'q uning! U o'zining qoniga tashna odam. It-vachcha, meni yomon xafa qildi-da! Zo'rman deb kerilaveradi! Vint kesadigan asbobim qo'limda bo'lganda, urib o'ldirardim, — dedi u g'ijinib.

Mishka uning yonida ketayotib, tikandek soqoliga qaradi-da: «Rostdan ham o'ldirib qo'yishi mumkin edi» deb o'yladi.

Ular tez-tez yurib ketdilar. Qo'ng'iroqning har dang'illashi to'qmoq bilan urgandek bo'lardi.

— Yur biznikiga, ovqat-povqat olamiz-da, keyin jo'naymiz! Piyoda ketamiz, otni tashlab ketaman. Sen hech narsa olmaysanmi?

— Olib ketadigan narsam yo'q, — deb javob qildi Valet. — Na uyim bor, na yer-mulkim. Yarim oylik moyanamniyam olganim yo'q. Mayli, bizning qorinboy Sergey Platonovich boyisin. Hisob-kitob qilmay ketganimni bilsa, xursand bo'ladi.

Qo'ng'iroq ovozi tindi. Subhidamning orombaxsh sukunatini hech narsa buzmas edi. Yo'l ustidagi kulni tovuqlar titkilar, chetan devorlar yonida ko'kat yeb qorni shishgan buzoqlar yurardi. Mishka orqasiga qayrilib qaradi: kazaklar qishloq maydoniga shoshib-pishib ketmoqda edilar. Ba'zilari hovlilaridan chiqib, yo'l-yo'lakay kurtka va mundirlarining tugmasini solar edilar. Maydon sahnida bir otliq kishi otini gijinglatib yurardi. Maktab yonida tumonat odam to'plangan, ayollarning ro'mollari bilan yubkalari oqarib ko'rinar, kazaklarning qora kiyimlari ko'zga chalinardi.

Bo'sh chelak ko'tarib ketayotgan ayol yo'lni kesib o'tishni istamay to'xtab qoldi va jahl qilib:

— Yursalaring-chi, axir, men yo'lni kesib o'taman, — dedi.

Mishka u bilan so'rashdi. Ayol endi qoshlari ostidagi ko'zlari bilan kulib, so'radi:

— Kazaklar maydonga ketyapti, sizlar qayoqqa? Nega maydonga bormaysan, Mixayla?

— Uyda ishim bor edi.

Tor ko‘cha og‘ziga keldilar. Mishkaning tomi, qurigan olcha shoxiga bog‘lab qo‘yilgan, chayqalib turgan mayna uyasi ko‘rindi. Tepa ustidagi yeltegirmon parragi zo‘r-bazo‘r aylanar, parragiga sirilgan matoning shamolda yirtilgan bir parchasi hilpillar, qirrali tomning ko‘chgan tunukasi darang-durung qilardi.

Oftob xira bo‘lsa ham issiq nur sochar edi. Dondan shabada esib turardi. Barvasta, eski mazhabga e’tiqod qiluvchi, bir vaqtlar gvardiya batareyasida xizmat qilgan chol Arxip Bogatiryovning muyulishdagi hovlisida ayollar katta uyning devorini suvab, oqlab pasxaga tayyorlanardilar. Ayollardan biri loy bilan go‘ngni aralashtirib pishitardi. U yubkasini baland ko‘tarib, paypoq bog‘ichining qip-qizil izi tushib qolgan boldiri oppoq, yo‘g‘on oyog‘ini zo‘rg‘a ko‘tarib, loyni aylanasiga tepib yurardi. Ayol yubkasini barmog‘ining uchi bilan ko‘tarib yurar, matodan qilingan bog‘ichi tizzasidan yuqorida, sonini qattiq qisib turardi.

Bu satang ayol, oftob hali uncha ko‘tarilmagan bo‘lsa ham, ro‘molini yuziga tushirib olgan edi. Arxipning kelinlari bo‘lgan ikki yosh ayol narvondan chiqib, usti qamish bilan chiroyli qilib yopilgan tomning bo‘g‘oti ostini oqlayotgan edilar. Tirsaklarigacha shimarilgan qo‘llaridagi chipta cho‘tka u yoq-bu yoqqa borib kelib turardi, ko‘zlarigacha berkitib olgan yuzlariga ohak sachrardi. Ayollar baravariga ashula aytar edilar. Arxipning katta kelini, Mishka Koshevoy bilan ro‘y-rost yuradigan beva Marya, yuzi sepkilli bo‘lsa ham kelishgan juvon edi. Bu ayol butun qishloqqa dong‘i ketgan erkaklarnikidek past va yoqimli ovozi bilan ashula boshladi:

Azob chekmas hech kim mendek...

Boshqalari unga qo‘shilib, bu sodda, mungli ayollar ashulasini uch ovoz bilan ayta boshladilar:

Urushda aziz yorim
To‘pni o‘zi o‘qlaydi.
Doim meni yo‘qlaydi.

Mishka bilan Valet chetan devor yonida ketayotib bu ashulaga astoydil quloq solar, o‘tloqdagi otlar kishnab ashulani bo‘lib turar edi.

Bir kun menga xat keldi,
«Yoring jangda o'ldi» deb.
Vafodoring o'ligi
«Tol tagida qoldi» deb.

Ro'moli ostidagi quralay ko'zlari chaqnab turgan Marya alanglab, ko'chadan o'tib ketayotgan Mishkani ko'rgach, kulib qo'ydi, sepkilli yuzi yorishib ketdi-yu, past xushovozi bilan ashulani boshlab yubordi.

Uning malla sochini
Tong shamoli taraydi.
Quralay ko'zlarini
Qarg'a cho'qib talaydi.

Ayollar bilan xushmuomala bo'lgan Mishka unga qarab kulib qo'ydi; loy qorib turgan uy egasining qizi Pelageyaga:

— Yubkangni balandroq ko'tarsang-chi, devordan ko'rinmayapti, — dedi.

Qiz ko'zlarini suzib:

— Astoydil xohlasang — ko'rasan, — deb qo'ydi.

Marya mushtini beliga tirab, narvon ustida turardi; atrofga alanglab qarab qo'yib, cho'zib so'radi:

— Qayoqqa boruvding, o'rgilay?

— Baliq ovlagani.

— Uzoqqa ketma, yur omborga, ishrat qilaylik.

— Qaynatang shu yerda-ya, uyatsiz!

Marya tilini taqillatib qo'ydi, ho'l cho'tkani Mishkaga qarab silkitdi-yu, hoholab kulib yubordi. Ohak tomchilari Mishkaning kurtkasi va furajkasiga sachradi.

Kichik kelin sadafdek tishlarining oqini ko'rsatib kulib turib:

— Valetni oldimizga yubor, uyni suvashga yordamlashsin, — deb qichqirdi.

Marya bir narsa deb shivirlagan edi, ayollar qah-qahlab kulib yuborishdi.

— Buzuq xotin! — deb Valet qadamini tezlatdi, lekin Mishka mushtoqona muloyim kulgi bilan uning gapini bo'ldi:

— Buzuq emas, xushchaqchaq xotin. Men ketyapman, jononam qolyapti. — U o'z hovlisining eshigidan kirar ekan: — «Sen meni kechirgin go'zalim, jonim» deb ashula so'zlarini takrorlab qo'ydi.

XXIII

Koshevoy chiqib ketgandan keyin kazaklar anchagacha churq etmay o'tirdilar. Zang sadosi qishloq ustida yangrar, uy derazalari dirillar edi. Ivan Alekseyevich derazadan qaradi. Omborxonadan yerga hafif tong ko'lankasi tushib turardi. Ko'rpa bo'lgan o't-o'lanlarning ustiga oppoq shudring tushgan. Hatto deraza oynasi orqali ham osmon qubbasi zangori tusda ko'rinardi. Ivan Alekseyevich paxmoq sochli boshini egib turgan Xristonyaga qaradi.

— Balki shu bilan ish bir yoqliq bo'lar? Migulinliklar ularni majaqladi-ku, endi ular bosh suqmaslar.

— Yo'g'-e... — dedi Grigoriy bir seskanib. — Bu hali uchqun, qor bo'ronini endi ko'rasiz! Xo'sh, nima qildik, maydonga ketdikmi?

Ivan Alekseyevich qo'lini furajkasiga uzatdi; shubhadan qutulish uchun:

— Yigitlar, rostdan ham aqlimiz o'tmaslashib qolgan bo'lsa-ya? Mixail qiziqqon bo'lsa ham, lekin ishbilarmon bola... bizni ta'na qilib ketdi, — dedi.

Unga hech kim javob qilmadi. Indamay ko'chaga chiqib, maydonga jo'nadilar.

Ivan Alekseyevich xayol surib, yerdan ko'zini olmay borardi. U vijdonsizlik qilib, o'z fikriga xilof ish qildi. Valet bilan Koshevoy haqli edilar; ikkilanib o'tirmay jo'nab qolish kerak edi. U xayolida bahona izlab o'zini oqlamoqchi bo'lsa-da, lekin bahonalari uch pulga arzimas, ichida bir ovoz uni masxara qilayotganday tuyulardi, dalillarining yolg'on ekanligini isbot etardi. Ivan Alekseyevich, birinchi to'qinishdayoq bolsheviklar tomoniga qochib o'tishga qaror qildi. U maydon tomon ketayotganda shu fikrga keldi, lekin Grigoriyga ham, Xristonyaga ham bu haqda og'iz ochmadi, chunki ularning fikrlari boshqacha ekanini payqab turar, ichida ulardan hadiksirar edi. Uchalasi ham Valetning taklifini rad etishdi, oilalarini tashlab ketishga ko'zlari qiymaganini sabab qilib ko'rsatishdi, ammo ularning har biri bu sabab asosli emasligini va o'zlarini oqlash uchun dalil bo'lolmasligini bilar edilar. Endi ularning har biri uyatli, yomon bir ish qilib qo'ygandek bir-birlaridan xijolat tortar edilar. Shu sababdan churq etmay borishardi; Moxovning uyiga yetganda Alekseyevich bu sukunatdan yuragi g'ash bo'lib, o'ziga ham, sheriklariga ham dakki berdi:

— Aybimizni bo‘ynimizga olishimiz kerak; frontdan bolshevik bo‘lib qaytgan edik, endi esa o‘zimizni panaga olish payidamiz! O‘rnimizga birovlar urushsa-yu, biz xotinlarimiz yonida qolsak deymiz...

— Men urushib bo‘ldim, endi boshqalar urushib ko‘rsin, — dedi Grigoriy yuzini o‘girib.

— Nima... ular bosqinchilik qilayotgan bo‘lsalar, biz borib qo‘shilishimiz kerakmi? Qizil gvardiya nima qilyapti? Ayollarni zo‘rlayapti, talonchilik qilyapti. Oyoqni bilib bosish kerak. Ko‘r odam hamisha o‘zini devorga urib oladi.

— Xristan, sen o‘z ko‘zing bilan ko‘rdingmi? — deb so‘radi Ivan Alekseyevich g‘ijinib.

— Odamlardan eshitdim.

— E... Odamlardan degin...

— Bas qilinglar! Tag‘in birov eshitib qolmasin..

Yoniga qizil hoshiya tikilgan shim, gardishi qizil furajka kiygan kazaklarga maydon liq to‘lgan edi, onda-sonda serjun papoq ko‘zga chalinardi. Bu yerga butun qishloq yig‘ilgan, lekin ayollar yo‘q edi. To‘planganlarning hammasi chollar, front yoshidagi kazaklar va yoshlar edi. Eng oldinda qari-qartanglar: faxriy sudyalar, cherkov kengashi a’zolari, maktab nazoratchilari, cherkov mutavallisi hassalariga tayanib turar edilar. Grigoriy ko‘z yugurtirib, soqoliga oq oralagan otasini qidirib topdi. Keksa Melexov qudasi Miron Grigoryevich yonida edi. Ko‘ksiga nishonlar taqilgan pistoqirang parad mundir kiygan Grishak bobo ular oldida g‘adir-budur hassasiga tayanganicha bukchayib qolgan edi. Chertsa ikki betidan qon tomadigan Avdeich Lofchi, Matvey Kashulin, Arxip Bogatiryov, kazakcha furajka kiyib olgan Atepin-Satsa Miron Grigoryevich yonida turishardi. Nariroqda tanish kazaklar: sersoqol Yegor Sinilin, Yakov Taqachi, Andrey Kashulin, Nikolay Koshevoy, daroz Borshchyov, Anikushka, Martin Shamil, laylakdek oyoqlari uzun tegirmonchi Gromov, Yakov Koloveydin, Merkulov, Fedot Bodovskov, Ivan Tomilin, Yepifan Maksayev, Zaxar Korolyov, Avdeich Lofchining o‘g‘li — tanqaburun, pakanagina Antip davra qurib olishgandi. Grigoriy maydonning narigi tomoniga o‘tayotganda davraning bir chekkasida akasi Petro turganini ko‘rib qoldi. Ko‘ylagiga to‘q qizil Georgiy lentasi taqib olgan Petro qo‘li cho‘ltoq Alyoshka Shamil bilan gaplashardi. Uning chap

tomonida yashil ko'zlari chaqnagan Mitka Korshunov turardi. U papirosini Proxor Zikovning papirosidan tutatib olayotgan edi. Proxor bo'ta ko'zlarini baqraytirib, lablarini cho'chchaytirib puflar, unga yodamlashardi. Yoshroq kazaklar orqaroqda edi, davraning o'rtasida, to'rt oyog'i bilan qurimagan yumshoq yerga kirib ketgan liqildoq stol yonida qishloq revkomining raisi Nazar o'tirar, Grigoriyga notanish bo'lgan bir yuzboshi uning yonida qo'lini stolga tirab turardi. Yuzboshi pistoqirang, jez tamg'ali furajka, pogonli kurtka va qahvarang tor shim kiygan edi. Revkom raisi qizarib-bo'zarib yuzboshiga bir narsa deyar, yuzboshi esa biroz engashib, uning soqoliga shalpangquloqlarini yaqinlashtirib tinglardi. Maydon xuddi ari inidek g'uvullardi. Kazaklar bir-birlariga gap otar, hazillashar edilar, biroq hammalarining yuzida tashvish alomati bor edi. Allakimning toqati toq bo'lib:

— Boshlanglar, axir! Nimani kutasiz? Hamma to'plandi-ku! — deb qichqirdi.

Ofitser bamaylixotir qomatini rostlab, furajkasini yechdi-da, uyidagilar bilan gaplashayotgandek, so'z boshladi:

— Hurmatli qariyalar va siz frontchi kazak og'aynilar! Setrakov qishlog'ida nimalar bo'lganini eshitdingizmi?

— Bu kim o'zi? Qayoqlik? — deb do'rillab so'radi Xristonya.

— Vyoshenskayalik, Chyornaya rechkadan, oti Soldatov, shekilli, — deb javob qildi allakim.

Yuzboshi so'zini davom ettirdi:

— Yaqinda Setrakov qishlog'iga Qizil gvardiya otryadi kelibdi. Ukrainani ishg'ol qilgan nemislar Don qo'shin viloyati tomon siljib, qizil gvardiyachilarni temiryo'ldan uloqtirib tashlabdilar. Qizil gvardiyachilar Migulin yurtidan o'tib bu tomonga yo'l olibdilar. Qishloqqa kirib, kazaklarning mol-mulkini talay boshlabdilar, kazak ayollarni zo'rlabdilar, odamlarni qonunsiz qamabdilar va hokazo. Atrofdagi kazaklar bu voqealardan xabardor bo'lgach, qo'llariga qurol olib, talonchilarni bosibdilar. Otryadning yarmisi qirilibdi, yarmisi asir qilib olinibdi. Migulinliklar katta o'lja tushiribdilar. Migulin va Kazansk stanitsalari bolsheviklar zulmiga barham beribdilar. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha kazaklar o'zimizning Tinch Donni himoya qilish uchun bel bog'labdi. Vyoshenskayada revkom tarqatilib yuborilibdi, stanitsa atamani saylanibdi, ko'pchilik xutorlarda ahvol shu.

Yuzboshining nutqi shu yerga yetganda chollar g‘ovur-g‘uvur ko‘tara boshladilar.

— Har yerda otryadlar tuzilyapti. Stanitsangizni yovvoyi bosqinchilar guruhlaridan himoya etish uchun siz ham frontchilardan otryad tashkil etishingiz lozim. Biz o‘z mahkamalarimizni tiklashimiz zarur! Qizillar hokimiyatining bizga keragi yo‘q — u bizga ozodlik emas, buzg‘unlik keltiradi! Axir mujiklar xotinlarimiz va singillarimizning nomusiga tegsa, bizning pravoslav dinimizni tahqirlasa, muborak ibodatxonalarimizni oyoq osti qilsa, mol-mulklarimizni talasa, biz qarab tura olmaymiz... Shundoq emasmi, hurmatli qariyalar?

Maydondagilar baravariga «to‘g‘-ri!» deb baqirishdi. Yuzboshi shapirografda chop etilgan xitobnomani o‘qiy boshladi. Revkom raisi ba’zi qog‘ozlarini esdan chiqarib, stol yonidan turib qochdi. Olomon bir so‘zni ham tushirib qoldirmay quloq solardi. Orqadagi frontchilar bo‘shashib gaplashardilar.

Yuzboshi xitobnomani o‘qiy boshlaganda Grigoriy olomon ichidan chiqib, uyiga jo‘nab qoldi. Pop Vissarionning uyi burchagiga yetganda, uning ketayotganini ko‘rib qolgan Miron Grigoryevich Panteley Prokofyevichning biqiniga tirsagi bilan turtdi.

— Kenja o‘g‘ling ketyapti-ku, qara!

Panteley Prokofyevich oqsay-oqsay davradan chiqib yumshoq, lekin amirona tovush bilan:

— Grigoriy! — deb chaqirdi.

Grigoriy otasiga qaramay, yon tomoniga burildi.

— Qayt, o‘g‘lim!

— Nega ketyapsan! Qayt! — degan ovozlar eshitildi. Hamma qayrilib Grigoriyga qaradi.

— Ofitserlik darajasiga ko‘tarilgan odamning ahvolini ko‘ring!

— Ko‘p kerilaverma!

— Uning o‘zi bolsheviklar ichida bo‘lgan!

— Bu ham kazak qonini ichgan...

— Hoy, qizil oyoq!

Baqirib aytilgan bu gaplar Grigoriyning qulog‘iga chalinardi. Bu so‘zlarga tishini tishiga qo‘yib quloq solar, ikkilanib turardi; bir daqiqa o‘tsa, orqasiga qayrilib qaramay ketib qolar edi ham. Lekin u gandiraklab ketib, ko‘zini yerdan olmay, olomonga tomon yurdi. Panteley Prokofyevich bilan Petro buni ko‘rib, yengil nafas oldilar.

Chollar qizishib, hadlaridan oshib ketishdi. Misli ko'rilmagan tezlik bilan shu yerdayoq Miron Grigoryevich Korshunovni ataman qilib saylashdi. Korshunov oppoq, cho'tir yuzini bo'zartirib o'rtaga chiqdi, uyalinqirab avvalgi atamanning qo'lidan hokimiyat belgisi bo'lgan — mis dastali atamanlik hassasini oldi. Shu mahalgacha u ataman bo'lmagan edi; uni saylaymiz deganlarida noz qilib, bunday sharafga noil bo'lishga loyiq emasligini va o'zining chalasavodligini aytib, ko'nmagan edi. Ammo uni saylagilari kelib turgan chollar baqirishdi:

— Hassani ol! Bo'yin tovlama, Grigorich!

— Sen xutorda birinchi boy dehqonsan.

— Qishloq mol-mulkiga tegmaysan.

— Ko'zingga qara, Semyon singari xutor pullariga aroq olib ichib qo'yma!

— Ha, bu ichib qo'yadi!

— Qo'rasida olib chiqib sotadigan narsasi ko'p!

— Qo'ydek terisini shilib olamiz-a!.. Saylovning tez o'tgani shu qadar g'ayritabiiy, yarim harbiy holat shu qadar jiddiy ediki, Miron Grigoryevich ko'p yalintirmay, ko'na qoldi. Saylov avvalgi saylovlarga sira o'xshamas edi. Ilgari stanitsa atamani kelib, oila boshliqlarini chaqirar, nomzodlar birma-bir ovozga qo'yilardi, bu gal esa, saylov boshqacha bo'ldi. Dabdurustdan: «Kim Korshunov saylansin desa, o'ng tomonga o'tsin» dedilar. Olomon yopirilib o'ng tomonga o'tdi, faqat Korshunovda xusumati bo'lgan yamoqchi Zinoviy qoqqan qoziqday joyida turib qoldi.

Terlab-pishib ketgan Miron Grigoryevich o'ziga kelmasdan burun unga hassani tutqizib qo'ydilar, uzoq-yaqindan:

— Ziyofatini berasan!

— Hamma seni bir og'izdan sayladi!

— Yuvish kerak!

— Atamanni qo'lma-qo'l ko'tarib olqishlaylik! — deb baqira boshladilar.

Yuzboshi shovqinlarni to'xtatib, ustomonlik bilan jamoatning fikrini muhim masalalarga jalb etdi. U otryad komandirlarini saylash masalasini o'rtaga qo'ydi, ehtimol, Vyoshenskayada Grigoriyning nomi mashhur bo'lgani uchun qishloq jamoasiga hushomadgo'ylik qilib:

— Komandir, ofitserlardan bo'lsa, tag'in ham yaxshi bo'ladi, — dedi. — Bunday odam boshchiligida jangda ham yengib chiqasiz, ta-

lafot ham kam bo‘ladi. Sizning qishloqda qahramonlar behisob. Kazaklar, o‘z istagimni sizlarga zo‘rlab qabul qildirishga haqim yo‘q, ammo men o‘zim sizlarga xorunjiy Melexovni tavsiya eta olaman.

— Qaysi birini!

— Melexovlar ikkita-ku.

Ofitser olomonga ko‘z yugurtirib, orqaroqda boshini egib turgan Grigoriyni topdi-da, kulimsirab:

— Grigoriy Melexovni!.. Sizlar nima deysiz? — deb shang‘illadi.

— Ma’qul!

— Bo‘la qolsin!

— Grigor Panteleyevich! Baraka top!

— Davraning o‘rtasiga chiq! Chiq!

— Qariyalar seni ko‘rishmoqchi!

Orqasidan itarib, o‘z holiga qo‘ymaganlaridan keyin Grigoriy qizarib-bo‘zarib davraning o‘rtasiga tushdi va it quvlagan soqovday atrofiga alanglab qarayverdi.

— O‘g‘illarimizga rahnamolik qil, — dedi Matvey Kashulin va hassasini yerga bir urib qo‘yib, qulochkashlab cho‘qindi. — Ularga rahbarlik qil, rahnamo bo‘l, ishning ko‘zini biladigan cho‘pon qo‘ylarni qanday saqlasa, sen ham ularni shunday saqla! Cho‘pon o‘z qo‘ylarini bo‘riga oldirmagandek, sen ham ularni oldirma! Xudo nasib qilsa, ish ko‘rsatib, yana to‘rtta krest olasan!

— Panteley Prokofyevich, xo‘p azamat o‘g‘ling bor-da!..

— Boshi oltin! Aqlli yigit!

— Hoy, cho‘loq, hech bo‘lmasa bir chirpit aroqni bo‘yningga ol!

— Ha-ha-ha! Yuvi-ish ke-raa-k!

— Muhtaram qariyalar! Jim! Ko‘ngillilar yozilsin deb o‘tirmasdan, ikki yoki uch ro‘yxat tuzsak bo‘lmasmikin! Yigitlarning biri ko‘ngilli bo‘lib yoziladi, biri yozilmaydi.

— Uch yilga!

— Besh!

— Ko‘ngillilar yozilsin!

— O‘zing bor, qo‘lingdan birov ushlab turibdimi?

Yangi ataman bilan gaplashib turgan yuzboshining oldiga xutorning yuqori tomonida turadigan chollardan to‘rttasi keldi. Ulardan biri jikkak, tishlari tushib ketgan Bujur laqabli qariya edi. Bujur butun umrini arizabozlik va sudlashish bilan o‘tkazgan edi. U sud

mahkamasiga tez-tez borib turganidan, o'zining ro'zg'orida bo'lgan bittay-u bitta oq biyasi yo'lni shunday yaxshi o'rganib olgan ediki, mast bo'lib qolgan egasi aravaga o'zini tashlab, chiyillab: «Sud-ga!» desa, biyaning o'zi yo'l topib, stanitsaga yetib borardi... Bujur shapkasini yechib, yuzboshining oldiga keldi. Qolgan chollar ham kelib uning yonida to'xtadilar. Ulardan biri o'ziga to'q va boobro' Boldiryov edi. Yomonning bir qilig'i ortiq degandek, o'lgudek mahmadona bo'lgan Bujur ofitserga gap qotdi.

— Janob ofitser!

— Nima gap, hurmatli qariyalar? — ofitser muloyim supurgidek egilib, go'shtdor qulog'ini ularga tutdi.

— Janob ofitser, siz komandirlikka tavsiya qilganingiz — hamqishlog'imiz to'g'risidagi gaplarni eshitmaganga o'xshaysiz. Biz, qariyalar bu qaroringizni rad etamiz, bizning vakolatimiz bor. Biz bu odamga qarshimiz.

— Nega qarshisiz? O'zi nima gap?

— Gap shundaki, u Qizil gvardiyada bo'lgan, ularga komandirlik qilgan, yarador bo'lib, ikki oy ilgari qaytib kelgan, bas, bu odamga qanday ishonamiz?

Yuzboshi quloqlarigacha qizarib ketdi.

— Bo'lmagan gap! Men buni eshitmagan edim-ku... Menga bu xususda hech kim hech nima degani yo'q-ku...

— Bolsheviklar orasida bo'lgani rost, — deb tasdiqladi Gerasim Boldiryov qahr bilan, — biz unga ishonmaymiz!

— O'rniga boshqasi saylansin! Yosh kazaklar nima deyaptilar, quloq soling! «U bizni birinchi urushdayoq sotib ketadi!» deyaptilar.

— Hurmatli qariyalar! — deb qichqirdi yuzboshi oyog'ining uchiga bosib. U frontchilarga emas, chollarga murojaat qilib gapirdi. — Hurmatli qariyalar! Biz Grigoriy Melexovni otryad komandiri qilib saylagan edik, bunga qarshilik yo'qmi? Menga hozir, Grigoriy Qizil gvardiyada bo'lgan deb aytdilar. Siz unga o'z o'g'il va nevaralaringizni ishonib topshira olasizmi? Siz frontchi og'a-inilar, shundoq otryad komandiriga itoat etishni vijdoningiz qabul qiladimi?

Kazaklar hang-mang bo'lib shoshib qoldilar. Birdan chuvvos ko'tarildi; qichqiriqlar va nidolardan hech narsa anglab bo'lmas edi. Xaloyiq baqirishdan to'xtagandan keyin qoshlari o'siq Bogatiryov davraning o'rtasiga tushib, boshidan shapkasini oldi-da, atrofga ko'z yugurtirdi.

— Mening ojizona fikrimcha, Grigoriy Panteleyevichga bu vazifani topshirmaslik kerak. Uning shunday bir gunohi borligini hammamiz eshitganmiz. Eng oldin u gunohlarini yuvib, ishonchimizga sazovor bo'lsin, keyin ko'ramiz. U botir yigit, bilamiz... ammo ba'zan chang-to'zon oftobni to'sib qo'yadi: biz undan yaxshilik ko'rganimiz yo'q, ammo uning bolsheviklarga xizmat qilgani hammamizga ma'lum!..

Yosh Andrey Kashulin qizishib ketib:

— U oddiy askar bo'lib xizmat qilsin, — dedi.

— Komandirlikka Petro Melexov saylansin!

— Grisha oldin uyur ichida yursin.

— Uni saylab boshimizga balo orttiramizmi?

— Men komandir bo'laman deb o'lib turganim yo'q. Menga keraging yo'q hammangni, — deb jahl bilan qichqirdi orqada turgan Grigoriy qizarib-bo'zarib; keyin qo'lini paxsa qilib, yana takrorladi: — Men o'zim ham komandirlikni olmayman! Ko'zim uchib turgani yo'q! — Shunday deb u qo'llarini chalvarining cho'ntagiga tiqdi-yu, bukchayib olib, katta-katta qadam tashlab uyiga jo'nadi.

Uning orqasidan baqirib qolishdi:

— Hoy, haddingdan oshma!

— Voy sassiq taka-ye! Dimog'idan eshak qurti yog'adi-ya!

— O'-ho'!

— Tagi turk-da, qazisan, qartasan, o'z aslingga tortasan!

— Indamay yutib ketolmaydi! Pozitsiyada ham ofitserlarning gapini ko'tarolmasdi. Bu yerda hech ham...

— Qayt!..

— Heeey!..

— Ushla! Vus-kish!

— Qo'ying, nima qilasiz hadeb osilaverib! Qayoqqa ketsa ketaversin!

Olomon darrov tinchiy olmadi. Allakim gap talashib birovni turtib yubordi, allakimni urib burnini qonatishdi, yoshlardan allakimning ko'zosti g'urra bo'lib chiqdi. Hamma tinchigandan keyin otryad komandirligiga Petro Melexovni sayladilar, u terisiga sig'may qizarib ketdi. Lekin yuzboshi baland to'siqqa duch kelgan yugurik otday, kutilmaganda qarshilikka uchradi: ko'ngillilarni xatga olishga navbat keldi. Ammo hech kimning yozilishga ra'yi yo'q. Butun vo-

qealarga sipolik bilan qarab turgan frontchilar mijg‘ovlanib, yozilgilari kelmadi, gapni hazilga olib:

— Sen, Anikey, yozilmoqchimasmisan? — deyishdi.

Anikushka esa:

— Men hali yoshman, soqol-mo‘ylovim chiqqani yo‘q — deb po‘ng‘illadi.

— Hazilingni yig‘ishtirib qo‘y, nima, bizni mayna qilyapsanmi? — deb shang‘illadi uning qulog‘i ostida Kashulin chol.

Anikey go‘yo g‘ing‘illab turgan pashshani qo‘riganday, qo‘l siltadi:

— O‘g‘ling Andryushani yozdira qol.

— Yozdirdim.

— Proxor Zikov! — deb baqirishdi stol yonidagilar.

— Labbay!

— Yozilasanmi?

— Qaydam.

— Yozib qo‘ydik!

Mitka Korshunov jiddiy qiyofada stol yoniga borib, buyruq berganday qilib:

— Meni yoz! — dedi.

— Xo‘sh, yana kim istaydi? Bodovskov Fedot, sen-chi?

— Churram tushgan, muhtaram otalar, — dedi Fedot ming‘illab qalmoqcha qiyiq ko‘zlarini yerga tikib turib.

Frontchilar qorinlarini ushlab hoholab kuldilar, hazil qilishib:

— Xotiningni ham olivol, basharti churrang tushsa, solib qo‘yadi, — der edilar.

Orqadagilar yo‘talishib, tishlarining oqini ko‘rsatishib, ko‘zlaridan yosh chiqarishib hoholab kulishdi.

Boshqa tomondan allakim qochiriq qildi:

— Biz seni oshpaz qilib qo‘yamiz. Bemaza karam sho‘rva pishirsang, og‘zingdan quyamiz, toki nariyog‘ingdan churrang oqib tushsin.

— Qattiq chopolmaysan, sendaqalar bilan qochib bo‘lmaydi.

Keksalar bu gaplardan xafa bo‘lib, koyib berishdi.

— Bo‘ldi, bo‘ldi. Senlarga kuladigan narsa topilib qoldi-da. Ahmoqlik qilishga vaqt topganlarini qarang.

— Uyalsanglar-chi, yigitlar, — dedi bir keksa. — Xudoni unutmanglar. Xudo kechirmaydi. U yoqda odamlar qirilyapti, sizlar bo'lsa... Xudo-chi?..

— Tomilin Ivan, — deb yuzboshi orqasiga o'girilib qaradi.

— Men to'pchiman, — deb javob qildi Tomilin.

— Yozilasanmi? Bizga to'pchilar ham kerak.

— Yozaver...

Zaxar Korolyov, Anikushka, yana bir necha kishi to'pchini kulgi qildilar.

— Biz senga toldan shunday to'p yasab beramiz-ki, qovoq solib otasan, kartoshkani kartech o'rniga...

Hazil va kulgi ostida oltmish kazak yozildi. Eng so'ng Xristonya keldi. U stol yoniga kelib, salmoqlab:

— Meniyam xatga bit. Aytib qo'yay: men urushmayman, — dedi.

— Unday bo'lsa, yozilib nima qilasan? — dedi jahl bilan yuzboshi.

— Borib tomosha qilaman, ofitser janoblari, tomosha ko'rmoqchiman.

— Yozib qo'yinglar uni ham, — dedi yuzboshi yelkasini qisib.

Choshgohda maydondan tarqalishdi. Migulinliklarga madad uchun ertasigayoq ketishga qaror berildi.

Ertasiga ertalab oltmish ko'ngillidan atigi qirqtachasi to'plandi. Shinel, qo'nji uzun etik kiygan Petro kazaklarni birma-bir ko'zdan kechirdi. Ko'plarida burungi polklarning raqamlari yozilgan ko'k pogonlar bor edi. Ba'zilari pogonsiz edi. Safar anjomlari egar ustiga ortilgan, xurjun va xaltalarga oziq-ovqat, ko'ylak-lozim, frontdan ortgan o'qlar joylangan. Ko'pchilikda miltiq yo'q, qilichlari bor edi, xolos.

Kazaklarni jo'natish uchun maydonga xotin-xalaj, bolalar, keksalar to'planishdi. Qantariq yegan ot ustida Petro yarim sotnyani safga tizdi, rang-barang tusdagi otlarni mingan chavandozlarni ko'zdan kechirdi. Kazaklarning ba'zisi shinel, ba'zisi mundir, ba'zisi brezent plash kiygan edi. Petro jo'nashga komanda berdi.

Otryad otini haydab tepaga chiqib ketdi. Kazaklar tumtayishib, xutorga o'girilib qarab-qarab qo'yishardi. Orqadagi qatordan kimdir o'q uzdi. Tepa ustiga chiqqanda Petro qo'lqop kiyib, sarg'ish mo'ylovini burab qo'ydi. So'ngra otini burgan edi, u mayda qadam tashlab, yoni bilan yurib ketdi. Petro chap qo'li bilan furajkasini ushlab, jilmaydi-da:

— Sotnya, komandani eshit!... Otlar yo'rttirilsin, marsh! — deb baqirdi.

Uzangiga oyoq tirab turib olgan kazaklar qamchilarini o'ynatib, otlarini yo'rttirib ketishdi. Ro'paradan yuzlariga shamol urar, otlarning dumini, yolini o'ynatar, yomg'irdan darak berardi. Gap-so'z hazil-mutoyiba boshlandi. Xristonya mingan bo'ydor arg'umoq ot qoqilib ketdi. Egasi unga bir qamchi solib, so'kindi. Arg'umoq bo'ynini egdi-da, sapchib safdan chiqib ketdi.

Kargin stanitsasigacha kazaklarning dimog'lari chog' edi. Ular hech qanaqa urush bo'lmaydi, Migulin mojarosi bolsheviklarning kazaklar tuprog'iga qilgan nogahon hujumi, degan ishonch bilan bormoqda edilar.

XXIV

Kechqurunga yaqin Karginga yetib keldilar. Stanitsada frontchilar yo'q, Migulinga ketib qolishgan edi. Petro maydonda, Levochkin degan savdogarning do'koni yonida otryadini otlaridan tushirib, stanitsa atamanining uyiga ketdi. Novcha, barvasta, qoracha ofitser unga peshvoz chiqdi. Ofitser pogonsiz uzun ko'ylak kiyib, belini kavkazcha kamar bilan bog'lab, hoshiyali kazakcha chalvarining pochalarini oq jun paypoqlari ichiga tiqib olgan edi. Yupqa lablarining chetida trubka tutab turar, sarg'ish, o'tkir ko'zlari yer ostidan xo'mrayib qarardi. U zinapoya ustida trubkasini chekib, yaqinlashib kelayotgan Petrodan ko'zini olmay turardi.

Zobitning to'lishgan badani, ko'ylagi ostidan bo'rtib chiqib turgan to'shining, bilaklarining mushaklari uning juda baquvvat ekanini ko'rsatib turardi.

— Stanitsa atamani siz bo'lasizmi?

Zobit salqi mo'ylovlari ostidan burqsitib tutun chiqardi-da, yo'g'on ovoz bilan:

— Ha, stanitsa atamani men bo'laman. O'zlarining kimligini bilsam bo'ladimi? — dedi.

Petro ismini aytdi. Ataman uning qo'lini qisib, bosh egib qo'ydi.

— Lixovidov Fyodor Dmitriyevich.

Gusino-Lixovidovo xutorining kazagi Fyodor Lixovidov chakana odam emasdi. U yunkerlar maktabida o'qigan va bu maktabni bitirgandan keyin bir necha muddat ko'zdan g'oyib bo'lgan edi. Oradan

bir necha yil o‘tgandan keyin birdan xutorda paydo bo‘lib qoladi va bosh hukumat idoralarining ruxsati bilan harbiy xizmatdan bo‘shagan kazaklardan ko‘ngillilar to‘plamoqqa boshlaydi. Hozirgi Kargin stanitsasida yuztacha dovyurak, hech narsadan qaytmaydigan kazaklarni to‘plab, ularni Eronga olib ketadi. O‘z otryadi bilan Eronda bir yil turadi va shohning shaxsiy soqchisi xizmatini o‘taydi. Eron inqilobi kunlari shoh bilan birga u yerdan qochadi, o‘z otryadidagi kazaklarni yo‘qotib qo‘yadi va yana avvalgidek, Karginda paydo bo‘ladi: o‘zi kazaklarning bir qismi bilan qaytib keladi; Eron shohining otxonasidan uchta zotli arab tulpori va bir talay o‘lja: qimmatbaho gilamlar, nodir zeb-ziynatlar, rango-rang shoyi-atlaslar olib keladi. Fyodor Lixovidov bir oy qishloqda gashtini surib yuradi, chalvarining cho‘ntagidan bir talay eron tillalarini chiqarib sarflaydi, qishloq ko‘chalarida qordek oppoq, suqsurdek, oyoqlari ingichka tulporini gijinglatib yuradi. U otini Levochkin do‘konining ostonasidan hatlatib o‘tib, egardan tushmayoq mol xarid qilar, pulini to‘lab narigi eshikdan chiqib ketardi. Fyodor Lixovidov qanday kelgan bo‘lsa, shunday to‘satdan g‘oyib bo‘ladi. Uning ayrilmas yo‘ldoshi — chopari gusinovlik kazak, o‘yinchi Pantelyushka ham u bilan birga g‘oyib bo‘ladi; otlar ham, Erondan keltirilgan boshqa narsalar ham bir kechada yo‘q bo‘ladi.

Yarim yildan keyin Lixovidov Albaniyada paydo bo‘lib qoladi. U yerdan, Duratsiodan Kargindagi tanish-bilishlari nomiga Albaniya yashil tog‘larining surati tushgan, g‘alati shtamp bosilgan pochta kartochkalari yuboradi. Keyin Italiyaga ketadi, butun Bolqon mamlakatlarini kezadi, Ruminiyada, G‘arbiy Yevropada bo‘ladi. Ispaniyaga qadar boradi. Fyodor Dmitriyevichning nomi sirli parda bilan qoplanadi, qishloqlarda uning to‘g‘risida turli taxmin va tasavvurlar paydo bo‘ladi. Hammaga ma’lum bo‘lgan narsa — uning monarxistlar doirasiga yaqinligi edi. Piterda katta a’yonlar bilan tanishligini, «Rus xalqi Ittifoqi»[1]da muhim mavqega ega ekanligini hamma bilardi, lekin chet ellarda nima ishni bajarib yurgani hech kimga ma’lum emas edi.

---

[1] *«Rus xalqi Ittifoqi»* — chor Rossiyasida eng ashaddiy qora guruhchi tashkilot edi. Bu tashkilot yahudiylarga qarshi tashviqot olib borar, yahudiy pogromlari tashkil qilar, siyosiy dushmanlarni o‘ldirtirar va davlatdan katta-katta mablag‘lar olib turardi.

Chet ellardan qaytib kelgandan so‘ng Fyodor Lixovidov Penzada, u yerning general-gubernatori yonida tura boshladi. Kargindagi tanishlari uning fotosuratini ko‘rib, anchagacha bosh chayqab, hang-mang bo‘lib: «Voy xumpar-e», derdilar. — «Fyodor Dmitriyevich borgan sari ko‘tarilyapti!» — «Kimlar bilan birga yurganini qarang, a?»

Fotosuratda serbga o‘xshash qushburun, qoracha Fyodor Dmitriyevich kulimsirab, gubernator xotinini izvoshga qo‘ltiqlab chiqarayotgan edi. Gubernatorning o‘zi esa yaqin odamidek unga iljayib qarar, yag‘rini keng izvoshchi esa otlarning jilovini arang tortib turar, otlar esa hozir opqochib ketadigandek tipirchilardi. Fyodor Dmitriyevich bir qo‘lini hurpaygan papaxiga tegizib, nazokatla chest berar, ikkinchi qo‘li bilan gubernator xonimning tirsagidan ushlagan edi.

Bir necha yil g‘oyib bo‘lib yurgandan keyin 1917-yilning oxirida Fyodor Lixovidov Karginda ko‘rindi. Uzoq vaqtgacha qoladigandek u yerda maskan qurdi. O‘zi bilan birga ukrainlikmi, polshalikmi ekanini bilib bo‘lmaydigan xotini va bolasini olib keladi-da, maydondagi to‘rt xonali kichik bir uyga ko‘chib kirib, qishni o‘sha yerda o‘tkazadi va qandaydir majhul planlar tuzadi. Butun qish bo‘yi (o‘sha qish Donda juda qattiq sovuq bo‘lgan edi) derazalari ochiq turdi, u o‘zini ham, oilasini ham sovuqqa o‘rgatar, bu bilan kazaklarni hayratda qoldirardi.

1918-yilning bahorida, Setrakov yonidagi voqeadan keyin uni ataman qilib sayladilar. Fyodor Lixovidovning zo‘r iste’dod egasi ekani shunda ma’lum bo‘ldi. Stanitsa shunday qattiqqo‘l ostiga tushib qolgan ediki, hatto chollar ham hayratlanib bosh chayqar edilar. U kazaklarni o‘ziga shunday rom qilib olgan ediki, stanitsa yig‘inida nutq so‘zlaganda (Lixovidov fasohat bilan so‘zlardi, tabiat unga kuch-quvvat bilan birga, zo‘r aql-iste’dod ham bergan edi), chollar, bo‘tadek bo‘zlab yig‘lar edilar: «Azizlar madadkor bo‘lsin, ataman janoblari! Baraka toping!» — «Rost!» deb baqirishardi.

Yangi ataman qattiqqo‘llik bnlan ish olib bordi; Setrakov yonidagi jang to‘g‘risidagi xabar Karginga kelib yetgach, ertasigayoq stanitsadagi frontchilarning hammasi o‘sha yerga jo‘nadi. Chetdan ko‘chib kelganlar (ular stanitsada aholining uchdan birini tashkil qilar edilar) boshda borishni istamadilar, frontchi soldatlar norozilik bildirdilar, ammo Lixovidov Donni mudofaa etishda qatnashmagan

barcha «mujiklar»ni ko'chirtirib yuborish to'g'risida qaror chiqartirdi, keksalar bu qarorga imzo chekdilar. Ertasi kuni o'nlab aravalarga tushib olgan askarlar garmoshka chalib, ashula aytib, Napolovga Chernetsk qishlog'iga jo'nadilar. Bulardan bir necha askargina, 1-pulemyot polkida xizmat qilgan Vasiliy Storojenko boshchiligida qizil gvardiyachilar tomoniga qochib o'tdi.

Petroning qadam tashlashidan uning pastdan ko'tarilganini ataman fahmladi. Shuning uchun uni o'z uyiga taklif etmadi, unga betakalluflik bilan muomala qildi.

— Yo'q, azizim, sizning Migulinda qiladigan ishingiz yo'q. Sizsiz ishni bartaraf qilishibdi, kecha kechqurun telegramma oldik. Uyingizga qayting, farmonimizni kuting. Lekin kazaklarni ishga soling! Shunday katta qishloq atigi qirqta jangchi bersa-ya!? Siz o'sha ablahlarning qulog'ini pishiting! Axir masala ularning mol-jonlari ustida ketyapti-ku! Sog'-salomat boring, oq yo'l!

Shunday og'ir gavdali odam yengil qadam tashlab, shippaklarini shaloplatib uyiga kirib ketdi. Petro maydonga, kazaklar yoniga qaytib keldi. Har tarafdan savol yog'ila boshladi.

— Nima bo'ldi?

— U yerda nima gaplar bor?

— Migulinga boramizmi?

Petro sevinchini ichiga sig'dirolmay:

— Uyga ketamiz. Bizga ehtiyojlari yo'q ekan, — dedi.

Kazaklarning og'izlari quloqlariga yetib, devor yoniga bog'lab qo'yilgan otlari yoniga ketdilar. Xristonya, yelkasidan tog' tushib ketgandek, yengil nafas oldi-da, Tomilinning yelkasiga bir urib qo'yib:

— Bundan chiqdi, uy uyiga, tepa to'yiga ekan-da, to'pchi! — dedi.

— Xotinlarimiz ham, deyman, bizni rosa sog'inib qolishgandir.

— Hozir jo'nab ketamiz.

Maslahatlashib, bu yerda tunab qolmay, darhol yo'lga tushishga qaror qildilar. Tartibsiz holda, to'p-to'p bo'lib, stanitsadan chiqdilar. Agar Karginga oyoqlari tortmay, har zamonda bir otlarini yo'rttirib kelgan bo'lsalar, uylariga otlarini niqtab, yo'rttirib ketdilar. Ba'zan otlarini choptirib ketar, qatqaloq yo'l otlarning tuyoqlari ostida taraqlar edi. Qayerdadir, Donning narigi tomonida, uzoqdagi tepalarning orqasida chaqmoq chaqardi.

Qishloqqa yarim kechada yetib keldilar. Tog'dan tushayotganda Anikushka o'zining avstriya miltig'idan o'q chiqardi, kazaklar qaytib kelayotganlarini ma'lum qilish uchun baravariga o'q uzdilar. Buni eshitib, itlar hura boshladi, kimningdir oti uyiga yaqinlashganini sezib, titroq ovoz bilan kishnab yubordi. Qishloqqa yetib olgach, hammalari har tomonga qarab tarqalib ketishdi.

Martin Shamil, Petro bilan xayrlashar ekan, yengil nafas olib tomog'ini qirib qo'ydi-da:

— Urushib bo'ldik. Shukurki, osongina qutuldik, — dedi.

Petro ham qorong'ida kulimsiradi-da, otini o'z uyiga haydadi. Panteley Prokofyevich chiqib, otning boshidan ushladi. Egarini olib, otxonaga olib kirdi. Petro bilan birga uyga kirdi.

— Safarga chiqmaydigan bo'ldingizmi?

— Ha.

— Xayriyat. Xudo urushning yuzini teskari qilsin.

Darya uxlab yotgan issiq o'rnidan turib, eriga ovqat tayyorladi. Grigoriy naridan beri kiyinib xonasidan chiqdi, qora jun bosib ketgan ko'kragini qashib, akasiga ko'zlarini qisib turib piching qildi:

— Dushmanni bartaraf qildingiz, shekilli?

— Karam sho'rvani bartaraf qilyapman.

— Bu ishing ma'qul. Agar meni ham yoningga olsang, karam sho'rvadan nom-nishon qolmaydi...

* * *

Pasxa bayramigacha urush to'g'risida hech gap yo'q edi, pasxadan oldingi shanba kuni Vyoshenskayadan ot choptirib kelgan chopar, sovundek ko'pirib ketgan tulporini Korshunov darvozasi oldiga qo'ydida, qilich-qinini zina bosqichlariga ura-ura zinapoya ustyga chiqdi.

Uni ostonada kutib olgan Miron Grigoryevich:

— Nima xabar? — deb so'radi.

— Menga ataman kerak, sizmisiz?

— Biz.

— Hozir kazaklarni otlantiring. Podtelkov qizil gvardiya bilan Nagolin volostidan bu yoqqa kelyapti. Mana farmon, — chopar paketni berib, furajkasining terga pishgan astarini ag'dardi.

Ularning gapini eshitgan Grishak bobo ko'zoynagini taqib chiqdi. Mitka ham hovlidan yugurib keldi. Okrug atamanining farmonini bir-

galashib o‘qidilar. Chopar zinapoyaning naqshinkor qanotiga suyanib, shamoldan qoraygan yuzining changini yengi bilan artdi.

Pasxaning birinchi kuni parhezdan og‘izlarini ochgan kazaklar xutordan chiqib jo‘nadilar. General Alferovning farmoni qat’iy edi, u urushga bormaganlarni kazaklik unvonidan mahrum etish bilan qo‘rqitgan edi. Shuning uchun Podtelkovga qarshi yurish boshlaganlarning soni birinchi safardagidek qirq kishi emas, bir yuz sakkizta edi. Bular qatorida qizillar bilan jang qilish havasi bilan yongan chollar ham bor edi. Qushburun Matvey Kashulin o‘g‘li bilan birga jo‘nadi. Avdeich Lofchi ham to‘qqiz pulga qimmat otini minib, oldingi safda borar, keta-ketguncha o‘zining g‘aroyib sarguzashtlarini aytib, kazaklarni xursand qilardi; keksa Makseev bilan birga bir necha oqsoqol chollar ketayotgan edi... Yoshlar o‘lganlarining kunidan, chollar esa zo‘r ishtiyoq bilan ketmoqda edilar.

Grigoriy Melexov yomg‘irda kiyadigan boshlig‘ini furajkasining ustidan tushirib, eng orqadagi safda borardi. Tuman qoplab olgan osmondan yomg‘ir quyib turardi. Yam-yashil ko‘kat bilan qoplangan dasht ustida bulutlar suzib yurardi. Balandda, bulutlar ostida bir burgut parvoz qilardi. U har zamonda bir qanotlarini silkitib, shamolning qayoqqa esayotganini bilib olishga urinar, shamol oqimiga kirib olgach, bir qanotini ko‘tarib, qizg‘ish, xira patlarini yiltiratib, sharqqa to‘g‘ri uchar, borgan sari kichrayardi.

O‘tlar yomg‘irdan ko‘m-ko‘k bo‘lib ketgan. Onda-sonda bulturgi yovshan ko‘zga tashlanar, ilono‘t qizarib ko‘rinar, tepa sirtida kulrang qorovulxonalar yiltirardi.

Tepadan tushib Karginga yaqinlashganda kazaklar ho‘kizlarni o‘tlatgani haydab ketayotgan kazak bolaga duch keldilar. Yalangoyoq bola tiyg‘ona-tiyg‘ona qo‘lidagi qamchisini o‘ynatib kelardi. U otliqlarni ko‘rib, to‘xtab qoldi, ularning loyga bulg‘angan, dumlari tugilgan otlarini diqqat bilan ko‘zdan kechirdi.

— Qayerliksan? — deb so‘radi Ivan Tomilin.

— Karginlik, — deb javob qildi boshiga kalta kamzulini tashlab olgan bola kulib.

— Sizning kazaklar ketishdimi?

— Ketishdi. Qizil gvardiyachilarni haydagani ketishdi. Hoy amaki, sizda bir o‘ram tamaki topilmaydimi?

— Tamaki kerakmi? — deb Grigoriy otining boshini tortdi.

Kazak bola uning oldiga keldi. Pochasi shimarilgan chalvari shalabbo, hoshiyasi qip-qizil bo‘lib ajralib turardi. Cho‘ntagidan tamaki xaltani olayotgan Grigoriyga u tap tortmay qarab, ingichka ovoz bilan bidirlab gapira ketdi:

— Hozir shu yerdan pastga tushsangiz, o‘ldirilgan odamlarni ko‘rasiz. Kecha bizning kazaklarimiz asir tushgan qizillarni Vyoshkiga haydab keta turib, shu yerda qirdilar... Men, amakijon, huv anavi Qumtepa yonida mol boqayotuvdim, ularni chopganlarini ko‘rib turdim. Judayam vahimali. Kazaklar qilich o‘ynatishi bilan ular dodlashib qochdilar... Keyin borib ko‘rdim... Birining yelkasidan chopgan ekanlar, tez-tez nafas olib yotibdi, qonga to‘lgan ko‘kragi ichida yuragi urib turibdi, buyragi ko‘m-ko‘k... Judayam vahimali! — deb shu so‘zni takrorlar, kazaklarning bu hikoyani eshitib qo‘rqmaganlariga hayron qolardi. U Grigoriy, Xristonya va Tomilinning beparvo, sovuq basharalariga qarab shu xulosaga kelgan edi.

Bola tamakini yondirib olib, Grigoriy ostidagi otning ho‘l bo‘ynini siladi-da: «Rahmat», deb ho‘kizlari tomon chopdi.

Qilich bilan chopib tashlangan qizil gvardiyachilarning murdalari yo‘l chekkasida sel suvlari yuvib ketgan chuqurcha ichida yotar, ustlariga naridan beri qumoq tuproq tortib qo‘yilgan edi. Ko‘karib, momataloq bo‘lib ketgan, labida qon qotib qolgan bir chehra, ko‘k paxtali shim ichidan bir oyoq ko‘rinib turardi.

— Itvachchalar, yaxshilab ko‘mmabdilar ham, — deb g‘o‘ldiradi Xristonya; u otiga bir qamchi solib, Grigoriydan oldinga o‘tdi-da, tepadan ot choptirib tushib ketdi.

— Don tuprog‘iga ham qon to‘kilibdi, ko‘rdik, — deb iljaydi Tomilin. Uning yuzi pirillab uchib turardi.

XXV

Bunchukning pulemyot komandasida Tatarsk qishlog‘idan Maksimka Gryaznov degan bir kazak bor edi. U Kutepov otryadi bilan bo‘lgan jangda otidan ayrilgan, o‘shandan beri ichkilikdan bosh ko‘tarmay, qarta o‘ynagani o‘ynagan edi. Belining o‘rtasida tasmadek oq yo‘li bo‘lgan jiyron tulporini otib o‘ldirishgandan keyin Maksimka egarni orqalab olib, to‘rt chaqirim yo‘l yurdi, orqalaridan quvib kelayotgan oqlardan qutulish mushkul ekanini ko‘rib, egarni tashlab,

qimmatbaho o'mildiriq bilan yuganni oldi-da, o'zboshimchalik qilib jang maydonidan chiqib ketdi. Rostovga kelgandan so'ng o'zi chopib tashlagan yasovulning kumush qilichini «yigirma bir»ga boy berdi, qo'lida qolgan ot jabdug'ini, chalvarini, shigirin etigini yutqizib, qipyalang'och qolgach, Bunchuk komandasiga kelib qo'shildi. Bunchuk uni kiyintirib, odam qiyofasiga keltirdi. Maksimka odam bo'lib ketardi-yu, lekin Rostov yonida bo'lgan jangda uning boshiga o'q tegib, moviy ko'zi ko'ylagiga oqib tushdi, miyasidan tizillab qon otilib chiqa boshladi. Ilgari ot o'g'risi bo'lgan, yaqindagina piyanistalik qilib yurgan vyoshenskayalik kazak Gryaznov yorug' dunyodan ko'z yumdi.

Bunchuk o'lim talvasasida qiynalayotgan Maksimkaga qarab qo'ydi-da, uning miyasidan pulemyot ustiga sachragan qonni yaxshilab artdi.

Darhol chekinish kerak edi. Bunchuk pulemyotni sudrab ketdi. Qaynoq yerda Maksimkaning murdasi sovib qoldi, jon talvasasida ko'ylagining orqa etagi bilan boshini yopib olgan kazakning yelkasi oftobda qorayib ko'rinardi.

Turkiya frontidan qaytgan askarlardan iborat bo'lgan qizil gvardiyachilar vzvodi birinchi chorrahadayoq mahkam joylashib oldi. Boshi yarg'oq, tulagan papax kiygan askar pulemyotni o'rnatishga yordam berdi, qolganlar ko'chaning o'rtasini barrikadaga o'xshatib to'sishdi.

— Endi kelib ko'r-chi! — dedi sersoqol bir askar yarim doira shaklidagi tepa orqasidagilarga qarab.

— Endi ustlariga o'q yog'diramiz.

Devor taxtalarini ko'chirayotgan norg'il yigitcha:

— Buz devorni, samarskiy! — deb baqirdilar.

Aroq skladining tomiga chiqib olgan kengpeshona askar:

— Ana ular! Shu yoqqa kelishyapti,– dedi.

Anna Bunchukning yoniga yetib oldi. Qizil gvardiyachilar omonat istehkom panasiga kelib yotdilar.

Shu payt o'ng tomondagi tor ko'chadan to'qqizta qizil gvardiyachi pushtada yo'rg'alagan bedanaday chopib chiqib, muyulishdagi uyning orqasiga o'tib oldilar. Ulardan biri:

— Ot choptirib kelishyapti! Qoching! — dedi. Chorraha bir on sukunat ichida qoldi, oradan bir daqiqa o'tgach, chang-to'zon orasidan furajkasiga oq bog'ich bog'lagan, yelkasiga miltiq osgan kazak ot

choptirib chiqdi. U otning boshini qattiq burgan edi, ot keyingi oyoqlariga o'tirib qoldi. Bunchuk unga nagandan o'q o'zdi. Biroq kazak otning bo'yniga yotib olib, orqasiga qarab qochdi. Pulemyot oldida turgan askarlar nima qilishlarini bilmay tipirchilab qoldilar, ulardan ikkitasi devor tagidan chopib borib, darvoza oldida yerga yotib oldi.

Hozir hammasi qo'rqib qochadiganga o'xshardi. Askarlarning nafaslari ichiga tushib ketib, javdirab turishlari ahvol chatoqligini ko'rsatardi... Shundan keyin yuz bergan hodisalardan faqat bittasigina Bunchukning xotirasida yaqqol saqlanib qoldi. Ro'moli gardaniga tushib, sochi to'zg'ib ketgan, hayajonidan tanib bo'lmaydigan holga kelib, rangi oqarib ketgan Anna sakrab o'rnidan turdi-yu, miltig'ini o'rta belidan ushlab, orqasiga qayrilib qaradi, so'ngra kazak bekingan uyni qo'li bilan ko'rsatib, tanib bo'lmaydigan ovoz bilan «Orqamdan!» deb baqirdi-da, qoqinib-suqinib chopib ketdi.

Bunchuk o'rnidan turdi, uning og'zidan tushunib bo'lmaydigan bir faryod otilib chiqdi. Yonidagi askarning miltig'ini qo'lidan olib, tizzalari qaltiragan, nafasi tiqilib, zo'r berib baqirib-chaqirganidan bo'riqib ketgan holda Annaning ketidan chopdi. U orqasidan chopib kelayotgan bir necha kishining nafasini eshitdi, lekin butun vujudi bilan tuzatib bo'lmaydigan dahshatli bir hodisa ro'y berishini sezib turardi. Shu on u Annaning shijoati boshqalarni jasoratlantirmasligini, bema'ni va natijasiz bo'lishini angladi.

Muyulishdan sal nariroqda chopib kelayotgan kazaklarga duch kelishdi. Kazaklar baravariga pala-partish o'q uzdilar, o'qlar vizilladi. Anna quyonday ayanchli tovush bilan chinqirib yubordi. U tiz cho'kib, qo'llarini oldinga uzatdi, ko'zlari qinidan chiqib ketayozdi. Bunchuk kazaklarning orqaga burilib qochganlarini, uning pulemyoti yonida bo'lgan o'n sakkizta askar Annaning jur'atidan jasoratlanib kazaklarni quvib ketganini ko'rmay qoldi. Uning ko'ziga hozir oyoqlari ostida tipirchilab yotgan Annadan boshqa hech narsa ko'rinmasdi. Ko'tarib, boshqa yoqqa olib borish uchun uni yonboshiga ag'dardi, shu on chap biqinidan qon oqayotganini va ko'k koftasining o'q teshib o'tgan joyi titilib ketganini ko'rdi-yu, Annaning portlovchi o'q bilan yaralanganini, o'lishi aniqligini angladi, Annaning xiralashib ketgan ko'zlarida o'lim soyasini ko'rdi.

Allakim uni turtdi. Annani yaqin o'rtadagi hovliga olib kirib, salqin bostirma tagiga yotqizib qo'ydilar.

Yarg‘oq bosh soldat yaraga paxta bosar, qonni shimib, jiqqa ho‘l bo‘lgan paxtani otib tashlar edi. Bunchuk o‘zini bosib olib, Annaning egnidagi koftaning yoqasini ochdi, o‘zining ich ko‘ylagini yechdi-da, uni g‘ijimlab yaraga bosdi, yara ichiga havo kirganidan qon bilqillab, ko‘pirib chiqar edi. Annaning yuzi bo‘zarib, qorayib ketgan lablari azobdan titrardi.

Anna og‘zini kappa-kappa ochib nafas olar, biroq havo og‘zidan ham, o‘q tekkan joydan ham kirar, o‘zi qattiq ingrardi. Bunchuk uning ko‘ylagini kesib, jon talvasasida terlagan tanasini yalang‘ochlab qo‘ydi. Yarasiga doka o‘rab bog‘lab qo‘yishdi. Bir necha daqiqadan so‘ng Anna hushiga keldi. Ichiga cho‘kkan qora ko‘zlari bilan Ilyaga boqdi-da, pirpiragan kipriklarini yana yumdi.

— Suv! Ichim yonyapti! — deb qichqirib to‘lg‘andi. So‘ngra: — O‘lgim kelmaydi, Ilya-a-a! Jonim... Aaa, — deb yig‘ladi.

Bunchuk shishinqiragan lablarini uning olovdek yonib turgan yuzlariga bosdi-da, ko‘kragiga krujkadan muzdek suv quydi. Suv yelka chuqurini to‘ldirib, birpasda yana quridi. Annani ajal olovi kuydirardi. Bunchuk uning ko‘ksiga suv quygan sari Anna tipirchilab, qo‘ldan chiqib ketmoqchi bo‘lardi:

— Kuyib ketyapman, yonyapman!..

Madordan ketib, bir oz sovugach:

— Ilya, nega unaqa qilyapsan? Nega? Ko‘rib turibsan-ku, hammasi shunchaki bir... Tentakvoy! Qiyin... Ilya... jonim, sen oyimga bir amallab... bilsang... — dedi u aniqroq gapirib: so‘ngra qisilgan ko‘zlarini kulgandagidek suzib, dard vahimasini yengmoqchi bo‘lib, bo‘g‘ziga bir narsa tiqilgandek g‘o‘ldiradi: — Boshda sezmovdim... Bir narsa urilib, kuydirdi... Hozir butun vujudim yonyapti... o‘lishimni bilib turibman. — Bunchukning «qo‘ysang-chi» deb qo‘l siltaganini ko‘rib ijirg‘andi. — Yolg‘iz qo‘y! Nafasim bo‘g‘ilyapti.

U o‘z dardlarini izhor qilmoqchi bo‘lgandek, dam-badam, o‘qtin-o‘qtin gapirdi. Bunchuk Annaning yuzlari va chakkasi oq mumday sarg‘ayib ketayotganini ko‘rib, qattiq vahimaga tushdi. Tanasi yonida shalvirab yotgan qo‘llariga nazar tashladi. Ko‘karib, momataloq bo‘layotgan tirnoqlariga ko‘zi tushdi.

— Suv... ko‘kragimga... Yonyapman!

Bunchuk suvga chopdi. Qaytar ekan Annaning bostirma tagidan xirillagan ovozi eshitilmasdi. Botayotgan quyosh talvasada tortishib

qolgan lablarini, yarasiga bosib olgan sarg'ish va hali iliq kaftini yoritardi. Bunchuk uning yelkasidan avaylab ko'tarib, qorayib qolgan sepkilli burunchasiga bir lahza qarab qoldi. Qora qoshlari ostidagi ko'zlarining qisilib, mo'ltirab turganini ko'rdi. Boshi borgan sari orqasiga shilqillab osilib tushar, ingichka bo'yinchasidagi ko'kish tomirchalari so'nggi marta tepib qo'yardi.

Bunchuk lablarini qizning qoraygan va kerilibroq qolgan qovoqlariga bosib:

— Jonim! Anya! — deb chaqirdi. So'ngra o'rnidan turib, g'ayritabiiy bir holda, qo'llarini ikki yoniga qilib, shartta burilib to'g'riga qarab ketdi.

XXVI

Shu kunlari u alahsigandek bo'lib yurdi. Yurar, nimadir qilar, ovqat yeyar, uxlar, lekin bularning hammasini go'yo tushidagidek, eshushi yo'qdek bir ahvolda qilardi. Shishinqiragan, javdiragan ko'zlari bilan tevarak-atrofiga dovdirab qarar, yor-birodarlarini tanimas, xuddi mast-alastdek yoki og'ir kasaldan yangi turgan kishidek boqardi. Anna o'lgandan beri hislari o'tmaslashib qolgan, ko'ngliga hech narsa sig'mas, hech narsani o'ylamasdi.

— Ol, ye, Bunchuk! — deyishardi o'rtoqlari. U jag'larini zo'rg'a qimirlatib ovqat yeyar, bir nuqtadan ko'zini uzmasdi.

Unga ko'z-quloq bo'lib yurdilar, kasalxonaga jo'natish to'g'risida maslahatlashdilar. Ertasiga pulemyotchilardan biri undan:

— Betobmisan? — deb so'radi.

— Yo'q.

— Bo'lmasa nega g'ambodasan?

— Yo'q, unday emas.

— Kel, bo'lmasa bir chekishaylik. Og'ayni, endi uni qaytarib bo'lmaydi. Buning uchun azoblanib yurma.

— Uxlash payti kelganda unga:

— Endi yotib uxla, — deyishardi.

Bunchuk uxlagani yotardi.

U shu ko'yi, es-hushini yo'qotganicha to'rt kun yurdi.

Beshinchi kun deganda ko'chada uni Krivoshlikov uchratib, qo'lidan mahkam ushladi:

— Ha, ha, senmisan? Axtarib yuribman, — dedi. Krivoshlikovning Bunchuk ahvolidan xabari yo'q edi. Uning yelkasiga qoqib qo'yib, g'alati kulish qildi:

— Senga nima bo'ldi? Mastmisan? Shimoliy okruglarga ekspeditsiya jo'natilishidan xabaring yo'qmi? Besh kishilik komissiya saylangan. Fyodor boshchilik qilib ketyapti. Hamma umid shimol kazaklaridan. Bo'lmasa ishlar chatoq. Sen borasanmi? Bizga agitatorlar kerak. Borasanmi?

— Ha, — dedi Bunchuk qisqa qilib.

— Juda soz. Ertaga jo'naymiz. Orlov boboga uchrash, u bizning maslahatgo'yimizdir.

Bunchuk avvalgi ruhiy tushkunlik holatida yo'l hozirligini ko'rdi, ertasiga, 1-may kuni ekspeditsiya bilan yo'lga chiqdi.

Bu vaqtda Don Sovet hukumati tahlikali ahvolga tushib qolgan edi. Nemis bosqinchi askarlari Ukrainadan bostirib kelmoqda. Quyi Don stanitsalari va okruglarini kontrrevolyusion isyonchilar bosib olgan edi.

Popov o'z otryadi bilan qishloq rayonlarida izg'ib yurar va u yerdan Novocherkasskka tahdid solardi. 10–13-aprelda Rostovda bo'layotgan viloyat sovetlar qurultoyi bir necha marta o'z majlisini to'xtatishga majbur bo'ldi, chunki isyon ko'targan cherkasskliklar Rostovga yaqinlashib, shahar atrofidagi kvartallarni ishg'ol qilgan edi. Faqat shimolda, Xopyor va Ust-Medveditsa okruglarida inqilob mash'allari yonib turar, shu sababdan, quyi Don kazaklarining yordamidan umid uzgan Podtelkov va boshqalar beixtiyor shimoldagi bu inqilob mash'allariga talpinardi. Mobilizatsiya natija bermadi, shundan keyin yaqindagina Don Komissarlar Sovetining Raisi qilib saylangan Podtelkov Lagutinning tashabbusi bilan frontchilardan uch-to'rt polk tuzish, ularni ham nemislar, ham quyi Don aksilinqilobchilari ustiga yuborish uchun shimolga jo'nadi.

Podtelkov boshchiligida besh kishidan iborat mobilizatsiya komissiyasi tuzildi. 29-aprelda mobilizatsiya ehtiyojlari uchun xazinadan tilla bilan o'n million so'm va Nikolay puli olib ketdilar, pul yashiklarini qo'riqlash uchun asosan sobiq Kamensk mahalliy komandasida xizmat qilgan kazaklardan iborat otryad tuzdilar, bir necha agitator kazakni o'zlariga qo'shib oldilar. Ekspeditsiya 1-mayda, nemis aeroplanlari o'qi ostida Kamensk tomon jo'nadi.

Yo'llar Ukrainadan chekinayotgan qizil gvardiyachilar tushgan eshelonlar bilan to'lgan edi. Isyonchi kazaklar ko'priklarni qo'porar, poyezdlarni ag'darar edilar. Har kuni ertalab Novocherkassk–Kamensk temiryo'li ustida nemis aeroplanlari paydo bo'lar, gala-gala kalxatlarday aylanib yurib, pastga sho'ng'ir, pulemyotlardan tarillatib o'q otar, vagonlardan qizil gvardiyachilar qochib chiqar edilar; o'qlar do'ldek yog'ilar, stansiyalar ustida shlak va urushning achchiq hidi qon hidi bilan aralashib ketardi. Aeroplanlar juda balandlab ketsa ham merganlar o'q otib, yashiklaridan o'qlarni isrof qilar, poyezdlar yonida yurgan kishilar etiklari bilan bo'sh gilzalarni g'ichirlatib bosib yurar, qum ustini kuzgi yaproqdek gilzalar bosib ketardi.

Hamma yoqda vayronagarchilik asari ko'zga tashlanar: yondirilgan va parchalangan vagonlar yo'l chetidagi qiyaliklarda ko'mir bo'lib yotar, simyog'ochlardagi qanddek oppoq chig'anoqlarga o'ralgan simlar uzilib osilib qolgan edi. Bir talay uylar buzilib vayron bo'lgan, temiryo'llar chetidagi to'siqlarni bo'ron uchirib ketganday edi...

Ekspeditsiya besh kundan beri Millerovoga yetib olishga urinardi. Oltinchi kuni Podtelkov komissiya a'zolarini o'z vagoniga chaqirib oldi.

— Shu kepatada yo'l yurolmaymiz! Keling, butun anjomlarimizni tashlab, poxod tartibi bilan jo'naylik.

— Nima? — deb yubordi Lagutin hayron bo'lib. — Biz Ust-Medveditsagacha poxod tartibi bilan yetib borgunimizcha, oqlar bizni majaqlab tashlaydilar-ku.

— Juda uzoq, — dedi Mrixin mijg'ovlanib.

Otryadni yaqindagina quvib yetgan Krivoshlikov yoqasidagi bog'ichlarining rangi o'ngib ketgan shineliga burkanib, indamay o'tirardi. Uning bezgagi tutib qolgan, xinin ichgani uchun quloqlari shing'irlar, zirqirab turgan boshi isitmada yonar edi. U muzokaralarga aralashmay shakar qop ustida bukchayib o'tirar, ko'zlari isitmaning zo'ridan xiralashgan edi.

Podtelkov kartadan ko'zini olmay:

— Krivoshlikov! — deb chaqirdi.

— Nima deysan?

— Nima to‘g‘risida gaplashayotganimizni eshitmayapsanmi? Poxod tartibi bilan ketish kerak deyapman, bo‘lmasa orqamizdan quvib yetadilar, xarob bo‘lamiz. Sen nima deysan? Bizdan ko‘proq o‘qigansan, gapir.

— Poxod tartibi bilan ketsa ham bo‘lardi, — deb to‘xtab-to‘xtab gap boshladi Krivoshlikov. Ammo bezgagi tutib, tishlarini bo‘ridek taqillata boshladi. — Agar yukimiz yengil bo‘lganda mayli edi.

Podtelkov eshik oldiga kelib, viloyat xaritasini ochdi. Mrixin xaritaning bir uchidan ushlab turdi. G‘arb tomondan esgan shamolda xarita shaldirab qo‘ldan chiqib ketay der edi.

Podtelkov tamakidan sarg‘aygan barmog‘ini xarita ustida yurgizib:

— Mana, qara, manavi yo‘l bilan ketamiz, — dedi. — Masshtabni ko‘ryapsanmi? Yuz ellik chaqirim, nari borsa ikki yuz chaqirim keladi. Xo‘sh!

— Rost gap, voy falokat-e! — deb uning gapiga qo‘shildi Lagutin.

— Sen Mixail, nima deysan?

Krivoshlikovning g‘ashi kelib, yelkasini qisib qo‘ydi.

— Men qarshi emasman.

— Hozir borib kazaklarga aytaman, vagonlardan tushsinlar. Fursatni bekorga o‘tkazishdan foyda yo‘q.

Mrixin nima der ekanlar deb hammaga nazar tashladi, hech kim e’tiroz qilmaganini ko‘rib, vagondan sakrab tushdi.

Podtelkov ekspeditsiyasi tushgan eshelon shu bulutli, yomg‘irli kunda Belaya Kalitva yaqinidagi stansiyada turar edi. Bunchuk o‘z vagonida, shineliga burkanib yotardi. Kazaklar shu yerning o‘zida choy qaynatar, bir-birlariga hazil qilib hoholashardi.

Hazilkash va qiziqchi kazak — migulinlik Vanka Boldiryov pulemyotchi o‘rtog‘ini kalaka qilardi. Tamaki chekaverib bo‘g‘ilib qolgan ovoz bilan xirillab:

— Sen Ignat, qaysi gubernaliksan? — deb so‘radi.

— Tambovsklik, — deb do‘rillab javob qildi Ignat.

— Morshanskiydandirsan?

— Yo‘q. Shatskiydan.

— E... Shatskiydan — yurak yutganlardansan: mushtlashganda yettitang bir odamga bas kelolmaysan. Sizning qishloqda cherkov bayramida bir tanani bodring bilan bo‘g‘izlagan edilar, a?

— Bas qilsang-chi, bo‘ldi endi!

— Ha, esimdan chiqibdi, bu voqea sizning qishloqda bo‘lmagan ekan. Qishlog‘ingizda cherkov tomini yupqa-chalpak bilan yopgan, tagiga no‘xat sepib, qiyalikdan itarib tushirishgan ekan. Shu gap rost-mi?

Shu payt choy qaynab qoldi, bu esa Ignatning joniga oro kirib, uni Boldiryovning hazilidan vaqtincha bo‘lsa ham qutqardi. Ammo nonushta qilishga o‘tirish bilan Vanka yana hazilini boshladi:

— Ignat, senga nima bo‘ldi, cho‘chqa go‘shtini ishtaha bilan yemayotibsan? Yaxshi ko‘rmaysanmi?

— Nega yomon ko‘ray?

— Ma, senga cho‘chqa dumg‘azasi, juda mazali-da!

Hamma baravar kulib yubordi. Allakim qalqib ketib, yo‘tali tutib qoldi. Qiy-chuv ko‘tarildi, etiklari bilan polni tepib dukurlatishdi. Bir daqiqadan keyin Ignat bo‘g‘ilib, zarda bilan:

— O‘zing yey qol, shayton! Nega dumg‘azangni tumshug‘imga tiqaverasan? — dedi.

— Bu meniki emas, cho‘chqaniki.

— Hammasi bir go‘r, harom.

Boldiryov sipolikni qo‘ldan bermay, xirillab:

— Ha-ro-m? Esing joyidami? — dedi. — Uni pasxada tabarruk suv sepib poklaganlar. Undan ko‘ra parhezimni buzishdan qo‘rqaman deb qo‘ya qol...

Boldiryovning hamqishlog‘i, to‘rtta Georgiy nishoni olgan, ko‘rkam, mallasoch kazak nasihat qilganday:

— Qo‘y, Ivan! Mujik bilan talashib baloga qolasan, — dedi. — Dumg‘azani yeb bo‘lib, cho‘chqa quyrug‘ini ko‘ngli tusab qoladi. Cho‘chqa quyrug‘i bu yerda topilmaydigan matoh.

Bunchuk ko‘zlarini yumib yotar edi. Bu gaplar uning qulog‘iga kirmas, yaqindagina boshiga tushgan ishni xotirlab, avvalgiday, hatto avvalgidan battar yuragi yonardi. Qor bilan qoplangan dasht, uzoq-uzoqlarda qorayib ko‘ringan o‘rmonzor xiralashgan ko‘zlari oldida gir aylanardi, shu payt muzdek shamol kelgandek bo‘ldi. Annani, uning qora ko‘zlarini, qimtilgan xushbichim og‘zini, burni ustidagi mayda sepkillarini, peshonasidagi ajinlarni ko‘z oldidagidek ko‘rdi; lablari orasidan chiqqan so‘zlarni eshitgandek bo‘ldi. Biroq bu so‘zlar noaniq, allaqanday begona odamlarning so‘zlari, kulgilari bilan ara-

lashib ketardi. Harqalay, ko'zlarining pirpirashidan, qayrilma kipriklarining pirpirashidan nima deyayotganini fahmlardi... Mana, uning ko'z oldida boshqa bir Anna gavdalandi: uning rangi za'faron: betlariga oqib tushgan ko'z yoshlari qotib qolgan, burni ingichkalashgan, iztirob ichida lablarini qimtib olgan.

U engashib ichiga tushib ketib, qotib qolgan qora ko'zlarni o'padi... Bunchuk ingrab yubordi, ho'ngrab yig'lab yubormaslik uchun kafti bilan og'zini mahkam berkitdi. Bir lahzaga bo'lsa ham, Anna uning yodidan ko'tarilmas edi. Zamon o'tsa ham Annaning qiyofasi xayolidan ketmas edi. Uning chehrasi, qaddi-qomati, yurishi, imo-ishoralari, kerilgan qoshlari — bularning hammasi birga qo'shilib, butun bir jonli Annani ko'z oldida gavdalantirardi. Bunchuk uning navozish bilan gapirgan so'zlarini va u bilan birga kechirgan kunlarini xotirlardi. Bu jonli xotiralarni qaytadan tasavvur etish uning azoblariga azob qo'shardi.

Vagonlardan tushish to'g'risidagi buyruq uni uyg'otib yubordi. O'rnidan turdi-yu, hafsalasi kelmay yig'ishtirindi-da, vagondan tushdi. Keyin yuklarni tushirishga yordamlashdi. Yana boyagidek loqaydlik bilan aravaga o'tirib jo'nab ketdi.

Yomg'ir shivalab yog'ib turar, yo'l chekkasidagi o'tlar ho'l bo'lgan edi.

Dasht. Tepalar ustida, jarliklarda shamol izg'ib yuradi. Uzoq va yaqindagi qishloqlar, ayrim qo'rg'onlar ko'zga tashlanadi. Tutun chiqarib turgan parovozlar, stansiyadagi chorburchak qizil g'ishtin imoratlar orqada qolib ketdi. Belaya Kalitvada kira qilingan qirqtacha arava birin-ketin yo'l bo'ylab ketmoqda. Otlar sekin qadam tashlar, yomg'irdan bilchillab ketgan qumloq qora tuproq yer otlarning yurishini qiyinlashtirar edi. G'ildiraklarga balchiq yelimdek yopishib, kegaylarda osilib qolardi. Belaya Kalitva rayonidagi ko'mir qazuvchilar oldinda va orqada to'p-to'p bo'lib kelar edilar. Ular kazaklardan qochib, bola-chaqalari, bor-yo'qlarini olib sharq tomonga qarab ketishayotgan eli.

Grachi razyezdida Romanovskiy bilan Shchadenkoning to'zigan otryadlari ularni quvib yetdi. Urush, uyqusizlik va muhtojlik jangchilarning yuzini sarg'aytirgan, horitgan edi. Shchadenko Podtelkovning yoniga keldi. Uning mo'ylovlari kalta qilib dukartlangan, burni qirrali, yuzi chiroyli, so'lg'in edi. Bunchuk ular yonidan o'tar ekan,

Shchadenko qoshlarini chimirib, horg'in qiyofada jahl aralash gapirganini eshntib qoldi:

— Sen nimalar deyapsan? Nima, men o'z yigitlarimni bilmaymanmi? Ishlar chatoq edi, buning ustiga la'nati nemislar chiqib qoldi! Endi odamlarimni qayoqdan to'plab olaman?

U bilan gaplashgandan keyin Podtelkovning qovog'i solinib ketdi, esankirab o'z aravasini quvib yetdi va yoniga kelgan Krivoshlikovga hayajon bilan bir nimalar deb gapirdi. Ularga diqqat bilan qarab turgan Bunchuk Krivoshlikov qo'lini paxsa qilib, tez-tez gapirganini, Podtelkovning qosh-qovog'i ochilib, aravaga sakrab chiqib olganini ko'rdi, olti pudcha keladigan to'pchining og'irligidan aravaning yon taxtasi qirsillab ketdi.

Podtelkov ko'zlarini qisib, charm kamzulining yoqasini ochib yubordi va ko'kragini shamolga berib:

— Hayda! — deb qichqirdi.

Podtelkov otryadi Donets okrugining ichkarisiga qarab, Krasnokutsk stanitsasi tomon siljib borardi. Ukraina qishloqlarining aholisi otryadni doim xursandlik bilan qarshi olar, oziq-ovqat va yem-xashaklarni jon deb sotar, tunash uchun boshpana berar, lekin Krasnokutskkacha otlarni kira qilish masalasi ko'tarilganda mijg'ovlanib, gardanlarini qashib qolar va ot berishdan bosh tortar edilar.

— Biz yaxshi haq to'laymiz, nega ko'nmaysiz? — deb so'radi Podtelkov bir ukrainalikdan.

— Mening boshim puldan aziz.

— Sening boshing bizga kerak emas, bizga ot bilan aravangni kiraga bersang bo'ladi.

— Yo'q, berolmayman.

— Nega endi?

— Siz kazaklar ustiga bostirib ketyapsiz-ku.

— Nima qipti?

— Ishning oqibati xunuk bo'ladiganga o'xshaydi. O'z jonim ko'zimga ko'rinadi. Otim nobud bo'lsa, qanday qilib ishlayman! Yo'q, amaki, menga tirg'ilma, berolmayman!

Krasnokutskka yaqinlashgan sari Podtelkov va boshqalar bezovtalana boshladilar. Aholining kayfiyati ham o'zgara bordi: agar safarlarining avvalida bosib o'tgan qishloqlarning aholisi ularni xursand

bo‘lib, mehmondo‘stlik bilan qarshilagan bo‘lsalar, keyingi qishloqlarda otryadni noxushlik bilan hadiksirab qarshi ola boshladilar. Oziq-ovqatni o‘lganlarining kunidan sotar, savol berilganda gapni chetga burib yuborar edilar. Otryad aravalarini ilgarigidek yasangan-tusangan yoshlar qurshab olmas edi. Aravalar o‘tib ketayotganda xo‘mrayib, noxushlik bilan derazadan qarab qolar va o‘zlarini opqochishga urinar edilar.

Otryaddagi kazaklar xafa bo‘lib:

— Hoy, o‘zlaringiz xristianmisiz, axir? — der edilar. — Nega bizga dushman ko‘zi bilan qaraysizlar, arpangizni xom o‘rdikmi?

Nagolinsk volostiga qarashli qishloqlarning birida o‘zlarini sovuq kutib olganlaridan xunob bo‘lgan Vanka Boldiryov qishloq maydonida shapkasini yerga bir urib:

— Hoy, insonmisizlar yo jinmisizlar! Nega churq etmaysizlar, falon-u pismadon? — deb xirilladi. Kattalardan birortasi kelib qolmasin deb alanglanib qaradi. — Haqingizni olib beramiz deb qon to‘kyapmiz axir, sizlar bo‘lsangiz buni ko‘rmaysiz! Endi, o‘rtoqlar, hamma barobar, kazak ham yo‘q, xoxol ham, hech kim o‘zini katta olmasligi kerak. Darrov tovuq va tuxum olib keling, Nikolay puli bilan to‘laymiz!

Boldiryovning xunob bo‘lib baqirishiga quloq solgan oltita ukrain qo‘shdan chiqqan otdek, boshlarini quyi solib turar edilar.

Uning kuyib-pishib gapirgan so‘zlariga hayam demasdilar, yo‘q ham.

— Sizlar ilgari ham xoxol edingiz, hozir ham o‘shanday qolgansiz. Iloyo, yer bilan yakson bo‘linglar! Koshkiydi yer yutsa sizlarni, qorni katta burjuylarni! — Boldiryov ohori ketgan shapkasini yana bir marta yerga urib, nafratidan qip-qizarib ketdi:– Sizlar suv bo‘yida o‘tirasiz-u, lekin cho‘llagan kishiga bir piyola suvni ravo ko‘rmaysiz!

— Ko‘p akillayverma! — deyishdi ukrainlar uy-uylariga jo‘nashib.

Shu qishloqda yoshi qaytib qolgan bir ukrain ayoli qizil gvardiyachi kazaklardan:

— Siz hammaning bor-yo‘g‘ini talab, odamlarni qirib yubormoqchi emishsiz, rostmi? — deb so‘rab qoldi.

O‘sha kazak ko‘zlarini baqraytirib turib:

— Rost, — dedi. — Hammani emas, chollarni bo‘g‘izlaymiz, xolos.

— Voy xudoyim! Chollarni bo‘g‘izlab nima qilasiz?

— Biz go'shtlarini shovlaga solib yeymiz: hozirgi qo'ylarning go'shti uncha mazali emas, faqat o't yeydi, bironta cholni ikki nimta qilib qozonga solinsa bormi, ovqat mazali bo'ladi...

— Qo'y-e, meni kalaka qilma.

— Hoy xola, buning gapiga ishonmang, sizni laqillatyapti! Tentakda, og'ziga kelganini qaytarmaydi! — deb gapga aralashdi Mrixin.

Yolg'iz qolishganda Mrixin hazilkash kazakning ta'zirini berdi:

— Do'stim, sen bilib hazillash, odamini topib hazillash. Bunaqa hazil uchun Podtelkov teringga somon tiqadi-ya! Nega fitnachilik qilyapsan! Bu ayol rostdan ham qizillar chollarni qirib tashlar ekan, deb gap tarqatadi-ku!

Podtelkov manzillar va bekatlarda ko'p to'xtamas, bezovta bo'lib, yurishini jadallashtirardi. Krasnokutsk stanitsasiga kirishdan ilgari u Lagutin bilan uzoq maslahatlashib oldi.

— Ivan, uzoqqa borib o'tirishning hojati yo'q. Ust-Xopyor stanitsasiga yetib olib, ishni boshlab yuboramiz! Ko'ngilli askarlar to'playmiz, deb e'lon qilamiz, yuz so'mdan maosh beramiz deymiz, lekin har bir kazak o'z oti va egar-jabdug'i bilan kelsin, xalq pulini bekorga sovurish kerak emas. Ust-Xopyordan yuqori tarafga: sening Bukanov stanitsang, Slashchevsk, Fedoseyev, Kumiljen, Glazunov, Skurishensk tomon ketamiz. Mixaylovkaga borguncha bir diviziya askar to'playmiz! Shundaymi?

— Agar u yerlar tinch bo'lsa, to'playmiz.

— U yerlarda ham fitna boshlangan deb o'ylaysanmi?

— Kim biladi deysan? — deb Lagutin siyrak soqolini siypadi, keyin zorlanganday ingichka ovoz bilan gapirdi:

— Biz biroz kechikdik... Fedya, men qo'rqamanki, biz fursatni qo'ldan berdik. U yerlarda ofitserlar ish olib boryaptilar. Shoshilish kerak.

— Shundoq ham shoshilyapmiz. Sen qo'rqma! Qo'rqsang, ish pachava bo'ladi, — deb ko'zlarini chaqchaytirdi Podtelkov. — Shuncha odamni orqamizdan ergashtirib ketyapmiz-ku, qo'rqamizmi! Kechikkanimiz yo'q! Dushman halqasini yorib o'tamiz! Ikki haftadan keyin oqlarni ham, germanlarni ham savalayman! Ularni Don yerlaridan surib chiqaramiz, quzg'unlarga yem qilamiz. — U biroz jim turib, papirosini yutoqib chekdi-da, yurakdagi gapini aytdi. — Kechiksak — biz ham, Dondagi Sovet hokimiyati ham halok bo'ladi.

Oh, koshkiydi kechikmagan bo'lsak! Agar ofitserlar qo'zg'oloni u yerlarga yoyilgan bo'lsa, ishimiz xarob!

Ertasi kuni kechqurun otryad Krasnokutsk stanitsasiga qarashli qishloqlarga kirdi. Lagutin va Krivoshlikov bilan oldindagi aravalardan birida ketayotgan Podtelkov Alekseyevsk xutoriga yetmasdan burun cho'lda o'tlab yurgan podani ko'rdi.

— Kel, podachidan so'rab-surishtiraylik, — dedi u Lagutinga.

— Boringlar, surishtiringlar, — deb gapini ma'qulladi Krivoshlikov.

Lagutin bilan Podtelkov aravadan sakrab tushib, poda tomon ketdilar. Oftob dashtning o'tini qovjiratib yuborgan edi. O't yaxshi bitmagan, toptalgan edi, faqat yo'lning chetida sariq gulli o'tlar va shoxlab ketgan yovvoyi suli shamolda shildirar edi. Podtelkov qovjiray deb qolgan shuvoq o'tning urug'ini kaftida ezg'ilab, uning o'tkir hidini hidlab podachi oldiga bordi.

— Hormang, ota!

— Bor bo'ling.

— Mol boqyapsizmi?

— Ha, boqyapmiz.

Chol oqarib ketgan o'siq qoshlari ostidan xo'mrayib qarab, bosh chayqadi.

— Tirikchilik qalay? — deb so'radi Podtelkov odat bo'yicha.

— Yomon emas, xudoga shukur.

— Qishloqda nima gaplar bor?

— Hech gap yo'q. O'zingiz kim bo'lasizlar?

— Askarmiz, xizmatdan bo'shab, uy-uyimizga ketyapmiz.

— Qayerliksizlar?

— Ust-Xopyorlik.

— Podtelkin degani ham orangizda bormi?

— Ha.

Podachi qo'rqdi shekilli, rangi oqarib ketdi.

— Nega qo'rqib ketdingiz, bobo?

— Nega qo'rqmay, birodar, eshitishimcha, sizlar pravoslav dinidagilarning hammasini qirar emishsizlar.

— Bekorchi gap! Bunaqa gaplarni kim tarqatyapti?

— O'tgan kuni yig'ilishda ataman shundoq degan edi. Bilmadim, bir xabar eshitganmi, yoinki hukumatdan qog'oz olganmi, Podtelkin qalmoqlar bilan kelyapti, hammani so'yayapti dedi.

— Sizlar ataman sayladingizmi? — deb so'radi Lagutin Podtelkovga qarab qo'yib.

Podtelkov sarg'aygan tishlari bilan o't chaynab turardi.

— Tunovi kuni ataman sayladik. Sovetni berkitib qo'ydik.

Lagutin yana bir nima so'ramoqchi edi, nariroqda yurgan katta qashqa buqa bir sigir ustiga sakrab, uni bukchaytirib yubordi.

— Belini sindiradi, harom o'lgur! — deb podachi yigitlardek chaqqonlik bilan podaga yugurdi; yo'l-yo'lakay: — Nastenkaning sigiri!.. Belini sindiradi! Harom qotgur, qashqa! — deb baqirdi.

Podtelkov qo'llarini qattiq silkitib, arava oldiga keldi. Ro'zg'orparast bo'lgan Lagutin to'xtab, buqa tagida bukchayib qolgan oriqqina sigirga achinib qaradi, shu topda beixtiyor: «Rostdanam belini sindirib yuborsa-ya! Voy, egang o'lsin!» deb o'yladi.

U, dirdov sigir buqa ostidan beli sinmay, eson-omon chiqqandan keyingina, xotirjam bo'lib, arava tomon ketdi. «Endi nima qilamiz? Nahotki Donning bu yog'idayam atamanlar hukm surayotgan bo'lsalar?» deb o'ziga-o'zi savol berdi. Ammo shu topda yo'lning chekkasida turgan ko'rkam buqa xayolini bo'ldi. Buqa katta va sag'risi keng qora sigirni iskab, do'ng peshonali boshini chayqardi. Uning bo'yni tizzasigacha osilib tushgan, gavdasi uzun va miqtidan kelgan, tarang edi. Kaltagina oyoqlari qoziqdek yumshoq yerga botib ketgandi. Lagutin bu nasldor buqaga istar-istamas havas bilan qarab, qizg'ish tukli sirtini zavq bilan tomosha qildi. Garchi ko'ngli notinch bo'lsa ham, yo'l-yo'lakay shunday bir fikr xayoliga keldi: «Stanitsamizda shunaqadan bitta bo'lsaydi», — deb o'yladi xo'rsinib. Lagutin arava oldiga yaqinlashar ekan, kazaklarning ma'yus chehrasiga boqib, endi yo'l marshrutini belgilash to'g'risida bosh qotirdi.

* * *

Bezgagi xurish qilgan, xayolparast, shoirtabiat Krivoshlikov Podtelkovga aytdi:

— Biz aksilinqilob to'lqinidan qochib qutulamiz desak, u bizdan oshib o'tyapti. Uni quvib yetish qiyinga o'xshaydi. Dashtdagi quyundek g'izillab ketyapti.

Komissiya a'zolaridan Podtelkovgina yuz bergan vaziyatning mushkulligini nazarga olayotgan edi. U engashibroq o'tirganicha aravakashga dam-badam:

— Haydasang-chi! — deb baqirardi.

Keyingi aravadagilar ashula boshlab yuborishdi-yu, keyin birdan jimib qolishdi. O'sha yoqdan, g'ildiraklarning ovozini bosib, kulgi, qiyqiriq ovozlari eshitildi.

Podachi aytgan gaplar to'g'ri chiqdi. Yo'lda otryadga xotini bilan Sveshnikov xutoriga ketayotgan frontchi kazak to'qnash keldi. U pogon taqib olgan, furajkasi tamg'ali edi. Podtelkov undan ahvolni so'rab-surishtirgach, yana battar tutaqib ketdi.

Alekseyev qishlog'idan o'tib ketdilar. Maydalab yomg'ir yog'ardi. Osmon tumtaygan. Faqat sharq tomonda bulut orasidan quyosh nuridan qizargan osmon parchasi ko'rinib turardi.

Tepalikdan tushib, Tavrichan uchastkasidagi Rubashkino qishlog'iga kirishlari bilanoq, u yerdan bir necha aravali odamlar ura solib qocha boshladilar.

— Qochishyapti, bizdan qo'rqishayotganga o'xshaydi, — dedi Lagutin parishon holda, yoni-beridagilarga qarab. Podtelkov baqirib:

— Ularni qaytaring! Chaqirsangiz-chi, axir! — dedi.

Aravalardagi kazaklar shapkalarini silkitib chopqillashib ketishdi. Kimdir qattiq baqirib:

— Hoy, qayoqqa? Shoshmanglar! — dedi.

Otryad aravalarini choptirib qishloqqa kirib bordi. Huvullab qolgan katta ko'chada shamol aylanardi. Qo'ralardan birida ukrainalik kampir qichqirib aravaga yostiq uloqtirdi. Uning yalangoyoq, boshyalang eri otlarning tizginidan ushlab turardi.

Rubashkinoga kelib bilsalar, Podtelkov yubortirgan kvartirerni kazak razvedkachilari asir olib, tepaning nariyog'iga olib ketibdilar. Aftidan, kazaklar uzoqlashib ketmaganga o'xshardi. Birpas maslahatlashib olganlaridan keyin qaytib ketishga qaror berildi. Boshda oldinga yuraveramiz deb qistagan Podtelkov endi ikkilanib qoldi.

Krivoshlikov indamadi, uni yana bezgak tutib qolgan edi.

Podtelkov maslahatda qatnashayotgan Bunchukdan:

— Yo oldinga qarab yuraveramizmi? — deb so'radi. Bunchuk loqaydlik bilan yelkalarini qisib qo'ydi. Uning uchun oldingami, orqagami yurish baribir edi. Ishqilib yurilsa bas, orqadan izma-iz quvib kelayotgan g'am-g'ussadan uzoqlashsa bo'lgani edi. Arava yonida u yoqdan bu yoqqa yurib turgan Podtelkov, Ust-Medveditsaga yurish

yaxshiroq bo‘lmasmikan, dedi. Ammo uning gapini agitator kazaklardan biri shartta bo‘ldi:

— Jinni-pinni bo‘ldingmi, sen? Bizni qayoqqa boshlayapsan? Aksilinqilobchilar oldigami? Og‘ayni, ko‘p maynavozchilik qilma. Orqaga qaytamiz, o‘lib ketishni xohlamaymiz, ko‘ryapsanmi anavini? — deb tepalik tomonni ko‘rsatdi.

Hamma o‘sha tomonga qaradi. Pastak qo‘rg‘on tepa ustida uch otliqning qorasi aniq ko‘rinib turardi.

— Ularning razvedkachilari, — deb yubordi Lagutin.

— Huv, ana tag‘in?

Tepa ustida otliqlar ko‘rindi. Ular to‘da-to‘da bo‘lib tepalikka chiqar, keyin yana g‘oyib bo‘lar edilar. Podtelkov qaytish to‘g‘risida buyruq berdi. Alekseyevsk qishlog‘idan o‘tdilar. Kazaklar tomonidan ogohlantirib qo‘yilgan yerlik aholi esa yaqinlashib kelayotgan otryad aravalarini ko‘rib, tumtaraqay bo‘lib yashirina boshladi.

Qorong‘i tusha boshladi. Savalab mayda yomg‘ir yog‘a ketdi. Odamlar shalabbo bo‘lib, sovuqdan titrab qaqshashdi. Ular miltiqlarini o‘qtalishib, arava yonida ketishardi. Yo‘l burilib pastlikka tushib ketar, keyin pastlikdan yana borib-borib tepalikka chiqib ketardi. Tepalik ustida kazak razvedkachilari dam paydo bo‘lib, dam yashirinardi. Ular otryadni kuzatib yurar, asablarni battar qaqshatardi.

Vodiyni ko‘ndalangiga kesib o‘tgan jarlarning birida Podtelkov aravadan sakrab tushdi-da: «Shaylanib turing!» deb buyruq berdi va ehtiyotdan kavaleristcha karabinini qo‘lga olib, arava yonida piyoda ketaverdi. Jarlikning oldi to‘g‘on bilan to‘silgan, toshqin suvi ko‘m-ko‘k bo‘lib turardi. Ko‘l qirg‘og‘idagi balchiqqa suv ichgani kelgan mollarning tuyoq izi tushib qolgan edi. Ko‘l oldidagi tepalik ustini shuvoq, sho‘ra o‘t bosib ketgan, pastda, suv bo‘yida sarg‘ayib ketgan qo‘g‘a o‘sib yotar, barglari o‘tkir qiyoq o‘t ustiga shitirlatib yomg‘ir yog‘ardi. Podtelkov shu yerga kazaklar pistirma qo‘ygan deb gumon qilardi, ammo oldinga yuborilgan razvedkachilar hech kimga ro‘para kelmay qaytib keldi.

Krivoshlikov Podtelkovni arava yoniga chaqirib olib, asta dedi:

— Fyodor, sen bu vaqtda ularni kutma. Ular hozir hujum qilmaydilar, kechasi bosadilar.

— O‘zim ham shunday deb o‘ylayman.

XXVIII

Kunbotar tomondagi bulutlar quyuqlashib borar, qorong‘ilik bosib kelardi. Juda uzoqlarda, Donning nariyog‘idagi dashtlarda chaqmoq chaqar, yashin osmon bag‘rini xanjardek tilib yerga kirib ketar edi; u tarafda qop-qora bulutlarning etagi ostidagi ufq kechki shafaq nurida yallig‘lanardi. Suv quygandek jimjit dashtdagi jarlar ichiga kechki shafaq aksi tushib turardi. Hatto gulga kirmagan o‘tlardan ham g‘alati chirik hid kelardi.

Podtelkov namiqqan o‘tlarning bilinar-bilinmas turli-tuman hidlarini hidlab, qadam tashlab borardi. O‘qtin-o‘qtin to‘xtab, poshnasiga yopishib qolgan loylarni artardi. U qomatini tik tutib, og‘ir gavdasini zo‘rg‘a ko‘tarib borar, oldi ochiq charm kurtkasi g‘irchillar edi.

Polyakov-Nagolinsk volostiga qarashli Kalashnikov qishlog‘iga kechasi kirib kelishdi. Otryaddagi kazaklar aravalarni tashlab tunagani uyma-uy tarqalib ketishdi. Podtelkov tashvishga tushib, qurolli soqchilar qo‘yishni buyurdi, lekin kazaklar istar-istamas yig‘ilishdi. Uchta kazak soqchi bo‘lib turishdan bosh tortdi.

— Ularni o‘rtoqlik sudi bilan sud qilish kerak! Harbiy buyruqni bajarishdan bosh tortganlar otilsin! — dedi qizishib Krivoshlikov.

Tashvishdan bezgan Podtelkov qo‘l siltab qo‘ydi-da:

— Yo‘lda buzilishdi. Ular endi o‘zlarini o‘zlari mudofaa qilmaydilar. Ishimiz xarob, Mishatka!.. — dedi.

Lagutin bir amallab bir necha kishini to‘pladi-da, qishloqning nariyog‘iga kuzatuvchilar yubordi.

Podtelkov uyma-uy yurib, o‘ziga yaqin kazaklarga:

— Uxlab qolmang, yigitlar! Bostirib kelib qolishadi-ya, — der edi.

U kechasi bilan mijja qoqmay chiqdi, stol yonida o‘tirib, boshini qo‘llari ustiga qo‘yib, og‘ir-og‘ir xo‘rsinardi. Tong otishga yaqin ko‘zi ilindi, ammo qo‘shni hovlidan kelgan Robert Frashenbruder uni uyg‘otdi. Yo‘lga chiqishga hozirlik ko‘ra boshladilar. Kun yorishib ketgan edi. Podtelkov uydan chiqdi. Dahlizda unga sigirni sog‘ib kirayotgan uy bekasi duch keldi.

— Tepa ustida otliqlar izg‘ib yuribdi, — dedi u beparvogina.

— Qayerda?

— Hov, xutorning nariyog‘ida.

Podtelkov yugurib hovliga chiqdi: tepa ustida, qishloq va bog‘lardagi tollar ustini qoplagan oppoq tuman orasidan bir talay kazak otryadlari ko‘rindi.

Ular otlarini yo‘rg‘alatib choptirib xutorni halqadek o‘rab olmoqda edilar.

Oradan ko‘p o‘tmay Podtelkov tunagan hovliga, uning pulemyot o‘rnatilgan aravasi yoniga kazaklar to‘plana boshladilar.

Girdig‘um, kokildor kazak bo‘lgan migulinlik Vasiliy Miroshnikov kelib, Podtelkonni bir chekkaga chaqirib oldi-da, shosha-pisha dedi:

— Nima gapligidan xabaringiz bormi, o‘rtoq Podtelkov... Hozir ular oldidan vakil keldi, — deb qo‘li bilan tepani ko‘rsatdi, — hozir qurollarimizni topshirib, taslim bo‘lishimiz kerakligini senga yetkazishni buyurdilar. Bo‘lmasa ular hujumga o‘tarmishlar.

— Hoy, itvachcha! Menga nimalar deyapsan? — deb Podtelkov Miroshnikovning shineli yoqasiga chang soldi-da, uni itarib yubordi va arava yoniga chopib keldi. Miltig‘ining quvuridan changallab olib, xirillagan yo‘g‘on ovoz bilan kazaklarga:

— Taslim bo‘lib bo‘pmiz!.. Aksilinqilobchilar bilan qanday muzokara olib borish mumkin? — dedi. — Biz ular bilan jang qilamiz! Orqamdan yuring! Safga tiziling!

Hovlidan yugurib chiqishdi. To‘p-to‘p bo‘lishib, qishloqning chekkasiga chopib borishdi. Eng chetdagi hovli yonida komissiya a’zosi Mrixin nafasi tiqilgan holda Podtelkovning orqasidan yetib keldi.

— Bu nima sharmandagarchilik, Podtelkov? Nima, o‘z qardoshlarimiz bilan urushib qon to‘kamizmi? Qo‘y-e! Urushmay, murosaga kela olamiz!

Podtelkov otryaddagi kazaklarning ozgina qismi o‘z orqasidan ergashishini va agar jang qilishsa, albatta, yengilishlariga aqli yetgani uchun, indamay miltiqning zatvorini tushirib qo‘ydi-da, sustkashlik bilan furajkasini silkitdi:

— To‘xtang, yigitlar! Orqaga, qishloqqa yuring! Hammalari qishloqqa qaytib kelishdi. Butun otryad bir-biriga tutashgan uch hovliga to‘plandi. Ko‘p o‘tmay, qishloqda kazaklar paydo bo‘ldi. Tepadan qirq otliqli otryad tushdi.

Podtelkov Milyutin qishloq chollarining taklifi bilan taslim bo‘lish shartlari to‘g‘risida muzokara olib borish uchun qishloq tash-

qarisiga chiqdi. Qishloqni qurshab olgan dushmanning asosiy kuchi pozitsiyalarini tashlab ketmadi. Bunchuk yugurib borib, qishloqning chekkasida Podtelkovni quvib yetdi-da, uni to'xtatdi:

— Taslim bo'lamizmi?

— Axir ular kuchli bo'lsa, nima qilamiz? Qani ayt-chi!

— O'lging kelyaptimi? — dedi Bunchuk ijirg'anib.

Bunchuk Podtelkovni boshlab olib ketayotgan chollarga e'tibor qilmasdan baland va do'rillagan ovoz bilan:

— Qurol-yarog'larimizni topshirmaymiz, degin! — deb baqirdi. Shuni deb shartta orqasiga burildi-yu, naganini changallab olganicha orqasiga qarab ketdi.

U qishloqqa qaytib kelib, dushman safini yorib o'tish va jang bilan temiryo'lga chiqib olish mumkinligiga kazaklarni ishontirmoqchi bo'ldi, biroq ko'pchilik murosasozlik kayfiyatida edi. Ba'zilari Bunchukdan yuz o'girar, ba'zilari g'azab bilan:

— Bor, o'zing urush, Anika, biz qon-qardoshlarimiz bilan jang qilmaymiz, — dedi.

— Biz ularga qurolsiz ham ishonamiz.

— Muqaddas pasxa bayramida biz qon to'kamizmi?

Bunchuk ombor yonida turgan aravasi yoniga keldi, uning ostiga shinelini to'shab to'pponchasining g'adir-budur dastasini mahkam changallaganicha yotib oldi. Boshda u qochmoqchi ham bo'ldi. Lekin biqinib qochish, dezertirlik qilishdan or qildi, qochishdan voz kechib, Podtelkovning kelishini kutdi.

Podtelkov uch soatdan keyingina qaytib keldi. U bilan birga bir talay begona kazaklar olomoni yetib keldi. Ba'zilari ot ustida, ba'zilari otlarini yetaklab olgan, boshqalari Podtelkov va yasovul yordamchisi Spiridonov bilan orqama-orqa piyoda kelayotgan edilar. Spiridonov ilgari Podtelkov bilan bir batareyada xizmat qilgan edi. Endi u Podtelkov ekspeditsiyasini qo'lga tushirish uchun tuzilgan qo'shma otryadning boshlig'i edi. Podtelkov boshini g'oz ko'tarib, ortiqroq ichib qo'ygan kishidek qomatini tik tutishga harakat qilardi. Spiridonov nozik va kinoyaomuz kulgi bilan unga bir nima deb gapirardi. Ular orqasidan otliq bir kazak katta oq bayroqning naridan beri yo'nilgan dastasini ko'kragiga tirab kelardi.

Podtelkov otryadi turgan ko'chalar va hovlilarni hozir kelgan kazaklar o'rab olgan edi. Birdan g'ovur-g'uvur ko'tarildi. Kelgan-

larning ko'pi Podtelkov komandasidagi kazaklar bilan birga xizmat qilgan edi. Ular suyunishib baqirishar, kulishar edi.

— Voy, adash, qaysi shamol seni uchirdi?

— Omon-eson yuribsanmi, Proxor!

— Xudoga shukur.

— Bir-birimiz bilan jang qilishimizga oz qoldi-ya. Lvov yonida avstriyaliklarni quvganimiz esingdami?

— Danilo, otaxon! Bayramlar qutlug' bo'lsin.

— Seniki ham qutlug' bo'lsin! — shundan keyin cho'pillatib bir-birlarini o'pdilar: ikki kazak mo'ylovlarini silab bir-biriga qarab turar, kulishar, bir-birlarining yelkalariga urib qo'yishar edi.

Ularning yonidagi kazaklar o'rtasida shunday suhbat borardi:

— Biz hali ro'za og'izmiz, og'iz ochganimizcha yo'q.

— Iye, sizlar bolsheviklarsiz-ku, og'iz ochishni sizga kim qo'yibdi?

— Nima qilibdi, bolsheviklikka bolshevikmiz, ammo xudoga ishonamiz.

— Qo'y-e! Rostingmi?

— Xudo haqi!

— Bo'yningda kresting bormi?

— Mana, krest. — Yuzi tovoqdek norg'il qizil gvardiyachi kazak, lablarini cho'chchaytirib gimnastorkasining yoqasini yechdi-da, qizil serjun ko'kragidan zang bosib, ko'karib ketgan jez krestni olib ko'rsatdi.

— «Fitnachi Podtelkovni» tutish uchun tuzilgan otryaddagi panshaha va bolta ko'tarib kelgan chollar hayron bo'lib bir-birlariga qarab olishdi.

— Sizlarni Iso dinidan yuz o'girgan deb aytib edilar-ku!

Shaytonga sajda qilasizlar deb eshitib edik...

— Mish-mishlarga qaraganda, go'yo sizlar cherkovlarni talab, poplarni o'ldirar emishsizlar.

— Bekorchi gaplar, — deb javob berdi yuzi barkashdek qizil gvardiyachi. — Behuda gaplar bilan boshingizni aylantirishgan. Men Rostovdan chiqishdan avval, cherkovga borib, duo oldim.

— Iye, ja qiziq bo'p...ti-yu! — dedi dastasi yarmigacha arralangan nayza ushlagan xumkalla bir chol.

U xursand bo'lgandek chapak chalib yubordi.

Ko'cha-ko'ylarda, hovlilarda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashayotganlarning ovozi eshitilardi. Lekin oradan yarim soat o'tgandan keyin bir necha kazak, jumladan Bokov stanitsalik bir vaxmistr g'uj bo'lib to'plangan odamlarning orasini yorib, ko'cha bo'ylab kelaverdi.

— Podtelkov otryadida bo'lganlar yo'qlamaga hozirlansinlar! — deb qichqirdilar ular.

Pistoqirang ko'ylak kiygan va pogon taqqan yasovul yordamchisi Spiridonov peshonasiga qanddek oppoq ofitsercha kokarda taqqan furajkasini yechdi-da, atrofga alanglab qarab:

— Podtelkov otryadidan bo'lganlar chapga, chetan devor tomonga o'tsin! Qolganlar o'ng tomonga! Biz, ya'ni frontdosh qardoshlaringiz, sizning vakillaringiz bilan birlikda shunday qarorga keldik: sizlar barcha qurollaringizni topshirishingiz lozim, chunki qurol ko'tarib yurishingizdan xalq qo'rqyapti. Miltiq va boshqa yaroqlaringizni aravalaringizga qo'ying, biz ularni siz bilan birga qo'riqlaymiz. Otryadingizni Krasnokutskka jo'natamiz, siz o'sha yerdagi Sovetdan qurollaringizni batamom qaytarib olasiz.

Qizil gvardiyachi kazaklar orasida norozilik boshlandi. Hovli tomondan kimdir qichqirib gapirdi. Kumshatsk stanitsalik kazak baqirib:

— Topshirmaymiz! — dedi.

Odamlarga liq to'lgan ko'chalar va hovlilarda, g'ovur-g'uvur ko'tarildi.

Kelgan kazaklar o'ng tomonga o'tib olishdi; Podtelkov otryadidagi qizil gvardiyachilar ajralib ko'chaning o'rtasida so'ppayib qolishdi. Shinelining oldi ochiq Krivoshlikov javdirab atrofiga alanglab qaradi, Lagutin labini burdi, odamlar hayron bo'lib, g'ovur ko'tarishdi.

Qurol topshirmaslikka ahd qilgan Bunchuk, miltig'ini qo'lga oldi-yu, tez-tez yurib, Podtelkov yoniga keldi:

— Qurol-yarog'ni topshirmaymiz! Eshityapsanmi? — dedi.

— Endi vaqt o'tdi... — deb shivirladi Podtelkov, qo'lidagi otryad ro'yxatini asabiy holda g'ijimlab.

Ro'yxat Spiridonovning qo'liga o'tdi. U ro'yxatga ko'z yugurtirib chiqdi-da:

— Bu yerda bir yuz yigirma sakkiz odam bor... Qolganlari qayerda? — deb so'radi.

— Yo'lda qolishdi.

— E, shunday degin... Hay, mayli. Buyur, qurollarini keltirsinlar.

Podtelkov birinchi bo'lib, naganini g'ilofi bilan yechib topshirarkan, eshitilar eshitilmas:

— Qilich bilan miltiq aravada, — dedi. Qurol-yarog' topshirish boshlandi. Qizil gvardiyachilar bo'shashib, miltiqlarini aravalarga qo'yishar, to'pponchalarini esa chetan devorlar ustidan irg'itib yuborishar, hovlilarga tarqalishib berkitishar edi.

Spiridonov tishining oqini ko'rsatib, xushchaqchaq ovoz bilan:

— Qurol topshirmaganlarni tintiymiz! — dedi. Bunchuk boshchiligidagi qizil gvardiyachilarning bir qismi miltiqlarni berishdan bosh tortdi; ularni kuch bilan qurolsizlantirdilar.

Qishloqda pulemyot zamogini olib qochgan otliq kazak hammani tashvishga soldi. To's-to'polondan foydalanib, bir necha odam berkinib oldi. Ammo Spiridonov soqchilar qo'yib, Podtelkov bilan qolgan kazaklarni qurshab oldi-da, ularning yonlarini tintidi, yo'qlama qildi. Asirlar noxushlik bilan javob berar, ba'zilari baqirib:

— Tekshirishning nima hojati bor, hamma shu yerda! — derdi.

— Bizlarni Krasnokutskka haydab oboring! — O'rtoqlar, tezroq bo'ling!

Spiridonov pul qutisini muhrlab, kuchli soqchilar himoyatida Karginga jo'natdi, so'ngra asirlarni safga tizdi-da, birdaniga muomala va so'z ohangini o'zgartirib:

— Ikki qator bo'lib tur! So'lga ay-lan! So'lga buril, marsh! Ovozlaringni o'chir! — deb komanda berdi.

Qizil gvardiyachi qatorlarida norozilik tovushi eshitildi. Keyin tartib saqlamay jimgina yurib ketishdi, biroz o'tgach, qatorlar birbiriga aralashib ketdi.

Eng oxir o'z odamlarini qurol topshirishga ko'ndirgan Podtelkov, ehtimol hali ham bu ishning oqibati xayrli bo'lar deb gumon qilardi. Ammo asirlarni qishloqdan haydab chiqishlari bilan ularni nazorat qilib kelayotgan kazaklar otlari bilan ikki tomondan siqib kelaverdilar. Qizil soqolli, qulog'idagi isirg'asi eskirib qorayib ketgan keksa kazak so'l tomonda kelayotgan Bunchukni, hech nimadan hech nima yo'q, qamchi bilan solib qoldi. Bunchukning yuziga qamchi izi tushdi. Bunchuk mushtumini siqib unga tomon o'girilgan edi, boyagidan

ham kuchli ikkinchi zarba uni o'zini olomon ichiga olib qochishga majbur etdi. Bunchuk o'zini himoya etish uchun beixtiyor, shunday qilgan edi. Zich bo'lib ketayotgan o'rtoqlarining orasida siqilib ketar ekan, Annaning vafotidan keyin birinchi marta uning lablarida asabiy kulgi paydo bo'ldi va har bir insonda yashash istagi naqadar kuchli ekaniga hayron qoldi.

Asirlarni savalay boshladilar. Dushmanlarini qurolsiz holda ko'rgan chollar quturib, ular ustiga oti bilan bostirib borar, egilib, ularni qamchi bilan, qilichlarining orqasi bilan urar edilar.

Kaltak yeganlarning har biri beixtiyor siqilib o'rtaga kirib olishga urinardi; ur-sur, to'polon boshlandi, chinqiriqlar eshitildi.

Quyi stanitsalik, novchadan kelgan azamat bir kazak qo'llarini yuqoriga ko'tarib silkitar ekan:

— O'ldiradigan bo'lsanglar, darhol o'ldiringlar!.. Bu nima rasvogarchilik! — dedi.

— Qani ahd-paymoningiz? — deb jingilladi Krivoshlikov.

Chollar pisib qolishdi. Asirlardan birining: «Bizni qayerga haydab ketyapsiz?» degan savoliga, yosh bir frontchi, aftidan bolsheviklarga xayrixoh bo'lgan soqchi, asta dedi:

— Ponomaryov qishlog'iga olib boring, — deb buyruq berilgan. Birodarlar, qo'rqmang! Sizlarga yomonlik qilmaymiz.

Asirlarni Ponomaryov qishlog'iga haydab ketdilar.

Spiridonov ikki kazak bilan torgina bir do'konning eshigi oldida turib, odamlarni birin-ketin ichkariga kiritar ekan:

— Oting? Familiyang? Qayerliksan? — deb so'rar, olingan javoblarni g'ijimlanib ketgan dala daftariga yozib qo'yardi.

Navbat Bunchukka keldi.

— Familiyang nima? — deb so'radi Spiridonov qalamining uchini qog'ozga tirab; so'ngra peshonasi keng qizil gvardiyachining tumtaygan yuziga nazar tashladi; uning lablarini cho'chchaytirib, tuflashga tayyorlanayotganini ko'rdi-yu, o'zini chetga olib qochib: — O't, ablah! Familiyasiz ham ajal topasan! — dedi.

Tambovlik Ignat ham Bunchukdan o'rnak olib, Spiridonovga javob bermadi. Yana kimdir uchinchi bir kishi o'zini tanitmasdan o'lishni istadi, indamay ostonadan hatlab ichkari kirdi.

Spiridonov do'konni qulflab qorovul qo'ydi.

Otryad aravalaridan tushirilgan oziq-ovqat va qurol-yarog'larni do'kon yonida bo'lishib olayotgan paytda, Podtelkovni qo'lga tushirishda ishtirok etgan xutorlarning vakillaridan shoshilinch sur'atda tashkil etilgan harbiy-dala sudi majlis qilayotgan edi.

Majlisga Bokov stanitsalik, chorpahildan kelgan, sap-sariq qoshli yasovul Vasiliy Popov raislik qilardi. U furajkasini yassi ensasiga surib qo'yib, chetlariga dastro'mol osib qo'yilgan toshoyna tagidagi stol yonida tirsaklarini kerib o'tirgan edi. Sud a'zosi bo'lgan kazaklarning yuziga u moy bosgan muloyim-jiddiy ko'zlarini tikib o'tirardi. Beriladigan jazo choralari muzokara qilinardi.

— Hurmatli qariyalar, bularga qanday chora ko'ramiz? — deb savolini takrorladi Popov.

So'ngra yonida o'tirgan yasovul yordamchisi Seninga engashib bir nima deb shipshidi. Senin darhol bosh irg'ab, rozilik bildirdi; Popovning ko'z qorachiqlari kichraydi, ko'zlarining burchidagi shodlik ajinlari yo'qoldi va siyrak kipriklari ostidagi ko'zlarida qahr-g'azab o'tlari chaqnab ketdi.

— Mol-mulkimizni talamoq va kazaklarni mahv etmoq uchun kelgan vatan xoinlariga biz nima chora ko'ramiz?

Milyutin stanitsalik, eski mazhabdagi Fevralev birov turtib yuborgandek joyidan sapchib turdi va:

— Otib tashlash kerak! Hammasini! — dedi telbalardek boshini qaltiratib; qonga to'lgan g'ilay ko'zlarini hammaga yugurtirib, tufugini sachratib: — Isoni sotgan bu nobakorlarga rahm-shafqat yo'q! Oralaridagi juhudlarni o'ldirish kerak!.. O'ldirish!.. Dorga tortish!.. Olovda kuydirish kerak! — deb baqirib yubordi.

Uning zig'irpoya tolasidek siyrak soqoli silkinardi, oqargan qizg'ish sochlari paxmayib ketgan edi. U harsillab joyiga o'tirdi, yuzi bo'riqib ketgan, lablari ko'pirgan edi.

Sud a'zolaridan biri bo'lgan Dyachenko:

— Surgunga yuborsak... qanday bo'larkin, a? — dedi dudmollanib.

— Otilsin!

— O'limga mahkum etilsin!

— Shularning gapini quvvatlayman!

— Xalq oldida jazolab o'ldirilsin!

— Shumg'iyalarni yulib tashlash kerak!

— O'ldirilsin!

— Otib tashlash kerak, albatta! Boshqa gap bo‘lishi mumkin emas! — dedi g‘azablanib Spiridonov.

Har qichqiriqdan keyin yasovul Popovning lablari so‘ljayib ketar, biroz avvalgi, o‘zidan va atrofdagilardan mamnun bo‘lgan mehribon kishiga xos ifoda yuzida yo‘qola borib, lab-dahani osilardi.

— Otilsinlar!.. Yoz!.. — deb buyurdi u kotibga qayrilib qarab.

Deraza tagida o‘tirib, lampaning piligini hadeb chiqazayotgan g‘o‘labir chol kazak:

— Podtelkov bilan Krivoshlikovni ham... bu dushmanlarni ham otish kerakmi? Bu ozlik qiladi-ku! — dedi tutaqib.

— Boshliq bo‘lganlari uchun ularni dorga osish kerak! — deb qisqa javob qildi Popov, so‘ngra kotibga qarab takrorladi: — Yoz: «Qaror. Biz tubanda qo‘l qo‘yuvchilar...»

Kotib yasovulning uzoq qarindoshi bo‘lib, uning ham familiyasi Popov edi. U malla sochlari silliq qilib taralgan boshini engashtirib, peroni qirtillatib yoza boshladi.

— Lampamoy sob bo‘lganga o‘xshaydi... — deb xo‘rsindi allakim achinib.

Lampa lip-lip qilib piligi sasib yonardi, sukunat ichida shiftdagi o‘rgimchak iniga ilingan pashsha g‘ing‘illar, qog‘oz ustida pero qirtillar, sud a’zolaridan kimdir pishillab nafas olardi.

QAROR

1918-yil 27-aprel (10-may)da Kargin, Bokov va Krasnoxutsk stanitsalarining quyidagi qishloqlaridan saylangan vakillar:

Vasilevskdan	Stepan Maksayev
Bokovdan	Nikolay Krujilin
Fomindan	Fyodor Kumov
Verxne-Yablonovskdan	Aleksandr Kuxtin
Nijne-Dulenskdan	Lev Sinev
Ilinskdan	Semyon Volotskov
Konkovskdan	Mixail Popov
Verxne-Dulenskdan	Yakov Rodin
Sevostyanovdan	Aleks Frolov
Milyutin stanitsasidan	Maksim Fevralev
Nikolayevdan	Mixail Groshev
Krasnokutsk stanitsasidan	Ilya Yelankin

Ponomaryov qishlog'idan	Ivan Dyachenko
Yevlantyevdan	Nikolay Krivov
Malaxovdan	Luka Yemelyanov
Novo-Zemsevdan	Matvey Konovalov
Popovdan	Mixail Popov
Astaxovdan	Vasiliy Shchegolkov
Orlovdan	Fyodor Chekunov
Klimo-Fyodorovskdan	Fyodor Chukarin

V.S. Popov raisligi ostida

QAROR QILDILAR:

1. Tubandagi ro'yxatda nomlari qayd etilgan 80 odam, mehnatkash xalqni talagan va aldagan bu kishilar otib o'ldirilsin, bu guruhning boshlig'i bo'lgan Podtelkov bilan Krivoshlikov dorga tortilsin.

Mixaylov qishlog'ilik kazak Anton Kalitvensov jinoyatini isbot etadigan dalil bo'lmaganidan oqlansin.

Podtelkov otryadidan qochgan va Krasnokutsk stanitsasida qamoqqa olingan Konstantin Melnikov, Gavrila Melnikov, Vasiliy Melnikov, Aksenev va Vershinin ushbu qarorning birinchi moddasiga muvofiq jazolansin (o'lim jazosi).

Jazo ertaga, 28-aprel (11-may), soat 6 da ijro etilsin.

Qamoqqa olinganlarni kuzatib turish uchun yasovul yordamchisi Senin qorovul qilib belgilansin, uning ixtiyoriga bugun kech soat 23 gacha ikkitadan qurolli kazak yuborilsin: bu moddada ko'rsatilgan jazo chorasini ijro etish sud a'zolari mas'uliyatiga yuklatilsin: jazoni har bir qishloqdan yuborilgan qorovul ijro etadi; mahbuslar otiladigan joyga beshtadan kazak yuborilsin.

Asl nusxasini imzolaganlar:

Harbiy bo'lim raisi *V.S. Popov.*

Kotib *A.F. Popov.*

Harbiy-dala sudi tomonidan 1918-yil 27-aprelda o'limga hukm qilingan Podtelkov otryadi a'zolarining ro'yxati

№	Stanitsalar	Ismi va familiyasi	Hukm
1	Ust-Xopyor	Fyodor Podtelkov	Osildi
2	Yelansk	Mixail Krivoshlikov	Osildi
3	Kazansk	Avraam Kakurin	Otildi
4	Bukanovsk	Ivan Lagutin	Otildi
5	Nijegorod	Aleksey Iv. Orlov	Otildi
6	Nijegorod	Yefim Mix. Vaxtel	Ogildi
7	Ust-Bistryansk	Grigoriy Fetisov	Otildi
8	Migulin	Gavril Tkachov	Otildi
9	Migulin	Pavel Agafonov	Otildi
10	Mixaylov	Aleksandr Bubanov	Otildi
11	Lugansk	Kalinin	Otildi
12	Migulin	Konstantin Mrixin	Otildi
13	Migulin	Andrey Konovalov	Otildi
14	Poltava sh.	Konstantin Krita	Otildi
15	Kotovskoy	Pavel Poznyakov	Otildi
16	Migulin	Ivan Boldiryov	Otildi
17	Migulin	Timofey Kolichev	Otildi
18	Filim-Chelb.	Dmitriy Volodarov	Otildi
19	Chernishevskiy	Georgiy Karpushin	Otildi
20	Filim-Chelb.	Ilya Kalmikov	Otildi
21	Migulin	Saveliy Ribnikov	Otildi
22	Migulin	Polikarp Gurov	Otildi
23	Migulin	Ignat Zemlyakov	Otildi
24	Migulin	Ivan Kravsov	Otildi
25	Rostov	Nikifor Frolovskiy	Osildi
26	Rostov	Aleksandr Konovalov	Otildi
27	Migulin	Pyotr Vixlyansev	Otildi
28	Kletskoy	Ivan Zotov	Otildi
29	Migulin	Yevdokim Babkin	Otildi
30	Mixaylovsk	Pyotr Svinsov	Otildi
31	Dobrinskiy	Illarion Chilobitchikov	Otildi
32	Kazansk	Klimentiy Dronov	Otildi
33	Ilovlinsk	Ivan Avilov	Otildi
34	Kazansk	Matvey Sakmatov	Otildi
35	Nijne-Kurmoyarsk	Georgiy Pupkov	Otildi
36	Ternovsk	Mixail Fevralev	Otildi
37	Xerson sh.	Vasiliy Panteleymonov	Otildi
38	Kazansk	Porfiriy Lyubuxin	Otildi

39	Kletskoy	Dmitriy Shamov	Otildi
40	Filonovsk	Safon Sharonov	Otildi
41	Migulin	Ivan Gubarev	Otildi
42	Migulin	Fyodor Abakumov	Otildi
43	Lugansk	Kuzma Gorshkov	Otildi
44	Gundorovsk	Ivan Izvarin	Otildi
45	Gundorovsk	Miron Kalinovsev	Otildi
46	Mixaylovsk	Ivan Farafonov	Otildi
47	Kotovskoy	Sergey Gorbunov	Otildi
48	Nijne-Chirsk	Pyotr Alayev	Otildi
49	Migulin	Prokopiy Orlov	Otildi
50	Lugansk	Nikita Shein	Otildi
51	St. Mexanik RPTK	Aleksandr Yasenskiy	Otildi
52	Rostov	Mixail Polyakov	Otildi
53	Razdorsk	Dmitriy Rogachev	Otildi
54	Rostov	Robert Frashenbruder	Otildi
55	Rostov	Ivan Silender	Otildi
56	Samara sh.	Konstantin yefimov	Otildi
57	Chernishevsk	Mixail Ovchinnikov	Otildi
58	Samara sh.	Ivan Pikalov	Otildi
59	Ilovlinsk	Mixail Koretskov	Otildi
60	Kumshatsk	Ivan Korotkov	Otildi
61	Rostov	Pyotr Biryukov	Otildi
62	Razdorsk i/m	Ivan Kabakov	Otildi
63	Lukovsk	Tixon Molitvinov	Otildi
64	Migulin	Andrey Shvetsov	Otildi
65	Migulin	Stepan Anikin	Otildi
66	Kremensk	Kuzma Dichkin	Otildi
67	Baklanovsk	Pyotr Kabanov	Otildi
68	Mixaylovsk	Sergey Selivanov	Otildi
69	Rostov	Artyom Ivanchenko	Otildi
70	Migulin	Nikolay Konovalov	Otildi
71	Mixaylovsk	Dmitriy Konovalov	Otildi
72	Krasnokutsk	Pyotr Lisikov	Otildi
73	Migulin	Vasiliy Miroshnikov	Otildi
74	Migulin	Ivan Voloxov	Otildi
75	Migulin	Yakov Gordeyev	Otildi

Bulardan uch kishi o'zining kimligini aytmadi.

Kotib mahkum qilinganlarning ro‘yxatini yozib tamomlagandan keyin qarorning oxiriga ostin-ustun ikki nuqta qo‘ydi-da, qalamni yonidagi kishining qo‘liga tutqizdi:

— Qo‘l qo‘y!

Novo-Zemsev qishlog‘ining vakili, nemislarning kulrang movutidan tikilgan, yoqasi qizil hoshiyali kiteldagi Konovalov gunohkor kishidek kulimsirab, qog‘oz ustiga engashdi. U yo‘g‘on, qadoq bosgan, ko‘mirdek qop-qora bukilmas qo‘llari bilan uchi chaynalgan kalta qalamni tutamlab familiyasining bosh harfi bo‘lgan «K» harfini yaxshi yozishga tirishib:

— Judayam savodxon emasman, — dedi.

Uning ketidan Rodin imzo chekdi, u ham terlab-pishib inqillab-sinqillab qovog‘ini solgan holda qalam yurgizar edi. Boshqa biri esa oldin ruchkani silkitdi-da, biroz ochiq joy qoldirib imzo chekdi, yozayotganda osilib ketgan tilini tortib oldi. Popov katta-katta qilib o‘z familiyasini yozdi-yu, o‘rnidan turdi, terlab ketgan yuzini dastro‘moli bilan artayotib:

— Ro‘yxatni qarorga tirkash kerak, — dedi esnab.

Kotib siyohni quritish uchun qog‘ozni devorga bosayotganda diqqat bilan qarab turgan Senin sho‘x kulib:

— Kaledin u dunyoda bizga rahmat deydi, — dedi. Uning hazil-mutoyibasiga hech kim javob qilmadi. Hamma jimjit, uydan chiqib ketdi.

Qorong‘i dahlizning eshigidan chiqib ketayotganda kimdir, xo‘rsinib:

— Yo Isoyi masih! — deb qo‘ydi.

XXIX

Nursiz, sarg‘ish yulduzlarning sutdek yog‘dusiga cho‘mgan bu kechada, tiqilib ketgan do‘kon ichida hech kim mijja qoqmay tong ottirdi. Gap-gapga qovushmas, bir yoqdan dimiqqan havo, ikkinchi yoqdan g‘am va tashvish yuraklarni ezar edi.

Kechqurun qizil gvardiyachilardan biri tashqariga chiqishga ruxsat so‘radi:

— Eshikni och, o‘rtoq! Tashqariga chiqib yozilib kelay.

U bo‘z ko‘ylagining etagini chalvaridan chiqargan, yoqasi ochiq, yalangoyoq holda qaqqayib turar va bo‘riqib ketgan yuzini qulf teshigiga tirab:

— Eshikni ochsang-chi, o‘rtoq, — der edi.

Qorovul turganlardan biri:

— Sening og‘ayning it, — deb javob qildi.

— Ocha qol, og‘ayni, — dedi qizil gvardiyachi yalinib.

Qorovul miltig‘ini yerga qo‘ydi, qorong‘i tushgach, tunaydigan joylariga uchib o‘tayotgan yovvoyi o‘rdaklarning qanot tovushlariga quloq solib turdi-da, papirosini chekib bo‘lib lablarini qulf teshigiga tirab:

— Ishtoningga siyaver, ablah. Bir kechada chalvaring titilib ketmaydi, kallayi saharda ho‘l chalvaring bilan narigi dunyoga jo‘natadilar, — dedi.

Qizil gvardiyachi eshikdan nari ketib, alam bilan:

— Bizga bu ham oz!.. — deb qo‘ydi. Ichkaridagilar g‘uj bo‘lib o‘tirishardi. Podtelkov bir burchakda o‘tirib, cho‘ntaklarini bo‘shatdi va onadan so‘kib, bir talay qog‘oz pulni yirtdi. Pullarni burda-burda qilib tashlagandan keyin etigini yechdi va yonida yotgan Krivoshlikovning yelkasiga qo‘l tegizib, dedi:

— Bizni tuzoqqa ilintirdilar, toza laqillatdilar. Odamga alam qilar ekan, Mixaylo! Bir vaqtlar, bolalik chog‘imda otamning eski miltig‘ini olib, Donning nariyog‘iga ov qilgani borar edim, o‘rmon ichi yashil gumbazga o‘xshaydi... Ko‘l bo‘yiga kelsang o‘rdaklar suzib yurganini ko‘rasan. Ba’zan otib tegizolmas edim, shunday alam qilib ketardiki, dodlab yuborgim kelardi. Hozir ham o‘shanday alam qilyapti, o‘qim xato ketdi: agar Rostovdan uch kun ilgari chiqsak, bu yerda ajal domiga ilinmas edik. Butun kontrlarning oyog‘ini osmondan keltirardik.

Krivoshlikov tishlarini g‘irchillatib, qorong‘ilikda kulimsirab dedi:

— Padarlariga la’nat, mayli, o‘ldirishsin! O‘lim — judayam dahshatli narsa emas... «Men bir narsadan, u dunyoda bir-birimizni taniyolmay qolamiz deb qo‘rqaman...» Biz, Fedya, begona kishilardek uchrashamiz... Dahshat!

Podtelkov yirik va issiq kaftini o‘rtog‘ining yelkasiga qo‘ydi-da, o‘pka qilib:

— Qo‘ysang-chi! Masala boshqa yoqda, — dedi.

Lagutin allakimga o‘z qishlog‘i to‘g‘risida hikoya qilar, boshi uzun bo‘lgani uchun bobosi unga «Qilich» deb laqab qo‘yganini, bir marta birovning poliziga tushgani uchun bobosi uni qamchilaganini so‘zlar edi.

O‘sha kecha u yoqdan, bu yoqdan gaplashib o‘tirishdi, suhbat bir-biriga qovushmas, uzilib-uzilib qolar edi.

Bunchuk eshik oldiga joylashib olib, tirqishdan kirib turgan havoni chanqoqlik bilan yutib nafas olardi. U boshidan o‘tgan narsalarni xotirladi, birdaniga onasi esiga tushdi-yu, yuragi jazillab ketdi, onasi haqidagi esdaliklarini unutishga harakat qildi, Annani va yaqindagina o‘tgan kunlarni esiga tushirdi... Bu xotiralar unga saodatmand bir osoyishtalik bag‘ishladi. O‘lim haqidagi fikr uni ko‘p cho‘chitmas edi. Uni hayotdan mahrum etishlari to‘g‘risidagi fikr, ilgarigidek, uni vahimaga solmas, qo‘rqitmas edi. U achchiq va mashaqqatli safardan keyin nash’asiz bir istirohatga tayyorlanayotganday, o‘lishga tayyorlanardi: shu qadar charchagan edi, a’zoyi badani shu qadar zirqirab og‘rirdiki, hech bir narsa uni hayajonlantirolmasdi.

Undan sal nariroqda kazaklar: xotinlar, muhabbat, ayol kishining erkak qalbiga bag‘ishlaydigan katta-kichik ehtiroslari to‘g‘risida goh chaqchaqlashib, goh ma’yuslanib hikoya qilishardi.

Oilalari, qavm-qarindoshlari, yaqinlari to‘g‘risida gaplashishardi. G‘allaning yaxshi bo‘lgani: bug‘doy, ichiga zag‘cha kirsa ko‘rinmaydigan bo‘lib qolgani to‘g‘risida gaplashishardi. Aroq va ozodlikni qo‘msashar, Podtelkovni so‘kishardi. Ammo uyqu ko‘plar ustida qora qanotini kergan, jisman va ma’nan charchab, horigan odamlar yotgan, o‘tirgan, turgan joylarida uxlab qolishgan edi.

Tongotar paytida allakim tushdami yoki o‘ngdami, ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Yoshlik chog‘idan beri sho‘rtang, ko‘z yoshlarining tamini unutgan katta yoshdagi to‘pori kishilarning yig‘isi dahshatli bo‘ladi.

— Ovozingni o‘chir-e, la’nati!

— Voy, xotinga o‘xshamay o‘l!

— Tovushingni o‘chir, bo‘lmasa kekirdagingni sug‘urib olaman.

— Bola-chaqali bo‘lib turib, ko‘zining siydigini oqizadi-ya!

— Bu yerda odamlar uxlab yotibdi, u bo‘lsa... uyalmaydiyam!

Yig‘lagan odam burnini tortib, keyin qoqib tashladi-da, jimib qoldi.

Yana oraga jimjitlik cho'kdi. Har tarafdan papiros cho'g'i yiltillab ko'rinar, biroq odamlar mum tishlagandek jim yotar edilar. Havodan g'uj bo'lib yotgan erkaklarning ter hidi, tutun isi va kechasi tushgan shabnamning xushbo'y hidi kelar edi.

Qishloqdagi bir xo'roz qichqirib, tong otganini ma'lum qildi. Oyoq tovushlari va temirlarning shaqir-shuquri eshitildi.

Qorovullardan biri past ovoz bilan:

— Kelayotgan kim? — deb baqirdi.

Yosh bir yigit yo'talib, quvnoq ovoz bilan uzoqdan:

— O'zimiznikilar. Podtelkovning sheriklariga mozor qazigani ketyapmiz, — deb javob berdi.

Do'kon ichidagidarning hammasi birdan g'imirlab qoldi.

XXX

Tatarsk kazak otryadi xorunjiy Petro Melexov komandasi ostida 11-mayda tongotar paytida Ponomaryov qishlog'iga yetib keldi.

Qishloqda Chir kazaklari g'imirlab yurishar, otlarini sug'organi borishar, to'da-to'da bo'lib, qishloqning bir chekkasiga ketishar edi. Petro otryadini qishloqning o'rtasida to'xtatdi-da, otlardan tushishga buyruq berdi. Bir necha kishi ularning oldiga keldi.

— Qayoqdan kelyapsizlar, kazaklar? — deb so'radi ulardan biri.

— Tatarskdan.

— Sal kechikib keldilaring... Sizsiz ham Podtelkovni qo'lga tushirdik.

— Qayerda ular? Haydab olib ketganlari yo'qmi?

— Hov anavi yerda... — dedi kazak tomi nishabli do'konni qo'li bilan ko'rsatib.

Xristonya, Grigoriy Melexov yana bir necha odam yaqinroq kelishdi.

— Endi ularni qayoqqa yuborishar ekan? — deb qiziqsinib so'radi Xristonya.

— U dunyoga.

— U dunyoga? Nima deb akillayapsan? — deb Grigoriy kazakning shineli etagidan ushladi.

— Senam akillayverma, janob ofitser! — deb o'dag'aylab javob berdi kazak, so'ngra Grigoriyning changalidan etagini sekin chiqarib

oldi. — Qara, hov anavi yerda ularga dor qurib qo'yibdilar. — Kazak ikkita quruq tol orasiga qurilgan dorni ko'rsatdi.

— Otlarni hovlilarga olib kirib bog'la! — deb buyruq berdi Petro.

* * *

Osmon yuzini bulut qoplab oldi. Yomg'ir tomchilab yog'a boshladi. Kazaklar va ayollar to'p-to'p bo'lib qishloqning chekkasiga yo'l oldilar. Soat 6 da hukm ijro etiladi degan xabarni eshitgan Ponomaryov qishloq aholisi xuddi qiziq bir tomoshaga ketayotgandek, dor tomon ketmoqda edi. Kazak ayollar bayram vaqtidagidek yasangan-tusangan, ko'plari bolalarini yetaklab olgan edi. Olomon dor atrofida va chuqurligi ikki gazcha keladigan go'r ustida g'uj bo'lib turar edi. Bolalar xandaqning bir chetiga uyilib qo'yilgan tuproqni bosib yurishar; kazaklar to'dalanishib, ijro etiladigan hukmni qizg'in muhokama qilishardi; ayollar qayg'urib shivirlashar edi. Uxlayverib yuzi shishib ketgan Popov yetib keldi-da, jiddiy qiyofada og'zidagi papirosini aylantirib, qorovullikda turgan kazaklarga xirillab buyruq berdi:

— Xaloyiqni xandaqdan nari haydang! Spiridonovga ayting, birinchi guruhni olib kelsin, — Popov soatiga qaradi-yu, bir chekkaga chiqib turdi va qorovullar tomonidan orqaga surilgan rang-barang kiyimdagi odamlarning dor tagidan nari ketib, uni yarim doira shaklida o'rab olayotganini tomosha qildi.

Spiridonov bir necha nafar kazak bilan tez-tez yurib do'kon tomon jo'nadi. Yo'lda unga Petro Melexov duch keldi.

— Sizning qishloqdan talabgorlar bormi?

— Qanaqa talabgorlar?

— Hukmni ijro etishni istaganlar.

— Bunaqalar yo'q va topilmaydi ham! — deb keskin javob berdi Petro so'ngra yo'lini to'sgan Spiridonovni chetlab o'tib ketdi.

Lekin talabgorlar topilib qoldi. Mitka Korshunov furajkasi ostidan dikkayib chiqib turgan sochlarini kafti bilan tekislab, lapanglaganicha Petro oldiga keldi-da, yashil ko'zlarini qisib turib:

— Men otaman... Nega «yo'q» deysan. Men roziman, — dedi-yu, kulimsirab yerga qaradi: — Menga o'q ber. Bir oboymagina o'qim bor.

Mitka Korshunov, yuzi qahr-g'azabdan tirishib ketgan, rangi dokadek Andrey Kashulin bilan qalmoqbashara Fedot Bodovskov talabgor ekanliklarini bildirdilar.

O'limga mahkum qilinganlarning birinchi guruhi soqchi kazaklar qurshovida do'kon tomondan kelaverdi, g'uj bo'lib turgan olomon orasida gurullagan ovozlar, shov-shuv ko'tarildi.

Yalangoyoq, qora movutdan keng galife kiygan, charm kamzulining oldi ochiq Podtelkov oldinda kelardi. U katta oq oyoqlarini loyga qattiq-qattiq bosib dadil yurib kelardi, bir payt sirg'anib ketib, chap qo'lini ko'tardi-da, muvozanatini saqlab qoldi. Rangi murdadek oqarib ketgan Krivoshlikov uning yonida arang yurib borardi. Uning ko'zlari yonar, azob chekayotgandek, lablari uchib turardi. U yelkasiga tashlangan shinelini to'g'rilab qo'yib, go'yo sovqotgandek junjikib yelkalarini qisib olgan edi. Ularni negadir yechintirishmagan, ammo qolganlar ichki ko'ylak-ishtonda edilar. Oyoqlarini qattiq-qattiq bosib kelayotgan Bunchukning yonida mayda qadam tashlab Lagutin kelardi. Ularning ikkovlari ham yalangoyoq edilar. Lagutinning ishtoni yirtilgan, siyrak jun o'sgan sap-sariq boldiri ko'rinib turar edi. U uyalganidan yirtiq ishtonini ushlab borar, lablari titrardi. Bunchuk esa soqchilarning boshi ustidan kulrang bulut chulg'ab olgan ufqqa qarardi. U bir narsani poylab turgandek, o'tkir, tetik ko'zlarini zo'r berib ochib-yumar, keng kaftini ochiq yoqasi ichiga suqib, jun bosib ketgan ko'kragini ishqalardi. U go'yo erishib bo'lmaydigan, xursand qiladigan bir hodisani kutayotgandek edi... Ba'zilar o'zlarini beparvolikka solar, yuzlari loqayd ko'rinardi: soch-soqoli oqargan bolshevik Orlov g'urur bilan qo'llarini silkitib borar, kazaklarning oyoqlari ostiga tupurar edi; lekin ikki-uch kishining ko'zlariga shu qadar g'am cho'kkan, bir holatdagi yuzlarida shu qadar dahshat ifodasi bor ediki, hatto soqchilar ham ulardan ko'zlarini olib qochar, tasodifan ko'zlari tushib qolsa, yuzlarini teskari o'girar edilar.

Ular tez-tez yurib ketdilar. Podtelkov tiyg'onib ketayotgan Krivoshlikovni suyab olgan. Oq ro'mol o'ragan ayollar, qizil-ko'k tusli furajka kiygan kazaklar yaqinlashib kelmoqda. Podtelkov yer ostidan olomonga qarab, behayo so'zlar bilan ovoz chiqarib so'kinadi va o'ziga ko'z qirini tashlab turtan Lagutindan so'raydi.

— Ha, nima gap?

— Bir necha kun ichida soch-soqoling oqarib qolibdi... Qirov tushganga o'xshaydi.

— Oqarmay nima qilsin, — deydi Podtelkov chuqur xo'rsinib; so'ngra ensiz peshonasining terini artib gapini takrorlaydi: — Bunday yaxshi kunlarni ko'rgan kishining, albatta, soch-soqoli oqaradida... Bo'ri ham qafasga tushib qolsa, qarib-qartayib qoladi, men — insonman-ku!

Ular jimib qoladilar. Olomon yaqin kelib ularni o'rab oldi. O'ng tomonda soz tuproqli uzun qabr ko'zga tashlanib turibdi. Spiridonov:

— To'xta! — deb buyruq beradi.

Podtelkov bir qadam olg'a chiqib, olomonning birinchi qatorida turgan odamlarga horg'in ko'zlarini yugurtirdi: ularning ko'pchiligi soqollari oqargan yoki oq oralagan kishilar. Frontdan qaytganlar qayerdadir orqada turishib, vijdon azobini chekardilar. Podtelkov salqi mo'ylovlarini qimirlatib qo'yib, past ovozda dona-dona qilib gapirdi:

— Qariyalar! Krivoshlikov bilan menga sheriklarimizning o'limni qanday qarshi olganlarini ko'rishga ijozat bering. Bizni keyin osarsiz, hozir esa do'stlarimiz, o'rtoqlarimizga qarab turib, ruhan zaif bo'lganlarga dalda berishni istaymiz.

O'rtaga shunday bir sukunat cho'kdiki, furajka ustiga tushayotgan yomg'irning chirtillagani eshitilardi...

Yasovul Popov qayerdadir orqada, tamakidan sarg'ayib ketgan tishlarini irjaytirib kulib turardi; u e'tiroz bildirmadi; chollar esa poyma-poy baqirishib:

— Izn beramiz!

— Mayli, tomosha qilsinlar!

— Ularni xandaqdan nariroqqa olib boring! — dedilar.

Krivoshlikov bilan Podtelkov olomon turgan joyga qarab yurdi, xaloyiq ularga yo'l ochib ko'chaning ikki chetiga chiqib turdi. Krivoshlikov bilan Podtelkov nariroqqa borib turishdi, olomon ularni o'rab oldi, yuzlarcha maroqli ko'zlar ularga tikildi: ular orqalari qabrga o'girilgan qizil gvardiyachilarni kazaklar no'noqlik bilan safga tizayotganlarini tomosha qilishdi. Podtelkovga ular yaxshi ko'rinib turibdi. Krivoshlikov esa gardani qirilmagan bo'ynini cho'zib, oyoq uchiga bosib qaraydi.

Bunchuk chap tomondan uchinchi o'rinda. U biroz bukchayib, ko'zlarini yerdan olmay, og'ir xo'rsinadi. Uning nariyog'idagi Lagu-

tin bukchayib ko'ylagining etagini tortib, ishtonining yirtilgan joyini berkitishga urinadi, uchinchisi — tambovlik Vanka Boldiryov. U tanib bo'lmaslik darajada o'zgargan, hech bo'lmasa yigirma yillik qartaygan. Podtelkov beshinchisining kimligini bilishga urinadi: u Kamenskdan shu yerga kelguncha o'zi bilan musibatlarga ham, xursandchiliklarga ham sherik bo'lib kelgan Kazansk stanitsalik kazak Matvey Sakmatovni zo'rg'a tanidi. Yana ikki kishi kelib, xandaqqa orqa qilib turdi. Petro Lisikov kazaklarning jig'iga tegib kuladi, onadan so'kadi, jimib qolgan olomonga qarab mahkam qisgan mushtlarini do'laytiradi. Koretskov miq etmay turadi. So'nggi kishini qo'lda ko'tarib kelishadi. U orqasiga egilib, o'liknikidek osilib qolgan oyoqlari bilan yer chizib keladi va o'zini sudrab kelayotgan kazaklarga yopishib, ko'z yoshi bilan yuvilgan yuzini u yon-bu yon burib tipirchilaydi:

– Qo'yib yuboring, birodarlar! Xudo hurmati uchun qo'yib yuboring! Og'aynilar! Aziz birodarlar!.. Nima qilyapsiz?! Men german urushida xizmatlarim uchun to'rtta krest olganman!.. Bola-chaqam bor!.. Yo xudo, men begunohman!.. Voy, nega unaqa qilyapsizlar?

Novcha atamanli kazak tizzasi bilan uning ko'kragiga turtib qabr yoniga turg'izib qo'ydi. Qarshilik ko'rsatayotgan bu kishini Podtelkov endi tanidi. Tanidi-yu, dahshatga tushdi. Bu axir jasoratli qizil gvardiyachi, 1910-yilda harbiy xizmatga kirgan migulinlik kazak, Georgiy krestining to'rttala darajasiniyam olgan, ko'rkam, sariq mo'ylovli yigit edi. Uni oyoqqa turg'izib qo'ydilar, biroq yana yiqilib tushdi; u kazaklarning oyog'i ostida sudralib, qovjiragan lablari bilan ularning etiklarini, yuziga tepgan etiklarini o'pib, jon-jahdi bilan:

— O'ldirmanglar! Rahm qilinglar!.. Uchta bolam bor... qizim bor... sadag'ang ketaylar! — deb xirilladi va atamanli kazakning tizzasini quchoqladi, ammo kazak sapchib, o'zini chetga oldi, nag'alli etigi bilan o'xshatib uning qulog'iga tepdi, qulog'idan tizillab qon chiqib oppoq yoqasi ichiga oqib tusha boshladi.

— Turg'izib qo'ysang-chi! — deb baqirdi Spiridonov g'azab bilan.

Uni bir amallab ko'tarib turg'izib qo'yishdi-da, yonidan qochishdi. Xandaqning narigi tomonida talabgorlar miltiqlarini qo'lga olib shaylanib turishdi. Xaloyiq «uh» deb yubordi-yu, jimib qoldi. Ayollardan biri xunuk ovoz bilan chinqirib yubordi.

Bunchuk bo'z rangli tuman bilan qoplangan osmonga, ustida yigirma to'qqiz yil sargardon bo'lib yurgan ma'yus yerga yana bir

marta qaragisi kelardi. Boshini ko'tarib, o'n besh qadam narida zich bo'lib saf tortgan kazaklarni ko'rdi: ulardan biri, ensiz oq peshonasiga furajkasining ostidan sochlari tushib turgan kazak, katta yashil ko'zlarini qisib, oldinga biroz egilib, lablarini qimtib, Bunchukning ko'kragini mo'ljalga olgan edi. O'q uzilmasdan burun Bunchukning qulog'ini chinqiriq ovozi teshib o'tgudek bo'ldi, boshini o'girib qaradi: yuziga sepkil toshgan yoshgina juvon, xaloyiq ichidan chiqib, qishloqqa qarab chopib ketdi, u bir qo'lidagi bolani bag'riga mahkam bosib olgan, ikkinchi qo'li bilan zo'r berib uning ko'zini berkitar edi.

Oldinma-keyin o't ochilgandan keyin, chuqur ustida turgan sakkiz kishi qulab tushgach, o'q otganlar chuqur tepasiga chopib kelishdi.

Mitka Korshunov o'zi otgan qizil gvardiyachining sapchib-sapchib, o'z yelkasini tishlayotganini ko'rdi-yu, unga qarata yana o'q uzdi, so'ngra Andrey Kashulinga qarab:

— Manavi shaytonning qilgan ishini qara, yelkasini qon chiqquncha tishlab, xo'ddi bo'ridek tovush chiqarmay o'ldi-ya, — dedi.

Shundan keyin mahkum etilganlardan o'n kishini qo'ndoqlar bilan urib, chuqur yoqasiga haydab keltirdilar...

Ikkinchi marta baravariga o'q uzilganidan keyin ayollar faryod ko'tarishdi-yu, xaloyiq orasidan chiqib, turtinishib, bolalarini yetaklab qochishdi. Keyin kazaklar ham tarqala boshlashdi. Bu dahshatli xunrezlik, jon berayotganlarning baqirishi, xirillashi, o'z navbatini kutib turganlarning yig'i-sig'isi — odamlarni qochishga majbur qildi. Faqat o'layotganlarni ko'raverib ko'zlari pishib qolgan frontchilar bilan qahr-u g'azabga to'lgan chollardan bir nechtasigina qoldi.

Kiyim-boshlari yechib olingan, yalangoyoq qizil gvardiyachilarni ketma-ket olib kelib turdilar, odam otishga talabgor bo'lganlar o'zgarib turar, baravariga o't ochilar, goh-gohda yakkam-dukkam o'q ovozi eshitilardi. Chala o'liklarni bir o'q bilan jo-bajo qilishardi. Tanaffus vaqtida birinchi navbatda otilganlar ustiga naridan beri tuproq tortib qo'yishardi.

Podtelkov bilan Krivoshlikov navbat kutib turgan sheriklarining oldiga kelib, ularga dalda berishga urinar, lekin aytilgan so'zlar ta'sir qilmas — bir daqiqadan keyin hayotlari bandi qirqilgan olmadek uzilib ketadigan bu odamlarning ongini boshqa his-tuyg'ular qamrab olgan edi.

Gritoriy Melexov siyraklashib qolgan olomonning orasini yorib o'tib, qishloq tomon ketar ekan, Podtelkovga yuzma-yuz kelib qoldi. Podtelkov tisarilib, ko'zlarini qisib qaradi:

— Melexov, sen ham shu yerdamisan?

Grigoriyning yuzi bo'zarib ketdi-da, to'xtab:

— Ha, shu yerdaman, ko'rib turibsan-ku, — dedi.

— Ko'rib turibman... — deb og'zini qiyshaytirib kuldi Podtelkov. Nafrati qo'zg'ab, Grigoriyning bo'zargan basharasiga tikildi. — Nima, o'z birodarlaringni otib o'ldiryapsanmi? Aynidingmi?.. Voy, seni qara-yu... — shunday deb Grigoriyga yaqin kelib shipshidi: — Demak, sen biznikilarga ham, ularga ham xizmat qilarkansan-da? Qaysi biri durustroq to'laydi? O'lganing yaxshi-ya!..

Grigoriy uning yengidan ushlab, bo'g'ilib so'radi:

— Glubokaya yaqinidagi jang esingdami? Ofitserlarni otganlari esingdadir... Sen ottirgan eding! To'g'rimi? Endi senga navbat keldi. Ko'p diqqat bo'lma! Sendan boshqa ham birovlarning terisiga somon tiqadiganlar yo'q emas! Don sovnarkomining raisi, kuning bitgan! Sen haromi, kazaklarni juhudlarga sotding! Tushundingmi? Yana bir gap aytaymi?

Xristonya g'azabi qaynab ketgan Grigoriyni quchoqlab, bir chekkaga olib chiqdi.

— Yur, otlarning oldiga boraylik. Ketdik. Bizning bu yerda qiladigan ishimiz yo'q. Yo xudo, odamlarga nima bo'ldi-ya?

Ular jo'nab ketishdi, biroq Podtelkovning ovozini eshitib to'xtashdi. Frontchilar va chollar qurshovida qolgan Podtelkov ehtirosli ovoz bilan baqirib gapirardi:

— Sizlar johil va ko'zi ochilmagan odamsizlar! Ko'rsizlar! Ofitserlar sizlarni laqillatib, qon-qardoshlaringizni o'ldirishga majbur qilyapti! Bularni o'ldirish bilan qutulib qolamiz deb o'ylaysizlarmi? Hozir qo'lingiz baland, lekin ertaga esa sizlarni otib o'ldirishadi! Sovet hokimiyati Butun Rossiyada barpo bo'ladi. Mening gaplarim esingizda tursin! Sizlar nohaq qon to'kyapsizlar! Ahmoq odamsizlar!

Bir chol xaloyiq orasidan sakrab chiqib:

— Biz ularni ham bir yoqlik qilamiz! — dedi.

— Bobo, siz hammani otib o'ldirolmaysizlar, — deb kuldi Podtelkov. — Butun Rossiyani dorga tortolmaysizlar. O'z kallangizga ehtiyot bo'ling! Keyin attang deb yurmang!

— Sen bizga do‘q uraverma!

— Men do‘q urayotganim yo‘q. Men sizlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatyapman.

— Sen o‘zing ko‘rsan, Podtelkov! Moskva ko‘zingga parda tutib qo‘ygan!

Grigoriy uning so‘zini oxirigacha eshitmadi, otini bog‘lab qo‘ygan qo‘raga qarab chopdi. Ot o‘q tovushlarini eshitib bezovtalanib turardi. Grigoriy bilan Xristonya ayilni tortib, qishloqdan ot choptirib chiqib ketdilar, qayrilib orqalariga ham qaramay, tepalikdan oshib o‘tdilar.

Ponomaryovda esa hamon o‘qlar tutun chiqarib varanglar: Vyoshenskaya, Kargin, Bokov, Krasnokutsk, Milyutin kazaklari Kazansk, Migulin, Razdorsk, Kumshatsk, Baklanov kazaklarini otib o‘ldirmoqda edilar.

Xandaq o‘liklarga to‘ldi, uning ustiga tuproq tortib, tepkilab shibbaladilar. Qora maska kiygan ikki ofitser Podtelkov bilan Krivoshlikovni yetaklab, dor tagiga olib keldi.

Podtelkov mardlik bilan mag‘rur boshini ko‘tarib, kursi ustiga chiqdi, qoracha yo‘g‘on bo‘ynidagi yoqasini yechdi va tap tortmay sovunlangan sirtmoqni bo‘yniga soldi. Krivoshlikovni ham olib keldilar, ofitserlardan biri yordamlashib uni kursi ustiga chiqarib qo‘ydi va bo‘yniga sirtmoq soldi.

— O‘lishdan oldin so‘nggi so‘zimni aytishga ruxsat eting, — deb iltimos qildi Podtelkov.

— Ayt!

— So‘raymiz! — deb qichqirishdi frontchilar.

Podtelkov siyraklashib qolgan xaloyiqni qo‘li bilan ko‘rsatib dedi:

— Qarang, bizning o‘lishimizni tomosha qilishni istaganlar naqadar oz qoldi. Vijdon azobiga uchradilar! Biz mehnatkash xalq tarafida turib, uning manfaati uchun general ko‘ppaklarga qarshi jonimizni ayamay jang qildik, mana endi kelib-kelib, sizning qo‘lingizda halok bo‘lyapmiz! Ammo biz sizdan gina qilmaymiz!.. Sizlar qattiq aldangansizlar! Axir revolyusion hokimiyat o‘rnatiladi, o‘shanda haq kimning tomonida ekanini tushunib olasizlar. Bugun siz Tinch Donning eng yaxshi farzandlarini mana shu chohga jo qildingizlar...

G‘ovur-g‘uvur ko‘tarilib, Podtelkovning ovozi aniq eshitilmay qoldi. Ofitserlardan biri bundan foydalanib, epchillik bilan Podtel-

kovning oyog'i ostidagi kursini urib yiqitdi, uning og'ir barvasta gavdasi silkinib ketib osilib qoldi, oyog'i yerga tegdi. Sirtmoq bo'ynidan bo'g'ib, uni yuqoriga cho'zilishga majbur qildi. U oyog'ining uchiga bosib, boshmaldog'ini shibbalangan nam yerga tiradi-da, o'pkasiga havo oldi va qinidan chiqib ketayozgan ko'zlarini jimib qolgan xaloyiqqa tikib asta dedi:

— Odamni osishni ham bilmaysizlar... Agar sening o'rningda bo'lsam, Spiridonov, oyog'ing yerga tegmas edi...

Uning og'zidan tupuk kela boshladi. Maskali ofitserlar va ular yonida turgan kazaklar shoshib qolishdi, uning kuchsizlangan og'ir, gavdasini kursi ustiga ko'tarib qo'yishdi.

Krivoshlikovga so'zini tugatishga imkon bermadilar: kursi oyog'i ostidan uchib ketib, kimdir tashlab ketgan belkurakka tegib ketdi. Qotmadan kelgan chayir Krivoshlikov anchagacha chayqalib turdi; u goh oyoqlarini yig'ib g'ujanak bo'lib olar, bukilgan tizzalari iyagiga tegar, goh oyoqlarini cho'zib tipirchilardi. Podtelkovning oyog'i ostidan ikkinchi marta kursini olib tashlaganlarida ham Krivoshlikovning joni uzilmagan, o'lim talvasasida, og'zidan qiyshayib chiqib qolgan qora tilini qimirlatardi. Podtelkovning og'ir gavdasi yana osilib, charm kamzulining yelkasidagi choki so'kilib ketdi, yana oyoqlarining uchi yerga tegib qoldi. Olomon «uh» deb yubordi. Ba'zilar cho'qinib, tarqala boshladilar. Odamlar shu qadar shoshib qolgan edilarki, bir daqiqagacha hamma sehrlangandek, qo'rqa-pisa, Podtelkovning qorayib ketgan yuziga qarab qotib qoldi.

Lekin Podtelkov tilsiz bo'lib qolgan, sirtmoq tomog'idan xippa bo'g'ib olgan edi. U faqat ko'zlarini aylantirar, ko'zlaridan seldek yosh oqardi, og'zini qiyshaytirib, azobini yengillashtirish uchun iztirob bilan zo'r berib yuqoriga cho'zilardi.

Kimdar belkurak bilan yerni qazish kerakligini o'ylab topdi. Podtelkovning oyog'i ostidagi tuproqni shoshib-pishib olib tashlay boshladi, borgan sari mahkumning gavdasi pastga tushib, bo'yni borgan sari uzaya bordi; Podtelkovning sochi jingalak boshi shilq etib orqasiga tushib ketdi. Arqon olti pudli og'irlikni zo'rg'a ko'tarib turardi. Arqon dorga bog'langan yerida g'ijirlab, lapanglay boshladi, Podtelkov ham uning chayqalishiga monand silkinardi. U go'yo qotillarga qorayib ketgan yuzini, qaynoq so'lakayi va ko'z yoshi oqib tushib turgan ko'kragini ko'rsatish uchun har tarafga aylanardi.

XXXI

Mishka Koshevoy bilan Valet ikki kechadan keyingina Kargindan chiqib yo'lga tushishdi. Dashtni ko'pikdek oppoq tuman qoplagan, daralarda tuman pag'a-pag'a bo'lib suzib yurar, jarlarda cho'kib yotar, tepaliklar yon bag'ridan pastga sirg'anib tushar edi. Ustlarini tuman qoplagan tepalar oy nuriga cho'mgan. Ko'rpa bo'lgan maysazorda bedanalar sayrardi. Osmondagi oy qamish, qiyoq o't bosib ketgan hovuzda ochilgan nilufar singari suzib yurardi.

Mishka Koshevoy bilan Valet tong otguncha yo'l yurishdi. Hulkar yulduzining rangi o'chdi. Shudring tusha boshladi. Ular Nijne-Yablonovsk xutoriga yaqinlashdilar. Shu yerda xutorga uch chaqirim qolganda tepalik ustida kazaklar ularni quvib yetdi. Oltita otliq kazak izma-iz kelayotgan edi. Mishka bilan Valet o'zlarini chetga olib bekinmoqchi bo'lishdi-yu, lekin hali, o't o'smagan, atrof sutdek oydin edi. Ular qo'lga tushib qolishdi... Ikkovini izlariga haydab ketishdi. Yuz sarjin joygacha indamay borishdi. Keyin birdan o'q chiqdi. Valetning oyog'i chalishib, o'z soyasidan hurkib ketgan otdek yon tomonga qarab yurib ketdi. U birdan yiqilib tushmadi, sekin yerga yotib, ko'm-ko'k shuvoq o't ustiga yuzini qo'ydi.

Mishka es-hushidan ayrilib, besh daqiqacha indamay bordi, uning qulog'i shang'illar, oyoqlari mayishar edi. Keyin:

— Nega otmaysizlar, itvachchalar? Nega odamni xunob qilasizlar? — deb so'radi. Kazaklardan biri muloyimlik bilan:

— Indamay ketaversang-chi, — dedi. — Mujikni o'ldirdik, ammo senga rahmimiz keldi. Sen German urushida o'n ikkinchi polkdamiding?

— Ha, o'n ikkinchi polkda.

— Yana o'n ikkinchi polkda xizmat qilasan. Hali yosh yigitsan, ammo biroz yo'ldan adashding, mayli hechqisi yo'q. Senga davo topamiz.

Mishkani uch kundan keyin Kargin stanitsasidagi harbiy-dala sudi «davoladi». O'sha kunlari sud ikki turli jazo chorasini qo'llardi: otish va savalash. O'limga hukm qilinganlarni kechasi stanitsa tashqarisiga olib chiqib, Qum qo'rg'on orqasida gumdon qilar edilar, tuzalishiga ko'zi yetganlarni esa maydonda, xaloyiqning ko'z o'ngida xipchin bilan savar edilar.

Yakshanba kuni maydon o‘rtasiga o‘rindiq qo‘yilishi bilan xaloyiq yig‘ila boshladi. Butun maydon, sahni, do‘konlarning peshtaxtalari, omborxonalar, uylar, do‘konlarning tomlari odamga to‘ldi. Birinchi bo‘lib, Grachyov qishloq popining o‘g‘li Aleksandrovni kaltaklashdi. Uni o‘taketgan bolshevik der edilar, ishiga qaraganda otilishi kerak edi-yu, lekin otasi yaxshi va obro‘li pop edi, shu sababdan, sudda popning o‘g‘lini yigirma tayoq bilan jazolashga qaror qilishdi. Aleksandrovning shimini pastga tushirib, yalang‘och holda o‘rindiqqa yotqizishdi, kazaklardan biri oyog‘i ustiga o‘tirdi (qo‘llarini taxta tagidan o‘tkazib bog‘lab qo‘yishgan edi), ikki kazak bir dastadan tol novdasini ushlab ikki tomonda turishdi. Aleksandrovni rosa savalashdi. U o‘rnidan turib, bir silkindi-da, shimini ko‘tarib, to‘rt tomonga ta’zim qildi. Otmaganlariga u juda xursand edi, shuning uchun ta’zim qilib, tashakkur bildirdi:

— Rahmat, hurmatli qariyalar!

— Hechqisi yo‘q, sog‘ bo‘l! — deb javob qildi allakim.

Maydondagilar baravariga hoholab kulib yuborishdi, hatto sal nariroqdagi omborxonada o‘tirgan mahbuslar ham jilmayib qo‘yishdi.

Sud hukmiga muvofiq Mishkani ham xipchin bilan yigirma marta savaladilar. Ammo uyat — kaltak yeyishdan ham yomonroq edi. Butun stanitsa — yetti yashardan tortib yetmish yoshigacha — hamma tomosha qilib turardi. Mishka chalvarini ko‘tarar ekan, yig‘lamoqdan beri bo‘lib, o‘zini savalagan kazakka:

— Bema’nigarchilik, — dedi.

— Nega endi?

— Bosh o‘ylaydi, k... javob beradi. Umr bo‘yi kishining boshi xijolatdan chiqmaydi.

— Hechqisi yo‘q, uyat esdan chiqib ketadi, — deb uni yupatdi kazak. So‘ngra jazolangan yigitning ko‘nglini olish uchun: — Ammo mard ekansan: ikki marta qattiq tushirdim, dodlarmikinsan deb o‘ylagan edim, qarasam... yo‘q, seni dodlatish mumkin emas ekan. Tunov kuni bittasini savalagan edilar, boyoqish ishtonini bulg‘atdi. Mazasi yo‘q yigit ekan, — dedi.

Sud hukmiga muvofiq Mishkani ertasigayoq frontga jo‘natdilar.

Valetning o‘ligini ikki kundan keyin topishdi: xutor atamani yuborgan yablonovsklik ikki kazak sayozgina go‘r qazidi-da, anchagacha oyoqlarini osiltirib, papiros chekib go‘r yoqasida o‘tirishdi.

— Bu tomonning yeri zarang ekan, dedi ulardan biri.

— Tosh-metin!

— Sira haydalmaganidan zarang bo'lib ketgan.

— Ha-da... yigit yaxshi yerda, tepalikda yotadi... Bu yerda shamol o'ynab turadi, yeri quruq kungay ekan... Tezda chirimaydi.

Ular o't ustida yotgan Valetga qarab qo'yib o'rinlaridan turishdi.

— Etigini yechib olamizmi?

— Bo'lmasa-chi? Etigi hali but-butun. Valetni qabrga xristian qoidasiga muvofiq: yuzini kunbotar tomonga qaratib yotqizib, keyin ustiga qalin qilib tuproq tortib yuborishdi.

Qabr tuproqqa to'lgandan keyin kazaklarning yoshrog'i:

— Tepkilab tekislaymizmi? — deb so'radi.

— Keragi yo'q, shundayligicha qolaversin, — deb xo'rsindi boshqasi. — Tongla qiyomatda Isrofil surini tortganda go'ridan turish o'ng'ayroq bo'ladi...

Yarim oydan keyin kichkina go'r ustida bargizub, shuvoq o't o'sib chiqdi, yovvoyi suli boshoq chiqardi, go'rning yonginasida sariq gulli yovvoyi o't, qashqarbeda ko'karib, popuk chiqardi, jambil, ixroj va boshqa o'tlar ko'kardi. Ko'p o'tmay yaqin oradagi qishloqdan bir chol kelib, qabrning bosh tomonini qazib, yaxshilab randalangan eman ustun o'rnatdi, ustunga bibi Maryam suratini qoqib qo'ydi. Uchburchakli taxtadan qorong'i kechada bibi Maryamning ma'yus chehrasi parpirab ko'rinar, ikonaning ostidagi rahiga slavyan yozuvi bilan qora siyohda quyidagilar yozilgan edi:

Zamona notinch bo'lsa, buzilsa agar,
Do'stingni yomonlama, aziz birodar.

Chol ketib qoldi, cho'ldagi bu ziyoratgoh o'zining mungli manzarasi bilan o'tgan-ketganlarning dillarini siyoh qilardi.

May oyida qabr yonida bazg'aldoqlar bir-biri bilan urishdi, o'tlarni toptab «qo'narg'a» yasashdi, tevarakdagi ko'm-ko'k bo'lib o'sib ketgan bug'doyiqlarni oyoqosti qilib, makiyon, hayot, sevgi va palapon qoldirish uchun jang qilishdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, qabr yonida shoxlab ketgan shuvoq o't tagida makiyon bazg'aldoq to'qqizta kulrang xol-xol tuxum qo'ydi, tuxumlarini yaltiroq qanotlari ostiga olib, badanining harorati bilan isitib yotdi.

ESLATMA

«Tinch Don» romanining ikkinchi kitobi asosan fevral inqilobi, general Kornilovning monarxiyani tiklash yo'lida qilgan fitnasi, Oktabr inqilobining birinchi kunlarida ro'y bergan tarixiy voqealarga bag'ishlangan. Yozuvchi bu kitobida 1917-yilning oxiri, 1918-yil boshlarida Donda ro'y bergan aksilinqilobiy chiqishlarga qarshi olib borilgan kurashni tasvirlaydi.

Bu hodisalarni badiiy shaklda tasvirlash g'oyat mushkul edi, chunki roman yozilayotgan mahalda konkret tarixiy material hali hech o'rganilmagan, ko'pgina muhim hujjatlar e'lon qilinmagan, o'sha davrni yetarli darajada chuqur oydinlashtiradigan ilmiy asarlar yo'q edi. Ba'zi bir tarixiy voqealar to'g'risida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalar orasida V. Vladimirovaning «1917-yilda kontrrevolyusiya» («Kornilov fitnasi) degan kitobini (M. 1924), «Kornilov qo'shini qayerda» degan maqolani ko'rsatib o'tish mumkin («Izvestiya Rostovo-Naxichevanskogo Soveta rabochix i soldatskix deputatov» gazetasining 1917-yil 2/15-sentabr sonida).

Burjua vaqtli matbuotida bosilib chiqqan xabarlar ham diqqatga sazovordir, chunonchi: «General L. G. Kornilovning Moskvada bo'lishi» «Russkoye slovo» gazetasining 1917-yil 15/28-(avgustdagi soni), «General Kornilov, Denikin va boshqalarning qochishi «Russkoye slovo» gazetasining 1917-yil 21-noyabr (4-dekabr soni), shuningdek kontrrevolyusion harakatning sobiq yo'lboshchilari bo'lgan oq emigrantlarning xotiralarini ko'rsatish mumkin. Lekin bu xotiralarda tarixiy xolislik yo'q.

Yozuvchi o'z romani ustida ishlayotgan mahalda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu xilma-xil materiallarni tanqid ko'zi bilan ko'rib chiqib, ulardan ustalik bilan foydalangan.

Yozib tugatilmagan «Donshchina» povestining ayrim parchalari, (ushbu asarlar to'plamining 2-tomiga yozilgan eslatmaga qarang) romanning to'rtinchi qismidagi Kornilov isyoni bayon qilingan boblarning asosiy mazmunini tashkil etadi, bu boblar syujet jihatidan Grigoriy Melexovning boshidan kechirgan voqealar bilan bog'lanmaydi. Ilgari yozilgan parchalar romanga uzviy ravishda kiritilgan – romanning kompozitsiyasi va uslubini saqlab qolish va asarning butunligi hamda izchilligini buzmaslik uchun yozuvchi ilgari yozgan parchalarni qunt bilan qaytadan ishlab chiqqan.

Romanning teksti, har holda M.A. Sholoxovning arxiv manbalari hamda memuarlar bilan tanishligini ko'rsatadi. Ba'zi bir hujjatlar kitob matnining muhim qismini tashkil etadi. Ayrim voqealarning tafsilotini, xususan, keng xalq ommasining kayfiyati, turli ijtimoiy guruh va siyosiy tashkilotlarning bir-biri bilan to'qnashi to'g'risidagi ma'lumotlarni yozuvchi o'sha voqealarda qatnashgan kishilar og'zidan eshitib yozgan.

«Tinch Don» romanining ikkinchi kitobida tarixiy shaxslarga ko'p o'rin berilgan, bular orasida biz inqilob tomonidan ag'darilgan podsholik arboblari, turli siyosiy partiya rahbarlari, kazak qo'shin atamanlari, oq gvardiyachi generallar, Don Qo'shin kengashining rahbarlari va boshqalarni ko'ramiz.

Inqilobiy xalq vakillari bo'lgan Podtelkov, Krivoshlikov, Shchadenko, Golovachyov, Minayev, Lagutinlarning obrazi ham romandagi voqealar bilan chambarchas bog'langan. Romanning beshinchi qismi, asosan, bu xalq vakillarining qahramonliklarini tasvirlashga bag'ishlangan.

Ma'lumki, Donda sovet tuzumini o'rnatish uchun kurashgan Fyodor Grigoryevich Podtelkov (1886–1918), Mixail Vasilyevich Krivoshlikov (1894–1918), Ivan Lagutin inqilobning birinchi kunidan boshlab og'ishmay inqilob tomoniga o'tgan edilar, bu iste'dodli odamlar Donda kontrrevolyusiyaga qarshi kurashga juda zo'r ta'sir ko'rsatdilar.

Bu shaxslardan Podtelkovga romanda ko'proq o'rin berilgan.

Fyodor Grigoryevich Podtelkov Ust-Xopyor stanitsasiga qarashli Krutovsk xutorida kambag'al kazak oilasida dunyoga keldi. Uch yoshga kirganda otadan yetim qolib, bobosining qaramog'ida yashadi.

1912-yili Podtelkov armiya safiga xizmatga chaqirildi va gvardiya batareyasiga tayinlandi. Gvardiya batareyasiga eng bo'ydor va baquvvat kazaklarni tanlab olar edilar. Tabiatan serfahm, keskin va matonatli odam bo'lgan Podtelkov xizmat ko'rsatib vzvod uryadnigi darajasiga ko'tarildi, batareyani frontga jo'natish vaqtida esa u vaxmistr edi. Jangda ko'rsatgan qahramonligi uchun ikki Georgiy kresti va «Jasorati uchun» medali bilan mukofotlandi.

Podtelkovning butun hayoti inqilobni qabul qilishga uni tayyorlab qo'ygan edi. Oktabr inqilobida bo'lgach, bu favqulodda qobiliyatli odam butun kuch-g'ayrati bilan mehnatkash xalqqa xizmat qilishga kirishdi. Podtelkov o'z iste'dodi soyasida Donda Sovet hokimiyatini o'rnatish va mustahkamlashda jonbozlik ko'rsatgan kurashchilarning birinchi qatoridan o'rin olgan. Chunonchi, qirq olti polkdan vakil bo'lib kelgan frontchi kazaklarning 1918-yil 10(23)-yanvarda Kamenskda chaqirilgan qurultoyida F.G. Podtelkov va uning safdoshi M.V. Krivoshlikov Don Harbiy-inqilobiy komiteti tarkibiga kirdilar, Podtelkov — bu komitetning raisi, Krivoshlikov — kotibi qilib saylandi.

Podtelkov rais bo'lib saylangan kunning ertasiga, bir talay kazaklar yig'ilgan mitingda shunday degan edi: «Otalar, aka-ukalar, men hech bir partiyaga a'zo bo'lib yozilgan emasman, bolshevik emasman. Mening maqsadim adolat va butun mehnatkashlarning baxt-saodati hamda qardoshlik ittifoqidir, toinki, hech qanday zulm, hech qanday quloqlar, burjuylar, boyonlar qolmasin, hamma erkin va to'g'ri hayot kechirsin... Bolsheviklar mana shu narsalarni amalga oshirish uchun kurashayotgan bo'lslar men aybdormi? Bolsheviklar — ishchilardir, ya'ni biz kazaklar singari mehnatkashlardir. Faqat ishchi-bolsheviklar bizdan ko'ra ongliroq va inoqroqdirlar; bizni jaholatda asrab kelganlar, ular esa shaharlarda yashab, hayotni bizga qaraganda yaxshiroq tushunib olganlar. Bundan chiqdi, men bolshevikman, ammo bolsheviklar partiyasiga yozilgan emasman». Yozuvchi romanning 5-qismidagi IX bobda Podtelkovning nutqini keltirgan, bu nutq M. Korchinning «Donda Sovetlar uchun kurash» degan kitobida keltirgan Podtelkov nutqining aynan o'zidir. (Rostov N/D, 1947, 54 s.)

Don sotsialistik respublikasi Sovetlarining 1918-yil 13-aprelda Rostov-na-Donuda chaqirilgan birinchi syezdi Podtelkovni Don respublikasi Xalq Komissarlar Sovetining raisi qilib sayladi. Don respublikasining Markaziy Ijroiya komiteti G. K. Orjonikidze boshliq favqulodda mudofaa shtabi tuzgan edi. Podtelkov shu shtabning qarori bilan Ust-Medveditsa bilan Ust-Xopyor okruglariga yuborilgan ekspeditsiyaga boshchilik qildi. Romanda bu ekspeditsiyaning fojiali halokati tasvirlangan.

Podtelkov boshchiligidagi ekspeditsiya fojiasini tasvirlashda M. A. Sholoxov bu voqeani o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilarning og'zidan eshitgan hikoyalardan tashqari bir qator kitob va maqolalar hamda arxiv materiallaridan foydalangan. Ekspeditsiya a'zosi bo'lgan, Podtelkov otryadini qurolsizlantirishda tasodifan qutulib qolgan siyosiy xodim A. Frenkel o'zining «Podtelkov ekspeditsiyasining halokati» nomli maqolasida (Izvestiya SIK Donskoy Sovetskoy respubliki i Saritsinskogo shtaba Krasnoy Armii» gazetasi. 1918-yil 8-iyun № 5) hamda «Revolyusiya burgutlari» nomli kitobida (Rostov N/D, 1920)da bir talay faktlarni keltirgan. 1927-yili, M.A. Sholoxov o'z romani ustida ishlayotgan pallada Dan-Delertning «Don o't ichida» degan kitobi bosilib chiqdi. Podtelkov bilan Krivoshlikovga bag'ishlangan bu asar, asosan, A. Frenkel tomonidan keltirilgan faktlarni bayon etadi. Ammo bu materiallar yetarli emas edi, yozuvchi Rostov va Moskva arxivlarida ishlab, amaldorlarning yozishmalari, turli majlislarning protokollari, o'sha pallada tarqatilgan inqilobiy xitobnomalar bilan tanishib chiqdi. Romanning beshinchi qismidagi XXVII bobda keltirilgan Podtelkov bilan Lagutin o'rtasidagi suhbat ham M. Korchinning «Don kazaklari» nomli kitobidagi (Rostov-na-Donu, 1949, 112-bet) hujjatga juda mosdir.

Podtelkov ekspeditsiyasining ishtirokchilaridan Mixail Vasilyevich Krivoshlikov Yuqori Don okrugidagi Ushakov xutoridagi bir temirchi oilasida dunyoga keldi. U Yelandagi ikki sinfli maktabni «a'lochi» bo'lib tugatdi. Otasi ko'p mashaqqatlar bilan uni «xazina hisobiga» o'rta qishloq xo'jaligi o'quv yurtiga joylashtirdi. (Bu maktab Novocherkassk yaqinidagi Persianovkadan edi). Krivoshlikov a'lo baho bilan o'qidi, o'quvchilarning «Dastlabki qadamlar» jurnaliga muharrirlik qildi. O'quv yurtini bitirgandan so'ng uni Salsk okrugiga agronom qilib yubordilar. M.Krivoshlikov ma'lumotini oshirish uchun Kiyev savdo-tijorat institutiga sirtqi o'qishga kirdi, ammo shu orada urush boshlanib qoldi-yu, uni armiya safiga chaqirdilar. M. Krivoshlikov Novocherkasskdagi harbiy maktab qoshidagi qisqa muddatli kurslarni bitirib, 1917-yil iyun oyida frontga jo'nadi. Otasining ot sotib olib berishga qurbi yetmadi (kazak armiyasida o'z oti bilan xizmat qilishi kerak edi), shu sababdan Krivoshlikov 28-Don kazak polkidagi piyoda razvedkachilar komandiri qilib belgilandi. U frontdan otasiga yuborgan xatida: «...Dada, ofitserlar mendan kulyaptilar, rostdan ham piyoda askar bo'lib xizmat qilish juda og'ir. Hech bo'lmasa xazinadan qarz so'rab ot sotib oling» deb yozgan edi. Otasi ot xarid qilib, frontga jo'natdi. Shundan keyin Krivoshlikov sotnya komandiri vazifasiga belgilandi. Fevral inqilobidan so'ng u polk komiteti raisi qilib saylandi. Qo'zg'olon ko'targan 5-kazak diviziyasi (28-polk ham shu diviziya tarkibida edi) oldindagi pozitsiyalarni tashlab, Donga jo'nadi, Kamensk stansiyasi rayonida joylashdi. Krivoshlikovning Podtelkov bilan birgalikda olib borgan revolyusion faoliyati ana shu yerda boshlandi.

O'limi oldidan yozgan xati Krivoshlikovning haqiqiy kurashchi, matonatli va mard inson ekanligini yana bir marta tasdiqlaydi. U o'z xatida shunday deb yozgan edi: «Dadam, oyim, bobom, buvijonim, Natasha, Vanya va boshqa qavm-qarindoshlarga ma'lum bo'lsinki, men oxirigacha kurashishga jazm qildim. Bizni aldab asir qilib oldilar, endi qurolsizlantirib o'ldiryaptilar. Ammo sizlar qayg'urmang, ko'z yoshi qilmang. Men o'lyapman, lekin ishonamanki, ular haqiqatni o'ldirolmaydilar va bizning chekkan azoblarimiz qon bilan yuviladi... Alvido. Mehribon o'g'lingiz Misha. R.S. Dadajon! Hamma tinib-tinchiganidan keyin, mening qallig'imga xat yozib yuboring: Poltava guberniyasidagi «Volki» qishlog'ida turuvchi Stepanida Stepanovna Samoylenkoga, u bilan uchrashish to'g'risidagi va'damga vafo qilolmaganimni yozing» (I. Gorelov. «Podtelkov va Krivoshlikov» Rostov-na-Donu, 1937).

Yozuvchi bir necha iliq so'z bilan bu murakkab, nozik shoirtabiatli ilg'or revolyusioner obrazini yarata bilgan.

Podtelkov bilan Krivoshlikovning eng yaqin jangovar do'stlaridan biri 14-Don kazak polkining uryadnigi Ivan Lagutin edi.

Petrograddagi Oktabr qo'zg'olonining ishtirokchisi bo'lgan va u yerda janglarda chiniqqan bu odam ikkinchi chaqiriq Sovetlar Markaziy Ijroiya Komiteti qoshidagi kazak komitetining birinchi raisi qilib saylandi. U Petrograddan Donga kelgandan keyin tap tortmay revolyusion ishni kuchaytirib yubordi. «Tinch Don»da Lagutin obrazi ko'p o'rin ishg'ol qilmaydi, ammo inqilobiy harakatning ishtirokchisi bo'lgan bu odamning obrazi kishini ishontirarli va haqqoniy sur'atda tasvirlangan.

«Tinch Don» romanining ikkinchi kitobi – «Oktabr» jurnalining 1928-yilda chiqqan sonlarida (buning «Ikkinchi kitob» ekanligi ko'rsatilmay), bevosita birinchi kitobdan keyin bosilgan (romanning to'rtinchi qismi – jurnalning 5- va 6-sonlarida, beshinchi qismi esa – 7-, 8- va 9-, 10-sonlarida bosilgan), o'sha yil, ya'ni 1928-yilda «Tinch Don»ning to'rtinchi qismi «Roman – gazeta» (17-soni)da bosilib chiqqan, lekin bu asar romanning ikkinchi kitobi ekanligi ko'rsatilmagan, «Oktabr arafasida» sarlavhasi ostida nashr etilgan. Romanning beshinchi qismi ham «Roman gazeta»ning 1929-yilgi (7-soni)da nashr etilgan. Yana avvalgidek uning «Ikkinchi kitob» ekanligi ko'rsatilmay, «Tuyoq ostidagi qon» sarlavha ostida bosilgan. «Roman-gazeta»da e'lon qilingan «Tinch Don» romanining boblariga tartib raqami qo'yilmagan, ammo har bobga nom qo'yilgan (chunonchi: «Ofitserlar yerto'lasida», «Front barbod bo'lmoqda», «Hamkorlar», «Urushib bo'ldilar!», «Halokatli zamon», «O'n yettinchi putyovka» va shu kabilar).

Romanning to'rtinchi va beshinchi qismlari «Moskovskiy rabochiy» nashriyoti tomonidan bosib chiqarildi, M. L. 1929. (Bu asar romanning ikkinchi kitobi» ekanligi ko'rsatilgan edi). O'shandan beri u birinchi kitob bilan birga qayta-qayta nashr etildi.

«Tinch Don» romani birinchi, ikkinchi kitobining badiiy jihatdan yuksakligi A.M. Gorkiyning diqqatini o'ziga jalb etdi. 1929-yil yozida bosilib chiqqan «Ishchilar sinfi o'z madaniyat ustalarini tarbiyalab yetishtirishlari zarur» degan maqolasida A.M. Gorkiy shunday deb yozgan edi: «Fadeyev, Sholoxov singari talantlar kamdan kam uchraydi. Ammo ko'rib turibmizki, ishchilar sinfi ularning badiiy mahoratlariga juda to'g'ri baho berdi (M. Gorkiy, o'ttiz tomlik asarlar to'plami, 25 t. M. 1953, 44-bet).

MUNDARIJA

To'rtinchi qism.....3

Beshinchi qism.....194

Ilolatma.....402

Abadiy-badiiy nashr

MIXAIL ALEKSANDROVICH SHOLOXOV

TINCH DON

TO'RT KITOBLI ROMAN

IKKINCHI KITOB

Tarjimon Mirkarim Osim

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*
To'plab, nashrga tayyorlovchi *Sh. Beknazarova*
Rassom-dizayner *B. Zufarov*
Muharrir *Sh. Beknazarova*
Texnik muharrir *L. Xijova*
Musahhih *G. Pattohova*
Kompyuterda sahifalovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 24-martda ruxsat etildi.
Bichimi 60×90 1/16. Ofset qog'ozi. «New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 25,5.
Nash tabog'i 23,79. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-43.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.
www.iptd-uzbekistan.uz

26643,20.

74

M.A. SHOLOXOV

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-6585-8-5